Iqtisodiy o'sish omillari tizimida 1960 yilda iqtisodchilar T. Shuls va G. Bekker tadqiqotlarida "Inson kapitali" kategoriyasi jiddiy o'rganilgan[5]. "Inson kapitali" omili faqat inson (ta'lim va kasbiy mahoratlar bo'yicha)ga sarflangan investitsiyalar majmui sifatida tushunilib, uning natijasida sotsiumning ishlash qobiliyati oshdi. Yillar o'tib, Ushbu tushunchaga oid kategoriyalar shaxs va umuman jamiyatning xilma-xil ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladigan bilim, ko'nikma hamda malakalar majmui sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi"[6. – C. 102–110.]. XXI asrga kelib, "Inson kapitali"ning o'rniga "bilimlar iqtisodiyoti asri" degan atama ahamiyat kasb eta boshladi. Mazkur iborani birinchi bo'lib nemis olimi F. Mechlar 1962-yilda "Bilimlar iqtisodiyoti" degan asarida qo'llagan edi. Bugungi kunga kelib, XXI asr iqtisodiyotini tavsiflashda Ushbu atamaga tez-tez murojaat qilinib, yangi texnologiyalar asrida yangi bilimlarni shakllantirish, taqdim etish, foydalanish



(iste'mol qilish) va takomillashtirishda alohida o'rin tuta boshladi[7. – C. 62–72.]. Inson kapitali ishlab chiqarish poydevorining hal qiluvchi elementidir; ta'lim iqtisodiyot va jamiyat uchun inson kapitalini rivojlantirish uchun mas'uldir. Ta'lim inson kompetentsiyalari, ijtimoiy me'yorlar, odatlar va ishlab chiqarishni yaxshilash orqali jamiyatning hayot sifatini oshiradi. Bu iqtisodiy-ijtimoiy farovonlikni oshirish uchun mamlakatning ta'limga sarmoyasidir.

Yangi ming yillikda bilimlar zamonaviy muhim jarayonlarni aks ettiruvchi atamalar “globallashtirish”, “axborotlashuv”, “tarmoqlar” va “ekomuhitni yaxshilash va saqlab qolish”da namoyon bo'ladi. Ma'lumki, XX asrning asosiy yutug'i jismoniy mehnat ishtirokchilari (konveyerlar, sanoatni avtomatlashtirish va b.) samaradorligini oshishi bilan ahamiyat kasb etgan. Sotsiolog P. Drukkerning ta'kidlashicha, XXI asrning dominant egalari albatta, “bilimli” va “ilimli” kishilardir. Ularni mutaxassis sifatida yaxshiroq tayyorlash, har qanday mamlakatning intellektual yutug'i hisoblanadi. Bilimli mutaxassis bo'lish har qanday ishda intellektual mehnatning yuqori unumdorligini ta'minlaydi. Mamlakatdagi intellektual salohiyat davlatga investitsiyalar jalb etish imkoniyatini oshiradi va inson kapitalining barqaror, uzoq muddatli o'sishi uchun muhim omil sifatida xizmat qiladi[3. – C. 268.].

### **MUHOQAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)**

Ko'pgina rivojlangan davlatlar, xususan, Yaponiya, Malayziya, Singapur, Janubiy Koreya davlatlarining rivojlanishida ta'lim tizimi hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Bugungi kundagi rivojlanish bizning ham oldimizga ushbu davlatlar singari mehnat bozorida talab katta bo'lgan sohalar bo'yicha kadrlar tayyorlash masalasini qo'yimoqda. Hozirgi davrda jahon bozorida shunday kasb va hunarlar vujudga kelganki, ularning aksariyati universitet va kollejlarda emas, balki oddiy o'quv markazlarida uch yoki bir yilda emas, juda qisqa vaqt ichida tayyorlanmoqda. Bunga ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Masalan, Singapurda ham ta'limga iqtisodiy taraqqiyotning birinchi galdagi vazifasi sifatida qaralgan. Ta'lim sohasini rivojlantirish bilan bog'liq masalalar amerikacha ta'lim modeli bilan o'zaro aloqaga kirishish yo'li orqali hal etildi. Garchi mazkur tizim pullik bo'lsa ham (O'zbekistonda maktab ta'limi bepul) singapurliklar nafaqat 10 yillik maktab ta'limi, balki malaka oshirishga qaratilgan ishlab chiqarishga tayyorlovchi turli kurslarga ham alohida ahamiyat bera boshladilar. Singapurning politexnika maktablari va kollejlarda texnika sohasiga oid bilimlardan tashqari grafika va dizayn asoslari hamda arxitekturaga oid fanlar ham o'qitib borilgan. Ta'lim ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borilgan, asosiy e'tibor amaliyotga qaratilgan[11.–B.92].

Ta'lim yaponlar uchun hali-hanuz eng oliy qadriyat sifatida qadrlanadi. Bir zamonlar Yaponiyada bolalarni o'qimishli qilish uchun kundalik ehtiyojlarga

sarflanadigan harajatlarni tejab, pul jamg'arish an'anasi majud bo'lgan. Yaponlar bolalariga pul va moddiy boyliklarni emas, bilimni meros qilib qoldirishga harakat qilganlar, aniqrog'i, bolalarga qoldirilishi kerak bo'lgan pulni ularning zamonaviy ta'lim olishlari uchun sarflab, shu asosda bolalariga mustaqil pul topa olish imkonini qoldirganlar. Bu esa ularga yuksak ijtimoiy mavqeni ta'minlaydigan davlat lavozimlarida faoliyat ko'rsatishlarini kafolatlagan. Bugungi kunda Yaponiyada joriy qilingan ta'lim tizimi butun jahonga o'rnak bo'larli darajada taraqqiy etgan. Xuddi yurtimizdagi kabi o'z ichiga boshlang'ich va o'rta ta'limni qamrab oluvchi majburiy ta'lim yo'lga qo'yilgan bo'lib, unda yaponiyalik bolalarning deyarli 100%i qamrab olinadi. Ularning 96%i esa 2 bosqich maktab ta'limida tahsil olishadi. Ikkinchi bosqichni tugatgan bolalarning 60%i ta'limni kollej, institut va kasb-hunar bilim yurtlarida davom ettirishadi.

Zamonaviy yapon pedagogikasida ta'lim tizimi bilan uzviy uyg'unlashgan ahloqiy tarbiya tamoyili shakllangan. O'rta asrlardayoq maktablarda amaliy etikaga e'tibor qaratila boshlangan edi. Ushbu maktablarda amaliy boshqaruv kishisi qanday bo'lishi kerakligi haqida tahsil berilar edi. Konfutsiylik aqidalari va buddizm an'analari ta'sirida ta'lim tizimiga nafaqat bilim olish va hunarmandlik ko'nikmalarini oshirish vositasi, shuningdek, ahloqiy va ma'naviy barkamollikni shakllantirish va shu asosida qat'iy intizomlilik fazilatini yuzaga chiqarish vositasi sifatida qarala boshlandi.

### **NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)**

Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'lik sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi[1. – B.224.]. Shu nuqtai nazardan ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar nafaqat mamlakatni rivojlantirishning muhim usuli, inson kapitali va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy siyosatdir. Buning natijasida inson kapitalini takomillashtirib moddiy fapovonlik va sog'lom turmush tarziga erishiladi. Shuni ta'kidlash keppakki, inson kapitali har bir insonning individual kapital shaklidir. Inson qobiliyatlari, bilimlari, ko'nikmalari va tajribasi har bir yosh fuqaroning shaxsiy mulki hisoblanadi.

To'liq o'rta ma'lumotga ega kishilar bilan universitet diplomiga ega mutaxassislar o'rtasidagi farq solishtirilganda, oliy ma'lumotli kishilar topgan daromad va keltirilgan foydadagi afzallik keskin farqlar bilan ajralib turishini ko'rish mumkin. Masalan, Indoneziyada oradagi farq 80 foizdan oshsa, Ushbu ko'rsatkich Paragvayda 300 foizni tashkil etgan. uning faoliyati makon-zamonda cheksiz bo'ladi,

chunki bilimlar ma'lumotlar manbasi sifatida axborotlarni nafaqat manzilga tezda etkazadi, balki tahliliy prognoz asosida istiqbolni belgilaydi[1.–B.94.].

To'g'ri, ta'lim kerak, ammo u tanqidiy fikrlashni shakllantiradigan va inson kapitalini rivjlantirishga qaratilgan bo'lishi shart. O'tgan davr mobaynida ta'limda turli salbiy streotiplar shakllanishi kuzatildi. Jamiyatda ijtimoiy mavqeni oshirish uchungina oliy ma'lumotli bo'lish, qaysi soha bo'lishidan qat'i nazar, oliy ta'limni tanlash yoki yoshlarda maktab ta'limidan so'ng hayotiy pozitsiyalarini talaba bo'lish yoki talabalikka qarab belgilashi kuzatildi. Ta'lim jarayonlarida esa ularga ushbu mahoratlar mexanik tarzda o'rgatildi. Masalan, siz shunchaki ma'ruzalarni tinglaysiz, ma'lum bir detallarni yodlaysiz, formulalarni qo'llaysiz va ta'lim asosan, shundan iborat bo'lgan. Taqdim etilgan fikrni shubha ostiga olish, ochiq bayon etish va asosiysi, mustaqil fikrlashga juda kam holatlarda e'tibor qapatildi.

Bugungi davr talabi va xorij tajribasida ko'rish mumkinki, intellektual madaniyatni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shaxs sifatida o'z fikriga ega bo'lish va o'z fikri bilan bo'lisha olishgina zamonaviy ilm-fan hamda kasblarga egalik qilish mumkin. Ko'pgina rivojlangan davlatlar, xususan, Yaponiya, Malayziya, Singapur va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning rivojlanish japayonida ta'lim tizimi hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Bugungi kundagi rivojlanish japayonlari bizning ham oldimizga ushbu davlatlar singapi mehnat bozorida talab katta bo'lgan sohalar bo'yicha kadrlar tayyorlash masalasini ko'ndalang qo'ymoqda. Hozirgi davrda jahon bozorida shunday kasb va hunarlar vujudga kelganki, ularning aksariyati universitet va kollejlarda emas, balki oddiy o'quv markazlarida uch yoki bir yilda emas, juda qisqa vaqt ichida tayyorlanmoqda. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin.[8. – B. 57.].

### **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)**

Inson kapitali nafaqat xalqaro darajada, balki mahalliy sharoit, shu jumladan, hududiy xususiyatlarga ko'ra ham ta'lim va amaliy faoliyat jarayonida inson tomonidan qo'lga kiritilgan bilim, ko'nikma hamda qobiliyatdir. U birinchi navbatda, kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish va amalga oshirishga imkon beradi. Kapital ta'lim japayoni va ijodiy faoliyatda shakllanadi hamda ijtimoiy ishlab chiqarishning ma'lum bir sohasida qo'llaniladi. Biz oliy ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga ko'tarish, oliy o'quv yurtlari tizimini yanada rivojlantirish, sohadagi mavjud muammolarni baptaraf etish, pirovardida ilm-fanning yirik o'choqlariga aylantirishga alohida e'tibor qaratamiz. Aholining oliy ta'lim bilan qampab olinganlik darajasi muttasil oshirib boriladi[1. – B.230.]

Har qanday inson kapitalining sifat darajasi mamlakat miqyosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga bevosita ta'sir ko'psatadi. Bunda biz (ekspertlar fikri ham)

doimiy ta'kidlab keladigan "ta'lim faqatgina shaxsning kelajakdagi muvaffaqiyati emas, balki jamiyat va qolavepsa millatning jamoaviylikga yo'naltirilgan kelajagiga sapmoya sifatida ta'sir ko'rsatishini ta'kidlashimiz yangicha yondashuv bo'ladi. Inson kapitali ma'lum bir chegara qiymatidan oshib ketganda, jamoaviylikka innovatsion ta'sir ortadi. Oliy ma'lumotli odamlarning yuqori foizga erishishi, bizning nazarimizda "qadriyat va udumlarga asoslangan jamoaviylik"ni "innovatsion jamoaviylik"ka yoki yaratuvchi xalq (millat)ga aylantirish kafolatini beradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, har qanday inson kapitalining rivojlanganlik va mukammalligi asosiy kopponent hissoblanadigan ta'lim sifatiga va davomiyligiga bevosita bog'liq. Zamonaviy oliy ta'limga alohida urg'u berilar ekan, endi diplomli mutaxassis emas, balki raqobatbardosh, malakali va irodasi mustahkam, yangicha davr ruhiga mos fazilatlar (bosiqlik, vazminlik, diplomatiya, muloqot madaniyati, ijobiy xarakter va shu kabilar)ga ega kadrlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Rivojlangan davlatlar va korporatsiyalarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, universitetda olingan ta'lim pragmatik belgilarni ifodalovchi darajaga qarab joylarda bandlik darajasining nafaqat miqdori, shu bilan birga sifatini ham oshiradi.

Yangi O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda barqarorlashib bormoqda, xomashyo tovarlari bilan emas, balki jamiyatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy o'sib borishi aholi "inson kapitali"ning rivojlanishiga bog'liq. Axborotlashgan jamiyatda asosiy mehnat predmeti axborot va bilim muntazam investitsiyalar kiritib, "Yangi O'zbekiston"da inson kapitalidan samarali foydalanish bilan dunyoning yetakchi davlatlari qatoridan munosib o'rin egallash, "Aqllar ko'chishi" tahdidining oldini olish, faol fuqarolik pozitsiyasini moddiy-ma'naviy rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)**

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент: О'zbekiston, – 2021. – Б.230.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси // Халқ сўзи. 2020 йил 25 январь.
3. Питер Ф. Друкер. Эффективный управляющий. – М.: ВЦИ, 1994. – С. 268.
4. Корицкий А. В. Введение в теорию человеческого капитала // [http://sibupk.nsk.su/New/04/chairs/c\\_theory/kapital/book1.htm](http://sibupk.nsk.su/New/04/chairs/c_theory/kapital/book1.htm)
5. Becker G. S. Human capital: A theoretical and empirical analysis, with special reference to education. – University of Chicago press, 2009.// Becker G. S. Human capital and the economy //Proceedings of the American philosophical society. – 1992. – Т. 136. – №. 1. – С. 85-92.// Becker G. S. Nobel lecture: The economic way of



looking at behavior //Journal of political economy. – 1993. – Т. 101. – №. 3. – С. 385-409.// Schultz T. W. Capital formation by education //Journal of political economy. – 1960. – Т. 68. – №. 6. – С. 571-583.// Schultz T. W. Reflections on investment in man //Journal of political economy. – 1962. – Т. 70. – №. 5, Part 2. – С. 1-8. // Schultz T. W. Investment in poor people. – US Department of Labor, Manpower Administration, 1967.

6. Каменских Е. А. Концептуализация формирования человеческого капитала в социоэкономической системе региона // Научные сообщения. Экономика и управление. – 2010. – №5. – С. 102–110.

7. Хаджалова Х. М. Человеческий капитал современной семьи // Креативная экономика. – 2014. – №11 (95). – С. 62–72.

8. Содиржонов М. М. Инновацион таракқиёт йўлида инсон капиталини ривожланиш жараёнларини оптималлаштириш имкониятлари // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2020. – №2 (88). – Б. 57.

9. Содиржонов, М. "Инсон капитали ривожини шахсинг онги, билими, ахлоқ-одоби, дунёкарашига боғлиқ." "Янги Ўзбекистон" газетаси 10 (2022).

10. Содиржонов М. М. Инновацион таракқиёт йўлида инсон капиталини ривожланиш жараёнларини оптималлаштириш имкониятлари // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2020. – №2 (88). – Б. 57.

11. Содиржонов М. М. Инсон капитали ривожланиш жараёнларининг этносоциологик хусусиятлари (Фарғона водийси мисолида). Социология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2022. – Б. 94.

## **THE PROBLEMS FACED BY THE LEARNERS OF ARABIC LANGUAGE AS NON-NATIVE SPEAKERS**

**Tojjeva Zamira Zafar kizi**

2<sup>nd</sup> year master's student in Linguistics

Samarkand State Institute of Foreign Languages

+998908709095

Zamirat@gmail.com

**Sh.I. Akhmedov**

Lecturer, Department of Middle Eastern Languages, SamSIFL

+998937231524

shaxzodahmedov310@gmail.com

### **ABSTRACT**

*Today's learners have a plenty of chances in learning any new languages, however, there are some challenges when going into foreign languages. Nowadays more and more people are interested in learning Arabic language, and fascinated by Arabic world by the strategic importance of its people and the region they occupy. Moreover, there is a great deal of adherence of Arabic learners because of various goals such as cultural, religious, financial concerns. Also, Arabic as an evaluative language in academic settings is determined by a certain lexico-grammatical set, which, when directly translated into other languages. In this article the focus will be on the problems of non-native speaking learners of Arabic language and are illustrated several experienced challenges.*

**Keywords:** *non-native learners, MSA, CA, colloquial spoken Arabic, Arab countries, challenges, speaking or listening competences, Arabic language teaching programs.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Сегодняшние учащиеся имеют много шансов в изучении любых новых языков, однако при переходе на иностранные языки возникают некоторые проблемы. В настоящее время все больше и больше людей заинтересованы в изучении арабского языка и очарованы арабским миром из-за стратегической важности его людей и региона, который они занимают. Более того, существует большая приверженность изучающих арабский язык из-за различных целей, таких как культурные, религиозные и финансовые проблемы. Также арабский как оценочный язык в академических условиях определяется определенным лексико-грамматическим набором, который при прямом переводе на другие языки. В этой статье основное внимание будет уделено*

*проблемам изучающих арабский язык, не являющихся носителями языка, и проиллюстрированы несколько испытанных проблем.*

***Ключевые слова:** учащиеся, не являющиеся носителями языка, MSA, CA, разговорный разговорный арабский язык, арабские страны, проблемы, навыки говорения или аудирования, программы обучения арабскому языку.*

## **INTRODUCTION**

Arabic is unique and challenging language at the same time. It is spoken both by more 400 million native speakers with wide range of dialects around Arabic countries and more 500 million people across the world. In the Middle centuries it became official and scientific language of almost all Muslim countries. However, nowadays Arabic is not the only language at the top of today's international languages, it is trying to reprecipitate its old status. Modern Standard Arabic (MSA) is the official language in the Arabic countries that based on Classical Arabic. It has become one of the international languages primarily because of the universal nature of Islam. Arabic has successfully retained its classical and standard nature as embodied in the Qur'an, chiefly because of the nature of the language and the sustained attempts made by Muslims and Arabic grammarians to prevent it from being corrupted by different dialects and the effects of colonization<sup>6</sup>. Classical Arabic represents the language spoken by the Arabs more than fourteen centuries ago, while Modern Standard Arabic is an evolving variety of Arabic with borrowings and innovations proving that Arabic reinvents itself to meet the changing needs of its speakers. At the regional level there are large numbers of Arab dialects as there are members of the Arab league.

## **METHODOLOGY**

Although, there is daily contact with Arabic language between learners who live in Muslim countries such as in the praying and the recitation of Qur'an, they might find difficulties in some occasions. The first challenges will be with the pronunciation of Arabic letters because of its uniqueness. The pronunciation of Arabic letters are quite complicated and absolutely differ from other languages, even alternatives are not similar completely. There are one specific character at least in Arabic letter.

The next challenges which face non-native learners are Arabic grammar and lack of methods teaching it especially for non-native speakers. Even the teachers or lecturers who have more than two-decades of experience about their fields they also may have struggles in the teaching process of new languages because of individuality of learners. Also, students who have great ability for learning new language they will

---

<sup>6</sup> AL-ATTAS, SMN. 1985. Islam, secularization and the philosophy of the future. London: Mansell Publishing

come across misunderstanding in the first step. Despite the awareness of the importance of nurturing communicative skills in Arabic, more the teachers believe that learning and applying grammar rules and translating to and from Arabic are crucial. Therefore, most learners more focus on studying grammar rules and translate to and from Arabic and the lectures are held under grammar-based methods and little attention for other important skills such as speaking or listening competences that signify the learners' level.

The difference between the formal, standard Arabic and spoken Arabic and the duality of the language is the most severe problem. This is a problem that damages to originality of standard language and it can be see at grammar construction or usage of words and their lexicological meanings. All Arab countries, some within the same country share this problem. Also, it induces confusing of the new language learners. The colloquial spoken Arabic became separated from the formal one in terms of structure, pronunciation and grammar, although the latter is used correlate the former. Today's learner wants to know the meaning of the words he thinks colloquial despite the fact that he could find alternative synonyms of those words in Arabic. The learner is sometimes confused and chooses uncommon colloquial vague words resorts to foreign words in spite of Arabic, available ones.<sup>7</sup>

## **CONCLUSION**

In the 21<sup>st</sup> Century Arabic country have become the realm of business development and hotspot places around the world especially in the energy, construction, technology and real estate industries, which have given big economic boosts to many petroleum powerhouse countries like Saudi Arabia or UAE and Qatar that claim Arabic as an official language. The same thing goes for diplomatic, governmental and political careers that address and deal with policy in the Arab world. However, knowing Arabic is absolutely important language, there are very few sources for learning Arabic than other languages such as English or French to non-Arabic speaking communities, and if they exist they employ poor methods and use traditional techniques. Teachers with old skills, inappropriate selection of textbooks and syllabuses and scarcity of programs and activities which would attract the non-Arabic speaking learners all these end up in poor performance. Moreover, Arab media do not properly care about these problems by not dedicating special channels addressing these non-Arabic speaking communities, or at least produce Arabic language teaching projects like official or entertainment programs and serials

---

<sup>7</sup> Ismail Hassan: Teaching the Arabic Language: Problems in Languages or Speakers. The II International Conference «Methods Of Teaching Oriental Languages: Actual Problems And Trends». 2014. P. 4.



in MSA for its learners. As results of the undeniable factors Arabic learners might face large numbers of challenges in their studying experience.

### **REFERENCES**

1. Ismail Hassan. Teaching the Arabic Language. Problems in Languages or Speakers. The II International Conference «Methods Of Teaching Oriental Languages: Actual Problems And Trends», 2014. P. 4.
2. Ra'nokhon Sultonova, Farida Khamroyeva. A Direct Method for teaching Arabic language in Uzbekistan "Science and Education" Scientific Journal May 2021 / Volume 2 Issue 5
3. Farghaly, A. and Shaalan, K. 2009. Arabic natural language processing: Challenges and solutions. ACM Trans. Asian Lang. Inform. Process. 8, 4, Article 14 (December 2009), 22 pages.
4. Ra'nokhon Sultonova, Farida Khamroyeva. Problems experienced with the teaching of Arabic to learners in muslim schools in Uzbekistan. "Science and Education" Scientific Journal May 2021 / Volume 2 Issue 5.
5. Abdallah Hussein El-Omari, Hussein Mohammad Bataineh. Problems of Learning Arabic by Non-Arabic Speaking Children: Diagnosis and Treatment Article in Journal of Language Teaching and Research. September 2018

## **KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA MIKROMOLIYALASHTIRISHNING ROLI**

**Madg‘oziyev Rustam Xoltojiyevich,**  
Farg‘ona Politehnika Instituti,  
“Qurilish” fakulteti, tyutori,  
e-mail: [rustammadgoziev1@gmail.com](mailto:rustammadgoziev1@gmail.com),  
+998 91 106 21 12.

### **ANNOTATSIYA**

*Bugungi kunda kichik biznes har qanday mamlakat, ayniqsa O‘zbekiston uchun muhim rol o‘ynaydigan ijtimoiy-iqtisodiy tizimning zaruriy elementidir. Mikroreditlar aholining keng qatlamlariga tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishga imkon beradigan muhim ijtimoiy funksiyalarni bajaradi. Kichik biznes iqtisodiyotni mustahkamlash uning rivojlanishini barqarorligini ta‘minlash uchun zarur element hisoblanadi. Iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish sharoitida kichik korxonalarining barqaror ishlashi mintaqaviy darajada ham, butun mamlakat darajasida ham ustuvor vazifa hisoblanadi.*

***Kalit so‘zlar:** mikromoliyalashtirish, mikromoliyalashtirish tashkilotlari, kichik biznes, xususi tadbirkorlik, mikroreditlar.*

## **РОЛЬ МИКРОФИНАНСИРОВАНИЯ В РАЗВИТИИ МАЛОГО БИЗНЕСА**

**Мадгозиев Рустам Холтоджиевич,**  
Ферганский Политехнический Институт,  
Факультет “Строительство”, тьютор,  
e-mail: [rustammadgoziev1@gmail.com](mailto:rustammadgoziev1@gmail.com),  
+998 91 106 21 12.

### **АННОТАЦИЯ**

*Сегодня малый бизнес является необходимым элементом социально-экономической системы, играющим важную роль для любой страны, особенно для Узбекистана. Микрокредиты выполняют важные социальные функции, позволяя осуществлять предпринимательские инициативы широким слоям населения. Малый бизнес является необходимым элементом укрепления экономики для обеспечения устойчивости ее развития. В условиях структурной перестройки экономики устойчивое функционирование малых предприятий является приоритетной задачей как на региональном, так и на общенациональном уровне.*

*Ключевые слова: микрофинансирование, микрофинансовые организации, малый бизнес, частное предпринимательство, микрозаймы.*

## **THE ROLE OF MICROFINANCE IN SMALL BUSINESS DEVELOPMENT**

**Madgoziev Rustam Kholtojievich,**

Fergana Polytechnic Institute,

Faculty of "Construction", tutor,

e-mail: [rustammadgoziev1@gmail.com](mailto:rustammadgoziev1@gmail.com),

+998 91 106 21 12.

### **ABSTRACT**

*Today, small business is a necessary element of the socio-economic system, which plays an important role for any country, especially for Uzbekistan. Microcredits perform important social functions, allowing the broad strata of the population to carry out entrepreneurial initiatives. Small business is a necessary element of strengthening the economy to ensure the sustainability of its development. In the context of the structural restructuring of the economy, the sustainable functioning of small enterprises is a priority task both at the regional and national level.*

**Keywords:** *microfinance, microfinance organizations, small business, private entrepreneurship, microloans.*

### **KIRISH**

Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari yildan-yilga o'z mavqeyini mustahkamlab bormoqda. Ular mahalliy xom ashyo asosida eksportga yo'naltirilgan yoki import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, iste'mol bozorini sifatli tovarlar bilan to'ldirish, aholini ish bilan ta'minlash, shuningdek, jamiyatga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashda katta foyda keltiradi.

Iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish, bandlik muammolarini hal etish, aholi daromadlari va farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning yaqinda tasdiqlangan Farmonida aytilganidek, "makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlash, shu jumladan milliy valyuta kursi barqarorligini va ichki bozorda narxlar darajasini ta'minlash, bu bizning eng muhim ustuvor vazifamiz"[4] shuningdek, 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining "Milliy iqtisodiyotni

jadal rivojlantirish va yuqori o‘shirish sur‘atlarini ta‘minlash” uchinchi yo‘nalishida 26-maqсад sifatida “Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish” etib belgilanishini alohida e‘tirof etish zarur [3], [8].

Shunga ko‘ra, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish, xususiy mulk huquqlarini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada mustahkamlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:

- xususiy mulk huquq va kafolatlarining ishonchli himoyasini ta‘minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish yo‘lidagi barcha to‘siq va cheklovlarni bartaraf etish;

- tugatish va unga to‘liq erkinlik bering, “agar xalq boy bo‘lsa, davlat boy va kuchli bo‘ladi” tamoyilini amalga oshiring va hokazo.

Ushbu chora-tadbirlar soliq va kredit imtiyozlari bilan bir qatorda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish maqsadida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirishni nazarda tutadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining mulkdorlar sinfini, ya‘ni mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni ishonchli qo‘llab-quvvatlovchi o‘rta sinfni shakllantirishdagi ulkan ahamiyatini hech narsa bilan taqqoslab bo‘lmaydi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

O‘zbekistonda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri bu mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shakllarini ustuvor rivojlantirishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi, uning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi. Bular tadbirkorlik faoliyatini, nodavlat tashkilotlarni va tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlovchi korxonalarini belgilaydigan va kafolatlaydigan huquqiy va me‘yoriy hujjatlardir [1]. Ushbu bosqichda biz kimlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik deganda nazarda tutayotganimiz haqidagi savolga oydinlik kiritishimiz kerak, masalan, rus olimi O. L. Vertushkinaning so‘zlariga ko‘ra: “Kichik va o‘rta biznes-bu qonunlar, davlat organlari yoki boshqa vakillik tashkilotlari tomonidan belgilangan muayyan sharoitlarda bozor iqtisodiyoti subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati“ [4; 16 b].

Mahalliy olimlarimizdan H. R. Hamroyev tadbirkorlikka to‘g‘irisida quyidagi fikrini bildirgan “Tadbirkorlik, ayrimlar o‘ylashicha, bozor iqtisodiyotiga o‘tish davriga xos o‘tkinchi narsa bo‘lmay, fundamental tusga ega. Chunki u nafaqat bozor iqtisodiyoti tizimiga, balki barcha ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga xos hodisa. Buning



ustiga, iqtisodiyotning nafaqat ajralmas tarkibiy qismi, balki uni harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Tadbirkorlikni biznes deb tushunib, ikkalasini ham bitta biznes termini bilan atash mumkin deydi. Holbuki, tadbirkorlik tushunchasining mazmun-mohiyati biznes tushunchasidan kengroq va chuqurroq. Faqat tadbirkorlikka asoslangan biznesni tadbirkorlik deyish mumkin. Ammo biznesning hammasi ham bunday tusga ega emas. Bundan tashqari, tadbirkorlik biznes doirasidan tashqarida ham mavjud” [5; 9 b].

O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq “Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir” [2], [7].

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Respublikamizda iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida kichik biznesni yanada rivojlantirishni rag‘batlantirish bilan bir qatorda xususiy mulk subyektlarining uning tarkibidagi ulushini muttasil oshirib borishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 523,6 mingtani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 60,8 mingtaga ko‘paygan yoki 13,1 % ga oshgan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 17,9 birlikni tashkil qildi [9].

2022-yilning yanvar-dekabrida 90,2 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu 2021-yilning shu davriga nisbatan 8,8 % ga kam demakdir.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo‘yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berayotgan katta e‘tibor natijasida 2018-2022-yillar davomida jami 424 073 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p yangi subyektlar savdo sohasida – 156 069 (yoki 36,8 %) ta, xizmatlar sohasida – 99 198 (yoki 23,4 %) ta, sanoat sohasida – 84 830 ta (yoki 20,0 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 51 752 ta (yoki 12,2 %) va qurilish sohasida – 32 224 (yoki 7,6 %) ta tashkil etilgan.

Kichik biznesning muvaffaqiyatli rivojlanishi ko‘p jihatdan xususiy tadbirkorlarning uzoq muddatli va nisbatan qisqa muddatli faoliyati uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslar bilan ta‘minlanishiga bog‘liq. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz kredit bozori institutsional rivojlanish bosqichida, taklif qilinishi

mumkin bo'lgan moliyaviy vositalar va xizmatlar turlari bilan cheklanganligi bilan ajralib turadi [10]. Moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanadigan bank bo'lmagan muassasalarning rivojlanmaganligini hisobga olsak, bu holat oxir-oqibat real iqtisodiyot tarmoqlarini yetarli darajada moliyalashtirishga to'sqinlik qiladi.

Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirishning hozirgi bosqichida mavjud bo'lgan quyidagi muammolarni sanab o'tish mumkin:

- kichik tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mexanizmlarining samarasi yetarli emas;

- kichik tadbirkorlik subyektlarining tavakkalchiliklarini sug'urta qilishning yetarlicha rivojlanmagan mexanizmlari;

- o'z-o'zini moliyalashtirish mexanizmlarining sust rivojlanishi (buni kredit uyushmalari ishlamayotganligi, jamoaviy investitsiya fondlari va boshqa shunga o'xshash tashkilotlar rivojlanmaganligi bilan ham ko'rish mumkin);

- kichik biznes subyektlari uchun kredit resurslaridan foydalanish shartlarining noqulayligi;

- kreditlash jarayonida kredit xavfini kamaytirish mexanizmlarining cheklanganligi;

- garovga qo'yilishi mumkin bo'lgan mol-mulk etishmasligi sababli aksariyat kichik korxonalarda investitsiya, shu jumladan bank kredit resurslaridan foydalanish imkoniyati yo'qligi va boshqalar.

Bank tizimi tomonidan moliya bozorlarida, xususan, kredit xizmatlarini ko'rsatish bozorida ko'rsatiladigan xizmatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligining asosiy sabablari mutaxassislar yuqori darajadagi xavfning mavjudligini, shuningdek qarz oluvchilarning garovga qo'yish imkoniyati yo'qligini ta'kidlaydilar.

Bu tabiiydir, chunki ishlab chiqarishda tezda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan asosiy vositalarni shakllantirish uchun kamida 5-10 yil ishlash talab etiladi. Yuqorida aytib o'tilgan fikrlarni hisobga olgan holda, biz kichik biznes subyektlarining iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirish uchun to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bilvosita rag'batlantirish usullarini ishlab chiqishni taklif qilmoqchimiz. Bilvosita rag'batlantirish usullari haqida gap ketganda, davlat kichik biznes subyektlari tomonidan tijorat banklaridan investitsiya kreditlarini olishda kafil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Agar davlat organlari bank va kredit tizimlari bilan hamkorlikda chora-tadbirlarni ishlab chiqsalar, natijada kichik biznes subyektlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash muammosini hal qilish mumkin bo'ladi [11].

Bir so'z bilan aytganda, tijorat banklari va kichik biznes subyektlarining kredit munosabatlari sohasida davlat kafolatlari instituti tashkil etilishi kerak. Kafolat

instituti tashkil etilgan taqdirda, mas'ul davlat organlari milliy banklar va kredit tashkilotlarini kichik korxonalariga kredit berishga undashlari mumkin. Bu yerda davlat kafillikni o'z zimmasiga olib, qarz majburiyatlari doirasida kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyati uchun zarur investitsiya mablag'larini jalb qilish uchun sharoit yaratadi.

Haqiqat shundaki, yetarli kredit ta'minoti bo'lmasa, banklar mumkin bo'lgan xatarlar qiymatini kredit bo'yicha foiz sifatida kiritishga majbur. Natijada, tabiiyki, kredit bo'yicha foiz stavkalari ko'tariladi, chunki kredit bo'yicha berilgan pulni qaytarish uchun sud jarayonida qilingan xarajatlar keskin oshishi ehtimoli bor.


Xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, mikromoliyalashtirish natijasida olingan daromad ko'pincha oilaning turmush darajasini yaxshilaydigan faoliyatga sarflanadi. Dunyo bo'ylab o'tkazilgan so'rovlar mikromoliyalashtirishning ijobiy ta'sirini tasdiqladi [12]. Masalan, dunyoning yigirma to'rt dan ortiq mamlakatlarida o'tkazilgan mikromoliyalashtirishning ta'sirini baholash bo'yicha tadqiqotlar oilalarning turmush darajasida sezilarli yaxshilanishlarni aniqladi. Shunga qaramay, odamlarning turmush darajasini yaxshilash va mikrokredit kabi aniq xizmatlar o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni baholash juda qiyin. Barcha tadqiqotlar mikromoliyalashtirish va odamlarning turmush darajasini yaxshilash o'rtasidagi aniq va mustahkam aloqani tasdiqlamadi. Qoida tariqasida, mikromoliya xizmatlaridan foydalanishning bevosita oqibatlari odamlar uchun mavjud bo'lgan tanlovni kengaytirish hamda moddiy va inson kapitalini yaratish hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda mikromoliyalashtirishning asosiy vazifalari qashshoqlikni kamaytirish, jamiyatning yeng kam himoyalangan a'zolari (ayollar, kambag'allar va boshqalar uchun imkoniyatlar yaratishdir) bozor faoliyatida ishtirok yetish, yangi ish o'rinlari va biznes yo'nalishlarini yaratish, mehnatga layoqatli fuqarolarni iqtisodiyotning ayrim tarmoqlariga jalb qilishni rag'batlantirish [13], [14]. Mikromoliyalashtirish, shuningdek, kichik korxonalar uchun tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish va taqsimlashni yanada rag'batlantirish, shuningdek, tadbirkorlarga foyda olish va kapital to'plashda tajriba orttirishda yordam berish uchun yuqori dinamik va samarali kreditlash tizimlarini yaratadi.

Mikromoliya tashkilotlari tadbirkorlarga tijorat banklari xizmatlarini to'ldiradigan xizmatlarni taqdim yetadi va shu bilan butun moliya tizimini mustahkamlaydi. Tijorat banklari tomonidan qo'yilgan shartlar ko'pincha tadbirkorlar uchun chidab bo'lmas bo'lib chiqadi (ayniqsa, kredit olishda). Mikromoliya tashkilotlari tijorat banklari uchun jozibador bo'lmagan ba'zi bir foyda va past darajadagi tavakkalchilik bilan kichik moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiradilar.

Mikromoliyalashtirish-bu hech qanday boshlang‘ich kapital va kredit tarixisiz biznesni boshlashga imkon beradigan, shuningdek kamida uchta vazifani hal qilishga hissa qo‘shadigan klassik bank kreditining moslashuvchan shakli (1-rasm).

Mikromoliyalashtirish aholini o‘z biznesini ochishga undaydi, bu nafaqat byudjetning ijtimoiy majburiyatlarini kamaytiradi, balki xususiy biznes va moliya bozori subyektlaridan soliq tushumlarini ham oshiradi [15]. Yana bir tizimli ta’sir-bu kichik biznes sohasidagi soya va sudxo‘rlik kapitali darajasini pasaytirish, tadbirkorlik subyektlarida shaffoflikni oshirish va kredit tarixini shakllantirishga ko‘maklashish, bu esa biznes hajmi oshgani sayin fond bozorida moliyalashtirishni va banklardan uzoq muddatli kreditlarni jalb qilishni osonlashtiradi.



**1-rasm. Mikromoliyalashtirish vazifalari**

Mikromoliyalashtirish institutlari va dasturlarini rivojlantirish o‘rta sinfni shakllantirish, boshlang‘ich tadbirkorlarning rivojlanishi uchun sharoit yaratish va mavjud mikro-korxonalarining yanada o‘sishi uchun muhimdir.

Mikrokreditning mohiyati bajarilgan funksiyalar orqali ifodalanadi. Qayta taqsimlash, takror ishlab chiqarish, rag‘batlantirish kabi kreditning asosiy funksiyalari bilan bir qatorda mikrokreditlar ham ijtimoiy va iqtisodiy funksiyalarga ega.

Jahon banki 500 milliondan ortiq odam mikromoliyalashtirish bilan bog‘liq operatsiyalardan bevosita yoki bilvosita foyda ko‘rganligini taxmin qilmoqda. Kambag‘allarga yordam bo‘yicha maslahat guruhi (CGAP) 2021-yilga kelib 120 milliondan ortiq odam mikromoliyalashtirish bilan bog‘liq operatsiyalardan bevosita foyda ko‘rganligini taxmin qilmoqda [16]. Bundan tashqari, IFC 30 rivojlanayotgan mamlakatlarda kredit hisoboti byurolarini tashkil etish yoki takomillashtirishga yordam berdi [17]. Shuningdek, u rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy faoliyatni tartibga soluvchi tegishli qonunlarni qo‘shishni yoqlaydi [18].

Mikromoliyalashtirishning afzalliklari odamlarni kapital manbai bilan ta'minlashning bevosita ta'siridan tashqariga chiqadi. Muvaffaqiyatli biznes yaratish tadbirkorlar, o'z navbatida, ish o'rinlari yaratish, jamiyatda savdo va umumiy iqtisodiy yaxshilash.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Hozirgi vaqtda kichik biznes uchun tijorat muassasalaridan kredit olishda yetarli yoki yetarli bo'lmagan garov masalasi dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Kredit tashkilotlarining kichik biznes subyektlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlamasligining asosiy sabablaridan biri kichik biznes subyekti taqdim yetilgan kreditni o'z vaqtida to'lay olmasligi bilan bog'liq.

Garovning yetishmasligi, shu bilan birga tijorat muassasalaridan kredit olishning imkoni yo'qligi aholining tadbirkorlik faolligini pasaytiradi, kichik ishlab chiqarish korxonalarining rivojlanishini rag'batlantirmaydi. Shuningdek, kichik biznesning kredit olishdagi muammolari ichki va tashqi bo'linadi.

Kredit olishda tashqi muammolar:

- moliya institutlari tomonidan kichik biznesga beriladigan kreditlar bo'yicha yuqori foiz stavkalari;

- kreditni to'lash muddatining qisqarishi;

- kredit olish jarayonining murakkabligi, muddati va boshqalar.

Kredit olishni qiyinlashtiradigan ichki muammolar:

- kichik biznes uchun taqdim yetilgan kreditlarning cheklangan soni;

- kichik biznesni kreditlash uchun raqobatbardosh bozorning yo'qligi;

- uning faoliyatining kichik ko'lami, uning holatini baholashning murakkabligi;

- kredit olish uchun biznes-reja tayyorlash sifati;

- kredit tarixining yetishmasligi va boshqalar.

Moliya bozori rivojlangan mamlakatlar amaliyotida kichik biznesni rivojlantirishni moliyalashtirishning asosiy manbai kredit tashkilotlarining mablag'lari hisoblanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirishda katta ulush tijorat banklari mablag'laridan iborat.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni investitsiya fondlari bilan ta'minlash uchun samarali moliyaviy infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha faol davlat siyosati zarur. Xorijiy tajribaga muvofiq, kichik biznesni samarali qo'llab-quvvatlash keng vakolatlar, moliyaviy resurslar, butun mamlakat bo'ylab filiallari bo'lgan ixtisoslashgan tashkilot yordamida amalga oshirilishi mumkin. Hozirgi vaqtda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy qo'llab-quvvatlash usullaridan ko'ra kichik biznesni bilvosita qo'llab-quvvatlash usullari ko'proq qo'llaniladi. Tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning eng samarali shakllaridan



biri va kichik biznes uchun bank kreditlarining jozibadorligini oshirishga imkon beradigan kafolatlar shakllaridan biridir.

Ko'pgina mamlakatlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan kafolat fondlari kichik va o'rta korxonalariga kredit olish imkoniyatini beradi, bank va boshqa kredit resurslaridan faol foydalanish uchun sharoit yaratadi. Ushbu tajriba nafaqat mavjud kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlaydi, balki yangi korxonalarining paydo bo'lishini rag'batlantiradi. Shunday qilib, tadbirkorlar zarur moliyaviy resurslarni qulay shartlarda jalb qiladilar va tijorat banklariga kreditni to'lash xavfi sezilarli darajada kamayadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning moliyaviy resurslari bilan ta'minlanishini oshirish maqsadida moliya bozorini yanada liberallashtirish, ularga xizmat ko'rsatuvchi moliyaviy infratuzilmani yanada takomillashtirish kichik biznesni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik faoliyatini kreditlash tartib-taomillarini soddalashtirish, oxir-oqibat, investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarning taqchilligi, shuningdek aylanma mablag'larning taqchilligi kabi muammolarni ijobiy hal etishga yordam beradi. Bizning fikrimizcha, kichik biznes subyektlari uchun mo'ljallangan kreditlarning yangi turlarini ishlab chiqish, kredit olish tartib-qoidalarini soddalashtirish, kichik biznes subyektlarining to'lov qobiliyatini baholash metodologiyasini takomillashtirish, banklarning hududlarda amalga oshirilayotgan davlat dasturlarida keng miqyosda ishtirok etishini ta'minlash, kompensatsiya mexanizmini yaratish, kichik biznes subyektlariga olingan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini kafolatlash, oxir-oqibat olib keladi kichik biznesni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini taqdim etadi. Kichik biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlashning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish kichik biznesni rivojlantirishni rag'batlantirish uchun mustahkam asos bo'ladi.

## **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasining "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 20.04.2022 yildagi O'RQ-765-son.
2. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" (yangi tahriri) Qonuni, 02.05.2012-yildagi O'RQ-328-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
4. Кучкаров, Б. К. (2022). РОЛЬ МИКРОФИНАНСИРОВАНИЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА. CENTRAL ASIAN

JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES,  
3(10), 78-83.

5. Вертушина О.Л. Кредитование физических и юридических лиц: учебник. – М.: Экономика и финансы, 2017 – 119 с.
6. Tadbirkorlik asoslari: kasb ta'limi (iqtisodiyot) yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'1. H. R. Hamroyev; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.: Yangi nashr, 2010. — 360 b.
7. Кудбиев, Н., & Тожиматов, А. (2023). KORXONALARNING TIJORAT BANKLARI BILAN O'ZARO MUNOSABATLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(2), 75-84.
8. Кудбиев, Н. Т. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ПРЕДПРИЯТИИ С КОММЕРЧЕСКИМИ БАНКАМИ. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES, 3(10), 87-93.
9. Кучкаров, Б., & Урмонов, Х. (2023). KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY TO'LOVGA LAYOQATSIZLIGI XAVFINI ANIQLASH. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(3).
10. Кундузова, К. И. (2019). Совершенствование кредитного портфеля коммерческих банков. Проблемы современной науки и образования, (10 (143)), 43-45.
11. Temirkulov, A., Fozilov, H., & Yakubov, V. (2022). THE ISSUES OF MANAGEMENT OF INNOVATIVE ACTIVITIES OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE BUSINESS ENTITIES IN FERGANA REGION. Global Book Publishing Services, 1-106.
12. Эрматов, А. А., & Муратов, А. А. (2022). Вопросы Формирования Уставного Капитала Предприятия В Условиях Модернизации Экономики. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 11, 158-165.
13. Эрматов, А. (2023). O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(2), 61-68.

14. Abduxalimovna, A. Z., & Nabiyevich, I. I. (2021). Organization of Long-Term Asset Accounting on the Basis of International Standards. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 2(11), 86-92.
15. Савинова, Г. А. (2022). Малый Бизнес В Республике Узбекистан И Учетные Аспекты Его Деятельности. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(5), 23-27.
16. Nabiyevich, I. I. (2022). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISHNING O 'ZIGA XOS JIHATLARI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(4), 199-205.
17. Солиев, Д. Ж. (2022). Концепция Финансового Контроля В Условиях Модернизации Экономики И Его Роль. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(6), 54-62.
18. Якубов, В. Г. (2022). Сбыта Продукции Является Важным Фактором Увеличения Прибыли Компаний. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(5), 49-55.

## **CLASSIFICATION OF OPTICAL RADIATION RECEIVERS FOR THE DEVELOPMENT OF OPTOELECTRONIC INFORMATION-MEASURING SYSTEMS**

**A.I. Zokirov,**

**M.M. Kamolova**

Fergana State University, Fergana, Uzbekistan

G-mail: [a.zokirov3001@gmail.com](mailto:a.zokirov3001@gmail.com)

### **ABSTRACT**

*The topic "Classification of Optical Radiation Receivers for the Development of Optoelectronic Information-Measuring Systems" refers to the categorization of different types of optical radiation receivers, which are important components of optoelectronic information-measuring systems. The annotation for this topic may highlight the purpose and scope of the study, as well as the key objectives and findings of the research.*

**Keywords.** *optoelectronics, optical radiation receivers, photodiodes, phototransistors, photomultiplier tubes, classification, information-measuring systems, telecommunications, sensing, imaging, components, characteristics, capabilities, optimization, applications.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Тема «Классификация приемников оптического излучения для разработки оптико-электронных информационно-измерительных систем» касается категоризации различных типов приемников оптического излучения, являющихся важными компонентами оптико-электронных информационно-измерительных систем. Аннотация к этой теме может освещать цель и объем исследования, а также основные задачи и результаты исследования.*

**Ключевые слова.** *оптоэлектроника, приемники оптического излучения, фотодиоды, фототранзисторы, фотоумножители, классификация, информационно-измерительные системы, телекоммуникации, зондирование, формирование изображений, компоненты, характеристики, возможности, оптимизация, приложения.*

### **INTRODUCTION**

Optical radiation receivers (ORRs) are devices whose state changes under the influence of an optical radiation flow, serving for the detection of the radiation. ORRs convert the energy of optical radiation into electrical energy, which is more convenient for direct measurement [1].

Important parameters characterizing the properties and capabilities of various types of optical radiation receivers (ORRs) include: step electron-threshold sensitivity - the minimum radiation flow per unit of working frequency band (measured in W/Hz); conversion coefficient (integral sensitivity, relative sensitivity) - relates the incident radiation flow to the output signal magnitude of the ORR; time constant - the time required for the output signal of the ORR to reach a specified level; spectral characteristic - the dependence of ORR sensitivity on the wavelength of the incident radiation (those with low wavelength dependence over a wide range of wavelengths are called non-selective, as opposed to selective ORRs, which have distinct maxima and minima in their spectral characteristics) [2-5].

By the principle of operation and manufacturing, photodetectors can be divided into three major groups (see Fig. 1.1): semiconductor (photon) detectors, thermal (non-selective) detectors, and photoemissive and capacitance detectors.

### DISCUSSION AND RESULTS

The diversity of optical radiation receivers is determined by a multitude of energy conversion methods and the impossibility of creating receivers that are equally sensitive across the entire optical spectrum. Absorption of optical radiation energy leads to changes in the state of the receiver substance. This change can result in an increase in temperature, which in turn causes changes in various substance parameters, such as gas pressure, conductivity of solid bodies, electric polarization of dielectrics, and others. Receivers of optical radiation based on this principle are called thermal receivers[6-7].




Figure 1.1 presents a classification of (ORRs).



The most prevalent types of optical radiation receivers include metallic and semiconductor bolometers and thermoelectric elements, as well as molecular radiometers, optoacoustic, pyroelectric receivers, among others. Bolometers operate on the basis of the variation of electrical resistance of metal or semiconductor with temperature change caused by the absorption of incident optical radiation flux. On the other hand, the temperature change of the absorbing surface of thermoelectric elements, proportional to the radiation falling on it, results in the appearance of a corresponding thermoelectric EMF within them.

### REFERENCES

1. Starkirkiewics J., Sosnovski L., Simpson O. Photovoltaic effect exhibited in Highresletance Semiconducting Films // Nature: 1946. - Vol. 158, P. 28.
2. "Introduction to Optoelectronics" by J. Wilson and J. F. V. Hawkes, 2012.
3. Зокиров, А., & Гайназарова, К. (2022). ТЕХНОЛОГИЯ ПОЛУЧЕНИЯ АФН ПЛЕНОК ИЗ ХАЛЬКОГЕНИДОВ КАДМИЯ. Scientific Collection «InterConf», (103), 202-208.
4. Зокиров, А. И. У., & Ташланова, Д. М. (2022). О природе микрофотоэлементов. *Ta'lim fidoyilari*, 5(9), 269-272.
5. Ахмедов, Б. Б., Хошимов, Х. А. У., & Зокиров, А. И. У. (2022). РЕШЕНИЕ УРАВНЕНИЯ ШРЕДИНГЕРА ДЛЯ ПОТЕНЦИАЛЬНОЙ ЯМЕ ПРЯМОУГОЛЬНОЙ ФОРМЫ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 4-2), 942-947.
6. Kamolova, M. M. (2022). PHOTOELECTRIC PROPERTIES in CdTe. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(22), 430-432.
7. Muhabbatxon, K. (2022). POLIMER YARIM O'TKAZGICHLARDA YUTILISH SPEKTRI SEZGIRLIGNI UZUN TO'LQIN METODI BILAN ANIQLASH. *PEDAGOG*, 1(3), 248-256.

## **OGOHI SIRRI LEVENDNING NAVOIY BIOGRAFIYASIGA OID IZLANISHLARI**

**Raximova Yulduz Dilmurod qizi**

Samarqand davlat universiteti 2- bosqich magistranti

E-mail: [yraximova09@gmail.com](mailto:yraximova09@gmail.com)

+998972233122

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada qardosh turk olimi, navoiyshunos olim Ogoh Sirri Levendning Navoiy hayotiga oid izlanishlari tahlil qilinadi. Olimning "Alisher Navoiy" nomli kitobida Navoiy hayotiga oid batafsil ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin. Olim shoir hayotini o'rganishda uni fasllarga bo'lib o'rganishni lozim topadi, ya'ni bolalik, yoshlik, yigitlik va qarilik chog'idagi bo'lgan muhim voqealarni eslab o'tadi. Bu orqali biz olimning shoir hayotini juda yaxshi tadqiq etganligini ko'rishimiz mumkin. Olim o'z fikrlarini dalillash maqsadida Navoiyning "Majolis un nafois" tazkirasiga ham murojaat qiladi. Bu esa Navoiy biografiyasini o'rganish uchun muhim manba bo'lib hisoblanadi. Olim bu bilan cheklanib qolmaydi. Turli yevropalik sharqshunos olimlarning Navoiy biografiyasiga oid qarashlarini keltirib o'tadi va ularni o'zaro taqqoslaydi.*

**Kalit so'zlar:** *Navoiy biografiyasi, bolalik davri, yoshlik davri, yigitlik chog'i, qarilik davri, "Majolis un nafois" tazkisasi, "Alisher Navoiy" monografiyasi.*

### **ABSTRACT**

*This article analyzes the researches of Navoi's life by Ogoh Sirri Levend, a brother Turkish scientist, Navoi scholar. In the scientist's book "Alisher Navoi" we can find detailed information about Navoi's life. When studying the poet's life, the scientist finds it necessary to study it by seasons, that is, he remembers the important events of his childhood, youth, youth and old age. Through this, we can see that the scientist has studied the poet's life very well. In order to prove his opinion, the scientist refers to Navoi's "Majolis un Nafois" analysis. This is an important source for studying Navoi's biography. The scientist is not limited to this. He cites the views of various European Orientalist scholars on Navoi's biography and compares them.*

**Key words:** *Navoi's biography, childhood, youth, youth, old age, "Majolis un nafois" book, "Alisher Navoi" monograph.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье анализируются исследования жизни Навои Огоха Сирри Левенда, брата турецкого ученого, навоийского ученого. В книге ученого «Алишер Навои» мы можем найти подробную информацию о жизни Навои. Изучая жизнь поэта, ученый находит необходимым изучать ее по временам*

года, то есть вспоминает важные события его детства, юности, юности и старости. Благодаря этому мы можем видеть, что ученый очень хорошо изучил жизнь поэта. В подтверждение своего мнения ученый ссылается на анализ «*Majolis un Nafois*» Навои. Это важный источник для изучения биографии Навои. Ученый этим не ограничивается. Он приводит взгляды различных европейских ученых-востоковедов на биографию Навои и сравнивает их.

**Ключевые слова:** биография Навои, детство, юность, юность, старость, книга «*Majolis un nafois*», монография «*Алишер Навои*».

## **KIRISH**

“Turk tilining o’lgan taniga jon, balki ruh kirgizgan”, “G’azal mulkingning sultoni” Nizomiddin Mir Alisher hayoti yo’li ko’plab olimlar tomonidan o’rganilgan. Ulug’ shoir biografiyasi har jihatdan serqirra va eskirmas tadqiqot mavzusi bo’lib hisoblanadi. Shu jihatdan turk navoiyshunos olim Ogoh Sirri Levend ham Alisher Navoiy hayot yo’li va biografiyasini atroflicha muhokama qilgan.

Olimning “Alisher Navoiy” nomli monografiyasida Navoiy hayotiga bag’ishlangan alohida boblarni uchramiz. Bu boblar esa Navoiy umrining 4 fasli bilan nomlanadi:

1. Bolalik chog’i
2. Yoshlik chog’i
3. Yigitlik davri
4. Qarilik davrii

Tadqiqotchi olim ilmiy an’anaga sodiq qolgan holda Navoiyning bolalik chog’lari haqida eslab o’tadi: “Nizomiddin Alisher ramazon oyining 17-kuni hijriy 844 yili(milodiy 9-fevral 1441 yil)da Hirotda tug’ilgan. Uyg’ur turklaridandir. Otasi g’iyosiddin Kichkina Baxshi yoki Kichkina Bahodir Xuroson hokimi Sulton Abulqosim Boburning odamlaridandir. Alisherning bobolari avvaldan beri Temur o’g’illarining xususan Umarshayx bilan uning o’g’li Mirzo Boyqaroning xizmatida bo’lganlar. Alisherning ona tarafdan katta bobosi Abu Said ham Mirzo Boyqaroning Beklarbegisi edi. Alisher esa kichik yoshligidan beri Mirzo Boyqaroning nevarasi Husayn Boyqaro bilan birga o’si va birgalikda o’qidi”.

Olim o’z fikrlarini davom ettirarkan, Alisher Navoiyning buyuk tarixchi olim Sharafiddin ali Yazdiy bilan uchrashuvini ham qayd qilishni unutmaydi. Shuningdek, so’z isboti o’laroq “*Majolis un nafois*” asaridan keltirilgan parcha orqali bu voqeani yakunlaydi: “Mavlononing sohibkamollig’i olam ahli qoshida

musallamdur. Shohrux sulton buzug’lig’ida faqirning volidi jamoati kasir bila ro’zgor havodisi fitnasidin Xurosondin qochib, Iroqqa borurda Taftg’akim

Mavlononing muvalladidur, yarim kecha yetib tushdilar. Ittifoqo manzil alarning xonaqohi eshikida voqe' erdi, tong otqonda, andoqkim, o'yuni atfol da'bi bo'lur, ul jamoatning atfoli ul xonaqohg'a o'ynag'ali kirdilar va faqir ham alar bila erdim, taxminan olti yoshimda bo'lg'ay erdim, va Mavlono bir rahbada o'lturub ermishlar, tushgan jamoatning kayfiyatini ma'lum qilmoq uchun atfoldin birini tiladilar. Faqir alar sori borurg'a muvaffaq bo'ldum. Har nekim so'rdilar javob aytdim. Tabassum qilib tahsin qildilar, dag'i so'rdilarkim, maktabg'a boribmusen?

Dedimkim: boribmen. Dedilarkim: ne yergacha o'qibsen? Dedimki: «taborak» surasig'acha.

Dedilarkim: bu jamoat atfolidin biz tilaganda, sen kelib biz bila oshno bo'ldung, sening uchun fотиha o'quli deb o'z fотihalarig'a musharraf qildilar. Hamul zamon faqirning validi va ul xayl ulug'lari kelib, Mavlono xizmatida anvoi niyozmandlig'lar qilg'ondin so'ngra, faqirg'a andoq shuur hosil bo'ldi angakim, «ne kishi erkandurlar»

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Olimning Navoiy hayoti va ijodini o'rganishda boshqa olimlardan farq qiladigan jihati shundaki, u keltirilayotgan ma'lumotiga dalil sifatida Alisher Navoiy o'zi yozgan tazkira asarlardan parchalar keltiradi. Bu esa eng ishonchli manba ekanligini anglab olishimiz qiyin emas. Olim Navoiyning ustozlariga nisbatan munosabatini aniqroq yoritishda bevosita "Majolis un nafois" asariga murojaat qiladi. Bu esa ushbu tadqiqotning ilmiylik va aniqlik darajasini yanada orttirishga xizmat qiladi.

Alisher Navoiy Mashhadga bo'lgan paytda Darvesh Mansur ismli mutasavvuf bir shoirdan aruz ilmini o'rganganligi ham hech kimga sir emas. Bu esa "Majolis" da shunday misralar bilan muhrlangan: " Faqir aruzni Darvesh qoshida o'qibmen, Darvesh qirq bilan ellik yosh o'rtasida olamdan o'tdi va qabri Hoji Toqdadur".

Abulqosim Bobur vafotidan biroz keyin Kichkina Bahodir ham vafot etadi. Alisherni Temur sulolasi amirlaridan Sayyid Hasan Ardasher asrab oladi va unga bir otalik mehrini ko'rsatadi.

Olim Navoiy hayotiga oid biror yilni ham e'tibordan chetda qoldirmaydi. Alisher Navoiy otasining o'limidan keyin Hirotga qaytib Abu Said Mirzoning xizmatiga kiradi. Tadqiqotchi olim shu o'rinda bir qiziqarli voqea ishora qilib ketadi: bu paytda Sultonning tarixini yozmoqqa mas'ul qilingan Abdus-Samad Badaxshoniyning bir baytida xatolik bo'lganini Navoiy shoirga ko'rsatadi va u bunga javoban minnatdorchilik bildiradi. Alisher Navoiy tazkirada Abdusamaddan so'zlab shunday deydi: " Mavlono Abdusamad Badaxshiy ham Badaxshondindur. Sulton Abusaid Mirzo zamonida Hiriga keldi. Podshoh anga o'z tarixin buyurdi. Masnaviygo'y va musannif kishi erdi. Bir baytida tajnis xayol qilib, qofiyasin g'alat qilib erdi, faqir ani voqif qilg'ach filloh muttanabbih bo'ldi va izhori minnatdorchilig'

ham qildi va bu ish aning bila faqir orasida oshnoliqqa sabab bo'ldi. To'y ta'rifida va go'yandalar zikrida aning masnaviysidindurkim:

*Zi mohi hayo-ho'y to moh bud,*

*Sari ovozashon, jokam olloh bud(62).*

Qabri derlarki Ko'histondadur"

Ogoh Sirri Levend Alisher Navoiy biografiyasini o'rganar ekan, undagi ijtimoiy-siyosiy voqealarni diqqat bilan muhokama qiladi. Abu Said o'ziga qarshi siyon qilgan Boyqaroning eng yaqin maslakdoshi bo'lgan Navoiyga ishonmaydi. Hattoki Boyqaroga yaqinligi uchun Alisher Navoiyning tog'alari bo'lgan Kobiliy va G'aribiyni o'ldiradi. Hirotda boshpana topa olmasligini anglagan Alisher Samarqandga ketadi va o'qishni davom ettiradi.

Bobur "Xotirot" ("Boburnoma") asarida Navoiyning qaysidir jinoyatda ayblanib Abu Said tarafidan Hirotdan Chiqarib yuborilganligini aytadi. Chunki qo'lida boshqa bir isboti ham bo'lmagan.

Bartold Boburning bu so'zlariga tayangani kabi Bertels ham "Navoiy" nomlii asarida Samarqand Ulug'bek vafotidan keyin bilim markazi bo'lmagani uchun Navoiyning Samarqandga o'qish uchun bormaganini yozadi. Boshqa tarafdin Abu Said Navoiyni Mashhadga surgun qilgani va Navoiyning Hasan Ardasheriga yuborgan manzum maktubida yozilganligini qayd qiladi.

Bilganimiz shuki, - deydi tadqiqotchi – Navoiy bu vaqtda Hirotda qololmasligini anglab Samarqandga ketgan va u yerda Xo'ja Fazlulloh Abullaysning xonaqohida 2 yil qolib undan dars olgan. Navoiy ustozini shunday eslaydi: "**Xoja Fazlulloh Abullaysiy** — Samarqand akobiridindur. Faqih Abullays avlodidandur. Fiqxda ani Abu Hanifai Soniy(11) derlar erdi va arabiyatda Ibn Hojib(12) kaffasida tutarlar erdi. Sayid Sharif(13)ning shogirdi erdi va Sayid o'z xatlari bila ulumi dars ayturg'a ijizatnomalar aning uchun bitib erdi. Faqir ikki yil alarning qoshida sabaq o'qub erdim, ancha iltifotlari bor erdikim, «farzand» der erdilar. Bovujudkim, Samarqandning a'lami ulamosi erdi, she'r va muammog'a dag'i moyil erdi.

Bu matla' alarningdurkim:

*Qadi chun sarvi tu jon ast maro, balki ravon,*

*So'yam, ey sarv, ravon shavki, fido sozam jon(14).*

Xoja Samarqandda tangri taolo rahmatig'a bordi va o'z xonaqohida jaddining gunbazida madfundur."

Alisher Navoiy qiynalgan paytlarda Samarqandda valisi bo'lgan va yana bundan oldin Hirotda 10 yilga yaqin unga valelik qilgan Ahmad Hojibek bilan, Abu Saidning qaynog'asi Darvesh Mahmud Tarhandan yordam oladi.



Olim Navoiy Samarqandda qancha muddat bo'lganligi noma'lum ekanligini ta'kidlab o'tadi. Biroq ba'zi ishoralarni ham berib o'tadi. Husayn Boyqaro 1469-yilda Hirot taxtiga chiqqan paytda Navoiyning yana Samarqandda bo'lganligini ko'ramiz. Har holda Navoiy 1466-yilda La'li sulolasining Badaxshondagi qo'zg'oloni paytida Navoiy xurosonda bo'lgan. Bu voqeadan so'ngra Hirotidan chiqib ikkinchi marta Samarqandga boradi.

Alisher Navoiy ustози Sayyid Hasan Ardasherга yuborgan manzumasida Hirotдagi taqdirsizlikdan, eski an'analarning xarob bo'lganligidan shikoyat qiladi. Navoiyning bu masnaviysi Boyqaro zamonida yozganligi aytilsa ham, buning chin haqiqat bilan aloqasi yo'qdir, - deb munosabat bildiradi olim.

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni ayta olamizki, Ogoh Sirri Levendning "Alisher Navoiy" nomli tadqiqoti Navoiy hayoti va ijodini to'laligicha qamrab oladigan yaxlit bir butun xazina. Unda nafaqat Navoiy hayotini, balki o'sha davrdagi Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoi-siyosiy vaziyat, adabiy-badiiy muhit ko'z oldimizda gavdalanadi. Yuqorida esa faqatgina Navoiy biografiyasiga oid bir nechta ma'lumotlarni qayd etdik, xolos. Keyingi o'rinlarda olim tomonidan o'rganilgan Navoiy hayoti va ijodining boshqa jihatlarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Ogoh Sirri Levend. Alisher Navoiy, 1965, -Anqara.
2. Bertels ye E. Navoiy. – T.: 2015. (tarjimon I.K.Mirzaev).
3. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 8 tom. T.: Fan, 1991.
4. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 9 tom. T.: Fan, 1992.

## ABDULLA QODIRIY ASARLARIDA QO‘LLAGAN MAQOLLAR VA ULARNING TAHLILI

**Abdullayeva Nozima Anvarxonovna**

Farg‘ona Davlat Universiteti

Lingvistika (ingliz tili) yo‘nalishi magistranti

[nozima.anvarxonovna@gmail.com](mailto:nozima.anvarxonovna@gmail.com)

**Mirzayeva Dilshoda Ikromjonovna, PhD**

Farg‘ona davlat universiteti Ingliz tili kafedrası mudiri

### ANNOTATSIYA

*Xalq og‘zaki ijodining yorqin namunasi bo‘lgan maqollar badiiy asarlarda ham unumli qo‘llanadi. Ular badiiy asarda turli ma‘no-mazmunni ifodalash uchun ishlatiladi. Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning kichik hajmli asarlarida foydalangan maqollari xalq og‘zaki ijodida berilgan maqollarning original versiyasi bilan qiyosiy tadqiq qilinib, o‘rganib chiqiladi. Ularning badiiy matndagi ma‘nosi va funksiyasi tahlil qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** maqol, hikoya, sarlavha, yakun, o‘z ma‘nosi, ko‘chma ma‘no, tana qilmoq, kinoya, Abdulla Qodiriy.

### ABSTRACT

*Proverbs as samples of folklore are used efficiently in fiction. They are used to express different meanings in the novels. In the abstract the proverbs used in the short stories of Abdulla Kadiriy is researched with comparing the original versions of proverbs of folklore. The meanings and functions of the proverbs in the novels are analyzed.*

**Keywords:** proverb, novel, title, conclusion, real meaning, figurative meaning, blame, irony, Abdulla Kadiriy.

### KIRISH

Xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi va eng qisqa namunasi bo‘lgan maqollar badiiy adabiyotning nasriy asarlarida ham keng qo‘llanadi. Maqolada o‘zbek buyuk adibi Abdulla Qodiriyning kichik hajmli nasriy asarlari, ya‘ni hikoya va feletonlarida foydalangan maqollar tahlil qilinib, ularning yozuvchi ijodida tutgan o‘rni muhim ekanligini ko‘rish mumkin. Adib maqollarni asar tilining uslubi uning kimga tegishli ekanligini aniqlab turib shularga mos bo‘lgan maqollarni qo‘llaydi. Ilmli kishi (Kalvak Maxzum) va omi odam (Toshpo‘lat tajang va boshqalar) tilidan aytilgan maqollar bir-biridan farq qiladi. Maqollardan foydalanish orqali yozuvchi o‘z fikrini qisqa-lo‘nda, tushunarli va ta‘sirli qilib bayon qilishga erishadi. Yozuvchi birgina maqol orqali butun bir voqeani izohlashga erishadi. Maqollardan achchiq kinoya

maqsadida, yoki yengil kulgu qilish uchun foydalanadi. Yozuvchi deyarli har bir asarida maqollardan unumli foydalanishga harakat qiladi.

Maqolada Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” tragediyasida, “Tinch ish”, “Juvonboz” hikoyalarida, “Bozor surishtirmaydir” va “Kula-kula o’lasan” kichik feleto’nida, “Otam va Bolshevik” (kulgulik), “Tilak”, “Ko’mak ” uyushmasiga ionalar maqolasida, “Dardi yo’q - kesak, ishqiy yo’q - eshak” kichik hikoyasida, hamda “Kelinni kelganda ko’r, sepini yoyg’anda ko’r” nomli maqolasida foydalangan maqollar tahlil qilinadi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” tragediyasi (sahna asari- Turkiston maishatidan olingan to’rt pardalik fojea) da asarning bosh qahramoni kuyov bo’lmish 25 yoshli Solih ismli yetim bolaga otasining do’sti bo’lgan Fayziboyning qizini unashtirish uchun uning amakisi Abdurahim va ellikboshi bilan birga boradilar. Kelin bo’ladigan qiz 16 yoshli Rahima.

Sep oldi-berdilari haqida gap keta turib domla-imom (Abdurahimga qarab): Siz xo’b deyabering, bundaqangi yaxman deb o’lturmang, to’yg’a ketkan oqchani Xudo o’zi yetkazadur, qarzdor bo’lsa, bo’lar. Qarz uzilar, xotun yonga qolar, degan so’z bor. Ellikboshi qayog’dagi bo’lmagan so’zlarni gapurib, sizni sustlanturib qo’yidilar. Ul kishining so’zini qo’yabering.

To’yg’a ketkan oqchani Xudo o’zi yetkazadur – xalqimizda To’yga qush qanotini yozibdi, To’yning boshi boshlanguncha degan naql bor. Biron kim to’y qilmoqchi bo’lsa-yu, yetarli mablag’i bo’lmasa, tashvishlanmasligi uchun yaqinlari shu iborani ishlatadilar.

Qarz uzilar, xotun yonga qolar – Qarz ol-da, xotin ol, qarzdor qarzin olar, xotin yoningga qolar.[O’zb.x.m., 1989, 405B.]

Abdurahim:- Ey,ahmoq ekansan-ku, yaramas gaplarni gapurma. Fotiha Xudoning muhri, debdurlar, fotihadan qaytsang kishini fotiha uradur, “Keyingi pushmon jonga dushman” degandek, bir kasalg’a yo’luqib, keyin pushaymon bo’lib yurma...

“Keyingi pushmon jonga dushman”- bilmasdan, oxirini o’ylamasdan avval biron ish bajarib bo’lib, so’ng uning oqibatidan qattiq pushaymon bo’lganda, ko’pincha bunday natijani to’g’irlab yoki o’zgartirib bo’lmasligida ishlatiladigan maqol o’z ma’nosida foydalanilgan.

Solih va Rahimaning vafotidan so’ng uylarida barcha kishilar jam bo’lgan vaqtda ellikboshi kelin bo’lmishning otasiga qarata: - Endi sizg’a Xudo sabr bersun. Yig’ining foydasi yo’q. Har narsa qildingiz, o’zingizg’a qildingiz, o’z oyog’ingizg’a bolta urdingiz.

O'z oyog'ingizg'a bolta urdingiz- o'z oyog'ingga o'zing bolta urma, o'zing turgan shohni kesma kabi variant bo'lib, o'ziga o'zi zarar yetkazuvchi insonga nisbatan aytiladi. Bu yerda orzu-havas deb qizi va kuyovidan ayrilgan otaga nisbatan aytiladi. Bu yerda otaning qilmishini, orzu-xavas doim ham yaxshilikka olib bormasligi tana qilib aytiladi.

“Tinch ish” hikoyasida Domla Sharif Oxundning mansabga ko'tarilishi va yana bir parcha qog'oz bilan undan tushirilib, siyosatdan qo'lini yuvib, tinchgina imomgarchilikka o'tgani hikoya qilinadi. Oxundning buyruqni ochib ko'rayotgan paytda bir parcha qog'oz haqida shunday deyiladi: “Meni ko'rma, ham kuyma!” degandek bo'lib, o'z-o'zidan shaldiramasdan buklanib ketadi.

“Meni ko'rma, ham kuyma!” – ko'rmoq boru, yemoq yo'qga ya'qin ma'noda ishlatilgan maqol bo'lib ko'rib qolsa, olgisi keladi lekin qo'li yetmaydi. Shuning uchun ko'rmayin ham, kuymayin ham, deb aytiladi.

“Juvonboz” hikoyasida savdogarning yolg'iz o'g'li Sa'dulla yaqin o'rtog'i Rahimjon bilan bog'da mehmonlariga taom keltirib, dasturxon yozadilar. Rahimjon mehmonlarga musallas quyib beradi. Chapani yigitlar “Xo'b o'tkur bo'libdi-da, hozirim- huzurim”, deb mayni simirib ichadilar.

Hozirim- huzurim (Bir kunlik huzuringga uchma, Bir kunlik huzur, ertangi rohatni buzur ) faqat hozirgi, bugungi rohatini, huzur-halovatinigina o'ylaydigan, ertangi kunini o'ylamaydigan, keyin keladigani bilan ishi bo'lmaydigan odamlarga kinoya tarzida aytiladi. [Sh.Shomaqsudov, Hikmatnoma. O'zbek xalq maqollarining izohli lug'ati, T., 1990,516b]

“Bozor surishtirmaydir” kichik feleto'nida: hikoya qiluvchi tilidan, Har kim bo'lsa ham o'tmas matohini o'tkurib qolsin. Vaqt kelur, bozor kasod bo'lur, xalq molning yaxshisini tilar, har kasbda haqiqiy ustalargina qolur, boshqalar o'z chorug'ini sudrar va sudrashga majbur bo'lur. Shungachi o'rtoq, tishni-tishga qo'yib, damni ichga olib, tinchkina yurmoq kerak! Ammo hozir bozor surishtirmaydir! Toshka yomg'ur kor qilmaydir!

Toshka yomg'ur kor qilmaydir – Aslida Tomchi toshni teshadi, tomchiga tosh chidamas shaklida bo'lib asarda teskari qo'llanib, ma'no kuchaytirilgan. Bular bilan “G'am-qayg'uning katta-kichigi bo'lmaydi. Oz-ozdan bo'lsa ham, kishini asabini buzib, ich-etini kemirib, umrini “egovlab”, axiri adoyi-tamom qiladi”, demoqchi. [Sh.Shomaqsudov, Nega shunday deymiz, T., G'.G'ulom, 1988, 256b]

Toshka yomg'ur kor qilmaydir! Bu maqolni o'zgartirish o'rqali muallif butunlay boshqa jarayonni izohlamoqchi. Aslan olib qaraganda, tomchi tomchilagani sayin toshni teshishi kerak lekin yozuvchi shunday bir davrni tasvirlamoqdaki, hatto yomg'ir ham toshga ta'sir eta olmaydi.

Muallif “Kula-kula o’lasan” kichik feleto’nida avval “lottichi” (ko’zboy-lag’ich) haqida keyin G’ozi Yunusning turli xalqlar sahna asarlariga yozgan so’zboshilarini mazah qilar ekan: Bu so’zlarga kula-kula o’lasan! “So’zlay-turg’on qog’urchoq” ozarbayjonchadan buyuk noshirning tabdillari ekanki, tantana ila imzolari asar boshinda qo’yilmishdir. Birov “Kalning tanig’ani sho’ra” desa tag’i : Kula-kula o’lasan...

Kalning tanigani sho’ra – bu maqol bema’ni ishlar bilan shug’ullanuvchi odamlarga nisbatan aytiladi. [8-74b.muallif izohi] Ya’ni G’ozi Yunusning boshqa xalqlar yozuvchilarining asarlariga bilib-bilmay o’z nomini mashhur qilish uchun yozayotgan izoh yoki kirish so’zlarini mazah qiladi.

“Otam va Bolshevik” (kulgulik) da xon zamonlari va sovet hukumatini ko’rgan 99-100 yoshlardagi muallifning otasi o’g’li bilan bo’lgan suhbatda bolsheviklar orasida o’zimznikilar kamligini eshitib attang qiladi: Ey, o’g’lim, odam bo’lgandan keyin har narsaning ham boshida bo’lish kerak, “Non qo’ynimda, it keyinimda!...” deb, har qanday tuzumda ham odamlarning oldi bo’lishni ma’qul ko’radi.

“Tilak” hangomasi “Lo’li elaklik bo’ldi, eshagi tilaklik bo’ldi!” Xij- xij- xij- xij! Kiraturg’animiz 23-yildan tilak emish! deb boshlanadi. Bu hikoyasida nasroniy mustamlakachilar kabi musulmonlar ham yangi yilda tilak tilashlari kerak bo’layotganligini mazax qiladi.

Lo’li elaklik bo’ldi, eshagi tilaklik bo’ldi – O’zbek xalq maqollarida “Kelinim elaklik bo’ldi, elagi tilaklik bo’ldi” shaklida berilgan. Ya’ni bir nima ketidan yana boshqa hoyu-xavas keldi degan ma’noda ishlatilgan.

-Miya g’ovlab o’lturg’anda birdan ko’ngilga “Yangi yildan tilak” savdosi tushib qolmasinmu?... “Otang nechchilik –bo’zchilik, sanga kim qo’yubdir bu noma’qulchilik?!” degandek, o’zimzning bitta-yu uch chorak ibtidoiy maktablarimiz, bo’qcha-yu elcha o’rta maktablarimiz botmonu dahsar siyosiyunlarimiz, “tana-manasi” bilan muncha muharrirlarimiz bilan go’yo madaniy millatlar qatorig’a kirib qoldiq-da, bizga endi yangi-yangi yilga tilak bilan kirish ishi ko’ndalang keldi!

Otang nechchilik –bo’zchilik, sanga kim qo’yubdir bu noma’qulchilik?! Otang nechilik- ignachilik, senga kim qo’yipti temirchilik?! Otang- quzg’un, onang-quzg’un, sen kimdan o’zg’un?! Variantlari bo’lib, bu orqali sening biror odamdan ortiqlik yering bormi, nega buncha kerilib, o’zingni baland olasan, deyilmoqda. Bu maqollar takabbur, manman, o’zini o’zgalardan ustun deb biluvchi, mag’rur odamlarga nisbatan kinoya va istehzo tarzida qo’llaydilar. [Shomaqsudov, Hikmatnoma, T., 1990y,321b]



Yozuvchi shikoyatomuz tilaklarni tilashni boshlar ekan shunday deydi: “Yetmish yashagan qizning yetti- yetti tilagi bor” deydir. Unga o’xshag’an bu notavon ko’ngilning ham to’qquz-to’qquz tilagi, o’tkun-o’tkun ulkani bor!

Yetmish yashagan qizning yetti- yetti tilagi bor - ya’ni qanday ahvolda bo’lmasin kishining xohish-istaklari albatta ko’p va bitmas-tuganmas bo’ladi, deb nazarda tutilgan.

-Bo’lmasa ul yozsun, siz eshiting notavon ko’ngilning tilaklarini:

1.”Man qilaman o’ttuz, tangri qiladi to’qquz!” Bu so’z yangi yilda davom etaturg’an ibtidoiy maktablarimizg’a juft tushkay edi! Omin!

Man qilaman o’ttuz, tangri qiladi to’qquz! - Bu maqol Sh.Shorahmedovning Hikmatnoma kitobida Men qilaman o’ttiz xotinim qiladi to’s-to’s, shaklida berilgan bo’lib, mazkur maqol jo’ja ko’paytirmoqchi bo’lganga nisbatan aytilgan deyiladi. Jo’ja katta bo’lgani sari yo nobud bo’ladi, yo boshqa hayvonlar yeb soni kamayib ketadi. Ya’ni og’zi oshga yetay deganda, mehnatining rohatini ko’ra olmaydi.[o’sha kitob 209b.]

“Ko’mak uyushmasiga ionalar” maqolasida ushbu uyushmaga boylarning qilgan turli ehsonlarini istehzo bilan kulgu qilar ekan, Valixojining besh milliard so’mga arziydigan duosi, G’ulomshayx boybachchaning ham besh milliardga arziydigan “o’qishg’a ketgan yigitlar mullo bo’lsunlar”,degan yaxshi tilagi, “Tujjor” shirkatining ikkita sopol tovoq bilan bitta xurmacha iona ya’ni yordamlarini Berlinga ketgan o’quvchilarga yuborar ekan muallif Dumbul deya ismini yozgach,” Mushtum: Oltun olma, duo ol-duo oltun emasmi?” deb maqolani tugatadi. Bu maqol o’z ma’nosida qo’llangan ya’ni talabalar Germaniyadagi o’qishlari uchun pul emas, duo zarurligini aytadi. Bu albatta ziqna boylarga nisbatan kinoya bilan aytilgan gap bo’lib, asli chet elga o’qishga ketib qiynalib qolgan talabalarga pul zarur edi.

Oltun olma, duo ol-duo oltun emasmi - Hikmatnomaga ko’ra bu maqolda duo yaxshilik qilib, olqish olish ma’nosida berilgan. Muallif esa kinoya tarzida qo’llab, talabalarga och-nahor, pulsiz, kiyim-kechaksiz bo’lsalar-da, duo olsalar ishlari yurishib ketadi, deb boylarning ziqnaligiga ishora qiladi.

Shu hangomaning davomida muallif maktablarni kulgi ostiga oladi:

O’tkandagidak, bemaza qovunning urug’ini ko’paytirilsa, maktab remo’nti xuddi o’qish boshlanaturg’an kun eska tushsa, bolalar sovuqda dildirashib, bit qoqishsalar, har bir tutanturuqsiz muallim va murabbiy qilinib belgulansalar, bolalar bilan qo’chqor urushdirishib xalq o’rtasida yangi maktablarga yangi “obro‘ ‘ orttirib bersalar, inshooloh, tilagimiz kuzatkan o’pqonimizdan chiqar!

Bemaza qovunning urug’i ko’p- sifatsiz narsa ko’p bo’ladi deb, muallif maktablarning, muallimlarning, ta’limning bor bo’lsada, sifatsizligini nazarda tutadi.

Ixtor: shahar maktablarining holi shu bo'lsa, xudo rizosi uchun qishoqda maktab ochishni tilga olinmasun. Chunki “Yopig'liq qozon yopig'liq”da.

Yopig'liq qozon yopig'liq - Yopig'liq qozon yopig'liq qolsin. Mazmuni bu gap shu yerda qolsin, hech kimga aytma yoxud Bu sir pinhoni bo'lib qolsin, hech kim undan xabardor bo'lmasin, degan ma'noni anglatadi. [H.Sh.Sh.T.,1990y.,130b.]

“Dardi yo'q - kesak, ishq yo'q - eshak” kichik hikoyasida barcha yoshu-qari odamlar Kalning to'yida, choyxonada g'ij-g'ij bo'lib o'tirgan choqda “Sharq sahnasi” yaxshi niyat yorti mol, deb kino qo'yar, ... o'yunxona eshikidan “g'ing” degan bir chibin uchmaydir.

Muallif teatrdagilar yaxshi niyyat bilan tomosha qo'yishar zora biron tomoshabin kirib qolar deb, baland ovozda karnayda erinmay chaqirishayotganligini aytadi.

Yaxshi niyat yorti mol –umidsizlikka tushmasdan, ertangi kun haqida yaxshi, ijobiy niyatlar qilishdir. Yaxshi, ezgu niyyat albatta ishning yarmi bajarilishiga tengdir.

Muallifning bangixonada nasha chekib o'tirgan do'sti:

Xarsak – marsak ,

Dardi yo'q - kessak,

Ishqi yo'q – eshshak! deb aytsa, avval tushunmagan muallif, keyinroq teatrga muxlislik qilish o'rniga barcha yoshu qari birdek yo to'yda, yoki choyxonadaligini solishtirar ekan,beihtiyor “Dardi yo'q - kessak, Ishqi yo'q – eshshak!” deydi. Bunga muallif o'zi dard bo'lmasa, ishq bo'lmasa odamning kesakdan nima farqi bo'lsin-u, eshakdan nima ayirmasi, deb hikoya so'ngida izoh berib o'tadi.

Mushtum jurnaliga 1924-yil yozilgan Kelinni kelganda ko'r, sepini yoyg'anda ko'r nomli maqolasida Toshkentda yangi ochilgan “Nashriyot shirkati” ni qalamga oladi. Qancha umidlar bilan nashriyotga borgan yozuvchi bir yilu o'n ikki oy asarini chop qilishlarini kutishi kerakligi, nashriyotdagilarning o'z ishiga befarqligidan kuyunib, maorifga beparvo bo'lganlarni kulgi ostiga oladi.

Kelinni kelganda ko'r, sepini yoyg'anda ko'r –kelinni olishdan oldin juda ko'p maqtaydiganlarga nisbatan aytilgan bu maqol, yolg'on yoki chin sifatleri bilan maqtalgan ish keyin xafsalani pir qilishligini hikoyaning shu nomi bilan ta'kidlab o'tadi. Bu maqol hali qandayligini bilmasdan turib nashriyotni maqtab va yoki uni ochilganligidan oldindan bong urib xursand bo'lib, keyinchalik o'ylaganday yaxshi nashriyot emasligiga ishonchlari komil bo'lgach aytilgan.

Maqola – Osh tegsa – to'y, tegmasa tafarruj...deb og'alar to'yga boradirlar... “Qoramol egasiga o'xshamasa harom o'ladir”, “Avatiga chavati, misqozonga loy

tuvoq”, Eng oxirida “Eshagiga yarasha tushovi”, - deb zor-zor, chun abri nav bahor yig’lag’an ham “Huv!” deb cho’lu biyobong’a chiqub ketkan ekan, bir bechora!.. deb boshlanadi. Bunda muallif bir qator maqol va matallarni birin-ketin qo’llaydi.

Osh tegsa – to’y, tegmasa tafarruj- yo osh yeb to’y boladi yoki tomosha bo’ladi. Bu birinchi abzas yangi ochilgan befarq kishilar ishlaydigan nashriyotga nisbatan istehzo bilan o’xshatish qilingan.

Qoramol egasiga o’xshamasa harom o’ladir ya’ni maorif yoki nashriyot ham xalqning o’ziga o’xshab beparvo deb aytmoqchi bo’ladi.

Avatiga chavati, misqozonga loy tuvoq, Eshagiga yarasha tushovi- bu maqollar – Qozonga yarasha qopqog’i, Yoriq havonchaga - siniq sop, Bo’lmagan bug’doyga - o’tmagan o’roq kabi maqollar bilan sinonim bo’lib, arzimagan ish uchun o’ziga yarasha harakat yoki e’tiborga loyiq bo’lmagan kishini izzat-hurmat qilinmaganda qo’llaniladi. Maqolada muallif nashriyot ham o’zimizga yarasha, demoqchi bo’ladi.

-Hoy, muallim, Pishirib ye darsliklarni, hoy, tashlagani kitob, eplab ol bularingni! – deb bir-birovimizni turtishdik. Ammo hech bir ish buzuqining esiga: - Kelinni kelganda ko’r, sepini yoyg’anda ko’r! – degan gap kelmadi... deb, maqolni hikoya so’ngida yana bir bor takrorlaydi.

-Ko’chaga tashlab qo’yg’an pul, tekin oftobga chiqqan mushuk, yuk tashiyman degan shaloq arava... ana shunday o’ngu ters so’zlarga har kim ishonsa, yebdir noma’qul buzoqning go’shtini...

Tekin oftobga chiqqan mushuk – asli mushuk ham bekorga oftobga chiqmaydi shaklida bo’lib, o’z ma’nosida mushukning qorni to’ysagina cho’zilib oftobda yotadi, ko’chma ma’noda esa arzimagan ish uchun ham to’lov talab qilinadigan ishlarga aytiladi. Ya’ni muallif hech qanday harakatlarsiz hech nima o’z o’zidan zo’r bo’lib qolmaydi, demoqchi.

## **XULOSA**

Maqollar xalqning ma’naviy mulki bo’lib, xalq badiiy asarlarida turli maqsadlarda foydalaniladi. Abdulla Qodiriy xalq maqollarini o’z asarlarida unumli ishlatib, ularning purhikmat va purma’no fazilatidan foydalanib, o’quvchi e’tiborini jalb qilishga erishadi. Yozuvchi maqolni ba’zan o’z asl holicha, bazan butunlay o’zgartirib o’z badiiy asarlarida qo’llab, ularning ta’sirchanligini, badiiyligini oshiradi. O’quvchini xalqqa yaqinlashtirishga erishadi. O’quvchi asarga o’z qadrtoni kabi munosabatda bo’lishiga erishadi.

## **REFERENCES**

1. A.Qodiriy “Diyori bakr”, Toshkent, Yangi asr avlodi, 2007-yil
2. Mirzayev T. “O‘zbek xalq maqollari”. –Toshkent: 2003.

3. O‘zbek xalq maqollari. –Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
4. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq 2012
5. O‘zbek xalq maqollari. - Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1978.
6. O‘zbek xalq maqollari. II tomli. – Toshkent: O‘zbekiston fan nashriyoti, 1988
7. Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Ma‘nolar maxzani . -T.: 2001
8. Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Nega shunday deymiz? O‘zbek xalq maqollarining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1988
9. Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh., Hikmatnoma, - Toshkent, 1990
10. Mirzaeva, D. (2021). THE ROLE OF PAREMIA IN THE SYSTEM OF NATIONAL CULTURAL HERITAGE. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(3).
11. Mirzayeva, D. (2019). Proverb as a kind of paremiological fund and as an object of linguistic and methodological research. *Мировая наука*, (11 (32)), 33-36.
12. Abdullayeva, N. A., & Mirzayeva, D. I. (2022). ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA MAQOL VA MATALLARNING QO‘LLANISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 64-69.

## **THE ENGLISH EFFECT**

**Patidinova Fozila Qamardin qizi**

Student of Andijan State Institute of foreign languages

**E-mail:** [academicaget6767@gmail.com](mailto:academicaget6767@gmail.com)

### **ABSTRACT**

*In this article, the study of foreign languages in a person's life the importance is discussed. Today, it is very important for everyone to know foreign languages. The fact that the world is becoming more and more globalized, and knowing two languages, is not just a fever, but a demand for time. Learning foreign languages is a life skill aimed at learning how to truly communicate and connect with others.*

**Keywords:** *foreign language, distance learning, social networks, modern technology, language specialist*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье обсуждается важность изучения иностранных языков в жизни человека. Сегодня всем очень важно знать иностранные языки. То, что мир становится все более и более глобализированным, и знание двух языков — это не просто лихорадка, а требование времени. Изучение иностранных языков — это жизненный навык, направленный на то, чтобы научиться по-настоящему общаться и общаться с другими людьми.*

**Ключевые слова:** *иностраный язык, дистанционное обучение, социальные сети, современные технологии, лингвист.*

### **INTRODUCTION**

**Relevance of the topic:** Learning foreign languages is an existing barrier between humans and different nations and it also serves to eliminate borders, ensure that all representatives of the people living on Earth correctly understand each other, live in harmony and mutual compromise. For this reason, teaching and learning English requires recognizing that the customs of the peoples living in all English-speaking countries are diverse, such as the United Kingdom and the United States, while learning French requires that the cultures of French culture, Canada, and African states differ from each other to the fullest.

It is worth noting that language, as a social phenomenon, makes it possible to establish communication between people, achieve spiritual elevation, socio-economic achievements. As a result of these, language (as a phenomenon) is the interaction of different nations living in the same territory, their different relationships and



consequently, cross-cultural relations are established, and in this respect, intercultural communication is of great social importance in the study of languages.

### **LITERATURE ANALYSIS AND METHODOLOGY**

Language as we know it is a characteristic of man that, it is the main ability that distinguishes man from all living things. Thus language becomes a communicative tool that can potentially express ideas and concepts, as well as moods, emotions and relationships. English is one of the means of expressing one's point of view. We can learn from others. We can test the theories of foreigners from our experience. We can reject what cannot be believed and accept trust. We can also spread our theories to international audiences and readers. We can use English to promote our worldview and spiritual heritage around the world.[1]

The economic integration of European states, the redistribution of World Space, globalization encourage a person to perceive himself as a carrier of universal values, to think in global categories, to feel himself as a “citizen” of the world. He is no longer content with the circle of ethnic Microcosm, which leads him to seek ways to join the “distant world”. One of the tools of such initiative is the study of a foreign language as a means of interethnic communication. The number of fluent speakers of one or more foreign languages in Russia is increasing every year – not only narrow specialists: translators, teachers, referents, but also those who use a foreign language in the context of everyday communication. Knowledge of a foreign language serves as a factor that activates the mechanism for changing the system of previously acquired vital meanings, values and directions of a person through his native language. The restructuring of consciousness is carried out, which causes many psychological problems for the subject of restructuring, including the problem of self-awareness, self-awareness, the formation of a worldview, including such a fundamental element as the picture of the world.

A group of linguists who base their assumptions about language on psychology argue that language is nothing more than "habit formation". They believe that language acquisition occurs through use, practice. They believe that "the more people use language, the better they learn it".

The latest and most advanced discoveries and inventions in science and technology have been made at universities located in the United States of America, where English is a means of scientific speech. Almost all business negotiations are conducted in English . Knowledge of English is a great advantage internationally, whether you are on a trip or a business trip, or you just talk to people from another country - you only need to know English. In addition many scientific literature is

written in English. Therefore, knowing the language will help if you want to become the best specialist in your field of activity.

***The Influence of the English language on the development of countries (in the case of India)***

### **English in India**

The historical context of India (which has been under British rule for over two centuries) has given Hindus easy access to master English and countless opportunities for development in science and technology. Many Hindus have become masters of the English language and have won many international awards in creative and comparative literature over the past few years.[2]

Over the years, English has become one of the major assets in gaining global leadership for books written by Indian authors and films made by Indians in English. Famous Indian film director Shekhar Kapur's " Elizabeth " was nominated for several Academy Awards. No further evidence is needed to determine the advantages of the English language that it has brought to Indians internationally.

English comes to the aid of the people of India and in trade operations around the world. English is the world's business management language, and knowledge of English has brought success to many Indian business managers. English is becoming increasingly important not only for the medium of international trade, but also for interstate commerce and communication. People who travel from North to South for education or business in India mainly communicate in English, which has become lingua franca. In view of this, Parliament recognised English as an official language in addition to Hindi. Today, all the facts of history and change in India emphasize the continuing importance of learning English beyond the local languages.[3]

### **World English.**

So, today you have learned that knowledge of English is very important in today's world. You also saw a vivid example of how English affects the life of third world countries on the example of India.

Modern English is a very diverse language, absorbing material from many other languages. It is spoken by more than 300 million native speakers and 400 to 800 million foreign users. It is the official language of Air Transport and cargo transportation; the leading language of science, technology, computers and commerce, as well as the main medium for education, publications and international negotiations. For this reason, scholars often refer to it as World English

### **The importance of languages.**

Currently, humanity uses 6,809 living languages and about 100 dead languages to facilitate social communication [Indigenous ...]. Communication has greatly

improved in the 21st century due to the widespread use of media, computers and mobile phones. The Internet is rapidly becoming a trunk of information of our choice, which carries out our need for communication, as well as important business operations and negotiations.

Without knowledge of the universal world language, it is almost impossible now to be a complete part of the “global village” in which we live. Nevertheless, English, a global language, is now in conflict with Indigenous languages and cultures, although new “linguistic attacks” warn us that no language can completely resist another and that the development of the language depends on how it is used. [4]

### **The role of English as a global language.**

It is estimated that around a billion people in the world use English as their native language or foreign language. The use of English as an official or semi-official language is common in more than 70 countries and plays a very important role in another 20 states. More than 1,400 million people live in English-speaking countries. About 75% of the world's mail and information is stored in English. Most of the approximately 50 million Internet users use English [McArthur 2002]. [5]

In addition to the development of English as a world language, we will know some features that the world language should have. Regardless of its origin, it must be a practical and useful language that can meet everyone's needs. While English was originally English, there are now many varieties of it, including American, African, Indian, and Australian English. In addition, the English language now combines the dreams and aspirations of many peoples. [6]

As well as experience from different countries. It is used to convey a huge amount of different information, whether it is the latest achievements in science and technology, enrichment of the experience of an ethnic group or business negotiations, in documenting cultural characteristics, in individual experience. His vocabulary was enriched with new words borrowed from other languages of the world. Over time, it is revealed that the global language changes beyond recognition as in English.

About ten thousand words borrowed from Hindi and other Indian languages became part of Indian English. These include: guru, babu, chorpoy, kari etc. We are very familiar with the following frequently used Pidgin words: lathi-zaryad (the phenomenon of a group of police officers running after someone with a police baton), riksha-wall (a small two-wheeled cart for one passenger, pulled by one person), double roti (bread) and others [Oxford ... 1997]

As a Global language, English faces many challenges. Oral English varies from region to region depending on the cultural and linguistic differences of the local people. [5]

Similarly written English is very different in lexical aspect, form and structure, since the language is primarily a carrier of its own thinking and “schema”. Therefore, the English used by an African is not the same language as used by an Australian. Exposure to electronic SMS also affects the spelling and grammar of the English language. Questions of “clarity” and “acceptance” [Abbott 1979: 168-175] on different types of English have not yet been fully resolved.[7]

The big problem of Overcoming Love-Hate in relation to a foreign language has not yet been solved. In addition, there are strong comments about English by language communities such as French, Arabic, German and Dutch. Many non-linguistic reasons also include nationalism, ethnicity, ideology, religion, politics, and culture when it comes to world language, often in combined and sometimes explosive mixtures [ethnicity ...

Based on the previous rules, a questionnaire was compiled from yes / no questions that provide a place for clarification. 230 people volunteered to fill out the questionnaire.

## **RESULT AND DISCUSSION**

**Below is a summary of the survey results.**

1. 66.95% of respondents do not believe that learning English from first grade negatively affects students ' mother tongue, culture, and self-awareness. Nevertheless, 68.69% believe that English promotes Western values in terms of clothing, food, work and leisure. This also affects the lifestyle of the family and society.

However, 70.86% of respondents believed that students would study better if they were given the opportunity to study science and art in their native language at school . 82.17% believe that students will show more creative abilities if the learning process is structured in their parents ' language.

2. Interestingly, 70.86% of respondents were satisfied with the level of teaching English at the initial stage, while 67.82% took into account the modern system of teaching based on memorization. One of the reasons may be that most students have never used other learning techniques.

3. 96.08% of survey participants believe that there are areas where knowledge of English is important . While local media seem to cover all aspects of world events, only 33.97% of the media recognize that they help them to be aware of Science, Technology and current world events. 95.21% of respondents consider knowledge of English necessary for the sustainable development of their country. Not surprisingly, 86.95% prefer to teach English at the same time as their native/regional language. However, 84.37% do not consider English more important than their native language.

4. 96.52% of respondents agree that there is a need for a universal auxiliary language that facilitates intercultural communication between people. 81.73% of respondents believe that global connecting language helps to strengthen solidarity among people of different nationalities. 83.04% of respondents believe that the global language should reflect world culture, customs and Customs. 66.95% express the opinion that such a language should include each of the main cultures. 40%

5. 68.2% of respondents responded that a global language should obey simple rules. 33.08% (majority) are of the opinion that it should have a few exceptions, 20% (majority) should be free of gender bias; another 23.03% (majority) said that the language should not have silent letters. In this question on grammar, many of the survey participants chose the option “I can't answer”, indicating that they never thought about what a global language should be.

A detailed analysis of the results obtained showed that students clearly know the need for a universal auxiliary language (on average 94.6%). Students believe that English should be taught to all students because it serves as the language of global communication and gives everyone great social and economic opportunities. However, they admit that they did not teach other subjects if they were taught in English instead of their native language. The creative activity of students is also limited by the lack of educational resources (there are many students per teacher) and poor infrastructure in schools.

Despite this being a complex socio-political linguistic issue, most students agree that world leaders should agree on a universal auxiliary language that children learn at the same time as their native language. The chosen language should cover all cultures, but not be more important than the child's native language. Grammatical rules should be simple, and 72.6% agreed with the idea that this language should be chosen from the current natural languages. 61.73% of students expressed the opinion that a neutral Alphabet should be used for a global language.

## **CONCLUSION**

To summarize, knowledge of English is for every industry representative new opportunities are the key. One door will open if you know your area well, another door will open if you also know the inlizz language. Exactly, knowledge of the language will open the door to the whole world.

From this study, it can be seen that in a rapidly developing global civilization, all children benefit from learning such an auxiliary international language as English at the same time as their native language. This allows them to easily communicate and interact with their peers around the world. As a result, this strengthens the link



between local and national languages in each country and a global connecting language such as English to maintain cultural diversity.

The only way for all people on the planet to live peacefully lies through the adoption of a universal auxiliary language. And this issue should be considered immediately.

In any decision on the choice of the world language, the following should be taken into account:

- Opportunity to study it globally;
- His attitude towards the native language of each language group;
O‘zaro savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalarni kengaytirish, xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash ikki tomonlama munosabatlarda ustuvor o‘rin tutadi. O‘zbekiston ham, XXR ham ulkan iqtisodiy salohiyatga ega davlatlar qatoriga kirganligi sababli mamlakatlar o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik yuksak samaralar bermoqda. Hamkorlikni rivojlantirishdan katta manfaatdorlik tufayli o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi ham jadal sur‘atlar bilan o‘smoqda. O‘zbekistonda XXR kapitali ishtirokida qariyb 310 ta qo‘shma korxonalar tashkil etilgan, XXRning 70 dan ziyod yetakchi kompaniyalari vakolatxonasi faoliyat yuritmoqda. Ikki davlat o‘rtasida hamkorlik aloqalarining rivojlanishida XXRning “Bir makon-bir yo‘l” tashabbusi muhim ahamiyat kasb etadi. “Bir makon, bir yo‘l” — Markaziy Osiyo, Yevropa va Afrika mintaqasida joylashgan 60 dan ortiq mamlakatlarni o‘zaro bog‘lovchi iqtisodiy yo‘laklarni yanada takomillashtirish hamda yangi transport va savdo yo‘llarini yaratishga qaratilgan xalqaro dastur hisoblanadi. Ushbu hududdagi davlatlar jahon yalpi ichki mahsulotining 55 foizini, global energiya zaxiralarining 75 foizini o‘zida jamlagan<sup>12</sup>.

XXR tashabbusi bilan ilgari surilgan ushbu dasturda O‘zbekistonning tranzit hudud vazifasini o‘tab berishi mamlakatni iqtisodiy jihatdan yanada yuksaltirish imkonini beradi. O‘zbekiston Osiyo mamlakatlari orasida Xitoy bilan ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga alohida e‘tibor bilan qaraydi. Bu ikki mamlakat bir-biri bilan bir necha ming yillik hamkorlik rishtalari bilan bog‘langan, madaniyatimiz, ma‘naviyatimiz bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va aloqalarning tarixiy ildizlari zamonaviy bosqichdagi hamkorlikning rivojlanishiga ham samarali ta‘sir ko‘rsatmoqda. Xitoyda amalga oshirilgan keng miqqiyosdagi iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy islohotlar tajribasi O‘zbekiston Respublikasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi O‘zbekiston Respublikasi Xitoyning dasturlarida tranzit hudud sifatida muhim o‘rin tutadi.

## **XULOSA**

Muxtasar qilib aytganda Xitoy, O‘zbekiston va boshqa mamlakatlarga taraqqiyot uchun yangi imkoniyatlarni yaratib beradi. Xulosa o‘rnida shuni aytish

<sup>11</sup> <http://www.stat.uz> (Statistik ma‘lumotlar portali)

<sup>12</sup> “Marifat” gazetasi ning 26.04.2019 dagi soni

mumkinki O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari, jumladan Xitoy Xalq Respublikasi bilan hamkorligi mustaqil tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab olindi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)**

1. "Mustaqillik Deklaratsiyasi" - O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Sovetining 20.06.1990-yil ikkinchi sessiyasi
2. [http:// www.stat.uz](http://www.stat.uz) (Statistik ma'lumotlar portali)
3. Sadibekova B. Xitoy iqtisodiyoti. III qism. – T., 2011. – 89 b.
4. [http:// www.stat.uz](http://www.stat.uz) (Statistik ma'lumotlar portali)
5. "Marifat" gazetasi ning 26.04.2019 dagi soni.
6. Saidov, S. (2021). Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san'atiga qo'shgan hissasi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(1), 334-337.
7. Saidov, S. (2022). "TADBIR UL-MANZIL" RISOLASI–OILAVIY MUNOSABATLAR UCHUN DASTURULAMAL. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 894-897.
8. Saidov, S. (2022). TARIXIY MANBALARDA KELTIRILGAN IBN AL-MUQAFFA BORASIDAGI MA'LUMOTLAR TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 525-528.
9. Saidov, S. (2023). "TARIXI GARDIZIY" ASARINING TARIXIY QIYMATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 842-847.
10. Saidov, S. A. O. G. L. (2021). IBN AL-MUQAFFANING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(7), 8-14.
11. Саидов, С. (2022). ЯНГИ МАЪНАВИЙ МАКОННИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ИБН МУҚАФФА АСАРЛАРИНИНГ РОЛИ. *International scientific journal of Biruni*, 1(3), 19-22.

## **O'ZBEK VA INGLIZ ADABIYOTIDA METAFORALARNING FOYDALANISH TAHLILI**

**S. Shermamatova**

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

**M. Odiljonova**

Farg'ona davlat universiteti talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur tadqiqot jarayonida metafora tushunchasi va uning o'zbek va ingliz adabiyotlarida qo'llanilgan uslublari tahlil qilindi. Adabiy janrning yuragi metafora hisoblanishi ham o'rinlidir.*

***Kalit so'zlar:** metafora, adabiyot, tilshunoslik, ko'chma ma'no, tasviriy vosita, mumtoz adabiyot, R.Qo'ng'urov, Arastu, O.Hanry, pneumonia, she'riyat, nasriy, istiora, Atoyi, Aristotel, John Della, Ritorika, o'xshatish.*

### **ABSTRACT**

*In the course of this research, the concept of metaphor were analyzed and its methods used in Uzbek and English literature. It is also appropriate to consider metaphor as the heart of literary genre.*

***Key words:** metaphor, literature, linguistics, figurative meaning, visual means, classical literature, R.Kongurov, Arastu, O.Hanry, pneumonia, poetry, prose, metaphor, Atoyi, Aristotle, John Della, Rhetoric, Simile.*

### **KIRISH**

Metafora tushunchasi paydo bo'lgandan buyon, o'tgan ikki yarim ming yildan ziyod vaqt oralig'ida ushbu fanga bag'ishlangan juda ko'p tadqiqotlar amalga oshirilgan. Metafora masalasi antik davrdan boshlab o'rganilib kelinadi. Xususan, Arastu bu atamani keng ma'noda qo'llagan. Faylasuf o'zining "Ritorika" asarida quyidagi fikrni ifodalaydi:

"Metafora yuksak darajada aniqlik, yoqimlilik va oxorlilik jozibasiga ega, undan o'rinli foydalanish nutqni bezaydi"<sup>13</sup>. Metafora shunchaki badiiy vosita emas, balki inson ongining, obrazli tafakkurining muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Metafora atamasi murakkab tushuncha hisoblanadi. Sababi, qadimgi antik davrdan boshlab, hozirgi davrgacha ushbu fan faqat tilshunoslarnigina emas, balki adabiyotshunos olimlarning diqqatini ham o'ziga jalb qilib kelmoqda. Yuqorida keltirilgan ikki turdagi olimlarning yagona maqsadi, so'zning ko'p ma'noligi hamda undagi mavjud uslubiy imkoniyatlarni o'rganishdir. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, tahlil jarayonida metaforaga funksional yondashiladi, Chunki, bir tomondan

<sup>13</sup> O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil



yoʻzuvchi yoki shoʻirga oʻzining his-tuygʻularini bayon etishga va asarni maʼnoli hamda chiroyli yetkazib berishga yordam bersa, ikkinchi tomondan oʻquvchiga keltirilgan asarni osonroq tushunish, tasavvur qilish yoki ularni oʻzida his qilib xulosa chiqarishga yordam beradi. Bundan koʻrinib turibdiki, metaforaning sheʼriyatdagi, umuman badiiy ijoddagi oʻrni beqiyosdir.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Metafora soʻzining morfologik va sintaktik xususiyatlari:

Grektilidan kirib kelgan boʻlib, soʻz yoki iborani oʻxshashlik yoki oʻxshatishga asoslangan koʻchma maʼnoda ishlatish va shunday maʼnoda ishlatilgan soʻz yoki ibora, istiora yoki majozdir<sup>14</sup> (“quloq” soʻzining qozonning qulogʻi maʼnosida ishlatilishi metaforaga yaqqol misol boʻla oladi).

A.Potebnya “Metafora qisqargan oʻxshatishdir” deb taʼriflaydi. Oʻxshatishga xos boʻlgan, “aynan”, “kabi”, “xuddi” singari soʻzlar ishtiroki metaforani yuzaga keltiradi. Biroq, metaforalar yuqorida taʼkidlangan soʻzlar ishtirokisiz ham hosil boʻlishi mumkin.

Masalan, “ochiq koʻngil” birikmasi ham metafora. Sababi, ushbu birikma “mehribon”, “gʻamxoʻr” maʼnolarini bidirmoqda. Lekin, koʻrinib turibdiki koʻchma maʼnodagi birikma “kabi”, “xuddi” singari soʻzlar ishtirokisiz yasalgan.

John Stephen metaforaga quyidagicha taʼrif bergan:

Metafora - biror narsa yoki harakatni tushuntirish maqsadida maʼlum bir boshqa obyekt xususiyatidan foydalanadigan adabiy tushuncha<sup>15</sup>.

Masalan: “sochingiz ertalab quyoshidir”. Ushbu gapda sochni rangi tillarang boʻlgani sababli, muallif uni toʻgʻridan toʻgʻri emas, balki quyoshga oʻxshatib tasvirlaydi. Bundan tashqari, buyuk faylasuf Arastu oʻzining mashhur “Poetika” asarida, “Koʻchma soʻz (metafora) – narsaga xos boʻlmagan, jinsdan turga yoki turdan jinsga, yoxud turdan turga koʻchirilgan oʻxshatilgan soʻzdir”- deb taʼriflaydi.

Metaforada gap soʻzma-soʻz tarjima qilinmaydi. Taqqoslash yordamida gʻoyani anglab olish mumkin.

R.Qoʻngʻurov “Oʻzbek tilining tasviriy vositalari” kitobida shunday deb yozgan: “Metaforani yashirin oʻxshatish deyish mumkin. Ammo u oddiy qiyosdan farq qiladi. Agar oddiy qiyos ham doim asosiy ikki aʼzodan tashkil topsa (yaʼni nima qiyos qilanadi, nima bilan qiyos qilinadi – qiyos qilinuvchi va qiyos qilinadigan predmet), metaforada faqat ikkinchi aʼzo – oʻxshatilgan narsa qoladi, oʻxshagan narsa

<sup>14</sup> Aristotel. Ritorika. Poetika-M.: Labirint, 2000, -C.128

<sup>15</sup> Oʻzbek tili stilistikasi. T.: Oʻqituvchi, 1983, -B.246

tushiriladi, lekin u kontekstdan sezilib turadi, demak, metaforada tasvirlanayotgan predmet ana shu ikkinchi a'zo orqali idrok qilinadi"<sup>16</sup>.

Ular og'zaki nutqdan ko'ra, she'riyatda, umuman adabiyotda ko'proq ishlatiladi. Bu esa o'quvchiga ma'noni chiroyliroq va ta'sirchanroq yetkazib berishga xizmat qiladi. Metafora yozuvchining ijodiy mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun uning she'riyatdagi o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, o'zbek she'riyatida Abdulla Oripov - she'rlarida eng ko'p metafora ishlatgan shoirdir. Birgina misol tariqasida shoirning "Saraton" she'rini olish mumkin<sup>17</sup>.

Ko'rdimku manglaying ter bilan qotib,  
Berahm otashga berganingda tob.  
Ko'rdim-ku tepangda o'zim yo'qotib,  
Hayratdan lol qotib qolganin oftob.

Ushbu she'rda "berahm otash" hamda "lol qotmoq" ya'ni quyoshning lol qolishi metafora hisoblanadi. Demak, olov, otashning jonsizligi va unda rahmlilik xususiyati yo'qligi sababli shoir bunda jonlantirishdan foydalangan va metafora vujudga kelgan. Bundan tashqari, oftob ham jonsiz, ya'ni lol qolish quyoshga xos emasligi sababli uni metafora deb atash mumkin. Bundan tashqari, "Yuzma-yuz", "O'zbekiston" hamda "Muallimlarga" singari she'rlarida ham shoir metaforaga ko'plab murojaat qilgan.

O'zbek she'riyatida so'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanilish Usmon Azim she'rlarida ham uchray turadi.

Masalan: Men ko'cha kezaman, yog'a boshlar qor  
Oppoq qo'lchalarin yelkamga tashlab<sup>18</sup>.

Ushbu she'rda "qo'lchalarin yelkamga tashlab" iborasi metaforani vujudga keltiradi. Chunki, yog'ayotgan qorning jonsizligi va uning qo'llari mavjud emasligi sabab bo'ladi.

She'riyatda metaforaning qo'llanishi nafaqat o'zbek tilida ingliz tilida ham keng qo'llaniladi va ingliz adabiyotida John Donne o'zbek adabiyotidagi Abdulla Oripov singari metaforadan eng ko'p qo'llangan shoir hisoblanadi. Misol tariqasida uning "The Sun Rising" she'rini tahlil qilish mumkin.

She's all states, and all princes, I,  
Nothing else is.  
Princes do but play us, compared to this,  
All honor's mimic, all wealth alchemy<sup>19</sup>.

<sup>16</sup> Qo'ng'urov P., O'zbek tilining tasviriy vositalari, T., 1977

<sup>17</sup> Sayt. www.uzbaza.uz

<sup>18</sup> Sayt. tafakkur.net

<sup>19</sup> Poetryfoundation.org

Ushbu sheʼrning birinchi satri “She is all states and all princes, I” u barcha shtatlar va hamma shaxzodalar maʼnosini bildiradi va bu yerda insonni davlatlarga, shtatlarga qiyoslagani sababli metafora yuzaga keladi.

Taʼkidlash joizki, yozuvchilar nasriy janrda ham metaforadan mahorat bilan foydalangan. Oʻzbek adabiyotida S.Ahmad oʻz asarlarida eng koʻp metaforaga murojaat qilgan yozuvchi boʻlsa, ingliz adabiyotida bu inson O.Henrydir. O.Henryning koʻplab asarlarini kichik hikoyalar tashkil qilsada, juda koʻplab koʻchma maʼnoda qoʻllangan soʻzlarni topish mumkin. Namuna sifatida “The last leaf” asarini oladigan boʻlsak, ilk metafora bu “pneumonia”<sup>20</sup>. Aslida bu soʻz kasallik nomi va yozuvchi buni asarda odam sifatida tasvirlaydi. Oldin taʼkidlanganidek, bu soʻz maʼnoning oʻquvchiga taʼsirchanroq yetib borishini taʼminlagan. Agar muallif uni shunchaki kasallik deb ataganda, tushunish uchun sezilarli darajada qiyin boʻlardi.

Ushbu yozuvchining yana bir metaforaga boy asari – “The gift of the Magi” hisoblanadi<sup>21</sup>. Ushbu asarda dastlabki metafora asarning sarlavhasidan boshlanadi. Ushbu soʻzlar Della va Jimning sevgisi maʼnosini anglatib, metafora tarzida kelgan. Bundan tashqari, asarda soch ham jonlantirilgan va u jigarrang suv kabi toʻlqinlanib, koʻchma maʼno hosil qilgan. Asarda Della obrazi sevgan insoni uchun sochini kesadi. Bu epizod hikoyaning kulminatsion nuqtalarida sodir boʻladi. Shuning uchun ham yozuvchi bu voqealikni metafora orqali tasvirlagan. Keyingi metafora bu – koʻzlarning olmos, brilliantga qiyoslanishidir. Bu metafora Dellaning xursandchilikdan toʻkayotgan koʻz yoshlarini anglatadi. Ushbu asarning keying satrlarida “next two hours tripped by on rosy wings” keltirilgan gap “keyingi ikki soat pushti qanotlarda oʻtib ketdi” maʼnosida tarjima qilinib, Dellaning keyingi vaqtlari hursandchilik bilan oʻtganini tasvirlaydi.

Yuqorida taʼkidlanganidek, Oʻzbek adabiyotida Said Ahmad eng koʻp metaforadan foydalangan ijodkordir. Masalan, uning eng mashhur asarlardan biri “Xandon Pista” asari ham metaforiga boydir<sup>22</sup>. Ushbu asarning ilk hikoyasi va dastlabki satrlardayoq “lab” soʻziga urgʻu berilgan. “Yoqut lab, gʻuncha lab, shakar lab” kabi taʼriflar berish orqali metafora hosil qiladi. “Goʻshtning zarari haqida” hikoyasida oldingi davrlarni “shirin tush” ga oʻxshataman deb yozadi, Said Ahmad va bu oldingi zamonning esda qolarli hotiraga boy ekanligidan darak beradi. Undan keyingi metafora esa “Yur yuvamiz” hikoyasida uchraydi. “Badavlat kelin” nomli hikoyasi gazetada chop etilganini nishonlanishini “yuvmoq” feʼli bilan izohlaydi va bu soʻz koʻchma maʼnodagi soʻz hisoblanadi.

<sup>20</sup> “The last leaf”, B.13

<sup>21</sup> “The gift of the Magi” is published – This day in History – 4/10/1906.history.com

<sup>22</sup> Xandon pista. B.3., Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti. Toshkent-1994

Mahoratli yozuvching eng mashhur hikoyalaridan biri bo'lmish "Cho'l burguti" ni tahlil qilinganda ham bir nechta metaforalarga duch kelish mumkin<sup>23</sup>. Misol uchun, asarning boshida bulutlarning asta-sekinlik bilan harakatlanishini "qip –qizil bulutlar sudralib yuribdi" misralari bilan ifodalaydi. Bunda jonsiz bulutlarning jonlantirilishi orqali metafora hosil bo'ladi. Keyinroq asarning sarlavhasi ham ko'chma ma'nodagi so'z ekanligi ifodalanadi. Chunki, "cho'l burguti" deyilganda Said Ahmad uchar qush emas, yuzlarini shamollar qoraytirgan, yaqinida turgan odamga ham xuddi olisdan qarayotgandek ko'zlarini qisib, birov bilan ko'rishgani qo'l uzatganda shamolga qarshi uchishga hozirlanib, qanotini yozib oldinga intilib turgan burgutga o'xshash bahaybat bir kishini nazarda tutadi.

Bundan tashqari, asarda chol obrazi tomonidan ana shu "cho'l burguti" nomi bilan tanilgan shaxsga berilgan ta'riflarda ham yozuvchining metaforalardan mohirona foydalanganligiga guvoh bo'lish mumkin. U insonni "qoni tomiridan toshib ketayotgandek g'ayratli", "qo'li gul", yoshligida ham "o't-olov" bo'lgan deb ta'riflaydi. Ko'rinib turibdiki, cho'l burgutiga berilgan har bir ta'rif bo'rttirilgan holda tasvirlangan.

Metaforaning yana bir muhim jihati shuki, uning sharq mumtoz adabiyotida "istiora" deb atalishidir. Istiora (arab tilidan olingan bo'lib, "qarzga olish" yoki "ko'chirish") degan ma'noni anglatadi. Bu asarlarda so'zni o'z manosidan boshqa ma'noda, ya'ni majoziy ma'noda qo'llanishini ta'minlovchi san'at turidir. Masalan, o'hu ko'z, sarv qomat, oq ko'ngil, sheryurak kabi so'zlar asosan she'riyatda ishlatilib, istiora san'atini yuzaga keltiradi. Sababi, hayotda ko'ngilning oq yoki boshqa ranglarda bo'lishi va yurak so'zining sher hayvoniga ma'no jihatdan yaqinligi yo'qligi uchun bu so'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanilgan deb hisoblanadi.

Abdurauf Fitrat "Adabiyot qo'llanmasi" nomli qo'llanmasida istioraga quyidagicha ta'rif bergan<sup>24</sup>. "Bir so'zning boshqa bir ma'no uchun ishlatilmakidir. Shul shart bilankim, u so'zning o'z ma'nosi bilan yangi ma'nosi orasida bir turli o'xshashlik bo'lsun".

Masalan, Maqsud Shayxzodaning "Kapitan Gastello" asarida:

Sheryurakli bu lochin  
Qoqib qanot-qulochin,  
Quzg'unlardan asradi  
Elning xotin-xalajin.

Bunda "Lochin" so'zi Kapitan Gastello obrazini, "Quzg'unlar" so'zi fashistlar ma'nosini ifodalagan.

<sup>23</sup> Cho'l burguti. B.5,6., G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent - 1994

<sup>24</sup> Abdurauf Fitrat. "Adabiyot qo'llanmasi"

Istiora janridan taniqli g'azalshunos Atoyi ham o'zining g'azallarida mahorat bilan foydalangan.

Masalan: Tamanno qilg'ali la'lingli ko'nglum,  
Kishi bilmas oni kim, qoldi qanda<sup>25</sup>.

“La'l” tabiatda uchraydigan qimmatbaho qizil tosh, yor labidan chiqadigan iliq so'zni anglatadi. Yorning labi qon kabi qip-qizil bo'lgani sababli ham uni la'lga o'xshatma sifatida tasvirlaydi. La'l nodir tosh bo'lgani uchun, yorning shirin so'zlariga tenglaydi. Demak, Atoyi agar shunchaki shirin so'z deb tasvirlaganda, ma'no bu qadar tasirchan bo'lmas edi.

Bundan tashqari, Mir Alisher Navoiyning quyidagi misralarida qo'llanilgan istiora yanada go'zaldir:

Ul oy o'tlug' yuzin ochsa, Navoiy, tegmasin de ko'z,  
Muhabbat tuxmidin o'zga ul o't uzra sipand etmas<sup>26</sup>.

Ushbu g'azalda istioraning birinma-ketin qo'llanilganligini ko'rish mumkin. “oy”, “muhabbat tuxmi”, “o't” so'zlari ko'chma ma'noda qo'llanilgan. Oy – yorning yuzi ma'nosini bildirgan bo'lsa, “Muhabbat tuxmi”- insondagi nozik bir tuyg'uni ifodalaydi. Bu so'z shunchaki muhabbat yoki ishq so'zlaridan ko'ra go'zalroqdir. “O't” so'zi esa olov ma'nosini anglatadi va u yorning yuzini olov rangligini ifodalaydi. Atoyi uchun yorning yuzidagi qizillikni ifodalashning eng qulay yo'li uni olov so'zi bilan ta'riflashdir. Sababi, olov so'zi birinchidan yorning yuzi istaraliligini, ikkinchidan, uning rangini ifodalash uchun xizmat qiladi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, metafora yaqin o'n yilda paydo bo'lgan atama emas. Bu atama qadimdan, nutqning chiroyli bo'lishi uchun xizmat qilgan. Xususan, asarlarda ifodalanuvchi obrazni ko'chma ma'noda ifodalashini anglatadi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, metaforani bir nechta turlari mavjud va bu haqida lingvistika darsliklaridan ma'lumot topish mumkin. Ushbu termin avval aytib o'tilganidek, nafaqat, adabiyot darsliklarida balki, tilshunoslikda ham o'rganiladi. Bunga tegishli ma'lumotlar o'rganuvchiga maktabda berilgan darsliklar orqali o'rgatiladi. Adabiyotga keladigan bo'lsak, metafora adabiyotning har qanday janrida (nasriy, she'riy, hajviy va hakazo) birdek ishlatiladi. Bundan tashqari, insonlar uni kundalik hayotda ham foydalanganligini bir necha misollar bilan isbotlash mumkin. Masalan. “ko'chaning boshi”, “qozonning qulog'i”, “stolning oyog'i”, “tog'ning etagi”.

<sup>25</sup> Adabiyot:darslik-majmua /B.To'xtaliyev,-Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”Davlat ilmiy nashriyoti,2017.B.168-169

<sup>26</sup> Adabiyot:darslik-majmua /B.To'xtaliyev,-Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”Davlat ilmiy nashriyoti,2017.B.169



Metafora o'xshash, shuning uchun ham ko'plab yondashuvlar shaklan va uslubiy, vazifasiga ko'ra yaqin kelsada, mohiyati jihatdan farqlanadi. Shu sababdan ham ko'chma ma'noda qo'llangan so'z tarzida talqin qilinadi. Yana bir bilish kerak bo'lgan ma'lumot, metaforaning mumtoz adabiyotida "istiora" deb atalashidir. Ma'no, mazmun, vazifa jihatdan ikkalasi bir hil. Biroq istiora faqatgina she'riyat, g'azalda foydalaniladi. Aslida g'azalda tasvirlanayotgan narsa yoki shaxs oddiy she'rdan ko'ra bo'rttirilgan tarzda aks etadi. Undagi istioraning ishtiroki esa obrazni o'quvchiga yanada ta'sirchanroq aks etishini ta'minlaydi.

Ikkala til kundalik hayotdagi metaforaning o'rni haqida gapirilganda, u muloqotning tushunarligini hamda nutqni madaniyatliroq bo'lishiga yordam beradi

Ayniqsa, nasriy asarlarda metafora kuzatuvchi uchun sezilarli darajada ko'zga tashlanadi. Sababi, nasriy asarda voqealar rivoji ko'proq va uni o'quvchiga ta'sirchanroq hamda yozuvchining aynan xayolida gavdalangan g'oyani tasvirlash uchun eng muhim manba hisoblanadi. Shuning uchun ham metaforani adabiyotdagi o'rni beqiyosdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y, Nutq ma'daniyati va uslubiyat asoslari.- T.:O'qituvchi,1992
2. Qo'ng'urov R., O'zbek tilining tasviriy vositalari, T.,1977
3. Aristotel. Ritorika. Poetika – M.:Labirint,2000.\_C.128
4. Adabiyot: darslik-majmua /B.To'xtaliyev,-Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"Davlat ilmiy nashriyoti,2017.B.168-169
5. Abdurauf Fitrat., "Adabiyot qo'llanmasi"
6. Adabiyot: darslik-majmusi/B.To'xtaliyev,-Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"Davlat ilmiy nashriyoti,2017.B.168-169
7. Xandon pista., G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.Toshkent-1994
8. <https://uz.warbletoncouncil.org>
9. Mirtojiyev M.Linguistik metaforalar tasnifi. //O'zbek tili va adabiyoti. – 1973.B.33-37
10. Mahmudov N, Nurmonov A.O'zbek tilining nazariy gramatikasi. O'qituvchi, 1995. B. 233
11. O'zME.Birinchi jild.Toshkent,2000-yil
12. "The last leaf"., B.13
13. "The gift of the Magi".,B.3-7

## **INGLIZ VA O‘ZBEK TILIDA SINONIM SO‘ZLARNING QO‘LLANILISHI**

**S. Shermamatova**

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

**Sh. Umirjonova**

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Barcha tillarda tilshunoslik bo‘limlari mavjud bo‘lib, leksikologiya bo‘limining sinonim, antonim, paronim, omonim kabi turlari bor. Bular orqali tillarning lug‘at boyligi ortadi. Ushbu maqolada sinonim so‘zlar aslida nima? ular haqida tushuncha, ularning turlari, ingliz tili va o‘zbek tilidagi sinonim so‘zlarning qo‘llanilishi hamda ularning o‘rni va ahamiyati haqida aytib o‘tilgan. Shuningdek, o‘zbek va ingliz tillarida mavjud bo‘lgan sinonimlarning o‘xshashliklari, farqli tomonlari va ularga misollar, izohlar ko‘rsatilgan.*

***Kalit so‘zlar.** Sinonim, ma‘nodosh so‘zlar, sinonimik qator, asosiy so‘z, so‘z turkumlarida misollar, stilistik xususiyatlari, darajalanish tartiblari, uslublarga xoslanishi.*

### **THE USAGE OF SYNONYMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGE**

#### **ABSTRACT**

*All languages have departments of linguistics, and the department of lexicology has such types as synonyms, antonyms, paronyms, and homonyms. Through these, the vocabulary of languages increases. What exactly are synonyms in this article? the concept of them, their types, the use of synonyms in English and Uzbek, as well as their place and importance were mentioned. Similarities, differences, examples and explanations of synonyms in Uzbek and English languages are also shown.*

***Key words.** Synonym, synonymous words, synonymous series, main word, examples in word groups, stylistic features, ranking procedures, characteristics of styles.*

#### **KIRISH**

Har bir tilning o‘ziga xos grammatikasi ya‘ni, so‘z yasalishi, so‘z turkumlari, mustaqil va yordamchi so‘zlar, ularning gapdagi o‘rni, birinchi va ikkinchi darajali bo‘laklar kabi grammatik qoidalar mavjud bo‘lib, ularning bir necha farqli hamda o‘xshash tomonlari bor. Shuningdek, ingliz tili va o‘zbek tili grammatikasida ham. Tillar hamda ularning grammatikasi haqida so‘z ketarkan, biz ingliz tili va o‘zbek tilida sinonimlarning qo‘llanilishi, gapdagi o‘rni ya‘ni, ahamiyati, ularning farqli va

o'xshash tomonlari, uslubiy xossalari, turlari va darajalanish tartiblarini ko'rish mumkin.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O'zbek tilida sinonim so'zlar. Avvalo, sinonim, antonim, omonim hamda paronim so'zlar tilshunoslikning leksikologiya bo'limida o'rganiladi. So'zlarning ma'noli shakli bo'lib, yozilishi hamda aytilishi har xil, lekin bir umumiy ma'noga ega bo'lgan so'zlar sinonim so'zlar deyiladi. Sinonim so'zlarning ma'nosi bir xil va bir-biriga yaqin bo'lganligi uchun ularni ma'nodosh so'zlar ham deyish mumkin. Ma'nodosh so'zlar bir umumiy ma'noni ifodalab, ikki va undan ortiq so'zdan tashkil topadi. Sinonim so'zlar aynan bir so'z turkumi doirasida yuzaga keladi.

Shuningdek, barcha so'z turkumlari doirasida uchraydi. Bir umumiy ma'no o'zaro bog'langan so'zlar guruhiga sinonimik qator deyiladi. Sinonimik qator ikki yoki undan ortiq ma'nodosh so'zdan tashkil topadi. Har bir sinonimik qatorda bir so'z ya'ni asosiy so'z mavjud bo'ladi. Bu so'z barcha uslublarda qo'llanilib, ularni neytral so'z, betaraf hamda dominant so'z ham deyish mumkin. Misol uchun, chiroyli, go'zal, betakror kabi so'zlarda asosiy so'z - chiroyli so'zi, yoki qaramoq, nazar solmoq, boqmoq so'zlarida esa qaramoq so'zi dominant so'zdir. Yuqorida aytib o'tilganidek, sinonim so'zlar har bir so'z turkumlarida uchraydi. Masalan, ot so'z turkumi-boylik, xazina, ganjina; sifat so'z turkumi-shirin, mazali, totli; fe'l so'z turkumi-tabassum qilmoq, kulmoq, tirjaymoq; son so'z turkumi-bir talay, bir nechta, bir talay; olmosh so'z turkumi-mana shu, ana shu; ravish so'z turkumi-atayin, ataylab, jo'rttaga.

Sinonimlarning stilistik xususiyatlari. Leksik stilistikada sinonimiya hodisasi muhim o'rin tutadi. Stilistik bo'yoqli so'zlar, ayniqsa, sinonimik qatorda o'z ifodasini topadi. Ma'lumki, sinonimik qatorning uzunligi turlichadir: bir tomondan, sinonimik qator faqat ikkita so'zdan tuzilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, bir necha so'zdan tuzilishi mumkin, masalan: ikki qismli sinonimik qator: chopmoq-yugurmoq, sevinmoq-xursund bo'lmoq, uysiz-joysiz, dum-quyruq. Ko'p qismli sinonimik qator : yuz, aft, bet, chehra, siymo; kulmoq, jilmaymoq, tabassum qilmoq. Bu sinonimik qatordagi har bir so'z turli nutq vaziyatlarida tanlab ishlatiladi.<sup>27</sup>

Ma'nodosh so'zlar bir-biridan muayyan uslubga xos lanishi va emotsional-ekspressiv bo'yog'iga ko'ra farqlanadi. Masalan, yuz, bet, aft, bashara, turq, chehra, jamol, oraz, uzor, ruxsor ma'nodoshlik qatorida yuz so'zi biron-bir uslubga xoslanmagan, bet, aft, bashara, turq so'zlarida esa salbiy bo'yoq darajalangan holda o'z ifodasini topgan, ko'proq so'zlashuv uslubida ishlatiladi; chehra, jamol so'zlarida

<sup>27</sup> Saodat Sultonsaidova, O'Imas Sharipova. "O'zbek tili stilistikasi": T.: "YURIST-MEDIA MARKAZI" nashriyoti, 2009. -42

ijobiy bo'yoq mavjud bo'lib, ular, asosan, badiiy uslubga xoslangan; oraz, uzor, ruxsor so'zlari esa eskirgan va ko'proq kitobiy uslub doirasida qo'llanadi.<sup>28</sup>

Jilmaymoq, kulimsiramoq, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq, mirshaymoq. Ovoz chiqarmay ko'z, lab harakati bilan kulgi ifoda qilmoq, miyig'ida kulmoq. Jilmaymoq va iljaymoq so'zlari stilistik jihatdan neytral hisoblanadi. Irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq, irshaymoq so'zlari salbiy bo'yoqqa ega. Bu salbiy bo'yoq irjaymoq so'ziga nisbatan tirjaymoq so'zida, tirjaymoq so'ziga nisbatan ishshaymoq so'zida, ishshaymoq so'ziga nisbatan irshaymoq so'zida kuchliroq.<sup>29</sup>

Masalan: shamol, sabo, yel, shabada, to'fon, dovul, bo'ron so'zlaridan tashkil topgan sinonimik qatoming turli o'rinda qo'llanishiga e'tibor beraylik.

1. Daryo to'lqin shamol qo'ynida

Porillamoqdadir kemalar. (Hamid Olimjon)

2. Derazamning oldida bir tup

O'rik oppoq bo'lib gulladi.

Novdalarni bezab g'unchalar

Tongda aytdi hayot otini

Va shabboda qurg'ur ilk sahar

Olib ketdi gulning totini. (Zulfiya)

3. Gulshanda gullarni tebratar sabo. (Uyg'un)<sup>30</sup>

Avaylamoq, ayamoq, ehtiyotlamoq, ehtiyot qilmoq, ardoqlamoq, e'zoz lamoq, e'zoz etmoq, papalamoq (po'palamoq). Ehtiyot holda tutmoq, ehtiyot bilan munosabatda bo'lmoq. Avaylamoq, asosan, «tashqi ta'sirdan, tashqi ta'sir natijasida biror narsa bo'lishdan ehtiyot qilish» ma'nosida qo'llanadi. Bu so'zda ehtiyotlash darajasi ayamoq, ehtiyot qilmoq so'zlaridagiga nisbatan kuchliroq. Ayamoq «tashqi ta'sir natijasida biror narsa bo'lishdan, shuningdek, yo'qolish, sarflanish kabilardan ehtiyotlanish» ma'nosida ham qo'llanadi. Ehtiyotlamoq, ehtiyot qilmoq so'zlarining ma'no xususiyati ularning o'zagi (ehtiyotdan) anglashilib turadi. Bular «tashqi ta'sir yoki biror sabab bilan biror narsa bo'lishdan ehtiyot holda tutmoq» ma'nosida qo'llanadi. Ardoqlamoq oddiy so'zlashuvda kamroq uchraydi. Bu so'zda g'amxo'rlik, hurmat munosabati ham aks etadi. E'zozlamoq, e'zoz etmoq kitobiy uslubga xos, unda g'amxo'rlik munosabati yana ham kuchliroq bo'ladi. Papalamoq so'zlashuv nutqiga xos, suyish munosabati aks etadi.<sup>31</sup>

Azob, aziyat, jabr, jafu, ozor, zahmat, alam, iztirob, uqubat, sitam. Ruhiiy yoki jismoniiy qiynoq. Azob keng tushunchaga ega, u «ruhiy va jismoniiy qiy noq»

<sup>28</sup>N.M. Maxmudov va boshq.,-Toshkent:"O'zbekiston milliiy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti,2017.-27

<sup>29</sup>N.M. Maxmudov va boshq.,-Toshkent:"O'zbekiston milliiy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti,2017.-86

<sup>30</sup>Saodat Sultonsaidova,O'lmas Sharipova."O'zbek tili stilistikasi":T.:YURIST-MEDIA

MARKAZI'nashriyoti,2017-43

<sup>31</sup> N.M.Maxmudov va boshq.,-Toshkent:"O'zbekiston milliiy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti,2017.-52

ma'nosida ham, «o'zga tomonidan bo'ladigan, shuning dek, biror narsadan bo'ladigan qiynoq» ma'nosida ham qo'llanaveradi. Aziyat, asosan, yozma nutqda va o'qimishli, katta yoshdagi kishilar nutqida qo'llanadi. Jabr so'zida belgi darajasi azob so'zidagiga nisbatan kuchli va bu so'z, asosan, «inson tomonidan bo'ladigan azob» ma'nosida qo'llanadi. Jafo mustaqil so'z holida juda kam qo'llanadi. Ko'pincha jabr so'zi bilan juft so'z holida (jabr-jafo) yoki qilmoq fe'li bilan birga qo'llanadi. Ozor so'zida belgi darajasi azob, jabr so'zlariga nisbatan kuchsizroq. Bu so'z ham mustaqil holda juda kam qo'llanadi. Zahmat mehnat bilan bog'liq azobni bildiradi. Alam bu ma'noda kam qo'llanadi. Iztirob, asosan, «ruhiy azob» ma'nosida qo'llanadi va unda belgi darajasi azob so'zidagiga nisbatan kuchliroq. Oddiy so'zlashuvda deyarli qo'llanmaydi. Uqubat, sitam so'zlari yakka holda juda kam ishlatiladi. Uqubat so'zi, ko'pincha, azob so'zi bilan, sitam so'zi jabr so'zi bilan juft so'z holida qo'llanadi.<sup>32</sup>

Ayyor, mug'ombir, hiylagar, quv, ustomon, makkor, dog'uli, mo'ltoni, qilvir(i), shayton, tulki, tullak, qirriq, xirpa, maston. Aldab, chalg'itib, har qanday ishni o'z foydasiga hal qiladigan makr-hiylaga usta. Ayyor, quv, mug'ombir so'zlari odamga va ayrim boshqa jonivorlarga nisbatan ham qo'llana oladi. Qolganlari esa bu ma'noda faqat odamga nisbatan qo'llanadi. Ustomon, hiylagar so'zlarining ma'nosi uning o'zagidan anglashilib turadi. Mug'ombir so'zida belgi darajasi ayyor so'zidagiga nisbatan biroz kuchsiz. Quv so'zida belgi darajasi kuchliroq. Dog'uli, mo'ltoni, qilvir(i), makkor so'zlarida ham belgi darajasi kuchli. Lekin bu so'zlar nisbatan kam qo'llanadi. Shayton, tulki, tullak, qirriq, xirpa so'zlari «ish ko'rgan ayyor» ma'nosida qo'llanadi. Maston so'zi folklor asarlarida va ayrim shevalarda uchraydi.<sup>33</sup>

Tillar o'rtasida sinonim so'zlarni tarjima qilish biroz murakkabroq, chunki so'zning asl ma'nosiz hamda uni tarjimasini bilish zarur. Shuningdek, ingliz tilida ham o'zbek tilidagi kabi sinonimlar bir so'z turkumi doirasida yuzaga keladi va har bir turkumda sinonimlik mavjud.

Sinonimlar haqida bir necha olimlarning fikrlari bo'lib, R.A.Budagov<sup>34</sup> shunday deydi: "Sinonimlar ma'no jihatdan yaqin bo'lgan, lekin turli talaffuzdagi bir ma'noni ifodalovchi so'zlardir. Barcha sinonimlar turli xil so'zlar bo'lib, bir xil ma'noni ifodalasa ham, doim shu so'zlarga tegishli ma'noni anglatadi. Sinonimlar insonlarning turli xil so'zlar orqali bir ma'noni yetkazishlari haqida guvohlik beradi."

Ingliz tilida sinonim so'zlarning qoidasi quyidagicha:

-a word or phrase that means exactly or nearly the same as another word or phrase in the same language.

Misol uchun, bad-awful, terrible, horrible;

<sup>32</sup> N.M.Maxmudov va boshq., -Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. -55

<sup>33</sup> N.M.Maxmudov va boshq., -Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. -59

<sup>34</sup> R.A.Budagov "Введение в науку о языке", М.1958.250-бет



good-fine, great, excellent;	
big large, huge, giant;	
small-tiny, little, mini;	
beautiful-attractive;	afraid – scared
angry – mad	child – kid
cold – chilly	difficult – hard
garbage – trash	gift – present
happy – glad	house – home
large – big	leap – jump
loud – noisy	pull – tug
push – shove	quick – fast
rug – carpet	sick – ill
silent – quiet	simple – easy
smart – clever	sniff – smell
spooky – scary	sprint – run
stone – rock	street – road
talk – speak	tiny – small
business-trade;	rich-wealthy;
naughty-mischievous;	help-assist;
fast-quick;	end-finish;
buy-purchase	danger-harm;
job-occupation;	mistake-error;
gift-present;	aim-goal;
odd-strange;	extra-additional.

O'zbek tili kabi ingliz tilida ham sinonimik qator mavjud bo'lib, ya'ni darajalanadi. Masalan, laugh, smile, chuckle, giggle, grin, guffam, siniaker-kulmoq; Bu so'zlarda dominanta-laugh. Ularning darajalanishi:

smile-tabassum qilmoq,  
 laugh-kulmoq,  
 giggle-hiringlamoq,  
 roar-xixilamoq,  
 grin-irjaymoq,  
 siniaker-tirjaymoq,  
 chuckle-ishshaymoq,  
 guffam-qahqah otmoq.

Examples with a sentences:

1.Magnify – expand: He magnified their happiness like their pain.

2. Baffle – confuse, deceive: The bad news he received consecutively confused him.
3. Beautiful – attractive, pretty, lovely, stunning: You are the most beautiful woman I have ever seen in my life.
4. Bossy – controlling, tyrannical: You have a structure that likes to bossy.
5. Fair – just, objective, impartial, unbiased: We believe you are impartial.
6. Funny – humorous, comical, hilarious, hysterical: My uncle is the most funny person in the family, and when we all get together, they always make us laugh.
7. Hardworking- diligent, determined, industrious, enterprising: Maybe she was the quietest girl in our class, but more hardworking than all of us.
8. Honest – honorable, fair, sincere, trustworthy: Being honest should be one of our most important character traits.
9. Hypocrisy – duplicity, falseness: Everyone knows that they can never tolerate hypocrisy.
10. Important – required, vital, essential, primary, significant, critical: We need to talk to you about this important issue immediately.
11. Intelligence – smart, bright, brilliant, sharp: We all know that you have unique intelligence.
12. Introverted – shy, bashful, quiet, withdrawn: You already have an extroverted personality, we believe you will overcome all this.
13. Kind – thoughtful, considerate, amiable, gracious: We have always known you as a kind person, I could not make sense of all this.
14. Lazy – idle, lackadaisical, lethargic, indolent: When I met her teacher today, she told me that she was too lazy this year.
15. Lucky – auspicious, fortunate: How lucky you are! You won this game.
16. Mean – unfriendly, unpleasant, bad-tempered, difficult: I can't figure out what this means most, please speak a little more.
17. Old – antiquated, ancient, obsolete, extinct: Today we will visit old aunts.
18. Outgoing – friendly, sociable, warm, extroverted: I think it has an extroverted structure.
19. Pacify – appease, placate: I came here to appease you.
20. Positive – optimistic, cheerful, starry-eyed, sanguine: I always recommend you to be positive.

## **XULOSA**

Xulosa o'rnida aytish joizki, barcha tillarda sinonimlar deyarli bir xil talqin qilinadi. Yuqorida ingliz tili va ona tilida sinonimlar haqida aytilib o'tildi. Ularni ikki

tilda qiyoslab chiqildi. Sinonimlar fikrni yanada teran va jozibador bildirish uchun uni darajalaridan to'g'ri foydalanish va maqbul variantini qo'llash kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Алехина А.И. Семантические группы в фразеологии современного английского языка. - М., 1977.
2. Mirzaakbarov, S. (2021). INGLIZ VA O ZBEK TILIDA SINONIMALARNI O'QITISHNING MUHIMLIGI .
3. Смиринцкий А.И. Синтаксис английского языка. - М., 1957
4. Tursunov U., Muxtorov J. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T., 1975
5. <https://englishgrammarhere.com/>
6. Synonym Definition&Meaning
7. <https://www.dictionary.com/>
8. Synonym dictionary words and phrases
9. <https://www.allacronyms.com/>Retrieved 2018.04.27.

## **MAVLID MAROSIMINING PAYDO BO‘LISHI VA O‘TKAZILISH TARIXI**

**Abdullayeva Mushtariy G‘ofurjon qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

(Denov, O‘zbekiston)

e-mail: [m.abdullayeva@dpi.uz](mailto:m.abdullayeva@dpi.uz)

### **ANNOTATSIYA**

*Payg‘ambarning tavallud yillari bilan bog‘liq bayramlar ma‘lum davrdan keyin deyarli barcha islom mamlakatlarida diniy va ijtimoiy hayotning muhim elementiga aylanib, diniy marosim sifatida nihoyatda rang-barang va dabdabali tarzda nishonlangan ba‘zan hukmdorlar uchun mavlid marosimi siyosiy va diniy ahamiyati ham yuqori bo‘lgan.*

**Kalit so‘zlar.** *Mavlid, Umaviy, Fotimiy, Azhar, Akmar, Badr al-Jamoliy, Muzaffariddin Ko‘kbor, Erbil, Ayyubiylar.*

### **ABSTRACT**

*After a certain period, the holidays related to the Prophet’s birth years became an important element of religious and social life in almost all Islamic countries, and as a religious ceremony, celebrated in an extremely colorful and lavish way, sometimes the mawlid ceremony for rulers is political and religious. importance is also high.*

**Key words.** *Mawlid, Umayyad, Fatimid, Azhar, Akmar, Badr al-Jamali, Muzaffariddin Kokbor, Erbil, Ayyubids*

### **KIRISH**

Payg‘ambar (s.a.v) tavalludlari bilan bog‘liq bayramlar hamda ma‘rosimlar ma‘lum bir davrdan keyin deyarli barcha islom mamlakatlarida diniy va ijtimoiy hayotning muhim ahamiyatga aylandi va hukmdorlar nazarida diniy o‘zlik va hassosiyati bilan namoyan bo‘ladigan marosim sifatida qaralgan. Mavlid [1] arabcha “tug‘ilmoq”, “tug‘ilgan vaqti” yoki “tug‘ilgan joyi”, “mavlid” ma‘nosini anglatuvchi “valâdat” so‘zidan olingan bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan bu turdagi asarlarga qo‘yilgan umumiy nomga aylangan.

Aslida mavlid marosimi payg‘ambarimiz(s.a.v) tarafidan aslo nishonlanmagan va nishonlanganligiga doir biror bir aniq manba ham mavjud emas. Hulafoi Roshidun davrida va undan keyingi Umaviy va Abbosiy davrlarida ham mavlud bilan bog‘liq amal yo‘q. Misrda shia Fotimiylar davlati tashkil etilgach, Muiz Lidinillah (972-975)

davridan boshlab payg'ambarning tavallud kunlari rasman nishonlana boshlagan [2]. Bunga qo'shimcha ravishda, hazrat Ali, Fotima, Hasan, Husayn hamda o'sha davrning Fotimiylar xalifasiga atab rajab, sha'bon va ramazon oylarida oqshomlari moy chiroqlar yoqilib marosim sifatida nishonlash o'ziga xos ananaga aylangan.

Fotimiy shia mashrabining ismoiliy mazhabiga mansub bir arab davlati edi. Fotimiylar davlatining diniy asosini tashkil etgan mafkura sakkizinchi ismoiliy imom Ahmad al-Vafiy tomonidan e'lon qilingan Suriyadagi ismoiliy shialar orasida yettinchi imomatlik aqidasi edi. [3]

Rabiul-avval oyining o'n ikkinchi kuni kelganda ertalabdan peshingacha uch yuz tovoq holva tayyorlanib, birinchi navbatda qozikalon vadiniy voizlar, qur'on xatiblar ya'ni qorilar va boshqa amaldorlarga tarqatilar edi. Xalifa peshin namozini o'qib bo'lgach, qozilar va boshqa amaldorlar birgalikda "Azhar" masjidiga, bu yerda xatm o'qilganidan keyin "Manzara" deb nomlangan marosim joyiga boradilar. Keyinchalik Sohibulbob [4] bu yerga taklif qilingan. Qohira shahar hokimiesa tartibni o'rnatish maqsadida ertaroq kelardi. Keyinchalik u hamrohlari bilan xalifaning huzuriga kelib, qozikalon, so'ng sohibulbob unvonlari o'qiladi, so'ngra boshqalarga jam bo'lib salom berar edi. Marosim Qur'oni karim tilovati bilan boshlanadi; Keyin navbati bilan Azhar va Akmar masjidlari voizlari kun ma'nosiga mos xutba o'qib, xalifaga duo qilishardi. Xutbalar tugagach, xalifa jamoatga salom berardi va rasmiy bayram tugaydi. Qolgan mavlidlar ham shu tarzda nishonlangan [5].

Ma'lum bo'lishicha, dastlab bu bayramlar kunduzi va yuqori lavozimli amaldorlar ishtirokidagi davlat tantanasi doirasida bo'lib o'tgan va bu erda ko'p odamlar ishtiroki va bayramona muhit bo'lmagan [6]. Xususan ko'pchilik sunniylar mazhabidagi insonlar bu bayramlarda qatnashmagan [7].

Fotimiy xalifalari ustidan katta ta'sirga ega bo'lgan va boshqaruvda hukmronlik qilgan vazir va bosh qo'mondon Badr al-Jamoliydan so'ng vazir bo'lgan o'g'li Afdol hazrati Hasan va Husaynning mavlididan boshqa to'rt (Payg'ambar (s.a.v), hazrati Ali, Fotima va zamonning xalifasi) mavlidni man qildi. Ammo Afdol vafotidan keyin vazirlikka kelgan Ma'mun al-Batayhiy bu marosimlarni Amir Biahkomillah 1123- yil davrida qolgan mavlid marosimlarini nishonlash yana qaytadan boshlagan [8].

Ayyubiylar davrida (1171-1462) ko'plab bayram va marosimlar bekor qilinganligi sababli mavlidga e'tibor qilinmagani va uni xalq o'z uylarida nishonlagan. Biroq Salohiddin Ayyubiyning qaynisi, xayriya ishlari bilan mashhur bo'lgan Erbil Otabegi Begteginlik Muzaffariddin Ko'kbor (1190-1232) payg'ambarning mavlidini nishonlagani ma'lum. Sibt Ibn al Javziy yozgan rivoyatga ko'ra, bayram paytida 5000 qo'y, 10,000 tovuq, 100 ot so'yilgan, 100 000 ta tovoq



ovqat va 30 000 laganda holva tarqatilgan. Rasmiy marosimlarda ulamolar, soʻfiylarning mashhurlari qatnashar, Muzaffariddin Koʻkboʻr ularga hilot [9] kiydirib, sovgʻa-salomlar berar edi. Soʻfiylar peshindan to tonggacha zikri samo majlislarini ham oʻtkazar edilar. Har yili mavlid uchun sarflanadigan pul 300 000 dinor edi [10].

Mavliddan ikki kun oldin cholgʻu va qoʻshiqlar joʻrligida koʻp sonli hayvonlar soʻyilib, qozonlar qaynatilgan. Mavlid kechasi shom namozidan soʻng Erbil qasrida zikr va samo majlisi oʻtkazilar, soʻngra sulton shamlar yorugʻida xonaqohga kelar edi. Mavlid tongida soʻfiylar qasrdan chiqib xonaqohga qoʻlida hilotlar bilan kelar, keng maydonda aʻyonlar va jamoat qatnashadigan rasmiy marosimlar oʻtkazilar edi. Askarlarning harbiy yurishlar tashkil qilinar va vaʼzgoʻylar vaʼz qilib, hilotlar kiydirilib, ovqatlar tarqatilar edi. Shunday qilib, bayramlar tugaydi va ertasi kuni ertalabdan boshlab mehmonlar oʻz shaharlariga qaytishni boshlaydilar [11].

Andalusiyalik muhaddis va tarixchi Ibn Dihiy al-Kalbiy (1207) yili Erbilga (*Iroqning Kurdiston viloyati markazi va eng yirik shahri*) tashrif buyurganlarida, Rasululloh (s.a.v)ning tavalludlarining katta tantanalar bilan nishonlanayotganini koʻrgach, “At-Tanvir fimavlidis-sirojul munir” nomli asarini yozib, Muzaffariddin Koʻkborga sovgʻa qildi va unga 1000 dinor berdi. Ayyubiylar bu bayramlar Fotimiylardan farqli oʻlaroq, oʻz tayyorgarliklari bilan uzoq vaqt davomida yoyilgani, bayramona kayfiyatda xalqning keng ishtirok etgani, tariqat aʼzolarining oʻrni birinchi oʻringa chiqqani diqqatga sazovordir. Abu Shams al-Maqdisiy ilk bor mavlidni Mosullik soʻfiy Umar ibn Muhammad al-Mulla buni har yili oʻz zoviyasida qilganini, Koʻkboriy esa mavlidi sharif marosimlarini buni misol qilib boshlaganini taʼkidlaydi, bu esa soʻfiy bilimdonlarining marosimlardagi salmogʻini tushuntiradi. Qolaversa ayrim manbalarda qayd etilgan Muzaffariddin Koʻkbor mavlid amalini birinchi marta boshlagani haqidagi fikr Fotimiylardan farqli ravishda ushbu bayramning keng ishtirok etganidan kelib chiqqan boʻlsa kerak [12].

Andalusiyalik sayyoh Ibn Jubayr 1183 yil Makkaga kelgandakoʻrganlarini bayon etar ekan U zotning tavallud kunlarida Paygʻambarimiz (s.a.v) tavallud topgan uyning ziyoratchilarga ochilganini va u kishini tabriklash uchun u yerga tashrif buyurganliklarini aytadi.<sup>13</sup> Bu uyni Horun Ar Rashidning onasi Xayzuron xaj safarida boʻlganida taʼmirlab, masjidga aylantirgan.<sup>14</sup>

Mamluklar davrida (1250-1517) Misrda mavlid bayramlari butun shukuhi bilan davom etgan.

Mamluklar davridan boshlab mavlid atamasi boshqa koʻzga koʻringan eʼtiborli shaxslar, xususan, valiyning tavallud sanalari uchun ham qoʻllanilgan. Ahmad al Badaviy, Ibrohim at Dasukiy kabi shayxlarning mavlidi kunlari nishonlangan.<sup>14</sup> Bunday mavlidlarning muhim qismi tavallud kuni emas, balki

valiylarning vafoti sanasida nishonlangan. Xususan Ahmad al-Badaviyning Tantadagi mavlidi eng ko'p gavjum bo'lgan mavlidlardan biri bo'lib, tariqat a'zolari olis o'lkalardan tashrif buyurishgan.

Mavlid bayramlarida Payg'ambar(s,a.v)ning tavalludini tasvirlaydigan va bu munosabat bilan salovatlarini o'z ichiga olgan madh o'qiladi, ular odatda mavlid, Shimoliy Afrikada esa mavlidiyya (*arabcha ko'plik ma'nosimavliidiyat*) deb ataladi. Bu kabi mavlid qasidalarining mashhurlaridan Ka'b ibn Zuhayrning "Qasidatul burdasi", Muhammad ibn Said al Busiriyning (vafoti taxminan 1296 yil) "Al Kavokibu'ddurriyya fi madhi hayrilbariyya" asari misol bo'la oladi<sup>15</sup>. Sulaymon Chalabiyning "Vasilatunnajot" deb nomlangan ilk turk tilida yozilgan mavlid she'riy matnidir. Arab tilida yozilgan yuzlab mavlidlar, Busiriy va Barzanjiy asarlarining turli tillarga tarjimalari bilan bir qatorda boshqa musulmon xalqlar tillarida ham ko'plab mavlidlar yozilgan.

## **XULOSA**

Aytish joizki, mavlid bayramlari Payg'ambarga bo'lgan muhabbat va sadoqat belgisi bo'lishi bilan birga, turli ibodat va xayrli ishlarga xizmat qilishi nuqtai nazaridan diniy qonuniyatdir. Biroq, bu bayramlarga qarshi chiqqan ulamolar o'z fikrlarini umuman oqlaydigan nohaq munosabat va xatti-harakatlarni ma'qullab bo'lmasligi va bunday amallarga sabab bo'ladigan bayramlardan qochish kerakligi haqida ham ogohlantiradi.

## **REFERENCES**

1. Berilingan sanasi: 2019 yil 8-noyabr, 12:52 <https://www.hurriyet.com.tr/gundem/mevlid-nedir-mevlid-kandilinin-anlam-ve-onemi-41369581>.
2. O'zel.A. "Mavlid: uning tarixi va diniy hukmi". Devon: Fanlararo tadqiqotlar jurnali (2002 ): 235 bet.
3. Yeomans Richard, "Islom, Qohirasi san'ati va arxitekturasi", Qohira: Qohiradagi Amerika universiteti matbuoti **ISBN 9781859641545**, (2006)43- bet.
4. Turkiya diyonat ishlari vaqfi, muallif: Sadi S. Kuchur. "Vazirdan keyin kelganligi sababli, kichik vazir deb ham ataladigan sohibul-bob qilichboz (harbiy) va rutbali (mutavvakin) amir", <https://islamansiklopedisi.org.tr/sahibul-bab>. 5. O'zel, A. "Mavlid: uning tarixi va diniy hukmi". Devon: Fanlararo tadqiqotlar jurnali (2002): 236- bet.
5. P. Shinar, "Mag'ribdagi an'anaviy va islohotchi mavlid bayramlari", "Gaston Viet xotirasidagi tadqiqotlar", noshir. Myrian RosenAyalon, Quddus 1977, 373- bet.
6. Deyl F. Eykelman, "Mavlid", Din entsiklopediyasi, Nyu-York 1987- yil ,IX-bob, 292-bet.

7. Makrizi, I- tom 432, II-tom 291; Ali al Jundi, “Nafhu’l-azhar fi mavlud al-muhtor”, Qohira 1985- yil, 137- bet.
8. Lug’atda “o’z kiyimini yechmoq, yechib olgan kiyimini birovga bermoq” ma’nosini bildiruvchi (arabcha)“hal” o’zagidan olingan “hilot” atama sifatida kiyingan qimmatbaho kiyimni bildiradi. davlat arboblari va ba’zi boshqa shaxslar tomonidan ularni taqdirlash va hurmat qilish uchun.Turkiya diyonat ishlari vaqfi *HIL’AT - TDV Islâm Ansiklopedisi (islamansiklopedisi.org.tr)*.
9. Miratuzzamon, Haydarobod 1952 yil, VIII jild, 681-683 bet; Jaloloddin as Suyuti, “Husnulmaqsid fi amalil-mavlid”, tarjimon; Mustafó Abdulqodir Ato, Bayrut 1985 yil, 43-44 betlar.
10. “Vafayatul-ayan”, tarjimon; Ehson Abbos, Bayrut 1968-1972 yil, IV, 117-119; Shinar, 374- bet.
11. Jaloloddin as Suyutiy, “Husnulmaqsid fi amalil-mavlid”, tarjimon; Mustafó Abdulqodir Ato, Bayrut 1985 yil, 42-43 betlar.
12. Rihla; Makkadagi bayramlar uchun qarang. Niko Kapteyn, “Muhammad payg’ambarning tug’ilgan kuni tarixiga oid materiallar”Qohira, 1980- yil, 92- bet, Islam, LXIX/2, Berlin 1992 yil, 193-203 betlar.
13. Erik Geoffroy, “Misr va Suriyadagi so’fiylik”, Damashq 1995 yil, 106- bet.
14. Ahmet O`zel “Mavlid: Uning tarixiy va diniy hukmi” Devon: Fanlararo tadqiqotlar jurnali 2002 yil, 12-son, 243 (9 / 12) bet.
15. Bebitov, M. A., & Rahmanova, M. R. (2023). JALOLIDDIN XORAZMSHOHNING CHINGIZXONGA QARSHI KURASHIDA DEHLI SULTONI SHAMSIDDIN ELTUTMUSHNING ROLI. *Academic research in educational sciences*, 4(2), 5-12.
16. Abdirasulovich, B. M. (2023). AMIR TEMURNING HINDISTONGA YURISHI. *Scienceweb academic papers collection*.
17. Bahridin o’g, M. O. A. (2023). AMIR JOKU BARLOS-AMIR TEMURGA SADOQAT VA DO`STLIK RAMZI. *SIYOSATSHUNOSLIK, HUQUQ VA XALQARO MUNOSABATLAR JURNALI*, 2(1), 68-69.
18. Jumayev, A. M. A. O. G. L., & Mamayusupov, O. A. B. O. G. L. (2022). IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 101-117.
19. Бахриддин О.Г., М. О. А. (2022). Роль трудов греческих историков в изучении древней истории народов Центральной Азии. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИНКЛЮЗИВНОГО И УСТОЙЧИВОГО ОБРАЗОВАНИЯ*, 1(4), 188-192

## **МАҲАЛЛА РАИСЛАРИ САЙЛОВЛАРИНИ ЎТКАЗИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ**

**Ержанова Светлана Машарипбаевна**

Қорақалпоқ давлат университети магистранти

### **АННОТАЦИЯ**

*Ушбу мақолада фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тушунчаси, ҳуқуқий мақоми ва маҳалла раислари бўлиб ўтадиган сайловлар ўтказишнинг ҳуқуқий асослари, тартиби қонунчилик нормалари асосида таҳлил қилинган. Таҳлиллар асосида ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш бўйича фикр ва таклифлар билдирилган.*

***Калит сўзлар.** фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, маҳалла раислари, сайлов.*

### **ANNOTATION**

*In this article, on the basis of legislative norms, the concept, legal status of citizens' self-government bodies, the legal basis and procedure for holding elections of heads of districts are analyzed. Based on the analysis, opinions and proposals were made to improve the legal framework.*

***Keywords.** self-governing bodies of citizens, chairmen of districts, elections.*

### **КИРИШ**

Мустақиллик йилларида маҳалла тарихий ва ривожланган мамлакатлардаги тушунчада аниқ белгиланган ижтимоий-демографик, маданий-маънавий ва ҳудудий-маъмурий бирлик сифатида мақомга эришиб, у ўз ҳудудидаги фуқаролар ўртасида анъана ва урф-одатлар бирлиги, инсоний, ҳўжалик, ҳуқуқий муносабатлар бирлигини ташкил этгани ҳолда ўзаро ижтимоий муносабатларни боғлаб туриш воситасига айланди.

Ҳозирги даврда маҳалла йўналишида олиб борилаётган ишлар иккита йўналишни назарда тутди. Биринчиси маънавий вазифа бўлиб, у халқимизнинг минг йиллик тарихидаги ноёб, энг азиз анъаналарни, қадриятларни қайтадан тиклаш ва ривожлантиришдан иборат. Иккинчиси сиёсий вазифа бўлиб, маҳалла институтини бугунги замон талабларига мувофиқ тарзда тиклаш баробарида вилоят, шаҳар, туман ҳокимликлари зиммасига юкланган кўпчилик вазифа ва ҳуқуқларни фуқаролар ўзини-ўзи бошқариш органларига, яъни маҳаллаларга бериб, улар мақомини жой-жойига қўйиб, шу тариқа жамиятимиз ҳаётини демократиялашда янги ва жуда муҳим имкониятларга эришиш.

Ҳозирги даврга келиб, жамиятимиз сиёсий соҳасини эркинлаштириш мақсадларидан келиб чиқиб, маҳалла фуқаролар йиғинларига бошқарувнинг турли йўналишларига етакчилик қилиш ваколатлари берилди. Маҳалла ўз ҳудудда яшаётган фуқаролар турли ижтимоий муаммоларини ҳал қилиб беришда бевосита иштирок этадилар: қариялар фахрийлар, етимлар, байналминал-ҳарбийлар, кам таъминланган ва кўп болали оилалар манфаатлари ҳимоя қилинади, маҳалла фаолларини мазкур фаолиятда иштирок этишига бошчилик қилади. Шу билан биргаликда инсонни маънавий юксалиши ва амалий ташаббусларини намоён бўлиши учун шарт-шароит яратилади, моддий ва маънавий қўллаб-қувватланади.

Мамлакат сиёсий ҳаётида фуқароларнинг сиёсий қарорлар қабул қилишдаги иштирокини таъминлаб берувчи асосий бўғин – бу маҳалла фуқаролар йиғинларидир. Шунингдек, фуқароларнинг ижтимоий ҳаётдаги фаолигини ошириш қобилятига эга бўлган бирдан-бир бошқарув тизими ҳам маҳалла фуқаролар йиғинларидир.

### **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Маҳалла жамият бошқарувининг халқ кадриятларига асосланган тизими сифатида ижтимоий-иқтисодий, маънавий-маърифий соҳаларда қатор вазифаларни самарали амалга оширишда муҳим аҳамият касб этади. Ушбу тизимга доир кўплаб қонунчилик ҳужжатларининг қабул қилиниши унинг ташкилий-ҳуқуқий асосларини янада такомиллаштирди.

Ўзбекистон Республикаси Қонституциясининг 105-моддасида ўзини ўзи бошқариш органларига қуйидаги ҳуқуқий таъриф берилган: «Шаҳарча, қишлоқ ва овулларда, шунингдек улар таркибидаги маҳаллаларда фуқароларнинг йиғинлари ўзини ўзи бошқариш органлари бўлиб, улар икки ярим йил муддатга раисни(оқсоқолни) ва унинг маслаҳатчиларини сайлайди. Ўзини ўзи бошқариш органларини сайлаш тартиби, фаолиятини ташкил этиш ҳамда ваколат доираси қонун билан белгиланади».

Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 15 октябрдаги “Фуқаролар йиғини раиси (оқсоқоли) сайлови тўғрисида”ги ва “Фуқаролар йиғини раиси (оқсоқоли) сайлови такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартишлар киритиш тўғрисида”ги қонуни асосида қатор ўзгартиришлар киритилди. Яъни олдинги қонун фуқаролар йиғини раиси (оқсоқоли) билан бир вақтда унинг маслаҳатчисини ҳам сайлашни назарда тутар эди. Раиснинг ваколат муддати 2,5 йил бўлиб, бу муддат уларга ўз билим ва бошқарув қобилятини тўлиқ намоён этишга имконият бермаётган эди. Шунингдек, раислар фуқаролар вакиллари



йиғилиши томонидан сайланарди. Бунда сайловчилар номидан атиги 50-80 нафар вакил овоз берарди. Яна бир жиҳати шунда эдики, сайлов очик овоз бериш йўли билан ўтказилгани боис, фуқароларнинг ўз хоҳиш-иродаларини эркин билдириш имконияти чекланганди.

Қонундаги ўзгаришлар натижасида маслаҳатчиларнинг раис (оқсоқол) билан бир вақтда сайланиши тартиби ўзгартирилди. Унинг ваколат муддати 2,5 йилдан 3 йилга узайтирилди. Вакилликнинг минимал нормаси белгиланди, яъни у сайловчиларнинг 12 фоизидан кам бўлмаслиги тартиби ўрнатилди. Олий Мажлис Сенати Кенгаши томонидан фуқаролар йиғинлари раислари (оқсоқоллари) сайловини ташкил этиш ҳамда ўтказишга кўмаклашувчи алоҳида республика комиссияси тузилади. Бундан кейинги сайловларда яширин овоз берилади.

Фуқаролар йиғини раиси сайловини ташкил этиш ва ўтказиш, фуқаролар йиғини (фуқаролар вакилларининг йиғилиши) ўтказиладиган сана, вақт ва жой, фуқаролар йиғини раиси лавозимига номзодлар тўғрисида ахборот Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятини мувофиқлаштириш бўйича кенгашларининг расмий веб-сайтларига сайлов ўтказилишидан камида беш кун олдин жойлаштирилиши белгилаб берилганлиги билан аҳамиятли.

Қайд этиш керакки, фуқаролар йиғини — бу фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органи бўлиб, уларнинг маҳаллий аҳамиятга эга бўлган масалаларини ҳал қилишда мустақил фаолият юритиб, ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисидаги қонунчиликга кўра, улар давлат ҳокимияти органлари тизимига кирмайди, аҳоли манфаатларини ифодалайди ва тегишли ҳудудда улар номидан қарорлар қабул қилиши билан аҳамиятли.

Киритилган ўзгартиришларга кўра, фуқаролар йиғини раиси (оқсоқоли) фуқаролар йиғини томонидан, фуқаролар йиғинини чақириш имкони бўлмаган тақдирда эса, фуқаролар вакилларининг йиғилиши томонидан уч йилга сайланади. Ушбу сайловни ўтказишда Олий Мажлис Сенати Кенгаши томонидан сайловни ташкил этиш ва ўтказишга кўмаклашиш бўйича Республика комиссиясини тузилади, сайловни ўтказишда «фуқаролар йиғинларига амалий ёрдам кўрсатиш учун» Фуқаролар йиғини раиси сайлови тўғрисидаги қонун<sup>35</sup> га асосан Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар, Тошкент шаҳар, туманлар ва шаҳарлар комиссиялари тузилади.

Бевосита фуқаролар йиғинларида йиғилиш ёки вакиллар йиғилиши қарори билан ишчи гуруҳлар тузилади. Улар «тегишли ҳудудда доимий яшовчи

<sup>35</sup> ЎРҚ-499-сон 15.10.2018. Фуқаролар йиғини раиси (оқсоқоли) сайлови тўғрисида (lex.uz)

фуқароларнинг фикрини инобатга олган ҳолда» раислик лавозимига номзодлар бўйича таклифларни тайёрлайди. Туман ёки шаҳар ҳокими фуқаролар йиғини раиси (оқсоқоли) лавозимига тақдим этилган номзодларнинг ҳужжатларини кўриб чиқади ва ўзининг ушбу номзодлар бўйича асослантирилган хулосаларини кейинчалик ишчи гуруҳларга топшириш учун тегишли комиссияларга юборади. Ишчи гуруҳ туман ёки шаҳар ҳокимининг хулосасини олганидан кейин фуқаролар йиғини раиси (оқсоқоли) лавозимига келишилган номзодлар ҳақидаги ахборотни сайловдан камида беш кун олдин фуқаролар йиғини биносига ва гузарларга осиб қўяди.

Мамлакатимизда бугунги куни 9349 та фуқаролар йиғинлари мавжуд бўлса, фуқаролар йиғини раисига бўлган охирги, яъни 2022 йилда бўлиб ўтган сайловда номзодлар 26,9 минг кишини ташкил этиб, ҳар бир ўринга деярли 3 номзоддан тўғри келганлигини кўриш мумкин.

### **ХУЛОСА**

Хулоса ўрнида айтиш мумкинги, ўзини ўзи бошқариш органларига бўлган сайловлар натижаси шуни кўрсатдики, бу сайловлар аҳолининг кенг қатламлари учун ижтимоий-сиёсий фаоллик бағишлади ва ўзига хос демократия мактаби вазифасини ҳам ўтади. Шунингдек, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларига янги сайловлар маҳаллий давлат ҳокимияти органлари вазифаларини фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларига босқичма-босқич ўтказиш борасидаги сиёсатни фуқаролар қўллаб-қувватлаётганлигини, давлат қурилиши ва жамиятнинг барча соҳаларини эркинлаштиришда, фуқаролар яшаш жойларидаги муҳим ижтимоий-сиёсий масалаларни ҳал этишда, аҳоли фаоллигини оширишда маҳаллаларнинг ўрни ва аҳамияти йилдан-йилга ортиб бораётганлигини, «Кучли давлатдан-кучли фуқаролик жамияти сари» концептуал сиёсий дастурни ҳаётга татбиқ этиш ўзининг ижобий ва самарали натижасини бераётганлигини кўрсатмоқда.

### **REFERENCES**

1. Кутыбаева Е., Умарова К. Дауменов Б., Адилова М. Конституциялық ҳуқуқ. Оқуўлық. Латын тилинде. Н.:2020, 423 Б.
2. Исмоилова Г. Ўзбекистонда маҳаллий давлат ҳокимияти ва ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятини либераллаштиришнинг давлат ҳуқуқий йўналиши. 2-нашр. Т.: Академия., 2014. 145 Б.
3. Туляганов А.Т. Давлат ҳокимиятини вакиллик ва ўзини ўзи бошқариш органларининг фаолиятини ташкил этиш. Т.: Университет, 1996. - 175 б.4.
4. ЎРҚ-499-сон 15.10.2018. Фуқаролар йиғини раиси (оқсоқоли) сайлови тўғрисида (lex.uz)

## **AMIR TEMUR SALTANATIDA SOG‘LOM AVLOD TARBIYASI MASALALARI**

**O‘ljayeva Shohistaxon Mamajonovna**

TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti professori, tarix fanlari doktori  
+998909917957

**Tosheva Guzal Sherboboyevna**

Toshkent kimyo-texnologiya instituti o‘qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Amir Temur saltanatida sog‘lom avlod tarbiyasi masalalari tahlil qilingan. Sog‘lom avlod tarbiyasi Temuriylar davlatchiligining muhim yo‘nalishlaridan biri edi. Saroyda yosh temuriyzoda tug‘ilishi bilan uning tarbiyasi enaga va otaliqqa topshirilgan. Enaga va otaliq saltanatda muhim Farzand tarbiyasi masalasida maxsus davlat siyosati yuritilgan. Maqolada bu va boshqa ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Amir Temur, bola tarbiyasi, enaga, otaliq, tarix, ta‘lim, tarbiya, insonparvarlik.*

### **ABSTRACT**

*This article analyzes the issues of raising a healthy generation in the empire of Amir Temur. Education of a healthy generation was one of the important directions of Timurid statesmanship. After the birth of a young Timurid in the palace, his upbringing was entrusted to the nanny and father. A special state policy has been implemented in the important issue of child-rearing in the nanny and paternal kingdoms. This and other information is mentioned in the article.*

***Keywords:** Amir Temur, parenting, nanny, fatherhood, history, education, upbringing, humanism.*

### **KIRISH**

Sohibqiron va uning vorislari davrida sog‘lom bola tarbiyasiga katta e‘tibor qaratilgan. Zero sog‘lom bola jismoniy va ma‘naviy barkamol insondangina tug‘ilishi va kelajakda jamiyatga va oilasiga foyda keltirishini ota-bobolarimiz teran anglab yetishgan. Amir Temur bobomiz ham aynan o‘zi har tomonlama yetuk va barkamol bo‘lgani uchun, kelajak avlod davlat va jamiyat hayotida juda katta o‘rin tutishini o‘z aql ko‘zi bilan avvaldan ko‘ra olgan hazrati inson edi.

U avvalo farzandlarni dunyoga keltiradigan ota-onalarning ma‘naviy va jisman sog‘lomligini talab etgan. U ichkilik, chekish kabi zararli illatlarga qarshi kurashgan, yoshlarning yengil-yelpi hayotga o‘rganishiga, qiyinchilik va mehnatu

mashaqqatlarsiz hayot kechirishiga, aysh-ishratlarga berilishiga hamda benikoh farzand tug'ilishiga qarshi bo'lgan.

Kelin tanlashni davlat siyosati bilan teng ko'rgan. Saltanatda saroy shahzodalari tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan. Ma'lumki, qadimdan davlat boshliqlari yangi tug'ilgan farzandlarini biror *enagaga* berib emizdirganlar. Enaga[4. 2017. B. 103] bo'lmish toza nasllik, yangi farzand ko'rgan bo'lishi kerak bo'lgan. *Atkalar* esa ana shu enaganing eri hisoblangan va u shahzodaga otaday hisoblangan. Har qanday kishi *enaga* yoki otaliq (*atka*) bo'lavermagan, balki toza nasllik, har tomonlama sog'lom, ziyrak, aqlli, dono kishilar bu ishga loyiq deb topilgan. Temuriylarning chaqaloq farzandlariga emikdosh bo'lgan bolalar *ko'kaldosh* deyilgan[4. 2017. B. 103].

Shuningdek, Bibixonim kabi obro'li temuriy malikalar ham yosh bolalarni saroy qoidalari, o'zini tutish, ovqatlanish madaniyati, kattalarga e'tibor, savollarga javob berish kabi ahloqshunoslik ilmiga tayyorlab borganlar.

Sohibqiron o'z o'g'li Shohruh Mirzoni, suyuqli iabiralari Muhammad Sulton Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Ulug'bek Mirzo va boshqa mirzolariii bevosita zukko Saroy Mulk xonim tarbiyasiga topshirgan edi[2. 1994. B. 7].

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Tarixdan bir misol: 1394 yil 14 avgustda Shohruh Mirzo o'g'il ko'rdi. Unga Ibrohim Sulton deb ism qo'yadilar[3. 1997. B. 172]. Shahzodaga Tuman og'xo (Amir Temurning dono zavjasi-Sh.O') murabbiya etib tayinlanadi. «Va amir Usmon Abbosni *otabek* (otaliq-Sh.O') qildilar va xotuni Sotqin og'okim, Sohobqirong'a urug' bo'lur erdi, enagaliqqa muqarrar bo'ldi[3. 1997. B. 172]». O'sha davrda aslzodalar ham o'z farzandlarini maxsus enagalar qo'lida voyaga yetkazishga harakat qilganlar. Bizning nazarimizda buning bir qancha sabablari bor: Birinchidan, ularni ortiqcha erkalatish, haddan tashqari ko'p mehr ko'rsatish, erkatoy farzandlarni o'stirmaslik buning asosiy sabablaridan bo'lsa, ikkinchidan, aslzodalar o'zlari ko'proq vaqtini siyosiy faoliyatga bag'ishlaganliklari, ko'pincha ularning yurishlarda va boshqa safarlarda bo'lishi bolaning nazoratdan chetda qolishiga sabab bo'ladi, degan fikrga tayangan bo'lishlari mumkin. Bolani har taraflama chiniqtirishda otalik va onalik mehridan biroz uzilgan bola ortiqcha qarshiliklarsiz, ustozlarining tarbiyasini olib borgan. Temuriylarning ichidan yetishib chiqqan o'nlab shohu sarkarda shoir va olimlarning o'zi saltanatda sog'lom bola tarbiyasiga katta e'tibor berilganini ko'rsatadi.

Aslzodalarning farzandlari 4-5 yoshdan ilohiyot va ahloqshunoslik bilimlarini egallab borishgan. O'sha davrda madrasalarning ikki turi mavjud bo'lgan. Dastlabki ma'lumot beruvchi madrasaalar, ikkinchisi esa oliy ma'lumot beruvchi madrasaalar edi. Bu ta'lim maskanlarida ilohiyot ilmi bilan birgalikda qonunshunoslik (fiqh),

mantiq, matematika (riyoziyot), geometriya (handasa), falakiyot (ilmi hay'at), tibbiyot, jug'rofiya, arab tili va boshqa fanlar o'rgatilgan.

Shahzodalarga, madrasalarda o'qishni boshlagan yosh bolalarga qissaxonlar turli tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan qissa va ertaklarni aytib berishgan va ularda yaxshilikka intilish, yomonlikdan nafratlanish tuyg'ulari shakllantirilgan.

Tarix fani Amir Temur hayotligidayoq ravnaq topgan. Amir Temurning hayot va faoliyatining o'zi qaxramonlik bilan yo'g'rilgan edi.

Temuriylar o'sha davr ilmiy muhitining asoschilari bo'lib, bemisl milliy tariximizda yuksak ma'naviy jasorat ko'rsatganlar. Temuriy shoh va shahzodalarning shaxsan o'zlari xalqqa o'rnak bo'lib, yoshlar ongida ilm-fanga havasni uyg'ota olgan. Ular milliy tariximiz g'ildiraklariga botiniy kuch bergan epik qahramonlardir.

Xususan, Temuriy malika Bibixonim nomi bilan mashhur bo'lgan Saroymulxonim Amir Temurdan ruxsat olib Bibixonim madrasasini o'z mablag'i hisobidan qurdirgan va bu maskanda yuzlab o'z davrining yetuk yosh avlodlari shakllanib, mamlakatning ma'naviy hayotida muhim o'rin tutganlar[2. 1994. B. 7].

Ulug'bek Mirzo nafaqat buyuk astronom olim va matematik, balki o'z davrining peshqadam arab va fors tili bilimdoni, musiqachisi va tarixnavisi edi. Bu esa temuriylarning faqatgina bir-ikki sohani chuqur o'rganish bilan chegarlanmaganligi, Temuriy shoh va shahzodalar bilan birga o'sha davr ilmi toliblarining Sharqda peshqadam olimlar bo'lib yetishgani, o'z sohalari bilan birga boshqa sohalarni ham mukammal bilganlaridan dalolatdir.

Ulug'bek shaxsan o'zi o'sha davrda eng nufuzli sharqda katta obro'ga ega bo'lgan to'rtta madrasa qurdirgan: Buxoro va G'ijduvonda bittadan, Samarqandda ikkita madrasa qurdirgan. Bu davrda Samarqandda Xonim, Qutdibbin Sadr, Muhammad Sulton madrasalari ham faoliyat yuritgan[1. 2006. B. 159].

Bu madrasalarda yoshlar bilim olib, har taraflama yetuk mutaxassislar bo'lib yetishishgan. Mirzo Ulug'bek Amir Temur o'stirgan bilim daraxtining mevasi sifatida bobosining ezgu ishlarini davom ettirgan. Amir Temur va uning vorislari sog'lom avlod tarbiyasi tarixida muhim bir ko'tarilishni boshlab bergan.

Bir jihatga alohida e'tibor berish lozim: tarixida faqat Temuriylar orasidagina bir paytda ham hukmdor shaxsida sarkarda, olim, tarixchi va shoirlar - xususan Mirzo Ulug'bek, Shohruh Mirzo, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzo kabi ko'plab ensiklopedist olimlar-davlat rahbarlari yetishib chiqdi. Temuriylarning buyuk kashfiyotlari ham saltanatda sog'lom bola tarbiyasiga alohida e'tibor berilganidan, ularning yuksak ma'naviyati va ma'naviy jasoratidan dalolatdir. Ulug'bek Akademiyasi, Hirot maktabi, Boysung'ur Akademiyasi ham yosh bolalarga berilgan bilimlarning, Amir Temurning sog'lom bola borasida olib borgan siyosatining mahsulidir. Temuriy shoh



va shahzodalar, umuman madrasalar o'quvchilari o'z davrida grek-rim olimlari, Sharq va G'arbning eng so'nggi kashfiyotlaridan boxabar bo'lishgan va o'z bilimlarini mustahkamlab borishgan, ularni rivojlantirib Sharqda Temuriylar Renessansining tamal toshlarini qo'yishgan.

Sohibqiron, uning o'g'illari, nevaralari, harbiy boshliqlar va jangchilarning o'zi asli bahodir, mard inson, epik qahramonlar edi.

Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fanga qiziqishning o'sishi ma'naviy madaniyatning umumiy yuksalishiga, ishlab chiqarish va hunarmandchilikning o'sishiga yordam berdi. Ayni vaqtda irrigatsiya, shaharsozlik, me'morchilikning ildam rivojlanishi fandagi turli yo'nalishlarning yuksalishiga turtki berdi[1. 2006. B. 154].

Ustolar maktabi ham bolalarni hunarga o'rgatishda muhim maktablar hisoblangan. Bolalalar u yerda har qanday zahmatu qiyinchiliklarni yengib o'tishgan, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirib, o'z davrining usta hunarmandlari bo'lib yetishgan. Ustolar xonadoni katta pedagogika maktabi bo'lgan, yoshlarni mehnatsevarlikka, halolikka, inson va mehnatning qadriga yetishga o'rgatgan.

Jismoniy tarbiya Amir Temur saltanatida sog'lom bola tarbiyasining muhim asoslaridan biri hisoblangan. O'sha davrda xalq o'yinlari mamlakat bo'ylab keng tarqalgan va yosh bolalar bu o'yinlar bilan birga sport bilan ham muntazam shug'ullanib borishgan. Amir Temurning yurishlarida qatnashgan 200 000 lab qo'shindagi ko'plab yosh zobit va navkarlar o'z davrining usta sportchilari bo'lishgan. Amir Temur davrida sport va harbiy mashqlar bir-birini to'ldirib borgan. Urushlar bosh masalala bo'lgan o'rta asrlarda har bir insonning chapdast, jismonan chiniqqan, dushmanga har qanday sharoitda ham qarshi tura oladigan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi o'sha davrning talabi edi. Sohobqiron Amir Temurning yoshligidan uzoq masofalarga yugurish, chapdastlik, chavandozlik, uloq, chim ustida xokkey o'ynash kabi sport turlariga ixlosi baland bo'lgan va bu mashqlarni muntazam bajarib o'zini chiniqtirib borgan. U bolaligida o'ynagan podshoh vazir o'yinlarida kelajak strategiyalarini va harakatlarini belgilab borgan. Bu o'yinda yoshgina bolakay podshoh roliga vazirlarni boshqaradi, askarlarga turli buyruqlar beradi, oliq-soliqlarni belgilaydi, aybdorlarni jazolaydi.

Amir Temur zamonasining tengi yo'q sarkardasi edi. Barkamol insonni uning jismoniy salomatligi, vaziyatlarda epchillik, tezkorlik bilan harakat qilish, aql-zakovatining mukammalligida deb tushungan. U faqatgina jismonan baquvat bo'lish er kishiga kam bo'lishini, uni aql-zakovati bilan to'ldirishi lozimligini ta'kidlagan.

Shahzodalar kichikligidan sportning turli sohalari bilan shug'ullanishga o'rgatilgan. Ot sporti Amir Temur davrida keng tarqalgan bo'lib, yurishlarda, boshqa

sarhadlarga xabarlar yetkazishda, diplomatik munosabatlarda, shikor-ov paytida otlardan keng foydalanilgan.

Qorabayir otlaridan jang maydonlarida, Farg‘ona otlaridan esa uzoq masofalarga yurishda, razvedkada foydalanilgan. Ular bilan bog‘liq sport turlari tabiiy ravishda rivojlanib borgan. Nainki, insonlar ot sporti bilan shug‘ullanishgan, balki otlarning o‘zi ham qo‘lga o‘rgatilib, jang maydonlarida ular ham ma‘lum vazifalarni bajarib turgan. Balandikka sakrash, yuqoriga chiqish, suvdan kechib o‘tish va boshqa yerlarga o‘rgatilgan otlar bilan borilgan.

Chavandozlik sporti Amir Temur saltanatida muhim ahamiyat kasb etgan, chunki otliq qo‘shinlar otlar bilan masofani bosib o‘tgan va ot ustida jang bo‘lgan. Ov qilish barchaga, xususan aslzoda bolalarga maxsus o‘rgatilgan. Negaki, ov qo‘shinning jang qilish yo‘llarini o‘rgatuvchi mashqdek gap bo‘lgan, shahzodalarni chiniqtirgan.

Arqonda osilish, tepalikka chiqish va tushish, tog‘li yerlarda ulardan foydalanish bilan bog‘liq mashq turlari ham keng yoyilgandi. Amir Temur qo‘shin anjomlari orasida maxsus arqonlar ham mavjud bo‘lgan. Tog‘ daralarda, tepalik-qoyalarga chiqishda, ikki tepalikni bog‘lashda va boshqa shunday holatlarda ipakdan to‘qilgan pishiq arqonlardan foydalanilgan. Ulardan ba‘zan narvonlar yasalib, yog‘och taxtachalar bilan inson yura olmas daralardan ham o‘tilgan.

Temuriy shahzodalar o‘z davrining usta alpinist va g‘avvoslari bo‘lishgan. Amir Temur davrida o‘z davrining mashhur polvonlari bo‘lgan. Zo‘rgarlar, yani kuchlilar odam ko‘tarib, tosh va suyaklarni sindirib, tosh otib tegirmon toshini ko‘tarib, fil bilan olishib o‘z kuch va mahoratlarini namoyish etganlar. O‘q otish, sakrash, dorbozlik eng ko‘p tarqalgan sport turlaridan edi.

Nayzabozlik Amir Temur davlatining eng keng tarqalgan sport turlaridan edi. Daraxt shohiga xalqa osib qo‘yib, o‘shandan nayzani otib o‘tkazishgan. Bunda bolakayda chaqqonlik, epchillik va maqsadga yetish, mo‘ljalni to‘g‘ri olish, o‘zini himoya qilish kabi ko‘nikmalar shakllantirilgan.

Husayn Voiz Koshifiy kurashning ikki turini keltirib o‘tgan: birinchisi-qabz usuli. YA’ni qo‘l bilan ushlab kurash tushish, ikkinchisi-iztiror ya’ni erkin kurash[1. 2006. B. 210].

Amir Temur saltanatidagi eng mashhur sport turlaridan biri suzish mashqi bo‘lgan. Shahzodalar va yoshlar bu mashqqa kichikligidan o‘rgatilgan, ular daryo, anhor va suv havzalarida tez va uzoq masofalarga suzish mashqi o‘tkazilgan, eng qiyin vaziyatlardan chiqishga o‘rgatilgan.

Umuman, Amir Temur davrida jismoniy va aqliy yetuk yoshlarga ehtiyoj katta edi. Amir Temurning ushbu so‘zlari fikrimizga yaqqol dalildir: “Cherik tuzib navkar

olishda uch qoidaga amal qildim: birinchidan - yigitning kuch-quvatiga, ikkinchidan - qilichni o'ynata olishiga, uchinchidan - aqlu zakovatiyu kamolotiga e'tibor berdim. Shu uch sifat jamuljam bo'lgandagina navkarlik xizmatiga oldim. Negaki kuch-quvvatli yigit har qanday qiyinchiliklarga, azobu uqubatlarga chidamli bo'ladi, qilich o'ynata oladigan kishi raqibini mag'lub eta oladi, oqil navkar har yerda aqlu idrokini ishga solib mushkulotni bartaraf etmog'i mumkin".

Demak, bundan ko'rinadiki, askarlikka qabul qilinayotgan yigitlar chavandozlikda, nayzabozlikda, o'q otishda, yugurishda va boshqa jihatlarda dushmanga qarshi kurashishda ma'lum malaka va ko'nikmalarga ega bo'lgan bo'lishi lozim edi. Tarix kitoblarida Amir Temur qo'shiniga professional armiya deb baho beriladi, buning boisi, ularning muntazam ravishda sport bilan shug'ullanganliklari, chiniqqani va vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rganidan edi.

Temur va temuriy shahzodalar XIV asrning ikkinchi yarmidan XVI asrning birinchi choragigacha O'rta Osiyo, Shimoliy Afg'oniston, qisman Eron hamda Iroq mamlakatlarida hukmronlik qilganlar. Shahzodalar singari temuriylar sulolasiga mansub malikalar orasida ham iste'dodli siyosatdon, suxandon, yetuk olima va xassos shoirlar yetishib chiqqan. Ular tarix zarvaraqlarida o'zlaridan o'chmas iz qoldirganlar. Ular Amir Temur tomonidan yaratilgan imkoniyat, shart-sharoitlar bag'rida kamol topgan, o'sha davr qolip va chegaralaridan o'zib ketgan, o'zlaridan keyingi yuz yilliklarga ham ijobiy ta'sir ko'rsata olgan barkamol avlod edilar. Ular bugungi kunda barkamol ajdodlar sifatida har bir jabhada bizga ibrat maktabini o'taydilar, biz ularning shonli yo'llaridan bahra olamiz, faxr bilan ayta olamizki, biz u hazrati insonlarning davomchilaridirmiz. Bu omillar sog'lom avlod tarbiyasi Amir Temur va temuriylar saltanatida Renessansni boshlab bergan deb xulosa qilishimizga asos bo'la oladi.

## **REFERENCES**

1. Amir Temur jahon tarixida. –Toshkent:Sharq, 2006.
2. Fayziyev T. Temuriy malikalar. Toshkent, 1994.
3. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma / So'zboshi, tabdil, izohlar va ko'rsatkichlar mualliflari Ashraf Ahmad, Haydarbek Bobobekov.- Toshkent: Sharq, 1997. Zafarnoma. , Toshkent, 1997.
4. O'ljayeva SH. Amir Temur davlat boshqaruvi. Toshkent, Akadmnashr, 2017.
5. Shohistahon, U., Khojiakbar, K., Eshmatboy, K., Gulshada, U., & Otabek, N. (2019). Some Pages Development of Entrepreneurship in the Empire of Amir Temur. *International Journal of Engineering and Advanced Technology*, 9(1), 5250-5253.

6. ShohistahonUljaeva, K., & GulshadaUrazalieva, G. Some Features of Public Administration in the Empire of Amir Temur.
7. Shohistahon, U., Makhruya, K., Makhsuda, T., Khalima, B., & Dilfuza, Z. (2019). The European Culture Under the Empire of Amir Temur. *International Journal of Engineering and Advanced Technology*, 9(1), 4653-4655.
8. Shohistahon, U., Khudoyberdievich, D. A., Khilola, G., Guzal, I., & Takhirovna, I. B. K. (2019). About Central Management System State of Amir Temur. *International Journal of Engineering and Advanced Technology*, 9(1), 4834-4836.
9. Mamajonovna, S. U., Mirzapayasovna, A. U., & Rano, K. (2019). History of Medicine in the Epoch of Amir Temur and His Dynasty. *International Journal of Recent Technology and Engineering*, 8(3), 4554-4555.
10. Shohistahon, U., & Hakimali, A. (2019). The History of the Unani Medicine in Central Asia. *International Journal of Recent Technology and Engineering*, 8(3), 4550-4553.

**КИЧИК МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ЖИСМОНИЙ  
ТАЙЁРГАРЛИГИ ВА ЖИСМОНИЙ СИФАТЛАРИНИ  
РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАСИ**

**Курдошев Бехзод Фазлиддинович**

Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети Спорт  
психологияси ва педагогика кафедраси катта ўқитувчиси,  
Ижтимоий сиёсий фанлар институти катта ўқитувчиси

**АННОТАЦИЯ**

*Ушбу мақола кичик мактаб ўқувчиларининг жисмоний тайёргарлиги ва жисмоний сифатларини ривожлантириш масаласи мавзусига бағишланган. Шунингдек, мақолада жисмоний тайёргарлик тушунчаси ва унинг моҳияти, кичик мактаб ёши хусусиятлари, болаларда жисмоний сифатларни шакллантиришининг педагогик, психологик масалалари кабилар кенг ёритилган.*

***Калит сўзлар:** Кичик мактаб ёши, болалар, жисмоний тарбия, жисмоний тайёргарлик, иродавий сифатлар, ихтиёрий диққат, мотор ҳаракатлар.*

**ПРОБЛЕМА РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ И  
ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ**

**Курдошев Бехзод Фазлиддинович**

Старший преподаватель кафедры спортивной  
психологии и педагогики Узбекского государственного  
университета физического воспитания и спорта,  
старший преподаватель Института социальных и политических наук

**АННОТАЦИЯ**

*Данная статья посвящена проблеме физической подготовленности и развития физических качеств младших школьников. Также в статье освещены понятие физической культуры и ее сущность, особенности младшего школьного возраста, педагогические, психологические вопросы формирования физических качеств у детей.*

***Ключевые слова:** Младший школьный возраст, дети, физическое воспитание, физическая культура, волевые качества, произвольное внимание, двигательные движения.*



## **THE PROBLEM OF THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL FITNESS AND PHYSICAL QUALITIES OF JUNIOR SCHOOLCHILDREN**

**Kurdoshev Bekhzod Fazliddinovich**

Senior teacher of the Department of Sports Psychology and Pedagogy  
of the Uzbekistan State University of Physical Education and Sports,  
Senior teacher of the Institute of Social and Political Sciences

### **ABSTRACT**

*This article is devoted to the issue of physical fitness and development of physical qualities of small school students. The article also covers the concept of physical training and its essence, the characteristics of small school age, pedagogical, psychological issues of formation of physical qualities in children.*

**Key words:** *Small school age, children, physical education, physical training, volitional qualities, voluntary attention, motor movements.*

### **КИРИШ**

Мамлакатимиз шароитида ижтимоий-меҳнат ва соғлиқни сақлаш тизимидаги барча тадбирлар, аҳолининг соғлом турмуш тарзини яхшилаш, уларнинг меҳнат қобилиятини ошириш ҳамда узоқ йиллар соғлом яшашга қаратилганлиги билан муҳим аҳамиятга эгадир. Саноат ишлаб чиқариши, қурилишлар, қишлоқ ва сув хўжалигидаги меҳнат фаолиятларда жисмонан баркамол бўлишни тақозо этади. Шу сабабдан, кишиларнинг соғлиғини мустаҳкамлаш, меҳнат қобилиятларини такомиллаштириш ва меҳнат самарадорлигини ошириш йўлида жисмоний тарбия ва спортга катта эътибор берилмоқда. Бу эса, аҳолининг саломатлигини яхшилаш, ўқувчи ёшларнинг жисмоний баркамоллигини таъминлаш, меҳнаткаш ишчи-хизматчи ва зиёлиларни жисмоний тарбия ва спорт билан мунтазам шуғулланишга жалб этишга қаратилгандир.

Жисмоний тайёргарлик тушунчаси шундан иборатки, ҳар бир инсон, айниқса-меҳнаткашлар (ақлий ва жисмоний соҳада) ва ўқувчи-ёшларнинг ҳар қандай меҳнатга яроқлилиги (қобилияти), доимо тайёр бўлиб туриши, жисмонан бақувват, чиниққан бўлишидаги фаол ҳаракатлардир. Бундай амалий фаолиятлар фақат жисмоний меҳнат ва жисмоний машқларни бажариш йўли билан вужудга келади ва мустаҳкамланади. Халқ орасида “Соғлиқ пулга топилмайди” деган нақл бор. Бу аини ҳақиқатдир. Қасалликка чалинган кишилар буни яхшироқ идрок этишадилар. Республикамизда ўқувчилар ўртасида жисмоний тарбияни оммалаштиришнинг асосий мақсади шундаки, инсонларнинг доимо соғлом бўлиши, болалиқдан жисмоний тарбия билан

шуғулланишга одатлантириш, иқтидорли ёшларни спортга сафарбар етиш, спортчиларнинг жаҳон спорт майдонларида иштирок этиши ҳамда ютуқларни қўлга киритиб, Ўзбекистон шухратини жаҳонда янада кенгайтиришга қаратилган. Шу жиҳатдан қаралганда мазкур муаммо илмий –амалий тадқиқига кўра ўта аҳамиятли саналади.

### **МУАММОНИНГ ЎРГАНИЛГАНЛИГИ**

Бола шахсининг жисмоний тайёргарлиги ва унинг соғлом ҳаёти масалалари С.М. Ахметов, В.А. Баландин, Т.Е. Виленская, А.В. Жмулин, И.О. Комлев, А.А. Зайчиков, В.К. Бальсевич, С.П. Евсеев, А.Г. Комков, О.М. Шелков, А.Н. Борцова ҳамда мамлакатимиз олимларидан Л. Д. Новиков, Б.А.Ашмарин, Л.П.Матвеев, А.Абдуллаев,Ш.Х.Х онкелдиев, Т.С.Усмонхужаев, А.К.Акрамов, Р.Абдумаликов каби олимлар томонидан кенг тадқиқ этилган.

Ўз замонасида буюк бобокалонимиз Абу Али Ибн Сино соғлиқни сақлаш ва уни мустаҳкамлашда жисмоний машқларни (бадан тарбияни) ҳар қандай доридан устун қўяди. Бундан ташқари, қадимги давр фаласуфлари ҳам саломатликни кенг улуғлаганлар. Бир бадавлат киши фаласуфдан сўради: “Инсон ҳаётида энг улуғ нарса нима, давлатми ёки шон-шухрат ?” У киши шундай жавоб қилибди: “На бойлик ва на шон-шухрат инсонни бахтли қила олмайди. Саломатлик бахт ва қувончнинг бир манбаидир”. Ҳақиқатан ҳам инсонларга энг катта бахт, шодлик, қувонч келтирувчи нарса соғлиқдир. Соғлиқдан ортиқ қимматли нарса йер юзида йўқ. Бу қатъий ва ҳақиқий (объектив) ҳукмдир.

Инсон саломатлиги ҳақида мулоҳаза юритилса, албатта уни доимо сақлаш, имконият даражасида ривожлантириш лозим бўлади. Бунда жисмоний тайёргарлик (тайёрлаш) энг устивор тадбир бўлмоғи зарур.

Юқорида таъкидланганидек, жисмоний тайёргарлик кўриш-шуғулланувчиларнинг (тарбияланувчиларнинг) энг аввало ёши, жинси ва жисмоний ҳолати (касал ёки соғломлиги) эътиборга олинади. Шу асосда бериладиган (бажариладиган) машқларнинг туркуми (комплекс), миқдори ва бажариш усуллари белгиланади. Боланинг ёши, жинси ва жисмоний ҳолатларига қараб ўтказиладиган машғулотларнинг кўлами ғоят кенг. Уларнинг ҳар бири алоҳида мавзудир. Шу сабабдан, жисмоний тайёргарликнинг умумий хусусиятларигагина қисман тўхталиш зарурдир.

Умумий жисмоний тайёргарлик деганда биз, ҳар бир шуғулланувчининг жисмонан баркамоллиги тушунилади, яъни тез ҳаракат қилиш, турли хил меҳнатларни йенгил бажара олиш, йенгил, чاقқон, кучли ва бошқа жисмоний сифатларга эга бўлишдир. Бундай фазилатлар ва жисмоний сифатларга эга

бўлиш учун эса ҳар доим жисмоний тарбия билан шуғулланиш лозим бўлади. Бунда кундалик режимга (эрталаб, кечки бўш пайт, дам олиш куни ва ҳ.к.) жисмоний тарбия машғулотларни киритиш шартдир.

Шуни алоҳида айтиш жоизки, умумтаълим мактаблари, академик лицейлар, касб-ҳунар коллежлари ва олий таълим муассасаларидаги жисмоний тарбия дасрлари умумий жисмоний тайёргарлик даражасини тўла бера олмайди. Чунки ҳафтада 1-2 соатлик дарслар мушак ва бўғинларга тўла куч, ҳаракатчанлигини бутун ҳафта давомида сақлашни таъминлай олмайди. Жисмоний тайёргарликка эга бўлиш учун эса ҳар куни эрталаб ва кечки пайтда жисмоний тарбия ва спортнинг у ёки бу тури билан астойдил шуғулланишни тақозо этади. Бунинг ўрнини спорт тўғарақлари ва спорт мусобақаларигина босиши (эгаллаш) мумкин. Яъни жисмоний тайёргарликнинг асосий йўли ҳар кунги жисмоний тарбия ёки спорт тўғарақлари машғулотларида (ҳафтада 3-4 марта) иштирок этиш ҳисобланади.

### **ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ**

Ўқувчи-ёшлар юқорида баён этилган жисмоний тарбия воситаларини (спорт турлари) дарслар, машғулотлар ва мусобақалар орқали яхши тасаввур этишади. Қолаверса, спорт турлари бўйича давлат тилида янгидан нашр этилаётган ўқув-услубий қўлланмалар кўпаймоқда. Шу сабабдан уларнинг умумий жисмоний тайёргарликни тарбиялашдаги мазмунлари ҳамда моҳиятлари ҳақида батафсил тўхталишга ҳожат йўқ. Бунга мисол тариқасида қуйидаги жадвал кўрсаткичларига эътибор қаратамиз.

#### **Кичик мактаб ўқувчиларининг жисмоний ҳаракатларни бажара олиш натижалари кўрсаткичлари**

Синалувчи гуруҳлар	Тажрибадан олдин		Тажрибадан кейин		t	Ишончлилик даражаси (p)
	x	δ	x	δ		
Тажриба гуруҳи (n=30)	68,3	6,4	82,1	6,2	8,2	0,001
Назорат гуруҳи (n=30)	49,7	14	52	7,6	0,7	—

Жадвалдан ўқувчиларда тажрибадан сўнг вазифаларни бажара олиш имконияти даражасида ижобий силжиш бўлганлиги кўриниб турибди, яъни ўрта арифметик қиймат 68,3 дан тажрибадан кейин 82,1 га кўтарилган. Муқаррарлик мезони  $t=8,2$ ;  $p<0,001$ га баробар. Айрим ўқувчиларнинг натижаларида ўзгариш қисман бўлиб, олинган фарқ тасодифийдир. Демак, умумий жисмоний тайёргарликнинг белгиси ва натижалари қуйидаги йўналишларда маълум бўлади, яъни:

– Жисмоний меҳнат қилишда тезда толиқмаслик, чарчамаслик.

- Об-ҳавонинг иссиқ-совуғига чидай олиш.
- Турли хил касалликларга тезда чалинмаслик.
- Жисмоний машқларни (қўлда тортилиш, тирсакларни ётган ҳолда букиб-ёзиш, тез югуриш) еркин бажара олиш.
- Футбол, боскетбол, волейбол, теннис каби спорт ўйинларида иштирок етиш.
- Ўзи севган спорт тури билан шуғулланиш.
- Ўрта ва узоқ масофаларга югуришда чарчамаслик, чидаш, сувда кўп сузиш ва ҳакозо. Демак, жисмоний тайёргарлик, жисмоний баркамоллик билан эгизак, деса бўлади. Шу билан бирга, жисмоний сифатлар фақат спортдагина эмас, балки ижтимоий-турмуш маданиятимизда ҳам ўзига хос хусусиятларга эгадир. Махсус жисмоний тайёргарлик - Бу тушунча асосан инсон танасининг маълум бир қисмини (қўллар, оёқлар, бел ва ҳакозо.) жисмоний жиҳатдан мустаҳкамлаш, ривожлантириш ҳаракат фаолиятларни ихчамлаштириш, тезлаштириш каби жиҳатларга қаратилиши билан алоҳида ўринга эгадир.

## **ХУЛОСА**

Умуман олганда, мактабларда кичик ёшдаги ўқувчиларнинг ёши, ҳаракатчанлиги ва саломатликларини эътиборга олган ҳолда, турли хил ҳаракатли ўйинларни ташкил этиш лозим саналади. Бу асосан тез юриш, югуриш, бурилиш каби ҳаракатчанликни тарбиялашга қаратилади. Ўтирган, ётган ва турган ҳолда турли хил гимнастика машқларини бажариш билан қоматни (гавдани) тўғри ўстириш, умуртқа поғоналари, қўл, оёқ, бўйин, панжа ва бошқа бўғинларнинг ҳаракатчанлигини тарбиялаш амалга оширилади. Кичик тўпларни отиш, илиб олиш, бир-бирига узатиш, мўлжалга (доира, девор ва ҳакозо.) отиб тушириш (теккизиш) каби хилма-хил машқлар, ўйинлар орқали еса тез ҳаракат қилиш, чамалаш (кўз ҳаракати) каби фаолиятларни ўстириш билан бирга, спорт ўйинлари ҳақида тушунчалар ҳосил қилинади ва уларни спортга қизиқиш ҳавасини уйғотилади. Шу боис, бу борада кенгрок илмий тадқиқотлар олиб бориш ҳамда уларнинг жисмоний саломатлигини таъминлаш таълим –тарбия тизими олдида турган ўта муҳим ишлар ҳисобланади.

## **REFERENCES**

1. Норбоев К.Ж., Ғуломов А.Х. Спорт, ҳаракатли ўйинлар ва уни ўқитиш методикаси. Маърузалар тўплами. Самарқанд 2003. – Б.62.
2. Рихсиева О.А., Рихсиев А.И. ва бошқалар. Спорт тиббиёти, 1996. – Б.52.
3. Аверина И.Е. – Физкультурные минутки и динамические паузы в дошкольных образовательных учреждениях: практ. пособие / И.Е. Аверина. – 3-е изд. – М.: Айрис-пресс, 2007. – 144 с.

## **КОМПОЗИЦИОННЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАССКАЗОВ А.П. ЧЕХОВА**

**Хазраткулова Ситора**

Магистрант СамГУ

**Научный руководитель доц. Ишниязова Ш.А.**

### **АННОТАЦИЯ**

*В работе дается представление о поэтике и композиционных особенностях рассказов А.П. Чехова. Особенности тематики рассказов, повестей и отличительные качества композиции его прозы.*

*А также рассматриваются мысли и результаты великих литературоведов и исследователей творчества Чехова, таких как И.А. Гурвич, Л.Е. Кройчик, В.И. Тюпа и другие, способствующие раскрытию особенностей его творчества. Приведены примеры особенностей чеховских рассказов и дана портретно-психологическая особенность персонажей.*

**Ключевые слова:** *творчество, рассказ, новелла, повесть, поэтика, композиционные особенности.*

### **ABSTRACT**

*The paper gives an idea of the poetics and compositional features of A.P. Chekhov. Features of the subject of stories, novels and distinctive qualities of the composition of his prose.*

*It also considers the thoughts and results of the great literary critics and researchers of Chekhov's work, such as I.A. Gurvich, L.E. Kroichik, V.I. Tyupa and others, contributing to the disclosure of the features of his work. Examples of the features of Chekhov's stories are given and the portrait-psychological features of the characters are given.*

**Keywords:** *creativity, story, short story, story, poetics, compositional features.*

### **ВВЕДЕНИЕ**

В своей монографии «Проза Чехова: человек и действительность» И. А. Гурвич писал: «Чтобы развернуть обобщающую художественную мысль не на просторах романа, а в пределах короткой повести, в пределах рассказа, нужно было малую форму сделать исключительно емкой и многозначительной. А. П. Чехов создал рассказ, способный проникнуть в суть явлений и обнажить глубинные связи и закономерности действительности. Стоит отметить, что в реализме 19 века малая форма равняется на большую. Первые реалистические рассказы представили читателю завершённые характеры. Жизнь человека уместилась в пределах короткого повествования. В качестве рассказа-романа можно привести рассказ А.С. Пушкина «Станционный смотритель» или



повесть Н.В. Гоголя «Шинель». А.П. Чехов строит свой рассказ, ориентируясь на достижения предшественников. По мысли И.А. Гурвича, очерк «судьбы человеческой» выливается в общественную хронику, в последовательное и концентрированное жизнеописание. Интерес к человеку вырастает рельефно, психологический анализ стремится к сокращенному, однако проникновенному изображению душевных состояний и настроений» [Гурвич 1970: 73].

## **ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**

Рассказы Чехова по традиции называют новеллами. Л.Е. Кройчик, к примеру, предлагает называть ранние чеховские рассказы комическими новеллами, а поздние – сатирическими рассказами. И основанием для его слов является факт того, что новелла динамична (ее классический западноевропейский вариант - новеллы в «Декамероне» Д. Боккаччо и др.), в ней важен сюжет, событие (не столько даже событие, сколько авторский взгляд на него), для этого жанра характерно внимание к поведению героев, репортажное время (настоящее время), новелла обязательно стремится к результату, она не может закончиться «ничем» (отсюда ее динамизм). Как правило, новелла завершается неожиданно в её финале главенствует принцип обманутого ожидания. Все это мы находим в ранних рассказах А.П. Чехова. Поэтика поздних его рассказов иная, и она выражена в жанровом определении - «сатирический рассказ». Однако за кажущейся простотой прозаического творчества писателя скрыта неисчерпанность тайны жанра. По утверждению другого литературоведа В.И. Тюпы, жанровая специфика рассказа А.П. Чехова порождена необычным союзом, сплавом анекдота и притчи: «Новаторство гениального рассказчика состояло, прежде всего, во взаимопроникновении и взаимопреображении анекдотического и притчевого начал - двух, казалось бы, взаимоисключающих путей осмысления действительности». Эти жанры, при всей своей противоположности, имеют и много общего: им свойственна краткость, точность, выразительность, неразработанность индивидуальной психологии персонажей, ситуативность и вместе с тем обобщенность сюжета, несложность композиции. А.П. Чехов добился небывалой в литературе емкости, вместительности формы, он научился несколькими штрихами, особенно посредством художественной детали, о которой речь пойдет в следующем параграфе, своеобразия языка персонажей, давать исчерпывающие характеристики персонажей. Главная черта его творчества, которая не могла не сказаться раньше всего в его стиле, есть могучая сила экспрессии, сила, которой и был обусловлен его непревзойденный лаконизм.

Рассмотрим композиционные особенности рассказов А.П. Чехова в контексте сборников прозы. Внутри сборников писателя порой возникают подобию триптихов, когда первый, второй и заключительный рассказы связаны по смыслу. Так, например, в «Пестрых рассказах» начальный текст «Конь и трепетная лань» и заключительный неправдоподобный рассказ «Два газетчика» имеют сходных по профессии главных героев — это бедствующие журналисты. Рассказ «Циник», по счету тридцать девятый, находится ровно в середине сборника и играет роль своего рода смыслообразующего ядра, «центра симметрии» всей книги. Сходные приемы композиции прослеживаются в сборниках «Пестрые рассказы», «Невинные речи», «Рассказы», «Повести и рассказы». В этой связи стоит отметить мысль И.А. Гурвича о том, что А.П. Чехов всегда тяготел к скрытой серийности. В рамках одной книги могут складываться и более сложные композиционные отношения внутренние трилогии и дилогии вступают в смысловые взаимодействия или накладываются друг на друга. В сборнике под названием «Детвора» сосуществуют две внутренних «трилогии»; одна, объединенная темой сна, состоит из рассказов «Детвора», «Ванька», «Событие». Сон персонажей завершает каждый из рассказов. Другая, о «жертвах человеческого насилия», включает рассказы «Ванька», «Событие» и «Кухарка женится», объединенные темой явной и мнимой жестокости взрослых по отношению к детям. Композиция «маленькой трилогии» и каждой из ее частей, где, кроме автора есть герои-повествователи, рассказывающие внутренние новеллы, была подготовлена и русской литературой XIX века: от пушкинских «Повестей Белкина» до гоголевских «Вечеров на хуторе близ Диканьки» через циклы Щедрина к Г. Успенскому, Григоровичу и Горькому. Чеховский цикл, где автор не равен рассказчикам и где на читателя возлагаются «сотворческие» задачи, стал воистину новаторским явлением.

Каждая большая повесть А.П. Чехова конца 80-х — начала 90-х годов — это всегда какой-то эксперимент, поиски новых стилистических путей. В числе прочих причин была, очевидно, и та, что в большом жанре Чехов был более свободен от давления своей собственной художественной системы, выработанной именно при работе в малых жанрах. Все новые черты повествования второго периода первоначально появились в больших повестях, и появились в них раньше, чем в рассказах. В рассказе «Ионыч» первые три главы даются в основном от повествователя, выступающего во втором своем варианте. Действительность изображается с точки зрения молодого, неопытного еще доктора Старцева. В четвертой главе повествователь

солидаризируется с умудренным жизненным опытом героем, присоединяется к его отрицательным оценкам обывателей города С. «Опыт научил его мало-помалу, что пока с обывателем играешь в карты или закусываешь с ним, то это мирный, благодушный и даже не глупый человек, но стоит только заговорить с ним о чем-нибудь несъедобном, например, о политике или науке, как он становится в тупик или заводит такую философию, тупую и злую, что остается только рукой махнуть и отойти».

В пятой главе повествователь выступает в первом своем лице — он прямо высказывает свое отношение к герою.

«У него много хлопот, но все же он не бросает земского места; жадность одолела, хочется поспеть и здесь, и там <...> Характер у него тоже изменился: стал тяжелым, раздражительным. Принимая больных, он обыкновенно сердится, нетерпеливо стучит палкой о пол и кричит своим неприятным голосом <...>». Благодаря такой последовательной смене вариаций лика повествователя обличительная струя в рассказе нарастает постепенно; смена тона повествователя символизирует эволюцию характера героя. Повествование третьего периода, благодаря сочетанию в нем нескольких ликов повествователя и планов героев, становится многоплановым. Многоплановость повествования 1895–1904 гг. особенно хорошо видна в «бесфабульных» рассказах Чехова этого времени.

Примером может служить рассказ «На подводе» (1897). В нем не происходит видимых событий (на протяжении всего рассказа Марья Васильевна едет на подводе), героиня не вступает во взаимоотношения с окружающими (несколько случайных фраз с попутчиками не в счет). Фабульное движение заменено развитием тем, мотивов. Это воспоминания Марьи Васильевны о прошлом, мечты о счастье, мысли о том, как «человеческие отношения осложнились до такой степени непонятно, что, как подумаешь, делается жутко»; и вновь и вновь возвращающаяся, пронизывающая весь рассказ тема дороги. Такая композиция позволяет говорить о сходстве с музыкальным произведением, симфонией некоторых рассказов Чехова по построению. Если не делать столь прямых аналогий с другим видом искусства, то можно отметить, что такой тип композиции ближе всего к лирическому стихотворению с его повторением, варьированием тем и мотивов, игрой образов-символов. Подобные рассказы А.П. Чехов писал еще в конце 80-х годов («Святой ночью», «Холодная кровь», «Счастье», «Почта», «Свирель»). Но наибольшее развитие эта форма получила в последнее десятилетие его творчества («Студент», «В родном углу», «По делам службы»,

«Мужики», «Архиерей») — многошннное повествование нового типа, очевидно, хорошо сочеталось со свободной композицией.

### **ЗАКЛЮЧЕНИЕ**

Итак, подводя итоги, мы можем утверждать, что композиционные особенности прозы А.П. Чехова 1890-1900-х годов в немалой степени обусловлены своеобразием его картины мира и представлением о человеке, а также новым взглядом писателя на сюжет, жанр, его пониманием художественной коммуникации между автором и читателем, когда второму предлагается роль «сотворца». Композиционная динамика у А.П. Чехова связана не с сюжетным движением, а с процессом внутренних изменений персонажа, а композиционная связь элементов произведения подкрепляется глубинной и сложной ассоциативной связью всех деталей повествования.

### **ЛИТЕРАТУРА (REFERENCES)**

1. А. П. Чехов в воспоминаниях современников/ сост., подгот. текста, коммент. Н. И. Гитович; вступ. ст. А. М. Туркова. – М.: Худож. лит., 1986. – 735 с. – (Литературные мемуары).
2. Бахтин М.М. Автор и герой. К философским основам гуманитарных наук. М.: Азбука Академия, 2005. – 540с.
3. Гурвич И. А. Проза Чехова. Человек и действительность/ И.А. Гурвич. – М.: Худож. лит, 1970. – 183 с.
4. Зингерман Б. И. Театр Чехова и его мировое значение/ Б.И. Зингерман; отв. ред. А.А. Аникст. – М.: Наука, 1988. – 521 с.
5. Катаев В.Б. Проза Чехова: проблемы интерпретации/ В. Б. Катаев. – М.: Изд-во МГУ, 1979. – 327 с.
6. Кулешов В. И. Жизнь и творчество А.П. Чехова: очерк/ В. И. Кулешов. – М.: Детлит, 1982. – 175 с.
7. Чудаков А. П. Поэтика Чехова/ А. П. Чудаков. – М.: Наука, 1971. – 291 с.

## **TARJIMONLIK VA TARJIMA MADANIYATI MUAMMOLARI**

**Achilov Oybek Rustamovich**

Toshkent davlat transport universiteti professori

**Todjidinova Umida Urinboy qizi**

Toshkent davlat transport universiteti talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada tarjima madaniyati va tarjima jarayonidagi muammolar haqida soʻz yuritiladi. Boshqa tilga tarjima amalga oshirilganda nafaqat tarjima, balki boshqa jihatlarga ham alohida eʼtibor berilib oʻtiladi.*

**Kalit soʻzlar.** *Tarjima, madaniyat, til, ekvalent, muloqot, tarjimon, aloqa konsepsiyasi, kommunikator*

### **ABSTRACT**

*This article talks about the culture of translation and problems in the translation process. When translating into another language, special attention is paid not only to translation, but also to other aspects.*

**Keywords:** *Translation, culture, language, equivalent, communication, translator, communication concept, communicator.*

### **KIRISH**

XXI asr insoniyat rivojlanishining yangi bosqichining boshlanishi bilan belgilanadi. Bu inson jamiyatining rivojlanishidagi eng muhim yoʻnalishlarni belgilab beruvchi, globallashuvning barqaror jarayoni boʻlib qoldi. Ushbu jarayondan kelib chiqqan holda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy oʻzgarishlar zamonaviy dunyo qiyofasini sezilarli darajada oʻzgartirib, yer yuzidagi deyarli barcha odamlarning hayotiy faoliyatiga taʼsir koʻrsatdi. Globallashuvdan kelib chiqqan turli aloqalarni kengaytirish, turizmning oʻsishi, chet elda taʼlim olish imkoniyati, turli talabalarning fikr almashinuvi, xorijiy amaliyotlar va boshqa koʻplab hodisalar va faktlar madaniyatlararo muloqot va oʻzaro hamkorlik muammolarini dolzarblashtirdi. Bu jarayon bizning mamlakatimizni ham chetlab oʻtmadi. Oʻzbeklar tobora xalqaro siyosiy, iqtisodiy tashkilotlar, xalqaro tadbirlarda ishtirok etmoqdalar, koʻp millatli kompaniyalar faoliyati, ayrim talabalar chet elda taʼlim olmoqdalar hamda oʻzbek sayyohlari butun dunyo boʻylab sayohat qilishmoqda. Turli mamlakatlar vakillari bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun nafaqat tegishli tilni, balki chet el madaniyati qoidalarini ham bilish kerak: xulq-atvor, psixologiya, madaniyat, boshqa mamlakatlar tarixi va eng muhimi, boshqa madaniyat vakillarini notoʻgʻri tushunishdan qochish uchun aloqa mexanizmini tushunish kerak. Bizning ishimiz mavzusining dolzarbligi bugungi kunda dunyoda dolzarbligi keskin oshayotgan aloqa



kontsepsiyaga e'tibor qaratiladi. Madaniyatlararo muloqot- turli madaniyat vakillari o'rtasida amalga oshiriladigan muloqot hisoblanadi. Madaniyatlararo muloqotning samarasi va muvaffaqiyati faqatgina turli madaniyatlar va tillarni biluvchisi bo'lgan kommunikatorlarning har biri "turlicha" ekanliklari va har biri muqobil ravishda "begona" suhbatdoshlarini anglab yetganda sodir bo'ladi. Boshqa xalqlar madaniyati bilan tanishish tarjima va tarjimonning professional muloqot sohasidagi eng muhim ijtimoiy vazifalaridan biridir. Til - ijtimoiy hodisa bo'lib, usiz ijtimoiy faoliyat yo'q. Tarjima jarayonida xorijiy madaniyat bilan yuzlashamiz. Shu sababdan ham, tarjimada muvaffaqiyatimiz xorijiy madaniyatni qanchalik tushunishimizga bog'liq, zero tarjima madaniyatlararo hodisadir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA**

Madaniy tarjima, shubhasiz, madaniy tarjima atamasini to'g'ri tushunish uchun aniqlanishi kerak bo'lgan madaniyat tushunchasini anglatadi. Madaniyat ikki xil ma'noga ega: birinchisi madaniyatni rivojlangan davlatdagi sivilizatsiyalashgan jamiyat deb ta'riflasa, ikkinchisi madaniyatni odamlarning xulq-atvori va turmush tarzi yig'indisi deb qaraydi. Yuqorida aytib o'tilganidek, madaniyat tarjimada muhim rol va ahamiyatga ega. [1,2,3] Katanning fikriga ko'ra, madaniyat — bu dunyoning umumiy modeli, odamlarning harakatlari va munosabatlariga rahbarlik qila oladigan e'tiqodlar, qadriyatlar va strategiyalarning ierarxik modeli. Madaniyatni turli yo'llar bilan, masalan, ta'lim orqali olish mumkin. Sivilizatsiya atamasi odamlar tufayli o'z madaniyatini yaratishga muvaffaq bo'lgan rivojlangan insoniyat jamiyati sifatida ta'riflanadi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, tarjimon madaniy rivojlanish masalasini hal qilgan holda matnni tarjima qilishi mumkin. Bu holda Nyumark tarjimaning madaniy qadriyatga ega ekanligiga, ya'ni tarjima butun dunyo madaniyatlari rivojiga hissa qo'shishiga ishonch hosil qiladi. Sivilizatsiya alifbo, lug'atlar kabi ochiq muloqot usullarini yaratishga, tillar va adabiyotlarning ulkan rivojlanishiga olib kelsa-da, bu jarayon madaniy tarjima sohasida yangi savollarni tug'diradi. Madaniyat mafkuraviy jihatdan mamlakat jamiyati va siyosatiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Even-Zohar, Susan Bassnett va Trivedi kabi ba'zi tarjimon olimlariga ko'ra, madaniyat ham hokimiyatga bo'lgan ishtiyoq va odamlarning bu kuchga qanday da'vo qilishlari bilan bog'liq. Shu ma'noda tarjima mafkuraviy tizimlarni kitobxonlar uchun moslashtirish bilan shug'ullanadi. Shunday qilib, tarjimada madaniy o'ziga xoslikning o'tkazilishi axloq bilan bog'liq bo'lib, yangi fikrlash tarzini tushuntiradi. Bunday tarjima tarjima qilingan matnlar orqali kontekst va shaxsiy fikrlash tarzini ko'rsatishi kerak. [4,5]

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Har bir aloqa yoki asl xabarning amaliy qimmatini mavjud. Tarjimon xabarning dalillar bayonoti, taklif, buyruq yoki hazil ekanini bilishi lozim. Misol uchun “Men bilmayman” (“I don’t know”) (hold) faqatgina bayonot kabi tarjima qilinmaydi, balki ikkilanish (“Ko‘ramiz”) degan ma’nosini ham berishi mumkin. “What gives”- Amerika shevasida “Ishlar qalay” degan savol mazmunini beradi. Bu tarjima xabami lingvistik va madaniy to‘siqlar orqali o‘tkazish jarayonidir. Madaniyat- turmush tarzi va uning ko‘rinishi o‘zini ifodalash uchun o‘ziga xos tildan foydalanuvchi omma uchun g‘ayrioddiydir. Biz “madaniy” terminini umumiy va shaxsiy tildan ajratishimiz kerak. “O‘lmoq”, “yashamoq”, “yulduz”, “stol”, “oyna” kabi tushunchalar umumiy bo‘lib, ularni tarjima qilishda muammo yo‘q. Ammo “steppe”, “dacha”, “challar” kabi tushunchalar ma’lum madaniyatga oid va tarjimada muammolarni vujudga keltiradi. Biz tilning maqsadi va manbai o‘rtasidagi o‘xshashlikka e’tibor berishimiz lozim. Til grammatikada turli madaniy natijalardan (jonsiz narsalarning rodleri), murojaat shakllari (sir, janob, xonim) dan iborat. Til qanchalik maxsus fenomenga aylanib borsa (flora va fauna), madaniy xususiyatlarga ega bo‘lib borsa, tarjima uchun muammolar keltirib chiqaraveradi. Ko‘pgina madaniy odatlar oddiy tilda tasvirlanadi. Edvard Sepir tilni ijtimoiy haqiqatgayo‘lboshlovchi deb ataydi. Insonlarning tajribasi jamiyatning til odimlari bilan keng miqyosda belgilangan va har bir tizim alohida haqiqatni tasvirlaydi. Aynan bir jamiyat haqiqatlarini aks ettiruvchi ikki til bir-biriga o‘xshamaydi. Turli jamiyatlardagi foydalaniladigan so‘zlar ham turlichadir. Shu sababdan, til madaniyat yuragidir. Madaniyat tilda o‘z aksini topadi. Masalan, yaponlar odatda “yo‘q” so‘zini ishlatishmaydi. Ular “yo‘q” deyishdan qochish uchun boshqa so‘zlar yoki gaplar ishlatishadi. Agar yaponlar sizning taklifingizga: “Men bu masalani xotinim bilan maslahatlashib ko‘rishim kerak” deb javob qaytarsa, bu uning rad javobi bo‘ladi. Agar yaponga qo‘ng‘iroq qilib soat 6 da ko‘rishishni aytasangiz va u: “Ha, soat oltida deng?” deb javob qaytarsa, tushuningki, sizning taklifingizga rozi emas.

Milliy odatlar narsa- hodisalar faqat o‘ziga xos bo‘lsa, ular tarjima qilinmaydi, masalan, sari, kimono, mahsi, kavish kabilar. Bular xuddi madaniy terminlardek o‘quvchilar uchun tushuntirib beriladi. Agar maxsus so‘z ahamiyatga arzimaydigan bo‘lsa, u oddiygina boshqa so‘z bilan almashtiriladi. [6,7,8]

Ijtimoiy madaniyat haqida so‘z borganda, tarjimaning ma’no bildiruvchi va ajralmas ma’no muammolarini hisobga olish lozim. Mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayoti unda aks etadi. Masalan, davlat boshlig‘i (president, prime minister) yoki parlament nomlari (milliy assambleya, senat) juda oson, ya’ni ular xalqaro yoki oson tarjima qilinadigan so‘zlardan tashkil topgan. Milliy parlamentlar nomlari

tarjima qilinmaydi: Masalan, Bundestag (Germaniya), Storting (Norvegiya), Riksdag (Shvetsiya), Eduskunta (Finlandiya), Knesset (Isroil), Duma (Rossiya), Oliy Majlis (O'zbekiston). Bu nomlar administrativ hujjatlar uchun asl holicha yoziladi. Vazirliklar nomlari to'g'ri tavsiflanishiga ko'ra adabiy tarjima qilinadi. Shu sababdan "Treasury"- moliya vazirligi; "Home office"- ichki ishlar vazirligi; Adolat qo'riqchisi yoki Himoya vazirligi, Milliy havfsizlik vazirligi, va h.o. [9,10]

## **XULOSA**

Shunday qilib, tarjima yuzlashadigan eng qiyin muammolardan biri buyumlar yoki voqea- hodisalarning leksik ekvivalentini topishdir. Tarjimon faqatgina ikki tilni emas, balki ikki madaniyatni taqqoslaydi. Madaniyatning farqi tufayli tarjima qilinadigan tildagi tushunchalarda tarjima qilinayotgan tilda leksik ekvivalent bo'lmashligi mumkin. Bu geografiya, urf-odatlar, e'tiqodlar, dunyoqarashlar va boshqalarning turlichaligi tufayli bolishi mumkin. Tarjimon tushunchalarni ifodalash uchun tariima tilida yangi yo'l va usullarni topishi zarur.

## **REFERENCES**

1. Achilov, O. (2023). HOZIRGI ZAMON TILSHUNOSLIGIDA ILGARI SURISH HODISASINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).
2. Achilov, O. (2023). O. MUXTORNING "KO'ZGUDAGI ODAM" VA O. WAYLDNING "DORIAN GREYNING PORTRETI" ASARLARI QIYOSIY TAHLILI VA ILGARI SURISH VOSTILARINING ASARDA AKS ETISHI, O'XSHASHLIK VA FARQLI JIHATLARI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).
3. Achilov, O. (2023). FOREGROUNDING AND INTERPRETATION. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).
4. Achilov, O. (2023). BADIY MATNLARNI TARJIMA QILISH JARAYONIDA YUZAGA KELADIGAN TRANSFORMATSIYA VA ULARNING QIYOSIY TAHLILI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).
5. Achilov, O. (2023). ILGARI SURISH-LISONIY HODISA SIFATIDA. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).
6. Achilov, O. (2023). ILGARI SURISH VOSITALARINING UMUMIY VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, KOGNITIV-SEMANTIK ASPEKTI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).
7. Achilov, O. (2023). TARJIMA JARAYONIDAGI O'ZGARISHLAR VA ULARNING TURLARI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).
8. Achilov, O. (2023). JORJ ORUELL QALAMIGA MANSUB" 1984" ASARINING INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA TAHLILI,

MORFOLOGIK VA LEKSIK FARQLIKLAR. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).

9. Achilov, O. (2023). ANATOMY OF LANGUAGE AND THEORETICAL ASSUMPTIONS OF COGNITIVE SCIENCE, COMPARATIVE ANALYZES. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).

10. Achilov, O. R. (2017). IMPROVING STUDENTS' CRITICAL THINKING THROUGH CREATIVE WRITING TASKS. In *International Scientific and Practical Conference World science* (Vol. 4, No. 4, pp. 19-23). ROST.

## **XALQARO INVESTITSIYA HUQUQI VA UNING ASOSIY MANBALARI**

**Sayfiyev Azizbek O'ktam o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik” fakulteti talabasi

e-mail: [sayfiyevazizbek24@gmail.com](mailto:sayfiyevazizbek24@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur mavzu orqali investitsiya bu o'zi nima ekanligi, uning xalqaro investitsiya huquqida investitsiya va investitsiya faoliyati tushunchasining mazmun-mohiyati hamda ushbu faoliyatning maqsadi, hamda ushbu huquqning kelajakdagi o'rni, xalqaro investitsion munosabatlarga doir xalqaro shartnomalar, xalqaro investitsiya huquqi manbalari va ularning turlari, ko'p tomonlama shartnomalar, ICSID konvensiyasi hamda BIT lar haqida fikr-mulohazalar va amaliyot materiallari tahlili berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Investitsiyalar, investitsion faoliyat, investitsion faoliyat subyektlari, reinvestitsiya, investorlar, investitsiya manbalari, ICSID konvensiyasi, bilateral investment treaties (BIT), NAFTA convention.*

### **ABSTRACT**

*This article discusses the essence of the concept of investment activity and the purpose of this activity, as well as the future role of this right, international agreements on international investment relations, sources of international investment law and their types, multilateral agreements, the ICSID Convention and BITs. reviews and analysis of practical materials are given.*

**Key words:** *Investments, investment activity, subjects of investment activity, reinvestment, investors, sources of investment, ICSID convention, bilateral investment treaty (BIT), NAFTA convention.*

### **KIRISH**

Bugungi iqtisodiy globallashuv jarayonida investitsion faoliyat har bir davlat iqtisodiytida muhim ahamiyatga ega element hisoblanadi. Shu bois mazkur faoliyat mamlakatda sanoat ishlab chiqarish darajasini kengaytirishga va rivojlantirishga, iqtisodiyotning barqaror hamda progressiv o'sishiga xizmat qiladi.

Shu bois investitsion faoliyatning qo'llab-quvvatlovchi har bir davlat o'zining bu borada aniq maqsadlarni ifodalovchi yo'l xaritasini ishlab chiqadi. Xususan, mamlakatimizda ham investitsiyalarni turli sohalarga jalb etish, ularning oqimini kengaytirish, investitsion faoliyatni rag'batlantirish bo'yicha turli reja va dasturlar ishlab chiqish yanada rivojlanmoqda.



Ushbu ishning maqsadi xalqaro investitsiya huquqining kelib chiqish evolyutsiyasi, xususiyatlari va muammolarini o'rganish, xalqaro konvensiya va bitimlarning xalqaro investitsiya huquqning manbasi sifatidagi rolini aniqlash hamda uning kelajakdagi qay darajada rivojlanishini tahlil qilishdan iborat hisoblanadi.

Investitsion faoliyat tushunchasi investitsiya hamda investor kabi tushunchalarga asoslangan bo'lib, bu bo'yicha to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun dastlab mazkur tushunchalar haqida so'z yuritish maqsadga muvofiq deb o'ylaman.

“Investitsiya” atamasi lotincha so'zdan olingan bo'lib, “invest” ya'ni “qo'yilma”, “mablag'larni safarbar etish”, “capital qo'yilmasi” degan ma'nolarni anglatadi. Keng ma'noda investitsiya mablag'ini ko'paytirish va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Ya'ni kelajakda mablag' olish uchun bugun puldan voz kechish degan ma'noda tushunsak bo'ladi.

Umuman olganda, investitsiya deganda foyda olish yoki boshqa foydali maqsadga erishish uchun tadbirkorlik yoki boshqa faoliyatga jalb qilinadigan pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, moddiy va nomoddiy boyliklar, shu jumladan, mol-mulkka bo'lgan huquqlarni nazarda tutadi. O'zining moliyaviy shakliga ko'ra, ular foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yiladigan aktivlar hisoblansa, iqtisodiy xususiyatiga ko'ra esa u yangi korxonalar qurishga, uzoq muddatli xizmat ko'rsatuvchi mashina va asbob uskunalarga hamda shu bilan bog'liq bo'lgan aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan xarajatlardir. Ko'pchilik iqtisodiyotni tushunmaydiganlar esa investitsiyani qarz sifatida tushunishadi. Ammo investitsiya qarz sifatida emas, balki ma'lum bir sohani rivojlantirish hamda ushbu soha kelajakda yaxshi yutuqlarga erishishi uchun kiritiladigan pul mablag'lari desak adashmagan bo'lamiz. Davlat qarzlari hisoblab chiqilgan esa investitsiyalar hisobga olinmaydi. Investitsiya tushunchasi ko'plab xorijiy adabiyotlarda turlicha ta'rif berib o'tilgan. Xususan, ba'zi iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyaga nisbatan foyda olish maqsadida muayyan sohaga joylashtirilgan capital sifatida qaralasa, boshqalarida investitsiya bu asosiy capital ko'paytirish maqsadida xo'jalik faoliyatiga kiritiladigan har qanday aktivlar deb ta'riflanadi.<sup>36</sup> Y.Mitskevichning fikricha, investitsiya bu daromad olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida moddiy va moliyaviy vositalarni, shuningdek, mol-mulk hamda intellectual mulkka bo'lgan huquqlarni turli faoliyat obyektlariga qo'yilma sifatida jalb qilishdir. Bundan tashqari, P.Vaxrin ham investitsiya tushunchasiga tariff berar ekan, unga kapitalni joylashtirish usuli sifatida qarab, bu orqali kapitalni saqlash yoki uning asl qiymatini oshirish hamda ijobiy hajmdagi daromadga ega bo'lish ekanligini ta'kidlaydi<sup>37</sup>. Ba'zi G'arb

<sup>36</sup> Ендовицкий Д. А. Комплексный анализ и контроль инвестиционной деятельности: методология и практика. Д. А. Ендовицкий; под ред. Л.Т. Гиляровской. М: Финансы и статистика, 2011, изд.№2, 400с.

<sup>37</sup> Moliya bozori va investitsiyalar. Darslik. 2021-yil

olimlarning fikricha, investitsiya kelajakda daromad olish uchun bugun o'zingdan ajratilishi kerak bo'lgan kapitaldir deya izohlab beraganlar.

Investitsiya tushunchasiga ba'zi bir xalqaro ko'p tomonlama shartnomalarda ham ta'rif berib o'tilgan bo'lib, xususan, 1997-yilda qabul qilingan Investorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Moskva konvensiyasining 1-moddasiga muvobiq investitsiya bu investorlar tomonidan foyda olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida moliyaviy va moddiy vositalarni shuningdek, mol-mulkka hamda intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni agar ular mazkur shartnomaga a'zo davlatlarning milliy qonunchiligiga ko'ra muomiladan chiqarilmagan bo'lsa yoki muomilda bo'lishi cheklanmagan bo'lsa, turli faoliyat obyektlariga jalb qilishdir<sup>38</sup>.

Ko'p tomonlama investitsiya kafolatalari agentligini tashkil etish to'g'risidagi 1985-yildagi Seul konvensiyasida investitsiya tushunchasiga ta'rif berilmagan bo'lsada, investitsiyalarning uch asosiy belgisi ko'rsatib o'tilgan. Bunda avvalo konvensiya a'zolari investitsiyalarni pul qo'yilmasi tarzida yoki natura shaklida amalga oshirilishi lozimligidan kelib chiqib harakat qiladilar<sup>39</sup>. Demak mazkur konvensiya bo'yicha xizmat ko'rsatish investitsiya sifatida e'tirof etmaydi.

Hozirgi kunda xalqaro investitsiya huquqi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu huquqning dolzarbligini bir qator holatlarga bog'liq holda tahlil qiladigan bo'lsak, **birinchidan**, xalqaro investitsiya huquqi iqtisodiy huquqning bir kichik tarmog'i sifatida yaqinda shakllanib borishi bir necha murakkab bosqichlarda kechdi va ularni o'rganish biz uchun prinsipial ahamiyatga ega deb o'ylayman, chunki har bir bunday bosqich xalqaro shartnoma va bitimlarning ma'lum bazasini shakllantirish orqali vujudga keldi. **Ikkinchidan**, bugungi kunda xalqaro investitsiya huquqi ko'plab muammolar mavjud bo'lib, ulardan biri xorijiy investitsiyalarning huquqiy himoyasini ta'minlashdir.

Ana endi, investitsiya huquqining evolyutsiya jarayoniga to'xtalsak, qadim zamonlardan beri odamlar chet elga sarmoya kiritish va tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun ketishgan. Yevropalik savdogarlar mahalliy jamoalar bilan savdo qilish uchun Osiyo, Afrika, va Lotin Amerikasiga bora boshlaganlarida, mahalliy qonunlar ularga nisbatan qo'llanilmagan, chunki ular o'z davlatlarining qonunlariga bo'ysungan holda harakat qilishgan. **Grotius va Vattel**<sup>40</sup> kabi ilk pozitsiyani qo'llab-quvvatlaganlar. Ushbu dalil, bu tadbirkorlar qayerga bormasinlar, millati bo'lgan mamlakat qonuni o'zlari bilan olib yurishgan va shuning uchun mahalliy qonunlarga bo'ysunmagan degan taxminlarga asoslanishadi. Shuningdek, mahalliy qonun past

<sup>38</sup> Investor huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Moskva konvensiyasi. 1997-yilda qabul qilingan.

<sup>39</sup> Establishing the multilateral investment guarantee agency. Convention, October 11, 1985 years.

<sup>40</sup> H. Grotius, De Jure Belli ac Pacis Tres(rev end, 1946)qayta nashr qilingan(1925)3(2) The Classics of International Law, 385 (F.Kelsey,trans),TM Franck, Fairnessda keltirilganidek Xalqaro huquq va institutlarida (Oxford, Clarendon Pess,1995), 457, n 11;

darajada bo'lganligi sababli, u o'z mamlakatining yuqori qonunchiligiga bo'ysunadigan chet elliklarga nisbatan qo'llanilmagan. Shunday qilib, xalqaro investitsiyalar huquqi rivojlanishining dastlabki yillarida hech bir davlat chet el aktivlarini ekpropriatsiya qilishi va milliy lashtirishi mumkin emasligini bilishgan edi. Mamlakatlar xalqaro minimal standart tushunchasidan kelib chiqadigan xalqaro majburiyatlaridan qochish uchun sabab sifatida milliy qonunlarga murojaat qila olmaganlar.

Xalqaro investitsiya huquqi hozirgi kunda misli ko'rilmagan darajadagi jamoatchilik nazoratiga duch kelmoqda. So'ngi yillarda investitsiyalarni tartibga solishga qaratilgan investitsion muzokarachilar, amaliyotchilar va akademiklarning kichik doirasidan tashqarida ham duch kelmoqda. Buning sababi shundaki, xorijiy investitsiya to'g'risidagi qonun o'zgaruvchan holatda va investor-davlat nizolarni hal qilish mexanizmi huquqshunoslikda nomuvofiq va chalkashliklarni keltirib chiqargani uchun tanqid qilindi va natijada investor-davlat nizolarini hal qilishga qarshi jamoatchilikning noroziligiga sabab bo'ldi. Ushbu mexanizm dastlab xususiy huquq xarakteriga ega tor tijorat huquqiga oid nizolarni hal qilish uchun ishlab chiqilgan bo'lsa-da, endi u ko'pincha ko'plab mamalatlardagi jamoatchilik huquqlariga daxldor bo'lgan ommaviy huquq masalalarini ko'rib chiqishi uchun chaqirila boshladi. Xorijiy investitsiyalarni tartibga solish bo'yicha muhim qoidalar ifodalovchi keng qamrovli xalqaro shartnomalarning yo'qligi muammolarni yanada kuchaytirmoqda. Binobarin, ko'pgina ekspertchi olimlar amaldagi tizim shunchaki ishlayapdi degan fikrda, bunga bir qator davlatlar o'zlarining ikki tomonlama investitsiya shartnomalarini(BIT) bekor qilishlari va boshqalarning investitsiya arbitrajidan ommaviy ravishda chekinishlarini sabab sifatida keltirmoqdalar. Misol uchun Janubiy Afrika o'z hududidagi xorijiy investorlarga nisbatan munosabatini tartibga soluvchi ichki qonunchiliklarini joriy etishdan ko'ra o'zining barcha BITlarini muntazam ravishda to'xtatmoqda. Bundan tashqari, Venesuela ham xuddi shunday ishlarni qilishdan holi emas. Yana shuni aytishimiz keraki, Indoneziya esa bu ishlarni allaqachon to'xtatgan. Bunday voqealarni tahlil qiladigan bo'lsak, investitsiya faoliyati va chet el investorlari huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq aksariyat tartib-taomillar tarqoq holda faqatgina bir nechta qonunlar bilan tartibga solinganligi, aksariyat qoida va qonunlarning takrorlanishi, ayrim muhim masalalar qonu darajasida emas, balki nizom va yo'riqnomalar bilan belgilanganligi ular o'rtasida ba'zi nomuvofiq va qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Ana endi investitsiya huquqi manbalariga to'xtalsak, umumiy nazariyadan ma'lumki, **huquq manbalari** deganda uning sirdagi muayyan ifodasio tushuniladi.

Ya'ni huquq manbalari huquqning o'z funksiyalarini samarali bajarish uchun xizmat qiladi. Ba'zi yuridik adabiyotlarda manba tushunchasining turli ta'riflari mavjud.

**Huquq manbasi** – bu huquq normalarini ifodalash va mustahkamlash, ularga yuridik, hamma uchun majburiy tus berishning davlat tomonidan belgilanadigan yoki rasmiy tarzda davlat tomonidan e'tirof etiladigan hujjatlarning metodlaridir<sup>41</sup>.

Umumna olganda, **Xalqaro investitsiya huquqi manbalari** deb, xalqaro investitsiya munosabatlarini tartibga soluvchi normalar yig'indisi desak bo'ladi. Huquqning umumiy nazariyasida bu masala atrofida borayotgan munozara tafsilotlariga to'xtalmasdan shuni qayd etishimiz mumkinki, huquq manbasi deganda, huquq mazmunining muayyan hujjatlarda mustahkamlangan ko'rinishi va amaldagi ifodasi desak adashmagan bo'lamiz.

Investitsiyaga doir munosabatlarni tartibga solish uchun qo'llaniladigan investitsion normalarni ifodalash shakllari investitsiya huquqi manbalari hisoblanadi. Investitsiya huquqi manbalari ham, uning huquqiy tartibga solish predmeti va metodi singari, kopleks va aralash xususiyat kasb etadi. Investitsiya huquqi normalari huquqning turli sohalarida mustahkamlangan (xalqaro iqtisodiy huquq). Investitsiyaga doir munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonunlar to'plami jamuljam holda investitsiya huquqining asosiy manbalarini tashkil etadi.

Investitsiyalarni huquqiy tartibga solish borasidagi jahon amaliyoti tahlili chet el investitsiyalarining huquqiy rejimini belgilovchi qonuniylikning ikki asosiy modeli mavjudligidan darak beradi<sup>42</sup>. **Birinchi**dan, rivojlangan davlatlarda qoida tariqasida, tashqi(chet el) va ichki (milliy) investorlarni ajratmaydi. Hozirgi vaqtda investorlar faoliyatining rejimi ularning milliy mansubligidan qat'iy nazar yagonadir. Mazkur davlatlarda chet ellik investorlarning huquqiy maqomi *chet ellik investorlar uchun milliy rejim prensiplaridan istisno holatlarni belgilovchi normative hujjatlar* bilan tartibga solinadi. **Ikkinchi**dan, investorlar faoliyatini solishning ikkinchi modeli esa bu rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamalakatlarga xos. Tegishli davlatda investitsiyalarni amalga oshirish jarayoni tartibga soluvchi normalarni belgilar ekan, investorlarni ularning milliy mansublik belgisiga ko'ra ajratadi. Bunday davlatlar huquqiy rejimi alohida odatda, nisbatan qattiq qoidalarga bo'ysunadigan chet el investitsiyalarini tartibga solishga qaratilgan maxsus qonun hujjatlarini qabul qiladi. Ayni paytda, iqtisodiy rivojlangan davlatlar ham, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar ham mazkur sohada umumiy jihatlarga ega, deyarli barcha hukumatlar investitsiya faoliyati sohasida maxsus cheklovlar o'rnatishi mumkin. Shunday qilib investitsiyalarni tartibga soluvchi qonunchilik modellarining

<sup>41</sup> Xalqaro investitsiya huquqi. Darslik, 2019 yil. Mualliflar jamoasi.

<sup>42</sup> Международное коммерческое прова: учеб. Пособие / под общ.ред. В.Ф. Попондопуло. – 2-е изд.стерю-М. Омега-ЛБ 2006. – Сю104ю

yuqorida bayon etilgan tasnifi tartibga solish tendensiyalarni aks ettiradi va mutloq xususiyatga ega emas. Investitsiyalarni tartibga soluvchi maxsus qonunchilikni joriy etishda ko'zlangan maqsadlar ko'p sonli omillar bilan belgilangan bo'lib, o'z yo'nalishlariga ko'ra ular bir birlariga mos kelmasliklari ham mumkin.

Shu sababli, biz ham xalqaro-huquqiy normalar, ham ichki normative-huquqiy hujjatlarning normalar yig'indisi sifatida qarayoygan investitsiya huquqiga tadbiquan, uning tizimi ikki guruhga ajratishimiz mumkin.

- Xalqaro-huquqiy manbalar;
- Milliy-huquqiy manbalar;

Ushbu manbalarga birma bir kengroq to'xtalib o'tamiz.

Investitsiya huquqi xalqaro-huquqiy manbalarning asosini davlatlar va xalqaro huquqning boshqa sub'ektlari bilan tuziladigan xalqaro shartnomalarni tashkil etadi.

Ishtirokchilar doirasiga ko'ra, bunday xalqaro shartnomalarni bir necha guruhga ajratishimiz mumkin.

- Asosiy maqsadi chet el investitsiyalarini davlatlararo darajada himoya qilishdan iborat bo'lgan ko'p taraflama xalqaro shartnomalar;
- Mintaqaviy xalqaro shartnomalar (masalan MDH mamlakatlarning bitimlari)
- Ikki tomonlama bitimlar (BIT) va ko'p tomonlama bitimlar
- Xalqaro huquqiy-huquqiy urf-odatlar

Chet el kapitalini jalb qilish bilan bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro normalar alohida kasb etadi. Ya'ni xalqaro normalarning ustunligi e'tirof etilgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ular ma'lum, lekin uncha muhim bo'lmagan rolni o'ynasa, xorijiy element kiritilgan munosabatlarda, masalan xalqaro tavarlar oldi-sotdisiga doir munosabatlar ko'p jihatdan xalqaro normalar bilan tartibga solinadi. Investitsiyalarga doir xalqaro bitimlarda belgilangan normalar mazkur bitimlarning ishtirokchisi bo'lgan davlatlar uchun asosiy normalar hisoblanadi. Binobarin davlatning milliy qonunchilikni mazkur bitimlarga o'z zimmasiga olgan majburiyatiga mos ravishda yaratsa, ularning asosiy qoidalari tushunchalari va ta'riflarni hisobga olsa, to'g'ri bo'lardi. Demak, amaldagi xalqaro shartnomalar chet el investitsiyalarini himoya qilishga qaratilgan yagona mexanizm yaratadi va investitsiyaga doir munosabatlarni huquqiy tartibga solish ba'zi bir yagona prinsiplaridan kelib chiqadi.

Shuni aytib o'tishimiz kerakki, *milliy darajada* davlatlar doirasida tartibga solish *xalqaro darajada* tartibga solish bilan bir biriga uzviy bog'liq hisoblanadi. Bundan shuni e'tiborga olish lozimki, xalqaro shartnomalarning normalari ichki qonunchilik normalariga nisbatan ustunlikka ega bo'ladi. Bu yerda yana shuni takidlab o'tishim



joizki, bugungi kunda davlatlar o'zara bir birlari bilan mintaqaviy darajada chet el investitsiyalari bilan qisman yoki to'liq bog'liq bo'lgan bir qancha bitimlarni ishlab chiqqan va qabul qilgan. Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyoda bunday bitimlarning soni ko'payib bormoqda. Xususan rivojlanib borayotgan davlatlarning aksariyati hozirgi vaqatda ham mintaqaviy, ham submintaqaviy bitimlarning ishtirokchilari hisoblanadi.

*Mintaqaviy bitimlar* asosida iqtisodiy hamkorlik va o'z-o'zini kollektiv ta'minlash keng maqsadlarga erishish uchun qaratilgan, ularning afzalliklaridan biri shundaki, ular rivojlanayotgan mamlakatlarning chet ellik investorlarga nisbatan imkoniyatlarni umumiy savdo dastularini qabul qilish va amalga oshirish, chet el investitsiyalariga oid siyosatga muvoviqlashtirilgan holda hamkorlik qilish orqali ko'chaytirish vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin<sup>43</sup>.

Investitsiyalarga doir universal hujjatlar mavjud bo'lmagan sharoitlarda chet el investitsiyalari bo'yicha *ikki tomonlama bitimlar* ko'pgina davlatlar uchun masalaning eng maqsadga muvofiq yechimi bo'lib kelmoqda, ko'rib chiqilayotgan institutni xalqaro darajada himoya qilishni tartibga soluvchi moddiy va prosessual huquqning alohida manbasi hisoblanadi.

Ana endi investitsiya huquqning milliy manbalariga kelsak, shuni qayt etib o'tish lozimki, qabul qiluvchi mamlakatlarning davlat ichki investitsiya qonunchiligi kompleks xususiyat kasb etadi va qoida tariqasida investitsiyaga doir maxsus qonunlar, valyuta ishini tartibga solish va valyuta nazorati sohasidagi qonunlar, chet el elementi ishtirokidagi munosabatlarni tartibga soluvchi mehnat qonunchiligi va boshqa maxsus qonunlardan iborat.

*Investitsiya qonunchiligining* o'ziga xos xususiyati shundaki, u tartibga solishning kollizion mexnizmini qo'llamaydi va uning normalari chet ellik xususiy investorlar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ridan-to'g'ri tartibga soladi. Shu o'rinda quyidagi holatga etib berishingizni istar edim, investitsiya huquqning mavjud manbalar tizimi ham xalqaro, ham davlat darajasida investitsiyaga doir munosabatlarni huquqiy tartibga solishning muayyan duallizmi to'g'risida so'z yuritish imkonini beradi<sup>44</sup>. Chunki ushbu dualizm tartibga solishning ommaviy va xususiy mexanizmlarini birikmasini nazarda tutadi.

*Ommaviy-huquqiy tartibga solish* ayrim mamlakat ko'p tomonlama ichki tomonlama davlatlararo bitimlar tuzish (ularga qo'shilish), milliy qonunchilikni qabul qilish orqali investitsiyalarni amalga oshirish uchun sharoitlarni va kafolatlarni nazarda tutadi. Mazkur tartibga solish investitsiyalarni amalga oshiruvchi

<sup>43</sup> Xalqaro investitsiya huquqi. Darslik. 2019 yil. Mualliflar jamoasi.

<sup>44</sup> International investment law.

sub'ektlarning davlat hokimiyati bilan "vertical" munosabatlari (teng bo'lmagan munosabatlar) ya'ni teng bo'lmagan maqomga ega sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlarni tushunish lozim.

Investitsiyaga doir munosabatlarni xususiy tartibga solish investitsiyalarni amalga oshirish turlari va shakllarini tartibga solishni, investitsiyaga doir munosabatlarning huquqiy maqomini belgilashni, ya'ni investitsiyalarni amalga oshiruvchi muayyan sub'ektlarga tegishli maqom yoki bir-biriga nisbatan tegishli huquqlarni berish va majburiyatlar yuklashi, investitsiyaga doir munosabatlarning huquqiy tabiatini nazarda tutadi. Xususiy huquqiy tartibga solishda investitsiyalarni amalga oshiruvchi sub'ektlar o'rtasida "gorizantal" munosabatlar, ya'ni teng maqomga ega bo'lgan mustaqil va erkin sub'ektlar o'rytasidagi munosabatlar tushunish lozim.

Investitsiyaga doir munosabatlarni xususiy tartibga solish investitsiyalarni amalga oshiruvchi sub'ektlar uchun aralash bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z hisobiga va o'z mulki hamda investitsion mablag'lari hisobiga har qanday investitsiya faoliyati bilan tavakkalchilikni o'z bo'yniga olgan holda, ya'ni o'z javobgarligi ostida shug'ullanish erkinligini nazarda tutishi mumkin. Shunday qilib, xusuiy tartibga solish boshqaruv munosabatlarini (hokimiyat va tobellik munosabatlarini) o'zida ifodalamaydi, aksincha bunday munosabatlar yuridik jihatdan teng sheriklarning iqtisodiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish yo'lidagi hamkorligi nazarda tutish lozim. Shuningdek, investitsiyaga doir munosabatlarning ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar investitsiya huquqning manbasi hisoblanadi.

Xalqaro investitsion munosabatlarni tartibga solishda shartnomalarning o'rni kattadir. Yuqorida aytib o'tganimizdek, investitsion munosabatlarni tartibga solishning quyidagi turlari mavjud.

1. Ikki tomonlama investitsion shartnomalar
2. Ko'p btomonlama investitsion shartnomalar
3. Kosession shartnomalar

Ushbu investitsion munosabatlarni tartibga solishning turlariga to'xtaladigan bo'lsak, *ikki tomonlama investitsion shartnomalar(BIT)* XX asrning ikkinchi yarimida juda ko'p mustamlaka ostida qolgan davlatlar o'zlarining mustaqilligini qo'lga kiritish natijasida ularning hududida qolgan mustamlakachi davlatlar fuqarolarining mol-mulkining huquqiy himoyasimuammosi o'rtaga chiqdi. Qo'shimcha tarzda ushbu yangi mustaqillikka erishgan rivojlanayotgan davlatlarga qilingan to'g'ridan-to'g'ri horijiy investitsiya (foreign direct investment, FDI) ning huquqiy himoyasini ta'minlash masalasining muhimligi ham sezilib qolgan edi.

Natijada turli takliflar yuzaga chiqdi. Shundan biri bu ikki tomonlama investitsiyani himoyalash va ularni oshirishga doir bitimlarni (bilateral investment treaties BIT) tuzish orqali xorijiy investorlarga huquqiy himoyani ta'minlash edi<sup>45</sup>.

Mazkur bitimlarda ishtirokchi bo'lgan davlatlarda agar bir taraf investor bilan huquqiy nizo kelib chiqqan taqdirda xalqaro arbitrajda kelib chiqqan nizolarni hal etishiga o'z roziligilari berishadi. Ya'ni bu haqda taraflar o'zaro imzolangan ikki tomonlama investitsion shartnomalarda taraflar o'z hududlarida investorlarga beriladigan imtiyozlar, investitsiyalarini kafolatlash hamda investorlarning huquq va majburiyatlari va taraflar o'rtasida agar nizo kelib chiqsa, ular nizoni qanday holatda hal etishlarini kelishib olishadi.

BIT lar esa hozirgi zamon xalqaro investitsiya huquqining eng muhim manbasi hisoblanadi. Ba'zi mamlakatlarda, ya'ni Germaniya, Xitoy va Shevetsariya kabi davlatlarda boshqa davlatlar bilan o'zaro imzolangan 100 dan ortiq BIT lar mavjud. Bundan tashqari, Dunyo bo'ylab 3000 ga yaqin BIT shartnomalari borligi aniqlangan<sup>46</sup>. Masalan; bunday shartnomalardan biri Germaniya va Pokiston o'rtasi 1959-yil imzolangan. Shu paytdan boshlab ikki tomonlama investitsion shartnomalar (BIT) soni oshib ketishiga olib kelgan.

BIT lar moddiy va protsessual moddalardan tashkil topgan xalqaro bitimlar bo'lib, ularda davlat xorijiy investorlarining mol-mulki noqonuniy ekspropriatsiya qilmaslik, eng ko'p qulaylik tug'diruvchi rejimini yaratib berish, noo'rin diskriminatsiya qilmaslik va nizo kelib chiqqan taqdirda xolis va adolatli arbitraj sudlarida ishni ko'rishga kelishib olishga o'zaro roziligilarini bildirishadi. Bu shartnomalarning muhimligi shundaki, davlatlar shu paytgacha xususiy shaxslarga, ya'ni bu yerda xorijiy capital va texnologiya egalariga, hamda o'rtalarida nizo kelib chiqqan taqdirda bunda taraflarni xalqaro arbitraj sudiga o'z da'volarini berish huquqini berayotganidir. BIT lar asosan, ikki tomonlama investitsion shartnomalarni tuzgan davlatlarda ya'ni shartnoma tuzgan birinchi davlatning hududida shartnomaning boshqa ishtirokchi davlat investorlarining ikkinchi davlatga amalga oshirayotgan investitsiyalarini uchun kafolatlarni ta'minlaydi.

Ana endi **ko'p tomonlama investitsion shartnomalarga** to'xtaladigan bo'lsak, ko'p tomonlama investitsion shartnomalar deb ikkidan ortiq mamlakatlar o'rtasida tuziladigan va ularning investorlari bir-birlarining hududlariga investitsiya kirituvchi va investitsiyalarni himoya qiluvchishartnomadir. Bizga ma'lum chet el investitsiyalari uchun ko'p tomonlama konvension qoidalarni yaratish borasidagi harakatlar ancha oldin boshlangani ma'lum. Chet elliklar va ularning mulki bilan

<sup>45</sup> International economic law. 2019 yilgi darslik.

<sup>46</sup> Principles of International investment law. Ikkinchi nashr. Rudolf Dolzer and CH. Schreuer.

muammolada bo'lish doir ko'p tomonlama xalqaro konvensiyalarini tuzish maqsadida davlat o'zaro konferensiya chaqirganlar. Ko'p tomonlama shartnomalarga misol tariqasida *Energitika xartiyasini* misol qilib olishimiz mumkin.

Energitika Xartiyasi bu energiya sektorida investorlarni himoya qilish borasida katta yutuqlarga erishgan. Ushbu shartnoma 1994-yil imzolangan va 1998-yil rasman kuchga kirgan. Energitika xartiyasi asosan energiya sohasidagi hamkorlik uchun xalqaro huquq doirasida yagona bo'lgan ko'p tomonlama shartnomaning asosini ta'minlaydi. Oddiy qilib aytganda, Energitika hartiyasi shartnomasi imzolagan davlatlar o'rtasida energiya sohasida hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan siyosiy deklaratsiya bo'lib, u hech qanday qonuniy majburiyat yoki moliyaviy majburiyatlarni o'z zimmasiga olmaydi. Bundan tashqari, bir qancha mintaqaviy shartnomalarda ham investitsiyaga oid qoidalar belgilab qo'yilgan.

OECD- "Iqtisodiy hamkorlik hamda rivojlanish bo'yicha tashkilot" tomonidan ko'p tomonlama investitsion shartnoma ishlab chiqilgan edi. Ushbu shartnomaga OECDning a'zolari va a'zosi bo'lmagan davlatlar ham qo'shilishi mumkinligi belgilangan. Xalqaro investitsiya standartlarini liberalizatsiya qilish, investitsiya rejimi va investitsion himoyani ta'sir kuchiga ega bo'lgan samarali nizolarni hal etish mexanizimi bilan boyitishni maqsad qilingan edi. Ushbu tashkilot kengashi tomonidan uning "chet el mulkini himoya qilish to'g'risida"gi konvensiya loyihasiga doir rezalyutsiyasid mazkur konvensiya qoidalari rivojlanayotgan davlatlarga yordam ko'rsatishga qaratilgani aytib o'tilgan. Ushbu konvensiyani qabul qilish va imzolash davlatlarga ularning hududa chet el xususiy mulki himoya qilinishini kafolatlash bo'yicha qo'shimcha majburiyat yuklaydi.

NAFTA shartnomasi Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi hisoblanadi. NAFTA o'zi Shimoliy Amerika davlatlar ya'ni AQSH, Kanada, Meksika davlatlari o'rtasida imzolangan. NAFTAning maqsadi AQSH, Kanada va Meksika o'rtasidagi savdo va investitsiyalar uchun barcha ta'rif va ta'rifsiz to'siqlarni bartaraf etishdan iborat. Ushbu davlatlar o'z hududlarida eksport va import mahsulotlariga nisbatan qo'yilgan ta'riflar va to'siqlarni bekor qilish hamda investorlarga nisbatan qo'yilgan cheklovlarni ham bekor qilishni ko'zlangan. Yana shuga e'tibor qaratishimiz kerakki, NAFTA shartnomasining 11 bobida investorlar va investitsiyalarni himoya qilishga bag'ishlangan.

Yuqorida ko'rsatib o'tganimiz, ikki tomonlama va ko'p tomonlama investorlarni himoya qiluvchi shartnomalar, davlatlar va davlatlar o'rtasida tuzilishini yoddan chiqarmasligimiz lozim. Investor va o'rtasida tuziladigan shartnomalarga esa *konsession shartnomalar* deyiladi.

*Koncession shartnomalar* bu asosan tabiiy boyliklar (gaz, neft, ko'mir va metallar), suv va energiya ta'minoti bilan bog'liq bo'ladi. Ushbu shartnomalar asosan BOT (build, operate, transfer), loyihalari bo'yicha imzolandi<sup>47</sup>, hamda davlat va investor o'rtasidagi munosabatlarni ikir-chikirigacha belgilab beradi. Masalan, konning ijaraga berilishi muddati, mehnat munosabatlari, ishlab chiqarishdagi, miqdor, tavorni yetkazib berish kabilarni keltirib o'tishimiz mumkin. BOT loyihasi bo'yicha shartnoma imzolanganida ma'lum bir vaqt o'tguncha obyekt investor qo'lida bo'ladi. Ma'lumot tariqasida mashhur BOT loyihasi bo'yicha imzolangan koncession shartnoma bu Fransiya va Buyuk Britaniya o'rtasidagi tunel shartnomasi hisoblanadi. Investitsion nizollarni hal qilishda ICSID konvensiyasi ahamiyatli hisoblanadi.

Boshqa davlatlarning milliy va davlatlar o'rtasidagi nizolarni hal qilish to'g'risidagi konvensiyasi bu ko'p tomonlama shartnoma hisoblanadi. Mazkur konvensiya **host state ya'ni mezbun davlat** bilan xorijiy investor o'rtasida nizoning protsessual yechimini ta'minlaydi. ICSID aslida xalqaro investitsiya nizolarini hal etishga bag'ishlangan yetakchi institute hisoblanadi. Investitsiya sohasida katta tajribga ega bo'lib, barcha xalqaro investitsiya holatlarining aksariyatini boshqargan. Ko'pgina xollarda davlatlar xalqaro investitsiya shartnomalarida va ko'plab investitsiya qonunlari va shartnomalarda investor-davlat o'rtasida nizolarni hal etish uchun ular ICSIDda nizolarni hal qilamiz deb kelishib olishadi. Bundan tashqari, ICSID qoidalari asosan davlatlarga arbitraj, yarashuv, faktlarni aniqlash, va vositachilik uchun maxsus tartib qoidalarni taklif etadi. Bu investor-davlat nizolarini hal qilishda eng ko'p qo'llaniladigan protsessual qoidalardir. Bundan tashqari, **investitsiyalarga oid kafolatlar bo'yicha ko'p taraflama agentlik MIGA** konvensiyasini ham manbalar qatoriga qo'shsak bo'ladi. Ushbu konvensiyaning qoidalarga muvofiq, chet el investitsiyalarini sug'urta qilish bo'yicha agentlik tashkil etiladi. Agentlik shu jumladan, shartnomalar tuzish, ko'char va ko'chmas mol-mulkn egallashi va tasarruf etishi, sud da'vogar va javobgar bo'lib ishtirok etishi mumkin. Ushbu agentlikning asosiy vazifasi konvensiya ishtirokchisi bo'lgan davlatlarda chet el investitsiyasini amalga oshirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarga investitsiyalarni jalb qilinishiga ko'maklashish, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida shu yo'l bilan bir qancha xalqaro moliyaviy muassasalar bilan faoliyatini ko'shimcha tarzda ta'minlashdan iborat.

Xalqaro investitsiya huquqining bir qancha manbalarini yuqorida keltirib o'tdik, hamda ushbu manbalar investitsiya doir nizolarni tartibga solishda muhim rol o'ynaydi.

<sup>47</sup> Xalqaro iqtisodiy huquq. Darslik.



Investitsion munosabat huquqiy jihatlardan biri bu mamlakatlar tomonidan investorlar uchun yaratilishi lozim bo'lgan huquqiy sharoitlardir.

- ✓ Mulk huquqining ishonchli himoyasi
- ✓ Mustaqil va ta'sir kuchiga ega sud tizimi
- ✓ Qonundagi aniqlik
- ✓ Hukumat aralashuvu hamda tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi qoidalarning aniq ta'riflarga ega ekanligi
- ✓ Yaxshi boshqaruv (good governance)

Ushbu sharoitlar mamlakat hududida yaxshi yaratilgan bo'lsa, ushbu davlatga xorijiy investorlar qo'rqmasdan o'z investitsiyalarini kiritishi mumkin.

Bularga birma-bir to'xtalib o'tadigan bo'lsak, *Mulk huquqining ishonchli himoyasi* bu mamalakatlarga investitsiya oqimining kirib kelishi uchun u yerda mulk huquqi qay darajada ta'minlaganligini anglatadi. Agarda mamlakatda mulk huquqi juda ham kuchli qo'riqlansa, bunday mamlakatda investitsiya oqimining kirib kelishi yuqori darajada bo'ladi. Masalan ko'plab investitsiya oqimi yuqori bo'lgan mamlakatlarda yer davlatniki hisoblanmaydi, chunki bu yerlar ma'lum bir shaxslarga tegishli yerlar hisoblanadi. Chunki uning mulki joylashgan yerni mamlakat qandaydir sabablarga ko'ra tortib ololmaydi. Aksincha ushbu yerlar davlatning mulki bo'lsa, har qanday sabablarga ko'ra olib qo'yishi mumkin. Shuning uchun ham investorlarda qo'rquv paydo qilmoqda. Ushbu yerlar ma'lum bir shaxsga tegishli bo'lsa, xorijiy investorlar qancha investitsiya kiritisa ham qo'rqmay kiritaveradi.

*Mustaqil va ta'sir kuchiga ega sud tizimi.* Ushbu sharoitning boshlig'I investor va host state yoki investor va xususiy tadbirkorlar o'rtasida nizon chiqqan vaqtda investitsiya joylashgan mamlakatda nizolarni hal etishda yangiliklarni ko'zlaydi. Biroq oxirgi yillarda host state va investor o'rtasidagi nizolarni deyarli milliy sudlarda ko'rilayotgani yo'q. Buning asosiy sababi shundaki, investorlarning davlatlarning milliy sudlariga ishonmasligidadir. Shu sababli ham investorlar hozirgi kunda host state va investor o'rtasidagi nizolar ko'proq UNCITRAL yoki bo'lmasa ICSID (investitsin nizolarni hal qilish markazi) tomonidan ko'rib chiqilmoqda. Biroq bu bilan men mazkur sharoitni yaratish zarur emas demoqchi emasman. Chunki investorlar va boshqa xususiy sub'ekalr o'rtasida nizo kelib chiqqanda davlat sudlarining ishonchli ekanligi muammoni hal qilishda katta yordam beradi hamda ortiqcha xarajatlardan saqlaydi. Agarda mamlakatlarning milliy sudlar ishonchli bo'lmasa, investitsion nizolarni hal qilishda investorlarning milliy sudlarga ishonchi yuqolishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun har bir mezbon davlat o'z hududida mustaqil hammda ta'sir kuchiga ega sud tizimini yarata olsa, ushbu davlatlarga nisbatan investorlarning ishonchi ancha yuqori bo'lishi mumkin.

*Qonundagi aniqlik* buni yaratish orqali kelgusida kelib chiqishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklarni oldini olish hamda investorlarga shubha uyg'otmasliklari uchun harakat qilinadi. Amma milliy qonunchiligimizga e'tibor qaratadiga bo'lsak, juda ham ko'p tushunmovchiliklarga duch kelishimiz mumkin. Investitsiya munosabatlariga doir qonun va qonunosti hujjatlarimizda ko'plab noaniqliklarni ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun ham investitsion munosabatlarga doir qonunlarni tubdan isloh qilinishi hamda ushbu kamchiliklarni to'ldirishimiz talab etiladi. Ushbu munosabatlarga doir yangidan yangi qonunlarni ishlab chiqishimiz hamda qonunchilikdagi kamchiliklarni bartaraf etsak, kelgusida kelib chiqishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklarni oldini hamda xorijiy investorlarni jalb qilish uchun shubxalarni oldini olgan bo'lamiz.

*Hukumat aralashuvi hamda tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi qoidalarni aniq ta'riflarga egaligi.* Investor mamlakatga kirib kelganidan so'ng xoxlaydimi-xoxlamaydimi mezbon mamlakat bilan turli xildagi munosabatga kirishadi va mamlakat uning ishlariga aralashadi. Bunga misol qilib oladigan bo'lsak, ya'ni hukumatning soliq siyosatini olishimiz mumkin. Davlat soliqlarni qanday oshirib borishi yoki soliq sohasidagi aniq belgilangan qoidalar investorlarda ushbu mamlakatga kirish uchun qo'shimcha imkoniyat tug'diradi. Bizga ma'lumki, investitsion munosabatlarda tadbirkorlik faoliyatiga investor kirib kelayotgan mamlakatda qanchalik yuksak e'tibor qaratilayotgani ham eng muhim faktorlardandir. Misol uchun bizning mamlakatimizda bunday qonunlar juda ko'p topiladi va ular aniq qilib belgilangan.

Yaxshi boshqaruv (good governance). Ushbu talabning tarkibiy tuzilishi shundan iboratki, unda mamlaktdagi iqtisodiy iqtisodiy va siyosiy stabillik, mamlakatdagi boshqaruv tizimini yaxshi yo'lga qo'yilganligi ham ma'lum darajada shaxs faktori ham muhim rol o'ynaydi. Agar mamlakat hukumat almashinuvi bilan to'saddan o'zgarib ketishi ehtimollari oldindan bashorat qila olish holatida bo'lsa yoki mamlakt tinch bo'lmasa yaxshi boshqaruv yo'lga qo'yilmaganligida dalolat beradi. Misol tariqasida Argentina va Siemens o'rtasidagi nizo yuzaga kelishiga ham aynan boshqaruvning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi sabab bo'lgan deyishimiz mumkin. Ushbu holatda ishning oxiriga yetmay qolishiga nafaqat Argentinadagi yangi hukumatning hokimiyat tepasiga kelishi, balki Buenos-Ayeros va yana bir nechta viloyatlari hamda Argentina hukumati o'rtasida Siemens bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha yakdillikning yo'qligi asosiy sabab bo'lgan<sup>48</sup>. Shuning uchun ham yaxshi boshqaruvning mavjudligi investitsion munosabatlar uchun ham zaruriydir. Shuning uchun mamlakatda hukumat almashinuvi hamda siyosiy

<sup>48</sup> International economic law.

o'zgarishlar sababli shartnomalar tuzish zaruriyatini tug'diradi. Chunki mamlakatdagi o'zgarishlardan so'ng mamlakatlar majburiyalarni bajamaslillari mumkin. Bundan kelib chiqadiki, faqatgina odat huquqi bilan barcha munosabatlarni tartibga solib bo'lmaydi. Misol uchun *muzlatib qo'yish qoidasi (stabilization clause)* mavjud ushbu qoida kelgusidagi milliy qonunchilikdagi o'zgarishlar investitsion shartnomaga nisbatan qo'llanilmaslini ta'minlan beradigan institute hisoblanadi. Shu sababli ham ba'zi olimlarning fikriga ko'ra stabilization clause ning mavjudligi yaxshi boshqaruv majud bo'lmasa ham ushbu qoidani bo'lishi yetarli deyishadi. Ammo men bu fikrga qo'shimagan bo'lardim. Chunki bu yerda davlat suverenteti degan tushuncha ham o'zining kuchli ta'sirini ko'rsatadi.

## **XULOSA**

Yuqoridagilarni umumlashtirib, xulosa qiladigan bo'lsak, bugungi kunda xorijiy investitsiyalarning xalqaro huquqiy manbalari aslida investitsion nizolarni hal etish uchun asosiy rol o'ynaydi. Investitsion munosabatlarda asosan ikki tomonlama investitsion shartnomalar ustunlik qiladi. Chunki BIT lar mamlakatning barqaror taraqqiyotiga musbat ta'sir ko'rsatib, o'sha mamlakatda huquq ustuvorligining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shuning uchun BIT lar va ulardagi investitsiya arbitrajiga borishiga davlatlarning roziligi bekor qilinmasligi lozim, balki har bir modda o'sha davlatning ehtiyoji, iqtisodiy va ijtimoiy holatiga ko'ra yaxshilab o'ylangan xolda ishlab chiqilishi lozim. Boshqacha so'z bilan aytganda, har bir davlat barqaror taraqqiyot prensipiga asoslangan xolda o'zining BIT modelini ishlab chiqishi hamda o'sha modelni asos qilib yangi BIT larini tuzishi lozim deb o'ylayman. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsam, BITlarning hammasini O'zbek modeliga asoslangan holda ko'rib chiqishlari lozim, ya'ni o'zimizning BIT modelimizni qabul qilishimiz lozim. Unda yurtimizning o'ziga xos taraqqiyoti, iqtisodiy siyosati va mahalliy ishlab chiqaruvchilarining manfaati, soliq, atrof-muhitni himoyalash, aholi sog'lig'ini saqlash, mehnat huquqiga oid masalar va davlatning fuqarolar manfaati uchun qilinadigan tartibga soluvchi chora tadbirlar inobatga olinishi va shunga ko'ra BIT lar o'zgarishlari ularning har bir moddasi qaytadan jiddiy muhokama qilinishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, investitsiya muhitini yaxshilash sohasida asosiy qadam xususiy va tog'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha shart-sharoitlarni yaratishga qaratilga sa'y-harakatlar orqali to'liq va samarali institusional shakllantirish bo'lishi lozim. Xususiy investitsiyalarni faollashtirish uchun ttadbirkorlik faoliyatlarini erkinlashtirish lozim. Xalqaro beznis bilan doimiy aloqada bo'lish, muayyan sektorlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan barrierlarni aniqlash va ularni bartarf etadigan yo'llarni toppish talab etiladi. Shu munosabat bilan investitsiya jozibadorlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o'shishni ta'minlash

maqsadida davlat xususiy sheriklik va loyihlarni moliyalashtirish vositalarni rivojlantirish orqali investitsiyaviy faoliyatni rag'batlantirish kerak. Bundan tashqari investitsion munosabatlarga doir qonunlarimizdagi kamchilik va tushunmovchiliklarni to'ldirishimiz talab etiladi. Hamda mustaqil va ta'sir kuchiga ega sud tizimi yanada kuchaytirishimiz lozim. Chunki kelgusida nizo kelib chiqadiganda investor host state milliy sudlariga ishonmaydi. Shuning uchun biz milliy sudlarda adolatli, shaffof hamda ochiqlik prinsiplarga asoslangan holda sud tizimini joriy qilishimiz hamda mustaqil sud tizimini joriy etishimiz ya'ni nodavlat sud organini tashkil etsihimiz uning faoliyatiga davlat aralashmaydigan tizimni joriy qilishimiz kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)**

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil,
2. Ендовицкий Д. А. Комплексный анализ и контроль инвестиционной деятельности: методология и практика. Д. А. Ендовицкий; под ред. Л.Т. Гиляровой. М: Финансы и статистика, 2011, изд.№2, 400с.
3. Moliya bozori va investitsiyalar. Darslik. 2021-yil
4. Investor huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Moskva konvensiyasi. 1997-yilda qabul qilingan.
5. Establishing the multilateral investment guarantee agency. Convention, October 11, 1985 years.
6. Н. Grotius, De Jure Belli ac Pacis Tres (rev end, 1946) qayta nashr qilingan(1925)3(2) The Classics of International Law, 385 (F.Kelsey,trans),TM Franck, Fairnessda keltirilganidek Xalqaro huquq va institutlarida (Oxford, Clarendon Pess,1995), 457, n 11;
7. Xalqaro investitsiya huquqi. Darslik, 2019 yil. Mualliflar jamoasi
8. Международное коммерческое прова: учеб. Пособие / под общ.ред. В.Ф. Попондопуло. – 2-е изд. стерю-М. Омега-Лб 2006. – Сю104ю
9. Xalqaro investitsiya huquqi. Darslik. 2019 yil. Mualliflar jamoasi.
10. International investment law. Darslik.
11. Principles of Internationla investment law. Ikkinchi nashr. Rudolf Dolzer and CH. Schreuer.
12. Богатырев А.Г. Инвестиционное право. М., 1992.
13. Вельяминов Г.М. Международное экономическое право и процесс. М., Волтерс Клувер - 2004.
14. Фархутдинов И.З. Международное инвестиционное право. Теория и практика применения. М., Волтерс Клувер, 2005

## **TURLI TIZIMLI TILLAR (O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARI)DA METAFORALARNING ASOSIY TURLARI VA O‘RGANILISH YO‘NALISHLARI**

**Abduolimova Maftuna**

Farg‘ona davlat universiteti,  
Amaliy ingliz tili kafedrası o‘qituvchisi

**Isaqova Ozoda**

Farg‘ona davlat universitet,  
Ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Metafora – so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib metafora “ko‘chirish”, “ko‘chirma” degan ma‘nolarni anglatadi. Biror predmet, belgi yoki harakatning boshqasiga tashqi va ichki o‘xshashlik asosida ma‘no ko‘chish turiga metafora deyiladi. Bunday holatlarda predmetning rangi, shakli, xususiyati jihatdan o‘xshashlilik nazarda tutiladi. Nutq jarayonida metaforadan foydalanishdan maqsad, tilni bezash uchun unga ko‘proq jonkuyarlik, dinamizm xususiyatlaridan qo‘shishdir.*

**Kalit so‘zlar:** metafora, kognitiv tilshunoslik, visual metafora, sof metafora, nopok metafora, salbiy metafora, appozitsion metafora, prepoztsion metafora, Standard, Implied, Visual, Extended metaforalar.

### **ABSTRACT**

*The word metaphor is derived from the Greek language, and metaphor means "to move", "to copy". Metaphor is a type of transfer of meaning based on external and internal similarity of an object, sign or action to another. In such cases, similarity in terms of color, shape, and characteristics of the object is assumed. The purpose of using metaphor in the speech process is to add more vitality and dynamism to the language in order to decorate it.*

**Key words:** metaphor, cognitive linguistics, visual metaphor, pure metaphor, impure metaphor, negative metaphor, appositional metaphor, prepositional metaphor, Standard, Implied, Visual, Extended metaphors.

### **KIRISH**

Kognitiv tilshunoslik sohasida ko‘plab yo‘nalishlar rivojlanmoqda, ulardan biri kognitiv metafora nazariyasidir. Metafora qadim zamonlardan beri ko‘plab mutafakkirlarning e‘tiborini tortdi. Metaforani ilmiy tadqiq etish asoslarini Aristotel ("Poetika", "Ritorika", "Topeka") qo‘ygan, u metaforani ismni ko‘chirish usuli deb hisoblagan. Aristotel metaforaga klassik ta‘rifni berdi va metaforik ko‘chirishga xos bo‘lgan 4 turni aniqladi (turdan turga, turdan turga, turdan turga va mutanosib



analogiya tamoyiliga ko‘ra ko‘chirish). Metafora hodisasiga qiziqishning ortishi falsafa, mantiq, adabiy tanqid, psixologiya, semiotika va tilshunoslikda metafora tadqiqotining ko‘plab sohalari mavjudligini belgilaydi. Metaforani o‘rganish uchun yo‘nalishlarning aniq sonini nomlash deyarli mumkin emas. Zamonaviy fanda metaforani o‘rganishga yondashuvlarni tavsiflovchi ko‘plab tasniflar mavjud.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Metaforani hosil qilishda ikki tushuncha o‘rtasida ma‘lum o‘xshashliklar asosidagi ma‘no ko‘chish jarayoni kuzatiladi. Bunga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

*Ariqning labi – odamning labi, Qozonning qulog‘i– odamning qulog‘i.*

*Tog‘ning etagi – kiyim etagi, Yo‘lning yoqasi – kiyim yoqasi.*

Bundan tashqari narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashliklar bo‘lishi mumkin:

1. Shakliy (tashqi) o‘xshashlik: arraning tishi, taroqning tishi, daraxtning beli
2. Ma‘noviy belgidagi o‘xshashlik: issiq yuz, shirin hayol, tor ko‘ngil
3. Harakatdagi o‘xshashlik: ipni uzdi (o‘z ma‘no)-munosabatni uzdi (metafora)

Tilda doim qo‘llanadigan metaforalar vaqti o‘tishi bilan turg‘unlashib boradi. Agar metafora qanchalik yangi va tutilmagan bo‘lsa, uning ifodalilik qiymati shunchalik baland bo‘ladi. Mahoratli so‘z ustalari tomonidan o‘z asarlarida so‘zlarni metaforik ma‘noda qo‘llash orqali obrazli nutqning go‘zal namunalarini yaratadilar. Negaki, nutq jarayonida metaforadan o‘rinli va maqsadli foydalanish natijasida so‘zlovchining badiiy-estetik qobiliyati namoyon bo‘ladi va nutqning ta‘sirchan va jozibali chiqishini ta‘minlaydi. Shuningdek, metaforadan qahramonning ruhiy holatini tasvirlab berish uchun ham foydalaniladi. Masalan:

Manglayi tirishar zinapoyaning,

Panjara kuylaydi misoli chiltor,

Terlab ketganini ko‘rsang oynaning

Hamma narsa seni kutar intizor.

(Iqbol Mirzo)

Olimlar tomonidan metaforalarga juda ko‘plab ta‘riflar berilgan va metaforaning turli xil turlari ajratilgan. Ulardan ayrimlari haqida fikr yuritamiz.

Vizual ( ko‘rishga oid) – ushbu metafora turida turli xil fikrlarni tasvirlar yordamida ifodalash mumkin. Ya‘ni fotosuratlar, har xil turdagi komikslar orqali.

*Masalan:* qo‘l, pul va zanjir tasvirlangan suratni oladigan bo‘lsak, **“U pulga zanjirband”**, **“U o‘z ishining quli”** degan ma‘nolarni keltirib chiqarishimiz mumkin. Bu turdagi metaforani qo‘llashdan maqsad shundan iboratki, nutq jarayonida

soʻzlashuv tildan foydalanishga hojat qoldirmaslik, yaʼni suratlarini koʻrish bilan oq undagi maʼnoni anglash.

**Sof metafora** – ushbu turdagi metaforada aytilishi kerak boʻlgan narsa uning oʻxshashliligi bilan almashtirib qoʻllaniladi.

*Masalan:* “**U nur sochgan yulduzlari ila menga tabassum qildi**”. Bu yerda asl maʼno koʻzlar oʻrnini oʻxshashlikni taqazo etuvchi tabiat (yulduzlar) bilan almashtirildi. Bundan maqsad esa, nutqda jozibadorlik va taʼsirchanlikni oshirish.

**Nopok metafora** – ushbu turdagi metaforada taqqoslash muhim ahamiyatga ega. Yaʼni asl tushunchani xayoloti bilan taqqoslaydi. Yuqoridagi misoldan foydalanadigan boʻlsak: “**Uning koʻzlari menga tabassum qiladigan yulduzlardir!**” Bu yerda soʻzlarni almashtirish emas, balki taqqoslash mavjud. Uning kulib turgan koʻzlarini osmondagi chaqnab turgan yulduzarga qiyoslamoqda.

**Appozitsion** – haqiqiy va xayoliy tushunchalar oʻrtasidagi oʻxshashlikni vergul bilan ajratish orqali metaforaning bu turi yasaladi.

*Masalan:* “**Sizing gaplaringiz yuragimga oʻqday tegdi**”. Bu yerda asl va xayolotidagi tushunchalarni bir oʻrinda qoʻllash, yaʼni mos ravishda.

**Prepoztsion** – ushbu turda appozitsion metaforadan farqli ravishda, haqiqiy yoki xayoliy tushunchalar bir-biriga predlog yordamida bogʻlanadi. Asosan (ning) yordamida.

*Masalan:* “**Tishlaring dur kabidir!**”

**Salbiy metafora** – bu metafora turidan haqiqiy yoki xayoliy atamalarni inkor shaklda qoʻllash orqali foydalanish mumkin.

*Masalan:* “**Bu bazm emas, aza!**” Bu yerda bazmning ahamiyatini tushuntirish uchun azaga oʻxshashlik yaratish orqali haqiqiy kontseptsiya taʼkidlashga harakat qilinadi.

Metaforaga misol sifatida oʻzbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri **Erkin Vohidov**ning sheʼrlarini olishimiz mumkin. Masalan, uning “Tong lavhasi” deb nomlangan sheʼrida buning yaqqol isbotini koʻrishimiz mumkin.

**Togʻortidan koʻtardi-da bosh,**

**Pastga boqdi choʻqqidan asta,**

**Oltin qalam tutgan bir naqqosh.** (Erkin Vohidov)

Bu yerdagi “quyosh” obrazi oltin qalam tutgan bir naqqosh sifatida jonlantirilmoqda. Yaʼni tong boʻlishi bilan oq quyosh oʻzining oltin nurlarini butun borliqqa sochadi va zamin uning zarrin nurlari ostida qolgan chamanga aylanadi.

**Azizu oshino tutib,**

**Sahar choʻlponidek jozib,**

**Sochibdirsan ziyo menga.** (Erkin Vohidov)

Shoir o'zining bu she'rida "sahar cho'lponi" bu "tong yulduzi" ekanligi haqidagi metaforani qo'llaydi. Ya'ni, tongi yulduzim bo'lib menga ziyo sohasan degan mazmun bu yerda metafora usulida qo'llangan va she'rning ta'sirchanligi va jozibadorligini yanada oshirgan.

Metafora turli tizimli tillar tilshunosligida tadqiq ostiga olingan mavzu bo'lib, ingliz tilida ham metaforani o'rganish bo'yicha bir qator izlanishlar olib borilgan. Metaforaga olimlar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan. Dastlab lug'atlarda berilgan ma'nosiga e'tabor beradigan bo'lsak u quyidagichadir:

***“Metaphor – is an implied comparison in which one element is described in terms of another to create a connection”.***

Ingliz tilida ko'chim turlaridan biri hiosblangan metafora asosan asl va hayoliy tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishni yaratish uchun bir element boshqasi nuqtai nazaridan tasvirlangan taqqoslash. Ba'zi bir hollarda metaforani kinoya (simile) bilan uyg'unlashgan holda Ingliz asarlarida uchratishimiz mumkin. Bu ko'chim turidan foydalanishdan maqsad nuqtning jozibadorligi va ta'sirchanligini oshirishdan iborat. Ingliz tilida metaforaning 12 dan ortiq turlari mavjud bo'lib, bularda eng asosiylari 4 tani tashkil etadi.

1. Standard
2. Implied
3. Visual
4. Extended

***Standart*** – metaforaning bu turidan ikkita farqli narsalarni solishtirganda qo'llash mumkin. Masalan, Shekspirning *“As You Like It”* asaridagi *“All the world's a stage”* barchasini misol keltirishimiz mumkin. Bu yerda (*Barcha dunyo bir sahna*)satri asosida ikkita farqli narsa “dunyo” va “sahna” ni bir-biriga solishtirmoqda.

***Implied*** – metaforaning bu turida esa, bir-biriga o'xshamaydigan ikkita narsani taqqoslanadi. Masalan, *“A woman barked a warning at her child”*(*Ayol o'z bolasini ogohlantirdi*). Bu yerda nazarda tutilgan metafora ayolni itga qiyoslayapti. Lekin aslida, bu yerda it haqida gap ketgani yo'q. Ya'ni bir-biriga o'xshamagan “ayol” va “it” taqqoslanmoqda.

***Visual*** – bu metafora turi o'zbek tilidagi vizual metafora turi bilan bir xil hisoblanadi. Ya'ni fikrlar tasvirlar orqali ifodalanadi. Masalan, so'nngi rusmdagi telefonni reklama qilish uchun uni “chaqmoq” tasviri bilan tasvirlanishi, uning ishlashi chqmoqdek tez degan ma'noni anglatadi.

**Extended** – bu metafora turidan asosan nasr yoki she’rlarda ko’p qo’llaniladi. Ya’ni turli xil tavsiflovchi vositalar orqali bir nechta satrlarni yoki baytlarni kengaytirishdir.

Bundan tashqari ba’zi bir hollarda “Dead”(o’lik) va “Mixed”(aralash) kabi metafora turlariga ham duch kelishimiz mumkin. O’lik metafora deganda, vaqt o’tishi bilan ko’p foydalanganligi sababli o’zining asl ma’nosini yo’qotib, ma’nosi o’zgargan metafora turi tushiniladi. Ba’zi hollarda esa, o’lik metaforalar endi umuman metafora emasligi ta’kidlanadi. Aralash metafora esa bir-biriga mos kelmaydigan ikki yoki undan ortiq metafora birikmasidir.

Ingliz adabiyotining yorqin vakili O.Henryning ko’plab asarlarida metaforadan foydalanганиni ko’rishimiz mumkin. Masalan, uning “*The last laef*”(So’nngi yaproq) hikoyasida “*Pneumonia*” kasalligini ko’rinmas odamga qiyoslaydi va u butun Nyu York ko’chalari bo’ylab izg’ib yuradi va o’zining muz barmoqlari orqali odamlarni kasallaydi.

## XULOSA

Xulosa qiladigan bo’lsak, metafora–so’zning ko’chma ma’nosi bo’lib, biror so’z leksik ma’nosi referenti bilan obyektiv borliqdagi narsa, voqelik, harakat, holat, belgi yoki sezgi kabilardan biri aloqador yoki munosabatda bo’lganligi uchun, uning nomida atalib ketishi orqali vujudga keladi. Ya’ni so’zning muayyan leksik ma’nosi ikkinchi bir leksik ma’noni yaratadi. Shu tufayli ham, keyingi leksik ma’no metafora deb nomlanadi. Metaforalarning o’rganilish tarixi qadimgi antik davralarga borib taqaladi va shu kunga qadar ko’plab tilshunos olimlar, tadqiqotchilarning asosiy o’rganilish obyekti bo’lib kelmoqda. Metaforaga doir juda ko’plab izlanishlar olib borilgan bo’lsa ham, kognitiv tilshunoslikda metaforaning tahlil tortilishi kerak bo’lgan sohalari beqiyosdir. Bu esa o’z navbatida bu sohada qilinadigan ishlar hali ko’pligidan darak beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI (REFERENCES)

1. Dagut, M. (1987). More about the translatability of metaphor. *Babel*, 33(2), 77-83.
2. Martin, J. H. (1994). A corpus-based analysis of context effects on metaphor comprehension.
3. Lakoff, G., & Johnson, M. (2008). *Metaphors we live by*. University of Chicago press.
4. Deignan, A. (2005). *Metaphor and corpus linguistics* (Vol. 6). John Benjamins Publishing.
5. Black, M. (1981). *Metaphors we live by*.

6. Coney, J., & Lange, A. (2006). Automatic and attentional processes in the comprehension of unfamiliar metaphors. *Current Psychology*, 25(2), 93-119.
7. 11-sinf ona tili darsligi (79-80-betlar) “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-2018.
8. “O’zbek tilidan universal qo’llanma” (82-83-betlar) O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan nashriyoti” Toshkent-2007.
9. Erkin Vohidovning so’z qo’llash mahorati to’plami (85-86-betlar)
10. [www.masterclass.com](http://www.masterclass.com)



## ИЖРО ҲОКИМИЯТИ ОРГАНЛАРИНИНГ ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИНИ КЎРСАТИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ВАКОЛАТЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Пирназаров Аллияр Бердибай уғли

Қорақалпоқ давлат университети 2-курс магистранти

### АННОТАЦИЯ

*Ушбу мақолада ижро ҳокимияти органлари томонидан давлат хизматларини кўрсатиш билан боғлиқ ваколатларининг ҳуқуқий асослари қонунчилик нормалари асосида таҳлил қилинган. Таҳлиллар асосида ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш бўйича фикр ва таклифлар билдирилган.*

*Калит сўзлар.* давлат хизматлари, электрон давлат хизматлари, ижро ҳокимияти органлари.

### ABSTRACT

*In this article, on the basis of legal norms, the legal basis of the powers of executive authorities related to the provision of public services is analyzed. Based on the analysis, opinions and proposals were made to improve the legal framework.*

*Keywords.* public services, electronic public services, executive authorities.

### КИРИШ

Давлат хизматларини электрон шаклда амалга оширишнинг ҳуқуқий асосларини тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни таҳлил қилишда, биринчи ўринда давлатимиз Конституцияси нормаларига мурожаат этамиз.

Давлатнинг асосий қонуни сифатида Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон Республикаси Конституциялари электрон давлат хизматига мурожаат қилган жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини белгилаб берувчи нормаларини мужассам этади.

Зотан, унинг матнида электрон давлат хизматларини кўрсатиш тартибига оид аниқ қоидалар мавжуд бўлмаса ҳам, унинг кўпгина нормалари уларни амалга ошириш жараёнига сезиларли таъсир кўрсатади, чунки ариза берувчининг ваколатли давлат органига ёки тегишли органга мурожаат қилганлиги сабабли, мурожаатни таъминлаш учун тегишли ташкилот замонавий рақамли технологиялардан фойдаланган ҳолда электрон давлат хизматини кўрсатиши инсон ва фуқароларнинг Асосий Қонунларида<sup>49</sup> назарда тутилган асосий ҳуқуқлардан бирини бевосита ифодалайди.

<sup>49</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 35-моддасида, Қорақалпоғистон Республикаси Конституциясининг 33-моддасида «Ҳар бир шахс бевосита ўзи ва бошқалар билан биргаликда ваколатли давлат органларига, муассасаларига ёки халқ вакилларига ариза, таклиф ва шикоятлар билан мурожаат қилиш

## **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Ҳуқуқий институт сифатида, давлат хизматлари тушунчаси, албатта, қонун доирасида аниқ белгилаб берилган бўлиши лозим. Чунки ҳар бир давлатда унинг хусусиятларидан (давлат ва маъмурий-худудий тузилиши, қонунчилиги, давлат ҳокимияти ва бошқаруви ва ҳ.к.лардан) келиб чиқадиган ўзига хос жиҳатлари мавжуд<sup>50</sup>.

Шу ўринда бу соҳани тартибга солувчи асосий қонунлардан бири сифатида Ўзбекистон Республикасининг «Электрон ҳукумат тўғрисида»ги Қонунини ажратиб кўрсатиб ўтаемиз. Бу қонун электрон давлат хизматлари турлари, унга доир талабларни, электрон давлат хизмати кўрсатиш тўғрисидаги сўров ва унга бериладиган жавобларга доир талабларни ҳуқуқий тартибга солувчи моддий нормаларни акс эттиради. Шунингдек, ушбу қонунга мувофиқ, давлат хизматларининг электрон шаклга ўтказилишининг сифатини ошириш мақсадида, амалдаги электрон давлат хизматлари кўрсатиш тартибини такомиллаштириш зарурлигидан, шунингдек давлат органлари ҳужжатларининг бирхиллаштирилишини таъминлаш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси томонидан қабул қилинган «Электрон давлат хизматлари кўрсатиш тартибини такомиллаштириш чора – тадбирлари тўғрисида»ги қарори<sup>51</sup> билан электрон давлат хизматларини кўрсатиш тартибини такомиллаштириш чора – тадбирлари ишлаб чиқилади.

Шу ўринда, давлатимизда электрон давлат хизматларини тартибга солиш бирнечта қонунлар<sup>52</sup> билан ҳам тартибга солинишини қайд этаемиз. Аммо, таъкидлаш керакки, назарда тутилган қонун ҳужжатларда давлат хизматларини электрон шаклда амалга ошириш тартиблари батафсил ёритилмаган.

Шунингдек, маълумотларни қайта ишлаш ёки электрон шаклдаги маълумотларни тасдиқлаш усуллари билан боғлиқ масалалар бошқа қонунларда ўз аксини топган. Масалан: Ўзбекистон Республикасининг «Шахсга доир маълумотлар тўғрисида»ги Қонуни<sup>53</sup>; Ўзбекистон Республикасининг «Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиқлиги тўғрисида»ги

---

ҳуқуқига эга. Аризалар, таклифлар ва шикоятлар қонунда белгиланган тартибда ва муддатларда кўриб чиқилиши шарт» дея мустаҳкамлаб берилган.

<sup>50</sup> Аманиязова Света. (2022). РАҚАМЛАШТИРИШ ЖАРАЁНИДА ИЖРО ЭТУВЧИ ҲОКИМИЯТ ОРГАНЛАРИ ВАКОЛАТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ (ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР КЕНГАШИ МИСОЛИДА). *Innovations in Technology and Science Education*, 1(1), 253–265. Retrieved from <https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/36>

<sup>51</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Электрон давлат хизматлари кўрсатиш тартибини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 2016 йил 2 июндаги 184-сон қарори. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

<sup>52</sup> Ўзбекистон Республикасининг Қонуни «Давлат солиқ хизмати тўғрисида»; Ўзбекистон Республикасининг «Давлат божхона тўғрисида» ги Қонунлари. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

<sup>53</sup> Ўзбекистон Республикасининг «Шахсга доир маълумотлар тўғрисида»ги Қонуни ЎРҚ-547 сон 02.07.2019 йили қабул қилинган. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

Қонуни<sup>54</sup>; «Электрон рақамли имзо тўғрисида»ги қонунлари<sup>55</sup> ни санаб ўтиш мумкин.

Шу қонунлар қаторида давлат хизматларини электрон шаклда амалга ошириш тартиблари, қоидалари айнан қонуности ҳужжатлари билан ҳам тартибга солинишини кўриш мумкин.

Электрон давлат хизматларини амалга оширишни тартибга солиш билан Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 2 июндаги «Электрон давлат хизматлари кўрсатиш тартибини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 184-сонли қарори<sup>56</sup> ижросини таъминлаш мақсадида Қарақалпақстан Республикаси Вазирлар Кенгашининг 2016 йил 7-июндаги 148-сонли Қарори<sup>57</sup> да электрон давлат хизматлари кўрсатиш тартибини такомиллаштириш чора-тадбирларини амалга ошириш доимий асосда электрон давлат хизматлари кўрсатувчи давлат органлари ва бошқа ташкилотлар фаолиятини мувофиқлаштириш ва уларнинг ўзаро ҳамкорлик қилиши учун маъсулият Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлигига (Қорақалпоғистон Республикаси ҳудудий бошқармаси) юклатилди. Шунингдек, ушбу қарор асосида Адлия вазирлиги, электрон давлат хизматларини кўрсатувчи давлат органлари ва бошқа ташкилотлар билан биргаликда уларнинг ваколатлари, вазифалари ва функцияларини белгилаб берувчи норматив-ҳуқуқий интерактив давлат хизматлари порталида жорий қилиниши керак бўлган, жисмоний ва юридик шахсларга кўрсатиладиган давлат хизматлари рўйхатини тасдиқлаш учун 2013-2020 йилларда Ўзбекистон Республикаси Миллий ахборот коммуникация тизимини ривожлантириш комплекс дастуринининг амалга оширилишини мувофиқлаштириш республика комиссиясига киритиш учун олти ой вақт берилганлигини кўриш мумкин.

Вазирлар Маҳкамасининг 184-сонли қарори ва унинг ижросини таъминлаш мақсадида Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгашининг 2016 йил 7-июндаги 148-сонли Қарори<sup>58</sup> қабул қилинишдаги асосий мақсад

<sup>54</sup> Ўзбекистон Республикасининг «Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиқлиги тўғрисида»ги Қонуни ЎРҚ-369 сон, 05.05.2014 йили қабул қилинган. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

<sup>55</sup> «Электрон рақамли имзо тўғрисида»ги қонуни ЎРҚ-562-II сон, 11.12.2003 йили қабул қилинган. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

<sup>56</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Электрон давлат хизматлари кўрсатиш тартибини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 2016 йил 2 июндаги 184-сон қарори. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

<sup>57</sup> Қарақалпақстан Республикаси Вазирлар Кенгашининг 2016 йил 7-июндаги 148-сонли Қарори. // Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши архив материаллари.

<sup>58</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 2 июндаги «Электрон давлат хизматлари кўрсатиш тартибини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 184-сонли қарори ижросини таъминлаш мақсадида Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгашининг 2016 йил 7-июндаги 148-сонли Қарори. // Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши архив материаллари.

айнан давлат хизматларини электрон шаклга ўтказиш, шу жумладан идораларо электрон ҳамкорликни ўрнатиш бўлиб, шу билан бирга:

- электрон давлат хизматларига бўлган талаб;
- давлат хизматларини кўрсатишда бюрократик тўсиқларнинг мавжудлиги;
- давлат хизматларини кўрсатишнинг кўп вақт олиши ва молиявий чиқимларнинг юқорилиги;

- электрон давлат хизматлари кўрсатишнинг белгиланган тартиби йўқлиги ва жойларда электрон давлат хизматлари кўрсатишнинг шаклланган амалиёти билан электрон давлат хизматлари кўрсатиш масалаларини тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар билан белгиланган тартиб ўртасидаги катта фарқлар мавжудлиги ҳам кўшимча мезон сифатида назарда тутилади.

## **ХУЛОСА**

Электрон давлат хизматларини кўрсатишни ташкил этишга билвосита таъсир кўрсатадиган мавжуд умумий норматив ҳужжатлар мажмуи бўлишига қарамасдан, биз электрон давлат хизматларини кўрсатишни ҳуқуқий тартибга солишнинг етарли даражада эмаслигини қайд этамиз, чунки:

Биринчидан; давлат хизматларини кўрсатишни тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг тизимсиз қабул қилиниши;

Иккинчидан; асосан умумий нормаларнинг қабул қилиниши;

Ушинчидан; давлат органлари томонидан ўз фаолиятида АКТдан фойдаланиш ва электрон давлат хизматларини жорий этиш бўйича идоравий ҳужжатларни, хусусан, норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини қабул қилиш мажбурияти мавжуд эмаслиги;

Бешинчидан, ҳудудларда электрон давлат хизматларини тартибга солишга оид ҳудудий қонунчилигининг йўқлиги.

Шундай экан, ахборот соҳасидаги тараққиёт бевосита ҳуқуқий маданиятнинг ҳолатига ва технологик муаммоларни ҳал қилиш учун норматив-ҳуқуқий базанинг етарлигига боғлиқ эканлигини қайд этамиз. Шунини таъкидлаш керакки, ахборотлаштириш соҳасида жуда кўп миқдордаги меъёрий ҳужжатлар қабул қилинган ва ахборот соҳасида ривожланаётган ҳуқуқий муносабатларнинг аксарият қисмини тартибга солаётганлигига қарамай, электрон давлат хизматларини амалга ошириш билан боғлиқ ҳуқуқий тартибга солиш ҳужжатларни такомиллаштириш зарур деб ҳисоблаймиз.

## **REFERENCES**

1. Кутыбаева, Е. Д. (1999). *Органы исполнительной власти Республики Каракалпакстан* (Doctoral dissertation, Автореф. дис. докт. юрид. наук).

2. Аманиязова Света. (2022). РАҚАМЛАШТИРИШ ЖАРАЁНИДА ИЖРО ЭТУВЧИ ҲОКИМИЯТ ОРГАНЛАРИ ВАКОЛАТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ (ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР КЕНГАШИ МИСОЛИДА). *Innovations in Technology and Science Education, 1(1)*, 253–265. Retrieved from <https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/36>
3. Ахмедшаева М.А. Давлат ҳокимияти тизимида ижро ҳокимияти. Юрид.фанл.докт.дисс...-Т., 2010.
4. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни «Давлат солиқ хизмати тўғрисида» Қонуни. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
5. Ўзбекистон Республикасининг «Шахсга доир маълумотлар тўғрисида»ги Қонуни ЎРҚ-547 сон 02.07.2019 йили қабул қилинган. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
6. Ўзбекистон Республикасининг “Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиклиги тўғрисида”ги Қонуни ЎРҚ-369 сон, 05.05.2014 йили қабул қилинган. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
7. «Электрон рақамли имзо тўғрисида»ги қонуни ЎРҚ-562-II сон, 11.12.2003 йили қабул қилинган. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).



## **BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHISINING KREATIVLIK JIHATLARI**

**Nigora Djalalova**

Farg‘ona davlat universiteti

Musiqiy ta‘lim va madaniyat kafedrası o‘qituvchisi

[nx\\_djalalova@mail.ru](mailto:nx_djalalova@mail.ru)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu bayon etilayotgan maqolada Pedagogik Oliy ta‘limning musiqa sohasida tahsil olayotgan bo‘lg‘usi kadrlarni kreativ bilimlarni egallashi, bu malakalarni egallashdagi muammolar va ularning yechimlari borasidagi takliflar haqida so‘z yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** Kreativ pedagogika, musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san‘at, Nasrullovi, musiqiy tuzilma.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматриваются вопросы приобретения творческих знаний будущими кадрами музыкального педагогического вуза, проблемы приобретения этих навыков и предложения по их решению.*

***Ключевые слова:** Творческая педагогика, музыка, живопись, литература, театр и искусство, Насруллави, музыкальный строй.*

### **ABSTRACT**

*This article discusses the acquisition of creative knowledge by the future personnel studying in the field of music of the Pedagogical Higher Education, the problems in acquiring these skills and the suggestions for their solutions.*

***Keywords:** Creative pedagogy, music, painting, literature, theater and art, Nasrullayev, musical structure.*

### **KIRISH**

Ayni vaqtda, madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san‘atni anglashga o‘rgatish, ularning estetik olamini sog‘lom asosda shakllantirish bo‘yicha oldimizda juda muhim vazifalar turibdi<sup>59</sup>. Farzandlarimizning qobiliyatini ruyobga chiqarishga bolalikdan e‘tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizda yana ko‘plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar yetishib chiqadi<sup>60, 2</sup>.

Iqtidorli yoshlarimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularni ijodiy kamoloti uchun barcha sharoitlarni yaratib berish ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘lishi kerak.

<sup>59</sup> Sh.Mirziyoev. “Xalqimizning roziligi bizning foliyatimizga berilgan eng loyiq bahodir”.196-bet

<sup>60</sup> Sh.Mirziyoev. “Bilimli avlod-buyuk kelajakning, tadbirkor xalq-farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir” T.O‘zbekiston. 2018 yil. 21-bet

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-may kungi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma'naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilganligi qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarda rivojlantirishning ustuvor yo'nalislari bo'yicha Harakatlar strategiyasining to'rtinchi bosqichi ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan. Milliy tarbiya barcha tarbiyaning asosidir. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridan eng avvalo ta'lim tizimini isloh qilish, uni milliy-ma'naviy qadriyatlar negizida shakllantirish, jismoniy sog'lom, ma'naviy yetuk, aqliy barkamol insonlarni tarbiyalashga asosiy e'tibor qaratildi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Talaba-yoshlarimizning bo'sh vaqtlarini kamrab olish ularning qiziqish va ijodiy izlanishlari uchun barcha bosqichda amaliy yordam - ko'mak berish ustoz va murabbiylarga katta vazifalar yuklaydi. Jumladan Prezidentimiz tomonidan olg'a surilgan tashabbusning birinchi asosiy bandida aynanb yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini rivojlantirish, ularning, iste'dodini yanada yuzaga chiqarishga hizmat qilinishi ta'kidlanganligi maqolani yaratishga turtki bo'ldi.

Shunday ekan, bugungi kunning musiqa o'qituvchisi o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish va darsni yangi pedagogik texnologiyalardan unumli hamda o'rinli foydalanishi, shuningdek, maqbul shakl, usul va vositalar yordamida tashkil etishi lozim. Jumladan: texnik vositalar, komp'yuter va boshqa musiqiy cholg'ular uslublari, ko'rgazmali jihozlar, amaliy mashg'ulotlar, pedagogik va psixologik vositalar ilg'or o'qituvchining ilg'or tajribasi va mahorati hisoblanadi.

Kreativlik shaxsni yahlit holda yoki uni muayyan xususiyatlarini, zexni o'tkirligini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorlilikning muhim omili sifatida aks etadi.[1] M.Usmonbayeva. "Kreativ pedagogika".

Har qanday mutaxassislar bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativ qobiliyatga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlanib boradi. Bunda talaba Oliy ta'lim o'qituvchisi tomonidan o'zini-o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

Buning uchun mashg'ulot davrida talabalar o'zaro mavzular yuzasidan muammoli masalalar yechishi, muammoli vaziyatlarni taxlil etishi,shuningdek,

pedagogik harakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

### **NATIJARLAR**

Talaba muammoli masala va vaziyatlarni hal qilish kerak ekan, ularning o'zaro masala yechishini topishga ijtimoiy yondashish, unda xissiy irodaviy sifatlarining rivojlanishiga yordam beradi. Pedagogik sohaga tayyorgarlik ko'rayotgan talaba kreativ sifatlarga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy o'rgatishni ko'paytiradi. Oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativ sifatlarga ega bo'lishlari, ularning o'quv va taxlil jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam bo'ladi. Ayniqsa, kreativ sifatlarga ega bo'lish o'qituvchi kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi ilg'or talabalarning o'quv faolligini shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishga faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogic yutuq va tajribalarning mustaqil o'rganish, shuningdek, (hamkasblar) bilan pedagogik yutuq xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratiladi.

### **MUHOKAMA**

Barcha shaxslarda bo'gani kabi pedagoglarda ham kreativ sifatlari o'z-o'zidan rivojlanmaydi.

Misol- Nasrullovi asarining musiqiy tuzilmasi bo'yicha tahliliy suhbat:

Transdistsiplinar manbaalar- turli interaktiv faoliyat turlari va ia'limiy o'yinlarni o'z ichiga oluvchi saytlarga tayanib Nasrullovi asarining alhon (kuy) birligi haqidagi suhbatimizda asarning (mel'tsel' metronomi) bo'yicha bir chorak notaning sadolanish tezligi 84-88 darajada, ya'ni naqr (ritm, usul, zarblar tengligi)ga ko'ra 6/8 (2/4;4/4) o'lchovi, saqil (uzun va qisqa bo'g'inlar munosabatiga asoslanuvchi she'riy vazn) ifodasiga mos keluvchi, zarbul qadim (ya'ni "bum" va "bak"dan iborat birlamchi doira usuli ( bum-bak, bak, bak-ka bum, bak ) ijroviy qaydda o'z ifodasini topdi.

Asar sur'atini xotirada mustahkam saqlab qolish uchun metro-ritmik o'lchovni dirijyorlik harakatlarida takrorladik. Asar sarxati (maqom-ashula yo'llarining boshida keladigan ikki kuy jumlasini) taktoldi tamoyiliga binoan boshlanib, olti taktli sarahbor vazifasini o'tayotganligi qayd etildi. Asarning namud (ladning asosiy tayanch pardasi) tayanch asosi kalit yonida al'teratsiya belgisi yo'qligi bilan do major ladi ekanligi e'tirof etildi. Ifodaviy bezaklardan forshlag hamda liga belgilarining mohiyati tushantirildi. Mavjud yarimtalik, choraklik, nimchoraklik, o'n oltitalik hamda nuqtalik notalarning vazifalari ko'rsatib berildi.

Mashg'ulotimizning asosiy maqsadlaridan biri bo'lajak musiqa o'qituvchilari ruhiyatida asar shavqini saqlab qolish, ya'ni dilda paydo bo'lgan holatni yaqin qalblar bilan baham ko'rish, zavq lazzatini uyg'otish, ana shunday his-tuyg'ular tutashuvida uyg'unlashgan musiqa jarayonini yuzaga keltirish asnosida ularda kreativ komponentlik (ijodkorlik-yaratuvchilik) texnologiyalarini takomillashtirishga ko'maklashildi.

Asar bayti (she'rning nisbatan tugallangan mantiqiy bo'lagi) ning yakunida bir necha notalarni o'z qamroviga olgan zamzama (yarim ovozda hirgoyi qilish, she'rsiz "o" lab aytish) daromaddan miyonxatga payvand (qismdan-qismga silliq o'tish) va pardo (kuy va ohangga qo'shimcha zeb berish) vazifasini o'taganligi bo'lajak musiqa o'qituvchilari tomonidan ta'kidlandi. Bunday tahliliy mashqda jami 224 taktdan iborat g'azalning har bir misrasi asosida ijod qilingan kuy tarkiblari o'rganib chiqildi. Bu borada daromad, miyonxat, dunasr, avj, chuqur avjlar haqida bilim berildi. Ayniqsa asarning 105 va 130 taktlar orasida 24 taktdan iborat dunasr (f.t. ikkinchi ibtido-kuy boshlanishining yuqori pardalardagi ko'rinishi) ikkinchi oktavadan mavjlanib, rivojlangan hang (ashulla yo'llarida so'zsiz aytiladigan lavha), ijro davomida ikki bora uchraydigan Zul kull val hamsa (duodetsima intervalidan ham yuqori, ya'ni, Zul kull tarrataynga yaqin diopozonli sehrlil ko'lami ta'sirida bo'lajak musiqa o'qituvchilari chuqur meditatsiya (kuy ta'sirida ruhiy) holatga tushganliklarini qayd etdilar. Shuningdek bo'lajak musiqa o'qituvchilari musiqa shunchaki tovushlar majmuasi emas, aksincha parda va usullarning muvofiqlashgan tizimi, ya'ni, kuy-bu yoqimli tovushlar vositasida ifodalangan ma'no ekanligi, kuylar negizida xalq xotirasi mujassam bo'lishligini uqib oldilar.

## **XULOSA**

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bo'lajak musiqa o'qituvchilari cholg'u jo'rligida asarni shaxsan kuylar ekanlar, ko'zlaridagi mehr va g'urur, dillaridagi surur, yuzlaridagi nur, rost qaddilari bilan uyg'unlashib, Mulla To'ychi Toshmuhammedov Yunus Rajabiy, Domla Halim Ibodov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Hojixon Boltaev, Mamatbuva Sattorov, Komiljon Otaniyozov, Jo'raxon Sulstonov, Ma'mirjon Uzoqov, Tavakkal Qodirov, Fattoxon Mamadaliev kabi maqomchi xonanda va sozandalar izidan borishga, maqom san'ati vositasida yosh avlodning zavq-shavqini sarbaland etish, ularning qalbida Vatanga cheksiz muhabbat, milliy fahr tuyg'ulari jo'sh urishlari uchun o'z ijodiy qobiliyatlarini safarbar etgan holda yangi-yangi kreativ komponentlik usul va texnologiyalarini takomillashtirish uchun rag'bat uyg'otildi.

## **REFERENCES**

1. Sh.Mirziyoyev. "Xalqimizning roziligi bizning foliyatimizga berilgan eng loyiq bahodir".196-bet

2. Karimova D.A. Musiqiy pedagogik mahorat asoslari. T. Iqtisod moliya. 2008. 103 bet.
3. Mirzahamdammovna, K. B., Erkinovna, A. N., & Jumadillaevich, S. R. (2021). Use of Innovative Educational Technologies in Fine ARTS Classes of Higher Education Institutions. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(4), 25-27.
4. Usmonbayeva M. “Kreativ pedagogika”. darslik, H. Omonov, N. Xo'jayev T., 2009
5. Musiqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash, o'quv qo'llanma, D.Namozova, T, 2018
6. Musiqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash, darslik, D.Namozova, T 2020
7. Маннопов, С. У. Л. Т. О. Н. А. Л. И. (2004). Ўзбек халқ муסיқа маданияти. Янги аср авлоди.
8. Djalalova, N. (2022). МУСИҚИЙ ВА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТ АСОСЛАРИ. *Science and innovation*, 1(B8), 478-481.
9. Juraevna, A. S., Abdumalikovna, Y. D., & Xusanovna, D. N. (2021). MODERN SOCIAL AND PEDAGOGICAL FUNCTIONS OF MUSIC ART AND EDUCATION. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 1(1), 57-59.
10. Nurmamatovich, S. T. (2021). Theoretical of national music culture fundamentals.
11. Ergashev, A., Ataboyeva, S., Djalalova, N., & Usmonova, S. (2021). THE ROLE OF COMPOSERY IN THE ART OF NATIONAL SINGING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 863-867.
12. Шокиров, Т. Н. (2022). АБУ НАСР ФОРОВИЙНИНГ МУСИҚА ИЛМИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 353-359.
13. Shakirov, T. N. (2022). SUCCESSION IS THE MAIN PRINCIPLE OF DEVELOPMENT OF NATIONAL MUSIC CULTURE. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(06), 1-10.
14. Шокиров, Т. Н. (2022). МИЛЛИЙ МУСИҚА МАДАНИЯТИ ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ (фольклор, дostonчилик, мақом мисолида). *Science and innovation*, 1(C3), 31-38.
15. Abdusattorov, A. (2022). DIMITRIY DIMITRIYEVICH SHOSTAKOVICH IJODIDA POLIFONIYA. *Science and innovation*, 1(B6), 430-432.



16. Abdusattorov, A. About Makom Melodies Adapted for Orchestra of Uzbek Folk Instruments. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 2(11), 28-30.
17. Исаков, У. (2022). ЎЗБЕК МУСИҚА САНЪАТИ ВА УНИНГ ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ДУНЁҚАРАШИ ШАКЛЛАНИШИДА ТУТГАН ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 405-411.
18. Исаков, У. Т. (2022). ЎЗБЕК МУСИҚА МАДАНИЯТИ РИВОЖЛАНИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ, МАНБАЛАРИ ҲАМДА УНИ ЎРГАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ. *Science and innovation*, 1(1), 625-636.
19. Karimov, A., Mamaziyaev, K., Kholikova, G., Ergashev, A., & Kirgizov, I. (2021). Symbol Of Instruments In State Performance Served In Uzbekistan. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
20. Нурмухамеджанов, А. (2022). ЁШЛАР ИЖТИМОИЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШДА БЎШ ВАҚТДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 442-446.

## **АЖДОДЛАР ЙЎЛИ - МАЪНАВИЙ КАМОЛОТ БЕШИГИ**

**Юлдашева Нилуфар Абдуллаевна**

Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини

механизациялаш муҳандислари институти

Миллий тадқиқот университети *педагогика фанлари доктори (DSc)*,

**Кошназарова Малохат Алимовна**

Ўзбек тили ва адабиёт кафедраси ўқитувчиси

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada bugun amaldagi avlod o'rnini egallaydigan kelajak yoshlarining erkin fikrlashi muhimligi, bolalarni o'qitishdagi asosiy muammolar aniqlanligi, zamonaviy o'qitish usullari bilan o'tmish ta'lim-tarbiyasidagi o'xshash va farqli jihatlar taqqoslanishini ko'rish mumkin. Bu borada yangi avlod kadrlarini kasbga yo'naltirishda ta'lim metodlarini talabalar bilan muhokama qilish, amalda qo'llash orqali turli global mavzularni ilgari surishi mumkinligi ta'kidlanadi.*

*Maqolada ko'proq bola rivojlanishida ta'limning muhim roliga e'tibor qaratiladi. Qolaversa, maqolada o'z davrining eng ko'zga ko'ringan mutafakkirlari qarashlariga tayaniladi, shuningdek buyuk ajdodlarimiz o'gitlari asosida ko'plab foydali ma'lumotlardan bugungi kunda ham foydalanilayotganligi haqida fikr va xulosalar beriladi.*

*Ushbu maqola shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimi sohasidagi mutaxassislar uchun juda foydali bo'lib, yosh avlodni kengroq va mustaqil fikrlashiga erishishda samarali o'qitish tendensiyalarini rivojlantiradi.*

**Калим сўзлар:** *миллий таълим тизими, аждодлар ўғити, ёш авлод, туб услоҳотлар, илм-маърифат, маънавий асос, миллий қадриятлар, анъана ва урф-одатлар*

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье автор рассматривает концепцию важности свободомыслия молодого поколения, которое, соответственно, в дальнейшем займет место нынешних трудящихся. Выявлены ключевые проблемы неэффективности обучения детей, которые по аналогии можно заменить современными методами обучения, выдвигая различные глобальные темы для обсуждения со студентами.*

*Автор больше акцентирует внимание на том, какую важную роль играет образование в развитии ребенка. Кроме того, в статье делается вывод о том, что наши великие предки, считавшиеся самыми выдающимися учеными своего*

времени, оставили много полезной информации, которая используется и по сей день.

Данная статья может быть полезна специалистам в области детского образования, так как тут приводятся множество аргументов в пользу важности эффективного обучения для достижения более широкого мышления подрастающего поколения.

**Ключевые слова:** национальная система образования, воспитание предков, молодое поколение, коренные реформы, знания, духовная основа, национальные ценности, традиции и обычаи.

### **ABSTRACT**

*In the article, the author considers the concept of the importance of free-thinking of the young generation, which, accordingly, will take the place of today's workers in the future. The key problems of the inefficiency of teaching children are identified, which, by analogy, can be replaced by modern teaching methods, putting forward various global topics for discussion with students.*

*The author focuses more on the important role education plays in the development of the child. In addition, the article concludes that our great ancestors, who were considered the most outstanding scientists of their time, left a lot of useful information that is still used today.*

*This article may be useful to specialists in the field of children's education, as there are many arguments in favor of the importance of effective teaching to achieve a broader thinking of the younger generation.*

**Key words:** national education system, education of ancestors, young generation, fundamental reforms, knowledge, spiritual foundation, national values, traditions and customs.

### **КИРИШ**

Мамлакатимизда таълим тизими ҳар томонлама устувор соҳалардан бири эканлиги натижасида ўсиб келаётган ёш авлодни баркамол инсонлар этиб тарбиялаш учун замонавий даражадаги барча имкониятлар яратилмоқда. Янги Ўзбекистонда туб ислохотларни амалга ошириш жараёни узлуксиз таълим тизимига, жумладан, олий таълим тизими олдига ҳам янги вазифаларни қўйди. Дунёдаги глобал ўзгаришларни ҳисобга олиб, ҳаётий ва профессионал кўникмаларни илм-маърифат асосида сингдириш, мамлакатимиз ҳаётидаги реал ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар билан уйғун равишда уларнинг билимларини ошириб бориш, ён-атроф ва жаҳонда рўй бераётган ижтимоий-сиёсий жараёнларга миллий манфаатларимиздан келиб чиққан ҳолда ёндашиш, ички ва ташқи таҳдидларга қарши мафкуравий иммунитетни мустаҳкамлаш

масалаларига алоҳида эътибор қаратишни талаб этмоқда.

Ватанимиз мустақиллигининг маънавий асосларини мустаҳкамлаш, миллий кадриятларимиз, анъана ва урф-одатларимизни асраб-авайлаш, инсонлар, айниқса, ёш авлод қалби ва онгига халқига, она юртига муҳаббат, истиқлолга садоқат туйғуларини чуқур сингдириш масаласи бугунги кунда тобора долзарб аҳамият касб этмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев “Биз ёшларга доир давлат сиёсатини ҳеч оғишмасдан, қатъият билан давом эттирамиз. Нафақат давом эттирамиз, балки бу сиёсатни энг устувор вазифамиз сифатида бугун замон талаб қилаётган юксак даражага кўтарамиз. Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз”<sup>61</sup> деб таъкидлаганлар.

## **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Маълумки, жаҳон илм-фани ривожига улкан ҳисса қўшган буюк қомусий олимлар – Муҳаммад Мусо ал-Хоразмий, Абу Райҳон Беруний, Абу Наср Форобий, Абу Али ибн Сино, Аҳмад ал-Фарғоний, Мирзо Улуғбекларнинг илмий-маърифий қарашлари ҳам изчил билим олиш, мавжуд билимларни ўрганиш, ўзлаштирилган билимларни такрорлаш, машқ қилиш, турли тажрибаларни босқичма –босқич ўтказиш асосида шаклланган ва дунёда тан олинган.

Педагог олимларнинг фикрича, «... комил инсон қиёфасида акс этиши зарур бўлган сифатлар сирасида илмий билимлар ҳамда мутахассислик фанлари асосларини пухта ўзлаштириш, замонавий техника ва технологиялар, уларнинг хизматидан фойдалана олиш каби ҳолатларнинг намоён бўлиши малакали мутахассисни тайёрлаш борасидаги ижтимоий заруриятнинг моҳиятини ёритишга хизмат қилади». Шу туфайли касбий билимларни ўрганиш ҳамда ёш талабаларда ўз кўникма ва малакаларини ривожлантириб бориш эҳтиёжи юзага келади.

Ёшларга таълим-тарбия берилар экан, сабоқ берувчи ўқитувчининг касбий малакага эга бўлмаслиги, тажрибасизлиги, ёш авлодга сифатли таълим бериш, уларда юксак маънавий-ахлоқий сифатларни шакллантириш имкониятини чеклайди. Олий таълимда ёхуд узлуксиз таълим тизимида фаолият олиб бораётган ўқитувчилар, энг аввало, ёшларни замонавий билимлар билан

<sup>61</sup> Мирзиёев Ш.М.Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.- Т.,Ўзбекистон:НМИУ, 2016. 14-бет.

куроллантириши, мавжуд кўникма ҳамда малакаларини такомиллаштириши, шунингдек, уларни маънавий-ахлоқий сифатларини бойитиши мақсадга мувофиқдир. Бинобарин, ижтимоий, сиёсий, иқтисодий, маънавий ва маданий соҳаларда рўй бераётган тезкор ўзгаришлар, янгиланишлар мавжуд билимларни доимий равишда бойитиб бориш, кўникма ва малакаларни такомиллаштиришни тақозо этади. Шу сабабли ҳар бир мутахассис ўз устида тинимсиз ишлаши, билим ва малакаларини узлуксиз ошириб бориши лозим. Ушбу жараённинг самарали кечишида муҳим ўрин тутадиган асосий омиллар қуйидагича тавсифланади. Масалан, жамиятда айниқса, Янги Ўзбекистонда баркамол шахсни тарбиялашга қаратилган ижтимоий ҳаракат кенг кўламда йўлга қўйилаётган шароитда талабалар томонидан маънавият ва ахборот соатларининг пухта ўзлаштирилишига эришиш асосида ёшларда эстетик ҳис-туйғуларни шакллантириш, адабий таълим жараёнининг самарадорлигини ошириш учун эса, зарурий билим, кўникма ва малакаларини жаҳон стандартлари талабларига мувофиқ ошириш, уларнинг касбий тайёргарлигини ривожлантиришга етарлича эътибор қаратиш лозим. Айни вақтда олий таълимда ўқитиш тизимини самарали ташкил этишнинг энг мақбул йўли сифатида ўқув жараёнини янгича технологиялар, замонавий ёндашувлар асосида ташкил этиш лозимлиги алоҳида таъкидланмоқда.

Бугун узлуксиз таълим тизими ўсиб бораётган, ривожланаётган, эркин фикрловчи ва баркамол авлод тараққиётининг ҳар босқичида ўзига хос тарзда тафаккур ҳамда фаолият мустақиллигини таъминлаши ва танлаган касбига мос, ёшларнинг ёшига яраша билим, кўникма, малака ҳамда маънавий сифатларни шакллантиришига шарқ таълим-тарбия тизимида алоҳида эътибор қаратилганлигини бир зум бўлсада, ёддан чиқармаслик лозим. Бундан ташқари, Шарқ алломаларининг асарларида ёшларнинг билим ва касб танлашига бўлган қизиқишини фаоллаштириш ва унда мантиқий-мустақил фикрлашни шакллантириш мақсади етакчилик қилгани ҳам кўзга ташланади.

Шу ўринда Форобийнинг фикрича, таълим-тарбия жараёнининг ҳар босқичида таълим олувчиларнинг билимларни ўзлаштириши ўзига хос тарзда фикрлаш, тасаввур қилиш ва ҳис этиш орқали амалга ошади. Инсон туғилганидан фикрлаш қувватига эга бўлади ва у боланинг ўсиши билан ривожланиб боради. Олимнинг фикрича, инсон ақлига сиғадиган тушунчаларнинг киши онгида сақланиб қолиши билишнинг натижаси саналади. Форобий айтадики: “Болада катта имкониятларга эга кўнгил бор. У ҳис-туйғуга, тафаккур орқали англаш хусусиятига эга. Ҳиссиёт ва тафаккур билан жисмлар тушунилади,”– деган ғояни изчил илгари суради ва асослайди.



Шарқ мутафаккирларининг таълим-тарбия ҳақидаги қарашлари ўрганилган манба ва адабиётлардан аён бўлдики, Ибн Сино таълимда билимларни ўзлаштириш ҳис этиш йўли билан амалга оширилганда, катта самара беришини алоҳида таъкидлаган ва бунга доир кўплаб амалий фактлар билан исботлашга ҳаракат қилади. Бу жараён дахл қилиш, ушлаб кўриш, бевосита иштирок этиш, амалда синаб кўриш йўли билан тадбиқ зарурлигини назарий ва амалий жиҳатдан асослаган.

Етук аллома Ибн Синонинг қарашларига кўра, ўқувчи билими асосида мантиқий фикрлаш, шахсий кузатиш ва тажриба ётади. Беназир олим таълим-тарбияда эркинлик бўлишига эътибор қаратган. Эркинлик ўз-ўзидан тафаккур мустақиллигини таъминлайди, фикр кишисини тарбиялайди, шахснинг маънавий камолотига сабаб бўлади. Мутафаккир устоз шогирдининг айрича хусусиятларини инобатга олиши, уларни ўзининг билимдонлиги, шахси билан қизиқтириши, таълимнинг турли методларидан фойдаланиши керак деб ҳисоблаган. Билимларни шогирдлар туйғулари орқали ҳиссий ўзлаштириши учун ўқитувчининг ҳар бир сўзи имо-ишора ва юз ҳаракатлари билан мос бўлиши кераклигини таъкидлаган. Фикрлаш хусусида сўз юритиб, унинг мантиққа асосланиши лозимлигини айтган. Олим фикрича, мантиқ фикрлашнинг курали ва инеъкосидир. Борлиқни англаш мантиққа асосланиши кераклигини Ибн Сино алоҳида таъкидлаган<sup>62</sup>. Умар Хайём таъбирича, мустақил фикрлаш ўқувчи – талаба тараққиётининг ҳар бир босқичида ўзига хос тарзда намоён бўлишини алоҳида таъкидлаган. У ўзидан аввалги олимларнинг ишларини ўрганиб, уларда ўқувчи- талабани «безовта қилиш», қизиқтириш учун мустақил фикрлаш, билимларни онгли равишда ўзлаштириш билан боғлиқ қарашларнинг йўқлиги номаъқул эканига диққат қаратади. Шунингдек, Умар Хайём у ёки бу математик ҳолатларни тушунтиришда эркин ёндашув зарурлигини қайд этган ва ўқувчи-талабани таълим жараёни давомида муттасил равишда мустақил фикрлашга даъват қилиб, йўналтириб турилиши кераклигини мисоллар орқали кўрсатган. Олим махсус йўллар билан таълим олувчиларни мустақил мулоҳаза юритишга одатлантириш, масалани ўзи ҳал қилишига ўргатиш зарурлигини кўрсатган.

Яна Ибн Синога юзлансак: “агар ёмон хулқ одатга кириб қолса, у мижоз бузилишини келтириб чиқаради. Масалан, ғазаб кучли қиздиради, қайғу кучли оздиради, ҳафсаласизлик нафсоний қувватни бўшаштириб, мижозни балғамликка мойил қилади. Хулқнинг мўътадиллиги натижасида, ҳам нафас,

<sup>62</sup> Рахимов С. Педагогические идеи Абу Али ибн Сино. Автореф. дисс... канд. пед. наук. –Т., 1964. Рахимов С. Абу Али ибн Сино таълим-тарбия ҳақида. –Т.: “Ўқитувчи”, 1967.

ҳам бадан соғлом бўлади”<sup>63</sup>. Ибн Сино ахлоққа оид кўплаб муаммоларни одамнинг рухий ҳолати ва маънавий хоссаларининг ҳис-ҳаяжонли пайдо бўлиши асосида талқин этади. Фитрат мазкур асарининг иккинчи қисмида фарзанд тарбияси ҳақида ёзади. “Оиладаги энг оғир вазифа бола туғилгандан кейинги фарзанд тарбиясидир... Бани Одамнинг сиёсий, диний, ижтимоий инқилобларининг асоси ана шу икки сўз – “бола тарбияси”дан иборат бирикмага боғлиқ. Бу халқнинг ҳаракат қилиши, давлатманд бўлиши, бахтли бўлиб иззат-ҳурмат топиши, жаҳонгир бўлиши, заиф бўлиб хорликка тушиши, фақирлик жомасини кийиб, бахтсизлик юқини тортиб, эътибордан қолиши, ўзгаларга тобе, қул ва асир бўлиши, болалиқдан ўз ота-оналаридан олган тарбияларига боғлиқ”<sup>64</sup>, - дейди.

Абдулла Авлоний ҳам таълим-тарбиға оид илғор қарашларни илгари сурган. Унинг илмий мероси бой бўлиб, “Биринчи муаллим”, “Иккинчи муаллим”, “Туркий гулистон ёхуд ахлоқ”, “Мактаб гулистони” каби асарларида “ақлнинг боласи ақлли, аҳмоқнинг боласи аҳмоқ” каби ақидаларга қарши чиқади ва тарбиянинг ҳал қилувчи аҳамиятини алоҳида таъкидлайди. Авлоний тарбияни шундай тушунтиради: “Тарбия”, “педагогика”, яъни бола тарбиясининг фани демакдур. Болани саломати ва саодати учун яхши тарбия қилмак, танини пок тутмак, ёш вақтидан маслакни тузатмак, яхши хулқларни ўргатмак, ёмон хулқлардан асраб ўздурмакдур”<sup>65</sup>.

Жумладан, фикр тарбияси, унинг мустақиллигини шакллантириш ва ривожлантириш, таълим-тарбия жараёнидаги ўқувчи мустақиллиги ҳамisha устозларнинг зиммасидаги муқаддас бир вазифа эканлиги, миллатнинг илғор зиёлийлари диққат марказида бўлиши кераклигини уқтиради<sup>66</sup>. Фақат шўролар мактаби, собиқ совет даврида бу масала таълим тизимида иккинчи ўринга туширилган.

Маълумки, болалар мактабгача бўлган даврида фавқулодда ижодкорлик хусусиятига эга бўладилар. 5-6 ёшида она тилини тўлиқ ўзлаштириб оладилар, ўзларининг амалий фаолиятлари ва борлиқни англашлари учун зарур бўлган ҳар хил маълумотларга эга бўладилар. Уларнинг бу даврдаги тараққиёти ҳеч қандай, одатда, мунтазам ўқитиш ишларисиз, катталар ва тенгдошлари билан мулоқоти жараёнида амалга ошади. Болалар мактаб ҳаётига кириб келганларида, уларнинг фаолияти дастурлар асосида тизимли билим олишга ўтганда бир қадар ўзгаради. Бизнингча, бу ўқиш-ўрганиш жараёнида

<sup>63</sup> Ўша китоб.

<sup>64</sup> Абдурауф Фитрат. Оила ёки ... –Б. 55..

<sup>5</sup> Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. –Б. 12.

<sup>66</sup> Ўрта Осиёда педагогик фикр тараққиётдан лавҳалар. – Тошкент: Фан, 1996. –Б. 276

табийликнинг бузилгани, унга сунъийлик аралашуви туфайли содир бўлади. Бола мактабга киргач, унинг мустақиллиги, ўз интеллектуал даражасидаги фикрлаши ва ихтиёрий фаолияти маълум даражада чекланади. Ундан мактаб талабларига мувофиқ иш юритиш талаб этилади.

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, бола айрим ҳолларда ҳатто мустақил равишда мулоҳаза юритишни унутиб қўйиши ҳам мумкин. Чунки унинг ўрнига мактабда, лицей ёки коллежда ўқитувчи ўйлайди. Педагог болалар ўзлаштиришлари лозим бўлган билимларни тайёр ҳолда беради, саволлар қўяди, берилиши лозим бўлган жавоблар вариантларини ўқувчига таклиф этади ҳамда бериладиган савол ва топшириқларнинг ечилиш йўллари тавсия этади. Шу ўринда ўқувчи ўрганилаётган ўқув материални эслаб қолиши, уни уйда такрорлаши ва мустақамлаш машқларини бажариши лозим бўлади холос. Ўз-ўзидан бундай таълим ўқувчидан ижодий фикрлашни талаб қилмайди. Таълим жараёнида ўқитувчи имкон қадар кенгроқ, чуқурроқ билим беришга ҳаракат қилгани туфайли ўқувчида унга савол бериш эҳтиёжи ҳам йўқола боради. Ана шундай мезонлар орқали саҳналаштирилган дарс жараёни, ўқитувчи томонидан берилган билим, аввало, бола учун янги, қолаверса, ўқитувчи бу янгиликни қатор илмий асослар ва исботлар билан тушунтириб бериши каби тизим айрим ҳолларда бузилади. Болаларга бу тарзда сингдирилган билим, кўникма, малака ва маънавий сифатлар уларни доимий хизмат кўрсатилиши лозим бўлган истеъмолчига ёки “тайёрига айёр” боқиманда ўқувчига айлантириб қўяди. Мисол келтирсак, ўқувчининг мактабда олаётган билими баъзан гўдакка чайнаб берилган овқатга ўхшаб кетади. Бу тизим орқали таълим боладан билимларни мустақил равишда ижодий ўрганишни талаб қилмайди. Бир неча йиллик шундай ўқитиш натижасида ёшлар мустақил равишда бирор қадам ҳам босолмайдиган фаолиятсиз кимсага айланади. Натижада у ҳар қандай ақлий зўриқишдан ўзини торта бошлайди, бундай зўриқишни яқинлари бўлмиш ҳамкорлари, қўллаб-қувватловчилар яъни ўқитувчи, ота-она, ўртоқларининг зиммасига орта бошлайди. Бундай ўқувчи-ёшлар, табиийки, бирор ишни бажаришдан завқ, лаззат ёки қониқиш ҳам туймайдилар.

Айни ўспиринлик даври узлуксиз таълим босқичларидаги фикрлашнинг мустақиллиги даражаси уларга яратилган шароит туфайли кучаяди ёки сусаяди. Шу боисдан уларнинг руҳий тараққиёти ҳар хил шароит ва босқичларда турлича амалга ошади. Бунда катталар эътибор бериши лозим бўлган жиҳатлар: боланинг ривожланишидаги ёши билан боғлиқ хусусиятлар, тафаккурининг мустақиллиги чегараси ва даражаси ҳар бир ёшда ўзига хос индивидуал тарзда

бўлиши таълим жараёнининг ҳар босқичида, ҳар бир дарсада қатъий ҳисобга олиниши лозим. Бу соғлом маънавийлиги шахсни шакллантириш шартларидан энг муҳими саналади.

Маълумки, ҳар бир инсонга хос бўлган ривожланиш даражаси ҳамisha шарт-шароит, муҳит билан чамбарчас боғлиқ бўлади. Шунинг учун ҳам педагог-ўқитувчи ўқувчилар фикрлашининг ташқи муҳит билан алоқасини аниқлаши ва мувофиқлаштириши, унинг йўналишларини бошқара олиши керак. Бу фаолиятнинг сифати, яъни ўқувчи-педагогнинг маънавий соғломлашуви даражаси унинг дастлабки хатти-ҳаракатларидаёқ кўрина бошлайди. Ҳаётий билимларни ўзлаштириш – нарса-ҳодисалар хусусиятлари ва бутун, бўлак, қисмлар ўртасидаги уйғунликнинг сезги органларига ва туйғуларга бевосита таъсири ҳамда онга кўчишидир. Бевосита ўзлаштириш жараёни мустақил тафаккур, тасаввур, нутқ, ҳиссиёт ва ирода орқали амалга ошади, юзага чиқади ҳамда намаён бўлади.

## **ХУЛОСА**

Ҳаётий сабоқлар шуни кўрсатадики, инсон таълим жараёнида ҳам худди меҳнат фаолиятидаги сингари жуда камдан кам ҳолатларда фақат хотирасининг қувватига таянади.

Таълим жараёни тажриба, хотира, тасаввур, хаёлот олами, онг ва эҳтирос билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, бундай вазиятда инсоннинг ақли фаол ҳаракатда бўлади. Ақл ўқув-билув жараёнига фаол аралашади, аниқлик киритади, қабул қилади ёки рад этади, яратади ёхуд бузади. Бу жараён инсон ақлининг фаолияти – фикрлаши, тафаккури маҳсули саналади. Барчамизга маълумки, ақл хотиржамликда, сокинликда эмас курашларда ривожланади. Шу ўринда ёшлар ҳаётга умид билан қараши, ўз ҳаётида дуч келадиган ҳар хил қийинчиликлар билан кураша олиши мумкинлигига ўзи ишониши керак.

Дарҳақиқат, санъатнинг кўп турлари инсонда борлиқни туйғулар орқали билиш қобилиятини шакллантиради ва ривожлантиради. Бу қобилият ҳар қандай соҳа мутахассиси учун айниқса, бўлажак мутахассис, етук кадр учун ўта зарур.

Талабчанлик ва танқидийлик ёшлар тафаккурининг асосий хусусиятларидан бўлиб, у ўзга фикрларни турли баҳоналар, сабаблар билан йўққа чиқаришга қаратилганлиги билан характерлидир. Бунинг олдини олиш учун педагогика, маънавийят, ахборот дарсларида, соатларида ўқувчилар ўз қарашларини далиллар кўмагида асослашга одатлантирилиши керак. Талаба ўзи ҳукм чиқариб, унинг тўғри эканини ўзи исботлай олиши мақсаднинг муддаосини белгилайди.

Ҳаётий тажрибалар орқали, талаба тафаккури тўғри ривожланиши учун уни тўғри таъриф беришга, таҳлил қилишга, таққослашга, умумлаштиришга одатлантириш, ўз фикрини тўғри, равон, аниқ ифодалаш ва асослашга ўргатиш, мустақил равишда ҳукм, хулоса чиқариш, мулоҳаза юритишга йўналтириш керак. Мустақил фикр юритишнинг бундай шакллари уларда ақлий кўникма ва малакаларни ўстиради. Натижада, касбий компетенцияси юқори бўлган ёшларда ақлий ривожланиш, маънавий етуклик амалга оширилади ҳамда замонавий тафаккур қила оладиган, келажак ворислари, янги Ўзбекистон фуқароси камол топади.

### **REFERENCES**

1. Мирзиёев Ш.М.Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.- Т.,Ўзбекистон:НМИУ, 2016. 14-бет.
2. Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари – Тошкент: Маънавият, 2000. –Б. 55.
3. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. –Б. 12.
4. Ўрта Осиёда педагогик фикр тараққиётдан лавҳалар. – Тошкент: Фан, 1996. –Б. 276.
5. Рахимов С. Педагогические идеи Абу Али ибн Сино. Автореф. дисс... канд. пед. наук. –Т., 1964.
6. Рахимов С. Абу Али ибн Сино таълим-тарбия ҳақида. –Т.: “Ўқитувчи”, 1967



## ЖАНРОВОЕ СВОЕОБРАЗИЕ АНТИУТОПИИ В РОМАНЕ Т.ТОЛСТОЙ «КЫСЬ»

Исламова Ситора Базарбаевна

Тошкентский государственный университет  
имена Низами Факультет Языков 2-курс магистрантка

Научный руководитель:

**А.С. Лиходзиевский**

д.ф.н. доцент Узбекского государственного  
университета мировых языков

### АННОТАЦИЯ

*Антиуто́пия (от «анти-» и «утопия»), также дисто́пия (dystopia, букв. «плохое место» от греч. δυν «отрицание» + греч. τόπος «место» или какото́пия (kakotopia или cacotopia от греч. κακός «плохой» — изображение общественного строя или сообщества, представляющегося автору или критику нежелательным, отталкивающим или пугающим. Является противоположностью утопии или её деривацией.*

### ABSTRACT

*Dystopia (from "anti-" and "utopia"), also dystopia (dystopia, lit. "bad place" from Greek. δυν "negation" + Greek. τπος "place" or cacotopia (kakotopia or cacotopia from Greek. κακός "bad" — an image of a social system or community that appears to the author or critic undesirable, repulsive or frightening. It is the opposite of utopia or its derivation.*

*«Сидит она на темных ветвях и кричит так дико и жалобно: кы-ысь! кы-ысь! — а видеть её никто не может. Пойдет человек так вот в лес, а она ему на шею-то сзади: хоп! и хребтину зубами: хреть! — а когтем главную-то жилочку нащупает и перервёт, и весь разум из человека и выйдет».*

*Татьяна Толстая. «Кысь»*

**Антиутопия** — это является противоположностью утопии и как жанр зачастую используется, чтобы обратить внимание на реальные для автора проблемы в окружающей среде. В литературоведении XX—XXI веков антиутопии, как и утопии, рассматриваются в ряду жанров научной фантастики. Когда мы читаем современной литературы, что можем увидеть антиутопии. Вот например возьмём произведение «Кысь» Татьяны Толстой.

Роман был задуман в 1986 году после чернобыльской катастрофы. Писался 14 лет — с большими перерывами, иногда по четыре года. Потому что

автор Толстая объясняет такой срок написания романа сложностью выработки языка, характерного для его персонажей. Я прочитала роман и мне понравилась именно вот это антиутопии. Который роман «Кысь» — называется этноцентрированная постапокалиптическая антиутопия Т. Н. Толстого. В романе рассказывается про то, что может произойти с Россией после ядерной войны. Роман насквозь пропитан иронией и сарказмом. Если бы читателя произведение читают, что перед глазами сразу вымышляют роман персонажей. В это романе только что не антиутопии, не только мы можем увидеть «сложное жанровое образование, включающее элементы памфлета, фантастики, философского исследования и мифологии» Действие происходит в отдаленном будущем, после глобальной ядерной войны, на месте нынешней Москвы, где в сказочном дикарско-тоталитарном государстве проживают разного рода мутанты, появившиеся на свет уже в новую эпоху так называемые голубчики, которых отличает удручающе низкий уровень умственного развития, питаются эти существа преимущественно мышами, а также и небольшое количество «прежних», которые в результате мутации обрели бессмертие и помнят разрушенную культуру; они пытаются просвещать и облагораживать голубчиков, но без особого успеха.

Главный герой романа, юный Бенедикт, родился в результате мезальянса: мать его потомственная московская интеллигентка из «прежних», а отец голубчик-мутант. Бенедикт, давно уже осиротевший, служит переписчиком книг. Печатные же издания находятся под запретом, а за нарушителями-книгочеями охотятся инквизиторы — так называемые Санитары. Бенедикт — фанатичный читатель, боготворящий книги. По ходу развертывания сюжета происходит печальная эволюция героя: «“благословенный” русский мальчик, жадный до высокого слова и готовый жизнь положить за “главную книгу”, оказывается одним из главных Санитаров» .

В произведение главный образ — это Кысь. И читателю стало вопрос, что это такой? Это какой вещь? Ну дальше несколько вопросы появились У меня тоже появилась вопрос и сама тоже про это долго думала, Ну когда прочитала все это романа после этого поняла, что Кысь некоего страшного существа — проходит сквозь весь роман, периодически возникая в представлении и мыслях Бенедикта. Сама Кысь в романе не фигурирует, вероятно, являясь плодом воображения персонажей, воплощением страха перед неизвестным и непонятым, перед тёмными сторонами собственной души. В представлении героев романа Кысь невидима и обитает в дремучих северных лесах.

«Кысь» с позиций постмодерна – как окончательный разрыв Толстой с необарочной модернистской традицией<sup>1</sup>. По их мнению, Толстая внушает читателям характерную для постмодерна «мысль о продуктивности забвения», «создаёт русский вариант деконструкции, переводит Деррида на звучный язык русского сказа и русской сказки». «Кысь» не может считаться антиутопией, поскольку Толстая не преследует цель моделирования будущего, а «блистательно передаёт сегодняшний кризис языка, посткоммунистический распад иерархических отношений в культуре». В сознании главного героя романа нет места истории, а оттого для него всё одинаково в новинку. Книги в его библиотеке сгруппированы не по смыслу и даже не по алфавиту, а по случайному созвучию заголовков. «Авторитетные мифы культуры» вовлекаются в «сказочную игру с этими мифами». Так, частое упоминание на страницах книги мышей связано с тем, что «в античной мифологии мышь была символом забвения, и всё, к чему мышь прикасалась, исчезало из памяти».

#### **REFERENCES**

1. «Непальцы и мюмзики», интервью Т. Толсто журналу «Афиша» (вошло в книгу «Двое»).
2. Tatiana Tolstaya at the Russian School / Татьяна Толстая в Русской школе - YouTube
3. Лейдерман Н. Л. и Липовецкий М. Н. Современная русская литература. Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. М., 2003. Т. 2. С. 473—477.
4. «Мюмзики и Нострадамус», интервью Т. Толстой газете «Московские новости». См.: Н. Толстая, Т. Толстая. Двое. М.: Подкова, 2001. С. 422.
5. Наталья Иванова. И птицу паулин изрубить на каклеты
6. Борис Парамонов о "Кыси"
7. Лестница успехов / Культура / Независимая газета
8. Пушкин с маленькой буквы — Журнальный зал
9. Путешествие в страну мертвых — Журнальный зал
10. А. Немзер. Замечательное десятилетие русской литературы. М.: Захаров, 2003. С. 462.

**УЎТ 631.52. 633.16**

**ЗАМОНАВИЙ ИННОВАЦИОН УСУЛЛАР ҚЎЛЛАНГАН ҲОЛДА  
“АДИР” АРПА НАВИНИНГ ОРИГИНАЛ УРУҒЛАРИНИ ЖОРИЙ  
ҚИЛИШ НАТИЖАЛАРИ**

**Т.Маматқулов**

қишлоқ хўжалик фанлари доктори

**З.И.Усаров**

қишлоқ хўжалик фанлари бўйича фалсафа доктори

Лалмикор деҳқончилик илмий-тадқиқот институти

**АННОТАЦИЯ**

*Мақолада Лалмикор деҳқончилик илмий-тадқиқот институтида яратилган “Адир” арпа навининг бошланғич уруғчилигини йўлга қўйиш ва жорий қилиш натижалари келтирилган.*

***Калит сўзлар:** Авлод, баҳолаш, белги, бирламчи уруғчилик, навдорлик, дала кўриги, касаллик, кузатув, кўпайтириш, лаборатория кўриги, негатив танлаш, оила, танлаш, тизим, уруғлик, уруғчилик, уруғчилик схемаси, фенология, ҳосил, ҳосилдорлик, биринчи йил кўпайтириш, якка танлаш.*

**ANNOTATION**

*The article presents the results of the creation and implementation of the initial sowing of the barley variety "Adir", created at the Scientific Research Institute of Agriculture "Lalmikor".*

***Keywords:** Generation, assessment, trait, primary seed productivity, yield, field survey, disease, observation, reproduction, laboratory examination, negative selection, family, selection, system, seeds, seed science, seed production scheme, phenology, yield, yield, first breeding year, single selection.*

**КИРИШ**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги ПФ-5853-сон “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги фармони ва 2019 йил 16 февралдаги ЎРҚ-521-сон «Уруғчилик тўғрисида»ги қонуни ҳамда мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишда экологик иқлим ўзгаришлари натижасида кузатилаётган атмосфера қурғоқчилиги, сув ресурсларининг чекланганлиги туфайли арпа навларини яратишда бошланғич манбаларни тўғри

танлаш ва улардан селекция усулларидаан фойдаланилган ҳолда янги тизмалар ва навларини яратиш ҳамда ишлаб чиқаришга жорий этиш муҳим вазифалардан ҳисобланади.

Дунё қишлоқ хўжалиги амалиётида арпанинг янги навларини яратишда қурғоқчилик, касаллик ва зараркунандаларга бардошли, ҳосилдорлиги ва донининг технологик сифат кўрсаткичлари юқори бўлган нав намуналаридан фойдаланишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Муस्ताқил ҳамдўстлик мамлакатларида ҳозирги кунга қадар арпанинг 100 дан ортиқ баҳорги ва 40 дан ортиқ кузги навлари районлаштирилган. Шунингдек, Россия, Украина, Қозоғистон, Ўзбекистон, Туркия, Швеция, Белоруссия, Германия, Словения, Дания, Белгия, Франция каби мамлакатларда арпа селекциясини янада ривожлантириш учун селекция ва генетик ишларини физиологик тадқиқотлар билан боғлиқ ҳолда олиб борилмоқда. Шу сабабдан, арпанинг янги навларини яратишда дунё генофондидан ҳамда навларидан кенг фойдаланилган ҳолда эртапишар, серҳосил, ташқи муҳитнинг кескин ўзгарувчан омилларига, касаллик ва зараркунандаларга бардошли, сув танқислиги шароитларида етиштиришга мос, энг муҳими юқори сифатли навларини тезроқ яратиш имконини беради.

### **АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ**

Уруғчиликни тўғри йўлга қўйиш ҳосилдорликнинг камида 20% ошишига олиб келади. Навлар янгиланиш жараёни қанчалик тез амалга оширилса, натижа шунчалик самарали бўлади (Г.В.Гуляев, 1992).

Уруғчилик қишлоқ хўжалик ишлаб чиқаришининг махсус тармоғи бўлиб, экинларнинг ҳосилдорлигини ошириш ва яратилган янги навларни ишлаб чиқаришга жорий этиш ҳамда бу навларнинг сифатли маҳсулдор уруғларини кўпайтириш билан шуғулланади (Уразалиев Р.А. 1993).

Кўпгина адабиётлардан келтирилган маълумотлардан кўринишича, Қурбонов Ғ.Қ. (2001) йирик уруғнинг дала шароитида униб чиқиш даражаси ортиқ бўлади, бундай уруғдан бақувват кўчат олинади ва у яхши туплайди, серҳосил бўлади, бинобарин озикланиш майдонини бирмунча ортиқроқ талаб қилади. Шунинг учун ҳам юқори ҳосил олиш учун экиладиган уруғлик миқдори йирикликдаги уруғларга нисбатан бир қадар кам бўлиши керак.

### **ТАДҚИҚОТ УСЛУБЛАРИ**

Бирламчи уруғчилик схемаси тажриба майдонларини экишга тайёрлаш, экиш, озиклантириш каби агротехник тадбирлар Лалмикор деҳқончилик илмий-



тадқиқот институтида (2004) ишлаб чиқилган услубий қўлланмасидан фойдаланилди.

Илмий-тадқиқот ишлари кузатиш, ҳисоблаш ва таҳлиллар авлод кўчатзорларига танлаш, навга хос бўлган ўсимликларни ажратиб олишда «Практикум по селекции и семеноводству полевых культур» (1987), ҳалқаро классификатор (1983) ва маълумотлар Б.А.Доспехов (1985) бўйича математик статистик таҳлил қилинди.

Навларнинг қишга ва совуққа чидамлилиги дала шароитида униб чиққандан кейин ва қишлаб чиққандан сўнг қолганлари санаб чиқиб, баҳоланди.

### **ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ**

#### **“Адир” навининг биринчи йил авлодларни синаш кўчатзори.**

Биринчи йил авлодларини синаш кўчатзорига 2021 ва 2022 йиллари “Адир” навининг навдорлиги ва нав тозалиги қори бўлган экинзорларида ҳар йили 1200 тадан бошоқ танлаб олиниб, улар маҳсулдорлик кўрсаткичлари: бошоқ узунлиги, бошоқчалар сони, битта бошоқдаги дон сони ва вазни белгилари ўрганилди. Ушбу кўрсаткичлар бўйича юқори ва жуда юқори кўрсаткичларга эга бўлган 1000 та дан бошоқлар ҳар йили танлаб олинди ҳамда “Адир” навининг биринчи йил авлодларини синаш кўчатзорига экилди.

2020-2021 қишлоқ хўжалиги йилида ёғин миқдорининг куз ойларида: октябр ойида ёғингарчилик бўлмаганлиги, ноябр ойида 48,0 мм ёғин миқдори бўлсада иккинчи ва учинчи ўн кунлигида ҳаво ҳарорати мос равишда  $-2,3^{\circ}\text{C}$ ,  $-3,0^{\circ}\text{C}$ , минимал ҳаво ҳарорати ўртача  $-16,8^{\circ}\text{C}$ ,  $-24,0^{\circ}\text{C}$ , максимал ҳаво ҳарорати  $6,5^{\circ}\text{C}$ ,  $15^{\circ}\text{C}$  бўлиши натижасида арпа майсаларининг униб чиқиши учун қулай (қўқариб олиш учун энг паст  $1-2^{\circ}\text{C}$ , энг юқори  $30^{\circ}\text{C}$ , энг қулай  $25^{\circ}\text{C}$ ) об-ҳаво шароити бўлганлиги сабабли униб чиқиш, қишлаш учун салбий таъсир кўрсатди.

Декабр ойида ўртача ҳаво ҳарорати кўп йилликка нисбатан ( $0,5^{\circ}\text{C}$ )  $-0,8^{\circ}\text{C}$  паст, минимал ҳарорат  $-10^{\circ}\text{C}$ , ёғин миқдори кўп йилликка нисбатан 44,6 мм кам бўлганлиги туфайли ниш отган уруғларда, совуқдан зарарланиш, нам нам етишмаган тупроқда уруғ узоқ вақт туриб қолиб ўз ҳисобига озикланиши, нам етишмаслиги уруғлар яшаш учун 1000 атмосферада куч билан сувни шимиши натижасида уруғларнинг униб чиқиши учун ҳимоя қиладиган биринчи барг ёрилиб, унинг унувчанлик қобиляти бутунлай йўқотилишига олиб келди.

Тупроқнинг намлик ва ҳаво ҳарорати даражаси бир-бирига мувофиқ равишда қулай бўлмаганлиги уруғнинг унишида нишларнинг ва майсаларнинг

дастлабки физиологик бузилишдарига сабаб бўлди ва уларнинг ҳаётчанлиги сусайди. Натижада ўсимликларнинг сийракланишига олиб келди.

Январ ойининг иккинчи ўн кунлигидан бошлаб максимал ҳаво ҳарорати 16,3 °С илиқ келиши туфайли совуқдан зарарланмаган, униб чиқиш қобилиятини сақлаб қолган уруғларнинг униб чиқиши қайд этилди.

2021-2022 қишлоқ хўжалик йилида ҳам куз, қиш фаслларида об-ҳаво шароитларининг ноқулай келиши сабабли 19-25 феврал кунлари униб чиқиш қайд этилди.

2020-2021, 2021-2022 қишлоқ хўжалик йилларида куз фаслларида тупроқ қурғоқчилиги бўлганлиги туфайли нав ва тизмалар уруғларининг ниш отиш даврида қишлаш сабабли тизмаларнинг қишлашга чидамлик даражаси бўйича дала шароитида баҳолаш учун яхши имконият яратилди.

Гуруҳларга ажратиб баҳолашда халқаро классификатордан (*Hordeum L.*) (1983) фойдаланилди.

Адир навининг биринчи йил авлодларини синаш кўчатзорида қишлашга чидамлик хусусияти паст (3) дан жуда юқори (9 балл) оралиғида бўлганлиги аниқланди. 2021 йилдаги таҳлилларга кўра паст (31-50 %) гуруҳга 5 та (0,57 %), ўрта гуруҳга 232 та (26,5 %), юқори гуруҳга 623 та (71,28 %), жуда юқори гуруҳга 14 та (1,6 %), 2022 йилда ўртача гуруҳга 160 та (16,9 %), юқори гуруҳга 600 та (60,0 %), жуда юқори гуруҳга 321 та (23,1 %) тизмалар мансублиги аниқланди. Бу албатт ушбу йўналишда лабораторияда қишлашга бардошли навлар яратиш борасида селекция ишлари алоҳида эътибор беришдан деб изоҳлаймиз (1-жадвал).

**1-жадвал.**

**Адир навининг биринчи йил авлодларини синаш кўчатзорида авлодларнинг қишлашга чидамлик хусусияти бўйича гуруҳларга тақсимланиши.**

Т/р	Нав	Йиллар	Авлодлар сони, дона	Қишлашга чидамлик бўйича гуруҳлар, дона				
				Жуда паст (<30,0%)	Паст (31-50%)	Ўртача (51-70,0%)	Юқори (71-90%)	Жуда юқори (>90,0%)
1	Адир	2021	874		5	232	623	14
2	Адир	2022	1000			169	600	231

Арпа экини бўйича фарқланиш, ўхшашлик ва барқарорлик мезонларига синов ўтказиш қўлланмаси асосан Адир навининг белги ва хусусиятларига кўра энг яқин бўлган Лалмикор навидан фарқлари (стандарт навдан) дала кўриклари бўйича куйидагича (2-жадвал).

**2-жадвал**

**Адир навининг биринчи йил авлодларини синаш кўчатзорида  
авлодларни фарқлаш ва барқарорлик мезонлари бўйича баҳолаш.**

Кўриқлар номи	Морфологик белгилари															
	3. Усимликлар кузатишда ён барглarning эгишганлиги		4. Ён барг: қулоқчаларининг аннотацион ранги		5. Ён барг: қулоқчаларининг аннотацион рангининг жалалиги		14. Бошоқ шакли		15. Бошоқ зичлиги		19. Бошоқ рўваги: биринчи бўғим эгишганлиги		20. Бошоқ рўваги: бўғимдаги эгишганлиги		Дон шакли	
	я	н	я	н	я	н	я	н	я	н	я	н	я	н	я	н
2021 йил																
1-дала кўриги	65	809	62	747	78	699										
2-дала кўриги							30	669	26	643	25	618				
Лаборатория кўриги												1	617	2	615	
2022 йил																
1-дала кўриги	11	989	8	981	7	974										
2-дала кўриги							18	956	17	939	16	923				
Лаборатория кўриги												3	920	2	918	

Биринчи дала кўригида натижалари кўра 2021 йил Адир навининг 3,4,5 рақамли морфологик белгилари бўйича жами 175 та яроқсиз 699 навдор, 2022 йилда мос равишда 26, 974, иккинчи дала кўригида 14,15,19 рақамли белгилар бўйича 2021 йилда 81 та яроқсиз, 618 та навдор, 2022 йилга мос равишда 51, 923, лаборатория кўригида 2021 йилда 3 яроқсиз, 615 навдор, 2022 йилга тегишлиси 5, 918. Жами Адир навининг морфологик белгилари хос 2021 йилда 615 та, 2022 йилда 918 та тизмалар иккинчи йил авлодлар кўчатзорига ўтказиш учун танлаб олинди.

Биринчи йил авлодларини синаш кўчатзори, 2021-2022 йиллари Адир навидан якка танлаш усулида танлаб олинган авлодлар 16-18 ноябрда экилди. Тажриба майдонида олиб борилган кузатувлар натижасига кўра уруғ экилгандан униб чиққангача 2021 йилда 63-64 кун, 2022 йилда 99-100 кун, уруғ

униб чиққандан бошоқлашгача 2021 йилда 171-172 кун, 2022 йилда 170-171 кун, уруғ униб чиққандан пишишгача 2021 йилда 212-213 кун, 2022 йилда 213-214 кунни ташкил этиши аниқланди (3-жадвал) .

### 3-жадвал

#### Адир навининг биринчи йил авлодларини синаш кўчатзорида вегетация даври.

Йиллар	Экилган авлодлар сони, дон	Уруғ			Туплаш, кун	Бошоқлаш, кун	Бошоқлашгача бўлган, кун	Мум пишиш, кун	Мум пишишгача бўлган, кун	Пишиш, кун	Пишишгача бўлган, кун
		Экилган муддат, кун	Униб чиқиши,	Униб чиққан гача бўлган, кун							
2021 й.	1000	16-17.11	18-19.01	63-64	8-9.02	6-7.05	171-172	1-2.06	197-198	16-17.06	212-213
2022 й.	1000	17-18.11	24-25.02	99-100	14-15.03	6-7.05	170-171	4-6.06	199-200	19-20.06	213-214

Биринчи йил авлодларини синаш кўчатзорида тизмаларни чиқитга чиқаришда асосий маҳсулдор бошоқ, бир бошоқдаги дон сони, битта бошоқ вазни сингари белгилар ҳисобга олинади.

Арпа экиннинг бирламчи уруғчилигини олиб боришда якка танлаш усулида яроқсизларни чиқаришда тизмаларнинг ҳосилдорлигига албатта эътибор қаратилади.

Икки йиллик тадқиқотлар давомида 2021 йилда наводор деб топилган 615 та, 2022 йилда 831 та тизмалар орасидан ҳосилдорлик кўрсаткичи андоза Адир (элита) навига нисбатан 105,0 % юқори кўрсаткич кўрсатган 2021 йилда 293 та тизма, 115,1 % дон юқори 228 та, жуда юқори (>125 %) 28 та, 2022 йилда мос равишда 372, 245, 85 та тизмалар ҳосилдорлиги юқори, г/м<sup>2</sup> да маҳсулдор поя сони, 1000 та дон вазни, бир бошоқдаги дон сони, бир бошоқдаги дон вазни бўйича тизмалар танлаб олинди (4-жадвал).

Адир навининг биринчи йил авлод кўчатзори учун навнинг наводорлиги ва навга хослиги юқори экинзорлардан бошоғи йирик, дони, поя узунлиги бир текис, қора куя ва доғланиш касалликларига чалинмаган ўсимликлардан 1200 та бошоқ танлаб олинди. Танланган бошоқлар биометрик таҳлил: ўсимлик бўйи, бошоқ узунлиги, дон сони, бир бошоқдаги дон вазни журналга қайд этилди. Таҳлил натижаларига кўра юқори кўрсаткичларга эга бўлган бошоқлар бир бошоқ алоҳида тозаланди., доннинг бир текислиги ва тўқлиги кўз билан баҳоланди. Ҳар қайси бошоқдаги дон рақамланган кичик пакетларга солинди ва ип билан тикилди.

**4-жадвал**

**Адир навининг биринчи йил авлодларини синаш кўчатзорида  
авлодларнинг ҳосилдорлик кўрсаткичлари бўйича кўрсаткичлари  
Ғаллаорол 2021-2022 йй.**

Ҳосилдорлик кўрсаткичлари бўйича гуруҳлар (андозага нисбатан, %)	Йиллар	Синаш кўчатзорида танлаш натижалари		Синаш натижалари					
		Ажралган тизмалар сони, дона	Андозага нисбатан маҳсулдор тизмалар, %	Ҳосил г/м <sup>2</sup>	Андозага нисбатан, %	г/м <sup>2</sup> да маҳсулдор поя сони, дона	1000 дона дон вазни, г	Бир бошокдаги дон вазни, г	Бир бошокдаги дон сони, дона
Жуда паст (>75,0 %)	2021								
	2022	11	1,32	114	73,8	186	58,23	1,22	22
Паст (75,1-105%)	2021	16	2,60	46	95,0	77	53,14	1,10	21
	2022	68	8,18	139	92	264	62,22	1,35	24
Ўрта (105,1-115%)	2021	293	47,64	55,0	110,0	85	55,09	1,25	23
	2022	372	47,76	169,9	110,0	291	64,23	1,51	25
Юқори (115,1-125%)	2021	228	37,07	60,0	120,0	93	56,00	1,45	25
	2022	245	29,48	185,3	120,0	303	65,65	1,62	28
Жуда юқори (>125%)	2021	28	4,55	62,9	125,8	97	57,54	1,55	26
	2022	85	10,23	206	133,4	323	66,30	1,73	30
Андоза навининг ўртача кўрсаткичи	2021	50	8,13	50,0	100	82	54,18	1,21	23
	2022	50	6,02	154,4	100	253	62,48	1,45	24





**1-расм. Адир навининг биринчи йил авлодларини синаш кўчатзори.**



**2-расм. Адир навининг биринчи йил авлодлар кўчатзорида унувчанлиги юқори бўлган намуналарни баҳолаш.**

Иккинчи йил авлодларни синаш кўчатзорида 2021 йилда биринчи йил авлодлар кўчатзоридан танлаб олинган 500 та, 2022 йилда 600 та тизма уруғлари экилди. Экиш майдони  $5\text{м}^2$ , экиш меъёри 2,5 млн дона уруғ, ҳар 19 та тизмадан кейин андоза (Адир навининг элита авлоди) нави жойлаштирилди.

Қишга чидамлилик бўйича тадқиқот йилларида 2021 йилда ўрганилган 500 та тизмалардан 21 та тизма ёки 4,20% паст (3 балл), 128 та тизма ёки 25,6% ўрта (5 балл), 399 та тизма ёки 67,8 % тизма юқори (7 балл) ва 12 та тизма ёки 2,4% тизмалар жуда юқори (9 балл) чидамлилик гуруҳига мансублиги аниқланди. Аксарият тизмалар 399 та ёки 67,8% юқори, 12 та тизма жуда юқори

чидамлилиқ натижани кўрсатди. 2022 йилда об-ҳаво қулай келганлиги сабабли асосан юқори (71-90%) 125 та тизма (20,83%) ва жуда юқори (> 90,0%) балл билан 475 (79,17%) тизмалар баҳоланди (5-жадвал).

**5-жадвал.**

**Адир навининг иккинчи йил авлодларини синаш кўчатзорид  
авлодларнинг қишлашга чидамлилиқ хусусияти бўйича гуруҳларнинг  
тақсимланиши (Ғаллаорол 2021-2022 йй)**

Т/р	Йиллар	Авлод сони, дона	Қишлашга чидамлилиқ бўйича гуруҳлар, дона				
			жу да па ст (< 30%)	па ст (31- 50%)	ў рта ча (51-70%)	ю қо ри (71-90%)	жу да ю қо ри (> 90%)
1	2021	500		21	128	399	12
2	2022	600				125	475

Тадқиқотларда арпа экини бўйича фарқланиш, ўхшашлик ва барқарорлик мезонларига синов ўтказиш қўлланмаси асосан Адир навининг белги ва хусусиятларига кўра энг яқин бўлган Лалмикор навидан фарқлари (стандарт навидан) дала кўриклари бўйича қуйидагича:

Биринчи дала кўригида ўсимликларда ён баргларининг эгилганлигининг катталиги, ён барг қулоқчаларининг антоциан рангининг жадаллиги ўртачалиги, иккинчи дала кўригида бошоқ шаклининг цилиндрсимонлиги, бошоқ зичлигининг юмшоқлиги, бошоқ рўваги: биринчи бўғин эгилганлигининг кучайиши, учинчи кўрик лаборатория шароитида икки қаторли арпа бошоқ рўваги бўғиндаги дўнгчаларнинг бўлиши ўртачалиги, дон шаклининг эллиптик шакли сингари морфологик белгилари бўйича фарқланиши билан баҳоланди (5-жадвал).

**5-жадвал**

**Адир навининг иккинчи йил авлодларини синаш кўчатзорид  
авлодларни фарқлаш ва барқарорлик мезонлари бўйича баҳолаш  
(Ғаллаорол 2021-2022 йй)**

Кўрик номи	Йиллар	Морфологик белгилар																	
		Кузатишда ён баргларнинг		Ён барг қулоқчаларининг		антоциан ранги		кулоқчаларининг антоциан рангининг		Бошоқ шакли		Бошоқ зичлиги		Бошоқ рўваги биринчи бўғини эгилганлиги		бошоқ рўваги бўғинидаги дўнгчаларнинг		Дон зичлиги	
		я	н	я	н	я	н	я	н	я	н	я	н	я	н	я	н	я	н
І-дала кўриги	2021	1	47	1	46	1	45												
		3	7	3	4	2	2												

	2022	1 2	58 8	1 3	57 5	9	56 6										
П-дала кўриги	2021							1 0	4 4 2	1 0	4 3 2	9	42 3				
	2022							1 2	5 5 4	1 2	5 4 2	1 1	53 1				
Лаборато рия кўриги	2021													1	442	1	4 2 1
	2022													2	529	2	5 2 7

Танлов натижаларига кўра биринчи дала кўригида Адир навининг 2021 йилда 3,4,5 рақамли морфологик белгилари бшйича жами 38 та яроқсиз, 452 та навдор, 2022 йилда мос равишда 34, 566 та . иккинчи дала кўригида 2021 йилда 29 та яроқсиз, 423 та навдор 2022 йилда мос равишда 35, 531 та, лаборатория кўригида 2021 йилда жами 2 та яроқсиз, 421 та навдор, 2022 йилда мос равишда жами 4 та яроқсиз ва 527 та навдорлик белгилари билан баҳоланди. Икки йиллик олиб борилган натижаларга кўра биринчи ва иккинчи дала кўриклари ҳамда лаборатория кўрикларида 2021 йилда 421 та навдор, 77 та тизма яроқсиз, 2022 йилда 527 та тизма навдор, 73 та тизма яроқсиз белгилари билан баҳоланди.

Иккинчи йил авлодларни синаш кўчатзори 2021-2022 йилларда Адир навидан якка танлаш усулида танлаб олинган авлодлар 16-18 ноябрда экилди. Тажриба майдонини олиб борилган кузатувлар натижасига кўра уруғ экилгандан униб чиққангача 2021 йилда 58-59 кун, 2022 йилда 95-99 кун, униб чиққандан бошоқлашгача мос равишда 185-187, 174-175 кунни ташкил этди. Униб чиққандан тўлиқ пишишгача мос равишда 221-224, 221-226 кунни ташкил этиши аниқланди (6-жадвал)

Касалликларга чидамлик хусусиятлари ўрганилганда 2021 йилда 5-10%, 2022 йилда 5-25% зарарланганлиги аниқланди. 2022 йилда нисбатан кучли зарарланган 58 та тизма яроқсизликка чиқарилди.

**6-жадвал**

**Адир навининг иккинчи йил авлодларини синаш кўчатзорида  
вегетация даври (Ғаллаорол 2021-2022 йй)**

Йиллар	Уруғ			Туплаш, кун	Бошоқлаш, кун	Бошоқлашгача бўлган кун,	Мум пишиш, кун	Мум пишигача бўлган кун	Пи-шиш, кун	Пишигача бўлган кун
	Экилга н муддат, кун	Униб чиқи ш, кун	Униб чиққан гача кун							
2021	16-17 XI	13- 15.01	58-59	6-8.02	20- 23.05	185- 187	10- 13.06	206- 209	25- 28.06	221- 224
2022	17-18 XI	20- 25.02	95-99	14- 15.03	10- 11.05	174- 175	4-5.06	206- 212	19- 20.06	221- 226

Иккинчи йил авлодларни синаш кўчатзорида ҳосилдорлик бўйича кўсаткичларини баҳолашда Бутуниттифоқ ўсимликшунослик илмий-тадқиқот институти томонидан ишлаб чиқилган халқаро классификатор СЭВ рода *Hordeum L* (1983) ни қўллаган ҳолда ҳосилдорлик кўрсаткичи бўйича (андоза навга нисбатан) куйидаги гуруҳларга ажратилди: 1- жуда паст (< 75 %), 3-паст (75,1-105 %), 5- ўртача (105,1-115%), 7-юқори (115,1-125%), 9- жуда юқори (> 125%)

Иккинчи йил авлодларни синаш кўчатзорида 2021 йилда 7 та тизма паст, 328 та ўрта, 55 та юқори, 6 та жуда юқори, 2022 йилда мос равишда 31,157,150,108 гуруҳларга мансублиги аниқланди.

Тизмаларни ўрганиш натижасида 2021 йилда ҳосилдорлиги андоза (4,6 ц/га) навидан ҳосилдорлиги юқори бўлган 389 та , 1м<sup>2</sup> да маҳсулдор поялар сони (48-57 дона), 1000 та дон вазни (54,33-56,9 гр), бир бошоқдаги дон сони (22-25 дона), бир бошоқдаги дон вазни (1,22-1,44 гр), 2022 йилда мос равишда 415, 12,54-15,2 , 123-150, 61,1-70,65, 23-26,1,34-1,62 бўйича тизмалар танлаб олинди (7-жадвал).

Иккинчи авлодларни синаш кўчатзори 2021 йилда Адир навидан 389 та, 2022 йилда 415 та тизмалар танлаб олинди ҳамда хар бирининг дон ҳосили алоҳида-алоҳида кичик халтачаларга йиғиб олинди, сараланди, тозаланди ҳамда сифат кўрсаткичлари ва наводорлигининг бир хиллигига ишонч ҳосил қилиниб, уруғлар бирлаштирилди. Мазкур кўчатзордан 2021 йилда 102 кг, 2022 йилда

283 кг юқори авлодли уруғлик дон жамғарилди ва биринчи йил авлодларни кўпайтиришмайдонига экилди.

**7-жадвал**

**Адир навининг иккинчи йил авлодларни синаш кўчатзорида  
авлодларнинг ҳосилдорлик бўйича кўрсаткичлари  
(Ғаллаорол 2021-2022 йй)**

Ҳосилдорлик кўрсаткичи бўйича гуруҳлар (андозага нисбатан)	Йиллар	Синаш кўчатзорида танлаш натижалари		Синаш натижалари					
		Ажралган тизмалар сони, дона	Андозага нисбатан маҳсулдор тизмалар, %	Ҳосил ц/га	Андозага нисбатан, %	1м <sup>2</sup> да маҳсулдор поялар сони	1000 дона дон вазни, г	Бир бошоқдаги дон сони, дона	Бир бошоқдаги дон вазни, г
жуда паст (< 75 %)	2021								
	2022								
паст (75,1-105 %)	2021	7	1,66	4,43	96,3	39,4	52,24	20	1,12
	2022	31	6,54	10,26	90,04	100	56,35	21	1,20
ўртача (105,1-115%)	2021	328	77,91	4,90	106,52	48,5	54,33	22	1,22
	2022	157	33,12	12,54	110,0	123	61,10	23	1,34
юқори (115,1-125%)	2021	55	13,06	5,52	120,2	54	55,59	24	1,32
	2022	150	31,64	13,68	120,0	134	65,85	25	1,48
жуда юқори (> 125%)	2021	6	1,43	5,83	126,71	57,6	56,09	25	1,44
	2022	108	22,78	15,2	133,33	150	70,65	26	1,62
Андоза (элита) навининг ўртача кўрсаткичи	2021	25	5,94	4,60	100,0	45,4	54,09	22	1,19
	2022	28	5,91	11,4	100,0	112	57,04	21	1,31





**3-расм. Адир навининг иккинчи йил авлод синаш кўчатзорини экиш**



**4-расм. Адир навининг иккинчи йил авлод синаш кўчатзорини комбайн билан ҳосилини ўриш**



**5-расм. Адир навининг биринчи йил кўпайтириш майдони**

Иккинчи йилги авлодларни синаш кўчатзоридан 2021 йилда 102 кг, 2022 йилда 283 кг танлаб олинган юқори авлодли уруғлар мос равишда 12,5 га биринчи йил кўпайтириш кўчатзорига, тоза шудгор ўтмишдошига сеялка ёрдамида экилди. Лалми ерлар учун тавсия этилган барча агротехник тадбирларни ўтказишга алоҳида эътибор қаратилди.

Биринчи йил кўпайтириш кўчатзоридан 2021 йилда 1050 кг, 2022 йил 550 кг, иккинчи йил кўпайтириш майдонидан 2022 йилда 3710 кг ҳосил комбайнда йиғиб олинди, уруғлик дон қайта тозалаш, саралаш ишлари бажарилди.

## **ХУЛОСА**

1. Тадқиқотларда биринчи йил авлодларни синаш кўчатзорида ўрганилган 1000 тадан авлодлардан арпанинг «Адир» навидан 2021 йилда 615 та авлодлар танлаб олинди. Қолган авлодлар яроқсизга чиқарилди.

2. Иккинчи йил авлодларни синаш кўчатзорида ўрганилган ҳар бир навнинг авлодларидан танлов натижаларига кўра қимматли хўжалик белгилари ва биологик хусусиятлари бўйича навдор деб топилган арпанинг «Адир» навидан 2021 йилда 389 та, 2022 йилда 415та авлодлар танлаб олинди. Қолган тизмалар яроқсизга чиқарилди.

3. Танлаб олинган арпанинг «Адир» навидан 2021 йилда 389 та, 2022 йилда 415та авлодлар ҳар бирининг дон ҳосили алоҳида-алоҳида кичик халталарга йиғиб олинди, сараланди, тозаланди ҳамда уруғликнинг сифат кўрсаткичлари лаборатория тахлилидан ўтказилиб, уруғлик навдорлигининг бир ҳиллигига ишонч ҳосил қилиниб бирлаштирилди.

4. Иккинчи йил авлодларни синаш кўчатзоридан арпанинг «Адир» навидан 2021 йилда 102 кг, 2022 йилда 283 кг уруғлик дон жамғарилди ва биринчи йил кўпайтириш майдонида экиш учун тайёрланди.

5. 2022 йил биринчи йил кўпайтириш майдонларида арпанинг «Адир» навидан 15,0 гектар майдонга жорий этилди.

6. 2023 йил ҳосили учун жами арпанинг «Адир» навидан 3710 кг юқори авлодли уруғлик дон экиш учун жамғарилди.

7. 2023 йил ҳосили учун арпанинг «Адир» навидан 20 гектар майдонга юқори авлодли уруғларни экиш режалаштирилди.

## **REFERENCES**

1. Аманов А.А. ва бошқалар. Донли экинлар селекцияси ва бошланғич уруғчилиги бўйича услубий қўлланма. Ғаллаорол 2004 йил.
2. Гуляев Г.В. Совершенствовать систему семеноводства. // Вестник РАСХ. 1992.№ 4 с. 17-21.
3. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. Москва, 1985.
4. Маматкулов Т., Усаров З.И. Лалмикор ерларда экиш учун мўлжалланган арпанинг янги “Адир” навини уруғчилигини ташкил қилишда биринчи йил авлодларни синаш кўчатзорининг аҳамияти. – 2022.
5. Международный классификатор СЭВ рода *Hordeum* L. ВНИИР имени Н.И.Вавилова (ВИР). Ленинград. 1983. -54 с.

6. Покровская М., Усаров З., Маматкулов Т. Оценка устойчивости сортов ячменя к неблагоприятным условиям богарных районов //Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 319-322.
7. Практикум по селекции и семеноводству полевых культур» 1987.
8. Уразалиев Р.А. Селекция, семеноводства и сортоиспытания на современном этапе. // Вестник. с/х науки Казахстана. 1993. с. 21-23.
9. Курбонов Г.К. Основы продовольственных проблем ж. «Сельское хозяйство Узбекистана» 2001 -С.3.
10. Tursunkul M. et al. Results On Primary Seeding And New Varieties Of Cereal Crops Intended For Cultivation In Arrigious Lands //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – Т. 6. – №. 9. – С. 4376-4384.

## **“INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” FANINI O‘QITISHDA ELEKTRON RESURLAR VA MEDIATEXNOLOGIYALARNING ZARURIYATI**

**Sulaymanova Dildora Baxtiyorovna**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali.  
Energetika va mashinasozlik fakulteti “Matematika va informatika” kafedrası. p.f.f.d.  
(PhD) tel: +998936683645, e-mail: [sdildora75@gmail.com](mailto:sdildora75@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda elektron resurslar va mediateknologiyalarning zaruriyati haqida so‘z boradi.*

**Kalit so‘zlar:** *interfaol metodlar, elektron resurslar, elektron ta‘lim resurslari, “Ispring”, axborot, Power Point.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье рассматривается необходимость использования электронных ресурсов и медиатехнологий при преподавании предмета “Информатика и информационные технологии”.*

**Ключевые слова:** *интерактивные методы, электронные ресурсы, электронные образовательные ресурсы, «Испринг», информация, Power Point.*

### **ABSTRACT**

*The article discusses the need to use electronic resources and media technologies in teaching the subject "Computer Science and Information Technology".*

**Key words:** *interactive methods, electronic resources, electronic educational resources, Ispring, information, Power Point.*

### **KIRISH**

Ayni vaqtda, ta‘lim jarayonida o‘qitishda interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash ta‘lim samaradorligini oshiradi. Bu jarayonlar o‘quvchini berilgano‘quv materialini yaxshi o‘zlashtirishi va ular mazmun-mohiyatini uzoq vaqt esda saqlab qolishiga, bilimko‘nikmalarini yanada mustahkamlashga imkon beradi, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini yanada orttiradi.

Informatika va axborot texnologiyalari ko‘p sabablarga ko‘ra favqulodda noodatiy fan hisoblanadi. Chunki bu fanni o‘qitishda o‘quv dasturidagi eng yangi, eng istiqbolli, eng dinamik va boshqa o‘ta qiziq va yangi texnologiya hamda

materiallardan foydalanish kerak. SHuningdek, dars uchun o'qituvchi va o'quvchi ixtiyorida bo'lgan kompyuter texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish uchun fanning o'quv qo'llanmalari ham g'ayrioddiy bo'lishi kerak.

Informatika va axborot texnologiyalari darslarini olib borish jarayonida oddiy darsliklar bilan bir qatorda o'qituvchi ham, o'quvchi ham o'z ixtiyoridagi yorqin va rang-barang taqdimotlardan foydalanishlari, o'quvchilarga hissiy ta'sir o'tkazish, ularni qiziqtirish, tasavvurlarini uyg'otish uchun mo'ljallangan slayd-filmlarga ega bo'lish zarurati mavjud. Sinfda taqdimot materiallari va slayd filmlaridan foydalanishda kompyuter imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish, o'rganish motivatsiyasini rivojlantirish hamda an'anaviy vositalarni unutish imkonini beradi. Ushbu jarayon ham o'quvchi, ham o'qituvchi uchun o'quv jarayonini ijodiy-kreativ muhitga aylantiradi [1].

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Bugungi kunda kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda prezentatsiya va slaydlarni yaratishda eng keng tarqalgan dastur Power Point hisoblanadi. Mazkur dastur matnli hujjatlar, jadvallar, grafik ma'lumotlar, illyustratsiyalarni kerakli shaklda taqdim etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Dasturning asosiy xususiyatlari mavjud ma'lumotlar va ishlab chiqilgan hujjatlarni namoyish etishni nazarda tutadi.

Prezentatsiyalar va slayd-filmlardan foydalanishning asosiy maqsadi nazariy materiallarni illyustratsiyalar, diagrammalar, jadvallar bilan namoyish qilishda kerakli samaraga erishishdir. Ular o'qituvchiga darsda yangi materialni tushuntirishda uni iloji boricha aniq va ishonchli tarzda bajarish, darsni yanada faol ravishda o'tkazish, o'qituvchi va o'quvchiga vaqtni tejash imkonini beradi. SHu sababli o'qituvchilar elektron qo'llanmalarni, slayd-filmlarni yaratish uchun Power Pointdan keng foydalanadilar, ularning namoyishi yangi materialni tushuntirish bilan birga olib boradilar. Bunday elektron qo'llanmalar o'qituvchiga an'anaviy doska va bo'r kabi vositalarsiz ishlashga imkon beradi [2]. SHuningdek, o'quvchilar uchun to'g'ridan-to'g'ri ko'z oldida, ekranda diagrammalar, formulalar, jadvallar, illyustratsiyalar va boshqalar bo'lishi juda qulay. YAna Power Point oson darsni oson boshqarish imkonini ham beradi. Elektron qo'llanmaning tarkibidagi slayddan mos keladigan slaydlarga va yana tarkibga qaytarilgan giperhavolalar o'qituvchiga bunday qo'llanmani nafaqat tushuntirish, balki, o'quvchilar amaliy ishlarni bajarishda ham ishlatishga zamin yaratadi.

Shu bilan birga, Power Point, o'quvchilar uchun o'rganish uchun qulay mavzudir. Dasturiy ta'minot muhiti nafaqat Microsoft Word matn muharririni



o'rganish jarayonida olingan ko'nikmalarni mustahkamlashga, balki o'quvchilar uchun yangi ufqlarni, yangi ajoyib imkoniyatlarni, ularni ajablantiradigan, hayratga soladigan, o'ziga jalb qiladigan bilimlarni ochib berishga sharoit yaratadi. Bu esa o'qituvchining qiziqishini rag'batlantirish uchun doimiy ravishda bajarishi kerak bo'lgan barcha omillarni aktivlashtiradi va osonlashtiradi.

Dasturning afzalliklari shundaki, o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan mavzular bo'yicha individual loyihalar ishlab chiqishlari, o'z ishlarida sub'ektlararo aloqalarni kengaytirishda qo'llashlari mumkin.

Power Point hamda unda joylashtirilgan iSpring dasturidan foydalanish o'quvchilarga quyidagilarga imkon beradi:

- kerakli materiallarni topishda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- kreativlikni rivojlantirish;
- yangi va samarali ish uslubini namoyish etish.

Power Point dasturida ishlash ham mavzuni, ham matn muharrirlarini o'rganish bilan chambarchas bog'liq. Bunda o'quvchilar dars davomida mavzularni o'rganayotganda ushbu dasturdagi ish natijalarini ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar [85]. SHuning uchun Power Point iSpring Suite dasturida ishlash darhol amaliy mashg'ulot va laboratoriya ishlaridan boshlanadi. Undan keyin taqdimot yaratish uchun tanlangan mavzu bo'yicha ijodiy, kreativ loyihalarni amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Davlat ta'lim standartlarida belgilangan umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida informatika va axborot texnologiyalari o'quv fani bo'yicha malaka talablari hamda informatika va axborot texnologiyalari fanini o'rganish bosqichlarini bajarish uchun esa, Power Point iSpring dasturi umumta'lim maktablari o'qituvchilari uchun eng qulay hisoblanadi.

Microsoft Office dasturi tarkibidagi dasturlar bilan ishlashda, jumladan Word, Excel va Power Point uskunalari paneli va ularning vazifalarini o'rgatishda interfaol metodlardan : aqliy hujum, muammoli vaziyat kiritish, loto o'yinidan foydalangan holda bu tugmalarni vazifalarini eslab qolish bir muncha olib borish uchun ba'zi tavsiyalarni berib o'tamiz

Qoida: har bir komp'yuterda turli piktogrammalardan iborat bo'lgan uskunalari panelining tugmachalari berilgan (1- rasm).

**Topshiriqning namunasi quyidagi holatda:**



Ularning ichidan ekrandagi kōrsatilgan savatchalar (2- rasm) nomiga mos holda ajratish va shu savatchaga tashlash lozim bōladi.

**Word, Excel va Power Point**  
dasturlarida barchasida mavjud  
tugmalar savatchasi

**Faqat Power Point dasturiga**  
**mansub yordamchi** tugmalar  
savatchasi

2-rasm

Tashlanayotgan piktogrammalarga izohlar berilishi talab qiluvchi savollar berib boriladi.

Masalan:

1. Piktogrammaning nomi nima?
2. U qanday piktogramma?,
3. Nima vazifani bajaradi?,
4. Qaysi uskunalar paneliga tegishli? va h.k.
5. Yoki quyidagi tjadval asosida o'zlashtirish darajasi belgilanadi ya'ni jadval to'g'ri to'ldirilganmi?

Ōquvchilar tomonidan izohlangan tugmalar kerakli savatchaga tashlanadi.

## **XULOSA**

Ushbu jarayon har bir kichik guruhda amalga oshirilib ular ajratgan savtchalardagi piktogrammalarga izohlar keltirishadi. Bu harakatlarda xatoliklar ekspertlar tomonidan o'qituvchi nazoratida qayd qilib qo'yiladi. Har bir mashg'ulot s'onggida albatta o'quvchilar bilimi va egallagan k'onikmalari tekshirilib borilishi lozim. O'quvchilarning bajargan ishlarini baholash maqsadida qaysi guruh xatoga k'oproq yo'l qo'yg'an b'olsa shu guruhga pastroq, keyingisiga yaxshiroq va eng yaxshi bajargan guruhga a'lo baho qo'yish mumkin.

## **REFERENCES**

1. Иванова А.Ю. Практическое моделирование. Компьютерный эксперимент. Методические указания для преподавателя: Учеб. пособие. - Томск: Том. гос. ун-т систем управления и радиоэлектроники, 2005.
2. Балакина В.П. Использование программы Power Point в работе учителя информатики. Материалы XIX международной конференции «Применение новых технологий в образовании» 26 –27 июня 2008г.
3. Мария Агранович. Личность в Сети: Электронные образовательные ресурсы помогают школьникам найти себя. Российская газета - Спецвыпуск № 223(5599). <https://rg.ru/2011/10/06/asmolov.html>
4. Z.R. Durdimurotova Rasulova. Elektron ta'lim resuruslaridan foydalanib o'quv jarayonlarini takomillashtirish ."Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 October 2021 / Volume 2 Issue 10, 449-458, <https://cyberleninka.ru/article/n/elektron-ta-lim-resuruslaridan-foydalanib-o-quv-jarayonlarini-takomillashtirish/viewer>
5. Makhmudova D.M., Tadjibaev B.R., Dusmurodova G.Kh., Yuldasheva G.T. Information and communication technologies for developing creative competence in the process of open teaching physics And maths // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, ISSN: 1475-7192, Vol.24, Issue 09, 2020 – P. 434-439. <https://www.psychosocial.com/article/PR290050/22682/>
6. Mukhamedov G.I., Makhmudova D.M. On the Application of Information - Communication Technologies in the Development of Independent Creative Thinking of Youth // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, ISSN: 1475-7192, Vol.24, Issue 09, 2020– P. 468-478. <https://www.psychosocial.com/article/PR290055/21298/>
7. Makhmudova D.M. Using Information Technology Tools In Mathematics Lessons For Teaching Future Teachers // International Journal of Scientific & Technology Research. Volume 9, Issue 03, march 2020. – P. 4168-4171.

<http://www.ijstr.org/final-print/mar2020/Using-InformationTechnology-Tools-In-Mathematics-Lessons-For-Teaching-Future-Teachers.pdf>

8. Fayziev R.A., Sobirov A.A., Ziyadullaev D.Sh. Technology for creating electronic textbooks. Tutorial. - T.: IQTISODIYOT, 2019.160 p.
9. Bakhtiorovna, S. D. (2022). CONTENT, FORM, METHOD AND MEANS OF TEACHING" INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES" USING MEDIA TECHNOLOGIES. *World Bulletin of Management and Law*, 16, 37-40.
10. Bakhtiorovna, S. D. (2022). Mechanism of the process of organization of computer and information technology lessons through media technologies. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(10), 242-246.
11. Sulaymanova, D. (2021, December). FORMS OF ORGANIZATION OF LESSONS INFORMATICS AND INFORMATICAL TECHNOLOGIES AT SCHOOLS. In *Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences* (pp. 7-10).
12. Bakhtiyorovna, S. D. (2021). Experience in the application of mediatechnologies in teaching informatics in 5th grade of schools. *Middle European Scientific Bulletin*, 12, 80-83.
13. Bakhtiyorovna, S. D. (2021). Use of media technologies in the teaching of computer science. *Electronic journal of actual problems of modern science, education and training*, 64-68.
14. Сулайманова, Д. (2021). ИНФОРМАТИКА ДАРСЛАРИДА МЕДИАТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ЮЗАСИДАН ЎҚУВЧИЛАР БИЛИМИНИ ТАШХИСЛАШ. *Academic research in educational sciences*, 2(NUU Conference 1), 135-137.
15. Сулайманова, Д. (2021). ИНФОРМАТИКА ДАРСЛАРИДА МЕДИАТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ЮЗАСИДАН ЎҚУВЧИЛАР БИЛИМИНИ ТАШХИСЛАШ. *Academic research in educational sciences*, 2(NUU Conference 1), 135-137.
16. Sulaymanova, D. (2021). Formation of skills of using mediatechnologies in pupils. *Таълим ва инновацион тадқиқотлар*, (4), 62-66.

## **БАЛАНД ПОҒОНАЛАР ҚИЯЛИГИНИ БОТИҚ ПРОФИЛДА ШАКЛЛАНТИРИШ ОРҚАЛИ КАРЬЕР БОРТЛАРИНИНГ ТУРҒУНЛИГИНИ ОШИРИШ УСУЛИ**

### **Заиров Шерзод Шарипович**

т.ф.д, профессор. Навоий давлат кончилик ва технологиялар  
университети, Кончилик иши кафедраси

Ўзбекистон, Навоий шаҳри

### **Уринов Шерали Рауфович**

DSc, профессор. Миллий илмий тадқиқот университети МИСИС  
филиалининг Технологик жараёнлар ва ишлаб чиқаришни

автоматлаштириш кафедраси

Ўзбекистон, Олмалик шаҳри

### **Номдоров Рустам Уралович**

PhD, доцент в.б. Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти,

Кончилик иши кафедраси

Ўзбекистон, Қарши шаҳри

### **Боймуродов Нажмиддин Абдуқодирович**

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти,

Кончилик иши кафедраси ассистенти

Ўзбекистон, Қарши шаҳри

## **АННОТАЦИЯ**

*Бу мақолада очиқ кончилик ишларининг чуқурлиги ошиши билан Карьер бортининг ва поғоналар турғунлигини сақлашда геометрик шакллар ёрдамида устувор турғунлигини ошириш мақсадида оптимал варианты тавсия этилган.*

***Kalit soʻzlar:** Карьер, борт, поғона, деформатсия, тоғ жинси, карьер майдони, турғунлик, кўчки, карьер борти барқарорлиги.*

## **ABSTRACT**

*In this article, with the increase of the depth of open pit mining operations, an optimal option is recommended to increase the priority stability of the Quarry board and the stability of the steps using geometric shapes.*

***Keywords:** Quarry, edge, ledge, deformation, rock, open pit area, stagnation, landslide, stability of open pit edges.*

## **КИРИШ**

Карьер бортларини турғунлигини шакллантиришда поғона баландлигини ҳисобга олиш лозим бўлади, яъни бу қазиб олинган фойдали қазилмани



Bolalar jamoasini o'rganayotgan tarbiyachi quyidagi vazifalarni hal etadi: Jamoaning o'sib borishi haqida to'liq ma'lumot olish, jamoaning o'sish darajasi o'zgarib borishiga mos holda pedagog tomonidan o'z ishining mazmuni, shakli, metodi va uslubini pedagogik asoslangan holda tuzatib borish, jamoaning rivojlanish darajasini baholash uchun integral diagnostika metodini egallash zarur.

Har qanday psixologik-pedagogik diagnostika shaxsning kechagi yoki bugungi kundagi rivojlanish darajasini, o'quv jarayonining tashkil qilinganlik darajasini ko'rsatib berish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Diagnostik jarayonida o'rganilayotgan ob'ektning kelajagi, ertangi kuni ham taraqqiyot tendensiyalari, ham ma'lum omillar ta'sirining oqibatlarini ochib berilishi kerak. Shu holdagina prognoz mohiyatidan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonida yo'l qo'yilayotgan xatolar, shaxs taraqqiyotidagi ko'zga tashlangan kamchiliklarni bartaraf qilish, to'g'ri yo'lga solish imkoniga ega bo'lamiz. Shu sababli psixologik-pedagogik diagnostika metodlarining prognostik bo'lishi eng muhim talablardan biridir.

Tarbiyachi bilimlarni tekshirish orqali tarbiyalanuvchining o'quv materialini qanday idrok etib tushunganligini qanday fikr yuritayotganligini, dasturda belgilangan o'quv materiallarini qay darajada umumlantirib olganligini aniqlaydi hamda keyingi o'quv materiallarini o'rganish ta'lim sifatini yaxshilash yo'llarini belgilaydi. Shu bilan birga tarbiyalanuvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini o'rganish

va tekshirish ularning o'qishga bo'lgan munosabatini, tirishqoqligini, o'ziga talabchanligini, bilimga, ega bo'lgan qiziqishini bilishga imkon beradi.

Shuningdek, bolalarning xotirasi, bilish qobiliyatining qay darajada o'sganligi, ularning mustaqil ishlashga ko'nikma va malakalarni qay darajada egallaganliklari aniqlanadi. Tekshirish vaqtida o'quv materiallari esga olinadi va tarbiyalanuvchilarning sezish, idrok qilish, fikrlash qobiliyatlari ham o'sib boradi. Bu jarayonda tarbiyalanuvchilar keng fikr yuritishga, o'quv materiallarini asoslashga, mulohaza yuritish, isbotlashga o'rganadilar. Tarbiyalanuvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirishning yana bir muhim tomoni shundaki, ana shu jarayonda bolalarning bilimlari va bajargan ishlaridagi kamchiliklar sezilib qoladi va nihoyat mazkur kamchiliklarning sabablari aniqlanadi, kamchiliklarni bartaraf etish choralari belgilanadi.

Bilimdagi notekisliklarni aniqlash ularni to'ldirib va navbatdagi o'zlashtirish bosqichiga ko'tarish maqsadida diagnostikalash amalga oshiriladi. Diagnostikalash quyidagi maqsadlarni amalga oshiradi:

- tarbiyalanuvchilar o'zlashtirish darajasini diagnostikalash;
- bilimlardagi yetishmovchiliklarning oldini olish;
- aniqlangan yetishmovchiliklarni to'ldirish maqsadida maxsus topshiriqlar ishlab chiqish;
- maxsus topshiriqlar bajarish soatlarini belgilash;
- yakuniy diagnostik tahlil qilish;

Diagnostika ta'lim texnologiyasining navbatdagi bosqichi bo'lib, uning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Asosiy o'zlashtirishdagi kamchiliklar soatini aniqlash, har bir tarbiyalanuvchining bilim darajasini aniqlash, rejaning borishiga tuzatishlar kiritish yo'li bilan ta'lim jarayonining natijasi kafolatganligini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik diagnostikani tashkil etishning nazariy asoslari haqida yoritilganda pedagogik diagnostika – pedagog shaxsi va u bilan muloqotga kirishuvchilarning pedagogik tizim natijalarini tahlil qilish va tavsiyalar berish jarayoni hisoblanadi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, pedagogik diagnostika yordamida ta'lim-tarbiya jarayoni to'g'ri tahlil etiladi va uning samaradorligi to'g'ri baholanadi. Boshqacha qilib aytganda, pedagogik diagnostika orqali ta'lim ob'ekti, ta'limiy tushunchalar qay darajada o'zlashtirilganligi taxlil etiladi, butun o'quv kursini, o'quv dasturlarini o'zlashtirish darajasi baxolanadi. O'zining ish faoliyatida integral pedagogik diagnostikadan foydalangan tarbiyachi zudlik bilan hal etilishni talab qilayotgan va ayni paytda bir necha muddatga ortga surilgan o'quv-tarbiyaviy vazifalarni uddalash

imkoniga ega bo'ladi. O'zi ishlayotgan guruhni to'liq o'rganish tarbiyachi uchun muhim hisoblanadi.

Bolalar jamoasini o'rganayotgan tarbiyachi quyidagi vazifalarni hal etadi:

- Jamoasining o'sib borishi haqida to'liq ma'lumot oladi.

- jamoaning o'sish darajasi o'zgarib borishiga mos holda pedagog tomonidan o'z ishining mazmuni, shakli, metodi va uslubini pedagogik asoslangan holda tuzatib boradi.

- Jamoaning rivojlanish darajasini baholash uchun integral diagnostika metodlarini egallashi zarur bo'ladi.

Zamonaviy pedagogik diagnostika bolalarning atrof-muhitga munosabatini baholash uchun bir qator metodikalardan foydalanishni, shu jumladan, guruhdagi o'rtoqlariga nisbatan emotsional xayrixohlikni, bolalar jamoasining yetukligini va shular asosida mazkur guruhda tarbiya dasturlari tuzishni ko'zda tutadi. Shunday qilib, tarbiyachi tomonidan mavjud metodikalar asosida bolalarni o'rganish va metodik apparatning keyingi rivoji yagona maqsad emas, balki jamoa rivojlanishining omili hisoblanadi.

## **REFERENCES**

1. Овсянникова. С.К. “Педагогическая диагностика и коррекция в воспитательном процессе” Учебно-методическое пособие Издательство Нижневартковского государственного гуманитарного университета 2011
2. Qodirova .F.R, Toshpo'latova.Sh.,Kayumova.N.M, .A'zamova.M.N “Maktabgacha pedagogika” Tafakkur” 2019.
3. Rahmatova.X “Pedagogik diagnostika” Ma'ruzalar matni “Namangan” 2014.
4. Смирнова Н.В. Диагностическая деятельность в учреждениях дополнительного образования: Методические рекомендации. СПб: ДДТ «У Вознесенского моста», 2007
5. Durdikulovich, K. A. (2022). MUSIC PEDAGOGICAL SKILLS OF A TEACHER OF MUSIC CULTURE. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 28-31.
6. Kosimov, A. (2020, December). SCIENTIFIC FIELD-SCIENTIFIC PROCESS (ACADEMICIAN AKMAL SAIDOV'S “COMPARATIVE INTRODUCTION TO THE BOOK" INTRODUCTION TO LITERATURE". In *Конференции*.
7. Durdikulovich, K. A. (2022). THE ROLE OF TEACHER-STUDENT TRADITIONS IN THE DEVELOPMENT OF NATIONAL SINGING. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 112-114.

## **O'QUVCHILARNING FAOLLIK DARAJASIGA KO'RA FARQLANUVCHI METODLAR, O'QUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLARI**

**Axmedova Umidaxon Yodgorjon qizi**

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

axmedovaumidaxon22@gmail.com

### **ANNOTATSIYA**

*Ilmiy - pedagogik tadqiqotlarda nazariy metodlar yetakchi o'rin tutadi. Har bir tadqiqotda oldin o'rganish ob'ektini tanlash, nazariy tahlil asosida ob'ekt qaysi faktlarda bog'liqligini aniqlash va tekshirish uchun ulardan yetakchilarini tanlash kerak. Tadqiqotning maqsad va vazifalarini yaqqol aniqlash gipotezasini tuzish shunga mos ravishda tadqiqot o'tkazish metodikasini ishlab chiqish, tadqiqotning borishida olingan faktlarni tushuntirish va tahlil qilish usullarini tanlash va xulosalarni ifodalash lozim. Bu ishlarning hammasini bajarish uchun tadqiq qilinayotgan masalaning ilgari va hozirgi vaqtdagi nazariyasi va amaliyotini yorituvchi adabiy manbalarni o'rganish va tahlil qilish kerak. Nazariy metodlar boshqa metodlar bilan bir qatorda matematika metodikasiga oid har bir tadqiqodga qo'llaniladi. Har qanday ilmiy muammolarni hal qilishda eng oldin qilinayotgan masalaga oid hamma adabiyotni o'rganish va nazariy tadqiqot o'tkazish kerak. Busiz maqsadga yo'naltirilgan bo'lmaydi, sinash bazan xatolar yo'li bilan olib boriladi, shu bilan birga har doim ham qo'yilgan masalaning to'la jalb qilinishiga olib kelinavermaydi.*

**Kalit so'zlar:** *metod, izohli-illyustrativ metod, reproduktiv metod, muammoli o'qitish, taqqoslash usuli.*

### **ABSTRACT**

*Theoretical methods occupy a leading place in scientific and pedagogical research. In each research, it is necessary to select the object of study, to determine the facts on which the object depends on the theoretical analysis, and to select the leaders from them to check. It is necessary to draw up a hypothesis for clearly defining the goals and tasks of the research, accordingly, to develop a research methodology, to choose the methods of explaining and analyzing the facts obtained during the research, and to express the conclusions. To carry out all these works, it is necessary to study and analyze literary sources that illuminate the theory and practice of the researched issue in the past and at the present time. Theoretical methods, along with other methods, are used in every research related to the methodology of mathematics. When solving any scientific problem, first of all, it is necessary to study all the literature related to the problem and conduct theoretical research. Without it, it will not be focused on the goal, the experiment will sometimes*



*be carried out by mistakes, and at the same time it will not always lead to the full involvement of the problem at hand.*

**Key words:** *method, descriptive-illustrative method, reproductive method, problem teaching, comparison method.*

## **KIRISH**

### **1. O'quvchilarning faollik darajasiga ko'ra farqlanuvchi metodlar.**

1) Izohli - illyustrativ metod. Bu metodning mohiyati shundaki, bunda o'qituvchi tayyor informatsiyani har xil vositalar yordamida beradi, o'quvchilar esa bu informatsiyani qabul qiladi, tushunib oladi va eslab qoladi. Informatsiyani o'qituvchi og'zaki, yozma, ko'rsatmali ravishda amalga oshiradi.

2) Reproduktiv metod. Bu metodning asosiy belgisi faoliyat usulini tiklash va o'qituvchining topshiriqlari bo'yicha takrorlashdan iborat. Bu metod yordamida malaka va ko'nikmalar tarkib topadi.

3) Bilimlarni muammoli bayon qilish. Bunda o'qituvchi biror qoidani aytibgina qolmay, balki «ovoz chiqarib mulohaza yuritib» muammoni qo'yadi va uni hal qilish jarayonini boshqaradi va o'quvchilarni fikrlashga o'rgatadi, bilish xarakteridagi izlanishlarni olib borishga o'rgatadi.

4) Qisman izlanish yoki evristik metod. Bu holda o'qituvchi o'quvchilarga o'quv materialini bayon qiladi, bu bayon qilish davomida savollar qo'yib o'quvchilarni izlanishga va bilish xarakteridagi biror masalani yechishni talab qiladi.

5) O'qitishning tadqiqot metodlari. Bunda o'quvchilar qo'yilgan muammoni tushunib olgandan keyin, o'zlari ishlash rejasini tuzadi, faraz qilib, tekshirish usulini aniqlab, kuzatishlar, tajribalari o'tkazishadi, faktlarni taqqoslaydi, umumlashtiradi va xulosalar chiqarishadi.

Keyingi uchta metodlar yordamida muammoli o'qitish amalga oshiriladi. Muammoli o'qitish deganda nimani tushuniladi?

Hozirgi vaqtda uning yagona ta'rifi yo'q. Ammo N.M. Skatkin, T.I. Shamova, L.Sh. Levenberg kabilar muammoli o'qitish yagona ta'lim tizimsining muhim tarkibiy va muammoli vaziyatlar yaratish va ularni hal qilish usullarini keng qo'llanish asosida o'quvchilarning reproduktiv va ijodiy faoliyatlarining tarkibiy birlashtirilishini ko'zlaydi degan yagona nuqtai nazarni bildirishmoqdalar.

Muammoli o'qitish deganda – bu muammoli vaziyatlar hosil qilish, muammoni shakllantirish, hal qilishda o'quvchilarga yordam berish va ularga boshchilik qilish kabilarni tushunamiz. (Polyak – B. Okon).

Muammoli o'qitish asosida o'quv muammosi yotadi, bu muammoning mohiyati o'quvchiga ma'lum bo'lgan bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan tushuntirmoq va tushuntirish uchun yangi faktlar zaruratidan iborat. (didaktik M.I. Maxmutov).

Demak, o'quv muammosi amaliy va nazariy qiyinchiliklarni tashkil qiladi, buni hal qilish uchun o'quvchilardan tadqiqotchilik faolligi talab qilinadi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Muammoli o'qitishning eng muhim xususiyati muammoli vaziyatlar yaratishdir.

Muammoli vaziyat - bunda o'qituvchi o'quvchilar oldiga ularning bilimlari yetishmasligi sababli birdaniga to'la javob bera olmaydigan savol qo'yadi. Muammoli vaziyatning markaziy elementi o'quvchilar tomonidan yechilishi kerak bo'lgan noma'lum yoki qo'yilgan muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan bilimlardir.

Boshlang'ich sinflarda muammoli o'qitishdan foydalanish mumkinmi? Buning begumonligini M.I. Moro, A.M. Pishkalo, A.S. Sharipova kabi olimlar o'z tadqiqotlarida isbotlaganlar.

Psixolog A.M. Matyushkinning boshlang'ich sinflarda muammoli o'qitishning o'lchami va xarakteri haqida fikrlari diqqatga sazovordir: «Boshlang'ich sinf o'quvchilari hal intellektual faoliyat metodlariga ega emaslar hamda grammatika va matematik qoidalar haqida diskussiya olib borish yoki ularni tadqiq qilish uchun yetarlicha bilimga ega emaslar. Ta'limning dastlabki bosqichlarida muammoli o'qitish metodlaridan foydalanish o'quvchilar oldiga maqsadga muvofiq tanlangan, muammoli vaziyatlar hosil qiluvchi topshiriqlar berish va bu topshiriqlarni hal qilishlari uchun optimal sharoitlar yaratishni nazarda tutadi».

Misol, o'qituvchi o'quvchilarga to'rtburchaklar va beshburchaklar tasvirini ko'rsatadi, tasvirlar har xil tartibda, to'rtburchaklar qizil, beshburchaklar yashil rangga bo'yalgan. Savol beriladi: Siz nima deb o'ylaysiz, nega qizil rangili figuralarni to'rtburchaklar, yashillarini beshburchaklar deb atash mumkinmi? Bu savolga javob topish uchun o'quvchilar kuzatishlari, taqqoslashlari, qarshi qo'yish ishlarini bajarishadi va terminlardagi 4 va burchak, 5 va burchak so'zlarini aniqlaydilar. Natijada qizil figuralarda 4 ta burchak, yashilida esa 5 ta burchak borligiga ishonch hosil qilishda, hamda qo'yilgan savolga javob beradigan xulosaga kelishadi.

O'quv - metodik adabiyotlarda, ilg'or o'qituvchilar tajribalarida boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda muammoli vaziyatlar hosil qilish usullari dan 8 tasi keng tarqalgan.

1-usul. O'quvchilarni predmet va hodisalarning umumiy tomonlarini aniqlash va faktlarni oldindan umumlashtirish maqsadida kuzatishlar, taqqoslash, qarshi qo'yishga undash.

2-usul. O'quvchilar uchun yangi shartlar yaratish, bu shartlar ma'lum usullar bilan o'zgartirilishi mumkin.

3-usul. O'quvchilarni amaliy masalalar bilan tanishtirish bu masalalar ularni bilimlar tizimsi bilan yangi masalalarni yechishda ulardan qilinadigan talablar orasidagi mos kelmaslik faktlarini tahlil qilishga undaydi.

4-usul. O'quvchilarning amaliy masalalarni mustaqil yechishda paydo bo'ladigan hayotiy vaziyatlardan foydalanish va muammoni hal qilishda bu vaziyatlarni tahlil qilish.

5-usul. O'quvchilarni oldin olingan bilimlardan foydalanishning yangi amaliy shartlari bilan to'qnashtirish bu holda bolalar qilayotgan ishlarni yangi vaziyatga o'tkazish imkoniyatlarini tushunishlari kerak.

6-usul. O'rganilayotgan materialni tegishli bir qator faktlarni hisoblash yoki masala yechishning ratsional usulini topish maqsadida jalb qilish.

7-usul. Ma'lumotlari yetishmaydigan masalalarda foydalanish.

8-usul. Aniq masala shartiga qo'yilgan savol ham muammoli vaziyat hosil qiladi.

Izoh: 1. 2 – usulga.  $5 \cdot x = 10$  ba  $5 \cdot x = 40 - 30$

2. 8-usulga. Qavssiz ifodalarda ikkinchi bosqich amallari berilayotganda amallarni bajarish tartibi qoidalari bilan tanishtirishni sonli misollardan boshlash tavsiya qilinadi.

$3 \cdot 5 + 6 \cdot 4$ ,  $65 + 21 : 3$ ,  $40 - 4 \cdot 7$ ,  $25 : 4 - 4 \cdot 2$ .

O'quvchilardan ifodalarda qanday amallar ko'rsatilganini aytish so'raladi va shundan keyin amallarni bajarish qoidasi o'rganiladi bunday ifodalarning qiymatini topish uchun oldin ko'paytirish va bo'lish, keyin qo'shish va ayirish amallarini tartib bilan bajariladi.

Shu material ustida ishlashni matnli masalalarni yechish bilan amalga oshirish mumkin. «Bufetga har birida 10 kg dan olma bo'lgan 2 yashik olma va 18 kg uzum keltirishdi. Bufetga hammasi bo'lib qancha meva keltirishgan?»  $10 \cdot 2 + 18$

3. Sonni yig'indiga qo'shishga oid darsda  $(5+3)+1$  ni 3 xil usulda yechishni talab qilinadi. Buni predmetlar yordamida hal qilinadi.

## ***2. Induksiya, deduksiya, analogiya.***

Bu uchta metod yangi bilimlarni egallashning har bir holi asosida yotuvchi xulosalarning xususiyatlariga qarab bir – biridan farq qiladi.

Induksiya metodi bilishning shunday yo'liki, bunda o'qituvchining fikri birlikdan umumiylikka, xususiy xulosalardan umumiy xulosalarga boradi. Bu metoddan foydalanib biror qonuniyatni yechish yoki qoidani chiqarish uchun o'qituvchi misollar, masalalar, ko'rsatmali materiallarni puxtalik bilan tanlaydi.

Misol: 1 – sinf o'quvchilariga yig'indi bilan qo'shiluvchi orasidagi bog'lanishni tushuntirish uchun o'quvchilarni xulosaga induktiv yo'l bilan olib kelamiz.

● ● ● ● ○ ○ ○  $4+3=7, 7-4=3, 7-3=4.$

kabi bir qator mashqlar bajarilgandan keyin o'quvchilar quyidagicha umumiy xulosani ifodalaydilar. Agar yig'indidan birinchi qo'shiluvchi ayrilsa, ikkinchi qo'shiluvchi qoladi, agar yig'indidan ikkinchi qo'shiluvchi ayrilsa, birinchi qo'shiluvchi qoladi.

Deduktsiya metodi bilishning shunday yo'liki, bunda umumiy bilimlar asosida yangi xususiy bilimlarni olishdan iborat. Deduktsiya – bu umumiy qoidalardan xususiy misollarga va aniq qoidalarga o'tishdir.

Misol: 7-5 ni yechish uchun 7 sonini 5+2 kabi qarash mumkinligi eslatiladi. Agar yig'indidan (7) qo'shiluvchilardan biri (5) ni ayrilsa, boshqa qo'shiluvchi kelib chiqadi. Shunga o'xshash misollar yechish natijasida o'quvchilar yig'indi va qo'shiluvchilar orasidagi bog'lanishlarni bilganliklari asosida yangi bilimga ega bo'ladilar.

Deduktsiyadan foydalanishda yo'l qo'yiladigan xatolar ko'pincha o'zlashtirilgan umumiy qoida konkret hol uchun qo'llanilishi mumkin yoki mumkin emasligini aniqlay olmaslikdan kelib chiqadi. Bu holni o'qituvchi nazarda tutib, masalan, ko'paytirishning konkret mazmunini mustahkamlashda 4+4+4 kabi misollar bilan bir qatorda 4+4+3+4 kabi hollarni ham qarash zarur.

Analogiya - shunday xulosaki, bunda predmetlar ba'zi belgilarning o'xshashligi bo'yicha bu predmetlar boshqa belgilari bo'yicha ham o'xshash, degan taxminiy xulosa chiqariladi. Analogiya «xususiyan xususiya boradigan» bir konkret faktdan boshqa konkret faktlarga boradigan xulosadir.

Misol: 3 xonali sonlarni qo'shish va ayirishning yozma usullarini ko'p xonali sonlarni qo'shish va ayirishga o'tkazish analogiyaga asoslangan.

752	4752	54752	837	6837	76837
+ 246	+ 3246	+ 43246	- 425	- 2425	- 52425

Bunday misollarni yechgandan keyin o'quvchilarning o'zlari ko'p xonali sonlarni yozma qo'shish va ayirish 3 xonali sonlarni yozma qo'shish va ayirish kabi bajariladi deb xulosa chiqarishadi.

Ba'zida analogiyadan foydalanib noto'g'ri xulosa qiladilar. M: 12-6 ni bajarishdan 14 javobni topadilar.

Bu metodlardan foydalanish asosida aqliy operatsiyalar: tahlil, sintez, taqqoslash, umuiylashtirish va abstraktsiyalash yotadi. Butunni uning tashkil etuvchi qismlarga ajratishga yo'naltirilgan fikrlash usuli tahlil deb ataladi.

Predmetlar yoki hodisalar orasidagi bog'lanishlarni o'rnatishga yo'naltirilgan fikrlash usuli sintez deb ataladi.

Misollar: O'qituvchining 1 o'nlik va 2 ta birlikdan tuzilgan son qanday ataladi degan savolga javob berishda sintez qilinadi, 25 sonida nechta o'nlik va nechta birlik bor degan savoliga javob berishda tahlil qilinadi.

Tahlil va sintez o'zaro bog'liqdir bu masala yechishda keng qo'llaniladi.

Misol: Bir tup g'o'zadan 6 ta chanoq, ikkinchi tupdan 4 ta chanoq paxta olindi. Ikkala tup g'o'zadan necha chanoq paxta olingan?

Masalaning tahlili - uni berilgan va izlanayotganlarga ajratishdan iborat. Sintez –masala savoliga javob berishda 6 va 4 sonlarini birlashtirishdan iborat.

Taqqoslash usuli qaralayotgan sonlar, arifmetik misollar, masalalarning o'xshash va farqli alomatlarini ajratishdan iborat.

Boshlang'ich sinflarda sonlarni, ifodalarni taqqoslash, masalalarni taqqoslash kabilar qaraladi.

Yangi tushunchalarni, qonunlarni o'rganishda o'quvchilar umumlashtirishga duch keladilar.

Umumlashtirish bu o'rganilayotgan ob'ektlardan umumiy muhim tomonlarini ajratish va ularni nomuhimlardan ajratishdan iborat. O'quvchilarda to'g'ri umumlashtirishlar shakllantirishning zaruriy sharti tushunchalarning, xossa va faktlarning muhim alomatlarini o'zgartirmagan holda nomuhim alomatlarini o'zgartirishdan iborat.

Misol: To'g'ri to'rtburchak haqida tasavvurga keltirish uchun nomuhim alomatlar, rangi, tayyorlangan materiali, tekislikdagi holati, tomonlari uzunliklari munosabatlarini turlantirish kerak.

Muhim alomatlarini o'zgarishsiz qoldirish kerak, ya'ni hamma burchaklari to'g'riligi, qarama - qarshi tomonlari tengligi saqlanib qolishi kerak.

### ***3. O'qituvchi boshchiligida bajariladigan ishlari. O'quvchilarning mustaqil ishlari.***

Boshlang'ich sinflarda, ayniqsa o'qitishning dastlabki bosqichida o'qituvchining bevosita boshchiligida bajariladigan o'quv ishlaridan keng foydalaniladi, o'qituvchi o'quvchilarning ishlarini kerakli izga mohirlik bilan yo'naltirilib turadi.

Har bir yangi tushunchalar ilgari o'zlashtirilgan bilimlar tizimsiga qo'shilishi kerak. Shuning uchun mustahkamlash bosqichida bilimlarni tizimlashtirishga doir mashqlar kiritiladi. Masalan: birinchi o'nlik sonlarni nomerlashni o'rganib bo'lgandan so'ng, o'quvchilar o'qituvchi boshchiligida son haqidagi bilimlarni tizimlashtiradilar, bunda ular natural qatorda har bir son o'zidan keyingi sondan qanday hosil bo'lishini, u oldingi sondan nechta ortiq, keyingi sondan nechta kichik ekanligini ko'rsatadilar.



O'quvchilar matematikadan bilimlarni o'zlashtirishlaridan tashqari hisoblash, o'lchash, grafik o'quvlar va malakalarni egallashlari va masalalar yechishni o'rganishlari zarur. Bunda albatta nazariy materialdan foydalanishni o'qituvchi beradi.

Keyingi paytlarda o'qitish samaradorligini oshirishga imkon beruvchi ta'sirli metod sifatida o'quvchilarning mustaqil ishlariga ko'proq e'tibor berilmoqda. O'quvchilarning mustaqil ishlari o'qitishning hamma bosqichlarida qo'llaniladi.

Didaktik adabiyotlarda mustaqil ish tushunchasini har xil ta'riflanadi. B.P. Yesipov bergan ta'rif eng to'g'ri deb tan olingan:

**Ta'rif:** O'quvchilarning o'qitish jarayonida mustaqil ishlari – bu o'qituvchining bevosita qatnashuvsiz, maxsus ajratilgan vaqt davomida aniq topshiriqlar bo'yicha bajariladigan ishdir: bunda o'quvchilar topshiriqda qo'yilgan maqsadga erishishga o'z kuchlarini sarflaydilar, aqliy yoki jismoniy harakatlar natijasini biror formada ifodalab, ongli ravishda intiladilar.

Mustaqil ishlar quyidagilarga ko'ra o'zaro farq qilinadi: a) didaktik maqsad bo'yicha. Bu ishlar o'quvchilarni yangi materialni qabul qilishga (idrok) tayyorlashga, yangi bilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga, ilgari o'tilgan materialni takrorlashga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin: b) o'quvchilar mustaqil ishlayotgan material bo'yicha: darslik, didaktik material, bosma asosli daftarlar bilan ishlash.

b) o'quvchilardan talab qilinadigan faoliyat xarakteri bo'yicha: bu nuqtai nazardan ishlarni berilgan namuna bo'yicha, qoida bo'yicha farq qilinadi.

g) Tashkil qilinish usuli bo'yicha: umumiy sinf ishi, bunda sinfning hamma o'quvchilari bitta ishning o'zini bajaradi; gruppaviy ish, bunda o'quvchilarning har xil guruhlari har xil topshiriqlar ustida ishlashadi, individual ish, bunda har bir o'quvchi maxsus topshiriq ustida ishlaydi.

## REFERENCES

1. Farkhodovich, T. D. kizi, DMS., & kizi, AUY.(2022). Critical Thinking in Assessing Students. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 6, 267-271.
2. Dehqonova M.Sh, Axmedova U.Y., Preparation for mathematical literacy in the process of training future primary school teachers, Vol №11 pp. 714-722, <https://doi.org/10.5281/zenodo.7824388>
3. Ahmedova, U. Y. Q., & Axmedova, M. U. B. Q. (2021). Vatanim Surati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(11), 877-883.
4. Axmedova, U. (2022). On Certain Conditions Of Striking Coefficients Of Fourier Series To Zero. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 3(3), 3-8.

5. Qizi, A. U. Y., & Qizi, A. M. U. B. (2021). Research On Hydronyms and Their Importance.
6. Axmedov, O. U. B. O. G., & Qizi, A. U. Y. (2022). STEREOMETRIYA BO'LIMI VA UNING BA'ZI AKSIOMALARIDAN KELIB CHIQUADIGAN NATIJALAR. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 127-133.
7. Axmedova, U. Y. Q., & Axmedova, M. U. B. Q. (2022). XALQ OG'ZAKI IJOD NAMUNALARINING BOSHLANG'ICH SINFI DARSLIKLARIDA QO'LLANISHI VA ULARNING MAZMUNIIY GURUHLANISHI. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 345-351.
8. Samatov, B. T. (2020). The strategy of parallel pursuit for differential game of the first order with Gronwall-Bellman constraints. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(4), 15-20.
9. Тажиахматович, С. Б. (2021). ЗАДАЧА УБЕГАНИЯ ДЛЯ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫХ ИГР ПЕРВОГО ПОРЯДКА С ОГРАНИЧЕНИЕМ ГРОНУОЛЛА-БЕЛЛМАНА. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES*, 2(6), 1-5.
10. Ne'matov, I., & Axmedov, O. (2021). BOULE FUNCTION AND ITS INTERPRETATION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 3(3), 8-12.
11. Axmedov, O. U., & Abdumannopov, M. M. (2022). GRONUOLL-BELLMAN CHEGARALANISHLI BIRINCHI TARTIBLI DIFFERENSIAL O'YIN UCHUN PARALLEL QUVISH STRATEGIYASI. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 1(10), 324-326.
12. Abdumannopov, M. M., Akhmedov, O. U., & Tokhtasinov, T. (2022). ESSENTIAL MODES FOR ACTIVATING MASTERING SUBJECTS AT SCHOOLS. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES*, 3(12), 1-4.
13. Abdumannopov, M. M., Axmedov, O. U., To'Lqinboyev, T., & Azizov, M. (2022). MAKTAB O'QUVCHILARINING DARS MASHG'ULOTLARINI O'ZLASHTIRISHINI FAOLLASHTIRUVCHI MUHIM OMILLAR. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 165-169.
14. Muhammadsodiq, A. (2022). Game Theory as a Theory of Conflicts. *International Journal of Culture and Modernity*, 17, 123-126.
15. Axmedov, O. U. B. O. G., & Qizi, A. U. Y. (2022). STEREOMETRIYA BO'LIMI VA UNING BA'ZI AKSIOMALARIDAN KELIB CHIQUADIGAN NATIJALAR. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 127-133.

## “O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATI” DAGI AYRIM FOLKLORIZMLARNING LEKSIK-TEMATIK GURUHLANISHI

**Tursunova Dilshoda**

Sharof Rashidov nomidagi SamDU 2-kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da berilgan ba‘zi folklorizmlarning leksik-tematik guruhlanishi xususida so‘z boradi. Folklorizmlar ma‘nosi jihatidan kiyim-kechak, oziq-ovqat, kasb-hunar va boshqa bir qator guruhlariga bo‘linib, lingvistik nuqtayi nazardan yondashiladi.*

**Kalit so‘zlar:** folklor, folklorizm, leksik-tematik, leksikografiya.

### ABSTRACT

*This article covers the lexical-thematic grouping of some folklorisms given in the “Explanatory Dictionary of the Uzbek language”. Folklorisms are approached from a linguistic point of view, dividing into a number of groups of clothing, food, professions and others in terms of meaning.*

**Key words:** folklore, folklorism, lexico-thematic, lexicography.

### KIRISH

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi folklorizmlarning tarixiy qimmatini yana ham chuqurroq anglashda, ular mansub bo‘lgan leksik-tematik guruhlarini aniqlash ham muhimdir. Chunki folklorizmlarning ko‘pchiligi o‘zining mavzuviy doirasiga ko‘ra tarixiy ahamiyat kasb etadi. Shu bois quyida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da berilgan folklorizmlarning ba‘zi leksik-tematik guruhlarini xususida imkon qadar batafsilroq to‘xtalib o‘tamiz.

**Ot (hayvon) nomi bilan bog‘liq folklorizmlar:**

**Ang‘ishlamoq** – irg‘ishlab o‘ynamoq, gijinglamoq. *Ang‘ishlaydi Zargarning mingan oti.* “Malikayi ayyor” (O‘TIL. I tom. 75 b).

**Arillamoq** – pishqirmoq. *Og‘zini karrakday ochgan, arillagan arg‘imoq otlarning har qaysisi tomday keladi.* “Avazxon” (O‘TIL. I tom. 90 b).

**Davir** – Ot ustiga egardan keyin yopiladigan chochoqli zarbof abzal; yopinchiq. *Ot boradi arqirab, Davirlari yarqirab.* “Ravshan” (O‘TIL. I tom. 53 b).

**Dirdikka** – Ot ustiga solinadigan bezakli yopqich. *Otga soldi dirdikka, Qoyil bo‘ling erlikka.* “Xushkeldi” (O‘TIL. I tom. 625 b).

**Yobi** – nasli past, xashaki ot. *Bu so‘zlarning Aynoq bekor ekandir. Yobi dema, shu ot tulpor ekandir.* “Ravshan” (O‘TIL. II tom. 22b).

**Jahaldirik** – egar qoptoli ostiga qo‘yiladigan bir juft yumshoq ot abzali. *Chirgining ustidan qo‘ydi bellikni, Boz ustidan tashlab jahaldirikni.* “Alpomish” (O‘TIL. II tom. 77 b).

**Jul** – ot yopig‘i, yopiq. *Aka, oting uch yashar, Urama jullar yarashar.* “Oq olma, qizil olma” (O‘TIL. II tom. 112b).

**Palaqqush** – qush ko‘rinishiga ega bo‘lgan afsonaviy uchar ot. *To‘rt qiz palaqqushga minib, to‘qqiz kecha-kunduzda Chambilga yetdilar.* “Zulfizar bilan Avazxon” (O‘TIL. III tom. 207b).

**Palang ot** – afsonaviy uchar ot. *Kelib, palang otni sozlab ko‘radi, Palang otni minib, bundan jo‘nadi.* “Shirin bilan Shakar” (O‘TIL. III tom. 207b).

**Parqin** – otning qo‘ltig‘i, qo‘ltiq (afsonaviy “uchar” otda qanot o‘rnashgan joy). *Shakarbekning mingan oti Har tarafga olib qochdi, Parqindan ko‘pik sochdi.* “Shirin bilan Shakar” (O‘TIL. III tom. 231b).

**Piroq** – afsonaviy uchar ot. *Yonida bor kesadigan yarog‘i, Yulduzni ko‘zlaydi mingan pirog‘i.* “Erali va Sherali” (O‘TIL. III tom. 263b).

**Tavir** – dikkakdan kichik, uzun sochoqli, egar ostida ikki yoqqa yoyib tashlanadigan ot abzali. (O‘TIL. III tom. 631b).

**Taraqqs boylamoq** – gijinglab turmoq (ot haqida); noz-ishva qilmoq. *G‘irot Avazni ko‘rib, uchadigan qushday, har ko‘zi tarkashday, yulduzni ko‘zlab, taraqqos boylab o‘ynay berdi.* “Balogardon” (O‘TIL. III tom. 678b).

**Tulpor** – qanotlari bo‘lgan afsonaviy uchar ot. *Hotamning bulutga uchadigan tulpori bo‘larkan...* Shukrullo, Javohirlar sandig‘i. (O‘TIL. IV tom. 186b).

#### ***Kasb-hunar nomini bildiruvchi folklorizmlar:***

**Bangi** – nasha. *Sherabodda men ko‘rdim Bangi chekkan bangini.* “Nurali” (O‘TIL. I tom. 160 b).

**Bitbozlik** – bitlarini boqish, bitlarini o‘ldirish. *Bir kuni tomining orqasiga chiqib, oftob ro‘yiga qarab, bitbozlik qilib o‘tirsam, Go‘ro‘g‘libek ohista-ohista o‘tib ketib borayotir.* “Xushkeldi” (O‘TIL. I tom. 282 b).

**Bosildiriq** – tinchlik saqlovchi, osoyishtalik posboni. *Sho‘rim qursin, to‘ramdan ayrilib edim, otamdan ham ayrildim, yomon bo‘lsa ham, elning bosildirig‘i edi.* “Oysuluv” (O‘TIL. I tom. 319 b).

**Buzarchi** – buzg‘unchi. *Yo‘lni kesgan guzarchilar, Tinmay elni kezarchilar, Jo‘n savdoni buzarchilar, Qalpoq bozori qaysiydi?* “Ravshan” (O‘TIL. I tom. 362 b).

**Danakor** – vositachi, vakil. *Momang donakor bo‘lib ishni sozlasa, Yotarsan oyimning qorday bag‘rida.* “Gulixiromon” (O‘TIL. I tom. 554b).

**Dahmarda** – qo‘y-mol boquvchi xizmatkor. *Boysari ko‘chsa, biz ham ko‘chamiz deb, hammasi cho‘ponlariga, yilqichilariga, tuyachilariga-hamma dahmardalariga odam yubordi.* “Alpomish” (O‘TIL. I tom. 582b).

**Jevachi** – qurol-aslahaxona boshlig‘i. *Bo‘ylari munosib qaddu bo‘yingga, Qorovul jevachilaring bilmasin.* “Gulixiromon” (O‘TIL. II tom. 80b).

**Juvonboz** – bachchaboz, bolaboz, besoqolboz. *Tushibsan ko‘p gozirgonning qo‘liga, Na ishlar aylading tog‘ning cho‘liga, Qaytib tushding juvonbozlar qo‘liga, Ozod bo‘lding, endi ketgin elingga.* “Erali va Sherali” (O‘TIL. II tom. 110b).

**Sinchi** – otlarning zotini, naslini, yoshini, fe‘l-atvorini yaxshi biladigan odam. *Sinchi otning ta‘rifini qilib, “chini shul” deb, bir so‘z aytib turgan ekan...* “Alpomish” (O‘TIL. III tom. 517b).

**O‘dag‘a** – boshliq, sarkor. *Yigitlar ichida menman o‘dag‘a...* “Ravshan” (O‘TIL. V tom. 133b).

#### **Qurol-yarog‘ nomini anglatuvchi folklorizmlar:**

**Girish** – yoyning o‘qni qadab otadigan ipi. *Shu yoyni har kimsa ko‘tarib tursa, Girishin to‘g‘rilab nishonga ursa...* “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”. (O‘TIL. I tom. 506b).

**Yov-yaroq** – qurol-aslaha, qurollar. *Yov-yaroqni, ot-anjomni shaylanglar, Imtihon kun xonga qo‘ying darakni.* “Yusuf va Ahmad” (O‘TIL. II tom.25b).

**Jazoyil** – miltiqning bir turi; kichik to‘p, zambarak. *Shoh kelguncha ochilmaydi darvoza, Zulm qilsang, jazoyildan otaman.* “Rustam” (O‘TIL. II tom. 66b).

**Jeva** – qurol-aslaha. (O‘TIL. II tom. 79b).

**Kaltak** – to‘qmoq, cho‘qmor, gurzi. *To‘qson botmon cho‘yan kaltak qo‘limda.* “Shirin bilan Shakar” (O‘TIL. II tom. 302b).

**Obdor** – suv berilgan, yaxshi toblangan, o‘tkir (qilich, pichoq va h.k. haqida). *Qosimxon shohning achchig‘i kelib, har tuki obdorday bo‘lib, qiziga bir so‘z dedi...* “Zulfizar bilan Avazxon” (O‘TIL. III tom. 71b).

**Po‘lat** – qilich, shamshir. *Olmos po‘lat bog‘lab men ham belimdan, Dev izlab chiqqanman o‘sgan elimdan.* “Malikayi Ayyor” (O‘TIL. III tom. 328b).

**Choroyna** – to‘rt parcha yassi temirdan biriktirib yasaladigan, zirhli kiyim ustidan ko‘krak va yelkaga taqiladigan himoya moslamasi. *Dubulg‘a boshida, choroyda to‘shida, xuddi yashin oqqanday bo‘lib, beklar tizilib kelyapti.* “Yusuf va Ahmad” (O‘TIL. IV tom. 510b).

**Harba** – nayza, qilich kabi jang qurollari. *Bu bilan ajdahor harba qilmadi, Ajdahorni hech siyosat bo‘lmadi.* “Murodxon” (O‘TIL. V tom. 508b).

#### **Soliq nomini bildiruvchi folklorizmlar:**



**Yorg‘i** – jarima. *Olib borib xon Dallining otasi, Besh yuz tilla meni yorg‘i ayladi.* “Ravshan” (O‘TIL. II tom. 49b).

**Sursat** – o‘lpon, soliq. *Uchqur eding, qanotingdan qayrilding, Yuguruk bo‘lsang, tuyog‘ingdan tayrilding. Biz ovqatdan, sen sursatdan ayrilding.* “Alpomish” (O‘TIL. III tom. 595b).

***Oziq-ovqat nomini anglatuvchi folklorizmlar:***

**Jizziq** – jizza. *Quyruq to‘g‘raganlar yeydi jizziqdi, bu uzukni bildim, ko‘ngli buzuqdir.* “Hasanxon” (O‘TIL. II tom. 83b).

**Juvori** – jo‘xori. *Kesganda jo‘vorini, poya bo‘lur, Boshingga bitta ro‘mol soya bo‘lur.* “Oq olma, qizil olma” (O‘TIL. II tom. 111b).

**Ta‘til** – ovqat, yegulik; nonushta; ovqatlanish. (O‘TIL. IV tom. 32b).

***Joy nomlarini bildiruvchi folklorizmlar:***

**Guzar** – yo‘l. *Qalmoqlar yurtiga guzarim tushdi.* “Alpomish” (O‘TIL. I tom. 516b).

**Go‘ristonlik** – go‘riston. *Ko‘klam vaqti edi, juma kuni qarindoshimizning to‘yiga borib, qaytishda go‘ristonlik ichidan o‘tib ketayotganimda, bir bosh suyakka ko‘zim tushdi.* “Oltin olma” (O‘TIL. I tom. 532b).

**Jana** – do‘ng, tepa. *Bir lochinman, qanotimdan qayrildim, Yomg‘ir yog‘may, jana yerda toyrildim.* “Gulixiromon” (O‘TIL. II tom. 69b).

**Jo‘ybor** – 1. Daryo, ariq. 2. Ko‘z yoshi. *G‘amni ko‘rgan kishin jo‘ybori oqar, Ado bo‘lmas savdo tushdi boshima.* “Erali va Sherali” (O‘TIL. II tom. 117b).

**Jo‘nag‘ar** – tog‘da yolg‘izoyoq og‘ir yo‘l. *Yurgan yo‘ling adir emas, jo‘nag‘ay.* “Alpomish” (O‘TIL. II tom. 117b).

**Kayvon** – baland ayvon. *Unda ham ko‘shk-u ayvon, Zarvaraqli oltin kayvon, Ziyodonlar alvon-alvon.* “Ravshan” (O‘TIL. II tom. 293b).

**Chiyir** – oyoq, tuyoq izi; iz, yo‘l. *Otga soldi arpa bilan iyirni, Qor yoqqanda, karvon solar chiyirni.* “Alpomish” (O‘TIL. IV tom. 482b).

**Qurdum daryo** – tubsiz, yutoqi daryo; dengiz. *Hoy, qovoqni quritding-ku, qurdum daryomisan! A.Muxtor. Qoraqalpoq qissasi.* (O‘TIL. V tom. 380b).

***Narsa-buyum nomlarini anglatuvchi folklorizmlar:***

**Baydoq** – tug‘, bayroq. *Ol baydog‘i pirqirab, Kelindi maydon ichinda.* “Erali va Sherali” (O‘TIL. I tom. 141b).

**Balx(i)** – oq rangli ro‘molning bir xili. *Balxi ro‘moli boshidan, ko‘zi to‘lmasin yoshidan.* “Nurali” (O‘TIL. I tom. 152b).

**Banot** – duxoba. *To'rvang banot, yeming kishmish, hay-hay, tak-tak, o'zbekning oti.* “Gulixiromon” (O‘TIL. I tom. 160b).

**Bovur** – bag‘ir, jigar; dil, ko‘ngil. *O‘ynashgin, kulishgin yoshlik davringga, Haq muyassar qiladi qorday bovringga.* “Gulixiromon” (O‘TIL. I tom. 293b).

**Dagala** – jun yoki qildan to‘qilgan ip, arqon. *Aymoqlar dagala bilan ularni [Bahromni va uning bolalarini] urib, kecha-kunduz yo‘l yurib, ayni sahar vaqtida keldi.* “Zulfizar bilan Avazxon” (O‘TIL. I tom. 543b).

**Jamalak** – soxta kokil. *Kal qiz ham, qirqta qizni o‘ziga yollab olib, qora iplardan orqasiga jamalak qilib, bu ham mis patnislarga solib, ko‘tartirib jo‘nadi.* “Murodxon” (O‘TIL. II tom. 67b).

**Jahannamo** – jahonning istagan yerini ko‘rsatuvchi ko‘zgu; oynayi jahon. (O‘TIL. II tom. 79b).

**Jig‘ovul** – ov qushining bo‘yinbog‘i. *Qarchig‘ay bo‘yniga taqdim jig‘ovul, Xizmatimda safhudaychi, shig‘ovul.* “Xushkeldi” (O‘TIL. II tom. 97b).

**Nigin** – uzuk. *Endi Ravshanbek ko‘zining yoshini artib, shunday nizinga qarasa, niginning yuzida xati bor.* “Ravshan” (O‘TIL. III tom. 36b).

**Selob** – duv-duv yosh. *Oh urganda, ko‘zdan oqar selob yosh, Zolim bilan hargiz bo‘lmanglar yo‘ldosh.* “Alpomish” (O‘TIL. III tom. 477b).

**Tarkash** – payola, kosa kabi spool idishlarni sinishdan saqlash uchun teri (charm) yoki yog‘ochdan qubba shaklida yasalgan g‘ilof. *G‘irot Avazni ko‘rib, uchadigan qushday, quloqlari qamishday, har ko‘zi tarkashday, yulduzni ko‘zlab... o‘ynay berdi.* “Balogardon” (O‘TIL. III tom. 683b).

**Cher** – alam, qayg‘u; dog‘. *Yuragida cher edi, Gurkuragan er edi.* “Hasanxon” (O‘TIL. IV tom. 475b).

**Shobir** – sharpa, javob sadosi. *Ot solib jo‘nadi shunday falakka, Shobiri bilinmay, yashinday oqib.* “Murodxon” (O‘TIL. IV tom. 587b).

**Haykal** – ayollar bo‘yniga osib, ko‘krakka tashlab oladigan, oltin yoki kumushdan ishlangan bezak buyumi (zebigardonning qadimgi turi). (O‘TIL. V tom. 485b).

**Hisob** – nima qilish, ish-faoliyat rejasi, ish olib boorish yo‘li. *Bu so‘zni qiz eshitib, aqlini yitirib, hisobini yitirib, shoshib qoldi.* “Murodxon” (O‘TIL. V tom. 533b).

## XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da berilgan folklorizmlar faqatgina funksional-semantik jihatdan emas, balki leksik-tematik jihatdan ham farqlanar ekan. Folklorizmlarni ma‘noviy guruhlariga

bo‘lishimiz tilimizning keng imkoniyatlarini ochish bilan birga leksik taraqqiyotining rivojlanishiga zamin bo‘ladi.

### **REFERENCES**

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. Биринчи жилд. (А-Д) – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2020. – 679 б.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. Иккинчи жилд. (Е-М) – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2020. – 671 б.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. Учинчи жилд. (Н-Тартибли) – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2020. – 687 б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. Тўртинчи жилд. (Тартибот – Шукр) – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2020. – 606 б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. Бешинчи жилд. (Тартибот – Шукр) – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2020. – 591 б.
6. Алпомиш. Фозил Йўлдош ўғли. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа концерни, 1998.
7. Равшан. – Тошкент: Фан, 1954.
8. Рустамхон. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.

## **MNEMOTECHNICS: EXERCISES FOR MEMORY AND CONCENTRATION FOR PRESCHOOLERS**

**Ergasheva Gulnora Nematovna**

an English teacher of Namangan Regional National Center of  
Teaching New Methodologies to Teachers

### **ABSTRACT**

*The purpose of the article is to select and describe the simplest and most effective mnemotechnic methods used in teaching phonetics, vocabulary, grammar, and speech skills at the initial stage of learning a foreign language. The most effective methods, according to the author, are those that provide high quality knowledge and develop mental and creative abilities and cognitive activity of students. At the stage of developing phonetic skills, these include: letter, colour and sound associations as well as rhyming words.*

**Keywords:** Mnemonics, methods, children, actions, abilities, preschool, speech.

### **АННОТАЦИЯ**

*Цель статьи – выбрать и описать наиболее простые и эффективные мнемотехнические приемы, используемые при обучении фонетике, лексике, грамматике, речевым навыкам на начальном этапе изучения иностранного языка. Наиболее эффективными методами, по мнению автора, являются те, которые обеспечивают получение качественных знаний и развивают мыслительно-творческие способности и познавательную активность учащихся. На этапе развития фонетических навыков к ним относятся: буквенные, цветовые и звуковые ассоциации, а также рифмующиеся слова.*

**Ключевые слова:** Мнемотехника, приемы, дети, действия, умения, дошкольник, речь.

### **INTRODUCTION**

In preschool children, visual memory is mainly developed, rarely auditory. Therefore, in kindergartens, all work is based on visibility. Better to see once than hear a hundred times. Modern children live in a huge flow of information, where live communication is replaced by communication with a computer and TV, tablet or phone. Therefore, the development of speech is becoming an increasingly urgent problem. The development of coherent speech, including dialogic and monologue, is the most important condition for quality education at school. Unfortunately, teachers in kindergarten often face speech problems in children.

## **LITERATURE REVIEW.**

According to the results of diagnostics, 7% of preschoolers can independently compose a story, 68% - on leading questions, and 25% - do not know how. Also revealed: - monosyllabic speech, consisting only of simple sentences, - inability to construct a sentence grammatically correctly, - poverty of speech, insufficient vocabulary, - inability to coordinate words in a sentence, etc. When retelling, the children experienced difficulties: - they retell fairy tales that they have been read many times well, but they cannot always retell an unfamiliar, just read text; - if there are a lot of characters or events in the text, children can confuse their sequence; - they retell the beginning of the text in detail, but then they often skip actions or events, turn off the ending. Work on the development of coherent speech is carried out in the classroom using various methods and techniques, but in order to solve the above problems, we faced the question of choosing modern, more effective technologies for working with children. In the preschool period, memory in terms of the speed of development is ahead of other abilities of children, because they use the experience they have and previously gained as the foundation for understanding the world around them. The child looks at the picture and remembers where he saw it before. He sees an unusual object and begins to reason, recalling something from his life baggage. Therefore, a special environment should be created in a preschool institution that contributes to the fullest disclosure of the speech capabilities of pupils, using new innovative methods based on the development of speech and memory. Having studied the literature, we came to the conclusion that the most effective means of teaching coherent speech to preschoolers are the techniques of mnemonics. "Mnemotechnics" in Greek means the art of memorization, the technology of memory development. Mnemotechnics is a technique used by teachers and speech therapists in kindergarten. The technique helps them improve children's language and speech using squares and pathways. Mnemonics is a system of methods and techniques that ensure the effective memorization, storage and reproduction of information. Mnemonics uses the natural memory mechanisms of the brain and allows you to fully control the process of storing, storing and recalling information. This is a system of methods and techniques that provides the most effective memorization, preservation and reproduction of information. The essence of mnemonics is that for each word, phrase, sentence, a picture (diagram) is thought up and, looking at the diagrams, the child easily remembers the information, and then easily retells its content. According to the famous psychologist A.N. Leontyev, mnemonics is a powerful pedagogical tool: its internal reserves are unique and diverse. It is accessible and simple, capable of evoking vivid imaginative associations




and emotional uplift in students; it turns the learning process from a tedious and boring exercise into an exciting process and reduces the time to study the learning material.<sup>84</sup> Mnemonics helps to simplify the process of direct educational activity for children, they learn in an interesting game form, without mental and emotional overload. The didactic material of mnemonics are mnemonic squares, mnemonic tracks, mnemonic tables, which we use both in the classroom and for memorizing and memorizing proverbs, sayings, poems, riddles. Since ancient times, people have noticed that "it is better to see once than hear a hundred times. "Teach a child some five words unknown to him - he will suffer for a long time and in vain, but connect twenty of the same words with pictures, and he will learn them on the fly". A large place is occupied by the use of mnemonics in preschool age. In order to develop certain skills and abilities in children from a very early age, so-called mnemonic tables (schemes) are introduced into the learning process. In kindergartens, algorithms for the processes of washing, dressing, setting tables, caring for indoor plants, etc. are often used.



Mnemotables are a scheme that contains certain information. The concept of "mnemonic tables" in preschool pedagogy is similar in logic and method of construction to the following concepts: sensory-graphic schemes, subject-schematic models, block-squares, collage, scheme for compiling a story. Methods of mnemonics are very different. For example, the British scientist Jonathan Hancock

<sup>84</sup>Leontyev A.N. (1981) The development of higher forms of memorisation. Reader on general psychology. Psychology of Memory, Russia, pp.166-167.

proposes to train memory by using images, pictures and rhymes, creating personal memorable associations, separating words into meaningful parts, composing phrases to spell, or inventing stories<sup>85</sup>. Mnemotables are especially effective when learning poems. To do this, there is a technique "We remember verses by drawing." Its essence lies in the fact that for each word or small phrase a picture (image) is invented; thus, the whole poem is sketched schematically. After that, the child from memory, using a graphic image, reproduces the entire poem.



## DISCUSSION

In our work we adhere to the principle “from simple to complex”. We start with mnemonic squares (one picture) - thanks to them, children learn that each object has a name, learn to consider toys, objects, name them and compare. Initially, you need to teach children to use pictures as a support for memorizing individual words by correlating each word with a picture that is most appropriate in meaning. To do this, you can use the following tasks: A word is called, and you need to choose a picture that will help you remember this word. Words: forest, beach, vase, delicious, scary, fun, hot, salty, sour, sea, hello, gold. Then you will be shown a picture, you need to remember the word from it. Gradually we turn to mnemonic tracks (a series of pictures), according to which children make up short stories, and only then we work on mnemonic tables-diagrams (symbolic images). The main thing is to convey a conditionally visual diagram, to depict it in such a way that the drawing is understandable to the child. Mnemonics can be started from an early age, but it is

<sup>85</sup> Hancock J. (2011) Brilliant memory training. Stop worrying about your memory and start using it - to the full!, Pearson Education Limited, 272 p.

rational to introduce it into classes from 4–5 years old, when the basic vocabulary has been accumulated. There is one lesson per week. In the process of work, children have a pronounced interest in this technique. The most productive stage is the use of mnemonic tables, when children in independent activities tell familiar works or come up with their own stories. During the work on this topic, a series of mnemonic tables was created for poems for the age category of children 4-5 and 6-7 years old on the following lexical topics: "Winter", "Spring", "Summer", "Autumn". Mnemotables-poems can also be used to make homemade books for children. Just cut the already compiled mnemonic table into cells, fasten the successively obtained sheets with a stapler and the baby book is ready! Thus, the educator arouses the child's interest in creativity, in creating their own creative projects. Memorizing numeric information: For this, a ready-made image matrix is prepared in advance.

For example: • 1 - card; • 2 - a glass; • 3 - bird. But it is more efficient to use a graphic image and similarity with other objects to designate numbers. For example:



• 0 - can be designated as a clock, a globe, which have a round outline resembling a given digit.



• 1 - candle, pencil, nail;



• 2 - swan, chess horse; etc.

Systematic work on the formation of coherent speech in children using mnemonics is yielding results. According to the final diagnosis, the number of preschoolers who can retell on their own increased by 49%, and the number of children who could not compose a story decreased by half - they overcame self-doubt, their vocabulary reached a higher level. Mnemonics helps children learn logic, consistency, developing the mental abilities of preschool children, and expanding not only their vocabulary, but also their horizons in general, which is very important for learning at school.

## CONCLUSION

In conclusion, we can say that, the use of mnemonics opens up great opportunities for teachers for creativity, both in educational activities and in the joint activities of an adult and a child; enables children to learn complex material quickly

and easily. Classes with the use of mnemonics are always interesting not only for children, but also for the teacher. Through the use of techniques and methods of mnemonics:

- Children have a desire to read and retell texts.
- Children expand their knowledge of the world around them, and their interest in further studying it increases.
- Children begin to build detailed algorithms of statements and correctly formulate their thoughts in the form of a sentence, both in terms of grammar and in terms of speech norms.
- Children begin to use all parts of speech (they make fewer mistakes in their coordination, correctly use prepositions and particles without skipping or replacing them), learn generalizing concepts. Some tasks for the selection of cognate words, synonyms, the formation of complex words become available to them.
mujassamlashtiradi” Frazеologik birliklarning nominativ va kognitiv funksiyasi kommunikativ funksiya bilan bevosita aloqador. Yuqoridagi funksiyalar kommunikativ funksiyaga bog‘liq ravishda paydo bo‘ladi hamda rivojlanadi. Shu asosda frazeologik tizimdagi iearxik munosabat shakllanadi. Frazеologik birliklar uchun xos bo‘lgan semantik funksiyaga volyuntativ (lot. voluntasistak) deyktik, rezultativ va boshqa funksiyalar bevosita tegishli. Volyuntativ funksiya-bu xohish, istak bildirish funksiyasidir. Bu funksiya ba’zi frazeologik birliklar uchun xarakterlidir. Masalan: wish smb. well- omad baxt tilamoq;

Wish smb ill- muvaffaqiyasizlik tilamoq; I wish to God... — xudodan tilagim; Get one’s wish- o‘ylagan niyatiga erishmoq;

1) I wish Jane Fairwax very well;but she tires me to death

2) I wish to Godwe knew what was in their mind

3) Fleur, I love you, Fleur! Fleur uttered a short laugh. Come again, she said,when I haven’t got my wish? Frazеologik birliklarning deyktik funksiyasi haqida gapirishdan oldin deyksis haqida alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Deyksis- so‘zi yunoncha “ko‘rsatish”, “ishora” ma’nolarini anglatib, ilmiy qo‘llanishda lisno vositasida voqelikka ishora, ko‘rsatish mazmunini beradi.

Ko‘rsatish, ishora vazifasini ado etuvchi birliklarni deyktik ibora deb atashadi. Bu iboralarga nisbattan ayrim tilshunoslar “indeksikallar”(indexical) atamasini qo‘llaydi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Hozirgi kunda shaxs, zamon, makon deyksislari farqlanib kelinmoqda. Frazеologik birliklar ayrim hollarda deyktik vosita vazifasini bajarib kelishi ham mumkin. Masalan, shaxs deyksisi: At second hand- ikkinchi kishi tomonidan;

If I would govern this country wisely, I must be posted in the details of its life, and not at second hand, but by personal observation and scrutiny. Berilgan misolda ibora so‘zlovchiga ishora sifatida ifodalanmoqda. Makon deyksisi ma’lum bir joy yoki harakat yo‘nalishini ko‘rsatib berish uchun xizmat qiladi. Aynan bizning tadqiqot doiramizga kiruvchi iboralar ham bu vazifani bajarib kelishi mumkin. Masalan: Show a clean pair of heels - jo‘nab qolmoq, juftakni rostlamoq; It was evident that Captain Butler feared the worst, for he crowded on all canvas and it seemed for a time that he would show the strange ship a clean pair of heels. Zamon deyksisiga ma’lum bir vaqt bilan bog‘lik holatlarni ifodalovchi frazeologik birliklarni misol keltirishimiz mumkin: Wait to see which way the cat jumps - voqealar rivojini kutmoq; At once-birdaniga, ayni zamonda:

Frazеologik birlik voqealarning baravar yuz berayotganini ifodalab ko‘rsatmoqda; Ba’zi frazeologik birliklar uchun rezultativ funksiya ham xos bo‘lib, u

frazeologik birlik ifodalab kelayotgan harakat yoki holatning sababini ko'rsatib berishidir. Masalan: come a cropper-muvvofaqiyatsizlikka uchramoq; Make one's bed and have to lie on. It qilgan ishiga javob bermoq; Set smb's teeth on edge-kimnidir asabiga o'ynamoq; Tildagi barcha birliklar, jumladan frazeologik birliklar uchun xos bo'lgan eng muhim funksiya bu pragmatik funksiya hisoblanadi. Pragmatik maqsadga yo'naltirilganlik frazeologik birliklar uchun xarakterli jihatlardan biridir. Stilistik funksiya- frazeologik birliklarning aksariyati uchun xarakterli jihat hisoblanadi. Chunki frazeologik birliklarda denotativ ma'no bilan bir qatorda konotativ element ham ishtirok etgan bo'ladi. Bu esa nutq momentidafrazeologik birliklarning o'ziga xos stilistik vazifani ifodalab kelishini ko'rsatadi. Frazeologik birliklarning uslubiy funksiyalari xilma-xil va rang-barangdir, ularning ayrimlari tabiiy bo'lib, frazeologik birlikning ichki tabiatidan kelib chiqadi. Qolganlari esa individual xarakterga ega bo'lib, u yoki bu so'z san'atkorining estetik mahorati, xohish irodasi, til vositalaridan foydalanishdagi novatorligi bilan aloqadordir, shulardan birinchisini frazeologik birliklarning lisoniy, uzual uslubiy funksiyalari deb, keyingilarini esa nutqiy okkazonal uslubiy funksiyalari deb nomlash mumkin. Frazeologik birliklarning uzual uslubiy funksiyalari frazeologik birliklar uchun umumiy, doimiy bo'lib, har qanday matnda reallashadi va ular frazeologik birliklarning o'ziga xos kategorial xususiyatlari bilan aloqadordir. Rus tilshunosi S.G. Gavrin rus tilida frazeologik birliklarni tahlil qilganda, ularning bir necha funksiyalari mavjudligini ko'rsatib bergan. Ana shu funksiyalar ingliz tili Fraeologik birliklari uchun ham xarakterli hisoblanadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, frazeologizmlar so'zlashuv nutqida qo'llanilganda bir vaqtning o'zida turlicha funksiya bajarib, nutqni ta'sirchan, jonli hamda rang-barang bo'lishini ta'minlaydi.

Frazeologik birliklar tilimizni ta'sirchan, mazmunli hamda jonli bo'lishini ta'minlovchi birliklar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday birliklarni nutqda qo'llanilishi so'zlovchining intellektual salohiyatini belgilab bergani bois, ularni nutq momentida, qolaversa badiiy talqinda bajaradigan funksiyalarini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Har qanday frazeologik birlik uchun xos bo'lgan muqim funksiyalar mavjud bo'lib, ular nominativlik, kommunikativlik hamda kognitivlik funksiyalaridir. Nominativ funksiya frazeolgik birliklarning moddiy dunyodagi ma'lum bir obyektlar, harakat yoki holatlarni nomlash yoki ifodalab kelishida namoyon bo'ladi. Frazeolgik birliklarning kommunikativlik funksiyasi esa nutq jarayonida ma'lum bir fikr ifodalash, ma'lum bir ma'lumotni tinglovchiga yetkazish uchun foydalaniladi va bu ularning kommunikativ birlik ekanligini tasdiqlaydi.

Frazeologik birliklar uchun xos bo'lgan o'zgaruvchan funksiyalarga semantic funksiya, volyuntativ funksiya, deyktik funksiya, pragmatik funksiya, stilistik

funkusiya kabilar kiritilidi. Stilistik funksiya aksariyat so‘zlashuv frazeologik birliklari uchun xos bo‘lib, ular ma‘lum bir voqea-hodisa yoki narsa-predmet haqida xabar yetkazish bilan bir qatorda unga qo‘shimcha emotsional ekspressiv bo‘yoq yuklaydi. Shuningdek, rus tilshunosi Gavrin talqiniga binoan frazeologik birliklar yana nutq momentida, nutqni ixchamlashtirish, obrazli ifodalash, baholash bir qator muhim funksiyalar bajaradi. Frazeologik birliklar nutq momentida ham badiiy talqinda qo‘llanilganda ham ikki xil uzual va okkazonal holatda qo‘llanilishi mumkin. Ya‘ni frazeologik birliklarning uzual ma‘nosi uning lug‘atda aks etgan ma‘nosi bo‘lsa, okkazonal ma‘nosi frazemaning ma‘lum bir nutq momentida yoki matnda anglatib kelayotgan ma‘nosi hisoblanadi. Frazeologik birliklarni okkazonal xususiyatlarini birinchilardan bo‘lib, rus tilshunosi A.V.Kunin tadqiq etgan. Uning ta‘limotiga binoan frazeologik birliklar to‘rt xil usulda qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, birinchi va ikkinchi darajali uzual ifodalanish frazeologik birliklarning lug‘aviy ma‘nosiga asoslansa, birinchi darajali okkazonal ifodalanish frazeologik birlik ma‘nosidagi turli xil o‘zgarishlarni taqqozo etadi. Ikkinchi darajali okkazonal ifodalanish bo‘lsa frazeologik birlik tarkibini umuman o‘zgartirib yuboradi. Bunday ifodalashnitilshunosi Nachischione “portlash“ deb ham atagan. Frazeologik birlik tarkibidagi okkazonal o‘zgarishlarni tahlil qilish zamonaviy ingliz frazeologiyasidagi dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Chunki aynan frazeologik birliklarning okkazonal qo‘llanilishini tahlil qilish yordamida matndagi ichki ma‘no yoritilib, ekspressiv–stilistik xususiyatlar aks ettirilishi mumkin. Frazeologik birliklar uchun xos bo‘lgan o‘zgaruvchan funksiyalarga semantic funksiya, volyuntativ funksiya, deyktik funksiya, pragmatik funksiya, stilistik funksiya kabilar kiritilidi.

Stilistik funksiya aksariyat so‘zlashuv frazeologik birliklari uchun xos bo‘lib, ular ma‘lum bir voqea-hodisa yoki narsa-predmet haqida xabar yetkazish bilan bir qatorda unga qo‘shimcha emotsional – ekspressiv bo‘yoq yuklaydi. Shuningdek, rus tilshunosi Gavrin talqiniga binoan frazeologik birliklar yana nutq momentida, nutqni ixchamlashtirish, obrazli ifodalash, baholash bir qator muhim funksiyalar bajaradi.

Frazeologik birliklar nutq momentida ham badiiy talqinda qo‘llanilganda ham ikki xil uzual va okkazonal holatda qo‘llanilishi mumkin. Ya‘ni frazeologik birliklarning uzual ma‘nosi uning lug‘atda aks etgan ma‘nosi bo‘lsa, okkazonal ma‘nosi frazemaning ma‘lum bir nutq momentida yoki matnda anglatib kelayotgan ma‘nosi hisoblanadi. Frazeologik birliklarni okkazonal xususiyatlarini birinchilardan bo‘lib, rus tilshunosi A.V.Kunin tadqiq etgan. Uning ta‘limotiga binoan frazeologik birliklar to‘rt xil usulda qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, birinchi va ikkinchi darajali uzual ifodalanish frazeologik birliklarning lug‘aviy ma‘nosiga asoslansa, birinchi darajali okkazonal ifodalanish frazeologik birlik ma‘nosidagi turli xil o‘zgarishlarni

taqqozo etadi. Ikkinchi darajali okkazonal ifodalanish bo'lsa frazeologik birlik tarkibini umuman o'zgartirib yuboradi. Bunday ifodalashnitilshunosi Nachischione "portlash" deb ham atagan. Frazeologik birlik tarkibidagi okkazonal o'zgarishlarni tahlil qilish zamonaviy ingliz frazeologiyasidagi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki aynan frazeologik birliklarning okkazonal qo'llanilishini tahlil qilish yordamida matndagi ichki ma'no yoritilib, ekspressiv–stilistik xususiyatlar aks ettirilishi mumki.

Frazeologiya til va madaniyatning o'zaro aloqalarini yaqqol tushuntiruvchi tilshunoslik bilimlarining eng yuqori cho'qqisidir. Frazeologiyaning alohida fan sifatida tan olinishi bir necha bosqichlarni bosib o'tgan bo'lsada, hozirda frazeologiya o'zining ichki tuzilishi-yu, tadqiqot masalalariga ega bo'lgan alohida tilshunoslik bo'limi sifatida shakllanib bo'ldi. Undagi ko'plab muammolar hali o'z yechimini kutayotgan bo'lsada, hozirgi zamon tilshunosligida dolzarb frazeologik masalalar birin-ketin yoritilmoqda.

Ingliz tili frazeologiyasida bizning tadqiqot doiramizga kiruvchi, so'zlashuv uslubiga xoslangan frazeologik birliklar nisbattan keng tarqalgan hisoblanadi. So'zlashuv uslubi maxsus tayyorgarlik ko'rilmay shakllangan uslub sistemasidir. So'zlashuv jarayonida suhbatdoshlar bir-birining savoliga javob berganda tayyorgarlik ko'rmay vaziyatga qarab fikr yuritadi, bunda suhbatdoshlar aktivligi va operativligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Frazeologik birliklar o'zlarining semantik, funksional, uslubiy va sintaktik xususiyatlariga ko'ra so'z birikmalari, sodda va qo'shma gaplardan ajralib alohida bir turni tashkil etadi, ya'ni frazeologik biriklarda so'z, so'z birikmalari va gapning struktur belgilari neytrallashib, yaxlitlik kasb etadi. Shuning uchun bugungi kunda rivojlanib borayotgan ingliz tilshunosligida turli tipdagi so'z yasash qoliplari, semantik-funksional planda olingan frazeologizmlar orasidagi aloqalar o'rganilishi muhim.. Afsuski so'z va so'z birikmalari va gap uzoq yillar davomida tilshunoslikning asosiy birliklari sifatida qabul qilib kelindi. Bu esa birinchidan til birliklarining iearxik (pog'onali) munosabatini chuqur tahlil etmaslikka olib keldi, ikkinchidan esa boshqa til birliklari, jumladan frazeologik birliklar semantikasi, funksionaluslubiy xususiyatlari tadqiqqiga soya tashlab turdi.

## **XULOSA**

So'zlashuv frazeologik birliklari xalq og'zaki ijodida, kundalik muloqotda keng qo'llanilib, umuman uy-rozg'or buyumlari, kiyim-kechak nomlari, oziq –ovqat nomlari, pul birliklari, kundalik ish-harakatlarni, shuningdek insonning emotsionalruhiy holatlarini ifodalab keladi. So'zlashuv frazeologizmlari oddiyliigi, maishiy xarakterga egaligi, ba'zan satirik yoki hajviy uslubiy bo'yoqqa ega bo'lishi va yuqori darajadagi emotsionalligi bilan kitobiy frazeologizmlardan ajralib turadi.



Shuningdek frazeologik birliklarning tarkibiy qismida ko‘pincha konotativ element yetakchilik qiladi. Chunki frazeologik birliklar ob‘yektiv reallikni, ma‘lum voqea hodisani nomlash uchun emas, balki unga nisbattan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi. Frazeologik birliklarning asosiy qismi ma‘no jihatdan insonga qaratilgan: ular kishining biror fizik, ruhiy, aqliy-intelektual xususiyatini, hatti harakatini baholaydi. Frazeologik birlikning denotativ ma‘nosiga emotsionalekspressiv bo‘yoqdorlik yuklaydi. Shu sababi frazeologik birliklarni tahlil qilganda ularning uslubiy tavsifi muhim ahamiyat kasb etadi. Frazeologik birliklarning uslubiy jihatdan farqlash deganda, quyidagi dolzarb masalalar nazarda tutiladi: uslubiy ma‘no va uning komponentlari, frazeologik birliklarni uslubiy jihatdan farqlash mezonlari, ingliz frazeologik sistemasining uslubiy qatlamlarini belgilash, ko‘p ma‘noli va sinonim frazeologik birliklar hamda ularning uslubiy xususiyatlari, antonim, omonim frazeologik birliklar va ularning o‘ziga xosliklari kabi masalalar.

Frazeologik omonimiya esa, polisemantik iboralar tarkibidagi umumiy invariant bog‘lanishning yo‘qolib ketishi natijasida yuzaga keladi. Frazeologik antonomiyada frazeologizmlarning semantik qarama qarshiligini aniqlovchi differensiatorlar mavjud bo‘ladi. Antonim differensiatori bu frazeologik antonimlarning ma‘noni farqlash belgilarining rasmiy ifodalanishidir. Barcha tur frazeologik birliklar bir uslubga xos yoki turli uslublarga xos bo‘lishi mumkin. Bir uslubga xos frazeologizmlar ekspressivemotsional xususiyatlari bilan bir-biridan farq qilmaydi. Frazeologik birliklarni tahlil qilishda ularning funksional xususiyatlariga alohida to‘xtalib o‘tish joiz. Har qanday frazeologik birlik uchun xos bo‘lgan muqim funksiyalar bilan bir qatorda, frazeologizmlarning o‘zgaruvcham funksiyalari ham misollar yordamida ushbu tadqiqot ishimizda yoritilib berildi.

## **REFERENCES**

1. Турниёзов Н. Ўзбек дериватологиясининг бугунги аҳволи ва истиқбол тараққиёти ҳақида // Tiltaraqqiyotning qonuniyatlari. – Samarqand: SamDCHTI.
2. Aitchison J. Words in the Mind: An introduction in the Mental Lexicon. – Oxford; New York: Basil Blackwell, 1994.
3. Bally, Ch. *Precis de stylistique*. - Geneve, 1905.
4. Bushuy T.A. *Phraseological Equivalention as a Problem of Contrastive*
5. *Lexicography Contrastive Linguistics*. – Sofia, 1996.
6. Bushuy Tatyana. *Sinxronik va diaxronik tilshunoslik*. – Umumiy tilshunoslik bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. - Samarqand: SamDCHTI, 2003.

## **O'ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA O'ZBEK TILIDAGI EKVIVALENTLARI**

**S. Shermamatova**

Farg'ona davlat universiteti,  
Ingliz tili va adabiyoti fakulteti o'qituvchisi,

**Y. Mamadaliyeva**

Farg'ona davlat universiteti talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Maqola o'zbek va ingliz maqollarining umuminsoniy xususiyatlarini o'rganish va maqollarni tarjima qilish, muqobil variantini topishga qaratilgan. Shuningdek o'zbek va ingliz xalq maqollarining tilshunoslikda o'rganilish jihatlari keltirilib, bu soha bo'yicha faoliyat olib borgan olimlarning nazariyalari bilan tanishib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** xalq maqollari, janr, o'z va ko'chma ma'no, istiora, tazod san'ati.

### **ABSTRACT**

*The article is aimed at studying the universal characteristics of Uzbek and English proverbs, translating proverbs and searching for an alternative. Also presented are aspects of the study of Uzbek and English folk proverbs in linguistics, as well as the theories of scientists working in this field.*

**Key words:** folk proverbs, genre, original and figurative meaning, metaphor, art of contrast.

### **KIRISH**

Har bir millat va elatning o'zligini, tarixi, madaniyati va milliy qadriyatlarini ifodalovchi omillardan biri xalq og'zaki ijodidir. Xalq og'zaki ijodi asrlar davomida sayqallanib, xalq orasida aytilib, avlodan-avlodga o'tib kelayotgan ma'naviy meroslardan biridir. Xalq og'zaki ijodining takrorlanmas janrlaridan biri bu maqoldir. Maqol folklorshunoslikda o'rganilayotgan eng muhim mavzulardan biridir. Maqollar xalq donishmandligining nodir namunalari sifati og'zaki badiiy ijodning keng tarqalgan mustaqil janridir. Shartli ravishda ularni xalqona odob-axloq qoidalari deb atash mumkin. Zero, maqollar xalqning davomida hayotiy tajribalarida sinalgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy, axloqiy-falsafiy qarashlarining g'oyat ixcham, lo'nda, siqiq va obrazli ifodasidan tug'ilgan hodisadir. Maqollar maxsus ijod qilinmaydi, balki ma'lum bir sharoit taqozosi tufayli sinalgan hayotiy tajribadan tug'iladigan xulosaning axloqiy bahosi sifatidagi hukm bo'lib yuzaga keladi.

Maqol-arabcha "qavvola" so'zidan olingan bo'lib 'aytmoq, so'zlamoq' degan ma'nolarni anglatadi. Binobarin, "maqol" so'zi o'zbek tilida ikki ma'noda avvalo, o'z lug'aviy ma'nosida – "so'z, nutq"ni anglatasa, ikkinchidan, istilohiy ma'noda-

“folklorda keng tarqalgan janrni” ifoda etadi. Maqolda fikr aniq, xulosa tugal bo’ladi. Maqollarda ifodlangan yagona hukm har bir tinglovchida har xil kechinma yo fikr uyg’otishi tabiiy. Lekin baribir barcha bir xil xulosaga keladi. Maqollarda mantiq kuchi baland, fikr ishonarli va bahslashishga o’rin qoldirilmagan. Shu sababli ulardan nutqning istalgan maqsadda foydalanish mumkin. Shunga qaramay, maqollar, odatda, jiddiy tusda aytiladi va tinglanadi. Lekin ba’zi hollarda kinoya, piching, istehzo, zaharxanda ma’nolarida ham ishlatilishi mumkin. Maqol hamma xalqlar og’zaki ijodida uchraydigan janrdir. Har bir xalq hayotiy tajribalarini maqollar shaklida kelgusi avlodga qoldiradi. Tarixdan ma’lumki har bir xalq hayotida juda ko’p o’xshashlik bor, shuning uchun ko’p xalqlarning maqollari o’xshashdir. Ijtimoiy hayotning deyarli hamma sohasi xalq maqollarida aks etadi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

G’arb va Sharq adabiyotidan, ingliz va o’zbek maqollarini o’xshash jihatlariga nazar solsak, ushbu ikkala millatda ham do’sstlik, vatanparvarlik, hallolik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, adolat kabi tushunchalar doimo madh etilgan. Misol uchun: Bulbul chamanni sevar-Odam Vatanni. Ingliz tilida esa: Every bird likes its own nest – maqolini aytishimiz mumkin. Ushbu maqolni so’zma-so’z tarjima qilsak, har bir qush o’z inini sevadi degan tarzda tarjima qilinadi va o’zbek tilidagi maqol bilan bir xil Vatanni sevish ma’nosi yuzaga kelsada lekin tarjimadan ko’ra o’zbek tilidagi ekvivalentini keltirsak yanada aniq va tushunarli bo’ladi.

Maqollarning har ikkala tilda o’rganilish jihatlarini solishtiradigan bo’lsak, maqollarni to’plam holatiga kelishi, badiiy vositalarning ishlatilish o’rnini o’rganish va umuminsoniy jihatlarini ko’rsatish kabi masalalar deyarli bir xil.

Ingliz tilida maqol atamasi asosan “proverb” so’zi orqali ifoda etiladi. Ba’zan ko’plab adabiyotlarda: adages, distums, maxims, mpttoes, precepts, saws, truism so’zlari orqli ham maqol tushunchasini berishimiz mumkin.

Ingliz xalq maqollari ham xuddi o’zbek xalq maqollari singari g’oyat mukammal va xalq og’zaki ijodining eng sara namunalaridan biridir. Ingliz va butun G’arbiy Yevropa davlatlarining xalq og’zaki ijodi va aynan maqollarning tarqalishida, maqollar kitobi deb atalmish “Bible” ya’ni Bibliyaning o’rni katta. Kitob ingliz xalq maqollarini o’zida jamlagan bo’lib, aynan qadimgi ajdodlar tomonidan aytilgan maqollar keltirilgan.

Ingliz tilida maqol o’ta murakkab va juda ko’p izlanishlar olib borilgan sohalardan biridir. Ayniqsa, maqollarning nazariy jihatdan qilingan ko’plab yangiliklari bu soha ustida ish olib borayotgan tadqiqotchilarga asosiy poydevor bo’la oladi.

Ingliz olimlari tomonidan maqollarning har xil xususiyatlari ko'rib chiqilgan va takliflar keltirilgan. Ingliz maqollari ustida ko'plab izlanishlar olib borgan olimlar sifatida Honik, Mayder, Norik, Teylor, Aroralarni ayta olamiz. Ular maqollarni o'ziga xos eng muhim jihatlarni fanda isbotlab, asosan, ulardagi strukturaviy tuzulish, qanday badiiy vositalarning ishlatilishi, ijtimoiy hayotdagi o'rni kabi masalalarga e'tibor qaratganlar va ularni o'z asarlarida berib o'tganlar. Ushbu sohaga juda katta hissa qo'shgan olimlardan biri folklorshunos Maydarning xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim. Chunki u maqollar ustida juda ko'plab izlanishlar olib borgan va nazariy asarlar yozgan olimlardan biridir. U o'z asarlarida maqollarning eng muhim ahamiyatli tomonlarini to'laligicha izohlashga harakat qilgan. Va u maqol haqida shunday fikrlarni bildiradi:

*“Proverbs are used in a wide of situations and no limits to the use of the proverb. They can be used to strenghten our arguments, express certain generalitions, influence or manipulate other people, rationalize our own shortcomings, question certain behavioral patterns, satirize social ills, poke fun at ridicuiolous situations”.*

Ya'ni: “Maqollar juda keng ko'lamda qo'llanilib ularni qo'llashda chegara yo'q. Maqollar bizning dalillarimizni mustahkamlash, umumiy aniq fikrlarimizni mustahkamlash, umumiy va aniq fikrlarimizni ifodalash, boshqa insonlarni boshqarish yoki ularga ta'sir o'tqazish, jamiyatdagi illatlarni ifodalash”.<sup>86</sup>

Shuningdek, folklorshunos olim Norik maqollar haqida “Maqollar mavjud voqea yoki hodisaning axborotchisi” deydi va maqollarning o'ziga xos jihati an'anaviylik haqida shunday fikrni bildiradi.” The traditional nature of proverbs correlates closely with their status as items of folkloric”.

Maqollar nazariyasi haqida o'z izlanishlarini olib borgan olimlardan biri Trench bo'lib, u maqollardagi 3 narsani “shortness, sense, salt” ya'ni “qisqalik, hissiyot, ta'm” ni juda muhim deb hisoblaydi. Bularni quyida qisqacha keltiramiz: 1. Shortness (Qisqalik): Trench maqollardagi qisqalik eng muhim omil deb aytadi. Yaxshi maqol hamisha qisqa, yurakdan aytilib yurakka yetib borishi lozim deydi. U ba'zan 2,3, yoki undan ortiq so'z bilan ifodalangan bo'lishi kerkligini aytib o'tgan.

Honek maqollarni jamiyatning barcha sohasida folklorchi olimlardan tortib to siyosatchilar, hatto huquqshunoslar ishida ham ahamiyatga ega ekanligi aytadi. Shunga ko'ra maqollarning turli xil maqsad va vazifalari, istiqbollari, taxmin va farazlari, uslublari va nazariy xulosalari mavjudligini ta'kidlaydi. Uning fikricha maqollar aniq va tugal nazariyaga ega emas. Lekin Honek o'zining “A proverb in mind: the cognitive science of proverbial wit and wisdom” asarida maqollarning o'ziga xos 7 ta muhim xususiyatini ko'rsatadi: Personal: The proverb is treated from

<sup>86</sup>Axmedova.U.K. Ingliz va o'zbek maqollarining lingvokulturologik va semantik xususiyatlari. Urganch, 2014. 41-bet.

a subjective viewpoint based purely on personal experience and understanding.

Formal: This is a scientific approach that primarily uses the methods and concepts of linguistics, logic, and semiotics to define, classify and semiotics to define, classify and otherwise analyze proverbs.

- *Religious: Religious teaching and wisdom are examined in texts.*
- *Literary: Proverbs in prose and poetry re analyzed in terms of their literary value and what they tell us about the writer, their times, and so forth.*
- *Practical: The many uses of the proverb in intelligence testing, psychotherapy and other areas are examined.*
- *Cultural: This is a scientific approach to the proverb that treats it as a multifunction from of folk literature that arises from and is embedded in a sociocultural context.*
- *Cognitive: this is a scientific approach based on cognitive science that attempts to explain how individuals use and understand proverbs. [ 53;14]*

Ko'rib turganingizdek, maqollar uchun berilgan har bir nazariyaning maqollarni tadqiq qilishda o'ziga xos ahamiyati bor.

Ingliz folklorshunosligida o'zgacha o'rin egallagan bu janr, o'zbek adabiyotida ham ko'plab izlanishlarga sabab bo'lgan. O'zbek folklorshunosligida maqollar ustida izlanishlar XIX asrdan boshlangan bo'lib: Hodi Zarifov, Buyuk Karimov, G'ulom Zafariy, Mansur Afzalov, Rajab Jumaniyozov, To'ra Mirzayev, Malik Murodov, Ibrohim Haqqulov kabi olimlar asosan maqollarni yig'ib ularni to'plam holatiga keltirish ishlarida o'z hissalarini qo'shganlar. Keyinchalik maqollarning ichki strukturaviy tuzilishi va boshqa tillar bilan qiyosiy o'rganish ya'ni maqollar bo'yicha tarjimashunoslik ishlari boshlangan. Bu o'rinda M. Abdurahimov, K.Karomatova, H.Berdiyorov, R.Rasulovlarning o'rni beqiyosdir.

B.Sarimsoqov va M.Afzalovlarning izlanishlari natijasida ular maqollarni quyidagicha tasnif qiladilar: Alfavit tartibida, mavzu bo'yicha tasnif, poetik va tarixiy tasnif, maqollarning tuzilishi bo'yich tasnif.

1.Alfavit tartibi. Bunda mavjud maqollar to'plamda alfavit tartibida jamlanadi. Bu holat esa foydalanuvchiga to'plamdagi kerakli maqolni tezroq topishiga yordam beradi.

2.Mavzu bo'yicha tasnif. Tanifning bu turida esa material muayyan mavzular bo'yicha guruhlariga ajratiladi va har bir guruh doirasida alfavit tartibida beriladi.

3.Poetik tasnif. Maqollarning ko'pchiligida davrlar o'tishi bilan ma'no tabiati o'zgarib turadi: ilgari o'z ma'nosida qo'llanilgan maqollar keyinchalik faqat ko'chma ma'noda qo'llanishi mumkin. Bu tasnif yuqorida aytib o'tganimizdek, o'z ma'nosida, ko'chma ma'noda va o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llanuvchi maqollarni aniqlaydi.



Kòchma ma'noda qòllanuvchi maqollar: "Quruq qoshiq o'giz yirtar". Faqat kòchma ma'noda qolanuvchi maqollar: "Baliq boshidan chirydi".

4. Tarixiy tasnif. Maqol-juda qadimiy, ayni paytda hamisha zamonaviy janr. Shuning uchun ham maqollar har xil davrlarga mansub. "Qum yig'ilib tosh bo'lmas, qul yig'ilib bosh bo'lmas", "Qul qutursa, quduqqa tuflar"- quldorlik maqollari. "Amirning oshidan -faqirning mushti yaxshi". "Badavlatning noni yarim", "Bekga yetguncha beling sinar"-bu kabi maqollar hozir ko'chma ma'noda ishlatiladi.

5. Maqollarning tuzilishiga ko'ra tasnif etish. Bunda maqollar tarkibidagi mantiqiy markazlar miqdoriga qarab bir nechta guruhlarga bo'linadi: a) ikki (komponentli) qismli maqollar: "Aytilmagan yerga qo'nilmagan tayoq", "Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar", b) to'rt komponentli maqollar:

Arg'umoqda ayol yo'q deb,

Yo'lga tashlab ketmanglar.

Er yigitga mol yo'q deb,

Yovga tashlab ketmanglar.<sup>87</sup>

Maqollarning ixcham shaklga egaligi, lo'nda fikrning ifodalanishi, nasriy va she'riy shaklda bòlishidan tashqari yana bir xususiyati maqollarda badiiy-tasviriy vositalardan foydalanganigidir. Maqollarda kòproq tazod (zid qòyish) san'ati qo'llaniladi. Masalan, "Dòst achitib gapirar, dushman kuldirib", "Kòp òyla, oz sòyla", "Egri ozar, tògri òzar"...

Yana bir san'at istiora (metafora) dir, ya'ni òxshatish. Masalan, "Et bilan tirnoqni ajratib bòlmas".

Xalq maqollari ichida salbiy xislatli odamlarga nisbatan tòqilgan maqollar ham bor. Masalan: "Nafsi buzuq hayitda òlar", "Òtin ayirgan bolta maydonda qolar" kabi.<sup>88</sup>

Maqollardagi pand-nasihat xarakteri ularni yanada jonli va kuchli ta'sirchanligini oshiradi. Masalan: Inglizcha "A bad excuse is better than none" o'zbek tiliga -xohlamasdan kechirim so'rash, umuman so'ramagandan yaxshi deb tarjima qilinadi. O'zbekcha muqobil variant sifatida "Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar, Yomon gap bilan musulmon dinidan" maqolini keltiramiz. Ko'rinib turganidek, ushbu maqollar pand-nasihat mazmunidagi ma'noni beradi. Ya'ni, shaxsga har doim shirin so'zli va yaxshi kalomli bo'lish kerakligini anglatadi. Maqolning har ikki tildagi variantlari ham bir xil ma'noni beradi. Maqollarni o'rganish jarayonida uning tuzulishi, qanday ko'rinishdagi sintaktik butunliklar orqali tashkil topgani muhim omildir. Maqollar tuzilishiga ko'ra, bir va bir necha sintaktik

<sup>87</sup> Xalq og'zaki ijodi. I. Qodirova. 20-bet.

<sup>88</sup> Xalq og'zaki ijodi. I. Qodirova. 20-bet.

butunliklar asosida tashkil topgandir. Bir sintaktik butunlikdan iborat maqollar, odatda bir qismli maqollar sanalib, ko'pincha darak gap yo'sinida bo'ladi. Aynan shu tomonlari bilan o'zbek va ingliz xalq maqollari juda o'xshashdir. Quyidagi maqollar orqali fikrimizni isbotlashga harakat qilamiz.

- The absent is always in the wrong- O'zi yo'qning — ko'zi yo'q.
- There is no accounting for tastes -Har kim suygan oshini ichadi.
- Actions speak louder than words -Gap bilguncha — ish bil.
- Advise none to marry or go to war-Har kimning niyati o'zining yo'ldoshi.

Aksariyat maqollar ikki qismdan tashkil topgan bo'lib, bir qismi tasviriy mohiyatga ega, ikkinchi qismi xulosadan iboratdir:

- After dinner sit a while,

After supper walk a mile.

- Qorning ochmasdan ovqat yegin,
- Qorning to'ymasdan qo'l artgin.
- Art is long, life is short.
- Ilmsiz — bir yashar, Ilmli — ming yashar. <sup>89</sup>

Maqollar shakliga ko'ra, nasriy hamda she'riy tuzulishga ega bo'ladi.

All asses wag their ears- Ahmoq aql o'rgatar.

Barking dogs seldom bite- Qopag'on it tishini ko'rsatmas kabi maqollar nasriy tuzulishdagi maqollar hisoblanadi. O'zbek xalq maqollari ichida she'riy shakldagi maqollar ingliz maqollariga nisbatan ko'p uchraydi. She'riy shakldagi maqollarda o'ziga xos vazn, qofiya va ohangdorlik mavjud.

Oltovlon ola bo'lsa,

Og'zidagin oldirar.

To'rtovlon tugal bo'lsa,

Tepadagin endirar.

She'riy tuzulishdagi maqollarda ritmik-sintaktik parallelizmlar, alliteratsiya, qofiya va boshqa ko'pgina poetik vositalar ifodalanadigan ibratli fikrni jarangdor, ohangdor, libos bilan bezantirsa, ayrim hollarda oddiy so'zlarning takrorlari yoki radiflar ham qofiya vazifasini o'taydi.

Masalan:

Yomonga bo'ldim yo'ldosh,

Ishimga bo'lmadi qo'ldosh.

Yaxshiga bo'ldim yo'ldosh,

Ishimga bo'ldi qo'ldosh.

<sup>89</sup> Ingliz va o'zbek maqollari haqida nazariy qarashlar. Raxmatullayeva S.J.77-bet/

Bu hodisa ko'proq o'zbek maqollari uchun xosdir. Asosan o'zbek maqollarining katta ko'pchiligida alliteratsiya, qofiya kabi poetik vositalarning ishtiroki ko'p kuzatiladi.

Xuddi o'zbek maqollari singari ingliz maqollarida ham turli xil badiiy vositalarning maqollardagi faol ishtirokini kuzatishimiz mumkin. Maqollardagi badiiy vositalarning ishtirokini ingliz olimlaridan Arora o'zining bir qator maqolalarida keltirib o'tadi.

Maqollardagi alliteratsiyaning mavjudligi: No fool like an old fool.

Maqollardagi ritmning mavjudligi:

A friend to everybody is a friend to nobody

Inversiyaning mavjudligi:

Better is a neighbor nearby than a brother far away.

Tazod sanatining ishlatilishi:

Fools never know when they are well.

O'zbek va ingliz xalq maqollari mavzu jihatidan juda rang-barangdir. Agar barcha o'zbek va ingliz xalq maqollari keltirilgan to'plamlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, ularda o'zbek xalqi hayotining har bir jabhasida uchraydigan narsalar va turli xil hodisalarning maqollarda ifodalanishiga guvoh bo'lamiz. Filologiya fanlari doktori, professor To'ra Mirzayev, Asqar Musaqulov, Bahodir Sarimsoqovlar tomonidan 2005- yilda chiqqan to'plamida o'zbek xalq maqollarining 70 ga yaqin mavzudagi maqollarning jamlanmasi berilgan.

To'plamda o'zbek xalq hayotining barcha sohalarida uchraydigan maqollarni topishimiz mumkin. Ilmiy ishimizning ushbu qismining asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda "O'zbek xalq maqollari" to'plamidagi bir xil mavzudagi maqollarning har ikkala tilda muqobil variantiga ega yoki ega emasligini sabablarini xalqlarning mentalitetidan kelib chiqqan holda isbotlashga harakat qilamiz. Tahlil qilinadigan barcha o'zbek xalq maqollarining inglizcha muqobil variantlarini K.M.Karomatova va H.S.Karomatovlarning "Proverbs. Maqollar. Пословицы" deb nomlangan kitobidan keltiramiz.

1. Vatan va vatanparvarlik: Every bird likes its own nest.

Tarjimasi: Har bir qush o'z inini sevadi.

Muqobil varianti: Bulbul chamanni sevar-Odam Vatanni.

2. Mehnatsevarlik va ishyoqmaslik : Speak less but do more.

Tarjimasi: Ko'p gapirma, ko'p ishla.

Muqobil varianti: Qo'ling ishda, ko'ngling Allohda bo'lsin.

3. Halollik va tekinxo'rlik: A) Back is spent under his belly, What is got over the devil's.

B)Shayton kuchi bilan topilgan, shayton puchi bilan ketar. C)Haromdan yig'ilgan haromga ketar

4. To'g'rilik va egrilik:

A)Ill gotten, ill spent.

B)Yomonlik bilan topilgan yomonlikka ketar.

C)Haromdan kelgan haromga ketar.

5. Yaxshilik va yomonlik: A)Forgive and forget.

B)Kechir va unut. C)Yomonlikni yaxshilik bilan yeng.

6. Yaxshi so'z va yomon so'z:

A)A bad excuse is better than none.

B)Xohlamasdan kechirim so'rashyo'g'idan yaxshidir. C)Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar, Yomon gap bilan musulmon dinidan.

7. Adolat, insof va insofsizlik:

A)Give him an inch and hell take an ell.

B)Unga bir duym bersang, bir eloladi.

C)Insof bilan qo'l uzatsang, Noinsof yelkanggacha chiqar.

8. Do'stlik va dushmanlik: A)A friend in need is a friend indeed.

B)Qiyinchilikdagi do'st — asl do'st.

C)Jonga kuygan jondan do'st, Jonga kuymas qanday do'st.

9. Botirlik va qo'rqqoqlik: A)Losers are always in the wrong.

B)Yutqazganlarning doim jahli chiqadi. C)Yiqilgan kurashga to'yimas.

10. Tenglik va tengsizlik: A)It is an equal failing to trust everybody and to trust nobody. B)Hammaga ishongan va hech kimga ishonmaslik bir xil xatodir.

C)Har kimning bo'yiga qarab to'n bich.

11. Donolik va nodonlik: Long hair and short wit.

B)Sochi uzun, aqli kalta. C)Aqli boshda soch turmas.

12. Ilm, kasb-hunar va ilmsizlik: Invention breeds invention.

B)Topqirlik topqirlikni yaratadi.

C)Bilimlining bilimi yuqar, Bilimsizning nimasi yuqar.

“O'zbek xalq maqollari” to'plamida 70 ga yaqin mavzu bo'yicha xalq maqollari keltirilishiga qaramasdan, biz asosan kundalik hayotda eng ko'p uchraydigan va aslida mavzu jihatidan bir- biriga o'ta yaqin bo'lgan maqollarni bir mavzu doirasida olishga qaror qildik. Jadvaldan ko'rib turganingizdek, o'zbek xalq maqollarida uchraydigan barcha mavzularga oid maqollarning deyarli barchasi ingliz xalq maqollarida uchraydi. Fikrimizning isboti sifatida yuqorida o'zbek xalq maqollarida

uchraydigan barcha mavzudagi maqollarning inglizcha yoki ingliz xalq maqollarida uchraydigan o'zbekcha maqollarning bir-biriga nisbatan ishlatiladigan muqobil variantini izlab, keltirib o'tishga harakat qildik.<sup>90</sup>

Demak, o'zbek va ingliz xalq maqollarida mavzu jihatidan bir-biriga o'xshash maqollarning ekvivalentlarini topish mumkin. Natijada har qanday mavzudagi maqolni olmang, u har ikkala tilda o'z muqobil variantiga egadir. Buning asosiy sababi shuki, barcha insoniyatga xos xislatlar hamma millatga xosligidadir. Biroq biz bu fikrlarimiz bilan o'zbek va ingliz tillaridagi maqollar aynan bir xil qo'llanilish o'rniga ega degan fikrni keltirolmaymiz. Shunchaki biz ingliz va o'zbek maqollarida uchraydigan mavzularning har ikki tildagi maqollarda mavjud yoki mavjud emasligini aniqlab olmoqchimiz xolos. Shu o'rinda maqollarni alohida tahlil qilsak, ulardagi ma'no-mazmun barchasida ham bir xil emasligini ko'rishimiz mumkin. Lekin ilmiy ishimizning ushbu qismining asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda maqollarning har ikkala tildagi variantlarini o'zaro tahlil qilib chiqmoqchi emasmiz. Muhimi ingliz tilidagi ma'lum bir mavzudagi maqollar o'zbek tilida ham uchrashi yoki aksincha o'zbek tilidagi ma'lum bir mavzudagi maqollar ingliz tilida ham uchrashi mumkin ekanligini isbotladik. Demak, ingliz va o'zbek maqollari ustida mavzu jihatidan olib borgan tadqiqotimizga ko'ra, o'zbek maqollarida uchraydigan barcha mavzularning ingliz tilidagi maqollarda ham uchratishimiz mumkin degan xulosaga kelamiz.

Turli tillarning maqollariga to'xtalar ekanmiz, ular o'sha til egasi bo'lmish xalqning tarixiy, ma'naviy va moddiy madaniyati ko'zgusi ekaniga guvoh bo'lamiz. Shu sababli, turli til maqollarini qiyosiy o'rganish millatning o'ziga xos madaniy va milliy qirralarini ochishga yordam beradi, boshqacha qilib aytganda, o'sha xalqning mentalitetini ko'rsatadi.

“Mentalitet” tushunchasi tilshunoslik paradigmasiga kiritilganiga hali ko'p bo'lmagan bo'lsada, hozirda juda keng doirada qo'llanilmoqda. Tor ma'noda mentalitet “fikrlash doirasi, dunyoqarash” mazmunida foydalanilsa, keng ma'noda esa “xalqning axloqi, tarbiyasi va tasavvuri tushuniladi”

Mentalitet tushunchasini tilshunos V. fon Gumboldt qarashlarida ham ko'rishimiz mumkin. Uning fikricha, mentalitet – bu “xalqning nafaqat tilida, balki adabiyoti, dini va boshqa ma'naviy jabhalarida ham o'z aksini topgan xarakteridir”. Shunday ekan, yuqorida aytib o'tilganidek, bu “milliy xarakter” xalqning dini, siyosati, urf – odatlari, ijtimoiy qatlami, turmush tarzi, tarixi va hatto geografik o'ri bilan ham chambarchas bog'liq.

<sup>90</sup> K.M.Karomatova va H.S. Karomatovlar. “Proverbs.Maqollar. Пословицы”.



Ingliz tili maqollaridagi milliylik haqida gapirar ekanmiz, ingliz xalqining xarakteri haqida soʻz yuritmay ilojimiz yoʻq. Dunyo millatlari orasida bu xalq vakillari magʻrur va hurmattalabligi bilan ajralib turadi. Bu jihat maqollarida ham koʻrinadi:

Inglizcha: Better be the head of a dog than the tail of a lion.

Oʻzbekcha tarjimasida: Arslonning dumi boʻlgandan koʻra itning boshi boʻlgan afzal.

Oʻzbekcha varianti: Arslonning oʻligi — sichqonning tirigi.

Inglizcha: Better go to heaven in rags than to hell in embroidery.

Oʻzbekcha tarjimasida: Jahannamga kimhob kiyib borgandan, jannatga juldur kiyib borgan afzal.

Oʻzbekcha varianti: Boy boʻlib bezillaguncha,

Qul boʻlib qoʻporib yur.

Inglizcha: Better untaught than ill-taught.

Oʻzbekcha tarjimasida: Chalasavoddan savodsiz afzal.

Oʻzbekcha varianti: Chalasavod — chirik rabot.

Inglizcha: Better die a beggar than live a beggar.

Oʻzbekcha tarjimasida: Kambagʻal boʻlib yashagandan kambagʻal boʻlib oʻlgan afzal.

Oʻzbekcha varianti: Otliqning qamchisi ham,

Yayovning kaltagi ham,

Kambagʻalning boshiga tegadi.

Koʻrib turganingizdek ushbu inglizcha maqolning oʻzbekcha tarjimasida kambagʻal boʻlib yashash qoralanyapti. Yaʼni kambagʻal bechora boʻlib yashash inson uchun uyatli hol ekanligi aytilyapti. Biroq oʻzbekcha variantida maʼno xuddi inglizcha variantidagidek deyolmaymiz. Bu yerda kambagʻal, bechora har doim xoʻrlanishi haqida aytilyapti. Maqolning oʻzbekcha variantidagi umumiy maʼnosida kambagʻallik uyat yoki gunoh darajasida qoralanmagan.

Demak, oʻta darajada gʻururga berilish va hurmattalablik xislatlari oʻzbek xalqiga nisbatan ingliz xalqida koʻproq ekanligi maqollarda ifodalangan. Bu holatni esa oʻzbek xalq maqollarida biroz boshqacharoq holda koʻrishimiz mumkin. Yaʼni oʻzbek xalqi oʻzgalarga hurmat koʻrsatish oliyjanob fazilat ekanligini oʻz maqollarida ifodalaydi.

- Kattaga hurmatda boʻl, kichikka izzatda.
- Hurmat qilsang, hurmat koʻlasan.

Shuningdek, inglizlarga xos yana bir jihat – bu ularning bolalarga nisbatan uy hayvonlariga boʻlgan mehri ustunroq turishini maqollarda “bola” obrazidan koʻra “it”,

ayniqsa, “mushuk” obrazlari ko’proq qo’llanilishida kuzatamiz.

Masalan:

- Dog does not eat dog. - Qarg’a qarg’aning ko’zini cho’qimaydi.
- Barking dogs seldom bite. - Ko’p vovullagan it tishlamaydi.
- When the cat is away, the mice will play.- Mushuk yo’q bo’lsa sichqon bayram qiladi.
- A cat in gloves catches no mice. - Qo’lqopli mushuk sichqon tuta olmaydi.

Ammo ayrim o’zbek maqollarida “it” va “mushuk” obrazlari ko’proq salbiy ma’noda, salbiy obrazda ishlatiladi. Masalan:

- It hurar karvon o’tar. - The dogs bark, but caravan goes on.

Itlar bilan yotgan, bitlab turar. - Down with dogs must rise up with fleas, He that lies.

- Itni suyak bilan ursangiz, qopmas. - A dog will not howl if you beat him with a bone.
- Itdan suyak artmas, mushukdan – bez. - Two dogs over one bone seldom agree.
- Tanlay, tanlay tozga yo’liqdim, boshi piyoz kalga yo’liqdim.  
Scornful dogs will eat dirty puddings.

Ushbu maqollarda “it” obrazi ko’proq jahldor, yomon, iflos, poraxo’r, ochko’z, dimog’dor odamlarga qaratilgan holda gavdalanadi. Biroq yana ba’zi bir maqollar borki, bunda it obrazi vafodorlik, yaxshilik, donolik, sofdillik obrazlarida gavdalanadi.

- Yaxshi itga- yaxshi suyak. - A good dog deserves a good bone.
- O’lik arslondan tirik it afzal. - A living dog is better than a dead lion.
- Qari it ko’p yo’l bilar. - An old dog barks not in vain.

Biroq farzandlar, bolalar haqidagi maqollar o’zbek xalqining eng sevimli mavzularidan biridir. Chunki o’zbeklar bolajon xalq bo’lib, ona va bolaga bo’lgan e’tibor ahamiyatga molik:

- Ona bilan bola – gul bilan lola.
- Bolali uy – bozor, bolasiz uy mozor.
- Bolamning bolasi – qandin o’rik donasi.

O’zbek xalqi nonni juda e’zozlaydi va ingliz xalqiga nisbatan ko’proq iste’mol qiladi. O’zbek xalqining ayollari xamir qorib, tandir-tandir non yopadi. Kundalik turmushda bu holatning necha ming yillardan beri takrorlanib keladi. Buning ishtiroki o’zbek xalq maqollarida ko’p kuzatiladi.

- Non mo’lligi — el to’qligi.
- Nonga hurmat – elga hurmat.

Maqollardagi milliy koloritni ta’minlaydigan yana bir obraz – bu o’sha xalq taomlaridir. Isbot uchun:

Ingliz tilida:

- Every cook praises his own broth - Har bir oshpaz o'z sho'rvasini maqtaydi.
- Too many cooks spoil the broth - Oshpaz ko'p bo'lsa, sho'rva buziladi.

O'zbek tilida:

- Har kuni yema palovni, har kuni yoqqil olovni.

O'zbek va ingliz xalq maqollarini mavzu jihatdan tahlil qilib, o'zbek tilida mavjud bo'lgan maqollardagi mavzularning barchasi ingliz xalq maqollarida hamuchrashi mumkin degan xulosaga keldik. Har ikkala tildagi maqollarning bir xil mavzudagi bir-biriga o'xshash ekvivalentlarini topish mumkin. Natijada har qanday mavzudagi maqolni olmang, u har ikkala tilda o'z muqobil variantiga egadir. Xullas, ingliz va o'zbek maqollarining mavzu doirasi rang-barang va har ikki tilda deyarli bir xil mavzular mavjud. Biroq ayrim mavzudagi maqollar bir tilda ikkinchi tilga nisbatan ko'proq uchrashi mumkin. Buning sababi ko'p sonli maqollarni qamrab oluvchi mavzular xalq hayotining asosiy bo'g'inini tashkil qilishidadir.

Har ikki tildagi maqollarni chog'ishtirma tahlil qilish jarayonida xalqning mentaliteti va milliy xarakteri asosiy yetakchi hisoblanadi. Shu o'rinda ingliz va o'zbek xalqining o'ziga xos mentaliteti va urf-odatlaridan kelib chiqqan holda tildagi maqollar ixcham va ifodali tarzda xalqlarning milliy o'zligini ko'rsata oladi.

Oila va qarindosh urug'chilik munosabatlariga jiddiy qaralishi o'zbek maqollarida yaqqol tus olgan bo'lsa, uy hayvonlariga bo'lgan mehrning kuchliligi ingliz xalq maqollarida ko'proq gavgdalanadi. Bundan tashqari, xalqlarning milliy taomlari, milliy kiyimlari ham xalq maqollarida uchraydi. Ana shu xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, bu ikki xalqning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini o'rgana olamiz.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek xalq maqollari bu xalqlarningning madaniy merosidir. Ularda ingliz va o'zbek xalqning barcha o'y – fikrlari, dunyoqarashi, turmush tarzi, fe'l – atvori va e'tiqodi aks etadi. Har bir millat o'ziga xos tavsiflarga ega ekan, bu ularning maqollariga ham ta'sir etmay qolmaydi. Hatto ayrim ingliz va o'zbek maqollardagi mavzular o'xshash bo'lsada, ulardagi obrazlar takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvirlar maqollardagi milliy bo'yoqdorlikni ta'minlaydi.

## **REFERENCES**

1. Axmedova.U.K. Ingliz va o'zbek maqollarining lingvokulturologik va semantik xususiyatlari. Urganch, 2014
2. I. Qodirova. Xalq og'zaki ijodi.

3. K.M.Karomatova va H.S. Karomatovlar.”Proverbs.Maqollar. Пословицы”.
4. Ingliz va o’zbek maqollari haqida nazariy qarashlar. Raxmatullayeva S.J.77-bet
5. kizi Shermamatova, S. U. NEOLOGISMS IN MODERN UZBEK AND ENGLISH AND THE HISTORY OF THEIR ORIGIN.
6. Shermamatova, S., & Nazirova, Z. (2022, April). SCIENTIFIC ANALYSIS OF LEXICOGRAPHY IN UZBEK LANGUAGE. In *International Virtual Conference on Language and Literature Proceeding* (Vol. 1, No. 2).
7. Shermamatova, S., & Yusupova, S. (2022, April). TRANSLATION THEORIES OF NEOLOGISMS. In *International Virtual Conference on Language and Literature Proceeding* (Vol. 1, No. 2).
8. Shermamatova, S., & Abdullayeva, D. (2022). EDUCATION SYSTEM OF UNITED KINGDOM AND UZBEKISTAN. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 491-497.
9. Shermamatova, S., & Ibrokhimova, M. (2022). THE RENAISSANCE PERIOD IN ENGLISH AND UZBEK LITERATURE. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 510-518.
10. Shermamatova, S., & Tursunova, M. (2022). THE WORK CURRENTLY BEING DONE TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION IS THEIR EFFECTIVENESS.
11. Sevara, S., Shakhriyor, K., & Kosimov, A. (2022, December). IMPLEMENTATION OF DIGITAL TOOLS IN THE EFL CLASSROOM. In “*ONLINE-CONFERENCES” PLATFORM* (pp. 34-37).

## **THE PROBLEMS FACED BY THE LEARNERS OF ARABIC LANGUAGE AS NON-NATIVE SPEAKERS**

**Tojiyeva Zamira Zafar qizi**

2<sup>nd</sup> year master's student in Linguistics

Samarkand State Institute of Foreign Languages

+998908709095

Zamirat@gmail.com

### **ABSTRACT**

*“Arabic is easy to learn such as Hindi, French or Sanskrit. However, many people stigmatize it with Muslims. I've seen many Hindu students show interest in Arabic as well. If not for the stigma, it can garner more interest,” said Hamza Mubarak, Arabic master at Al-Ameen School. He said that on average, it takes only three months to learn reading and writing Arabic and just one or two years to become fluent.*

*Today's learners have a plenty of chances in learning any new languages, however, there are some challenges when going into foreign languages. Nowadays more and more people are interested in learning Arabic language, and fascinated by Arabic world by the strategic importance of its people and the region they occupy. Moreover, there is a great deal of adherence of Arabic learners because of various goals such as cultural, religious, financial concerns. Also, Arabic as an evaluative language in academic settings is determined by a certain lexical-grammatical set, which, when directly translated into other languages. In this article the focus will be on the problems of non-native speaking learners of Arabic language and are illustrated several experienced challenges.*

**Keywords:** *non-native learners, MSA, CA, colloquial spoken Arabic, Arab countries, challenges, speaking or listening competences, Arabic language teaching programs.*

### **АННОТАЦИЯ**

*«Арабский язык легко выучить, например, хинди, французский или санскрит. Однако многие люди клеймят его мусульманами. Я видел, как многие студенты-индуисты также проявляли интерес к арабскому языку. Если бы не клеймо, это могло бы вызвать больший интерес», — сказал Хамза Мубарак, учитель арабского языка в школе Аль-Амин. Он сказал, что в среднем требуется всего три месяца, чтобы научиться читать и писать по-арабски, и всего один или два года, чтобы свободно говорить.*

*Сегодняшние учащиеся имеют много шансов в изучении любых новых языков, однако при переходе на иностранные языки возникают некоторые проблемы. В настоящее время все больше и больше людей заинтересованы в*



*изучении арабского языка и очарованы арабским миром из-за стратегической важности его людей и региона, который они занимают. Более того, существует большая приверженность изучающих арабский язык из-за различных целей, таких как культурные, религиозные и финансовые проблемы. Также арабский как оценочный язык в академических условиях определяется определенным лексико-грамматическим набором, который при прямом переводе на другие языки. В этой статье основное внимание будет уделено проблемам изучающих арабский язык, не являющихся носителями языка, и проиллюстрированы несколько испытанных проблем.*

**Ключевые слова:** *учащиеся, не являющиеся носителями языка, MSA, CA, разговорный арабский язык, арабские страны, проблемы, навыки говорения или аудирования, программы обучения арабскому языку.*

## **INTRODUCTION**

Arabic is unique and challenging language at the same time. It is spoken both by more 400 million native speakers with wide range of dialects around Arabic countries and more 500 million people across the world. In the Middle centuries it became official and scientific language of almost all Muslim countries. However, nowadays Arabic is not the only language at the top of today's international languages, it is trying to represent its old status. Modern Standard Arabic (MSA) is the official language in the Arabic countries that based on Classical Arabic. It has become one of the international languages primarily because of the universal nature of Islam. Arabic has successfully retained its classical and standard nature as embodied in the Qur'an, chiefly because of the nature of the language and the sustained attempts made by Muslims and Arabic grammarians to prevent it from being corrupted by different dialects and the effects of colonization<sup>91</sup>. Classical Arabic represents the language spoken by the Arabs more than fourteen centuries ago, while Modern Standard Arabic is an evolving variety of Arabic with borrowings and innovations proving that Arabic reinvents itself to meet the changing needs of its speakers. At the regional level there are large numbers of Arab dialects as there are members of the Arab league.

## **METHODOLOGY**

Although, there is daily contact with Arabic language between learners who live in Muslim countries such as in the praying and the recitation of Qur'an, they might find difficulties in some occasions. The first challenges will be with the pronunciation of Arabic letters because of its uniqueness. The pronunciation of

<sup>91</sup> AL-ATTAS, SMN. 1985. Islam, secularization and the philosophy of the future. London: Mansell Publishing

Arabic letters is quite complicated and absolutely differ from other languages, even alternatives are not similar completely. There is one specific character at least in Arabic letter.

The next challenges which face non-native learners are Arabic grammar and lack of methods teaching it especially for non-native speakers. Even the teachers or lecturers who have more than two-decades of experience about their fields they also may have struggles in the teaching process of new languages because of individuality of learners. Also, students who have great ability for learning new language they will come across misunderstanding in the first step. Despite the awareness of the importance of nurturing communicative skills in Arabic, more the teachers believe that learning and applying grammar rules and translating to and from Arabic are crucial. Therefore, most learners more focus on studying grammar rules and translate to and from Arabic and the lectures are held under grammar-based methods and little attention for other important skills such as speaking or listening competences that signify the learners' level.

The difference between the formal, standard Arabic and spoken Arabic and the duality of the language is the most severe problem. This is a problem that damages to originality of standard language and it can be seen at grammar construction or usage of words and their lexicological meanings. All Arab countries, some within the same country share this problem. Also, it induces confusing of the new language learners. The colloquial spoken Arabic became separated from the formal one in terms of structure, pronunciation and grammar, although the latter is used correlate the former. Today's learner wants to know the meaning of the words he thinks colloquial despite the fact that he could find alternative synonyms of those words in Arabic. The learner is sometimes confused and chooses uncommon colloquial vague words resorts to foreign words in spite of Arabic, available ones.<sup>92</sup>

There is various dialects which learner always struggle. The dialect of each Arabic country is a mixture of the local language with Arabic languages or Arabic sounds.<sup>93</sup> The need to study dialects and the series of problems to be solved in it are not only for Arabic language specialists working in Arab countries or working in the field of translation. If we take into account that the samples of ancient oral works of the Arabic language are also in regional dialects, this topic is very important for source scholars, writers, those who work on samples of ancient works, and historians, and the need to solve their

---

<sup>92</sup> Ismail Hassan: Teaching the Arabic Language: Problems in Languages or Speakers. The II International Conference «Methods of Teaching Oriental Languages: Actual Problems And Trends». 2014. P. 4.

<sup>93</sup> Kosenko, E. I. (2019). K voprosu o dialektah arabojazycznych stran [On the Issue of Dialects of ArabicSpeaking Countries]. Pp. 21–23. Ufa, International academic bulletin. (In Russian)

problems is very high. The people who study Arabic as a foreign language may not understand the regional dialect during their first visits to Arab countries, and the process of communication with the native population may not be observed at once. Even those who have been working in the field of translation for several years or who have been learning Arabic for many years in educational processes may not be free from such difficult situations. Taking into account the fact that educational institutions do not have samples of subjects related to dialects or lesson processes that include certain literature, even if there are sources, they are extremely scarce, and the degree of need for some methodical approaches, the Arabic language is considered a foreign language. As a language, it is possible to know that the problems faced by the learner are with the most actual dialects

## **CONCLUSION**

Nowadays most of learners have a plenty of chances in learning any new languages, however, there are some challenges when going into foreign languages. These days more and more people are interested in learning Arabic language, and fascinated by Arabic world by the strategic importance of its people and the region they occupy. Moreover, there is a great deal of adherence of Arabic learners because of various goals such as cultural, religious, financial concerns. Also, Arabic as an evaluative language in academic settings is determined by a certain lexical-grammatical set, which, when directly translated into other languages. In this article the focus will be on the problems of non-native speaking learners of Arabic language and are illustrated several experienced challenges.

In the 21<sup>st</sup> Century Arabic country have become the realm of business development and hotspot places around the world especially in the energy, construction, technology and real estate industries, which have given big economic boosts to many petroleum powerhouse countries like Saudi Arabia or UAE and Qatar that claims Arabic as an official language. The same thing goes for diplomatic, governmental and political careers that address and deal with policy in the Arab world. However, knowing Arabic is absolutely important language, there are very few sources for learning Arabic than other languages such as English or French to non-Arabic speaking communities, and if they exist they employ poor methods and use traditional techniques. Teachers with old skills, inappropriate selection of textbooks and syllabuses and scarcity of programs and activities which would attract the non-Arabic speaking learners all these end up in poor performance. Moreover, Arab media do not properly care about these problems by not dedicating special

channels addressing these non-Arabic speaking communities, or at least produce Arabic language teaching projects like official or entertainment programs and serials in MSA for its learners. As results of the undeniable factors Arabic learners might face large numbers of challenges in their studying experience.

Despite the status of Arabic as a global language and the high demand to learn it, the field of Arabic second language acquisition remains underinvestigated. Second language acquisition findings are crucial for informing and advancing the field of Arabic foreign language pedagogy including Arabic language teaching, testing, and syllabus design. *Arabic Second Language Learning and Effects of Input, Transfer, and Typology* provides data-driven empirical findings for a number of basic and high-frequency morphosyntactic structures with two novel typological language pairings, examining Arabic second language acquisition data from adult L1 Chinese and Russian speaking learners of Arabic as a foreign language. Alhawary's study examines the different processes, hypotheses, and acquisition tendencies from the two learner groups, and documents the extent of the successes and challenges faced by such learners in their L2 Arabic grammatical development during the first three years of learning the language.

The last point is the lack of social media like interactive networks or internet-based applications produced by Arabic countries which help to learn and cramming the language as non-native Arabic learners from viewpoint of an individual and group learners.

## REFERENCES

1. Ismail Hassan. Teaching the Arabic Language. Problems in Languages or Speakers. The II International Conference «Methods of Teaching Oriental Languages: Actual Problems and Trends», 2014. P. 4.
2. Ra'nokhon Sultonova, Farida Khamroyeva. A Direct Method for teaching Arabic language in Uzbekistan "Science and Education" Scientific Journal May 2021 / Volume 2 Issue 5
3. Farghaly, A., & Shaalan, K. (2009). Arabic natural language processing: Challenges and solutions. *ACM Transactions on Asian Language Information Processing (TALIP)*, 8(4), 1-22.
4. Khamroyeva, F. (2021). Problems experienced with the teaching of Arabic to learners in muslim schools in Uzbekistan. *Science and Education*, 2(5), 725-733.
5. El-Omari, A. H., & Bataineh, H. M. (2018). Problems of learning Arabic by non-Arabic speaking children: Diagnosis and treatment. *Journal of Language Teaching and Research*, 9(5), 1095-1100.

## **XX ASR O‘ZBEK YOZUVCHILARI IJODIDA ONA OBRAZI**

**S.Shermamatova**

Farg‘ona davlat universiteti,  
Ingliz tili va adabiyoti fakulteti o‘qituvchisi,

**D.Karimova**

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada o‘zbek xalqiga mansub ona siymosining yozuvchilar tomonidan tasvirlanishi ifodalangan. Tasvirlarning o‘ziga xosligini o‘rganish, yozuvchilar uslubini o‘rganish va obrazning ifodalanishi tahlil qilinadi. Ona obrazining o‘ziga xosligini ko‘rsatiladi va tahlil qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *Obraz, urush, asar, trilogiya, adabiyot, darslik, farzandlik burchi, hayot, ona obrazi, tahlil, tarbiya, xalq.*

### **ABSTRACT**

*The description of the image of the mother belonging to the Uzbek people by the writers. To study the uniqueness of the images, to study the style of the writers and to analyze the expression of the image. To show and analyze the uniqueness of the image of the mother. This article reflects on this.*

**Keywords:** *Image, war, work, trilogy, literature, textbook, filial duty, life, Mother's image, analysis, education, people.*

### **KIRISH**

Ona siymosi dunyodagi barcha xalqlar uchun mo‘tabardir. Faqatgina ushbu inson farzandi uchun kechalarni bedor va uyqusiz o‘tkazadi. Farzand kamoli uchun yelib yuguradi, farzandi uchun har qanday ishga qo‘l uradi. Beminnat mehr berguvchi inson. Ona-bu so‘z negizida olam-olam ma‘no mujassam. Ona haqida qancha ta‘rif bersak shuncha kam. “Odamning qalbida qanday oliyjanob tuyg‘ular mavjud bo‘lsa, ularning barchasi avvalo onadandir”. Darhaqiqat, ta‘lim va tarbiyani birinchi bor farzand ona qornidaligidayoq olishni boshlaydi. Ko‘plab shoirlar va yozuvchilar madhini kuylab she‘rlar, dostonlar va romanlar yozgan va hali ham yozib kelishmoqda. Buning sababi esa hayotimizdagi takrorlanib bo‘lmas bo‘lgan shaxs – onadir!

O‘zbek adabiyotida ona obrazining go‘zal va takrorlanmas namunalarini yaratgan yozuvchi va shoirlar talaygina. O‘tkir Hoshimov va Said Ahmad ham ular sarasiga kiradi. Har ikkala adibning asarlarida Ona siyosi shu qadar muhim o‘rin tutadiki, ularsiz yozuvchilarning ijodlarini tasavvur etib bo‘lmaydi. Ona farzandga hayot beradi, voyaga yetkazadi. Har bir inson hech bo‘lmaganda ona haqida bir dona



she'r bo'lsa ham yod olgan. Barcha yozuvchi va shoirlar esa onalarga bag'ishlab ko'plab she'rlar, hikoyalar yoki katta-katta asarlar yaratganlar.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O'zbek adabiyotida ona obrazining go'zal siymosini va uning betakrorligini o'z asarlarida yaratgan yozuvchilardan biri O'tkir Hoshimovdir. Yozuvchi asarlarining eng muhim va asosiy obrazlaridan biri ona obrazi. Ushbu obrazsiz yozuvchi asarlarini tasavvur qilib bo'lmaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5- sinf adabiyot darsligida O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi keltirilgan. Bu qissa kichik-kichik hikoyalardan tashkil topgan bo'lib, yozuvchi bu asar bilan o'zbek onasiga haykal qo'yadi. Qissada yozuvchi o'z hayotida sodir bo'lgan qiziqarli voqealarni o'z qalami bilan kitobxonga ifodalab bergan. Qissadagi "Alla", "Haqqush", "Iltijo", "Gilam paypoq", "Xiyonat" va "Qarz" hikoyalari ona va farzand munosabatlari, ona siymosi asardagi barcha hikoyalarni birlashtirib turadi.

"Onang-chi, onang hech qachon xiyonat qildimi senga! Biron marta, aqalli bir marta xiyonat qildimi? Har kim har kimning ko'ziga cho'p solishi mumkin, har kim har kimga xiyonat qilishi mumkin. Faqat ona o'z bolasiga hech qachon xiyonat qilmaydi. Ehtimol, inson hayotining shuncha yillardan buyon davom etib kelayotgani shundandir"<sup>94</sup>.

Ushbu jumla asardagi eng ta'sirli jumalardan biri. O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad qissaga quyidagicha ta'rif bergan: "Dunyoning ishlari" asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib, o'z onalarimizni o'ylab ketamiz. Shu mushrif, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas qarzlarimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol oldimizda ko'ndalang turib oladi. Qissa bizni insofqa, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi".

O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romani asosan urush yillari qiyinchiliklari, front va front orti azoblari, muhabbat va nafrat, ochlik va qahatchilikni turli qatlam vakillari tilidan mahorat bilan yoritib bergan asardir. Yozuvchi asardagi voqealarni kichkina bola nigohidan tortib to qari insonlar dunyoqarashigacha har birining "men" iga kirishib yozadi. Bola tilidan so'zlaganda kichkina Muzaffarning dunyosini ifodalaydi. "Ikki eshik orasi" romani personajlarga boyligi bilan kitobxonni o'ziga jalb etadi. Ularning orasida Orif oqsoqol, Xusan Duma, Komil tabib kabilar ajralib turadi. Asarda Kimsanning ham obrazi muvaffaqiyatli chiqqan. U roman voqealarida kam ishtirok etgan bo'lsa ham uning mard, oriyatli, jasur belida belbog'i bor yigit ekanligini bilishimiz mumkin. U vatani uchun o'z jonini fido etadi.

<sup>94</sup> "Dunyoning ishlari" Xiyonat hikoyasi (27-bet)

Romanda ayollar obraziga ham keng o'rin berilgan. Ular ichida, ayniqsa, Qora amma ajralib turadi. Qora amma<sup>95</sup> - mehribon, soda, bardoshli va jafokash ayol. Uning obrazida urush davridagi o'zbek onalarining siymosi tasvirlangan. U boshiga tushgan barcha ko'rgiliklarni sabr-bardosh bilan yengib o'zida yashashga kuch topadi. Qora amma olti farzandini yerga qo'yib, bittagina Kimsani yer-u ko'kka ishonmasdan katta qildi. Yurtda urush boshlangach yolg'iz farzandi -Kimsanini urushga jo'natadi. Biroq o'g'li urushdan qaytmaydi, lekin mushtipar ona bu xabarga ishonmaydi. Hattoki, yillar o'tsada unga a'za ochmaydi. Faqatgina ona doim farzandiga sodiq qoladi. Barcha Kimsanning vafotiga ishonadi lekin Qora amma esa buni inkor etib, yillar davomida farzandini qaytib kelishini kutadi. Uning obrazida urush davridagi o'zbek onalari tasvirlangan.

Ona... bu zotni ta'riflashga til ojizdir! Hayotni onasiz tasavvur etish naqadar qiyin. Farzand betob bo'lsa ona farzandidan ko'proq dard chekadi.

Yana ona obrazi mahorat bilan tasvirlangan asarga to'xtalsak, u ham O'tkir Hoshimov qalamiga mansub. "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi. Ona obrazida Umri xola, uning ikki farzandi bor- Shoikrom va Shone'mat.

Shoikromni urushga olishmaydi chunki To'qimachilik kombinatiga montyor yetishmasdi, u esa montyor. Uylanganidan so'ng ota hovlisini ikkiga bo'ladi. Buning sababi esa Xadichaning<sup>96</sup> inijliklari edi. Umri xola esa Shone'mat bilan birga yashardi. Shone'mat esa sil edi. Tabibning aytishicha, u har kuni nahorga bir kosa qo'y suti ichishi kerak. Umri xola esa ilojsizlikdan Shoikromning xovlisidagi qulupnaylarni terib, ularni sotib Shone'mat uchun sut sotib olar edi. Lekin Shoikrom o'g'rini tutish maqsadida o'g'riga simdan tuzoq qo'yadi. Umri xola tuzoqqa ilinib jon beradi. Erta tongda Shoikrom buni ko'rib qilgan ishidan afsuslanadi. Umri xolani peshin namoziga chiqarishadi. Qabristondan qaytishayotganda odamlardan urush tamom bo'libdi degan gap eshitishadi. Lekin urushning tom ma'nodagi qurboni Umri xola edi. U ikki o't orasida. Ikki tarafda ham o'z jigarbandlari, farzandlari. Betob o'g'li uchun ilojsizlikdan shu ishlarni qilgandi. Lekin natijasi boshqacha bo'ldi.

Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasi"da "Hijron kunlarida" kitobida berilgan "Qochoq" deb nomlangan parchasi barcha kitobxonlar tomonidan sevib o'qiladi. Balki asarni o'qish emas, uni qalban his qilishadi. Ushbu parcha umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8- sinf adabiyot darsligida ham berilgan. Bundan ko'zlangan maqsad esa yosh avlodni insonparvar, vatanni ulug'lash, uni asrab himoya qilishga undashdir. Asarning asosiy maqsadi esa ota-ona oldidagi farzandlik burchi hisoblanadi. Lekin barcha ham farzandlik burchini sharaf bilan bajara olmaydi. Asarning bosh

<sup>95</sup> Qora amma-Xusan Dumaning ayoli, Kimsanning onasi

<sup>96</sup> Shoikromning ayoli

qahramonlari Ikromjon, Jannat xola va Tursunboy. Ikromjon va Jannat xola yakka-yu yolg'iz farzandlari Tursunboyni ne umidlar bilan voyaga yetkazib, uni vatan himoyasi uchun urushga yuborishadi. Ikromjon urush qahramoni, xalq orasida yetarlicha hurmatga ega. Odamlardan qandaydir qochoq bola haqida eshitib qoladi. Lekin bu qochoq o'zining yagona farzandi ekanligini keyin anglaydi. Buni eshitgach undan baxtsiz odam yo'q edi go'yo. Ikromjon go'yo farzandidan voz kechgan va o'zini shu yo'l bilan ovutardi. Ammo Jannat xola bundan bexabar edi. U o'g'lini vatan himoyasiga jo'natganidan xursand edi. Lekin orzulari bir zumda ko'kka sovurildi. O'g'li qiyinchiliklarga bardosh bera olmay urushdan qochib kelib qishloq chetidagi to'qayzorda berkinib yashardi. Buni Jannat xoladan boshqa hech kim bilmasdi. Bechora, mushtipar ona! Nima qilsa ham farzandidan voz kecha olmay unga hammadan berkitib ovqat topshirdi. Ikromjon bilib qolishidan qo'rqardi. O'zi betob bo'lib yotib qolgan holida ham farzandi och qolmasligi uchun o'g'lidan xabar olishni to'xtatmas edi. Lekin o'g'li o'zidan boshqa hech kimni na otasini na onasini o'ylardi. Kunlardan birida Jannat xola vafot etadi lekin Tursunboy buni to'qayzor orasidan jimgina kuzatib turadi. Onasini so'nggi manzilga ham kuzatib qo'ymaydi. Faqatgina endi unga kim ovqat olib kelishini o'yladi. Onasini oxirgi marta ko'rish uchun ham harakat qilmaydi. Faqat qornini o'ylaydi.

Naqadar shavqatsiz dunyo. Jannat xola farzandi uchun barcha narsaga tayyor lekin farzandichi? Onasi uchun u nima qila oldi hayoti davomida? Tursunboy yuraksiz, vijdotsiz farzand.

## **XULOSA**

Bir so'z bilan aytganda, ona-bu hayot, tiriklik ramzi. Ne-ne buyuk daholarni, podshohlarni, dunyo tan olgan shaxslarni dunyoga keltirgan, tarbiyalagan inson. Ona millatning tayanchi, asosi. U hech qachon aynimaydigan, zanglamaydigan oltin. Ona simfoniyasida hayotning turli-tuman ohanglari, tovushlari, ranglari uyg'unlashgan. Unda kamalak go'zalligi va maftunkorligi mujassam. Ranglar va ohanglarning o'zaro birlashishidan ona va hayot mohiyati, uning buyuk falsafasi yuzaga keladi.

## **REFERENCES**

1. Adabiyot 8-sinf darsligi 2019-yil (G'afur G'ulom nashriyoti)
2. Dunsenbayev O.O'tkir Hoshimov ijodida ona obrazi. Fil.fan.nomz. avtoreferati. Toshkent, 2012. 26b.
3. O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. 2015-yil (Yangi asr avlodi nashriyoti)
4. O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. 2012-yil( Sharq nashriyoti)
5. Said Ahmad. Ufq trilogiyasi 2015-yil(Yangi asr avlodi nashriyoti)

## **XURSHID DAVRON SHE'RIYATIDA TAKRORNING POETIK INDIVIDUAL VAZIFASI**

**Qurbonova Muharram Jurabekovna**

SamDU 1-bosqich magistranti

Tel:+998974085234,

e-mail: [muharramqurbonova2@gmail.com](mailto:muharramqurbonova2@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Bu maqola o'zbek tilshunosligida tilning unsurlari, sintaktik figuralar va bular orqali adabiyotda ularning ahamiyatini izohlaydi. Shu bilan birgalikda, til va adabiyotning aloqasi uzviyligi tahlil etiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Takror, akromonogramma, lingvopoetika, stilistik figura*

### **ABSTRACT**

*This article explains the elements of language, syntactic figures and their importance in literature in Uzbek linguistics. Together with this, the relationship between language and literature is analyzed.*

**Key words:** *Repetition, acromonogram, linguopoetics, stylistic figure*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье объясняются элементы языка, синтаксические фигуры и их значение в литературе в узбекском языкознании. Вместе с этим анализируется взаимосвязь языка и литературы.*

**Ключевые слова:** *повтор, акромонграмма, лингвопоэтика, стилистическая фигура.*

### **KIRISH**

Badiiy asar mutolaa qilar ekanmiz, bu jarayonda adabiyot va tilning bevosita bog'liqligini, ularning go'yo qush muvozanatini saqlovchi ikki qanotga o'xshash ekanligining guvohi bo'lamiz. Tilning har bir elementi poeziyada asarning pafosini, badiiy nafasini yoritib turadi. Jumladan, tilning stilistik figuralaridan bo'lmish, antitezani olaylik. Antiteza-ritorik qarama-qarshilik, umumiy tuzilish yoki ichki ma'no bilan o'zaro bog'langan tushunchalar, pozitsiyalar, tasvirlar, holatlarning keskin qarama-qarshiligidan iborat badiiy yoki notiqlik nutqidagi ziddiyatning stilistik figurasi hisoblanadi. "Tabiat va jamiyatdagi ko'plab narsa va hodisalarning mohiyati, insonlarning xarakteri ularni bir-biriga qiyoslash, taqqoslash, chog'ishtirish asosida oydinlashadi. Badiiy adabiyot tilidagi antiteza usuli ham bir-biriga nisbatan qarama-qarshi ma'nolarni beradigan so'zlarni, iboralarni bayonda yonma-yon qo'llash orqali obrazlilikni keltirib chiqarishga asoslangandir. "Bayonning bunday vositasi yoqimlidir, – deydi Aristotel "Ritorika" asarida, – chunki qarama-qarshilik

anglash uchun qulaydir, agar ular yonma-yon tursa yana ham tushunarlidir, yana shuning uchun qulayki, bu vosita isbot qilish, ziddiyatlarni qiyoslash bo'lganidan sillogizmga yaqinlashadi".<sup>97</sup>

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shoir she'riyatida takrorning yana bir turi bo'lmish – akromonogrammani ham uchratamiz. Akromonogramma va uning ko'rinishlari anadiplozis, epanalepsis, epanafora, eponostrofa kabilar klassik adabiyotdagi tashbig' san'atiga to'g'ri keladi. Akromonogrammada bir to'rtlik yoki bayt qaysi gap bilan tugasa, ikkinchisi shu birlik bilan boshlanadi. Uning so'z, so'z birikmasi, gap shakldagi takrorlari ham bor. Tilshunos olim J.Lapasov takronni shunday ta'riflaydi: "Badiiy asar mualliflari tasvirlanayotgan voqea-hodisaga oquvchining diqqatini tortish, uni borttirib korsatish uchun badiiy asarlarda tovush va tovushlar, so'z va so'zlar yig'indisini, gaplarni takror qo'llab, urguni kuchaytiradi, nutqqa keskinlik kiritadi".<sup>98</sup> Shoir ijodini kuzatar ekanmiz, asosan so'z shakldan akromonogramma hosil tahlilga tortdik. Shoirning she'rlarida she'r bandlarini bir-biriga bog'lagan va kompozitsion xalqa vazifasini bajargan misralar takrori ham bor. Ular asosan kuchli ta'kid ottenkasini ifodalash uchun xizmat qilaganiga guvoh bo'ldik.

Akromonogramma shoir ijodida o'ziga xos badiiy ahamiyatga ega bo'lib, u aytmoqchi bo'gan fikrga urg'u berishga xizmat qiladi. Masalan, shoirning "Qor yog'ayotgan oqshom" she'riga diqqatimizni qaratsak:

Qor esa *tinmasa*,

*tinmasa* qadaming.

O'zing ham bir qor uchquniday

Singib ketsang tunning bag'riga.

Bu yerda akromonogramma birinchi misra oxirdagi so'zning ikkinchi misra boshida takrorlanishi bo'lib, ma'no kuchaytirishga xizmat qilgan. Inson ruhiyatidagi o'y-kechinmalar, orzular va intilishlarni ifodalagan. Qor va qadam tinmasa emas, yoki qor tinmasa, qadam tinmasa emas, "tinmasa"ning bu holatda takrorlanishi aynan shu jarayonga yanada urg'u beradi, voqeylikni rivojlantiradi, kishini hayajonga soladi. Yoki, "Ikki tog'ning orasidan" she'riga e'tibor bersak:

Ko'hiqof tomonlarda

Uxlab yotar diyonat.

Orol uxlar, sir *uxlar*,

*Uxlar* zaqqum suvlar ham.

<sup>97</sup> Каримов Суюн Амирович. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. -Самарканд. 1994. 45-бет

<sup>98</sup> Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний тахлил. -Тошкент: Ўқитувчи, 1995. 48-б.



Shoir bu yerda esa ma'no kuchaytirish emas, balki ma'noning umumlashma ekanligini, jarayonning aynan bir nuqtaga bog'liq ekanligini ifodalash uchun bu yerda akromonogrammadan foydalangan. Orol, sir, suvlar barisi uxlamoqda, bu ularning barchasiga tegishli deya uqtiradi badiiy yo'l bilan ijodkor.

Shoirning "Shoirlarni otgan jallodlar" she'rida esa akromonogrammaning boshqa bir vazifada kelishining guvohi bo'lamiz:

Podshohlarga shoirmas, **qullar** –

**Qullar** kerak, jallodlar kerak,

Shoir eksa dillarga gullar,

Majaqlovchi sallotlar kerak.

She'rdagi **qullar** so'zi birinchi misra oxirida va ikkinchi misra boshida takrorlanib, akromonogrammani hosil qilgan. Bu yerda akromonogramma shunchaki takroni emas, balki alohida ta'kidlangan takroni yuzaga keltirgan. Ya'ni, shoir birinchi misrada aytgan **qullar** so'ziga qoniqmay, ikkinchi misra boshida ham achchiq alam bilan shu so'zni takrorlaydi. Ammo, bu ham shunchaki ta'kidgina bo'lib qolmay, balki kuchaytirilgan, ishonch, tasdiq ma'nosini anglatgan holat hisoblanadi.

Biz tahlil qilmoqchi bo'lgan quyidagi misolda esa akromonogramma zidlik, terslik ma'nosini anglatmoqda:

Samarqand shahrining bir chekkasida

Qabr bor–odamlar yuz burib o'tar.

Unda Abdullatif yotar, **deydilar**,

**Deydilar**: "Bu yerda padarkush yotar.

Shoirning "Padarkush" nomli ushbu she'rida ijodkor **deydilar** so'zini qaytarish orqali o'ziga xos akromonogrammani yuzaga keltirgan. Ikki bora ketma-ket takrorlangan **deydilar** so'zi ikki xil mazmunga ega. Uchinchi misradagi **deydilar** shunchaki bu qabrda Abdullatif nomli bir kimsa yotganini anglatadi, so'nggi misrada boshidagi **deydilar** shunchaki bir inson emas, ota qotili, razil inson – Abdullatif yotganini anglatadi. Bu tahlildan aniqlashadiki, hattoki ikki bora takrorlangan bitta so'z ham badiiy matn tarkibida zidlanishni ifodalashi mumkin ekan. Quyidagi jadvalda akromonogrammaning shoir X.Davron she'riyatida yuzaga chiqargan o'ziga xos ma'nolarini kuzatamiz:

Ma'no kuchaytirish vazifasi	Qor esa <i>tinmasa</i> , <i>tinmasa</i> qadaming. O'zing ham bir qor uchquniday Singib ketsang tunning bag'riga.
Ma'no umumlashtirish	Ko'hiqof tomonlarda Uxlab yotar diyonat. Orol uxlar, sir <i>uxlar</i> , <i>Uxlar</i> zaqqum suvlar ham.
Tasdiq	Podshohlarga shoirmas, <i>qullar</i> – <i>Qullar</i> kerak, jallodlar kerak, Shoir eksa dillarga gullar, Majaqlovchi sallotlar kerak.
Zidlanish	Samarqand shahrining bir chekkasida Qabr bor – odamlar yuz burib o'tar. Unda Abdullatif yotar, <i>deydilar</i> , <i>Deydilar</i> : “Bu yerda padarkush yotar.

Bundan kelib chiqadiki, akromonogramma ham sintaktik figuralarning ichida o'z badiiy qimmatiga ega bo'lgan tasviriy vosita sifatida kishi ruhiyatiga xos ayrim belgilar bilan bir qatorda, ish-harakatning rivoji, bosqichi, umumlashmaligi, umumdan ajralganini anglatish uchun xizmat qiladi.

Umuman olganda, Xurshid Davron she'riyatida qo'llangan takror va uning turlari ma'noni kuchaytirish, ta'kidlash, umumlashtirish, tasdiqlash, zidlash, tadrijiylik, ta'sirchanlik va ohangdorlikni ifodalashga xizmat qiluvchi vositadir.

## REFERENCES

1. Каримов Суюн Амирович. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари.-Самарқанд. 1994.
2. Каримов Суюн Амирович.Ўзбек тилининг бадий услуби. -Самарқанд: Зарафшон, 1992.
3. Umirova S. O'zbek she'riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik (Monografiya). –Samarqand: Ipak yo'li, 2021. –B 236.
4. Xurshid Davron.Bahordan bir kun oldin. -Toshkent: Sharq, 1997.

## МОЙ ЛЮБИМЫЙ ПИСАТЕЛЬ Ю. ТРИФОНОВ И ЕГО ТВОРЧЕСТВО

Абдуллаева Назокат Арслон кизи

Магистрант Факультета языков

Тошкентского государственного педагогического университета

имени Низами

### АННОТАЦИЯ

*И поэтому именно в конце 1960-х гг. «городская» проза окончательно сформировалась как жанр. Родоначальником её считается Юрий Валентинович Трифонов, а программным произведением – его повесть «Обмен», о которой мы поговорим чуть позже. В текстах Юрия Трифонова изображалась каждодневная жизнь московской интеллигенции.*

**Ключевые слова:** Юрий Валентинович Трифонов, поэзия, «Сын врага народа».

### ABSTRACT

*And so it was in the late 1960s. "urban" prose finally formed as a genre. Yuri Valentinovich Trifonov is considered to be its ancestor, and his story "Exchange", which we will talk about a little later, is considered to be the program work. The texts of Yuri Trifonov depicted the everyday life of the Moscow intelligentsia.*

**Keywords:** Yuri Valentinovich Trifonov, poetry, "Сын врага народа".

*Для того чтобы понять сегодня, надо понять вчера и позавчера».*

*Ю.Трифонов*

В этой статье я хотела бы отразить основоположника русской литературы, а также "городская проза" жанра Трифонова. Я раньше не интересовалась творчеством этого писателя. После прочтения его произведений мой интерес к творчеству и жизни писателя возрос. в то же время его труды, а также его жизненный путь и трудности, через которые он прошел, являются примером для нас, молодых людей. Юрий Трифонов родился 28 августа 1925 года в Москве в семье большевика, партийного и военного деятеля Валентина Андреевича Трифонова. Его семья не бедная, но потом уже ему стало тяжело.

Его отец прошёл ссылку и каторгу, участвовал в вооруженном восстании в Ростове, в организации в 1917 году Красной Гвардии в Петрограде, в гражданской войне, в 1918 году спасал золотой запас республики, работал в Военной коллегии Верховного суда. Отец был для будущего писателя настоящим образцом революционера и человека. Его отец был настоящий герой. Писатель тоже хотел быть похожим на своего отца, потому что его отец очень

храбрый. Мать Трифонова - Евгения Абрамовна Лурье была зоотехником, затем инженером-экономистом. Впоследствии она стала детской писательницей - Евгенией Таюриной.. Если я не ошибаюсь, его мать стала причиной того, что он стал писателем. В 1932 году семья . В 1937 году отец и дядя писателя были арестованы, вскоре расстреляны (дядя — в 1937 году, отец — в 1938 году). Для двенадцатилетнего мальчика арест отца, верившего в его невиновность, обернулся настоящей трагедией. Мать Юрия Трифонова также преследовалась и отбывала наказание в Карлаге. Юрия и его сестру выгнали из квартиры казенного дома вместе с бабушкой, они скитались и жили в нищете.

В начале войны Трифонов был эвакуирован в Ташкент. В 1943 году вернулся в Москву. «Сын врага народа» не смог поступить ни в один вуз и устроился на военный завод. Как жестоко, почему несправедливый ребенок должен страдать, почему ребенок должен отвечать за отца. На самом деле его отец тоже был гордым и смелым человеком. К сожалению, он стал жертвой несправедливости. Набравшись необходимого опыта работы, в 1944 году он все же работал на заводе и поступил в Литинститут. как бы ни было трудно, писатель не потерял интереса и таланта.

Уважаемые любители книг. Я прочитала несколько повестях писателя. Повесть очень интересная. Предлагаю вам читать. Когда я прочитала его произведение честно говоря немного поплакала. Юрий Трифонов стал первооткрывателем городской прозы. В повестях писателя « Обмен », «Долгое прощение», «Предварительные итоги» изображается повседневная жизнь московской интеллигенции. В произведениях Трифонова не происходит каких-либо сильных потрясений, крупных общественных событий, душераздирающих трагедий-кажется, что автор сосредоточен исключительно на бытовой стороне жизни. Здесь проста нравственность простого человека проходить испытания именно на обыденном семейном уровне, и выдержать это испытание совсем нелегче, чем экстремальные ситуации. Все герои мечтают об идеале, и на пути к нему возникают всякого рода мелочи, которые уводят в сторону от цели и затрудняют путь. И именно эти мелочи устанавливают истинную ценность персонажей произведений.

У меня интересно стала почему в современном мире, в современном Узбекистане люди вообще изменились ? Сейчас люди, которые особенно молодёжи так легко подумает и они ничего не жалуют . Я хотела бы и советую на всём молодым людям, на всем людям, проживающим в Узбекистане прочитать это произведение . Ещё не поздно, есть время исправит свои ошибки. Потому что эта работа изменит мировоззрение многих людей. Они хотя

немного учатся ценить людей. Хотя бы немного понимают, что сейчас у нас в Узбекистане всё хорошо, уже развивает нашей государственной власти и период уже начал ходить. Каким был наш народ раньше? Как они жили? Это вопрос который необходимо поставить перед нашими глазами. Именно эта работа наглядно показывает нам наши истории. .

## **REFERENCES**

1. Экштут С.А. Юрий Трифонов.: Великая сила недосказанного. М., 2014
2. Радев Н. Когато Господ ходеше по земята // Сметка за малките. URL:<http://www.slovo.bg/showwork.php3?AuID=482&WorkID=17431&Level=2>
3. Марков Г. Есета-част 2: Гражданската доблест на Юрий Трифонов // Ненаписаната българска харта. София, 2016. С.269-276.
4. Димитрова Н. Рецензия на книгата Град и власт // Социологически проблеми. София, 1992. №2. С. 145-146.
5. Неделчева Т. Град и власт. София, 1991.
6. Кинов В., Узунова Р. Разговор с Юрий Трифонов // Литературна мисъл. София, 1991. № 5-6. С. 155-163.
7. Берман Ф.И. Сталинская родина: могущество смерти и музыки, Юрий Трифонов, Андрей Битов, Пер Гюнт, Менжинский. URL:<https://snob.ru/profile/30398/blog/137135> (дата обращения: 05.05.2018).
8. Тангян О.Ю. Испытания Юрия Трифонова // Дерибасовская-Ришельевская: Альманах. Одесса, 2010. №41. С. 198-226.
9. Трифонов Ю.В. Другая жизнь. М., 1979.



## **ТАЪЛИМ БОШҚА ТИЛДА ОЛИБ БОРИЛАДИГАН МАКТАБЛАР БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАР НУТҚИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ**

**Олимжон Ешимбетов**

Тошкент гуманитар фанлар университети ўқитувчиси

### **АННОТАЦИЯ**

*Мазкур мақолада қорақалпоқ синфларида 2-4 синф ўқувчиларининг боғланиши нутқини ривожлантиришининг назарий ва амалий тавсиялари келтирилган. Унда бола тасаввурини бойитишга қаратилган дидактик ўйинлар, шеърлий матнлар, экскурс мулоқотлар хусусида сўз юритилади.*

**Таянч сўзлар:** нутқ, мулоқот, тасаввур, тафаккур, экскурс, жараён, амалиёт, педагогика, синтаксис, образлилик, лирик кечинма, яхлитлик, конструктив, дидактика.

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье приведены теоретические и практические рекомендации по развитию связной речи у учащихся 2-4 классов . Здесь говорится о дидактических играх, направленных на представление стихотварных текстов, вводных конструкций , общения*

**Ключевые слова.** Речь,общение, представление, мышление, экскурс,процесс, практика, педагогика, синтаксис, образность, лирические отступления , целостность,конструктивность, дидактика.

### **ABSTRACT**

*This article provides theoretical and practical recommendations for the development of coherent speech in grade 2-4. There, we prepare for didactic, aimed at performances, poetic texts, introductory constructions of communication.*

**Key words:** speech, communication, imagination, excursion, process, practice, pedagogy, syntax , imagery lyrical digressions ,integrity, constructive, didactions.

### **КИРИШ**

Ўзбекистон Республикаси мустақиллика эришгандан сўнг, таълим тизимини босқичма-босқич ислоҳ қилиш ҳамда жиддий янгилаш муаммоси долзарб бўлиб қолади. Ҳозирги шиддат билан ривожланаётган даврда миллий тилни ислоҳ қилиш ва ривожланишини таъминлаш асосий мақсадимиздир. Миллий тилнинг ижтимоий-руҳий жараён билан узвий боғлиқ ҳолда тараққий этиши, кўп ҳолларда ўзлашган сўзлар эвазига ҳам юз беради. Негаки, бола таълим-тарбиясида бевосита ўқитувчининг ўрни ва роли аҳамиятли бўлгани боис, уларнинг нутқини мунатазам равишда ўстириб боришни тақозо қилинади.

Қорақалпоқ синфларида “Ўзбек тили” фани ўқувчиларга фақат нутқ ўстириш учунгина ўтилмайди, балки уларнинг тўғри талаффузини шакллантириш билан биргаликда ёзма нутқини ўстиришга ҳам қаратилади.

Таълим қорақалпоқ синфларида олиб бориладиган гуруҳларда одатда, ўзбек тили 2-синфдан ўтилишини инобатга олсак, муаммога аниқ ечим топилгандек бўлади. Айнан ўқувчилар ўша даврда атрофидаги оламдан жуда кўплаб ахборотларни қабул қилишга мойил бўлади. Бу вақтда ўқувчи мустақил фикрлаш тарзига одатланса, нарса-буюмларнинг номларини тўғри талаффуз қилса, матнни беҳато ёзса, эшитган сўзларини эркин мулоқот давомида эркин қўллашга ўзида куч топади.

Қорақалпоғистонда таълим тизимида – белгиланган расмий тил қорақалпоқ ва ўзбек тилидир. Қорақалпоқ синфларида ўзбек тилига, ундаги сўзларнинг маъноларини ўзлаштиришга эътибор берилса, шундагина мақсадга тўғри мўлжал олинган бўлади. Бунда ўқитувчидан фаоллик талаб этилади. Негаки, ўқитувчи ҳар бир машғулотга тайёрланган вақтида ёш ва синф нуқтаи назаридан келиб чиққан ҳолда дастурли режа асосида иш олиб бориш лозим. Масалан, булар қайси шаклда амалга оширилади: биринчидан, ўқитувчи мавзунини аниқ ва пухта режа асосида ташкил қилиши; иккинчидан, мавзуга оид манбаларнинг ишончилигини қайта текшириши; учинчидан, мавзуга оид талаффузи қийин сўзларни ўйин ва кўргазмалилик тарзида юзага чиқариши; тўртинчидан, мавзуга оид луғатлар тузиб ва улар ёрдамида бола хотирасига сингдириб бориши керак бўлади.

## **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Нутқий фаолият билан боғлиқ тадқиқотларда келтирилишича: “Яхши ривожланган нутқ жамиятда кишининг актив фаолиятининг муҳим воситаларидан биридир, ўқувчи учун эса нутқ мактабда муваффақиятли таълим олиш воситасидир. Болани кичик ёшидан оқ равон гапиришга ўргатиш лозим. Ўқувчилар нутқини ўстириш учун ўқитувчилар ўқувчилар нутқнинг талаффузи, луғати, синтактик қурилиш ва боғланишли нутқини актив ўзлаштиришга ёрдам берадиган метод ва усуллардан фойдаланиши керак бўлади”<sup>99</sup>. Дарҳақиқат, келтирилган маълумотда икки жиҳат эътиборимизни жалб қилади, биринчидан, боғланишли нутқ табиатан бола тасаввурларининг ўсиб-улғайиб боришида аҳамият касб этса, иккинчидан, уни тарбия қилаётган муҳит ва оила ўртасидаги алоқа, муносабат, амалга ошади. Айниқса, бола уйда ёлғиз қолган пайтлари, ўзининг истаклари кетидан эргашади, телевизор томоша қилади, ўйинчоқ

<sup>99</sup> Аҳмаджанова М., Маматкулова Д. Бошланғич синф ўқувчиларининг оғзаки ва ёзма нутқини ўстириш тизими.//Молодой учёный №4. Научный журнал. Международная конференция. -

ўйнайди, расм чизади. Демак, нутқий кўникмани ҳосил қилиш жараёнида болага мунтазам оптимал равишда эътибор қаратиб, унинг нима билан машғул бўлаётганига ота она ҳам қизиқиши шарт. Чунончи, мулоқот, оиладаги муҳит, жонли парвариш, эътибор биринчи галда бола дунёқарашига тез таъсир қиладиган, таъсирчан воситаларни жалб этишни талаб қилади.

Ҳозирги кунда мактабларда ўқитувчининг жонли мулоқоти нутқига техник воситаларни жалб қилиш кўзланган мақсадга эришувга ёрдам беради. Ўқитувчининг синф аҳли билан мунтазам мулоқот қилиши ҳам уларнинг оғзаки нутқини ўстиришда катта аҳамиятга эга. Бу ўринда сўзловчи кўпинча сўзларнинг содда турини қўллайди, шу орқали бола дунёқарашини чархлаб боради. Оғзаки нутқда такрорланган градация, муболаға ва киноявийлик, қиёслаш методлари, турли маъно кўчимларини ҳам кенг истифода қилиш заруратини юзага келтиради.

Катта ёшга қадам қўйган ўқувчи ўз она тилини ўрганганидек, бошқа тилни ўргатишда ҳам қиёсий тасаввурлардан фойдаланади. Булар қуйидаги шаклда олиб борилса натижали бўлади:

- биринчидан, шеърий матн ҳиссий-эмоционал тасаввурларни ифода қилади;

- иккинчидан, сўз ва унинг маъно қатламларини қайта идрок этишга замин яратади;

- учинчидан, жамоавий мулоқот кўпинча англамайдиган саволларга хос жавоб топишга етаклайди;

- тўртинчидан, нутқий кўникманинг шаклланиши, ўқитувчи режали мулоқотининг натижаларидан дарак беради.

Демак, ўқитувчи шеърий матнни ўзи ифодали ўқиб бериши зарур. У ўқувчига оғзаки етиб боради. Қабул қилиш жараёнида ўқувчининг маълум сўзларни билиб олиши баробарида, унга ўз шахсий муносабатини билдиришга, эркин муомала юритиш малакасини эгаллашга ёрдам беради.

Масалан шеърий матнга мурожаат қиламиз:

Жаҳонки муқаддас нени кўрибди,

Барига онасан, эй қодир ҳаёт.

Беш юз йил наридан боқиб турибди,

Нурли бу юзларга нуроний бир зот.

Шу буюк ўғлингни ардоқлаб дилдан, -

Халқим, таъзим этсанг арзигай тамом.

Унинг номи билан бирга битилган,

Дунё дафтариға ўзбек деган ном<sup>1</sup>.

Боғланишли нутқини шакллантириш учун шеърый матн дастлабки асос вазифасини ўтайди. Мазмуний, ҳиссий анланган воқелик ва кечинма яхлитлиги ўқувчини нафақат тасаввурга, балки уни теран ўйлашга чорлайди. Ўқувчи жаҳонда Алишер Навоий номининг буюк даҳо эканлигини бир ўқишдаёқ англаши мумкин. Ахборот шаклида таништирилган мазкур байтларда давр нафасини ҳис қилиш қийин эмас. Негаки, тарих ва келажак ўртасидаги дунё манзараси ўқувчида фалсафий-эстетик мушоҳаданинг теранлашувига замин яратади.

Қорақалпоқ синфларида ўқитиладиган табиатшуносликка оид фанларда ҳам ўқувчи нутқини ўстиришга қаратилган талай кўргазмали воситалар кўйилган. Айниқса, Орол фожеаси билан боғлиқ ранг-тасвир маҳсулотлари ўқувчилар тасаввурида табиатга бола қарашларини шакллантирибгина қолмай, балки уларни бу жараённинг фаол билимдони бўлишга, ички қизиқишларининг янада теранлашувига шароит туғдиради. Булар экскурсия вақтида кўрган предметларини ўқитувчи изоҳлаши ёрдамида гуруҳларга бўлиб, уларни саралаб, синтезлаб таҳлил қиладилар. Бундай ёндашув фақатгина экофожианинг зарарли оқибатларидан дарак берибгина қолмай, уларнинг қандай заминда яшаётганини эслатиб, келажакда бундай офатларни бартараф қилувчи муҳандис бўлиб ҳам шаклланишига ҳавас уйғотади.

Ўқувчилар нутқини уларнинг тафаккурдан ажратиб тасаввур қилиб бўлмайди. Нутқ тафаккур негизида шаклланиб, такомиллаша боради. Бу педагогик тажрибада синалган ҳодисадир. Қорақалпоқ синфларида таълим олувчи ўқувчиларнинг ўзбек тилида эркин ва бежирим гапира олиши, ёза билиши, мулоқот қилиши асносида сўзларни беҳато талаффуз қилиши кўп ҳолларда ўқитувчининг масалага систематик ёндашувига боғлиқ бўлади.

Мулоқот – инсон руҳий-маънавий дунёсининг маҳсули. Мулоқот кишилиқ жамиятининг муҳим асоси. Усиз ҳеч бир ижодий сифат юзага чиқмайди. Ўқувчи ўз талаффузи билан қай даражада масалани ўзлаштириб бораётганини англаб, ўзи ҳақида ўзига баҳо бериб боради. Ўзбек тили дарслари, болалар нутқини, луғат бойлигини бойитишга самарали ёрдам беради, нутқни тузишни ўргатади.

Умуман, таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган мактабларда ўқувчилар боғланишли нутқини тартибли ташкиллаштириш учун ўқитувчидан масъулият ва матонат талаб қилинади. Зеро, нутқий кўникма, маҳорат, соҳанинг янгиликларидан, педагогик тавсиявий характердаги кўрсатмалардан

<sup>1</sup> Орипов А. Танланган асарлар. Сайланма, 1-жилд. –Т., Адабиёт ва санъат нашриёти. 1999. –Б. 56.

яхши хабардор бўлиш ҳам яхши самара беради. Зотан, ақлий ва ҳиссий фаолият бир-бирини тўлдирувчи икки инсон хусусиятларидир. Унда киши тажрибаси, характери, муомала маданияти ўз ифодасини топади. Жами унсурлар, тавсиявий характердаги масалалар реал моҳият касб этиб, ислоҳатчилик тамойилларининг натижалилигини оширишга хизмат қилиши шубҳасиздир.

## **REFERENCES**

1. Аҳмаджанова М., Маматкулова Д. Бошланғич синф ўқувчиларининг оғзаки ва ёзма нутқини ўстириш тизими.//Молодой учёный №4. Научный журнал. Международная конференция. -
2. Орипов А. Танланган асарлар. Сайланма, 1-жилд. –Т., Адабиёт ва санъат нашриёти. 1999. –Б. 56.
3. Аминова М.Н., Мажидова М. Тарбия (ота-оналар ва мураббийлар учун энциклопедия) –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2010.
4. Таълим жараёнида нутқ маданиятини шакллантириш масалалари. Ўзбекистон тилидан доимий 5-анжуман материаллари. –Т.: “Шарқ”, 199.
5. Ғуломов А., Қобилов Б. Нутқ ўстириш машғулоти. –Т.: “Ўқитувчи”, 1995.



## **HINDISTONDA XOTIN-QIZLAR TA'LIMI XUSUSIYATLARI**

**Xayrullayeva Iroda Faxriddinovna**

ToshDShU tayanch doktoranti

[fahriddinovnairoda96@gmail.com](mailto:fahriddinovnairoda96@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqola Hindiston ta'lim tizimi, xususan mamlakat jamiyatida istiqomat qilayotgan xotin-qizlar ta'limiga bag'ishlanadi. Bundan tashqari maqolada bu sohadagi amalga oshirilgan dasturlar, yutuq hamda kamchiliklarni tahlili keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** hind xotin-qizlar ta'limi, ta'lim dasturlari, ijobiy jihatlar, sohadagi stereotiplar.*

### **ABSTRACT**

*This article is devoted to the education system of India, in particular to the education of women living in the society of the country. In addition, the article provides an analysis of implemented programs, achievements and shortcomings in this field.*

***Key words:** education of Indian girls, educational programs, positive aspects, stereotypes in the field.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Данная статья посвящена системе образования Индии, в частности образованию женщин, проживающих в обществе страны. Кроме того, в статье приводится анализ реализованных программ, достижений и недостатков в этой области.*

***Ключевые слова:** образование индийских девочек, образовательные программы, положительные стороны, стереотипы в данной сфере.*

### **KIRISH**

Xotin-qizlarning bilim olishi ularning jamiyatdagi mavqeyini o'zgartirish yo'lining asosiy richagi hisoblanadi. Bilimli ayollar jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot uchun juda muhim rol o'ynashi mumkin. Ta'lim ularning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rnini tiklash vositasi sifatida tengsizlik va nomutanosibliklarni yo'qolishiga imkon beradi. Bu ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish, farovonlik, rivojlanish uchun asosiy omil hisoblanadi. Ta'lim ayollarga jamiyatdagi ko'pgina eshiklar ochilishiga imkon beradi. Bunday holat albatta xotin-qizlar imliy salohiyatini oshirish hisobigagina erishiladi. Hindistonda xotin-qizlarning jamiyatdan chetda qolib ketishini oldini olishda ta'lim sohasi asosiy rol o'ynaydi. Ushbu maqolada Hindistonda xotin-qizlar ta'limiga oid mavjud holat aks ettiriladi.

## **ADABIYOT VA METODLAR**

Maqolaning maqsadi hind xotin-qizlar ta'limi xususiyatlarini shtatlar kesimida tahlil qilish, bu masaladagi afzalliklar hamda to'siqlarni o'rganish, hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlarni ko'rib chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun kontent, tarixiy tahlil, qiyosiy, xronologik metodlardan foydalanildi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Davlat, jamiyat va oila taraqqiyotida ayollarning o'rni kata ahamiyat kasb etadi. Fikrimiz dalili sifatida, bugungi kunda dunyoning 8 milliard aholisining <sup>100</sup> 49,5 foizini xotin-qizlar tashkil etishini misol tariqasida keltirishimiz mumkin <sup>101</sup>. Mamlakatda demokratiya muvaffaqiyatga erishishi uchun erkaklar bilan birga ayollar ham ta'lim olishlari zarur. Ta'lim olgan ayollar nafaqat o'z hayot yo'llari, xususan, oila, jamiyat, davlat kelajagining ham rivojlanishida turtki vazifasini o'taydi.

Ko'pgina sharq mamlakatlari singari Hindistonda ham ayollarning savodxonlik darajasi erkaklarnikidan past. O'g'il bolalarga qaraganda qizlar kamroq maktabga qatnaydi hamda o'quv yillarida iqtisodiy-ijtimoiy vaziyatlar sabab ularning ko'pchiligi o'qishni tashlab ketishadi. Ayollar davlat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. XXI asrga kelib mamlakat iqtisodiy boyligi nafaqat erkaklarga, balki ayollar mehnatiga ham bog'liq. Milliy statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, Hindistonda ayollarning savodxonlik darajasi 70,3 foizni, erkaklarniki esa 84,7 foizni tashkil qiladi <sup>102</sup>. Bu bo'shliq Hindistondagi ayollarning ta'lim darajasidagi nomutanosiblikni ifodalaydi.

Mamlakatda ayollarning ta'lim olishi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi bilan to'g'ridan-to'g'ri proporsionaldir. Ayollar bilimli bo'lsa, ular o'zlarinig moliyaviy va uy xo'jaliklarini yaxshiroq boshqarishlari mumkin. Hindistonda ayollar ta'limi muhimligining bir qancha sabablari mavjud. Quyida bu sabablarni keltirib o'tsak:

*Normativ huquqlar:* ta'lim mamlakatdagi har bir fuqaroning asosiy huquqidir. Barcha xotin-qizlar tabaqasi, ijtimoiy qatlami, oilaviy ahvoli va yoshidan qat'iy nazar, ta'lim olish huquqiga ega. Ta'lim maqomga asoslangan imtiyoz emas, balki asosiy inson huquqidir.

*Tenglik:* ayollarning ta'lim olishi jamiyatda gender tenglikni ta'minlaydi. Aksariyat hind oilalarida o'g'il bolalar ta'lim olishi ta'minlanadi, ammo qizlarning ta'lim olish masalasi biroz orqada. Bu esa yoshlikdanoq qizlar o'g'il bolalarga

<sup>100</sup>

pulation/#:~:text=8%20Billion%20(2022),according%20to%20the%20United%20Nations.

<sup>101</sup> <https://countrymeters.info/en/World>

<sup>102</sup> <https://www.hercircle.in/engage/get-inspired/trending/women-education-in-india-history-and-education-status-of-women-in-india-4031.html>

<https://www.worldometers.info/worldpo>

qaraganda jamiyatda ancha past mavqega ega degan noto'g'ri tushunchaning shakllanishi nuqtasi hisoblanadi. Ko'pgina o'g'il bolalar va erkaklarda tarbiyalanadigan ustunlik tuyg'ulari ko'pincha bu yoshlikdagi tengsizliklardan kelib chiqadi.

*Imkoniyat va mustaqillik:* ayollar bilimli bo'lsagina o'zlarini ishonchli va kuchli his qilishlari mumkin. Ular o'z pullarini topishlari uchun ko'nikmalarni o'rganishlari mumkin. Bu ularni mustaqil va erkakka tayanmasdan o'zlariga g'amxo'rlik qilish qobiliyatini oshiradi. Bundan tashqari oila iqtisodiyotiga ham foyda keltirib, oilada shaxs sifatida o'rin topishiga ham imkoniyat yaratib beradi.

*Ruhiy va jismoniy farovonlik:* o'qimishli ayol o'zi va oila a'zolarining ruhiy va jismoniy salomatligiga g'amxo'rlik qilishga ko'proq qodir bo'ladi.

*Oilani rejalashtirish:* Xotin-qizlarga ta'lim berish orqali erta turmush qurish va erta farzand ko'rish kabi jamiyatdagi muammolarga yechim bo'ladi. Bu esa o'z navbatida voyaga yetmagan qiz bolalar va chaqaloqlar o'limi sonini kamaytirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakat mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng asta sekin barcha sohalarda, shuningdek, xotin-qizlar ta'limi sohasida ham ko'pgina qonun, loyihalarni ishlab chiqdi. Xususan, ayollar uchun ta'lim olish imkoniyatlari "Ta'lim olish huquqi" bilan kafolatlandi. Shuningdek, 1948 yil Konstitutsiyaga 36-modda, 1949 yilda esa 45-modda kiritildi. Unga ko'ra, Har bir fuqaro bepul boshlang'ich ta'lim olish huquqiga ega va davlat ushbu Konstitutsiya qabul qilingan kundan boshlab o'n yil ichida barcha bolalar o'n to'rt yoshga to'lgunga qadar bepul va majburiy ta'lim olishlarini ta'minlashga harakat qiladi<sup>103</sup>.

Bu kabi sa'y-harakatlar sekinlik bilan bo'lsada o'z ijobiy ta'sirini ko'rsata boshladi. Quyidagi jadvalda mamlakat aholisini ro'yxatga olish yillarida xotin-qizlar savodxonlik darajasi ko'rsatilgan<sup>104</sup>.

<b>Aholini ro'yxatga olish yili</b>	<b>Xotin-qizlar savodxonlik darajasi (%)</b>
1951	8.9
1961	15.4
1971	22
1981	29.8
1991	39.8
2001	53.7

<sup>103</sup> <https://www.constitutionofindia.net/articles/article-45-provision-for-early-childhood-care-and-education-to-children-below-the-age-of-six-years/>

<sup>104</sup>

[https://www.unesco.org/en/articles/why-educating-women-more-important-we-realize#:~:text=Of%20the%2077.7%25%20Indian%20literacy,%25%20\(as%20per%20UNESCO\).](https://www.unesco.org/en/articles/why-educating-women-more-important-we-realize#:~:text=Of%20the%2077.7%25%20Indian%20literacy,%25%20(as%20per%20UNESCO).)

2011	64.6
2022	70.3

Hindistonda ayollarning savodxonlik darajasi har yili asta-sekin o'sib bormoqda. Bu ikki narsani aks ettiradi - biri odamlarning, ayniqsa, qizlarini boshlang'ich ta'limga yuborayotgan qizlarning ota-onalari ongida sekin bo'lsa-da barqaror o'zgarish sodir bo'layotganligi. Ikkinchisi, maktablar, universitetlar va muassasalarda qizlar va ayollar uchun boshlang'ich va qo'shimcha ta'lim olish imkoniyatlari kengaytirilayotganligidir.

Hindiston mamlakati nafaqat hududiy jihatdan keng, shu bilan birgalikda turli xil ko'p miqdordagi millat, elat va din vakillari istiqomat qilayotgan davlat hisoblanadi. Shuning uchun ham mamlakatdagi shtatlarning istimoiy-siyosiy hayoti turlicha, shuningdek, xotin-qizlar ta'limi sohasi ham bundan mustasno emas. Misol uchun, Kerala (93.91 %), Lakshadvip (92.28%) va Mizoram (92.28%) shtatlarida xotin-qizlar ta'lim olish ko'rsatkichi yuqori darajada bo'lsa, Bihar (63.82%), Arunachal-Pradesh (66.95%) hamda Rajastan (67.06%) shtatlari eng quyi ko'rsatkichlarni qayd etadi<sup>105</sup>.

Bugungi kunda Hindiston xotin-qizlar va bolalar taraqqiyoti vazirligi ro'yxatidan o'tgan bir nechta xotin-qizlar imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilgan. Jumladan<sup>106</sup>,

✓ **Beti Bachao, Beti Pathao** (Qizni qutqar, qizni tarbiyala) – Hindiston hukumati tomonidan 2015 yil 22 yanvarda boshlagan dastur. U asosan Uttar-Pradesh, Haryana, Uttarakhand, Panjob, Bihar va Dehlidagi klasterlarga mo'ljallangan<sup>107</sup>;

✓ **One Stop Centre Scheme** (Bir oyna markazi) - ushbu dastur gender asosidagi zo'ravonlikka qarshi qaratilgan. 2015 yil 1 apreldan boshlab o'z faoliyatini yuritib keladi. Dasturning asosiy maqsadi zo'ravonlikdan jabrlangan ayollarga keng ko'lamli xizmatlardan foydalanishni osonlashtirishdan iborat<sup>108</sup>;

✓ **Women Helpline Scheme** (Ayollar ishonch telefoni) – zo'ravonlikdan jabrlangan ayollarga qaratilgan va butun mamlakat bo'ylab xotin-qizlar bilan bog'liq hukumat dasturlari orqali 24 soat davomida zudlik bilan favqulotda yordam ko'rsatishga mo'ljallangan yagona call markazi;

<sup>105</sup> <https://www.collegesearch.in/articles/womenseducation#:~:text=Despite%20the%20Indian%20government's%20strong,million%20women%20remain%20illiterate%20today.>

<sup>106</sup> <https://wcd.nic.in/schemes-listing/2405>

<sup>107</sup> **Beti Bachao Beti Padhao** | Ministry of Women & Child Development <https://wcd.nic.in/bbbp-schemes>

<sup>108</sup> <https://wcd.nic.in/schemes/archive-one-stop-centre-scheme>

✓ UJJAWALA: Odam savdosini oldini olish, odam savdosi va tijorat maqsadidagi jinsiy ekspluatatsiya qurbonlarini qutqarish, reabilitatsiya qilish hamda qayta integratsiya qilishning kompleks dasturi;

✓ Sakhi Niwas – Hindistonning turli mintaqalarida ushbu dastur nomi ostida uylaridan uzoqda jylashgan shaharlarda ishlaydigan ayollar va ularning farzandlari qolishi mumkin bo‘lgan yotoqxona ijaraga beish dasturi<sup>109</sup>;

✓ SWADHAR Greh - Ayollar va bolalar taraqqiyoti vazirligining muhim dasturi bo‘lib, u og‘ir ahvolda bo‘lgan ayollarga, ayniqsa oilasi tomonidan tashlab ketilgan bevalar, qamoqdan ozod qilingan va oilasining yordamisiz mahkum, tabiiy ofatlardan omon qolgan, odam savdosi qurboni bo‘lgan xotin-qizlarga mo‘ljallangan<sup>110</sup>.

Yuqorida sanab o‘tilgan afzalliklarga qaramasdan, Hindistonda ayollarning ta'lim olishida ko‘plab to‘siqlar mavjud. Ayollarning ta'lim olishidagi to‘siqlarning ba'zilari ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, ular gender stereotip va tengsizliklaridan kelib chiqadi, boshqalari esa iqtisodiy tashvish va cheklovlar bilan bog'liq.

Uzoq vaqt davomida ayollarning ta'lim olishi butun dunyo bo‘ylab ilmiy munozaralarda dolzarb mavzu bo‘lib kelgan. Biz odamlarning ta'lim har qanday narsani boshqarishning asosiy vositasi ekanligini tez-tez guvoh bo‘lamiz. Hindiston davlatida yosh avlodni tarbiyalash maqsadida ko‘plab institut, universitet, kollej, maktablar barpo etildi<sup>111</sup>. Biroq ayrim sabablar tufayli hind jamiyatidagi xotin-qizlar ta'lim olishi masalasi to‘siqlarga duch kelmoqda, jumladan:

- ✚ Ish joyidagi diskriminatsiya;
- ✚ Gender tengsizliklari;
- ✚ Moliyaviy ekspluatatsiya;
- ✚ Akademiklarga kamroq qiziqish;
- ✚ Yoshlikda turmush qurish;
- ✚ Oilaviy ferma yoki biznesda ishlash va boshqalar.

Mazkur omillarga qo‘shimcha ravishda, xotin-qizlar, asosan shahar chetida istiqomat qiluvchilar turli sabablarga ko‘ra maktabni tashlab ketishadi, jumladan, yaqin atrofdagi o‘quv markazlarining yetishmasligi, xavfli transport turlari va xotin-qizlar uchun alohida xojatxonalarining yetishmasligi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, mustaqillikdan so‘ng hind hukumati tomonidan xotin-qizlar ta'limiga alohida e‘tibor qaratildi va shu maqsadda bir nechta ayollar ijtimoiy-

<sup>109</sup> <https://wcd.nic.in/schemes/sakhi-niwas>

<sup>110</sup> SWADHAR Greh (A Scheme for Women in Difficult Circumstances) | Ministry of Women & Child Development  
<https://wcd.nic.in/schemes/swadhar-greh-scheme-women-difficult-circumstances>

<sup>111</sup> <https://pib.gov.in/PressReleaseIframePage.aspx?PRID=1881515>



siyosiy faoliyatiga yordam beruvchi dasturlar shakllantirildi. Jamiyatda hanuz xotin-qizlar ta'lim olish masalasiga qarshi ayrim to'siqlar bo'lishiga qaramasdan, xotin-qizlar ta'lim salohiyati oshib bormoqda .

### **REFERENCES**

1. Falguni Suthar. A Review on Indian education System with issues and challenges. Ganpat University, Guarat:2021. p.17-22.
2. Manya Join. A study of India`s failing education system. Delhi:2020. -P.12.
3. [https://www.worldometers.info/worldpopulation/#:~:text=8%20Billion%20\(2022\),according%20to%20the%20United%20Nations](https://www.worldometers.info/worldpopulation/#:~:text=8%20Billion%20(2022),according%20to%20the%20United%20Nations).
4. <https://www.hercircle.in/engage/get-inspired/trending/women-education-in-india-history-and-education-status-of-women-in-india-4031.html>
5. <https://www.constitutionofindia.net/articles/article-45-provision-for-early-childhood-care-and-education-to-children-below-the-age-of-six-years/>
6. [https://www.unesco.org/en/articles/why-educating-women-more-important-werealize#:~:text=Of%20the%2077.7%25%20Indian%20literacy,%25%20\(as%20per%20UNESCO\)](https://www.unesco.org/en/articles/why-educating-women-more-important-werealize#:~:text=Of%20the%2077.7%25%20Indian%20literacy,%25%20(as%20per%20UNESCO)).

## **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING O'QUV JARAYONIDA BOLALAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH**

**Cho'ponqulova Sitora Bozor qizi**

DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Umirzoqova Gulshoda Obiddin qizi**

DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Ubaydullayeva Shohista Hidoyatillo qizi**

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti

1-bosqich talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Maktabgacha ta'lim tashkilotining o'quv jarayonida bolalar faoliyatini faollik markazlari orqali tashkil etish masalalari hamda, ta'lim markazlari orqali bolalarda erkin faoliyatni taminlashda tarbiyachi bolalarni markazlarga to'g'ri yo'naltirish masalasi yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Bog'cha, ta'lim, tarbiya, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi.*

### **ABSTRACT**

*The issues of organizing children's activities through activity centers in the educational process of a preschool educational organization, as well as the issue of sending children to centers in order to ensure the free activity of children through educational centers, are covered.*

**Key words:** *kindergarten, upbringing, upbringing, educator, pupil.*

### **KIRISH**

Maktabgacha ta'lim tashkiloti uzluksiz ta'lim tizimining birinchi turi, ya'ni dastlabki bosqichidir. Bugungi kunda davlatimiz uzluksiz ta'lim tizimi oldiga ma'naviy yetuk erkin fikrlaydigan va intellektual, salohiyatli barkamol avlodni shakllantirishdek muhim vazifani qo'ymoqda. Bu muhim vazifani bajarishning dastlabki bosqichi maktabgacha ta'lim muassasalari (MTT)da amalga oshiriladi va unda ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy jihatdan boy shaxsni shakllantirishga qaratiladi.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan maktabgacha ta'limga juda katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2016 yil 29 dekabrda «2017–2021yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ- 2707-son qarori qabul qilindi va shu asosida dastur ishlab chiqildi. Mazkur qaror maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy dasturlar va texnologiyalarni tatbiq etish, farzandlarimizni

intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish kabi dolzarb masalalarni hal etishda muhim dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda. Binobarin, mazkur hujjatga muvofiq Maktabgacha talim vazirligi tomonidan 2018-yil 18-iyulda —Ilk qadam|| davlat dasturi qabul qilindi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yosh guruhlariga uchun mo'ljallangan ta'limiy faoliyatning mavzuli rejasi guruh tarbiyachilariga yordam sifatida ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu dasturdan erkin ta'lim faoliyati olib boriladi. Tarbiyachi ta'lim faoliyatiga bolalarning yosh xususiyatini inobatga olgan holda qo'shimcha kiritishi mumkin.

O'quv jarayonini mavzuli tarzda tuzish tamoyili hududiy, milliy, madaniy komponentlarni singdirish va bu jarayonda maktabgacha ta'lim muassasasi xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi. Bir mavzu doirasida kamida bir hafta ta'lim berilishi lozim. Mavzu guruh va rivojlanish markazlaridagi materiallarda o'z aksini topishi kerak.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Turli yosh guruhlarida o'zaro bog'liq o'xshash mavzularni kiritilishi ularning individual imkoniyatlariga muvofiq uyg'un rivojlanish va butun maktabgacha yosh davrining turli guruhlarida bolalarni rivojlantirishda o'quv maqsadlari birligini va uzluksizligini ta'minlash orqali ta'limiy maqsadga erishilishiga olib keladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida erkin ta'lim faoliyat turi 5 ta asosiy ta'lim markazlarida olib boriladi. Bular:

- Qurish-yasash va matematika markazi;
- Sujetli rolli o'yinlar va dramalashtirish markazi;
- Fan va tabiat markazi;
- San'at markazi;
- Til va nutq markazi.

Maktabgacha ta'lim tizimida pedagog tomonidan ta'lim faoliyatini rejalashtirishda birinchi navbatda ta'limni rivojlantirish vazifasi ilgari qo'yiladi va bunda bolaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni tashkillashtirish lozim.

Erkin ta'lim faoliyat markazlarida bolalarning erkin faoliyatini ta'minlash uchun shart-sharoit pedagog tomonidan tashkil etiladi. Agar bola san'at markazida rasm chizmoqchi bo'lsa, bola uchun sharoit yaratilgan bo'lishi lozim. Masalan, bola bahor faslini tasvirlamoqchi bo'lsa, buning uchun faqat qalam yoki bo'yoqdan emas, balki boshqa noan'anaviy usullarida chizishi uchun tarbiyachi sharoit yaratib bersa, bola tengdoshlari bilan erkin muloqotga kirishib, erkin faoliyat olib boradi va ular bilan hamkorlikda chizishlari mumkin. Buning uchun tarbiyachi har bitta markazdagi

o'quv materiallarini qiziqarli, bola yoshiga mos, bolalarning imkoniyatini hisobga olgan holda tayyorlashi kerak. Agar har bir markaz qiziqarli tashkil etilsa, bola bugun —Nutq va til markazida erkin ta'lim faoliyatini amalga oshirgan bo'lsa, ertaga albatta uni boshqa ta'lim markazida o'z qobiliyatini ko'rsata olish imkoniyati beriladi. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, bolada 1 hafta davomida 5 ta markazda ham erkin ta'lim faoliyatini olib borish imkoni bo'ladi. Kuzatishlardan shuni ko'rish mumkinki, bola hafta davomida faqat bitta yoki ikkita markazda erkin ta'lim faoliyatini olib borishiga sabab, qolgan markazlardagi materiallar bolani o'ziga jalb eta olmaganligidan deyish mumkin. Erkin ta'lim faoliyat markazlaridagi materiallar qiziqarli emasligi, bolalar yoshiga mos kelmasligi, ularning takrorlanishi, tarbiyachi tomonidan tayyorlangan materiallarning talab darajasida emasligi, bolalarning erkin faoliyat markazlarida erkin ta'lim olishlari uchun shart-sharoit to'la qonli yetarli emasligida deb o'ylaymiz.

Agar tabiat va biz markazida eksprement tajriba sinov ishlari olib borilsa, har bitta bola bunga qiziqadi va bola bemalol erkin faoliyat olib boradi. Chunki bola o'ziga qiziq yangilikni yoki ma'lumotni ko'rsa yoki eshitsa, bola yangilikni o'zlashtirishga harakat qiladi va tengdoshlari bilan bu yangilikni albbata muhokama qiladi va erkin faoliyat olib boradi. Agar bolaga erkin faoliyat markazlarda erkin ta'lim olishlari uchun shart-sharoit yaratib bersak, bolani erkin fikrlashga, o'z qiziqish va yo'nalishni tanlay olishga, kattalar bilan bemolal muloqotga kirisha olish, o'z kamchilik xatolarini o'zi mustaqil tuzata olish, bolani sub'ekt sifatida ta'lim markaziga chiqishiga imkon bergan bo'lamiz.

## **XULOSA**

Har qanday faoliyat turining rivojlanishi quyidagicha bo'ladi: avval kattalar bilan hamkorlikdagi, so'ng tengdoshlari bilan birgalikdagi faoliyat amalga oshiriladi va nihoyat bolaning mustaqil faoliyati amalga oshirilad. Demak bolaning maktabgacha ta'lim muassasasida erkin faoliyati tashkil etilsa, bolalar tengdoshlari bilan erkin faoliyati shakillana boshlaydi va o'z-o'zidan bolaning mustaqil faoliyati amalga oshiriladi. Buning uchun tarbiyachi bolalar bilan suhbat, eksprement, ko'rgazmali metodlarni ko'proq qo'llashi kerak bo'ladi. Ta'lim markazlari orqali bolalarda erkin faoliyatni taminlashda tarbiyachi bolalarni markazlarga to'g'ri yo'naltirishi muhimdir. Agar bolani o'zi xohlagan markazga yo'naltirilmasa, bola bu ta'lim markazida erkin faoliyat olib borishni istamaydi, bolada norozilik kayfiyati paydo bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan o'quv jarayonida bolalarni erkin faoliyatini ta'minlashda bolalarning qiziqishi, xohishi, imkoniyati hisobga olinishi muhimdir.

## **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-son qarori 2016 yil 29 dekabr lex.uz
2. "Ilk kadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi.T.: 2018. mdo.uz
3. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari 2018 y..lex.uz



## **CAUSES OF ANXIETY AMONG EFL STUDENTS**

**Nasimova Muattar Khasanovna**

Samarkand State Institute of Foreign Languages  
English teacher of the chair of joint education programs  
nasimovamuattra@gmail.com

**Tashmukhammedova Gulnoza Zayniddinovna**

Samarkand State Institute of Foreign Languages  
English teacher of the chair of joint education programs  
g.toshmuhammedova@mail.ru

### **ABSTRACT**

*This article talks about the types of modern methods used in teaching foreign languages and their use in our time. Language learning is one of the most important areas in human society. Language, which is a means of communication, can be acquired practically in a natural environment (in the family, in the community) or in an organized way (in a lesson). Knowledge of language phenomena is studied theoretically. It is known that teaching and learning a foreign language differs sharply from the native language and the second language in certain aspects. This, in turn, requires the use of appropriate foreign language teaching technology. Along with these differences, the book in your hand includes methods of teaching foreign languages in educational institutions, organizing and conducting foreign language classes, etc. clarified many methodological issues.*

**Key words:** *Methodology, communication, individual, foreign language, language competences, intercultural communication, didactics, methodological method, scientific research methods*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассказывается о видах современных методов, применяемых в обучении иностранным языкам и их использовании в наше время. Изучение языков является одной из важнейших сфер в человеческом обществе. Язык, являющийся средством общения, может усваиваться практически в естественной среде (в семье, в обществе) или организованно (на уроке). Знание языковых явлений изучается теоретически. Известно, что преподавание и изучение иностранного языка резко отличается от родного языка и второго языка в некоторых аспектах. Это, в свою очередь, требует применения соответствующей технологии обучения иностранному языку. Наряду с указанными различиями в книге, которую вы держите в руках, приведены методики преподавания иностранных языков в общеобразовательных*

учреждениях, организации и проведения занятий по иностранному языку и т. д., разъяснены многие методические вопросы.

**Ключевые слова:** *Методология, коммуникация, личность, иностранный язык, языковые компетенции, межкультурная коммуникация, дидактика, методический метод, методы научного исследования.*

## **INTRODUCTION**

*Methodology of foreign language teaching is a science that researches educational goals, content, tools, as well as methods of education using a foreign language.  
( M.V. Lvakhovskii)*

Today, it is necessary to educate young people in every way, to give them deep knowledge of sciences, to form and expand their modern worldview, to educate them in an aesthetic spirit, to prepare them to work in various fields of the national economy. The science of communication technologies is a leader in the training of foreign language specialists.

## **LITERATURE ANALYSIS AND METHODOLOGY**

Methodology is derived from the Greek word "methodike" which means "a set of methods for doing something according to a purpose". In pedagogical communication, the term "methodology" has three meanings. The methodology of teaching foreign languages is one of the most important factors as the main task of general education schools. This issue is at the center of the Ministry of Public Education of the Republic. There are all conditions for educating students of general education schools and for them to master foreign languages. Specialists are doing great work in the field of teaching foreign languages. Educational programs have been created for all classes. Pedagogical technologies are being created in order to demonstrate knowledge, skills, and abilities in students. Therefore, the foreign language lesson differs from other educational subjects in two aspects, that is, the purpose and content of the lesson. If the foreign language teacher is able to plan the lesson and the types of lessons, as well as plan the foreign language lesson and organize the lesson in accordance with the requirements of the time and the purpose of the lesson, the effectiveness of the lesson and the final result are guaranteed. When planning a foreign language lesson, it is better to plan the organization of a foreign language lesson at the initial stage of foreign language teaching, to plan the lesson taking into account the knowledge levels of the students in the class, to form the conditions of teaching, psychological laws, and speech skills. It is necessary to be aware, to pay attention to knowing the main requirements for a modern foreign language class. If we list the modern requirements for the lesson: 1) the main goals

of the lesson are not to state the rules (information) about the foreign language, but to create skills and competences, 2) communicative approach to the exercises of speech practice the speech process is imitated from the direction, 3) the methodical organization of the foreign language material in the lesson takes place in the form of a whole (the speech pattern is considered as a unit based on all the exercises), 4) each type of speech activity is studied with the help of a suitable system of exercises, 5) the lesson has a single leading goal and auxiliary goals, 6) the effectiveness of the lesson is measured by the activity of students, 7) control in the lesson is meaningful, 8) whenever possible, the lesson is conducted in a foreign language, 9) the content of the educational material, with the help of carefully developed methodological methods and demonstration, students are taught interest and desire for knowledge, 10) by memorizing the structural and general educational task of the lesson, raising the level of students, strengthening the desire to know, and contributing to the work of education 11) the age and stage of analysis of the students are taken into account during the lesson, 12) the foreign language lesson is an opportunity to use certain language material in the selection of speech activities. The main purpose of lesson planning is the goal, tasks, volume of language material, the sequence of inclusion in the lesson process and, accordingly, formation of speaking skills. It is necessary to be able to determine in advance the difficulties that may arise in planning and to prepare the ways of its elimination and the corresponding exercises. The difficulty of a foreign language is taken into account by the author of the textbook when creating exercises. When the teacher prepares for the educational material of this lesson, he analyzes the comparison of native language and foreign language phenomena. He increases his attention to those small language units, and if necessary, introduces additional exercises. Ensuring a sequence of exercises. Taking into account the skills and qualifications of the students that have been formed so far, determining the order of exercises to be performed in the lesson will give a result. With the intention of incorporating the presented and previously learned educational language material into the composition of skills and qualifications, three-stage - formative, developing and improving exercises are recommended. The teacher carefully integrates the requirements and material of the exercises of the lesson. From the textbook and the exercises given by him, the most effective method of execution is developed. Choosing equipment for the lesson. During the preparation for the lesson, special attention is paid to the choice of educational tools. Sufficient and necessary equipment is prepared depending on the purpose of the lesson, new material, exercises and the level of students.

## **RESULT AND DISCUSSION**

The principles of extracurricular work in a foreign language are the starting point that determine the requirements for its content, methods and organizational forms. They meet the goals and objectives of all foreign language extracurricular activities at school and show the essence of the teacher's pedagogical activity, the organizer of extracurricular activities. Extracurricular activities are based on the following principles:

1) The principle of connection between education and life.

Implementation of this principle makes it possible to ensure a close connection between extracurricular activities in a foreign language and the conditions of the child's life and work. The main conditions for the implementation of this principle are as follows:

Systematic introduction of teenagers and high school students to current events in our country and abroad;

- extensive use of local history material;
- meetings with persons who use a foreign language in their professional activities;
- inclusion of foreign language materials in school-wide events;
- use of materials from school life in extracurricular activities;
- attracting materials for correspondence with foreign schoolchildren to work on the chosen subject.

2) The principle of students' communicative activity.

A prerequisite for high communicative activity of students in extracurricular activities is the opportunity to choose the most interesting and convenient type of activity: correspondence with foreign friends, reading a book in the studied language, watching oral speech in the class of the drama club. development of skills and others. . Not only the diversity of the activity, but also its content is of great importance for the promotion of communicative activity. The use of new materials unknown to students, their cognitive value and entertainment creates a need for communication, increases its quality level.

3) The principle of taking into account the level of students' knowledge of the language and taking into account the integration of extracurricular activities with foreign language lessons.

It is necessary to achieve the conscious application of knowledge, skills and abilities both in extracurricular activities and in the classroom. The formation of a child's interest in foreign language activities largely depends on understanding the content of the used material and the willingness of students to include it in speech

activities. Continuity of foreign language lessons and extracurricular work in science does not mean repetition of the subject, forms and methods of work. Within each topic covered in the speaking and reading program, it is possible to identify subtopics that are of greatest interest to students. The purpose of these sub-topics is to concretize the topic of the program, bring it closer to the interests, conditions and circumstances of children's lives. The gradual expansion of lexical and thematic connections in extracurricular work creates favorable conditions for solving practical, practical problems

4) The principle of taking into account the age characteristics of students.

The effectiveness of extracurricular work on a foreign language is largely determined by the compatibility of its content, forms and methods with the stages of learning a foreign language and the psychophysiological characteristics of students. Knowing and taking into account the typical age characteristics of students allows the teacher to determine the long-term planning of foreign language extracurricular activities, its tasks and methods of organization at each stage.

5) The principle of combining collective, group and individual forms of work.

The skillful combination of collective, group and individual forms of work is based on the teacher's good knowledge of the contingent of students, their interests, opportunities, and plans. This allows you to optimally choose partners, distribute their roles. Individual, group and collective activities should be inextricably linked. In this regard, it is optimal for individual and group activities to join collective activities at a certain stage, as a result of which personal motives and experiences are combined with the motives and experiences of the group.

6) The principle of interdisciplinarity in the preparation and conduct of foreign language extracurricular activities.

The importance of this principle lies, firstly, in the unity of the ultimate goal of the entire educational process of the school - the formation of a comprehensively developed, well-rounded person, and secondly, in the unity of the spiritual essence of the person. cannot be taught and taught in parts. In the implementation of interdisciplinary relations, one of the requirements for a systematic approach to the work being carried out in the field of education and upbringing of the young generation is implemented. Taking into account this requirement, extracurricular work on a foreign language should be carried out not separately, but in conjunction with other academic subjects. The use of interesting materials from geography, history, literature and other subjects in the work of circles of experts in the country of the studied language enriches extracurricular work on a foreign language, increases the interest and quality of students in it. his behavior.



## **CONCLUSION**

Among the methodical literature on language teaching published abroad and in our country, there are a lot of literature on second language teaching. So, the processing of issues, availability of conditions and the presence of desire open a wide way to acquire this language. In a word, from the point of view of language pedagogy, it is possible to raise it to higher levels by systematically approaching mother tongue teaching.

## **REFERENCES**

1. A.A.Hapchiboev A. K. Practical methodology of teaching foreign languages. Samarkand, 2012.
2. A.A.Haydarov. Language teaching methodology and educational technologies (study guide). Bukhara 2022
3. Zaripova R. Guide to teaching foreign languages. T.: Teacher, 1986
4. Hashimov O'. H., Yakubov I.Ya. Methodology of teaching English. -T.: East, 2003. -302

## **МУЛҚДОР СУДНИНГ ҚАРОРИСИЗ ЎЗ МОЛ-МУЛКИДАН МАХРУМ ЭТИЛИШИ МУМКИН ЭМАС**

**И. Юсупов**

Тошкент вилоят судининг судьяси

**А. Хаитбоев**

Чирчиқ туманлараро иқтисодий судининг раиси

**А. Пайгамов**

Чирчиқ туманлараро иқтисодий судининг судьяси

### **АННОТАЦИЯ**

*Ўзбекистон Республикасида иқтисодиётнинг самарали амал қилишига ва халқ фаровонлигининг ўсишига имконият яратувчи ҳар қандай шаклдаги мулкчилик бўлишига рухсат берилади. Мулкчиликнинг ҳамма шакллари дахлсиз бўлишига ва уларнинг ривожланиши учун тенг шароит яратилишига қонун кафолат беради.*

***Калим сўзлар:** Хусусий мулк, мулкдорлар ҳуқуқлари, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, иқтисодий, ижтимоий-иқтисодий тузилиши, муҳофаза қилиш, дахлсизлигини таъминлаш, тадбиркорлик, ҳимоя қилиш, жамоа мулки, давлат мулки, ер, табиат ресурслари, асосий воситалар, бинолар, молия, моддий ресурслар, ахборот, моддий ва маънавий бойликлар, фуқаролар.*

### **ABSTRACT**

*In the Republic of Uzbekistan, it is allowed to have any form of ownership that creates an opportunity for the efficient functioning of the economy and the growth of the people's well-being. The law guarantees that all forms of ownership are inviolable and equal conditions are created for their development.*

***Keywords:** Private property, ownership rights, regulatory legal documents, economic, social, economic structure, protection, protection, entrepreneurship, community property, state property, land, natural resources, fixed assets, buildings, finance, material resources, information, material and spiritual wealth, citizens.*

### **КИРИШ**

Хусусий мулкни ҳимоя қилиш ва мулкдорлар ҳуқуқларининг Конституцияда кафолатланган дахлсизлигини таъминлаш борасида бир қатор норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар мавжуд.

Жамиятнинг иқтисодий негизини турли хил мулк шакллари ташкил этади. Шунингдек, жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий тузилиши ҳам мулк билан, мулкнинг кимларга тегишли эканлиги билан белгиланади. Мулксиз ижтимоий муносабатларни ривожлантириш, мамлакатда халқ фаровонлигини таъминлаш,

камбағалликни қисқартириш ҳамда ижтимоий давлат барпо этишга қаратилган чора-тадбирларни амалга оширишнинг имкони йўқ.

Президент Шавкат Мирзиёевнинг ташаббуслари билан сўнгги йилларда хусусий мулкни ҳар томонлама муҳофаза қилиш ва мулк ҳуқуқи дахлсизлигини таъминлаш, мамлакатда тадбиркорлик муҳитини яхшилашга қаратилган муҳим ислохотлар амалга оширилди.

Судларнинг биринчи навбатдаги вазифаси фуқаролар ва тадбиркорлик субъектларининг давлат органлари билан муносабатларида қонун устуворлигини таъминлаш билан бир қаторда уларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини самарали ҳимоя қилиш ҳамда мулк дахлсизлигини таъминлашдан иборатдир.

### **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Сўнгги йиллар давомида амалга оширилган ижтимоий-иқтисодий муносабатларнинг тубдан ўзгартириш борасида мулк ҳуқуқларни ноқонуний тажовузлардан таъминлаш ва ҳимоя қилиш муаммоси, айниқса долзарб аҳамият касб этди. Бу даврда мулкдорлар ҳуқуқларини таъминлашга қаратилган Президент ва ҳукуматнинг бир қатор муҳим ҳужжатлари қабул қилинди.

Хусусий мулк – бу мулкни ўзлаштиришнинг хусусий усулига асосланган шакли.

Жамоа мулки – бу жамоага ихтиёрий равишда бирлашган кишиларнинг умумий мулки бўлиб, бу мулкнинг эгалари шу жамоада меҳнат қилиши шарт. Бу ерда мулк эгаси айтиб бериш вақтида шу мулкни амалда ишлатувчи ҳам ҳисобланади.

Давлат мулки – давлат ихтиёрида бўлган мулк, давлат ҳокимияти органлари томонидан тасарруф этиладиган монопольлашган мулкдир. Бундай мулк объекти – ер, табиат ресурслари, асосий воситалар, бинолар, молия, моддий ресурслар, ахборот, моддий ва маънавий бойликлар бўлиши мумкин. Бу мулк ижтимоий неъматларни яратишга хизмат қилади.

Янги таҳрирдаги Конституция лойиҳасининг 65-моддасида мулкдор ўз мол-мулкидан қонунда назарда тутилган ҳоллардан ва тартибдан ташқари ҳамда суднинг қарорига асосланмаган ҳолда маҳрум этилиши мумкин эмаслиги белгилаб қўйилмоқда.

Бу норманинг аҳамияти қуйидагиларда ўз ифодасини топади:

- мол-мулк дахлсизлиги бўйича суд қафолати белгиланмоқда. Мулкдор ўз мол-мулкидан фақат суд қарори асосидагина маҳрум этилиши мумкин. Мансабдор шахсларнинг қарори билан мол-мулкдан маҳрум этилмайди;

- мол-мулкдан фақат қонунда назарда тутилган ҳоллардагина маҳрум этилади. Мол-мулкдан маҳрум этиш қонун даражасида белгиланади.

Бозор иқтисодиёти шароитида мол-мулк дахлсиз бўлиши керак. Тадбиркорлик субъектлари доимо таваккалчилик асосида шакилланади. Аммо, жамиятда унинг мол-мулк дахлсизлиги билан боғлиқ хаф хатарларнинг мавжудлиги вазиятнинг яхши эмаслигини англатади. Тадбиркор ўз мол-мулкнинг тақдиридан хавфсирамаслиги ва доимо ривожланиш сари интилиши керак.

Шу сабабли мол-мулкнинг дахлсизлигини Конституция даражасида белгилаб қўйиш муҳим аҳамият касб этади.

Кишиларнинг моддий неъматларни яратишдаги, уларни тақсимлаш ва истеъмол этишдаги ўрни, сиёсий ҳаётда тутган мавқеи, асосан, ишлаб чиқариш воситаларига эгалик қилишларига боғлиқ. Жамият тараққиёти тарихида эгалик қилиш шаклига кўра мулкнинг бир неча тури бор: ибтидоий жамоа тузумида ишлаб чиқарувчи кучлар ғоят паст ривожланганидан кишилар биргаликда, гуруҳ-гуруҳ бўлиб меҳнат қилишган. Шубҳасиз, шундай шароитда меҳнат қуроллари ва маҳсулотлари жамоанинг умумий мулки бўлган. Меҳнат қуроллари ва меҳнат малакаси юксалгач, кишилар якка ҳолда меҳнат қила оладиган бўлди. Бу ўзгариш туфайли жамоа мулки парчаланиб, хусусий мулкка айланган.

Давлат бор ерда унинг мулки мавжуд, лекин ушбу мулкнинг миллий иқтисодиётдаги улуши турли мамлакатларда фарқланади ва мамлакат иқтисодиётининг моделига боғлиқ. Фуқаролик жамияти доирасида давлат мулки тобора ижтимоий йўналиш олмоқда, яъни умуммиллий манфаатларни ҳимоя қилишга йўналтирилган.

Мулкга эгалик ва уни тасарруф этиш муайян иқтисодий муносабатларни пайдо этади ва у мулкчилик муносабатлари деб аталади. Мулк пайдо бўлиши учун мулкка айланадиган нарсалар наф келтира олиши зарур. Мулкчилик муносабатлари мулкни кишиларнинг ўзиники ёки ўзганики эканлигини билдиради. Бундай муносабатларнинг 3 жиҳати бор:

1.Мулкка эгалик қилиш, яъни мулкдорлик ҳуқуқининг мулк эгасида сақланиб туриши.

2.Мулкдан фойдаланиш ва уни амалда ишлатиш.

3.Мулкни тасарруф этиш

Мулк ҳуқуқини ҳимоя қилишда фуқаролик ҳуқуқининг нормалари муҳим роль ўйнайди. Мулк ҳуқуқини ҳимоя қилишнинг асосий усуллари:

Мулкни бировнинг қонунсизгаллашидан талаб қилиб олиш (виндикатцион даъволар).

Шартномавий муносабатларда мулккий ҳуқуқнинг ҳимоя қилиниши тўғрисида шуни айтиш керакки, тузиладиган хима-хил шартномалар аксарият ҳолларда қонунга, шартнома шартларига риоя қилиниб тўғри ва инсофли равишда бажарилади. Аммо, баъзи ҳолларда шартноманинг айрим интизомсиз иштирокчилари шартнома юзасидан олган ўз мажбуриятларини бутунлай бажармасликлари ёки лозим даражада бажармасликлари мумкин.

Бундай пайтларда табиий бузилган мулккий ҳуқуқларни тиклаш ҳамда унинг ўзи билан мулккий ҳуқуқларни ҳар томонлама ва тўла ҳимоя қилиш масаласи қўйилади.

Суд-ҳуқуқ тизимида қатъият билан олиб берилётган ислохотлардан кўзланган асосий мақсад – фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини кафолатли ҳимоя қилишдан иборатдир. Айни шу мақсадда кейинги йилларда суд ҳокимиятининг мустақиллигини мустаҳкамлаш ва одил судлов сифатини оширишга қаратилган муҳим чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

## **ХУЛОСА**

Бугунги кунда фуқароларнинг мулккий ҳуқуқий манфаатларини ҳимоя қилиш, уларнинг бу-зилган ҳу-қуқ-ларини тиклаш, етказилган зарар ўрнини жавобгар ҳисобидан қоплаш сингари низолар суд тартибида адолатли ечим топаётгани одамларнинг судларга нисбатан ишончи ортишида муҳим омил бўлмоқда.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, Ўзбекистон Республикасида иқтисодиётнинг самарали амал қилишига ва халқ фаровонлигининг ўсишига имконият яратувчи ҳар қандай шаклдаги мулкчилик бўлишига руҳсат берилади. Мулкчиликнинг ҳамма шакллари дахлсиз бўлишига ва уларнинг ривожланиши учун тенг шароит яратилишига қонун кафолат беради.

## **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати (REFERENCES)**

1. А.Нигматов. Ер ҳуқуқи. Ўқув қўлланма.– Тошкент.: "Ислом Университети", 2001. –191б.
2. Ben McFarlane, Nicholas Hopkins. Land Law: Text, Cases, and Materials. OUP Oxford, 2012.
3. М.Х. Рустамбоев ва бошқ. Ер ҳуқуқи..Дарслик – Т.: Тошкент давлат юридик институти, 2002. – 23 б.
4. Земельное право республики Узбекистан. Учебник. Под. ред. М.Х. Рустамбаева. ҳуқуқи.ТДЮИ, 2007.-215 б.



5. Узоқова Г.Ш. Аҳоли пункти ерларидан фойдаланиш ҳуқуқи.Т.ТДЮИ, 2006.-117 б.
6. М. Mirzaabdullaeva, А.Муқимов, Z.Хafizova. Yer huquqi, O‘quv qo‘llanma.- Т.:ТІМІ,2016.-196 б.
7. Ўзбекистон Республикасининг қонуни “Норматив ҳуқуқий ҳужжат тўғрисида”,Ўзбекистон,Т.:1990 й.
8. Земельное право: Учебник / С.А. Боголюбов, Э.А. Галиновская; Учебник./Под ред. С.А. Боголюбова – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2004.- 400 б.
9. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексига шарх. 1-жилд (биринчи қисм) Адлия вазирлиги. (Профессионал (малакали) шарҳлар). - Т.: Vektor-Press», 2010. 437-б.

## **EKSTREMIZM, UNING JAMIYAT VA DAVLAT QURILISHIGA DESTRUKTIV TA'SIRLARI**

**Hayitova Hilola Muhammad qizi**

Buxoro viloyati Ichki ishlar boshqarmasi xodimi, Katta leytenant

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada ekstremizm tushunchasi, uning tarixi tahlil qilinib, ekstremizmning davlatchilik qurilishida hamda jamiyat hayotidagi xavflari yoritiladi. Bundan tashqari ekstremizmga qarshi qonuniy choralar, uning ijtimoiy oqibatlari ham tahlil qilinadi.*

**Kalit soʻzlar:** *ekstremizm, diniy ekstremizm, siyosiy ekstremizm, terror, qonun*

### **ABSTRACT**

*The article analyzes the concept of extremism, its history, and highlights the dangers of extremism in the construction of statehood and in the life of society. In addition, legal measures against extremism and its social consequences are also analyzed.*

**Key words:** *extremism, religious extremism, political extremism, terror, law.*

### **KIRISH**

“Ekstremizm” tushunchasi bugun biz ijtimoiy kommunikatsiyada takror va takror eshitadigan, bizni hamisha sergaklikka chorlaydigan tushunchalardan biri boʻlib, fanda toʻla yoritilmagan. Biroq, bizga maʼlumki, uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy oqibatlari jamiyat va davlat hayotini izdan chiqishiga, davlatchilik uchun ham moddiy, ham maʼnaviy beqiyos talofot yetkazishiga oid tasavvurlar barchamizda shakllangan.

Ekstremizm tarixan jamiyatlar shakllangan davrlardan buyon mavjud, ammo bugungi kundagidek hech bir davrda siyosiy kun tartibidagi doimiy masalalardan biri boʻlmagan. Oʻzining metodologik asosiga koʻra u diniy va siyosiy ekstremizmga boʻlinadi. Oʻzbek jamoatchiligi ongida faqatgina diniy ekstremizmga oid qarashlar shakllangan, bu albatta tabiiy. Chunki, mamlakat aholisining 90 % dan koʻprogʻini musulmonlar tashkil qiladi, qolaversa, hududiy jihatdan Oʻzbekiston musulmon oʻlkalarining qoq markazida joylashgan. Shu sababli, jamoatchilikni din vositasida manipulyatsiya qilish samaraliroq boʻladi, ayniqsa SSSR hukmronligi davrida aholining dindan uzoqlashtirilishi va ularning diniy bilimlarining ozligi bunga yetarlicha imkon yaratadi.

Diniy ekstremizm esa, murakkab ijtimoiy hodisa boʻlib, oʻzaro bogʻliq uchta shaklda namoyon boʻladi:

– ong holati sifatida (jamoat va individual), bu belgilar bilan tavsiflanadi: diniy g‘oyaning giperbolizatsiyasi, ijtimoiy hodisaning butun qismiga xossalar berish, nigilizm va fanatizm;

– mafkura sifatida (mavjud dunyo muammolarini aniq tushuntirish va ularni hal qilishning oddiy usullarini taklif qilish, dunyoni “yaxshi” va “yomon” ga bo‘lish bilan tavsiflangan diniy ta’limot), jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar ierarxiyasiga mos kelmaydigan, boshqalarning me’yorlariga e’tibor bermaslik, tenglashtirish;

– diniy ta’limotlarni amalga oshirish bo‘yicha harakatlar majmui sifatida<sup>112</sup>.

Diniy ekstremizmning qamroviga ko‘ra shakllari quyidagilardan iborat:

- konfessiya ichidagi (e’tirofning chuqur deformatsiyasiga qaratilgan);
- konfessional bo‘lmagan (boshqa e’tiroflarni yo‘q qilishga qaratilgan);
- shaxsiyatga yo‘naltirilgan (shaxsni buzg‘unchi o‘zgartirishga qaratilgan);
- etno-diniy (etnik guruhni o‘zgartirishga qaratilgan);
- diniy va siyosiy (siyosiy tizimni o‘zgartirishga qaratilgan);
- ijtimoiy (ijtimoiy-iqtisodiy tizimni o‘zgartirishga qaratilgan).

Diniy ekstremizmning bu turlari ko‘pincha aralash xarakterga ega bo‘lib, o‘zining sof ko‘rinishida namoyon bo‘lmaydi. Diniy ekstremizmning maqsadi butun diniy tizimni yoki uning tarkibiy qismlarini tubdan isloh qilishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish diniy tuzum bilan bog‘liq jamiyatning ijtimoiy, huquqiy, siyosiy, axloqiy va boshqa asoslarini chuqur o‘zgartirish vazifalari bilan bog‘liq.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Diniy ekstremizmning ijtimoiy tahdid sifatidagi bir qancha mezonlari mavjud, xususan:

– diniy tajriba asosida yoki diniy matnlarni baholash asosida tuzilgan maxsus missiyaning mavjudligi;

– o‘zining eksklyuzivligi va ustunligiga sig‘inish, diniy guruhning boshqa diniy guruhlariga va umuman dunyoviy jamiyatga nisbatan tubdan farq qilishi, aristokratik xulq-atvor kodeksining mavjudligi;

– kengayish ruhi bilan to‘ldirilgan o‘z submadaniyati;

– yuqori guruhlarning birlashishi va korporatizmi;

– dunyoning o‘zgarishi haqidagi diniy ta’limotning mavjudligi, hatto uni inkor qilish orqali va kategorik ong;

– “begona” ga nisbatan o‘ziga xos qarama-qarshilik faoliyati;

– jamiyatga va boshqa diniy guruhlariga nisbatan tajovuzkorlik<sup>113</sup>.

<sup>112</sup> [https://www.mirniy.ru/info/anti\\_terror/5723-o-suschnosti-religioznogo-ekstremizma-i-fundamentalizma-i-merah-po-protivodeystviyu-etim-yavleniyam.html](https://www.mirniy.ru/info/anti_terror/5723-o-suschnosti-religioznogo-ekstremizma-i-fundamentalizma-i-merah-po-protivodeystviyu-etim-yavleniyam.html)

Diniy ekstremizmning mohiyati an'anaviy tizimni inkor etish hisoblanadi. Odatda ekstremistik guruhlar asosan, jamiyatning o'z mavqidan norozilik va kelajakka ishonchsizlik hissi, milliy yoki konfessional o'ziga xosligini buzish yoki yo'qotishdan qo'rqish hissini boshdan kechirayotgan jamiyatning chekka va nochor qatlamlari va guruhlaridan tashkil topadi.

Aksar hollarda diniy ekstremizm, diniy-siyosiy ekstremizmning ilk ko'rinishi bo'ladi. Diniy-siyosiy ekstremizmning asosiy maqsadi esa, davlat tuzumini zo'rvonlik bilan o'zgartirish, dunyoviy boshqaruvni teokratiya (diniy yetakchilar davlat siyosatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan siyosiy tizim) bilan almashtirish istagidan iborat bo'ladi.

Umuman olganda "ekstremizm" tushunchasiga oid bir qancha ta'riflar mavjud bo'lib, ushbu tushunchalarni ko'rib chiqish mavzuni yanada yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Xususan, 2018 yil 1-noyabrda qabul qilingan "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga ko'ra, "Ekstremizm – ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirishga, hokimiyatni zo'rlik ishlatib egallashga va uning vakolatlarini o'zlashtirib olishga, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atishga qaratilgan harakatlarning ashaddiy shakllari ifodasi"<sup>114</sup> sifatida belgilangan.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida esa, ekstremizmga quyidagicha ta'rif beriladi: - "Ekstremizm (lotincha: — o'ta, keskin degan ma'nolarni anglatadi) — siyosatda va mafkurada ashaddiy, favqulodda harakat va qarashlarga asoslanib faoliyat yuritish"<sup>115</sup>. Ensiklopediyada berilgan ta'rif nisbatan umumiyroq xarakter kasb etishini ko'rish mumkin.

Bu borada xalqaro tadqiqotchilar Piter T. Koulman va Andrea Bartolilar o'zlarining "Ekstremizmga murojaat qilish" asarida quyidagicha izoh berishadi:

"Ekstremizm, ko'rish va tushunish murakkab bo'lgan hodisadir. Buni odatiy, umume'tirof etilganlardan uzoqda bo'lgan shaxsning faoliyati (shuningdek, e'tiqodlari, biror narsaga yoki kimgadir munosabati, his-tuyg'ulari, harakatlari, strategiyalari) sifatida aniqlash oson. Mojaroli vaziyatda - nizolarni hal qilishning qattiq shaklining namoyishi. Biroq, faoliyat, odamlar va guruhlarini "ekstremistik" deb belgilash va "odatiy" yoki "umumiy" deb hisoblanishi kerak bo'lgan narsalarni belgilash har doim sub'ektiv va siyosiy masala hisoblanadi"<sup>116</sup>.

<sup>113</sup> O'sha yerda

<sup>114</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-3841957>

<sup>115</sup> <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/11-o-zbekiston-milliy-ensiklopediyasi>

<sup>116</sup> Coleman Peter T., Bartoli Andrea. Addressing Extremism. The International Center for Cooperation and Conflict Resolution (ICCCR), Teachers College, Columbia Un. // The Institute for Conflict Analysis and Resolution (ICAR), George Mason Un., 2003. – P. 2.

Bu izohdan ko‘rinadiki, “ekstremistik” deb belgilash bu bizning sub’ektiv va siyosiy qarorimizni aks ettiradi.

Boshqa bir tadqiqotchi yana ham qiziqarli izoh taklif qiladi, V.I. Krasikov ekstremizmni dunyoqarash tizimi, ongning alohida shakli sifatida ta’riflab: “Ekstremizm, eng avvalo, dunyoqarashning o‘ziga xos shakli yoki koordinatalar tizimidir. Bu, shuningdek, hukmron madaniyat me’yorlari va qadriyatlariga ochiq kelishmovchilik holatida bo‘lgan ayrim odamlar guruhlarining o‘ziga xosligini ifodalaydi. Bunday o‘ziga xoslik turli yo‘llar bilan namoyon bo‘ladi: provokatsion turmush tarzi, turli kiyimlar, jargon va boshqalarda namoyon bo‘ladi”<sup>117</sup>, - deydi. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, har qanday dunyoqarash kabi “ekstremist” ham o‘ziga xos “qadriyat” poydevoriga, o‘ziga xos o‘ziga xosligi qurilgan e’tiqod va qarashlar tizimiga ega.

Bundan tashqari 2001-yil 15-iyundagi imzolangan “Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Shanxay konventsiyasida ham ekstremizmga ta’rif berilgan bo‘lib, unda ekstremizm “hokimiyatni zo‘rlik bilan egallab olishga yoki hokimiyatni zo‘rlik bilan ushlab turishga, shuningdek davlatning konstitutsiyaviy tuzumini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga, jamoat xavfsizligiga zo‘rlik bilan tajovuz qilishga va shu jumladan yuqoridagi maqsadlarda noqonuniy qurolli tuzilmalar tashkil etish yoki ularda ishtirok etish qaratilgan har qanday xatti-harakat”<sup>118</sup> deb ta’riflanadi.

Ekstremizmga yanada kengaytarilgan ta’rif V.D. Trofimova tomonidan berilgan bo‘lib, u: “Ekstremizm istalgan samarani olish uchun ekstremal (ijtimoiy xulq-atvorning ekstremal) choralarini qo‘llash mumkinligini e’tirof etuvchi mafkurasidir. Bu ekstremizmning faqat siyosiy darajadagina tushunuladigan barcha umume’tirof etilgan ta’riflaridan kengroq bo‘lib, ekstremizm siyosat bilan cheklanib qolmaydi va o‘z doirasidan ancha kengroq qiymat kasb etadi, faqat siyosatda u negadir muhim bo‘lib chiqadi” deb ta’kidlaydi. Trofimovaning mulohazalaridan shu ayon bo‘ladiki, ekstremizm tushunchasini qat’iy tahlil qilish va talqin qilishning yana bir jihatini ochib berishi bilan ahamiyatlidir – bu ekstremizmning nafaqat siyosatda, balki inson faoliyatining boshqa sohalarida ham namoyon bo‘lishidir.

Yuqoridagi mulohazalardan ayon bo‘ladiki, hukumatlarning ekstremizmga toqati yo‘q va bu mutlaqo tabiiy, chunki ekstremizm aksar hollarda omma mafkurasiga zid o‘ta keskin mafkura sifatida maydonga chiqadi. Quyida ekstremizmning namoyon bo‘lish shakllarini ko‘rib chiqamiz.

<sup>117</sup> Красиков В.И. В экстриме. Междисциплинарное философское исследование причин, форм и паттернов радикального сознания. М., 2006. – С. 25.

<sup>118</sup> О борьбе с терроризмом, сепаратизмом и экстремизмом: Шанхайская конвенция (заключена 15.06. 2001). Референт – правовая система нового поколения. URL: <http://www.referent.ru/1/10927>



Mamlakatimiz qonunchiligiga ko‘ra ekstremistik faoliyat – quyidagilarda o‘z aksini topadi:

– O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi asoslarini zo‘rlilik bilan o‘zgartirishga, hududiy yaxlitligi va suverenitetini buzishga;

– hokimiyat vakolatlarini egallashga yoki o‘zlashtirishga;

– qonunga xilof qurolli tuzilmalar tuzishga yoki ularda ishtirok etishga;

– terrorchilik faoliyatini amalga oshirishga;

– zo‘rlilik yoki zo‘rlilik ishlatishga oshkora da‘vat qilish bilan bog‘liq holda milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atishga;

– jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etishga, shuningdek ekstremistik tashkilotlarning atributlarini yoki ramziy belgilarini tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etishga;

– biror-bir ijtimoiy guruhga nisbatan siyosiy, mafkuraviy, irqiy, milliy, etnik yoki diniy adovat yoxud dushmanlik sababli ommaviy tartibsizliklarni amalga oshirishga;

– ushbu moddaning to‘rtinchi — o‘ninchi xatboshilarida ko‘rsatib o‘tilgan harakatlarni amalga oshirish uchun oshkora da‘vat qilishga qaratilgan harakatlarni rejalashtirishga, tashkil etishga, tayyorlashga yoki sodir etishga doir faoliyat<sup>119</sup>.

Bundan tashqari ushbu qonunda “ekstremist”, “ekstremistik guruh”, “ekstremistik material”, “ekstremistik tashkilot” tushunchalari ham ochib berilganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mamlakatda ekstremizmga qarshi kurash yo‘lida olib borayotgan ishlarni quyidagicha baholash mumkin. Ekstremizmga qarshi kurash yo‘lida O‘zbekiston mintaqada birinchilardan bo‘lib, tashabbus ko‘rsatgan holda ShHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi g‘oyasini ilgari surgan va 2004 yildan buyon ushbu tuzilma Toshkentda faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Bundan tashqari mamlakatning birinchi prezidenti I.A.Karimov va amaldagi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevlar xalqaro doiralardagi uchrashuvlar, konfrensiya, sammit, sessiyalarda terrorizm, ekstremizm mavzusiga alohida diqqat qaratadilar, xususan prezident Sh.M.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida «Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat‘iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz.

Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da‘vat etadi», deb ta’kidlagan edi.

<sup>119</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-3841957>

Ushbu jarayonda amalga oshirilgan so‘nggi eng muhim chora-tadbirlardan biri bu Prezidentning 01.07.2021 yildagi PF-6255-son Farmoni bilan 2021-2026 yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ning ishlab chiqilishidir.

Ushbu strategiyaning ustuvor yo‘nalishlari:

- ekstremizm va terrorizm g‘oyalari tarqalishining oldini olish maqsadida vatanparvarlik, an’anaviy qadriyatlar va bag‘rikenglik mafkurasini targ‘ib qilish;
- voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida ekstremizm va terrorizm g‘oyalari tarqalishining oldini olish;
- ayollar huquqlarini himoya qilish hamda ularning ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishdagi rolini kuchaytirish;
Воқеалар ривожидавомида Элтариш Қутлуғ хоқоннинг “сўзи тўқ, илиги бор” тўнғич ўғли Билга хоқон, иниси Кул Тигин билан сочилиб кетган улусини тўплаб, элни кўтаради ва кўклам келиб, улар Ўтукан йиш устига босқин қилмоқчи бўлган душманга қарши ўлим-қолим чопқинига жўнашди ҳамда ёв кутмаган пайтда ҳужум қилиб катта талофат етказдилар. Шу жангу жадаллар давомида **Билга хоқон – Кул Тигин – Билга Тўнюқуқ, Билга хоқон – Ишбара ямтар – Булут** учликлари сюжет линиясига кўшилди. Агар биринчи учликни шартли равишда бошқарув учлиги десак, табиийки лидерлик улусни йўлбошловчи бўлган доно, тадбирли Билга хоқонга тегишли бўлиб, унинг ўнг қанотида бир ярим мучалга етмай табғач билан бўлган сўқишда бир ёвни ўлдиргани учун эр отини олган жасур ботир иниси, моҳир саркарда Кул Тигин ва чап қанотида эса йўриқчиси, доно маслаҳатчиси Тўнюқуқ туради. *“Иниси Кул Тигин, йўриқчиси Тўнюқуқ, учовлон қирга чиқишди, ўша ерда отларнинг думи ҳилтираб анча туришди. Неларни сўзлашишди, биров билмади”*<sup>158</sup>. Демак, улусни бошқариш, ҳарбий юришларга тайёргарлик кўриш режасини учовлон бамаслаҳат тузишади. Иккинчи учлик ҳам Билга хоқон атрофида жанг майдонларида шаклланади. Моҳир саркарда бўлган хоқон ёғийларга қарши юришлардаги барча қийинчиликларни черик билан биргаликда енгиб ўтди, айниқса, душманни кутилмаган пайтда, кутилмаган жойда босиш учун қаҳратон совуқ, қор ва муз қоплаган Кўгман тоғидаги довонни ошиб ўтаётганда, Ўн ўққа юриш қилганда Билга хоқоннинг донолиги, элсеварлиги, ўз кишиларини ғамини ейиши яққол кўринди. Учликнинг қолган икки вакили оддий халқ вакиллари бўлиб, *“бирининг оти Ишбара ямтар эди, ямтар деб кучи танасига сизмас алтни айтишади. Ўрта бўйли, тумоғи остидан кокили чиқиб турган кичкинагина йигитча эса Булут эди”*<sup>159</sup>. Қадрдон бўлишига қарамай, доимо бир-бири билан гап таллашиб, тортишиб юрувчи дўстларни тасвирлаш экан, ёзувчи антипод усулидан унумли фойдаланади, яъни ботир Алп Қора Бўғунинг ўғли девсифат Ишбара довьюрак, арслондай кучли, бели ва кўнгли қаттиқ, моҳир жангчи эди, *“ – Сен доврўқ ила ўляпсан, – деди Эл Бўғу. – Алп ўғилларинг, куёвларинг, келинларинг, ўн минг йилқинг, эл-улусинг қолди. Ўлсанг, улус номингни кўкка етказиб тилга олади”*<sup>160</sup>. Табғачлар билан бўлган сўқишда мардонавор ҳаракат қилиб кўплаб душманларни ер тишлатган

<sup>157</sup> Ўша асар, 21-бет.

<sup>158</sup> Ўша асар, 56-бет.

<sup>159</sup> Ўша асар, 11-бет.

<sup>160</sup> Ўша асар, 125-бет.



кичкинагина Булут “... табғач Булутни яна ўраб олган эди. Мана шу ўров аро Булутга ўнлаб ўқлар қадалди, танаси жайрадай бўлиб қолди, шу туришида чалқанчасига йиқилди.” Унинг ўлими олдидан айтган сўнгги сўзлари “Улус энди эрклими?” бўлди<sup>161</sup>. Бу босқинчиларга қарши озодлик учун курашиб жонини фидо қилган ҳақиқий ватанпарварнинг сўзлари эди. Тўньюқок бундай ботирлар ҳақида эр учун ўлим – будуни учун ўлмоқдир! деган эди.

Романнинг асосий учлиги сифатида шажара билан боғлиқ бўлган **Элтариш Қутлуғ хоқон – Билга хоқон – Йўллик Тигин хоқон** учлигини қайд этишимиз керак. Гарчи асарда тасвирланган воқеалар Элтариш хоқон ўлиmidан кейин содир бўлган бўлса-да, Билга хоқон ва улус у билан боғлиқ шонли кунларни бот-бот эслашар эди. Чунки айнан Элтириш хоқон даврида кўктурклар бирлашиб, кучга тўлган бўлса, унинг ўлиmidан кейин кўктурклар “...бошига очлик келмиш, тўзиб йўқ бўлади деб эдик”. Кейинги эллик йил турк будун табғачга қарам эди, эл қул ва чўри бўлди, айниқса, кейинги етти йилда абгор ҳолатга келиб қолди. Душманлар кўктурклар тарқалиб йўқ бўлиб кетади, барча ерлари бизга қолади, деб турган паллада кўктуркларга хоқон бўлган, уларни Ўтуқан йишга тўплаш ҳаракатига тушган Билга ҳақида “Тўзмамиш, йўқ бўлмамиш. Ўй ўйламиш, шундоқ қолаберсак, бўшашиб-кучсизлашамиз, сўнг ўламиз, демиш. Билга деган хоқон ўтирмиш, билмагани йўқмиш. Кучга кирмасидан бузмасак, бошимизга келгай. Келса барчамизни эзиб-ёйгай”<sup>162</sup>, деб айтади Тўққиз ўғуз хоқони. Билга хоқон даврида кўктурклар нафақат олдинги мавқеини тиклаб, улусни юксалтирдилар, доврўғини бутун дунёга ёйдилар, шунингдек, кўплаб ерларини тортиб олдилар, теvarакни душманлардан тоzаладилар ва қудратли давлат курдилар. Демак, айнан шу хоқоннинг оқилона ҳаракатлари туфайли кўктурклар давлати гуллаб-яшнади.

Асарда учликнинг сўнгги бўғини бўлган Йўллик Тигинга тошбитикларда ўйиб ёзилгандай биргина жумла ажратилган: “Билга ўрнига унинг ўғли Йўллик Тигин хоқон сайланиши билан улуг кўктурклар сойи қуришига келди...”<sup>163</sup>. Ҳа, тарихдан ва адабий асарлардан маълумки, табиат аксарият ҳолларда ота-онага инъомлар қилиб, фарзандларга келганда дам олар экан. Демак, Йўллик Тигин отаси ва бобосининг ишини давом эттира олмади, катта ишларни амалга оширмади, улар қурган салтанат унинг даврида қулай бошлади, Шимолий хоқонликдан путур кетди, уйғурлар кучга кира бошлади, балки шу сабабдан ҳам жумла кўпнукта билан яқунланди. Бу учликни **барпо қилувчи – ривожлантирувчи – вайрон қилувчи** учлик тарзида ҳам аташ мумкин.

<sup>161</sup> Ўша асар, 108-бет.

<sup>162</sup> Ўша асар, 20-21-бет.

<sup>163</sup> Ўша асар, 138-бет.

Навбатдаги учлик турк элининг пайдо бўлиш тарихи билан боғлиқ. Инсоният ва элатларнинг пайдо бўлиш тарихи ҳақида бир қатор диний ва илмий қарашлар мавжуд бўлиб, уларнинг аксариятида буюк тўфон ҳақида сўз юритилади. Бахши Эл Бўғу (туркийлар “Бўғу” деб билгичларни атаганлар) будуннинг пайдо бўлиш тарихини қуйидагича сўзлаб беради: *“Қачонлардир Кўк Тангри ер юзини сувга бостирган экан. Бир қанча киши чўкмасдан, эсон қолибди. Сўнг сувни ер ютиб, қуришибди. Қуригач, у киши қуруққа тушибди. Унинг учта ўғли бор экан. Бири қулоқсиз, ўзинигина ўйлар экан. Иккинчиси бунга кўнмаса-да, индамас экан. Яна бири бўлса, ардоқлар экан. Ўша отасини ардоқлаган ўғилдан сиз тарқалдингиз, дебди”*<sup>164</sup>. Ушбу миф уч хил характердаги ака-укалар ҳақида бўлиб, улардан бири фақат ўзини ўйлайдиган худбин, иккинчиси эса акасининг табиатини оқламаса-да унга бу ҳақда индамас, яъни лоқайд эди, фақат кенжа ўғил отасини ҳурмат, қилиб ардоқларди. Миф туркийлар томонидан яратилгани сабабли, ака-укаларнинг энг яхшисидан туркийлар тарқаганини мантиқан тўғри дейиш мумкин. Кўринадики, қадимги туркий манбалар ҳамда улар асосида яратилган замонавий ўзбек романларда ҳам учлик тамойили мавжуд ҳамда улар яхлит тизимлилик тусини олган.

### **АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ (REFERENCES)**

1. Литературная энциклопедия терминов и понятий / Под ред. А.Н.Николюкина. – М.: НПК «Интелвак», 2001. – Стб.39. (1600 стр).
2. Коллектив. Теория литературы. Том III. Роды и жанры (основные проблемы в историческом освещении).- М.: ИМЛИ РАН, 2003.- С.105 (592 с).
3. Султон И. “Билга ҳоқон” [Матн]: роман, қисса ва ҳикоялар. – Т.: “Factor book”, 2022. 12-б.

<sup>164</sup> Ўша асар, 77-бет.

## **АЛЕКСАНДР АРКАДЬЕВИЧ ФАЙНБЕРГ – ЎЗБЕКИСТОН ШЕЪРИЯТИ ОСМОНИНИНГ ЁРҚИН ЮЛДУЗИ**

**Ирода Санъат қизи Тохирова**

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети талабаси

### **АННОТАЦИЯ**

*Бу мақолада рус шоири ва Ўзбекистон халқ шоири Александр Аркадьевич Файнбергнинг ҳаёти ва ижодий фаолияти ҳақида сўз боради. Унинг асарлари ҳақида маълумотлар тақдим қилинган.*

**Калит сўзлар:** шоир, шеър, рус, ўзбек, муаллиф, журналистика.

### **ABSTRACT**

*This article provides information about the life and creative work of the Russian poet and People's Poet of Uzbekistan Alexander Feinberg. Information about his works is provided.*

**Key words:** poet, poetry, Russian, Uzbek, author, journalism.

### **КИРИШ**

Адабиёт фанидан таълим олиш жараёнида кўплаб ўзбек, рус, хорижий ёзувчи-шоирлар ижодини ўрганганмиз. Ҳар бир шоир ёки ёзувчининг ўзига хос ижодий қарашлари мавжуд. Бу қарашлар албатта, уларнинг ёзган асарлари, шеърларида намоён бўлади. Шундай ёрқин ижодкорлардан бири Александр Аркадьевич Файнберг Ўзбекистон шеърий осмонида муболағасиз энг ёрқин нур сочган адиблардан бирidir. Унинг ижоди жуда кўп қиррали ҳисобланади.

1937 йилда ота-онаси Новосибирскдан Тошкентга кўчиб келгач, Александр Файнберг 1939 йил 2 ноябрда Тошкент шаҳрида туғилган. У Тошкент, Москва ва Санкт-Петербургда нашр этилган ўн учта шеърий тўплам муаллифи ҳисобланади. Унинг қаламига мансуб еттита сценарий ёзилган.

### **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Жаҳон уруши даврида у яшаётган жой урушдан узоқ бўлсада, Александр болалар боғчасидаги очлик ҳисларини эслаб: ...бизда нонуштага лавлаги. Кўчада эса дарё... Тушдан кейинги чойга ҳам лавлаги... (Куз. 1942). Бу даврдаги болалар учун болалик даври қийин кечган. Сашанинг ёнида доимо меҳрибон ва ғамхўр онаси Анастасия Александровна бўлган. Онаси уйда каттагина кутубхонага эга бўлиб, инглиз ва француз тилларини пухта эгаллаган, Москвада таълим олган эди [1:61].

Онаси унга уйда Пушкин, Лермонтов, Некрасов, Блок, Мандельштам, Есенин, Ахматова ва Тютчевнинг шеърларини ўқиб берган. Унинг отаси Аркадий Львович Файнберг химик-технолог касбига эга бўлиб, уруш ва

урушдан кейинги йилларда заводда ишлаган.Эллигинчи йиллардан кейин илмий тадқиқот олиб боришга қизикди. Ўрта Осиё университетида доцент вазифасида ишлаш билан бир қаторда, илмий котиб лавозимида ҳам фаолият юритган. Александр отасидан мустақил фикр юритиш, ишга масъулият билан ёндошишни ўрганган. Файнберг 27 ёшга тўлганида, онасидан ажралди. Шундан сўнг кўпгина шеърларини онасига бағишлаб ёзган.

У онасининг номидан ўғлига сўзловчи шеърни ёзган:

Не надо от тебя мне,  
мой родной,  
богатства,  
дома роскоши ковровой,  
Достаточно мне, сын любимый мой,  
чтоб рядом ты ходил живой, здоровый.  
Бу шеърнинг ўзбекча таржимаси:  
Ҳеч нарса керакмас  
сендан ўғлоним,  
Муҳташам саройлар қурма мен учун.  
Ёнимда юрсанг бас,  
бахтим қўрғони  
Бўлиб соғ-саломат қувонмай нечун[3:23].

Онасидан жудо бўлганидан беш йил ўтиб, 1971 йилда отаси вафот этади.

Унинг болалиги собиқ Жуковская кўчасидаги уйда ўтган. Етти йиллик мактабни тугатгач, Александр Файнберг Тошкент типография техникумига ўқишга кирди. Техникумни тамомлагач, Тожикистонда ҳарбий хизматни ўтаган. Кейин Тошкент университети (ТошГУ, ҳозирги ЎЗМУ)ни тамомлаган, филология факультетининг журналистика йўналиши кечки бўлимида таҳсил олган. Кечқурун ўқиб, кундузи журналистика ва нашриёт нозик сир асрорларини ўрганиш мақсадида ишлаган.

1965 йилда унинг биринчи китоби “Велотреки” (велосипед треклари) нашр этилган. 1969 йилда уни Ўзбекистон ёзувчилар уюшмасига қабул қилишган. Шу йили учинчи китоби “Мгновение” (Тезкорликда) ҳам нашр этилган. Унинг номи секин-секин машҳурликка юз тутган [1:62].

А.Файнберг шоир ҳодисаси, давр тимсоли, серқирра, теран, кўп қиррали шоир бўлиб, унинг шеърларини англаш учун ҳали китобхонлар, адабиётшунослар ва тадқиқотчилар изланиш олиб боришлари керак. Александр Аркаевич Файнберг ҳаётлик даврида унинг ишини илмий тарзда ёндашиб, ўрганишларига қарши бўлган. У ҳеч кимнинг уни мақташини ёки ундан ҳам

ёмони, уни Совет шеърятининг “бронза” классикаси мансуб сифатида муддатидан олдин ёзиб қўйишини ёқтирмаган. Шоирни чоп этган китоблари тақдири, ҳали ёзилмаган ҳар бир янги шеъри, муваффақиятли ёзилган сатр ичидан топилган янги қофия, “эркин сонетлар” нинг янги ноодатий шеърый шакли кўпроқ ташвишлантирарди.

А.Файнберг “дастлаб мен буни қилдим”, деган шоир ёки рассом гапини нотўғри деб ҳисоблаган. Ҳа, у ҳеч нарса қилмади, бу юқоридан худо орқали, худди кўшиқчига овоз берилгани кабидир, яъни унга талант худо томонидан берилган, у фақат бажарувчиси деб ҳисоблаган. Бу “ўша шоир ёки рассом эмас, балки Худонинг унга берган инъоми, бунинг учун тақдирга миннатдорчилик билдиришимиз керак” – деб фикр билдирган. Мен кимман? Кейинги қаторда нима ёзилишини билмайман. Шеър – Худо берган кўшиқ”. [2:17].

А.Файнберг ўзи ҳақида башоратли тарзда “Йигитлар, мен ҳали туғилмаганлар олдига бораман...”, деди.

Александр Файнбергнинг 700 дан ортиқ шеърлар, иккита поэмалари нашр этилган. Шоир Шарқ маданияти марказида яшаган, бир вақтнинг ўзида у параллел равишда рус маданиятининг вакили ва ташувчиси ҳамдир[2:62].

Шарқ сунъий цивилизациясиз ҳам кўпплаб маданиятларнинг чорраҳаси ҳисобланади. Бу борада унинг қуйидаги шеърлари бор: «Старая песенка» (“Эски кўшиқ”), «Самаркандский базар» (“Самарқанд бозори”), «Картинка Самаркандского базара» (“Самарқанд бозори сурати”), «Два грузина» (“Икки грузин”); туғилиб ўсган Тошкент шаҳри ҳақида: в «1943» (“1943-йил”), «Незабудка» (“Унутма мени”), «С вокзала я...» “Вокзалдан мен...”, «Трамвайный парк» (“Трамвай парки”), «Взгляд из детства» (“Болаликдан бир манзара”), «Город, который ты есть» (“Сен бўлган шаҳар”), «5-ый проезд Жуковского» (“Жуковскийнинг 5-йўлаги”), «Город милый» (“Азизим шаҳар”).

А.Файнберг нафақат шеърлар ёзди, балки таржима билан ҳам шуғулланди. У машҳур бобокалонимиз Алишер Навоий ва замонавий шоирлардан Абдулла Орипов, Эркин Воҳидов, Асқад Мухтор, Гулчехра Нуруллаеванинг шеърларини рус тилига таржима қилган. Унинг шеърларини 2004 йилда Рустам Мусурмонов ўзбек тилига таржима қилган.

### **Фойдаланилган адабиётлар (REFERENCES)**

1. Малыхина Г.В. Урок по лирике А.Файнберга. // Преподавание языка и литературы, научно-методический журнал. Ташкент. 2006. №2.
2. Малыхина Г.В. Поэтический прииск Александра Файнберга. – Т., 2014.
3. Файнберг А. Ишқ дегани бир қарашда туюлар осон... Шеърлар//Александр Файнберг. – Т.: Ижод нашр, 2021.



## **THE FUNCTION OF METALANGUAGE IN THE GRAPHIC COMMUNICATION**

**J.K. Komilov,**

**B.A. Dehkonov,**

**U.Kh. Ortikov**

Kokand branch of Tashkent state technical university

### **ABSTRACT**

*The article is devoted to describe metalanguage functions of abbreviations and analyze them in the usage of graphic communication in the internet. Specifically, functions of metalanguage in linguistics, such as in the process using of shortened words, numeronyms, blendings and other types of abbreviations are discussed in the work.*

***Key words:** metalanguage, graphic communication, numeronym, abbreviation, blending, shortening, lexicography.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Статья посвящена описанию метаязыковых функций аббревиатур и их анализу в использовании графической коммуникации в Интернете. В частности, в работе рассматриваются функции метаязыка в лингвистике, такие как использование сокращенных слов, нумеронимов, блендов и других видов аббревиатур.*

***Ключевые слова:** метаязык, графическая коммуникация, нумероним, аббревиатура, смешивание, сокращение, лексикография.*

### **INTRODUCTION**

Metalanguage is a language used to discussed or describe other languages, it is a process that talks about language itself. Metalanguage is often used by linguists, educators, and researchers to analyze and understand the structure, rules, and patterns of language. Examples of metalanguage include terms such as "syntax," "morphology," "semantics," and "phonology," which are used to describe different aspects of language. In linguistics, metalanguage refers to language used to describe or analyze language. The function of metalanguage in linguistics is to provide tools and concepts for analyzing and understanding language. With metalanguage, linguists can discuss various features of language such as grammar, phonetics, and syntax, and identify patterns and rules that underlie these features. It is essential in the study of language and facilitates clearer communication and understanding among scholars.

It often refers to the language used to describe and talk about language. In graphic communication, metalanguage function refers to the use of words, symbols

and visual language to communicate the technical aspects of graphic design and production. It allows people and other stakeholders to communicate effectively and precisely about the visual elements, composition, and technical requirements of graphic designs. It is essential in graphic communication because it helps to ensure that communication is clear and unambiguous. Metalanguage can include terms that are related to lexicography, semantics, internet communication production methods, and other technical aspects of graphic communication. By using metalanguage, people can convey information about visual elements and design compositions in a way that is easy for others to understand. It also facilitates the professional communication between language users and helps ensure that the final speech will be effective and accurate.

### **LITERATURE REVIEW**

Communication of people happens in two ways: one of them is verbal communication and the next is visual communication. We often experience visual communication in most profound ways of our actions, feelings and beings. Albert Mehrabian considers that, 93% of communication is non-verbal. For instance, it is much easier to present a circle than to define it. Visual communication is a wide and commonly used in our life such as, graphic communication, fine arts, multi-media, dance and choreography, photography, interior design, textile design, fashion design, etc. In other words, art is used as a medium for conveying specific ideas and messages. Graphic communication is the “process of selecting and arranging artistic elements in order to bring about understanding and meaning sharing.” (Afolabi, 2011)

Totem patterns were one of the first graphics in the globe in historical times. Lately, individuals use graphics to cut out on stone walls and caves. Nowadays, graphics have changed a medium for humans to make a conversation or express emotions. With the additional development of innovations, words were gradually created for recording or conversation. First characters similar to pictographs which are images abstracted from the view of the current objects illustrating to the graphs. They changed into the horizontal and vertical signs step by step that we use today. For this reason, graphics are improved with the necessity of people’s life and production. However, the investigations on symbols has become a valuable issue since the 1990s. In this century, with the suggestion of visual communication in designing, most fashion designers understand that an acceptable design work requires an diverse expression to accurately present it with unique creativity. During the presentation, visual graphic language has an initial spot. Form development of utilizing graphic language is the proposal of the work to carry the intention. Similarly,

creativity of graphic visualization in the process of designing is the key for workers to increase the visual communication grade and their own designing idea (Zhang, 2022).

In the process of offline communication metalinguistic episodes are presented higher retention (73.3%) language acquisition during the discussion of peers. Discussing linguistic knowledge with students and teachers not only present the linguistic difficulties faced by the learners but also have the possibility to support wide amendment of the source in their personal memories. The special graphic characteristics of the metalinguistic episodes also show chances for the students to increase their knowledge (Kitade, 2008).

As a consequence, metalanguage is transformed into a practical tool of critical negotiation even it is first utilized as a theoretical item simply for illustrating the systems of graphic communication. The collection of the metalanguage at this grade is presented on equal usage of systems of the contribution which, stemming from the decoding action as deconstruction and as reconstruction of the interactive parts and relations of the spatial arrangement, configure a flexible functional frame of application and additional research and improvement in the domain of different representation of discourse within the pedagogy of Multiliteracies. This involves the requirement for implementation of metalanguage for the form of programs making the instruction of literacy, for the reason of reconstruct the modal feature of conversation and enable the emergence of supplementary interrelation to which the verbal and the visual mode are liable. What seems to preoccupy us and which requires further investigation, lies in the question as to what degree the educators are supplied with the appropriate means to evaluate the meanings created by students in different modes at the moment when the school system focuses exclusively on the verbal mode (Papademetriou, Makri, 2015).

## **RESULTS AND DISCUSSION**

Metalanguage function of abbreviations in internet communication works as a shortcut to convey a longer message or phrase, saving time and effort required for typing or speaking full words. For instance, abbreviations like LOL (laugh out loud), BTW (by the way), OMG (oh my god), BRB (be right back), and TTYL (talk to you later) have become part of internet slang, enabling users to express emotions, information, and intents quickly and conveniently.

The metalanguage function of shortening words in internet communication is to create a sense of informality, speed, and efficiency. It also helps to convey a sense of familiarity and belonging within a group of online communicators who use similar

shortened forms. Shortened forms are commonly used in online conversations, social media, and text messages to convey emotions quickly and effectively. Additionally, this practice helps to keep up with the fast-paced nature of online communication and saves time and effort in typing out long phrases or sentences.

Numeronyms, also known as digitonyms, are words made up of numbers or a combination of letters and numbers. They serve several metalanguage functions in internet communication:

1. Efficiency: Numeronyms are highly efficient in conveying information in a concise and faster way. They allow communicators to convey a message using fewer characters, reducing the time and effort required to type or read a long word or phrase.

2. Clarity: Numeronyms can also contribute to clarity in communication. They help avoid confusion and ambiguities that might arise when using long words or phrases, especially in cases where abbreviations or acronyms could be unclear or have multiple meanings.

3. Jargon: Numeronyms can also function as jargon or insider language in some online communities. They can serve to identify members of specific groups or communities and convey a sense of belonging or connection.

4. Creativity: Finally, numeronyms can also be used creatively in online communication to add humor, irony, or sarcasm to a message.

One of the type of abbreviated words considered as blending. Before discussing the function of blending it could be better to know about general understanding of it. Blending refers to the process of combining two words to create a new one. In internet communication, blendings are used to create new words that reflect the fast-paced, informal nature of online communication. Blendings are used to express complex ideas in a concise manner or to create new buzzwords that reflect emerging trends in online culture.

The metalanguage function of blendings in internet communication is to create a new vocabulary that reflects the changing nature of online discourse. Blendings help to create a shared language among online communities and to establish a sense of belonging and identity. By using blends, internet users can communicate their ideas quickly and efficiently, without the need for lengthy explanations or qualifications. Blendings also serve as a way to express humor and playfulness in online communication. Many blendings are created for comedic effect, either to poke fun at a particular trend or to create a humorous take on a serious topic. Blendings can also be used to establish a sense of irony, by combining two words that are seemingly contradictory or incongruous.

## **CONCLUSION**

In summary, the metalanguage function of graphic communication refers to the use of precise language and visual symbols to communicate linguistic aspects of graphic words and production. It enables communication between language users to be clear, concise, and professional. For example, numeronyms are a valuable addition to the metalanguage of internet communication, offering a range of benefits and functions that can enhance the clarity, efficiency, and creativity of online interactions. Blendings in internet communication serve a metalanguage function by creating a new vocabulary that reflects the changing nature of online discourse. They help to establish a sense of identity and belonging among online communities and can be used to express humor, playfulness, and irony. Therefore, abbreviations can also help in maintaining brevity and clarity in communication irrespective of language barriers. Their usage depends on the context and relationship between the involved parts. Abbreviations can be seen in informal or casual conversations, social media platforms, and online forums.

## **REFERENCES**

1. Afolabi A., *Graphic Communication in Nigeria*, Lagos, 2011, pp. 3-9.
2. Cohn N., *A Cognitive Approach to Graphic Signs and "Writing"*, Chicago, 2015.
3. Kitade K., *Language Learning & Technology*, The role of offline metalanguage talk in asynchronous computer-mediated communication, ISSN 1094-3501, February 2008, Volume 12, Number 1 pp. 64-84.
4. Lee C., 'Language choice and self-presentation in social media: the case of university students in Hong Kong', in P. Seargeant and C. Tagg (eds.), *The language of social media: community and identity on the Internet*, Palgrave Macmillan: Basingstoke, UK, 2014, pp. 91–111.
5. Papademetriou E., Makri D., *The Metalanguage of "Visual Design" into the Classroom for the Construction of Intermodal Meanings*, IJELS 3(2):32-43, 2015.
6. Vedran B., *Language and the Internet; exploring the interaction*, Osijek, 2012.
7. Zhang B., *Graphic Language Representation in Visual Communication Design Based on Two-Way Long- and Short-Memory Model*, Hindawi, *Mathematical Problems in Engineering*, 2022.



## **BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O‘QITISHNING SAMARALI USULLARI**

**Elmurodova Sevinch Sultonjon qizi**

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Xorijiy til va adabiyot I fakulteti talabasi

Email: sevinchelmurodov@gmail.com

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun ingliz tilini o‘qitishning samarali, zamonaviy va innovatsion metodlari haqida ma‘lumot beriladi.*

***Kalit so‘zlar:** Aralash texnika, qiziqarli o‘yinlar, boshlang‘ich sinflar, zamonaviy innovatsion metodlar, pantomima.*

## **INNOVATIVE METHODS OF TEACHING ENGLISH IN PRIMARY SCHOOLS**

**Elmurodova Sevinch Sultonjon qizi**

Student of the I faculty of Foreign Languages and Literature of the Uzbekistan

State World Languages University

Email: sevinchelmurodov@gmail.com

### **ABSTRACT**

*This article provides information on productive, modern and innovative methods of teaching English, in order to get learners more interested in primary classes.*

***Key words:** Mixed technique, interesting games, primary classes, modern and innovative methods, pantomime.*

### **KIRISH**

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko‘nikmasi hayotimizning ajralmas qismlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Turli sohalardagi mutaxassislarda chet ellik hamkorlar bilan hamkorlik qilish ko‘rsatkichi yuqori bo‘lganligi sababli ularda til o‘rganishga bo‘lgan talab yuqoridir. Bunday bilimlarni insonlar dastlab maktabgacha ta‘lim muassasalari va maktab keyinchalik institutlarda, o‘quv kurslarida yoki mustaqil ravishda xorijiy tilni o‘rganadilar. Ushbu maqsadga yetishishda muvaffaqiyatga erishish o‘qituvchilarning amaliy usullari va malakasiga bog‘liq. Axborot texnologiyalari va zamonaviy o‘qitish usullaridan foydalanish qobiliyati yangi materiallarni tezkor tushunishga yordam beradi. Turli usullarni birlashtirib o‘qituvchi muayyan ta‘lim dasturlarini yechishga qodir bo‘ladi. Ingliz tilini

o'rgatishda o'rganuvchining salohiyat va darajasi, yoshidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich o'rgatish yaxshi natija beradi. Psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tillarni tez va oson o'zlashtiradilar.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

“Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir” deya ta'kidlagan birinchi prezidentimiz Islom Karimov. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda “Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-1875-soni qaroridir. Ushbu qarorga muvofiq chet tillarini, asosan, ingliz tilini boshlang'ich sinfdan boshlab o'rgatish, ularni chet tillarini o'rgatishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish uchun umumta'lim maktablarida 1-sinfdan boshlab ingliz tili darslarini turli xil qiziqarli o'yinlar tarzida o'qitish va shu bilan birga o'quvchilarning og'zaki nutqini ham rivojlantirish, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitishni zamonaviy, innovatsion usullar orqali o'tish bosqichma-bosqich boshlandi.

So'nggi paytlarda ingliz tilini o'rganadigan har qanday yoshdagi odamlar soni juda ko'paymoqda. Buning sababi, hayot jarayonida ingliz tilini bilmasdan yashash qiyinlashib bormoqda. Ammo til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Hatto, olimlar bolalar kattalarga nisbatan tillarni tez va oson o'zlashtirishini isbotlashgan. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularday taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi va o'rgangan ma'lumotlarni tez xotirada saqlashi buning asosiy sabablaridandir.

### **MUHOKAMA**

Xitoy ixtirochilaridan biri Masaru Ibuka mashhur “Uchdan keyin kecha” kitobida yozganidek: “...bolaning miyasi cheksiz miqdordagi ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin..”. Yana shunga qaratish e'tibor qaratish kerakki, 6-7 yoshdagi bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun ham ingliz tilini o'rganayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilni o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani charchatishi va til o'rganishga bo'lgan qiziqishini susaytirib qo'yishi mumkin. Chunki boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarga chet tilini o'rgatish qiyin, shu bilan birga mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi.

Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi innovatsion metodlardan foydalanish mumkin:

- Ko'rish orqali eslab qolish. Ma'lumki, yosh bolalar eshitgan ma'lumotlaridan ko'ra, ko'proq ko'rgan predmetlarini eslab qoladi. Shunday ekan, darsni turli xil ko'rgazmali qurollar, plakatlar orqali, ko'zga ko'rinadigan va kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan narsa, buyumlarga yozish orqali yangi so'zlarni o'rgatish va o'rgangan yangi so'zlari ishtirokida gaplar tuzish. Masalan, kitob (book), stole (table), doska (blackboard), ruchka (pen), oyna (window) va shu kabilarga yozish. Kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan bunday narsa-buyumlar ko'zga doimo tushib turishi va doimo qo'llanilishi bois, bola bu so'zlarni ixtiyorsiz tarzda o'rganadi.

- Qo'shiq va she'rlar orqali tushunish yoki eslab qolish qiyin bo'lgan so'zlarni musiqaga solib kuylash. Bunda yangi so'zlarni eslab qolish bilan birga, bolaning og'zaki nutqi ham rivojlanadi. Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari, shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin.

- TO raqobatdosh grammatika va so'z boyligini o'zlashtirishga yordam beradigan o'yinlarning aksariyatini o'z ichiga oladi. Bunda bolalar o'qituvchi bergan turli xil topshiriqlarni bajaradi. Natijada o'quvchilar orasida raqobat vujudga kelib, til o'rganishga bo'lgan qiziqishi yanada oshadi. Zero, Xitoy mutafakkirlari aytganidek: "Insonning barcha qiziqishlari raqobat orqali vujudga keladi".

- Aralash texnika bu yerda biz ixtiyoriy ravishda turli xil texnikalarni birlashtira olamiz. Masalan, bunda bolalar o'yin o'ynashi, qo'shiqlar aytishdi, rasm chizishi, turli xil harakatlar orqali yangi so'zlarni ko'rsatib berishi mumkin. Texnikaning afzalligi xilma-xillikda. Bunda o'quvchi faqat bitta narsa orqali cheklanib qolmaydi.

- Multfilmlar orqali o'rgatish. Ma'lumki, bolalar turli xil multfilmlarni ko'rishga qiziqadi. Ingliz tilidagi multfilmlarni ko'rish jarayonida esa, multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'l.

- Qiziqarli o'yinlar orqali o'rganish; Ingliz tili fanini o'qitishda turli xil o'yinlar orqali o'rgatishning o'rni beqiyosdir. Dars davomida har xil o'yinlar o'ynatib turish sinfda fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshiradi, faol bo'lmagan o'quvchilarni ham darslarda yaxshiroq qatnashishga undaydi. Quyidagi o'yinlar so'zimizga misol bo'la oladi.

- "Quvnoq topishmoqlar" (Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar.

•“Pantomima” ( pantomime). Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga biron bir so‘zni aytadi va o‘quvchi uni ko‘rsatadi. Qolgan o‘quvchilar esa so‘zni topib, inglizcha nomini aytishi kerak bo‘ladi.

•Sezgi a‘zolar orqali o‘rganish( sabzavot, mevalar, oziq-ovqatlarni tatib ko‘rish, turli xil buyumlarni ushlab ko‘rish, gullarni hidlab ko‘rish). Ushbu yangi metodni o‘rganishdan oldin bir amaliyotchi psixologning fikrlarini keltirish kerak: “Bolalarning esida biror narsaning mahkam o‘rnashib qolishini xohlovchi pedagog bola sezgi organlarining mumkin qadar ko‘prog‘ini ko‘zi, qulog‘i, tovush organi, muskul sezgisi va hatto, hidlash va ta‘m bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilishi kerak”.

### **NATIJA**

Darhaqiqat, sezgi a‘zolar orqali til o‘rganish boshqa usullarga qaraganda foydali va samarali hisoblanadi. Masalan, o‘quvchi birgina olmani tatib ko‘rish jarayonida uning rangi, ta‘mi, hajmi, hidi qanday ekanligini biladi va uning inglizcha nomini ham aytadi. Natijada esa, o‘qituvchi bolalardan ranglarning inglizcha nomini so‘rab qolsa, bolalar darrov meva yegan paytini eslaydi. Demak, bunday usullardan foydalanish o‘quvchining ma‘lumotlarni uzoq muddatda xotirasida saqlab qolishga yordam beradi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga til o‘rgatishni majburiyat sifatida emas, aksincha, qiziqarli o‘yinlar va innovatsion metodlardan foydalangan holda olib borishi, ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Shunday ekan, ta‘lim tizimli ham o‘z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo‘yar ekan, kelgusida biz bo‘lajak o‘qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo‘llarini yanada mukammalroq ishlab chiqish bilan o‘z hissamizni qo‘shishimiz mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. “ Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishning innovatsion usullari”. Nodira Qurbonaliyeva. Maqola.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli qarori.

3. Bekmuratova U.B “Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish “ // Toshkent 2012.
4. Toliboboeva, S. J. (2020). Teaching intercultural communication in English. *Science and Education*, 1(Special Issue 2), 152-156.
5. Ashirbayeva, A. (2020). POSITIVE TRAITS OF TEACHING LANGUAGE THROUGH LITERATURE. *ScienceandEducation 1*, (SpecialIssue 2).
6. Umirova, Z. (2020). IMPORTANCE OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES. *International Scientific Conference of Students and Young Scientists “TARABI ALEMI”*.
7. Juldasheva, N. N. (2020). Xorijiy tillarni o‘qitishda axborot texnologiyalar va innovatsion metodlarning o‘rni. *Молодой учений*, (12), 332-333.



## **O‘ZBEK TILIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI TERMINLARINING TARAQQIYOTIDA TARIXIY MANBALARNING AHAMIYATI**

**G‘aniyeva Lobar**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va  
adabiyoti universiteti doktoranti

[ganiyevalobar29@gmail.com](mailto:ganiyevalobar29@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada bugungi kunga qadar shakllangan, davlat boshqaruvida amalda qo‘llaniladigan o‘zbek tilidagi terminlarning taraqqiyotida tarixiy manbalarning o‘rni va ahamiyati haqida ilmiy munozara yuritilgan. Tarixiy manbalarda uchraydigan davlat boshqaruvi terminlari diaxron va sinxron aspektda tahlilga tortilgan va bugungi kundagi faol yoki nofaolligi lingvistik jihatdan o‘rganilgan. Tarixiy terminlarning yetakchi ma‘nolari izohlab keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** termin, terminologiya, tarixiy termin, davlat boshqaruvi, manba, ma‘no torayishi, yetakchi ma‘no, integral sema.*

## **THE IMPORTANCE OF HISTORICAL SOURCES IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK LANGUAGE TERMS OF STATE ADMINISTRATION**

### **ABSTRACT**

*This article discusses the role and importance of historical sources in the development of Uzbek-language terms, which have been formed to this day, which are practically used in State Administration. The terms of State Administration found in historical sources have been subject to analysis in the diachronic and synchronous aspect, and the present-day active or inactive has been linguistically studied. The leading meanings of historical terms are explained.*

***Keywords:** term, terminology, historical term, state administration, source, narrowing of meaning, leading meaning, integral sema.*

## **ЗНАЧЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ В РАЗВИТИИ ТЕРМИНОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ**

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматривается роль и значение исторических источников в развитии узбекоязычных терминов, которые сформировались по сей день и практически используются в государственном управлении. Термины государственного управления, встречающиеся в исторических источниках,*

*были подвергнуты анализу в диахроническом и синхронном аспекте, а современные активные или неактивные были лингвистически изучены. Объясняются основные значения исторических терминов.*

***Ключевые слова:** термин, терминология, исторический термин, государственное управление, источник, сужение значения, ведущее значение, интегральная сема.*

## **KIRISH**

O'zbek tilidagi davlat boshqaruvi terminlarining taraqqiyoti bevosita davlatchilikning tarixi, jamiyatning shu davrga qadar qanday mezonlar asosida boshqarilganligi va bu jarayonlarning manbalarda qanday aks etganligi lingvistikaning tarmog'i bo'lgan sohaviy terminologiya uchun ham muhimdir. Terminlarning tarixi, genetikasi, ma'no va mavzu guruhlari, grammatik tuzilishi va derivatsiyasi, boyish manbalari va taraqqiyot yo'li haqida yetarlicha tushuncha va taassurotga ega bo'lishda bevosita tarixiy manbalarning o'rni asosiy mohiyat va ahamiyat kasb etadi. Har bir xalq, mamlakatda bo'lgani kabi o'zbek tilidagi davlat boshqaruvi terminlarining shakllanish va taraqqiyot manbalari uzoq o'tmishga borib taqaladi.

Bugungi kunda o'zbek tilidagi zamonaviy terminologik tizimlarini o'rganish, soha terminlarini to'plash, saralash va tartibga solish hamda tadqiq etish uchun tarixiy manbalarni birlamchi manba sifatida ilmiy baholash sohaviy terminologiyaning samaradorligini oshiradi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

G.O.Vinokur, A.A.Reformatskiy, D.S.Lotte, V.P.Danilenko [11, 16, 23,26] kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida terminologiyaning nazariy jihatlarini, terminlar sistemasini tartibga solish, terminning belgilari, termin va terminologiyaning amaliy ahamiyati keng ko'lamda, maxsus tadqiq etilgan. Shuningdek, xalqaro tilshunoslikda sohaviy terminologiyaga oid bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Yu.A. Belchikov, I.F. Protchenko, A.A. Buryachok, P.K. Milshin, N.M. Leyberova, I.O. Tkacheva [7, 8, 17, 20, 24] kabi tilshunos olimlar semantik-mavzuiy jihatdan ijtimoiy-siyosiy qatlama doir so'zlarni nominativlik asosida o'rganish jarayonida davlat boshqaruviga oid leksikaga alohida to'xtalib o'tadi.

O'zbek tilshunosligida ham terminologiyaning nazariy masalalariga doir, shuningdek, sohalar terminologiyasi bilan bog'liq serko'lam ishlar amalga oshirilgan. Tilshunos olim Akobirov S.F. [2] tilshunoslikda termin va terminologiya masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Terminologiya umumxalq tilining leksikasi asosida vujudga kelishi, takomillashishi va termin ma'lum bir terminologik sistemaning a'zosi ekanligini, shu orqali esa tilning boyishiga sabab bo'lishini

ta'kidlaydi. Terminlarni yangi ma'nolar olib, ko'p ma'noli so'zga aylanib borishini, hattoki barqaror birikmalar, ideomatik iborlar tarkibiga kirib yangi ma'nolar asosida ommalashishi mumkin degan qarashlarni bildiradi. Shu nuqtai nazarlardan kelib chiqib, davlat boshqaruviga oid terminlarning taraqqiyot jarayonini va bugungi kundagi holatini mohiyatan ochiqlash uchun ham tarixiy manbalarning o'rni ahamiyatli. Davlat boshqaruvi terminlarining taraqqiyotida tarixiy manbalarning o'rni belgilashda, ilmiy-nazariy xulosalarga kelishda qiyosiy-tarixiy va tavsifiy metodlar bizga qo'l keladi.

## NATIJALAR

Manbalarga murojaat qiladigan bo'lsak, Turkiston xalqi arablar bosqiniga qadar ham davlat boshqaruvi va davlatchilik tizimiga ega bo'lgan. Bu borada bir qancha yutuqlarga ham ega ekanligi ham ma'lum. XIX asrga qadar faol bo'lgan *parvonak kirok* termini *parvonak* parvonachi shaklida, bozkirom termini boj ko'rinishida bugungi kunda ham faol ishlatilib kelinmoqda[15]. *Yurt, ko'ruk, tunqator, jarchi* kabi turkiy terminlar XX asr boshlarida ham amalda bo'lib, davlat boshqaruviga xos terminlar hisoblangan.

Davlat, davlat ishlari, boshqaruv tizimi bilan bog'liq qarashlar, tushunchalar, har bir davrda o'ziga xos tarzda ifodasini topgan asarlarning bizga ma'lumlaridan eng qadimgilari IX-X asrlarga borib taqaladi[5].

Davlat boshqaruvi terminlarining shakllanishi va tarixiy taraqqiyotini yanada chuqurroq o'rganish uchun tarixiy qo'lyozmalar, hujjatlar bizga asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. "So'nggi davrlarda topilayotgan manbalar ona vatanimizda hukm surgan saltanatlarda davlat boshqaruviga tegishli hujjatlar mahalliy til va yozuvlarda olib borilganligini ko'rsatmoqda. Chunonchi, qadimgi xitoy solnomalaridagi qaydlar, eramizdan burungi 200 yilliklarda turkiy hukmdorlarning xitoylarga yo'llagan rasmiy yozishmalari ham qadimgi turkiy xalqlarning o'z yozuvlari va tilida ekanini tasdiqlaydi"[22]. Tilshunos olim Q. Omonov ilk va o'rta asrlarda yaratilgan turkiy rasmiy matnlar ustida olib borgan tadqiqotida davlat boshqaruviga oid ko'k turk yozuvli hujjatlar, moniy yozuvidagi vasiqalar, turkiy-uyg'ur xatida, do'rbaljin xatida, arab xatida bitilgan hujjatlarni alohida keltirib o'tib, ularning har biri o'sha davrdagi davlat tizimi, boshqaruvi bilan bog'liq ekanligini keltirib o'tadi. Ko'k turk bitiktoshlarining til uslubi o'ziga xos bo'lib, ularda davlatchilikka doir terminlar, maxsus atamalar mavjudligi olimlar tomonidan izohlangan. *Bujuruk "mahkama xizmatchisi", il "davlat", illig "davlatli", tamg'achi "muhrdor", to'ru "qonun", shad "yuksak unvon bildiruvchi so'z". VI asrda "el tutsiqi" birikmasi konstitutsiya ya'ni "davlatning bosh qomusi"* ma'nosini ifoda etish uchun qo'llangan termin hisoblanadi.

Ko'k turk yozuvidagi ma'muriy buyruq, qo'shin boshlig'ining rasmiy matnlari, bekning tilxati, Devashtich arxividan topilgan bitim, ko'k turk xatidagi muhr, toshbitigli hujjat, urxun obidalari; turkiy-uyg'ur xatida bitilgan yer oldi-sotdi hujjatlari Sharofiddin Ahmad bin Chaqirsa vaqfiyasi, Temur Qutlug' yorlig'i, Shohruh nishoni, Umarshayx Mirzo nishoni; arab xatida bitilgan yer oldi-sotdi vasiqasi, sohibqiron Temurbekning tarxonlik yorlig'i, shayxul islom mansabiga tayinlash munosabati bilan berilgan Temurbekning buyrug'i, turkiy tilda chiqarilgan tangalar kabi tarixiy hujjat matnlari davlat boshqaruv tizimi bilan bog'liq[22]. Hujjatlarning keltirilgan nomlarida ham davlat boshqaruviga oid terminlarning diaxron formasini ko'rishimiz mumkin.

Demak, aytishimiz mukinki, tarixda davlat boshqaruvi terminlarning asosiy qismini turkiy, arabiy, qisman hind, xitoy, sug'd tilidagi so'zlar tashkil qilgan. Shu paytga qadar davlat boshqaruvi va qonunchiligi bilan bog'liq terminlar tarixiy, badiiy asarlar tarkibida yetib kelgan.

### **MUHOKAMA**

Aynan, Urxun bitiklari, Yusuf Xos Hojibning "Qutadgu bilig", Nizomulmulkning "Siyar ul-muluk" asari "Temur tuzuklari" kabi bir necha manbalarni davlat boshqaruvi terminlari uchraydigan tarixiy manba sifatida keltirishimiz mumkin. Shuningdek, o'zbek davlatchiligi tarixini yoritish va tilini tahlil qilishda xitoy manbalarining ham o'zni ahamiyatli. Aynan milodiy asrlar boshlanishiga qadar bo'lgan davrlardagi davlat boshqaruvi xitoy manbalarida mukammal yoritilgan.

Insoniyat rivoji, boshqaruvi haqida bizga ma'lumot beruvchi asosiy manbalar: rasmiy hujjatlar, yozma manbalardir. Shunday manbalarda davlat boshqaruvi, qonunchilik va qonun yaratuvchiligi bilan aloqador bir necha terminlar bizga qadar yetib kelgan va saqlanib qolgan. Ana shulardan yana biri bizga V-VII asrlar haqida ma'lumot beruvchi O'rxun-Enasoy obidalari turkiy tildagi yodgorlik sifatida juda ham qimmatlidir. Bu bitiklarda davlat boshqaruvida faol ishtirok etgan bir necha tarixiy shaxslar haqida ma'lumotlar mavjud. Xususan, Kultegin Turk xoqonligi davlatining *lashkarboshi* lavozimida faoliyat olib borgan. Bu davlatda vatan manfaati uchun xizmat qilgan kishilarga atab bitiklar bitilgan. Tunyuquq ham shunday shaxslardan biri bo'lib, u turk xoqonligida *davlat arbobi* va *sarkarda* bo'lgan. Eltarish, Qapog'on va Bilga xoqon hukmronliklari davrida *bosh vazir* va *lashkarboshi* bo'lgan [27]. Bu ma'lumotlar bizga turk xoqonligi davrida davlatchilik, davlat boshqaruvi to'liq va mukammal shakllangan degan fikrni beradi. Yo'qorida ko'rib turganimizdek, bugungi kundagidek tarixda ham davlat boshqaruvi bilan aloqador mansablarga nisbatan ishlatilgan terminlar ham bo'lgan. Turk xoqonligida

hattoki qonunlar to‘plami ham ishlab chiqilgan bo‘lib, bu *törü* termini orqali anglatilgan. Bu termin qadimgi turkiy elatlarning davlat boshqaruvi tarixida “Davlat konstitutsiyasi”, qomusi ma’nosida qo‘llangan. Shuningdek, Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig” asarida davlatni boshqarish uchun *törü* ning o‘rni alohidaligi ta’kidlanadi[22]. Keyinchalik davrlar o‘tishi hokimiyat, davlat tepasiga yangi sulolarning kelishi natijasida terminlar ham yangilanib borgan. Ya’ni *törü* termining o‘rnida *yosun, yasa, tüzüük* so‘zlari ishlatilgan bo‘lib, ular ham qonunlar to‘plami, ya’ni bugungi kundagi konstitutsiya tushunchasini bildirgan. *Törü, yosun, yasa, tüzüük* bugungi kunda tarixiy davlat boshqaruvi terminlari hisoblanadi. Demak, aytishimiz mumkinki, vaqtlar o‘tgan sari tilda ishlatilgan terminlar o‘z o‘rnini boshqasiga bo‘shatadi yoki aslicha saqlanib qolishi ham mumkin, masalan, arablar boshqaruvi orqali o‘zlashgan *vazir* termini bugungi kunda ham davlat boshqaruvida asosiy lavozimni ifoda etadi, *buyruq* termini bajarilishi kerak bo‘lgan hujjat turi tushunchasini yo‘qotmagan, *xon* termini esa XX asr boshlariga qadar istemolda faol bo‘lgan. Aytish mumkinki, davlat boshqaruviga oid terminlar vaqt o‘tgan sari yangilanib borishi, yoki saqlanib qolishidan qat’i nazar asosiy mohiyat o‘zgarmaydi, ya’ni jamiyatning tinch-totuvligini, xotirjamligini saqlash, adolatni o‘rnatish asosiy maqsad bo‘lib qoladi. Lingvistik jihatdan ma’no torayishi, yoki kengayishi hodisasiga uchrashi mumkin xolos.

Davlat boshqaruvi terminlarining taraqqiyotida ahamiyatli manbalardan biri bu Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy Nizomulmuluk (1018-1092)ning “Siyosatnoma” (Siyar ul-muluk) asaridir. Asar 50 fasldan iborat bo‘lib, davlatni idora etishda amaldorlar katta o‘rin tutishini, ularni to‘g‘ri tanlab joy-joyiga qo‘yishni, har biriga munosib amal berib, asosiy maqsad yo‘lida tarbiya qilishni muhim bir talab deb biladi. Asardagi 3-fasl podshoh mazlumlarni qabul qilishi adolatli bo‘lishi, 4-fasl amaldor, vazir va munshiylar ahvolini bilish, 7-fasl omil-u qozi va rais hollari va siyosati shartlari, 9-fasl davlat mushriflari va ularning maoshlari, 11-fasl saroydan yuborilgan oliy farmon, buyruq va ularning ijrosi haqida kabi bir necha davlat boshqaruviga oid masalalarni ko‘ramiz[21]. *Ummol(zakotchilar), sohibxabar, jarchi, ashroflik, farmon, podshoh amri* kabi davlat boshqaruviga oid terminlarning ochiqqlanganligini kuzatamiz. Bu kabi terminlar asarda 50 ga yaqin bo‘lib, siyosatda muallif muhim deb hisoblaganlarini keltirib o‘tgan. “Siyosatnoma” o‘z davriga tegishli davlat boshqaruvi qanday bo‘lganligi haqida ma’lumot beruvchi muhim manbadir.

Davlat boshqaruviga oid yana bir qimmatli manba bu Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridir. Bu manba bizga Qoraxoniylar davlatchilik tizimi, boshqaruvi haqida ma’lumot beruvchi alohida bir asardir. Qoraxoniylar davlati Turk



6. When choosing text material, focus on the genre of fairy tales so that its educational significance increases, it becomes associated with life.

## **REFERENCES**

1. Mirzayeva, M. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH USULLARI. *Наука и технология в современном мире*, 2(9), 87-89.
2. Qurbonov, A., Qurbonov, A., & Qurbonova, B. (2022). OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TALABALARNING INTELLEKTUAL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI. *Физико-технологического образование*, (2).
3. Ibragimovich, N. R. (2020). Social And Philosophical Fundamentals Of National Development. *The American Journal of Applied sciences*, 2(07), 45-49.
4. Norliev, R. I. (2020). SOCIAL AND PHILOSOPHICAL FUNDAMENTALS OF NATIONAL DEVELOPMENT. *Theoretical & Applied Science*, (7), 321-323.
5. Норлиев, Р. (2021). Ўзбекистон миллий тараққиётининг янги босқичида маънавий юксалишнинг ижтимоий-фалсафий асослари. *Общество и инновации*, 2(2), 99-104.
6. Norliev, R., & Ibragimova, O. (2021). THE SPIRITUAL FOUNDATIONS OF A DEMOCRATIC SOCIETY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(12), 130-134.
7. Leontiyev A A O`qish psixologiyasidan o`qishni o`rgatish psixologiyasiga || 5-xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2001 yil 26-28 mart);

## **6-BROM-2,4-DIOKSO-1,2,3,4-TETRAGIDROXINOZOLIN-8-SULFONILXLORID SINTEZI VA UNING KIMYOVIY O'ZGARISHLARI**

**Tillaeva Adolat Farxodovna**

Urganch davlat universiteti magistranti

**Eshchanov Xushnubek Odilbekovich**

Urganch davlat universiteti, PhD

**Kuryazov Rustamxon Shonazarovich**

Urganch davlat universiteti dotsenti

**Taxirov Yuldash Radjabovich**

Urganch davlat universiteti dotsenti

**Dushamov Dilshod Azadovich**

Urganch davlat universiteti dotsenti

### **ANNOTATSIYA**

*6-Bromoxinazolin-2,4(1H,3H)-dionni xlorsulfon kislota bilan o'zaro ta'siri natijasida sulfokislota o'rniga 6-brom-2,4-diokso-1,2,3,4-tetragidroxinozolin-8-sulfonilxlorid hosil bolishi ko'rsatilgan. Bu holat kvant kimyoviy hisoblashlar natijasida sulfonilxloridning umumiy energiyasini sulfokislolaning energiyasidan pastligi bilan tushuntirilgan. Shuningdek, brom atomining musbat mezomer effekti (+M) ta'sirida sulfonilxlorid guruhi molekulaning 7-holatiga hujum qilishi kerak, lekin u 8-holatga borishi ham amaliy, ham nazariy jihatdan isbotlangan. Mahsulotning suv, spirt bilan kimyoviy reaksiyasidan 6-brom-2,4-diokso-1,2,3,4-tetragidroxinozolin-8-sulfokislota va uning efiri hosil bo'lishi aniqlandi.*

***Kalit so'zlar:** 6-bromoxinazolin-2,4(1H,3H)-dion, 6-brom-2,4-diokso-1,2,3,4-tetragidroxinozolin-8-sulfonilxlorid, 6-brom-2,4-diokso-1,2,3,4-tetragidroxinozolin-8-sulfon kislota, 6-brom-2,4-diokso-1,2,3,4-tetragidroxinozolin-8-sulfon kislotaning metil va etil efiri, kvant kimyoviy hisoblashlar, GAMESS hisoblash, nukleofil almashinish, xlorsulfon kislota,.*

## **СИНТЕЗ 6-БРОМ-2,4-ДИОКСО-1,2,3,4-ТЕТРАГИДРОХИНОЗОЛИН-8-СУЛЬФОНИЛХЛОРИДА И ЕГО ХИМИЧЕСКИЕ ПРЕВРАЩЕНИЯ**

### **АННОТАЦИЯ**

*В реакции 6-бромхиназолин-2,4(1H,3H)-диона с хлорсульфоновой кислотой показано, что 6-бром-2,4-диоксо-1,2,3,4-тетрагидрохиназолин-8-сульфонилхлорид образуется вместо сульфокислоты. В результате квантово-химических расчетов такая ситуация объясняется тем, что общая энергия сульфонилхлорида ниже, чем энергия сульфокислоты. Также под влиянием*

положительного мезомерного эффекта (+M) атома брома сульфонилхлоридная группа должна атаковать 7-е состояние молекулы, но практически и теоретически доказано, что она переходит в 8-е состояние. Установлено, что при химической реакции продукта с водой и спиртом образуются 6-бром-2,4-диоксо-1,2,3,4-тетрагидрохинозолин-8-сульфоуксусная кислота и ее эфир.

**Ключевые слова:** 6-бромхинозолин-2,4(1H,3H)-дион, 6-бром-2,4-диоксо-1,2,3,4-тетрагидрохинозолин-8-сульфонилхлорид, 6-бром-2,4-диоксо-1,2,3,4-тетрагидрохинозолин-8-сульфоновая кислота, метиловый и этиловый эфир 6-бром-2,4-диоксо-1,2,3,4-тетрагидрохинозолин-8-сульфоновой кислоты, квантово-химические расчеты, GAMESS расчет, нуклеофильное замещение, хлорсульфоновая кислота.

## SYNTHESIS OF 6-BROMO-2,4-DIOXO-1,2,3,4-TETRAHYDROQUINOZOLIN-8-SULFONYL CHLORIDE AND ITS CHEMICAL TRANSFORMATIONS

### ABSTRACT

The reaction of 6-bromoquinazoline-2,4(1H,3H)-dione with chlorosulfonic acid gives 6-bromo-2,4-dioxo-1,2,3,4-tetrahydroquinazolin-8-sulfonyl chloride was shown to form. As a result of quantum chemical calculations, this situation is explained by the fact that sulfonyl chloride's total energy is lower than sulfoacid's.

Also, under the influence of the positive mesomeric effect (+M) of the bromine atom, the sulfonyl chloride group should attack the 7th state of the molecule, but it has been proved both practically and theoretically that it goes to the 8th state. It was determined that 6-bromo-2,4-dioxo-1,2,3,4-tetrahydroquinazoline-8-sulfonic acid and its ester are formed from the chemical reaction of the product with water and alcohol.

**Keywords:** 6-bromoquinazoline-2,4(1H,3H)-dione, chlorosulfonic acid, 6-bromo-2,4-dioxo-1,2,3,4-tetrahydroquinazoline-8-sulfonyl chloride, nucleophilic substitution, 6-bromo-2,4-dioxo-1,2,3,4-tetrahydroquinazoline-8-sulfonic acid, 6-bromo-2,4-dioxo-1,2,3,4-tetrahydroquinazoline-8-sulfonic acid methyl ester, 6-bromo-2,4-dioxo-1,2,3,4-tetrahydroquinazolin-8-sulfonic acid ethyl ester, quantum chemical calculations, GAMESS calculation.

### KIRISH

Hozirgi davrda yangi organik birikmalar sintezini amalga oshirish, ular orasidan istiqbolli biologik faol birikmalarni izlash, xalq xo'jaligining turli sohalarida muvaffaqiyatli qo'llash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bu borada




arzon, yuqori samarali va ekologik toza mahalliy preparatlar yaratish, ularning fizik-kimyoviy, biologik va farmakologik xossalarini yaxshilash alohida ahamiyat kasb etadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**


Xinozolin-2,4-dionlar – benzol halqasi bilan kondensirlangan, molekulasida ikkitadan NH va C=O gurux tutgan, kimyoviy va biologik faolligi yuqori bo'lgan geterohalqali birikmalar hisoblanadi. Xinozolin-2,4-dionlar va ular hosilalarining sintez usullari, reaksiyalarning borishi va yo'nalishi hamda sintez qilingan birikmalar orasidan yuqori biologik, farmokologik faollikka ega bo'lganlari to'g'risida ma'lumotlar adabiyotlarda keltirilgan [1-5] va bu yo'nalishda tadqiqotlar davom etmoqda. Shuning uchun, xinozolin-2,4-dionlar asosida yangi birikmalarining sintezini amalga oshirish, reaksiyalarning borish sharoitlarini va yo'nalishini o'rganish, shuningdek, yangi hosilalar orasidan birikmalarining biologik faolligini nazariy jihatdan aniqlashni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Xlorsulfon kislotasi (XSK) sulfat angidrid va vodorod xloridning reaksiyaga kirishishi natijasida olingan modda samarali sulfonlashtiruvchi vosita hisoblanadi. Xlorsulfon kislotaning ortiqcha miqdorda ta'siri natijasida reaksiya mahsuloti sifatida sulfoxlorid hosil bo'lishi adabiyotlarda keltirilgan [6,7]:



Ikkinchi reaksiyada hosil bo'ladigan sulfat kislotasi bilan raqobatlasha oladi, shuning uchun sulfoxloridni olish uchun 1 mol aromatik birikma uchun kamida 4-5 mol xlorsulfon kislotasi ishlatiladi.

To'g'ridan to'g'ri sulfoxlorlanish reaksiyasini amalga oshirish uchun xlorsulfon kislotasidan kamida 3 mol talab qilinishi va uning dissotsilanishi paytida hosil bo'ladigan  $^+\text{SO}_2\text{Cl}$  kationining ta'sirida xlorsulfonilli mahsulot chiqishi mumkinligi ko'rsatilgan:



Geterohalqali birikmalarda, jumladan, 6-bromxinozolin-2,4(1H,3H)-dionning xlorsulfon kislotasi bilan reaksiyasining borishi va yo'nalishini o'rganish bizda qiziqish uyg'otdi.

### **METOD**

6-Bromxinozolin-2,4(1H,3H)-dionning xlorsulfon kislotasi bilan reaksiyasini bajarishda nafis organik sintez usullaridan foydalanildi. Sintez qilingan moddani qo'shimcha moddalardan tozalash va reaksiya aralashmadan ajratish qayta kristallash usulida amalga oshirildi. Barcha foydalanilgan moddalarning fizik konstantalari adabiyotda keltirilganlariga mos keladi.

Reaksiyaning borishi va moddalarning tozaligi Silufol UV-254 plastinkasida yupqa qatlamli xromotografiya (YuQX) usuli bilan erituvchilar sistemasida (benzol:atseton=5:1) nazorat qilindi (ochuvchi (proyavitel)–1 gr  $\text{KMnO}_4$  + 4 ml konts.  $\text{H}_2\text{SO}_4$ +96 ml  $\text{H}_2\text{O}$ , UF-kamera).

Kvant kimyoviy hisoblashlar GAMESS hisoblash paketining SPK-DZP basis to'plami va DFT ning B3LYP almashinuv korrelyatsiya funksionalida amalga oshirilgan.

Moddalarning ATR-IQ Furiye spektrlarini olish uchun JASCO FT/IR 4600 spektrofotometri qo'llanildi.

Mass-spektrlar MS - 30 (Kratos) spektrometri ion manbasiga namunani bevosita kiritish yo'li bilan olindi (ionlantiruvchi elektronlarning energiyasi 70 eV, ion manbasining harorati 250°S, namunani kiritish tizimining harorati 200°S).

YaMR  $^1\text{H}$  spektrleri UNITY 400<sup>+</sup> spektrometrida  $\text{CD}_3\text{COOD}$  erituvchisida tetrametilsilanga (TMS) nisbatan olingan.

**6-Bromxinazolin-2,4(1H,3H)-dion** [1]. 0,81 g (5 mmol) xinozolin-2,4-dionni 1,4 ml 50%  $\text{H}_2\text{SO}_4$  dagi eritmasi 0 °C gacha sovutildi va ustiga kuchli aralashtirgan holda 1,19 g (10 mmol) kaliy bromid va 0,8 ml (5 mmol) 20% vodorod peroksid qo'shildi. Reaksiya oxiriga yetgach (YuQX) aralashma, muzli suv ustiga quyildi,  $\text{NaHCO}_3$  eritmasi bilan neytrallandi, hosil bolgan cho'kma filtrlandi, suv bilan yuvildi va quritildi. 0,84 g (70%) 6-bromxinazolin-2,4(1H,3H)-dion olindi. Suyuqlanish harorati 324-326 °S (sirka kislota).  $\text{C}_8\text{H}_5\text{BrN}_2\text{O}_2$ .

**6-Brom-8-xlorsulfonilxinazolin-2,4-dion** (2). Muzli suv yordamida 10-15 °S gacha sovutilgan 5,83 g (50 mmol) XSK ustiga aralashtirgan holda 2,41 g (10 mmol) 6-bromxinazolin-2,4(1H,3H)-dion reaksiyaning harorati 20 °S dan oshmagan holda oz-ozdan qo'shib boriladi. So'ngra 30 minut davomida xona haroratida aralashtiriladi va 130-140 °S haroratda HCl ajralishi susayguncha 6 soat davomida qizdiriladi. Reaksiya tugagach, aralashma asta – sekin maydalangan muz ustiga quyiladi va hosil bo'lgan cho'kma filtrlanadi. Sovuq suv bilan yuviladi, quritiladi va 2,37 g (70%) 6-brom-8-xlorsulfonilxinazolin-2,4-dion olinadi. Suyuqlanish harorati 222-224 °S (geksan).  $\text{C}_8\text{H}_4\text{BrClN}_2\text{O}_4\text{S}$ .

**6-Brom-2,4-dioksoxinazolin-8-sulfokislota** (1). 3,39 g (10 mmol) 6-brom-8-xlorsulfonilxinazolin-2,4-dion va 20 ml suv aralashmasi 2 soat davomida qaynatiladi, erituvchining 1/2 qismi haydash yo'li bilan chiqariladi. Hosil bo'lgan cho'kma filtrlanadi, qayta kristallanadi va 3,13 g (94%) 6-brom-2,4-dioksoxinazolin-8-sulfokislota olinadi. Suyuqlanish harorati 314-316 °S (suv).  $\text{C}_8\text{H}_5\text{BrN}_2\text{O}_5\text{S}$

**6-Brom-2,4-dioksoxinazolin-8-sulfokislotaning metil efiri** (3). 50 ml asetonidagi 3,39 g (10 mmol) 6-brom-8-xlorsulfonilxinazolin-2,4-dionning eritmasiga


10 mmol metanol va 15 ml asetonidagi 1,01 g (10 mmol) trietilamin eritmasini tomchilatib qo'shiladi. Reaksiyon aralashma xona haroratida 3 soat davomida aralashtiriladi, keyin aseton haydash yo'li bilan aralashmadan chiqariladi va qoldiqqa 100 ml suv qo'shiladi. Hosil bo'lgan cho'kma filtrlanadi, qayta kristallanadi va 72% unum bilan 6-brom-2,4-dioksoxinazolin-8-sulfokislota ning metil efiri olinadi. Suyuqlanish harorati 252-254 °S (metanol).  $C_9H_7BrN_2O_5S$


**6-Brom-2,4-dioksoxinazolin-8-sulfokislota ning etil efiri (4)** yuqorida keltirilgan usulda 68% unum bilan sintez qilindi. Suyuqlanish harorati 248-250 °S (etanol).  $C_{10}H_9BrN_2O_5S$ .

### NATIJAR VA MUHOKAMA


Aromatik halqada brom tutgan 6-bromxinazolin-2,4(1H,3H)-dionning XSK bilan reaksiyasini 130-140 °S amalga oshirdik va 6-holatdagi brom atomining (+M, -I) ta'sirida hosil bo'lishi kutilgan 6-brom-7-xlorsulfonilxinazolin-2,4-dion o'rniga 6-brom-8-xlorsulfonilxinazolin-2,4-dion (**2**) yaxshi unum bilan olindi. Reaksiyaning bu yo'nalishda borishini brom atomining manfiy induktiv (-I) ta'sirini uning mezomer (+M) ta'siridan nisbatan katta bo'lishi va brom atomining sterik omillari bilan izohlangan edi. Shu bilan birga, reaksiya natijasida 6-brom-2,4-diokso-1,2,3,4-tetragidroxinozolin-8-sulfokislota (**1**) hosil bo'lmasligi ko'rsatilgan [8].

Ushbu holatga aniqlik kiritish maqsadida, 6-brom-1,2,3,4-tetragidroxinozolin-2,4-dionga xlorsulfon kislota ta'sir qildirish orqali **1** va **2** mahsulotlarni hosil bo'lish imkoniyatlari ko'rib chiqildi. Nazariy jihatdan qaralganda **1** birikma hosil bo'lishi kuzatilishini tahmin qilish mumkin. Ammo, amaldagi tajribalarda katta ulushda **2** birikmani hosil bo'lishi aniqlangan. Bu borada ko'plab tadqiqotlar olib borilgan [9-12]. Ikkala yo'nalish bo'yicha borishi mumkin bo'lgan reaksiya tenglamalarini yozib chiqamiz.





Olib borilgan tajribalarga asoslanadigan bo'lsak, sintez jarayonida **2** birikmani hosil bo'lish mexanizmini quyidagi sxema bo'yicha tushuntirish mumkin. Bunda dastlab xlorsulfon kislota dissotsiyalanishi kuzatiladi.



Reaksiya natijasida hosil bo'ladigan  $\text{SO}_3$  sistemadagi suv bilan ta'sirlashib sulfat kislotani hosil qiladi. Bu ta'sirlashish natijasida sistemada issiqlik energiyasi ajralib chiqish kuzatiladi. Shu sababli reaksiya jarayonini borishini oshirish uchun sistemani sovutish talab qilinadi. Agar jarayonda sistema harorati tushirilmasa reaksiyani borishi energetik jihatdan noqulay bo'lib qoladi.


Reaksiya jarayonida **2** moddani hosil bo'lishini kvant kimyoviy hisoblashlar orqali isbotlashga harakat qilindi. Kvant kimyoviy hisoblashlar GAMESS hisoblash paketining SPK-DZP basis to'plami va DFT ning B3LYP almashinuv korrelyatsiya funksionalida amalga oshirilgan [13,14]. Dastlab reaksiya jarayonida ishtirok qilgan va hosil bo'lishi ko'rsatilgan mahsulotlarning to'liq energiyalari hisoblandi.

Moddalar	To'liq energiyasi, a.u.
6-brom-1,2,3,4-tetragidro-xinazolin-2,4-dion	-3141.6061183954
Xlorsulfon kislota	-1084.3711583839
<b>1</b>	-3765.2656687078
<b>2</b>	-4149.5908220245
Xlorid kislota	-460.7201803331

Sulfat kislota

-700.0474975538

Reaksiyada ishtirok qilgan molekularning to'liq energiyalarni o'zaro solishtirganda **2** mahsulotning hosil bo'lishi energetik jihatdan afzal ekanligi aniqlandi. Chunki **1** ga nisbatan **2** ning to'liq energiyasi sezilarli darajada kam bo'lishi kuzatildi.



-3141.6061183954 a.u.


-1084.3711583839 a.u.

-3765.2656687078 a.u.

-460.7201803331 a.u.

**-4225.9772767793**

**-4225.9858490409**



-3141.6061183954 -1084.3711583839\*2

**-5310.3484351632**

-4149.5908220245

-460.7201803331 -700.0474975538







**-5310.3584999114**

Demak, bu natijalar reaksiya jarayonida **2** moddani hosil bo'lish ehtimolligi yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

6-Brom-1,2,3,4-tetragidroxinazolin-2,4-dion molekulasidagi elektron zichlik taqsimoti kvant kimyoviy hisoblashlar orqali aniqlab olindi. Bundan asosiy maqsad  $^+\text{SO}_2\text{Cl}$  elektrofil zarrachasini 6-brom-1,2,3,4-tetragidroxinazolin-2,4-dion molekulasining qaysi qismi bilan ta'sirlashish imkoniyati yuqori ekanligini aniqlash nazarda tutilgan edi. Hisoblash natijalarida 6-brom-1,2,3,4-tetragidroxinazolin-2,4-dion molekulasidagi 8-uglerod (elektrofil zarrachalar ta'sir qilishi mumkin bo'lgan halqadagi uglerod) atomida boshqa uglerod atomlariga nisbatan elektron zichlik yuqori qiymatli ekanligi ma'lum bo'ldi.

<b>Moddalar</b>	6-brom-1,2,3,4-tetragidroxinazolin-2,4-dion	<b>1</b>	<b>2</b>
-----------------	---	----------	----------




Molekuladagi atomlarning raqamlari			
Molekuladagi atomlarda elektron zaryad zichliklarini taqsimlanishi			

Shu tufayli sintez jarayonida 6-brom-1,2,3,4-tetragidroxinazolin-2,4-dionning 8-uglerod atomiga  $^+SO_2Cl$  elektrofil zarrachasining birikish ehtimolligi yuqori bo'ladi. Natijada jarayon yakunida 6-brom-8-xlorosulfonilxinazolin-2,4-dion moddasi hosil bo'ladi. Amalda olib borilgan tadqiqot natijalarini kvant kimyoviy hisoblashlar orqali olingan natijalar bilan o'zaro mos kelishi yuqorida ta'kidlab o'tilgan qarashlarni tasdiqlay oladi.

Tadqiqotlarimizda hosil bo'lgan 6-brom-8-xlorosulfonilxinazolin-2,4-dionning nukleofil agentlar bilan o'zaro reaksiyalarini ham o'rgandik [8].

6-Brom-8-xlorosulfonilxinazolin-2,4-dionning (2) gidrolizlanishi natijasida 6-brom-2,4-diokso-1,2,3,4-tetragidroxinozolin-8-sulfokislota (1) sintezi amalga oshirildi.

Xona haroratida 2-moddaning trietilamin ishtirokida atsetonli eritmada metanol va etanol bilan o'zaro reaksiyasidan tegishli 6-brom-2,4-dioksoxinazolin-8-sulfokislota ning metil (3) va etil (4) efirlari hosil bo'ldi.



Sintez natijasida olingan **1-4** birikmalarning fizik konstantalari (IQ-, YaMR <sup>1</sup>H-spektroskopiya va mass-spektrometriya natijalari, moddalarning suyuqlanish haroratlari) va reaksiyalarning borish yonalishlari adabiyotda keltirilganiga mos keladi [8].

## **XULOSA**

6-Bromxinazolin-2,4(1H,3H)-dionni xlorosulfon kislota bilan o'zaro ta'siri natijasida 6-brom-2,4-diokso-1,2,3,4-tetragidroxinozolin-8-sulfokislota hosil bo'lmasligi, sulfonilxlorid guruhi molekulaning 7-holatiga yo'nalmasdan 8-holatga borishi sababli 6-brom-2,4-diokso-1,2,3,4-tetragidroxinozolin-8-sulfonilxlorid sintezi amalga oshirishini ko'rsatdik va bu holat kvant kimyoviy hisoblashlar natijasida tushuntirildi.

6-Brom-2,4-diokso-1,2,3,4-tetragidroxinozolin-8-sulfonilxloridning nukleofil reagentlar bo'lgan suv va spirtlar (metanol va etanol) bilan kimyoviy reaksiyasidan mos ravishda 6-brom-2,4-diokso-1,2,3,4-tetragidroxinozolin-8-sulfon kislota va uning (metil va etil) efiri hosil bo'lishi aniqlandi.

## **REFERENCES**

1. Tillayeva, A. F., Kuryazov, R. S., & Dushamov, D. A. (2023). XINAZOLIN-2, 4-DION VA UNING ALKIL-, GALOGEN ALMASHGAN HOSILALARNING SINTEZI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1), 308-312.
2. Gheidari, Davood & Mehrdad, Morteza & Maleki, Saloomeh. Recent Advances in Synthesis of Quinazoline-2,4(1H,3H)-diones: Versatile Building Blocks in N-Heterocyclic Compounds. *Applied Organometallic Chemistry*. 2022. **36** (2). doi:10.1002/aoc.6631.
3. Boshta NM, El-Essawy FA, Alshammari MB, Noreldein SG, Darwesh OM. Discovery of Quinazoline-2,4(1H,3H)-Dione Derivatives as Potential Antibacterial Agent: Design, Synthesis, and Their Antibacterial Activity. *Molecules*. 2022, **27** (12):3853. doi: 10.3390/molecules27123853. PMID: 35744976; PMCID: PMC9228007.
4. О. Н. Волжина, Л. Н. Яхонтов, *Хим.-фарм. журн.*, **16**, № 10, 23 (1982).
5. Н. Туляганов, Х. Алимджанов, Ф. Н. Джахангиров, в кн.: *Фармакология природных веществ*, Фан, Ташкент, 1978, с. 61.
6. Комшина, Л. А., Маргазова, В. В., Корсаков, М. К., Проскурина, И. К., Котов, А.Д., & Караваева, Е.Б. (2020). Синтез сульфонамидных производных, содержащих структурный фрагмент пиразол-1-ил-пиридазина. *Бутлеровские сообщения*, **64** (10), 22-27.

7. Taiwo, F. O., & Obafemi, C. A. (2021). Design, green synthesis and reactions of 2,3-dioxo-1,2,3,4-tetrahydroquinoxaline-6 sulfonohydrazide derivatives. *International Journal of Physical Sciences*, **16** (4), 123-137.
8. Kuryazov, R.S., Mukhamedov, N.S., Dushamov, D.A. *et al.* Quinazolines. 3\*. synthesis of 6-bromo-8-chlorosulfonylquinazoline-2,4(1h,3h)-dione and its interaction with nucleophilic reagents. *Chem Heterocycl Comp.* **46**, 585–591 (2010). <https://doi.org/10.1007/s10593-010-0549-3>
9. Kuryazov, R.S., Mukhamedov, N.S. & Shakhidoyatov, K.M. Quinazolines 1. Synthesis and chemical reactions of 6-chlorosulfonyl-quinazoline-2,4-diones. *Chem Heterocycl Comp.* **44**, 324–329 (2008). <https://doi.org/10.1007/s10593-008-0048-y>
10. Курязов, Р. Ш., Мухамедов, Н. С., & Шахидоятов, Х. М. (2021). QUINAZOLINES. 2. UNSYMMETRIC 1, 3-DIALKYL-6-CHLOROSULFONYLQUINAZOLINE-2, 4-DIONES IN NUCLEOPHILIC SUBSTITUTION REACTIONS. *Chemistry of Heterocyclic Compounds*, (12), 1870-1877.
11. Каримова М.Э., Душамов Д.А., Курязов Р.Ш., Мухамедов Н.С. ХГС. 2011, 117–123. [Karimova M.E., Dushamov D.A., Kuryazov R.Sh., Mukhamedov N.S. *Chem. Heterocycl. Compd.* 2011, **47**, 90–95.] doi 10.1007/s10593-01-0724-1
12. Душамов Д.А., Тахиров Ю.Р., Курязов Р.Ш., Мухамедов Н.С. *ЖОрХ.* **2020**, 56, 1337-1343. [Dushamov D.A., Takhirov Y.R., Kuryazov R.Sh., Mukhamedov N.S. *Russ. J. Org. Chem.* 2020, **56**, 1519-1524.] doi 10.1134/S1070428020090031.
13. Perri, M. J. and S. H. Weber (2014). "Web-Based Job Submission Interface for the GAMESS Computational Chemistry Program." *Journal of Chemical Education* 91(12): 2206-2208. (doi:10.1021/ed5004228).
14. Barca, G. M. J., et al. (2020). "Recent developments in the general atomic and molecular electronic structure system." *The Journal of Chemical Physics* 152(15): 154102. (doi: 10.1063/5.0005188).

## **MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEKISTONNING JANUBIY HUDUDLARIDA EKOLOGIK HOLATNI BARQARORLASHTIRISH MASALALARI**

**A'zamov Asliddin Akramovich**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turlari) yo'nalishi I bosqich magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada mustaqillik davrida O'zbekistonning janubiy hududlarida ekologik holatni barqarorlashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar borasida mulohazalar keltirilgan. Bu boradagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish chora-tadbirlari borasida xulosalar bildirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *mustaqillik, O'zbekiston, ekologiya, atrof-muhit, Surxondaryo, tabiat, ko'kalamzorlashtirish.*

### **ABSTRACT**

*This article presents comments on the work done to stabilize the ecological situation in the southern regions of Uzbekistan during the period of independence. Conclusions on existing problems and measures to eliminate them have been presented.*

**Key words:** *independence, Uzbekistan, ecology, environment, Surkhandarya, nature, greening.*

### **KIRISH**

Butun dunyo xalqlarini tashvishga solayotgan, bu yo'nalishda insoniyatning faol sa'y-harakatlarini talab qiladigan global va mintaqaviy ekologik muammolarni hal etish zarurati hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biridir. Aytish mumkinki, O'zbekiston 1992-yil 8-fevralda MDH davlatlari rahbarlari tomonidan imzolangan shartnomaga muvofiq tuzilgan Davlatlararo Ekologiya Kengashining to'la huquqli a'zosi hisoblanadi.

1996-yilda O'zbekiston Respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun qilingandan keyin O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan vazirliklar, idoralar, tashkilotlar va korxonalar bilan birgalikda atmosfera havosiga salbiy ta'sirni kamaytirish choralari ma'lum tizimga solindi.

2007-yil yakunlariga ko'ra atmosferaga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalarning umumiy hajmi 2 mln tonnagacha qisqardi. 2000-yilda "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilinishi atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur qonunning

qabul qilinishi bilan Davlat ekologik ekspertizasining aniq vazifalari belgilab berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-apreldagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoniga muvofiq Respublikada ekologik xavfsizlikni ta'minlash va atrof-muhitni davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish, ekologik holatni yaxshilash, chiqindilarning fuqarolar sog'ligiga zararli ta'sirini oldini olish, aholi darajasi va sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish, maishiy chiqindilarni yig'ish, saqlash tashish, utilizasiya qilish, qayta ishlash va ko'mish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi qaytadan O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi etib tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro hamkorligi milliy qonunchilik va xalqaro hamkorlikning konvensiyalari asosida tartibga solinadi. O'zbekistonning atrof-muhit muhofazasi borasidagi milliy siyosati va mazkur masaladagi xalqaro hamkorligi mamlakatning ekologik salohiyatini saqlashga asoslangan. Ushbu maqsadda O'zbekiston Respublikasi 1993-yilda "Ozon qatlamini muhofaza qilish bo'yicha" Vena konvensiyasiga, 1995-yilda "Biologik xilma-xillik to'g'risida"gi Konvensiyaga, "Butun jahon madaniy va tabiiy meroslarni muhofaza qilish to'g'risida"gi konvensiyaga, 1997-yilda "Yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo qilish to'g'risida"gi konvensiyaga, 1998-yilda esa "Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini muhofaza qilish" bo'yicha konvensiyaga, shuningdek, tabiatni muhofaza qilish bo'yicha hamkorlik sohasidagi qator davlatlararo bitimlarga qo'shilgan<sup>198</sup>.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Mana shu farmon va hujjatlardan kelib chiqqan holda O'zbekistonning janubiy viloyatlari, xususan Surxondaryo viloyatida ham ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, tabiatni asrab-avaylash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida vohaning barcha hududlarida ko'chat ekish va bog'lar tashkil etish borasida amaliy ishlar olib borilayotgani fikrimizning dalilidir. Zero, "Yashil makon" loyihasi hududlarda toza atmosfera barqarorligi va atrof-muhit musaffoligini ta'minlash imkonini yaratadi.

Surxon vohasi o'zining go'zal tabiati, maftunkor tog'lari, daryolari bilan azaldan o'ziga jalb qilib kelgan. Viloyatda 4000 ga yaqin o'simlik turlari o'sadi. O'zbekiston

<sup>198</sup> Abdunazarov H.M., Choriev.A.Q., Embergenov N.J., Oteuliev M.O. Issues of human economic activity and environmental protection. "Экономика и социум" №11(78) 2020, P. 23-26.



Qizil kitobiga kiritilgan 163 o'simlik turidan 74 turi Surxondaryoda ro'yxatga olingan. Surxondaryo viloyatida ham 100 dan ortiq turdagi dori vositalari tayyorlash imkonini beruvchi dorivor o'simliklar mavjud. Mintaqaning faunasi juda xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu hududda sut emizuvchilarning 97 turi, qushlarning 332 turi, baliqlarning 83 turi mavjud. Ushbu flora va fauna dunyosini asrash bugungi kunda vohadagi ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Viloyat hududida Surxon tog'-vodiy qo'riqxonasi joylashgan. Uning maydoni 24583 gektar. Qo'riqxonada 200 dan ortiq qush va 20 dan ortiq hayvon turlari aniqlangan. Ulardan ba'zilar alohida himoya ostida<sup>199</sup>.

Oxirgi yillarda Surxondaryo viloyati aholisi orasida qalqonsimon bez kasalliklari butunlay bartaraf etildi. Bu kasallikka moyillikning yuqori darajasi Sariosiyo, Uzun rayonlarida aniqlangan. Buning sababi mintaqaga Tojikiston alyuminiy zavodi ishlab chiqarish chiqindilarining ta'siri yuqori darajada ekanligidir.

Ushbu ekologik inqirozni bartaraf etish uchun mustaqillik yillarida Surxondaryo vohasidagi ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha samarali chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Buning uchun tegishli hujjat va materiallarni tayyorlashda o'zaro manfaatli, yaxshi qo'shnihilik va muvozanatli yondashuv namoyon bo'lmoqda. Surxondaryo viloyatining shimoliy-sharqiy qismida atmosfera havosining ifloslanishi va aholi salomatligiga salbiy ta'sirining oldini olish maqsadida bir qancha amaliy tadbirlar ishlab chiqilgan<sup>200</sup>.

Shu bilan bir qatorda tabiatni asrab-avaylash maqsadida ekoturizmni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Zero, viloyatning Sariosiyo, Denov, Boysun va boshqa tumanlari o'zining betakror tabiati bilan ekoturizm rivojiga zamin yaratadi. Mavjud salohiyatdan oqilona foydalanilib, viloyatda 2015-yilda 77 gektar yerda tokzor, 400 gektar maydonda intensiv bog' yaratilganligi mintaqalarda ekoturizm rivojining istiqbolida muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, viloyatning Termiz, Angor, Boysun va Oltinsoy tumanlarida mana shunday diqqatga sazovor manzarali go'shalarga sayyohlarni taklif qilish uchun imkoniyat va maskanlar yaratilganligi ekoturizmni bog'dorchilik turizmini rivojlantirish istiqbolini belgilab beradi.

<sup>199</sup> K.A.Allanov, A.Q.Choriev, N.J.Embergenov. Ecological Condition of Surkhan Oasis and its Impact on the Health of the Population. Science and education in Karakalpakstan. №1. – Nukus, 2020. p.101-103.

<sup>200</sup> Navruzbaeva, G. T., Embergenov, N. J., Oteuliev, M. O. (2018) "Study of The Contemporary State of the Environment and The Status of Population Health in The Conditions of Southern Aral Region, Karakalpak Scientific Journal. Vol. 2, Iss. 1. 2018, -P. 29-31.

## **XULOSA**

Mustaqillik yillarida Surxon vohasida ekologik muhitni sog'lomlashtirish, tabiatni asrab-avaylash borasida amalga oshirilayotgan izchil tadbirlar doirasida voha tabiatini boyitish, o'simlik va hayvonot dunyosini saqlab qolish, suv havzalari qurib ketishining, havo ifloslanishining oldini olish borasida bir qancha yutuqlarga erishildi. Bu borada qabul qilingan "O'rmon to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, "O'zbekiston Respublikasi hukumatining davlat ekologik nazoratini takomillashtirishga yo'naltirilgan ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, "O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)**

1. Abdunazarov H.M., Choriev.A.Q., Embergenov N.J., Oteuliev M.O. Issues of human economic activity and environmental protection. "Экономика и социум" №11(78) 2020, P. 23-26.
2. K.A.Allanov, A.Q.Choriev, N.J.Embergenov. Ecological Condition of Surkhan Oasis and its Impact on the Health of the Population. Science and education in Karakalpakstan. №1. – Nukus, 2020. p.101-103.
3. N.J.Embergenov, Kh.Abdunazarov, M.Umarova, Kh.Niyozov. Issues of Development of Industrial Sectors in Surkhandarya Province. Science and education in Karakalpakstan. №3. – Nukus, 2019. p.99-102.
4. Navruzbaeva, G. T., Embergenov, N. J, Oteuliev, M. O. (2018) "Study of The Contemporary State of the Environment and The Status of Population Health in The Conditions of Southern Aral Region, Karakalpak Scientific Journal. Vol. 2, Iss. 1. 2018, -P. 29-31.
5. Turdimambetov I., Madreymov A., Foldvary L., Oteuliev M., Kurbanov M., Utarbaeva K., Bekanov K. Influence of Adverse Ecological Factors on the Incidence of Malignant Neoplasms. E3S Web Conf. Volume 227, 2021, Annual International Scientific Conference on Geoinformatics – GI 2021: "Supporting sustainable development by GIST". <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202122702001>.
6. Saidov, S. (2021). Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san'atiga qo'shgan hissasi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(1), 334-337.
7. Saidov, S. (2022). "TADBIR UL-MANZIL" RISOLASI–OILAVIY MUNOSABATLAR UCHUN DASTURULAMAL. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 894-897.

8. Saidov, S. (2022). TARIXIY MANBALARDA KELTIRILGAN IBN AL-MUQAFFA BORASIDAGI MA'LUMOTLAR TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 525-528.
9. Saidov, S. (2023). "TARIXI GARDIZIY" ASARINING TARIXIY QIYMATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 842-847.
10. Saidov, S. A. O. G. L. (2021). IBN AL-MUQAFFANING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(7), 8-14.
11. Саидов, С. (2022). ЯНГИ МАЪНАВИЙ МАКОННИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ИБН МУҚАФФА АСАРЛАРИНИНГ РОЛИ. *International scientific journal of Biruni*, 1(3), 19-22.

## **SURXONDARYODA SOVET HOKIMIYATINING XALQ TA'LIMI MUASSASALARIGA NISBATAN YURITGAN SIYOSATI**

**Xolmirzayev Abror Hasan o'g'li**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turlari) yo'nalishi I bosqich magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada sovet hokimiyati davrida Surxondaryo viloyatidagi xalq ta'limi tizimining holati borasida fikr-mulohazalar keltirilgan. Xalq ta'limi tizimining orqada qolish sabablari borasida xulosalar qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *sobiq sovet hokimiyati, xalq ta'limi tizimi, maktab, ta'lim, o'qituvchi.*

### **ABSTRACT**

*This article presents opinions on the state of the public education system in the Surkhondaryo region during the Soviet period. Conclusions were made about the reasons for the backwardness of the public education system.*

**Key words:** *former Soviet power, public education system, school, education, teacher.*

### **KIRISH**

Sovet hokimiyati davrida Surxondaryo viloyatidagi ta'lim tizimining holatini o'rganish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Chunki Surxon vohasida sovet hokimiyatining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy mavqeini mustahkamlash davrida hukmron Kommunistik partiya jamiyat hayotining barcha jabhalarida o'z ta'sirini o'tkazdi. Xususan, bu jarayon insonlar ongini o'zgartirishning muhim omili hisoblangan ta'lim, fan va madaniyat sohalarida jiddiy burilish yasadi. O'rganilayotgan yillarda ta'lim, fan va madaniyat sohalarida sodir bo'lgan barcha voqealar siyosiy manfaatlariga xizmat qildi. Sovet hukumatining maqsadi ozodlikni sevuvchi milliy ziyolilar qatlamini yo'q qilish va xalqning "savodxonlik" darajasini oshirish orqali sotsialistik tuzumga fidoyi yangi ziyoli kadrlarni shakllantirish, shuningdek, byurokratik boshqaruvni kuchaytirish edi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

1925-yilda ma'lum darajada bo'lsa-da, ta'lim tizimida eski maktablarning ishlashiga ruxsat berildi. Sovet maktablari soni esa asta-sekin o'sib bordi. Qisqa vaqt

ichida yangi maktablar soni 10 taga, undagi o'quvchilar soni esa 597 nafarga yetdi. Ulardan 260 nafari mahalliy millat vakillari edi<sup>201</sup>.

Yangi sovet maktablarini tashkil etish jarayoni uzluksiz davom ettirildi. Surxon vohasining Boysun va Termiz shaharlarida maktablar ochilib, qishloq dehqonlarining farzandlari ularda bilim oldilar. Voha markazidan uzoqda joylashgan maktablarda Sovet Ittifoqining markaziy shaharlaridan kelgan mutaxassislar mahalliy o'qituvchilar bilan hamkorlikda ishladilar. Bundan tashqari, voha o'qituvchilari Moskva va Toshkentga oliy ma'lumot olishga yuborildi.

Respublika shaharlarida o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun pedagogika bilim yurtlari ochila boshlandi. 1926-yilda Termizda birinchi o'qituvchilar tayyorlash maktabi ochildi. Ushbu muassasani ochishdan maqsad voha maktablari uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash edi. Bu maktab xalq xo'jaligining turli tarmoqlari uchun bilimli kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirishga hissa qo'shdi. Qisqa vaqt ichida 21 ta savodsizlikka barham berish maktabi ish boshladi, ularda 420 nafar o'quvchi bilim oldi. Shulardan 30 nafari qizlar edi. Yuqoridagi 12 ta maktabda bilim sifati yuqori saviyada bo'lib, ularda 243 nafar o'quvchi ta'lim oldi, ta'lim yoz faslida ham davom etdi<sup>202</sup>.

O'z navbatida, yoshlarda o'qituvchilik kasbiga qiziqishni oshirish maqsadida o'qituvchilarning maoshlari ham ko'rib chiqildi. 1927-yilda maktab o'qituvchilarining oylik ish haqiga o'zgartirishlar kiritildi, unga ko'ra qishloq bolalariga dars bergan o'qituvchilar shaharlarda ishlaydigan o'qituvchilarga qaraganda ko'proq maosh oldilar. Mahalliy aholi orasidan o'qituvchilar tayyorlash masalasi o'sha davrning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, vohaning bu boradagi ahvolini boshqa viloyatlarga qaraganda og'ir deb hisoblagan rahbarlar ko'pincha sovet hokimiyatidan kadrlar tayyorlash masalasi bo'yicha alohida talablar qilib turar edilar.

1920—30-yillarda aholining ko'pgina ayollari ham savodli bo'lib, ular asosan an'anaviy maktablarda ta'lim olgan. Sovet hokimiyatining dastlabki shakllanishi davrida tashkil etilgan maktablarda ko'pincha o'qituvchilik faoliyati maxsus tayyorgarlikdan o'tmagan, ma'lumot va malakaga ega bo'lmagan odamlar tomonidan amalga oshirildi. 1926 yilda O'zbekiston SSRning barcha tuman va qishloqlarida savodsizlikni yo'q qilish maktablari ochilishi bilan bir vaqtda turli yoshdagi kishilar uchun maktablar tashkil etilishi ko'zda tutilgan edi. Manbalarda 1926-1927 yillarda Surxon vohasi maktablarining ahvoli qoniqarsiz bo'lgani haqida ko'plab ma'lumotlar

<sup>201</sup> Аминова Р. Х. Аграрные преобразования в Узбекистане накануне сплошной коллективизации (1925-1929 гг.). Т.: Фан, 1969. – С. 85.

<sup>202</sup> Исаев О. А. Освещение проблем образования Сурханского оазиса в архивных материалах (1920-1930 гг.) // Бюллетень науки и практики. 2020. Т. 6. №8. С. 289-294.



keltirilgan. Ko'pincha maktablarda foydalanish uchun stol va doskalar bo'lmagan. Faqat Termiz shahridagi maktablarda vaziyat biroz yaxshi edi. Aksariyat maktablarda sanitariya-gigiyena holati talabga javob bermagan.

Sovet hukumatiga sovet mafkurasi ruhida tarbiyalangan kadrlar kerak edi. Shuning uchun ular dastlabki bosqichda asosan kam ta'minlangan aholi bolalarini maktablarga jalb qilishga harakat qilishgan. 1928-yilgi okrug ijroiya qo'mitasining majlisida savodsizlikni tugatishga alohida e'tibor qaratildi. Agar 1927-yilda savodsizlikka barham berish maktablari soni 22 ta bo'lsa, keyingi yili ularning soni 42 taga yetdi. Ushbu masala bo'yicha vaziyat tahlil qilinib, ta'minlanmagan hududlarda savodsizlikni tugatish maktablari ochishga qaror qilindi<sup>203</sup>.

1928-1929 o'quv yilida vohaning barcha hududlarida ayollar savodsizligini bartaraf etish maktablari ochildi. Shuningdek, maktablar o'quv jihozlari, darsliklar va yangi adabiyotlar bilan ta'minlandi. Voha aholisi orasida turli millat vakillari borligini hisobga olib, adabiyot o'zbek, rus, tojik tillarida bo'lishi talab qilindi. Shundan kelib chiqib, Boysun va Sariosiyo tumanlarida tojik tilida ta'lim beradigan maktablar tashkil etildi. Bu maktablarni ta'minlashni davlat zimmasiga oldi.

Keyinchalik vohaning chekka hududlarida maktablar qurilishi boshlandi. Denov tumanining "Sino" va "Qarluq" qishloq sovetlariga maktablar qurilishi uchun 119 ming rubl, Denov tumanida madaniyat va jamoat muassasalari uchun tuman byudjetidan 50 ming rubl ajratildi.

Tuman xalq ta'limi bo'limi, partiya va komsomol tashkilotlari Surxon vohasidagi deyarli barcha tojik maktablari tojik tilidagi adabiyotlar bilan ta'minlanmaganligini, milliy maktablarda bu kabi muammolar mavjudligini hisobga olib, respublika hukumatiga yordam so'rab murojaat qildi. Shu bilan birga, Tojikiston Avtonom Respublikasiga tojik tilidagi adabiyotlar bilan ta'minlash bo'yicha murojaat qabul qilindi.

O'sha davrda zo'rlab ko'chirish siyosati natijasida viloyatga turli viloyatlardan aholi kela boshlagan. Masalan, birgina Denov tumaniga Andijon, Farg'ona va Buxoro viloyatlaridan ko'chib kelganlar soni 1000 nafarni tashkil etdi. Migrantlarning farzandlari uchun zudlik bilan ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etila boshlandi. 1930-yilda Sovet hukumati tomonidan Bobotog', Yangiobod, Sino va Xazarbog' qishloqlarida, "G'alaba" kolxozida, Anbarsoy qishloqlarida yangi maktablar tashkil etildi.

Manbalarda maktab ta'limi masalasiga e'tibor bermagan rahbarlarning jazolanishi haqidagi faktlar ham bor. Xususan, 1934-1935 o'quv yilida Boysun viloyatida ta'lim tizimi faoliyati qoniqarsiz deb baholandi. Tuman ta'lim bo'limining

<sup>203</sup> *Surxondaryo viloyati davlat arxivi Denov tuman bo'limi. 6-fond, 1-ro'yxat, 8-ish, 10-varaq.*

bir qator mas'ul shaxslari faoliyati samarasiz bo'lganligi sababli egallab turgan lavozimidan ozod etildi<sup>204</sup>.

O'zbekiston SSR Xalq Komissarligining 1935-yilgi qarorida barcha shahar tuman markazlari va aholi punktlarida yangi turdagi zamonaviy maktablar qurish zarurligi belgilandi. Shundan kelib chiqib, vohaning markaziy shahar va qishloqlarida maktablar qurilishi boshlandi. Qarorda qurilish ishlari maxsus komissiya tomonidan nazorat qilinishi belgilandi.

## **XULOSA**

Xulosa sifatida aytish lozimki, Surxon vohasida Sovet hukumati tomonidan tashkil etilgan maktablar yaxshi samara bermadi. Ta'lim sohasida muammolar ko'p bo'lib, ulardan birinchisi kadrlar masalasi edi. Maktablarni tashkil etishda mablag' yetarli emas, tashkil etilgan maktablarda o'quv qurollari va darsliklarning keskin tanqisligi kuzatildi. Sovet hukumati xalq maorifini rivojlantirishga harakat qilib, birinchi navbatda voha iqtisodiyotini yo'lga qo'yish uchun kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishga harakat qildi. Termiz shahrida sanoatning turli tarmoqlarini malakali kadrlar bilan ta'minlashga bo'lgan ehtiyojni ta'minlash maqsadida ko'plab ixtisoslashtirilgan kurslar tashkil etilgan bo'lsa-da, ularda ta'limni tashkil etish ishlari yetarli darajada emas edi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)**

1. Аминова Р. Х. Аграрные преобразования в Узбекистане накануне сплошной коллективизации (1925-1929 гг.). Т.: Фан, 1969.
2. Исаев О. А. Освещение проблем образования Сурханского оазиса в архивных материалах (1920-1930 гг.) // Бюллетень науки и практики. 2020. Т. 6. №8. С. 289-294.
3. *Surxondaryo viloyati davlat arxivi Denov tuman bo'limi*. 6-fond, 1-ro'yxat, 8-ish, 10-varaq.
4. *Surxondaryo viloyati davlat arxivi*. 89-fond, 1-ro'yxat, 80-ish, 57-varaq.
5. *Surxondaryo viloyati davlat arxivi*. 91-fond, 1-ro'yxat, 56-ish, 115-varaq.
6. Saidov, S. (2022). "TADBIR UL-MANZIL" RISOLASI-OILAVIY MUNOSABATLAR UCHUN DASTURULAMAL. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 894-897.
7. Saidov, S. (2022). TARIXIY MANBALARDA KELTIRILGAN IBN AL-MUQAFFA BORASIDAGI MA'LUMOTLAR TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 525-528.

<sup>204</sup> Исаев О. А. Освещение проблем образования Сурханского оазиса в архивных материалах (1920-1930 гг.) // Бюллетень науки и практики. 2020. Т. 6. №8. С. 289-294.

8. Saidov, S. (2022). TARIXIY MANBALARDA KELTIRILGAN IBN AL-MUQAFFA BORASIDAGI MA'LUMOTLAR TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 525-528.
9. Saidov, S. (2023). "TARIXI GARDIZIY" ASARINING TARIXIY QIYMATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 842-847.
10. Norliev, R., & Ibragimova, O. (2021). Constitutional And Legal Basis Of The Institute Of Public Control In The Republic Of Uzbekistan (Theoretical Analysis). *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 3(04), 42-45.
11. Saidov, S. A. O. G. L. (2021). IBN AL-MUQAFFANING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(7), 8-14.
12. Рустам Норлиев (2021). Социально-философские основы духовного роста на новом этапе национального развития Узбекистана. *Общество и инновации*, 2 (2), 99-104. doi: 10.47689/2181-1415-vol2-iss2-pp99-104
13. Саидов, С. (2022). ЯНГИ МАЪНАВИЙ МАКОННИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ИБН МУҚАФФА АСАРЛАРИНИНГ РОЛИ. *International scientific journal of Biruni*, 1(3), 19-22.

## **ГЛОБАЛИЗАЦИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА СУДЬБЫ ЧЕЛОВЕЧЕСТВА**

**Омонов Баходир Нуриллаевич**

д.ф.н., доцент

Заведующий кафедрой гуманитарных наук

Шахрисабзского государственного педагогического института,

E-mail:bahodiron@mail.ru

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье описывается роль экологической глобализации в системе глобализации социальных процессов, ее влияние на судьбы человечества. Обсуждается влияние экологических проблем на почву, воду, загрязнение воздуха, потепление климата, обеднение флоры и фауны, негативное влияние использования природных ресурсов на окружающую среду. Также уделяется внимание изучению причин и последствий, факторов и направлений экологической глобализации, а также актуальные вопросы реализации политики государства по стабилизации экологических проблем в соответствии с международными стандартами.*

**Ключевые слова:** экологическая проблема, экологический характер, экологическое отношение, экологическая ситуация, экологическая глобализация, экологические последствия, экологическая политика, экологическая интеграция, бифуркационная ситуация, глобальный характер.

### **ABSTRACT**

*The article describes the role of ecological globalization in the system of globalization of social processes, its influence on the fate of mankind. The influence of environmental problems on soil, water, air pollution, climate warming, depletion of flora and fauna, and the negative impact of the use of natural resources on the environment are discussed. Also, attention is paid to the study of the causes and consequences, factors and directions of environmental globalization, as well as topical issues of implementing the state policy to stabilize environmental problems in accordance with international standards.*

**Key words:** environmental problem, environmental character, environmental attitude, environmental situation, environmental globalization, environmental consequences, environmental policy, environmental integration, bifurcation situation, global character.

## **ВВЕДЕНИЕ**

С момента создания человечество «преследовали» различные экологические проблемы. В ходе общественно-исторического развития проблемы экологического характера регулярно возникали в том или ином регионе планеты в той или иной мере. Эти проблемы решались на одних этапах краткосрочными эффективными, а на других — долговременными и малоэффективными методами. Однако, как мы отмечали выше, к последней четверти XX века в результате сложности экологических отношений и глобального характера экологической ситуации экологические проблемы стали приобретать глобальный характер. Иными словами, на рубеже нового века глобализация экологической ситуации закончилась глобализацией экологических проблем. Глобализация экологических проблем означает, что конфликт между потребностью в природных ресурсах и способностью природы создавать эти ресурсы приобретает глобальные масштабы.

## **МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**

Были проанализированы материалы научных исследований [11, 12, 13, 14, 15, 17], использованы логические методы, такие как анализ, обобщение, сравнение, и сделаны следующие выводы.

Глобализация экологических проблем проявляется в:

*Во-первых*, загрязнение почвы по всей планете ограничивает потребности человека. В целом доля загрязнения почвы в общем загрязнении окружающей среды остается большой. Например, по оценкам специалистов, 49 % загрязнения окружающей среды приходится на почвы, 15 % — на водоемы и 35 % — на атмосферу [1;3]. Основной причиной этого является бурно развивающаяся в странах промышленность и горнодобывающая промышленность, коренным образом меняется характер сельского хозяйства, ускоряется строительство транспортной инфраструктуры, увеличивается количество бытовых отходов. По мере развития промышленности и горнодобывающей промышленности резко возрастало и количество отходов в них. Эти отходы увеличивают количество тяжелых металлов (ртути, олова, цинка, бериллия и др.) в почве. Химические вещества, используемые в сельском хозяйстве для повышения плодородия почвы и уничтожения вредителей, вызывают чрезмерное загрязнение почвы. Например, эксперты подробно раскрывают влияние пестицидов, таких как гербициды, инсектициды и фунгициды, на качество почвы. Увеличение количества транспортных средств и развитие транспортной инфраструктуры увеличивает содержание полициклических углеводородов, таких как нафталин, антрацен и фенален,



которые отрицательно сказываются на качестве почвы. Под воздействием этих антропогенных факторов по всей планете происходит деградация почвы, а процентное содержание некоторых химических веществ в ее составе возрастает до небывалого уровня. В результате возможности удовлетворения потребностей человечества, связанных с почвой, становятся ограниченными.

*Во-вторых*, загрязнение воды по всей планете ограничивает потребности человека. «Загрязнение воды проявляется в изменении ее физических и органолептических свойств (прозрачность, цвет, запах, вкус), в увеличении содержания сульфатов, хлоридов, нитратов, токсичных тяжелых металлов, в снижении содержания кислорода в воде, в появлении радиоактивных элементов и болезнетворных бактерий» [2; 10]. Хозяйственная деятельность человека за следующие сто лет создала более 400 веществ, вызывающих загрязнение воды [2;10]. Масштабное использование этих веществ резко ухудшило физико-органолептические свойства и состав воды во всех регионах в последующие полвека. Например, концентрация нитратов в незагрязненной воде составляет от 0,1 до 1,0 мг/л. Однако сброс в воду бытовых, сельскохозяйственных и промышленных отходов увеличил это количество в несколько раз. В результате, с одной стороны, флоре и фауне регионов наносится беспрецедентный ущерб. С другой стороны, становится все труднее полностью удовлетворить потребности человечества в чистой питьевой воде. Ограниченная доступность питьевой воды вынуждает людей в разных регионах планеты использовать загрязненную воду. Эксперты утверждают, что сегодня 80% заболеваний в развивающихся странах вызваны употреблением грязной воды [4;98].

*В-третьих*, загрязнение воздуха на всей планете подрывает природные условия, позволяющие в полной мере удовлетворять потребности человека. Социально-экономическая деятельность человека вызывает загрязнение атмосферы Земли различными ядовитыми веществами. Автомобильный, железнодорожный, воздушный и морской транспорт выбрасывают в окружающую среду большое количество газов. Отходы, образующиеся в процессе производства на фабриках и заводах, также являются вредным фактором для окружающей среды. Кроме того, бытовые отходы также «вносят свой вклад» в загрязнение атмосферы. В результате не было континента, атмосфера которого не была бы загрязнена в той или иной степени. По данным ООН, сегодня девять из десяти жителей Земли проживают в районах с крайне загрязненным воздухом [6].

Постоянное загрязнение земного воздуха имеет тяжелые последствия. «По данным ООН, в 2012 году от различных заболеваний, вызванных загрязнением воздуха, умерло 7 млн человек, а в 2018 году преждевременно умерло более 4 млн человек. По данным Всемирной организации здравоохранения, загрязненный воздух обычно негативно влияет на дыхательную, сердечно-сосудистую и иммунную системы» [6].

*В-четвертых*, глобальное потепление разрушает природные условия, позволяющие в полной мере удовлетворять потребности человека. Климат на планете меняется под воздействием многих природных факторов. Но особенно большое значение при этом имеют антропогенные факторы. По данным, в результате хозяйственной деятельности человека климат Земли улучшится на 0,5 градуса в ближайшие 20 лет. Однако «ученые предупреждают, что температура не должна превышать 1,5 градуса во избежание катастрофических потерь» [7]. Даже сегодня потепление климата наносит серьезный гуманитарный и экономический ущерб во многих регионах. «В некоторых странах снижение урожайности сельскохозяйственной продукции под влиянием изменения климата представляет прямую угрозу продовольственной безопасности» [8]. Кроме того, количество стихийных бедствий в мире увеличивается из-за потепления климата. В частности, с 2000 по 2019 год в Китае было зафиксировано 577 стихийных бедствий, в США — 467, в Индии — 321, на Филиппинах — 304, в Индонезии — 278. «За следующие 20 лет произошло в общей сложности 7348 стихийных бедствий, в результате которых погибло 1,23 миллиона человек и пострадало 4,2 миллиарда человек. Засухи, наводнения, цунами, землетрясения и лесные пожары наносят экономический ущерб в размере 2,97 триллиона долларов. Большую роль в этих бедствиях играет и потепление климата» [7]. Продолжение этой тенденции может вызвать серьезные проблемы в будущем. «Высокая температура, — предупреждает Деберати Гуха-Сапир из Лувенского университета (Бельгия), — в ближайшие 10 лет станет для нас самой большой проблемой, особенно для бедных стран» [7].

*В-пятых*, оскудение растительного мира по всей планете ограничивает удовлетворение потребностей человека в нем. Хозяйственная деятельность человечества осуществлялась за счет растительного мира на протяжении нескольких десятилетий и оказала на него серьезное влияние. Но это влияние не всегда было положительным. Например, хозяйственная деятельность человека, как мы уже упоминали выше, вызвала ухудшение качества почвы, воды и атмосферы на всех континентах мира. В результате разрушились

естественные условия, необходимые для многих растений. Некоторые виды растений, отвечающие необходимым условиям, стали исчезать. По результатам исследований, проведенных международной группой ботаников, за ближайшие 250 лет в результате хозяйственной деятельности человека с Земли исчез 571 вид растений. Начиная с восемнадцатого века в результате этой деятельности ежегодно исчезают два вида растений [9]. С годами такая ситуация становится тенденцией: сегодня 60 000 из более чем 300 000 известных науке видов растений находятся под угрозой исчезновения [9].

Обеднение флоры также отражается на сокращении лесных площадей. По данным ООН по продовольствию и сельскому хозяйству, площади лесов сократились на 178 млн га с начала воздействия человека на природу [10]. Этот процесс продолжается и сегодня во всех регионах мира. Например, с 2010 по 2020 г. только в Африке было вырублено 3,9 млн га леса [10].

*В-шестых*, оскудение животного царства по всей планете ограничивает удовлетворение потребностей человека в нем. Социально-экономическая деятельность человечества постоянно ухудшала природные условия, обеспечивающие существование животного мира во всех странах. Процессы урбанизации, промышленного и сельскохозяйственного развития, технического прогресса — все это окончательно отдалило животных от природных условий, в которых они обитают. Кроме того, в последние годы усиливается нерациональное отношение к животному миру. Рост незаконной охоты и браконьерства поставил многих животных на грань исчезновения. Например, из-за деятельности браконьеров кабарга была полностью уничтожена в Восточном и Западном Саяне [11; 39].

*В-седьмых*, негативное экологическое воздействие процесса использования природных ресурсов на всей планете ограничивает удовлетворение потребностей человека. Мировая экономика расширяется, становится все более сложной и ускоряется с годами. Растущая экономика требует все больше и больше природных ресурсов. Современные технологии добычи и снабжения природными ресурсами серьезно влияют на агрохимические, физико-биологические и микробиологические свойства почвы, физико-химические и органолептические свойства воды, характер атмосферы во всех регионах мира. Например, следующие факторы, связанные с добычей и транспортировкой нефти, вызывают загрязнение почвенного покрова: а) сброс сточных вод нефтяного производства в почву и источники поливной воды; б) аварии на судах, транспортных средствах и магистральных трубопроводах для перевозки нефти и других видов топлива; в) сжигание нефтяных месторождений; ж)

загрязнение почвенного покрова и основных частей экосистемы в результате действия таких факторов, как неблагоприятные условия в нефтехранилищах [1].

## **РЕЗУЛЬТАТЫ**

Есть, конечно, и другие факторы, свидетельствующие о глобализации экологической проблемы. Однако из приведенной информации видно, что судьба современной цивилизации зависит от того, в какой мере будут решаться экологические проблемы, приобретающие все более глобальный характер.

По мере превращения человечества в глобальную геологическую силу воздействие общества на природу возросло в несколько раз. Взаимодействия в системе «общество-природа» уже вышли за пределы разума. И философия и наука только готовятся раскрыть природу этой взаимосвязи, проанализировать эти сложные и многогранные процессы.

Более того, отчетливо видны два недостатка рекомендаций, предлагаемых экспертами на этот счет. Во-первых, эти рекомендации разрабатывались без учета социальных потребностей. По мере роста социальных потребностей растет и воздействие общества на природу — факт, который необходимо учитывать при любых рекомендациях по решениям. Во-вторых, большая часть этих рекомендаций не соответствует сегодняшним возможностям человеческого общества. Для выполнения многих из предложенных рекомендаций необходимы дополнительные возможности, материальные и финансовые ресурсы. Рекомендация, несоизмеренная имеющимся ресурсам, не приведет к значительным результатам. Поэтому важно помнить, что, размышляя об экологических проблемах, мы должны ориентироваться на рекомендации, которые в конечном счете соответствуют общественным потребностям и реализуются исходя из текущих возможностей общества.

Для этого прежде всего "Есть ли решение экологических проблем?" мы должны ответить на вопрос. Ряд логических выводов позволяет дать положительный ответ на этот вопрос.

## **Дебаты**

Выше мы говорили о том, что экологические проблемы — это отголосок нынешнего состояния бифуркации, что природа несколько раз переживала подобное состояние в прошлом. Теперь обратим внимание на другой аспект этого процесса. Раздвоенная динамическая система не только теряет память и нарушается последовательность, но и претерпевает радикальное обновление. Рассмотрим ситуацию бифуркации, которая возникла, когда прокариоты овладели реакцией фотосинтеза. На определенном этапе своего развития (опять

же благодаря все той же реакции фотосинтеза) они начали вырабатывать кислород, что было для них губительно. Неуклонное увеличение количества кислорода в биосфере в итоге привело к гибели прокариот и образованию наших «предков» эукариот (организмов с клеточными ядрами) 1,2 миллиарда лет назад. Резкое похолодание климата Земли вытеснило австралопитеков в саванны (тропические пустыни). Но в результате они научились ходить на задних лапах, превратились из миролюбивых травоядных в агрессивных дикарей. Кроме того, трудности жизни заставили австралопитеков задуматься, в результате чего объем их мозга увеличился почти вдвое всего за 2 миллиона лет. Неолитическая революция связана с внедрением технологии обработки камня. В результате человек-ребенок изготовил каменные орудия и стал абсолютным правителем животного мира, вскоре истребив крупных копытных. Однако, чтобы обеспечить себя пищей, он открыл для себя земледелие и животноводство.

Бифуркация — это термин, выражающий потерю памяти системой вследствие внешнего воздействия, то есть нарушение в ней последовательности. Таким образом, сколько бы раз природа ни теряла свою устойчивость и впадала в состояние бифуркации, каждый раз она находила возможность возобновить свое состояние, и человеку удавалось приспособиться к этому. Поэтому можно надеяться на решение экологических проблем глобального значения и универсального характера. Каким именно оно будет, предсказать трудно, но общий характер такого решения можно примерно сформулировать: решение проблемы должно быть связано с восстановлением и поддержанием баланса между обществом и природой, с опорой на реальные интеллектуальные, материальные и финансовые ресурсы, и определение оптимального способа взаимодействия между ними.

## **ВЫВОД**

В заключение можно сказать, что глобализация экологической ситуации привела к тому, что экологические проблемы приобрели глобальный характер. Экологические проблемы означают конфликт между резким ростом потребности общества в природных ресурсах и ограниченными возможностями природы по формированию этих ресурсов. Сегодня глобализация экологических проблем проявляется в загрязнении почвы, воды и воздуха по всей планете, потеплении климата, обеднении флоры и фауны, негативном влиянии использования природных ресурсов на окружающую среду. Соответственно, политика государственной деятельности по стабилизации экологических проблем проявляется в ее адаптации к международным



стандартам и реализации, что требует выполнения следующих задач: **во-первых**, адаптация и интеграция политики любой страны в сфере глобальной оздоровление окружающей среды до международных стандартов – это в интересах всего человечества; **во-вторых**, формирование системы государственных учреждений охраны природы в регионах с неблагоприятной экологической обстановкой, их интеграция и глобализация - историческая необходимость; **в-третьих**, интеграция и глобализация международных экологических политических отношений: с содержательной и функциональной сторон, адаптирующих их к общечеловеческим целям; **в-четвертых**, социально-политическая миссия стран с неблагоприятной экологической обстановкой требует от них дифференцированного подхода к демократико-гуманистическим принципам и нормам; **в-пятых**, национальная институциональная система улучшения экологической ситуации регулируется и управляется с помощью общечеловеческих морально-этических норм, правовых и правовых инструментов.

#### **СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (REFERENCES)**

1. Абдрахманов Т., Жаббаров З. Тупроқларнинг нефть ва нефть маҳсулотлари билан ифлосланиши ва уларнинг рекультивацияси.- Т.: Университет, 2012.- Б.3.
2. Вострикова М.А., Шкода В.В. Основные виды загрязнений водных объектов.// Инновационная наука, 2016, №4.- 10-с.
3. Орлов Д.С. Экология и охрана гидросферы при химическом загрязнении.- М.: Высшая школа, 2012.- С.98.
4. Конвенция по охране и использованию трансграничных водотоков и международных озер.// un.org.
5. Ер аҳолисининг ўнтадан тўққизтаси ҳавоси ўта ифлосланган ҳудудларда яшайди.// xs.uz, 2020, 8 март.
6. Ҳарорат кўтарилмоқда. Иқлим исиши сабаб инсонлар нималар йўқотиши мумкин?// kun.uz, 2020, 17 октябрь.
7. Иқлим ўзгариши қандай оқибатларга олиб келиши мумкин.// anhor.uz, 2021, 27 март.
8. Ученые рассказали об исчезновении 570 видов растений за последние 250 лет.// nauka.tass.ru, 2019, 14 июня.
9. Сайёрамизда ўрмонлар кескин камаймоқда.// piqobod.uz, 2020, 23 июль.
10. Ишигеев В.С. Браконьерство как новый вид криминального профессионализма.// Психопедагоги-ка в правоохранительных органах, 2013, №3. 39 с.

11. Ochilova, G. A. (2020). Philosophical analysis of the development of social consciousness. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology* PJAEE, 17(7).
12. Омонов, Б. (2021). Значение религиозных ценностей в формировании культуры личной экологии. In *Proceedings of Global Technovation 4th International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted from Paris, France February 27th*.
13. Omonov, B. (2021). Problems And Consequences Of Water Deficiency In Central Asia. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(8).
14. Омонов, Б. Н. (2021). ВЫРАЖЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РЕЛИГИОЗНЫХ ЦЕННОСТЯХ. In *СОВРЕМЕННЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ* (pp. 301-303).
15. Nurillaevich, O. B., Aralovna, O. G., Shavkatovich, N. K., Khurramovich, M. Y., & Aralovich, O. B. (2022). Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 984-989.
16. Ochilova G.A. Yoshlar – Yangi O'zbekistonning ma'naviy elitasi. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. [https://oriens.uz/media/journals/ORIENS\\_Volume\\_2\\_\\_ISSUE\\_10.pdf](https://oriens.uz/media/journals/ORIENS_Volume_2__ISSUE_10.pdf) 1288-1294.
17. Omonov, B. (2015). The use of water resources in the center of environmental policy in the region. In *The Fifth International Conference on History and Political Sciences* (pp. 53-58).

## **HADISI SHARIFLARDA “VATAN” KONSEPTI SEMATIKASI**

**O‘roqova Shoxsanam Luqmon qizi**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,

Filologiya fakulteti: filologiya va tillarni o‘qitish(o‘zbek tili) 4-kurs talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Hadisi shariflar muqaddas Qur’oni karim oyatlaridan oziqlangan, beqiyos ma’naviy xazina manbasi ekanligi, hadislarda kishilarni ezgu amallarga, bandalarning o‘zaro mehr-oqibatli bo‘lishlariga undovchi da’vat mujassamligi yoritib berilgan. Ta’lim-tarbiya jarayonida hadisi shariflardan iqtibos keltirish o‘quvchilarning ma’naviy kamol topishlarida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Taassufki, gumanitar fanlar tizimidagi darsliklarga diqqat qaratadigan bo‘lsak, hadisi shariflar, ularni sharhlashga bag‘ishlangan matnlar uchramaydi. Ehtimol, bu sobiq tuzum davrida kishilarni yoppasiga islom dinidan qaytarish, unga nisbatan qat’iy taqiq qo‘yilishining asoratidir. Biroq hadisi shariflar dini, millati e’tiqodidan qat’iy nazar kishilarni ezgulikka chorlovchi vosita ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, ularning naqadar katta ahamiyatga molik manbaligi anglashiladi. Muqaddas Qur’oni karim va hadisi shariflarda ham «Vatan» konsepti o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.*

**Kalit so‘zlar:** hadis, konsept, vatan, tug‘ilgan yer, Urva ibn az-Zubayr, Sahihul Buxoriy.

### **SEMANTICS OF THE CONCEPT “HOMELAND” IN HADITH SHARIF**

#### **ABSTRACT**

*In this article, the hadiths are a source of incomparable spiritual treasure, nourished by the verses of the Qur'an, and that the hadiths are the embodiment of a call to encourage people to do good deeds and be kind to one another.*

*In the process of education, the Hadith Sharifs are an important factor in the spiritual development of students. Unfortunately, if we pay attention to the textbooks in the system of humanitarian sciences, there are no hadiths and texts devoted to their interpretation.*

*Perhaps, this is a complication of the strict ban on Islam and the complete turning away of people from the religion of Islam during the time of the former regime.*

*However, the Hadith Sharifs are an important source of encouraging people to be good, to be kind, regardless of their faith and nationality. The concept of "Homeland" appears in the Qur'an and hadiths in a unique way.*

**Key words:** *hadith, concept, Motherland, Homeland, Urva ibn az-Zubayr, Sahihul Bukhari.*

## **KIRISH**

Umuman olganda, «Vatan» konsepti lugʻaviy-semantik jihatdan Hadisi shariflarda kengroq maʼno kasb etadi. Muqaddas diniy manbalar: Qurʼoni karim va hadisi shariflarda Vatan deganda “tugʻilgan yer”ga nisbat berish bilan birga, boshqa bir oʻrinda, islom diniga eʼtiqod qiluvchi ahli moʻmin-muslimalar uchun Makkayi Madina yagona Vatan ekanligi anglashiladi. Vatan bir hududda tugʻilgan va ana shu hudud istiqboli uchun kurashadiganlar yashaydigan makon. Makkayi mukaramma ham musulmlar talpinadigan va yagona maqsad yoʻlida birlashadigan, shaxsiy manfaatlar tamoman unutiladigan muqaddas dargoh. Moʻmin-muslimalar uchun esa Makka Vatandir. Makka birlan undagi binoning fazilati haqida Baqara surasining 125-126 oyati karimalarida Oллоh taolo bu xususda bunday deydir: «Biz Kaʼbani odamlar uchun har yili toʻplanadigan joy qilib berdik va unga tinchlik-omonlik baxsh etdik, shundoq erkan, Ibrohim Maqomini oʻzingizga namozgoh qilib olingiz! Biz Ibrohim va Ismoilga «Uyimni (Baytullohni) tavof va eʼtikof etguvchilar uchun hamda rukuʻ va sajda qilmoq uchun pokiza qilingiz!» deb topshirdik. Ibrohim: «Yo rabbiy, bu yurtni tinchlik-omonlik maskaniga aylantirgʻil, uning Oллоhga iymon keltirgan, oxirat kuniga ishongan ahliga neʼmatingni bisyor qilgil!»[1.15-b] - deb iltijo qilgan erdi. Sahihul Buxoriyning ikkinchi jildiga kiritilgan 135-bobdan oʻrin olgan Hadisi sharifda esa butparast qavmlardan boʻlgan Sumoma otligʻ kishining Rasululloh (s.a.v) tomonidan ozod qilinishi va uning musulmon boʻlganligi haqida quyidagicha rivoyat qilinadi: “....Ey , Muhammad, Oллоh taolo haqi, Yer yuzida mening uchun Sizning yuzingizdan yoqimsizroq yuz yoʻq erdi, mana endi sizning yuzingiz men uchun eng mahbub yuz boʻlib qoldi. Oллоh taolo haqqi , mening uchun sizning yurtingizdan ortiqroq yoqimsizroq yurt yoʻq erdi, mana endi sizning yurtingiz men uchun eng mahbub yurt boʻlib qoldi”.

Boshqa bir hadisi sharifda esa, kofir boʻlganlar va iymonsizlar uchun bu dunyoda beriladigan eng ogʻir jazo vatanlaridan surgun qilinmoq ekanligi aytiladi. Xususan, Urva ibn az-Zubayrning rivoyat qilishicha, bu voqea Badr voqeasidan olti oy burun, Uhud jangidan avval sodir boʻldi. Oллоh taolo bu haqda oyat nozil qildi. Uning maʼnosi:«Ahli kitoblardan boʻlgan kofirlarni vatanidan haydab chiqargan zot Oллоh taolodir.....

«Uzoq muddat ilohim gurkiratsin,  
Kuyib atrof, qolmasin hatto tikan!  
Omon qolgay qaysi yer, soʻng bilursen,  
«Kim zarar koʻrmay qolur, kim bevatan!» [2.16-b]

Qur'oni karimda ayni shu mazmundagi oyati karimalar ko'p uchraydi. Iymonsiz, yer yuzida buzg'unchilik qilganlarning jazosi sifatida vatanlaridan badarg'a qilinish belgilanadi. Xususan, Moida surasining 33-oyatida shunday deyiladi: *Darhaqiqat, Alloh va uning payg'ambariga jang qiladigan va Yer yuzida buzg'unchilik qilib yuruvchilarning jazosi-o'ldirilish, chormixlanish yoki, oyoq-qo'llarining qarama-qarshi tomonidan kesilishi yoxud Yer(vatan)dan quvg'in qilinishi* [3.71-b]. Ushbu oyati karimadan ham ma'lum bo'ladiki, kishilar uchun Yer yuzi-Vatan. Sababi, Alloh taolo Yer yuzini bandalariga vatan qilib beradi. Imom Muhammad G'azzoliy alayhirrohma shunday degan ekanlar: ***“Vatanning ham haqlari bo'ladi. Ularning birinchisi shu Vatanda yashaganda tinch-xotirjam, shukrona qilib yashash haqqidir. Shuningdek, Vatandan ketganda uni sog'inish, Vatan kamsitilganda g'azablanish, Vatanga hujum qilinganda uni himoya qilish ham Vatanning shu yurtda tug'ilib-o'sganlar zimmasidagi haqqidir. Shu jannatmakon Vatanda yashayapmizmi, unda tinch-totuvlik bilan yashaylik, bunga shukrona qilaylik, ilm izlabmi, tijorat maqsadidami, Vatandan safar qildikmi, uni sog'inaylik”.***

Imom al Buxoriy tomonida jamlangan “Ishonchli to'plam”da «Vatan» konsepti aks etgan quyidagi hadislar mavjud:

Abu Hurayra roziyallohu anhu rivoyat qiladilar: “Nabiy sallallohu alayhi va sallam Mening hujram birlan minbarim oralig'ida jannat bog'laridan biri joylashg'aydir, minbarim esa, Havzai Kavsar ustida bo'lg'usidir.”, dedilar”. Oisha raziyallohu anho rivoyat qiladilar: “Rasululloh sallallohu alayhi va sallam Madinaga kelganlarida Abu Bakr birlan Bilol isitmalab qolishdi. Abu Bakr isitma zo'riqqanda : “Uyimda bo'lsaydim jon chiqar mahal,poyabzal ipidan yaqindir ajal”,- der edilar.” Bilol ersa , isitma biroz pasayganda, yig'lab:

“Taqdirim ne erur, bilmasman, e voh,”

Boshingga ajaldin kelrumi sipoh?

Bir kecha bo'lsa ham ona vodiyim,

Qo'ynida yotsaydim, mehribon Olloh!

Qonib ichsam edi shaffof suvlarin,

Qaniydi, tashlasam, unga bir nigoh!”-

Der erdilar [4.373-b].

Boshqa bir hadisi sharifda esa shunday naql qilinadi:

Oisha raziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “...Ibn Dag'ina bir qo'shni qabila vakili sifatida Abu Bakrga: “Men qavmingizning sizga aziyat yetkazmog'iga qo'yman!”- Ortga qaytingiz parvardigoringizga o'z yurtigingizda (ya'ni Makkada)ibodat qilingiz,- dedi. Shundan so'ng Abu Bakr roziyallohu anhu ortlariga qaytdilar, ibn ad Dag'ina ham ul kishi bilan birga ketdi.(Makkaga yetib borishgach)



ibn ad Dag'ina kechki payt Quraysh qabilasi ulug'lari huzuriga kirdi-da, ularga: "Yurtdoshlariga ko'plab manfaat yetkazib turguvchi Abu Bakrdek (bir solih odam, agar o'ta zarur bo'lmasa, boshqa yurtda yashamoq niyatida o'zboshimchalik birlan yurtini)tashlab ketmasligi hamda(bunday ishni biror kishi)majburan yurtidan chiqarib yubormasligi kerakligini aytdi"[5.420-b].

Ko'rinidaki, muqaddas diniy manbalarda Vatan Mo'min-inson uchun eng muqaddas zamin – Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning qadamlari tekkan, Qur'oni Karim nozil bo'lgan, dinimiz ilk bor tarqalgan muqaddas dargoh, Ka'bai muazzama joylashgan Makkai Mukarrama joylashgan Madinai Munavvara, shuningdek, butun Yer yuzi vatan sifatida ham tasniflanadi [6].

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan adabiyot darsligida al-Buxoriy hadislaridan namunalar keltiriladi. Ularda asosan, ota-onaga hurmat, qarindoshlarga oqibatli bo'lmoqlik, yetimlarga g'amxo'rlik qilish masalalariga oid hadislar o'rin olgan. Boshlang'ich ta'limdan yuqori bosqichga o'tayotgan o'quvchi ongida voqe'liklarni aql prizmasida o'tkazish, mushohada yuritishga intilish seziladi. Bu jarayonda u endi shakllanish bosqichida ekanligini inobatga olgan holda, Vatan, yurt va uning muqaddasligi, undan judo bo'lish, yoki unga xiyonat qilish eng og'ir gunohlardan biri ekanligini hadisi shariflar orqali bayon qilinishi lozim deb o'ylaymiz. Sababi kishi vatansiz mavjud emas. Hadisi shariflar Qur'oni karimdan keyingi o'rinda turuvchi muqaddas diniy manba sifatida o'quvchilar qalbi va ruhiyatiga singdirish, his qildirishning asosiy vositalaridan biridir.

## **XULOSA**

Biz yuqorida jahonda konsept masalasi o'rganilish chog'ida Xudo konseptiga urg'u berilganligi ta'kidlab o'tgan edik. Shunday tipdagi tezis va maqolalarda turli diniy e'tiqodlar va qarama -qarshiliklar bo'lishiga qaramasdan, har bir diniy e'tiqod zamirida komil insonni tarbiyalash g'oyasi ilgari suriladi degan fikrni uchratish mumkin [7]. Mamlakatimizda e'tiqod erkinligi qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra, har bir kishi istagan dinga e'tiqod qilishi, yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmasligi mumkin. Biz yuqorida aytgan fikrlarimiz va ilgari surgan g'oyalarimiz bilan muayyan dinni targ'ib qilish, birini ikkinchisidan ustun qo'yish fikridan yiroqmiz. Maqsadimiz ta'lim tizimida o'quvchilarning qalbini nurga, ilm-ma'rifatga to'ldirishda hadisi shariflarning roli va ahamiyati ko'rsatishdan iboat. Yuqoridagi oyati karimalar va hadisi shariflardan ham ma'lum bo'ladiki, Yer yuzi odam deb atalmish mavjudotga yagona vatan qilib beilgan, Demakki, vatanda buzg'unchilik qilish gunohi azimlardan biri. Agar o'qovchilar ana shu ezgu fikrni qalblariga joylab olsa, kelgusida Yer yuzining turli chekkalarida yashovchi kishilarga vatandosh

birodari sifatida qaraydi. Bu esa, o'z navbatida, insoniyat boshiga katta talafotlarni olib keluvchi qirg'inbarot urushlarning oldini olishga yordam beradi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)**

1. Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolar tarjimasini. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com). 2007.15-b.
2. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-jome' as-sahih, T.: Qomuslar bosh tahririyati. 1997.16-b.
3. Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolar tarjimasini. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com). 2007.71-b.
4. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-jome' as-sahih, 1-jild. T.: Qomuslar bosh tahririyati. 1997.373-b.
5. Qur'oni karim va hadisi shariflar bilan bog'liq izoh va sharxlar Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani, Pangat qishlog'I G'oyib ota jome' masjidida imom-xatibi domla To'xtayev Sobir Boytemirovich bilan suhbat asosida olindi.
6. Muhiddinov M.Q. Komil inson – adabiyot ideali. Toshkent: Ma'naviyat. 2005
7. Bu haqda qarang. [Stanford Encyclopedia of Philosophy](http://Stanford Encyclopedia of Philosophy). Concepts of God. first published-2006, last published-2012

## **“ALPOMISH” DOSTONINI O‘QITISHDA TALABALARNI FAOLLASHTIRISH YO‘LLARI**

**Azimova Gulmira Nizomjon qizi**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,

Filologiya fakulteti: filologiya va tillarni o‘qitish(o‘zbek tili) 4-kurs talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri: shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta’lim jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o‘quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi. Ushbu maqolamizda o‘quvchilarga “Alpomish” dostonini o‘qitishda “Sharhlab o‘qitish” usulining samaradorligi haqida fikr-mulohazalar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** doston, interaktiv metod, zamonaviy texnologiya, arxaik so‘zlar, tarixiy so‘zlar, dialektizm, arab-fors so‘zlar, lingvistik sharh, tarixiy-milliy sharh.

## **WAYS TO ACTIVATE STUDENTS IN TEACHING THE EPIC “ALPOMISH”**

### **ABSTRACT**

*Today, the interest and attention to use of interactive methods, innovative technologies, pedagogical and information technologies in the educational process is growing day by day.*

*The main reason is that, until now in traditional education the students were taught ready-made knowledge, modern technologies teach them to search acquired knowledge by themselves, to study and analyze it independently, and even to draw their own conclusions.*

*The teacher creates conditions to improve, form, learn, upbringing individually in this process, and at the same time, performs the functions of management and guidance.*

*The student becomes the main figure in the education process. Pedagogic technologies and the pedagogical skills, experience, interaktive methods provide the students will be well-educated, sufficient qualiflicated. In this article, students are given feedback on the effectiveness of the "Interpretive Teaching" method in learning the "Alpomish" epic.*

**Key words:** *Epic, interaktive method, modern technologies, archaic words, historic words, dialecticism, arabic-Persian words, lingvistic review, historic-national review.*

## **KIRISH**

O‘qituvchi doston kompozitsiyasi haqida umumiy tushuncha berar ekan, eng avvalo, sa’j san’ati haqida ma’lumot berishi lozim. Sa’j xalq dostonlarida muhim epik komponent bo‘lib, nasriy bayonni qofiyalangan holda, ma’lum vaznlarga solingan tarzda aytilishidir. Bu san’at dostonning nasriy kirish qismida, qahramonlar portreti, tabiat tasviri va xotimada keng qodlaniladi. O‘qituvchi nazariy fikrlarni aytgach, sa’j san’ati bilan bog‘liq dostonda qo‘llaniladigan an’anaviy zachinni o‘qib bergani ma’qul: “Biylarning ko‘nglini xushlamadi, otini ushlamadi, ostiga libos tashlamadi [1.8-b] yoki “Xaloyiqlar ham ko‘rdi: tarzi gul yuzli, shirin so‘zli, bir siyosatli kishi qalandar bo‘lib kelayotir”, “Toychi viloyatinda, Qalmoq muzofotinda bir Surxayl degan Kampir bor edi”.

Dostonda qofiya bilan kelgan so‘zlar ajratib ko‘rsatiladi va talabalarga nasriy qofiyaning o‘ziga xos xususiyatlari haqida tushuncha beradi. O‘qituvchi “Alpomish” dostonining kompozitsiyasini talabalarga o‘qitishda, avvalo, ularni doston sujeti bilan qiziqtirishi hamda ularda doston haqida umumiy tasavvur uyg‘otishi lozim. So‘ngra dostonning baxshilar tomonidan kuylangan variantlarini qo‘yib berish orqali ularning diqqatini yanada ko‘proq darsga jalb qilish imkoni paydo bo‘ladi. Shu orqali o‘qituvchi dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan o‘rinli foydalanishi mumkin.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

“Alpomish” dostonining matni ustida ishlashda o‘qituvchi doston yaratilgan davr tili va bugungi adabiy til o‘rtasida farq borligini talabalarga tushuntirmog‘i lozim. Shuning uchun, o‘qituvchi darslikda berilgan “Alpomish” dostonining matnini talabalarga o‘qish uchun vazifa qilib berar ekan, o‘zlari uchun notanish bo‘lgan so‘zlarning ro‘yxatini tuzib kelishni topshiriq qilib beradi. Tabiiy ravishda o‘qituvchining o‘zi ham doston matni uchun alohida lug‘at tuzib olishi maqsadga muvofiqdir. Bu lug‘at “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” yoki “Alpomish” dostonining izohli lug‘ati”[2.15-b] asosida tuziladi. Bundan tashqari, 9-sinf adabiyot darsligida berilgan dostonidagi so‘zlarning izohli lug‘ati ham dars jarayonida o‘qituvchiga asosiy dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi[3].

“Alpomish” dostonining matni ustida ishlash o‘qituvchidan katta mas’uliyatni talab qiladi. Chunki, o‘qituvchi birgina shu doston misolida butun o‘zbek xalq dostonchiligi, uning mazmun-mohiyati, badiiy adabiyotda tutgan o‘rni, xalqimiz ma’naviyatiga ta’siri, talabalarning komil inson bo‘lib yetishishlaridagi ulkan vazifasi, bir so‘z bilan aytganda, dostonchilikka xos bo‘lgan badiiy estetik funksiyasi haqida ma’lumot bermog‘i lozim.

Qalmoq elida talash bo‘layotgan yori haqidagi xabarni eshitib, uni qutqarish uchun yo‘lga otlangan Alpomishning holati talabaning ko‘z o‘ngida namoyon bo‘lar ekan, o‘qituvchi talabalarga aynan o‘sha o‘rinlarni o‘qib, shu tasvirlar orqali qahramonning ruhiy olamini talabaga uqtirishi mumkin:

Siltab yuradi Boychibor,  
Yaqin bo‘lar uzoq yo‘llar,  
Yo‘l yurar davlatli shunqor,  
Qalmoq yurtini axtarar,  
Yolg‘iz ketdi bunda shunqor.  
Hakimbek qildi g‘ayratdi,  
Qiladi otga shiddatdi,  
Izhor cho‘lni to‘zon tutdi,  
Yo‘lning tanobini tortdi[4.82-b].

Qahramonning yo‘l taassurotlari shoir tomonidan bayon etishda she’r vaznining o‘ynoqi va yengil bo‘lishiga ahamiyat beradi. Xuddi, ot yo‘rtib yoki chopib borayotganidek, qahramonning ruhiyati ham shu kayfiyatda bo‘ladi. She’rdagi bo‘g‘inlar va turoqlar soni shunga qarab o‘zgarib boradi. Otlar chopishi, jang manzaralari, personajlarning tezkor va shiddatli harakatlari aks etgan o‘rinlar yetti-sakkiz bo‘g‘inli she’rlar bilan ifodalanadi. Biz bunday holatni barcha xalq dostonlari uchun tipologik hodisa hisoblangan qahramonning mardligi, jasurligi, botirligini namoyon qiluvchi musobaqalarda, jang lavhalarida ham ko‘rishimiz mumkin. Doston qahramonlari hamma vaqt adolat uchun, yurtning ozodligi va elning farovonligi uchun, or-nomus, iymon va din uchun jangga kiradilar. Shu sababli dostonlarda ro‘y beradigan bunday lavhalar adabiyotning boshqa janrlaridagi lavhalardan farq qilib, talabada og‘ir taassurot qoldirmaydi. Tushkun kayfiyat uyg‘onmaydi. Aksincha, talaba dostonidagi kurash va jang lavhalarini zavq-shavq bilan, qahramonga havas qilib tinglaydi yoki o‘qiydi. Shuning uchun dostonidagi ana shunday lavhalarni o‘qituvchining ohang bilan rolga kirishib o‘qib bermog‘i maqsadga muvofiqdir.

“Alpomish” dostoni xalqimizning asrlar davomida badiiy sayqal topgan adabiy merosi bo‘lishi bilan bir qatorda xalqimizning muqaddas urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini, umuminsoniy fazilatlarini mujassamlashtirgan ulkan epik obidadir.



Shuning uchun, o'qituvchi dostonidagi milliy urf-odatlar tasviri berilgan o'rinlarni aytib o'tishi, shuningdek, hozirgi kundagi urf-odatlar bilan solishtirib tushuntirishi mumkin.

Dostonda betakror an'analar, ota-bola munosabati, farzand tarbiyasi, yoshlarning ishq-muhabbatga qarashi, taqdir tadbiri, do'stlik va unga turfa xil munosabat kabi g'oyalari badiiy lavhalarda kuylangan. Dostonning didaktik ahamiyati esa mana shu voqealarga qahramonlarning munosabati, ishq-muhabbat va do'stlikni qadrlashi, farzand tarbiyalash va uni tushuna bilish, taqdirga bosh egish va ayni paytda hayot uchun kurash kabi umuminsoniy va ayni paytda sof milliy xususiyatlarda namoyon bo'ladi. O'qituvchi ushbu dostonni o'tish paytida mana shu xususiyatlarga alohida e'tibor berishi, uni hayotiy voqealar bilan qiyosiy tarzda tushuntirib bermog'i, shu yo'l bilan yosh avlodning ongi va qalbiga milliy an'ana va qadriyatlarimizga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'ota olishi kerak. Shundagina ushbu mavzuni o'tishda ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Bugungi kunda jamiyatimizda yoshlar tarbiyasi barchaning birdek diqqat-e'tiborida turgan dolzarb masalardan biridir. O'qituvchi tomonidan o'quv jarayonida yoshlarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar, zamonaviy uslublarning qo'llanishi, yoshlarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni his qilish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga va o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini, shuningdek pedagogik faoliyatga nisbatan hurmatini kuchaytiradi.

Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin takomillashib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoiti mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishiga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir[5.4-b]. Ta'lim islohotlarining zamonaviy bosqichi jamiyatda yuz berayotgan yangilanishlarning tezkorligi, ta'lim mussasalariga qo'yilayotgan yangi, yanada yuqori talablarga tezroq moslashish bilan bog'liq dolzarb vazifalarni ilgari surmoqda. Bunday sharoitlarda ta'lim muassasasini rivojlantirish va zamon talablari darajasida faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga

qaratilgan tadbirlar salmog'i uzluksiz ortib boradi. Qo'yilayotgan vazifalarning deyarli barchasi, tamoyil jihatidan, yangi talablarni keltirib chiqaradi va ularni hal qilishda jamoaning faqatgina mavjud tajriba asosida ish ko'rishi yetarli bo'lmay qoladi. Alpomish dostoni sharq xalqlarining uzoq o'tmishi tarixi, turmushi, orzu – armonlarining badiiy ifodasidir. Shu boisdan dostonning tili boy, sodda, jozibali va ravondir. Unda tushunilmaydigan so'zlar u qadar ko'p emas. Lekin bu asarda xalq donishmandligining ifodasi bo'lmish maqollar, tasviriy vositalar va mubolag'alardan keng foydalanilgan, o'zbek xalqining qadimiy urf – odatlari, an'analari go'zal badiiy vositalar bilan tasvirlangan. Agar o'qituvchi asarni sharhlash orqali o'quvchilarga ana shularni yetkazsa, ilm toliblari o'quv materialidan to'liq xabardor bo'ladilar. Tajribali o'qituvchilarning fikricha, sharhlab o'qish orqali, biror bir asar matnini izohlash jarayonida o'quvchilar notanish so'z ma'nosi bilan, ayrim so'zlarning ko'chma ma'nosi yoki bir so'zning bir necha xil ma'nolari bilan tanishadilar. Sharhlab o'qitish usuli quyidagicha amalga oshiriladi.

1. **Lingvistik sharh.** Tushunilishi qiyin so'zlar, ma'nosi notanish va noaniq so'zlar izohi. Sharhning bu turini quyidagi so'zlar qamrab oladi: arxaik so'zlar, tarixiy so'zlar, dialektizm, arab-fors so'zlari izohi. So'zlarni shu tarzda izohlash uning qaysi tilga mansubligi haqida ham ma'lumot beradi.

2. **Tarixiy – milliy sharh.** Bu xil sharhda qadimiy milliy urf – odatlar, an'analalar, udumlar bilan bog'liq bo'lgan so'zlar izohlanadi.

3. **Tarixiy – adabiy sharh.** Bunda adabiy asarlardagi tarixiy davr bilan bog'liq so'zlar izohlanadi. Bundan tashqari asarlarni sharhlashda yana quyidagi turkum so'zlar izohi bo'lishi mumkin:

- jo'g'rofik joy nomlari;
- badiiy asarlardagi tarixiy shaxslar. Ular haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar;
- xalq maqollari, iboralar va tasviriy vositalar;
- qahramonlarning ismi, tashqi qiyofasi, kiyim – boshi, buyumlari;
- son bilan ifodalangan so'z va iboralar va hakoazolalar.

Sharhlab o'qitishda dastlab o'qituvchi dostonidagi ayrim so'zlarni quyidagicha izohlaydi: muzofot – oblast, viloyat; qorsak – ayyor, tulki; alp – bahodir, polvon, qahramon; emikdosh - sut emishgan aka, opa; tal'at – yuz, bet, husn, ko'rinish, go'zallik; sadoq - o'qdon; zakot – soliq.

So'ng u:

*Ostingda irg'iydi bu arg'umoqing.*

*Egaring qoshida oltin sadoq'ing.*

*Borganda tegadi bodom qovog'ing.*

degan satrlarda qovoq *sadoqqa*, kipriklar *o'qqa* o'xshatilishini ko'rsatadi.

“Alpomish” dostonidagi izohtalab soʻzlar jumlasiga sheva bilan bogʻliq soʻzlar ham kiradi. Ular asosan Samarqand viloyatining Bulungʻur, Jomboy nohiyalari, Jizzax viloyatining Gʻallaorol, Baxmal nohiyalarida yashovchi oʻzbeklar tiliga xosdir. Ayrim oʻquvchilar bu soʻzlarning maʼnosini tushunmasliklari mumkin. Shuning uchun ularni quyidagicha sharhlash lozim: boʻymi – boʻlmasmi; joʻn oʻtirsang – jim, tek oʻtirsang; jiyarman – yigʻarman; tuyildi – tuguldi; uy dema – unday dema; chechinib – yechinib; checha – yanga, kelin – oyi; ulim – oʻgʻlim; kay – keyin; tushmas – tushunmas. “Alpomish” asarini sharhlashda oʻzbek xalqining qadimiy urf – odatlarini aks ettirgan, qurol – aslaha, soliq turlarini ifodalovchi soʻzlarga duch kelinadi. Masalan, parli yoy – uzoq masafadagi ov yoki dushmani halok qilish uchun moʻljallangan qush pati oʻrnatilgan oʻqli yoy.

*Yiqolmasang, toʻra, navbat tilayin,*

*Erkak libosini oʻzim kiyayin*

Ushbu baytda qoʻllangan **YIQOLMASANG** soʻzi adabiy tilda yiqita olmasang tarzida qoʻllanadi. Bu misrada yiqita olmasang soʻzining sheva varianti boʻlib kelgan. Misrada qoʻllangan **toʻra** soʻzi Oʻzbek tilining izohli lugʻatida quyidagicha izohlangan. 1.Toʻra – yuqori tabaqaga mansub kishi; zodagan, oqsuyak. 2.Toʻra xonlar davrida va chor Rossiyasi davrida Turkistonda katta amaldor, hokim. 3.Toʻra – hurmat yuzasidan yoki ulugʻlab, kishilarning nomiga, unvoniga, mansabiga, shuningdek, koʻchma maʼnoda baʼzi narsalarni bildiruvchi soʻzlarga qoʻshib ishlatiladigan soʻz. Bu baytda Barchinoy Alpomishga nisbatan toʻra soʻzini ishlatib, uning yuqori tabaqaga mansub kishi, zodagon oilaning vakili ekanligiga ishora qilgan.

*Qalin bergan mening qancha qoʻyim bor,*

*Oʻylasam koʻnglimda qancha vayim bor.*

Parchasida oʻzbeklarning qadimgi urf – odatlaridan biri **qalin berish** udumi oʻz aksini topgan. Dostonda oʻzbek xalqining toʻy marosimlari, udumlari mukammal bayon etilgan. Chunonchi, nikoh oʻqish marosimi, chimildiq tutish, chimildiqqa kuyov kirishidan oldin xotinlarning “kampir oʻldi”, “it irillar” rasmlari, kuyovnavkarlar oldiga qoʻy toʻshini pishirib qoʻyish, ularga sarpolar tarqatish kabi udumlar juda chiroyli tasvirlangan. Shuningdek, dostonda kelinni kigizga solib koʻtarish, “soch siypatar”, “qoʻl ushlatar”, “kuyov tovoq”, “kuyov uloq” kabi udumlar, toʻyda aytiladigan “yor – yor”lardan namunalar berilganki, ular orqali yoshlar ajdodlarimiz rasm – rusumlaridan xabardor boʻladilar. Bu urf – odat va udumlarning koʻpi hozir ham xalq orasida saqlanib qolgan. Ularga beriladigan izohlar oʻquvchilar tomonidan oʻrganilishi muhim ahamiyatga ega.

Asardagi urug‘ va elatlar nomini ifodalovchi so‘zlarni izohlash ham zarur. Jumladan, *qo‘ng‘irot* so‘zini olib qaraylik. Bu so‘zning lug‘aviy ma‘nosi qo‘ng‘ir ot, yoki ko‘ng – qo‘ng‘ir, - g‘ir esa uchar ot degani. Qo‘ng‘irot o‘zbek qabilalaridan biri bo‘lib, qabila ahli X asrdan boshlab O‘rta Osiyoga ko‘chib kelgan va turli tomonga tarqalgan. XVI – XIX asrlarda Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklarida tarqoq holda yashagan. “Alpomish” dostonida bu qabila haqida anchagina ma‘lumot berilgan. Qalmoqlar esa qadim zamonlardan Orol dengizi bo‘ylarida ko‘chmanchi bo‘lib yashaganlar va chorvachilik bilan tirikchilik qilganlar.

Biy qabilasi ham turkiy qabila bo‘lib, uning nomi urug‘ oqsoqollari nomiga biy so‘zi qo‘shib aytilishidan kelib chiqqan. Dostonda bir necha geografik nomlar ham borki, ularning ayrimlari hozir ham mavjud. Lekin ba‘zilari o‘zgarib ketgan.

Qo‘ng‘irot – Amudaryoning chap qirg‘ogida joylashgan qishloq. Shuningdek, Andijon viloyatidagi, Xorazm viloyatining Urganch, Yangiariq nohiyalariga qarashli qishloqlar nomi.

Bobotog‘ – Termiz shahrining shimoliy qismida joylashgan qishloq.

Boysun – Surxandaryo viloyatidagi tumanlardan biri.

Ashtarxon – Astraxon. Qalmoq eliga aloqador joy nomlari quyidagilar:

Qalmaqon – Shofirkon tumaniga qarashli qishloq.

Qalmoqlar – Oxunboboyev tumanidagi qishloq.

Qalmoq – Quva tumanidagi qishloq.

Qalmoqqir – Toshkent viloyatidagi joy nomlari.

Bu joy nomlarining saqlanib qolganligining boisi qalmoqlarning ko‘chmanchi bo‘lib yashaganliklari, keyinchalik o‘troq bo‘lib qolganliklaridir. Shu tufayli qalmoqlar yashagan joylar ularning nomi bilan atalgan. Dostondagi hozir saqlanmagan yoki o‘zgarib ketgan joy nomlari (jumladan, Chilbir cho‘li, Oyna ko‘li, Toychi viloyati, Asqar tog‘i kabilar) ayrim tog‘, ko‘l, viloyatning qadimiy nomi bo‘lishi yoki ular baxshilar tomonidan topib kuylanganligi ehtimoldan holi emas. Fozil baxshi kuylagan “Alpomish” dostonida tarixiy shaxslarning nomlari uchraydi. Binobarin, dostonchilikda tarixiy voqea va hodisalar bayon etilgan va aniq tarixiy shaxslar ishtirok etgan asarlar ham yaratilgan. Masalan: “To‘lg‘onoy”, “Namoz”, “Matkarim palvon”, “Jizzax qo‘zg‘oloni”, “Ochil dov” kabi dostonlar shular jumlasidandir.

Ma‘lumki og‘zaki adabiyotga xos bo‘lgan maqol, mubolag‘a va xalq iboralari dostonlarda ko‘p uchraydi. Buni “Alpomish” misolida ham ko‘rish mumkin.

#### **Maqollardan namunalar:**

*Ot chopsa gumburlar tog‘ning darasi,*

*Urushda bilinar mardning sarasi.*

*Sozandalar sozin chertar qo‘l bilan,  
Yomon odam kuydiradi til bilan.  
Kuchuk bosmas yo‘lbars – sherning izini,  
Esi bor biladi gapning tuzini.*

***Mubolag‘alardan namunalar:***

*Tikilsam quriydi daryoning guli,  
Na‘ra tortsam qo‘rg‘onning timi.  
Odam tushmas buning aytgan tiliga,  
Besh yuz quloch arqon yetmas b liga.  
Oh ursa olamni buzar tovushi,  
To‘qson molning terisidan kovushi,  
To‘qson norning go‘shiti bo‘lmas nahori,  
Har iziga ketar ancha bahori.  
Olmish qarich olachadan qalpog‘i,  
To‘qson qo‘yning terisidan telpagi,  
To‘rt yuz to‘qson quloch qo‘lda hassasi,  
Sarhavuzday katta edi kosasi.*

Shuningdek, asarda “bu elda sel bo‘ldi mening ko‘z yoshim”, “guldayin tanam”, “achchig‘ing chillali muzlagan qishday”, “jamoling o‘xshaydi osmonda oyga”, “qarchig‘ay changalli” kabi obrazli iboralar ko‘plab uchraydi.

Agar dars jarayonida bu xil maqol, mubolag‘a va orazli iboralar sharhlab berilsa, dostonning g‘oyaviy mazmuni oydinlashadi. Bu bilan o‘quvchilarni tilimiz boyligi va go‘zalligiga oshno qilgan bo‘lamiz. Dostonda qahramonlarning tashqi qiyofasi mohirona aks ettirilgan. Barchinning go‘zalligi “ gul yuzli dilbar”, “Barchin suluv”, “aqling olur jodu ko‘zi”, “zulfakdor”, “gajakdor” kabi o‘xshatishlar bilan tasvirlanadi. Alpomishning tashqi ko‘rinishi esa alp Rustamdek bahodir, Yusufdek tal‘atli, “Aslim sherman, o‘zim yo‘lbars izlayman” tarzida bayon qilinadi. Shuningdek, dostonda to‘qson qalmoq alpi “to‘qson molning terisidan kovushi”, “to‘qson norning go‘shiti bo‘lmas nahori”, “olmish qarich olachadan qalpog‘i” kabi mubolag‘ali o‘xshatishlar orqali tasvirlanadi.

Doston sinchiklab o‘qilsa, o‘zbek xalqi milliy kiyim – kechak va matolarning nomlari o‘quvchi e‘tiborini o‘ziga tortadi: chakman – ustki kiyim turi; chopon – paxtalik to‘n; taqya – bosh kiyim; qalpoq – bosh kiyim; tumog‘i – bosh kiyim; adras – matoning nomi; kimxob – matoning nomi; kovushim – kalishim; kavush – oyoq kiyimi; choriq – oyoq kiyimining bir turi.



O‘qituvchi bu so‘zlarni izohlab bersa, o‘tmish ajdodlarimiz kiygan va ishlatgan kiyim – kechak va matolar o‘quvchilar ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ladi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)**

1. Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf uchun darslik, 1- qism. - Toshkent. 2014-yil, 8-bet.
2. Mirzayev T., Jabbor Eshonqul, Selami Fidokor. "Alpomish" dostonining izohli lug‘ati. - Toshkent: Elmus-Press-media, 2007.15-bet.
3. Muhiddinov M.Q. Komil inson – adabiyot ideali. Toshkent: Ma’naviyat. 2005
4. Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf uchun darslik, 1-qism. - Toshkent. 2014-yil.
5. Mirzayev T., Zaripov H. - Alpomish. Toshkent: O‘zbekiston, 1992-yil. 82-b.
6. Ишмухамедов Р.,Юлдошев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар.–Т.: «Ниҳол» нашриёти,2013-йил, 4-бет.

## **BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING MEDIAMADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI**

**Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi**

Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi kafedrası mudiri,  
pedagogika bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

[kabrorxonovna@mail.ru](mailto:kabrorxonovna@mail.ru).

Tel: +998933052904

**Bo‘riyeva Shaxnoza Inat qizi**

Nizomiy nomidagi TDPU talabasi  
[buriyevashaxnoza076@gmail.com](mailto:buriyevashaxnoza076@gmail.com)

Tel:+998993784636

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada o‘quvchilar o‘rtasida mediamuhitni hamda mediamadaniyatini shakllantirishning psixologik imkoniyatlari, bugungi jamiyatda kichik maktab yoshidan boshlab bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirishning dolzarbligi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodkorlik faoliyatiga o‘rgatishning psixologik imkoniyatlari va ahamiyati, zamonaviy ta‘lim yondashuvlari asosida o‘quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish samaradorligi haqida bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** pedagogika, psixologiya, o‘quv jarayoni, o‘qituvchi, o‘quv faoliyati, psixologik xususiyat, psixologik imkoniyat.

### **KIRISH**

Yoshlarni erkin fikrlovchi, yangilikka intiluvchi va barkamol inson qilib tarbiyalash boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan olib boriladi, bu jarayon muhim vazifalardan biridir. Shu sababdan ham ta‘lim mazmuni tubdan yangilanib borilmoqda. Kichik maktab yoshi davrida bolada mustaqil ta‘lim olish motivlari yuzaga kelib, ular eng oddiy shaklda - bilimlarni olish bilan birgalikda qo‘shimcha manbalarga va turli mavzulardagi kitoblarni o‘qishga qiziqishi bilan yuzaga keladi. **Ta‘lim** – o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma‘lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya‘ni o‘zlashtirilayotgan ma‘lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning dars

paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish bilim, ko'nikma va malakalarini hosil qilish, tanqidiy fikrlash va kreativ fikrlash, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, axborot savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi kunda o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali o'qituvchilar turli didaktik o'yinlardan foydalanishmoqda.

**Interfaol metod-** biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqot yoki bahs-munozarali fikrlash asnosida, hamjixatlik bilan hal etishdir. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati ta'sir ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Interfaollik bu - o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni, bundan o'quv- biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'qituvchi-o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida olib boriladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi-o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratish bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda birona ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Bola jamiyatning a'zosi, mukammal shaxs sifatida muayyan ijtimoiy muhitda kamol topar ekan, uning butun bilish jarayonlari, o'ziga xos xususiyatlari va ruhiy holatlari, ongi rivojlanadi. Kuzatishlar asosida ko'pdan-ko'p taassurotlar olib, eshitib, o'qib xotirada ancha yorqin saqlab qolishga harakat qiladi.

**Xotira** - xuddi hissiyot kabi badiiy ijodning reproduktiv kuchi hisoblanib, u o'z navbatida o'zida eng zaruriy psixik jarayonni - odamning o'tgan tajribasini namoyon etadi. Jumladan, yodga olish, yodda saqlash va so'ngra shunday narsa yaratiladiki, uni o'tmish tajriba mazmuni bilan bog'lamasdan hotiraning aralashuvisiz borliqni, jumladan, badiiylikni ham idroq etib bo'lmaydi.

**Iroda-** ijod kuchining samarasini belgilovchi, ijod uchun eng zaruriy psixik jarayonlardan biri hisoblanadi. Iroda mehnat faoliyatining asosiy turi sifatida amalga oshsada, lekin mehnatning samarasi irodaviy xususiyatlarning namoyon bo'lishiga bog'liq.

**Tafakkur** - ijodiy faoliyatning mukammallashtiruvchi kuchlaridan biri bo‘lib, borliq materiallari haqida fikrlashda, tahlil qilishda idrok, sezgi, hissiyot va esda qoldirishda asosiy rol o‘ynaydi.

**Kreativlik** - tushunchasi (lot., ing. "create"-yaratish, "creative"-yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod ma'nosini anglatadi. Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning muhokamasi ularning egallagan bilimlari evaziga, anglashilganlik xususiyatining mavjudligidan oddiy shakldan asta-sekin murakkab shaklga o'sib o'tadi. Sistemali bilimlarni egallashga o'quvchi tomonidan qiziqish uyg'onishi har qanday qiyinchiliklarni yengishga yetaklaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim doirasi kengaya borgan sari, ta'lim sub'ektlari fikrlashi qat'iy hukmlardan taxminiy hukmlarga ko'cha boshlaydilar, chunki, ular narsa va hodisalarning, xususiyat, qonuniyat va xossalarning turli jihatlarga ega ekanligini, voqelik atigi bir harakatdan, bir sababdan kelib chiqmasdan, balki ko'plab sabablar, ta'sirlar, qo'zg'ovchilar natijasida paydo bo'lishini anglab olish bosqichiga ko'tariladi. Ushbu davrda o'qituvchi tomonidan mediamadaniyatni rivojlantirish muhim omil hisoblanadi. 7-10 yoshda bolaning farqlash hissi juda faol bo'lgani bois, unga to'g'ri axborotlarni berishni nazorat qilmoq lozim. Chunki shu yoshda axborotni anglash qobiliyati shakllana boshlaydi. Ushbu yoshdagi boshlang'ich sinf o'quvchilari hisoblanib endigina o'qishni o'rgangan, qaysi saytga kirgani va qanday muammolarga duch kelishi mumkinligini oxirigacha tushunib yetmaydilar. Multfilm va rang-barangligi bilan jalb qiluvchi o'yinlarga qiziqish bo'lgani bois, bolalar ko'p hollarda shu kabi axborotlarni izlashadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining internetdan foydalanishini ota-ona o'qituvchi yoki kattalar tomonidan doimo nazorat qilinishi zarur. O'quvchi o'zi eshitgan narsalarini, voqelik to'g'risidagi ma'lumotlarni to'g'ri tushuna oladi, o'zida mavjud bo'lgan axborotlarni (taassurotlarni) muayyan tartib bilan bayon qila biladi, aqliy faoliyat operatsiyalaridan (narsalarni taqqoslaydi, yaqqollashtiradi, guruhlariga ajratadi, hukm chiqaradi) o'rinli foydalanadi.

Boshlang'ich sinfda axborot texnologiyalari asosida o'quv jarayonlarini tashkil etish o'quvchilarning kognitiv psixologiya sohasini faollashtirishga, ta'lim materiallarini muvaffaqiyatli o'rganish va aqliy rivojlanishiga xissa qo'shishi kerakligini yodda tutish kerak. Innovatsion va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiiq qilishni zamonaviy axborot dunyosini rivojlanishidagi mantiqiy va

zaruriy qadam deb atash mumkun. Bola axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ma'lum bir o'quv fuksiyasini bajarishi eslab qolishiga yordam berishi kerak. Shu bilan bir qatorda axborot xavfsizligi bo'yicha o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga oddiy va tushunarli tarzda yetkazish kerak.

Sir emaski, yurtimiz taraqqiyotida texnologiya, yosh avlodni kreativ qobiliyatini rivojlantirish, mediamadaniyatni rivojlantirish. Dars jarayonida ijodiy yondashish borasida o'zgarishlar borgan sari globallashib, uning boshqaruvchisidan yuksak mahorat egasi bo'lishni talab etmoqda. Shu sababli ko'pgina davlat hujjatlarida, shuningdek, Konstitutsiyamizning 2- bo'lim, XI bob, 42-moddasida ham ijod erkinligi xususida shunday imkoniyatlar keltirilgan: "Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi." Ta'lim tizimida ham uning dasturlari, mazmuni, standartlari takomillashib bormoqda. Bunday tezkor o'zgarishlar bilim olishning yangi texnologiyalari, masofaviy, loyihalangan ta'lim, zamonaviy ta'limda kredit tizimi, media ta'limini, yani shaxsiy ijodkorlikka asoslangan ta'limni joriy qilish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar ta'lim jarayonida qator ilmiy tushunchalarni o'zlashtirib olsalarda, lekin o'tgan darslarda o'zlashtirilgan turli belgilarni qorishtirib, chalkashtirib yuboradilar. Chunki, bu yoshdagi o'quvchilarda tushunchalar tarkibiga kiruvchi narsa va hodisalar bilan, ularning belgi hamda alomatlari o'rtasida uzviy bog'lanish tarkib topmagan bo'ladi. Shuningdek, ular ilmiy tushuncha bilan turmushda iste'mol qilinadigan noilmiy (mahalliy) tushunchalar o'rtasidagi o'xshashlik va farqni to'la ajratib ololmaydilar. O'quvchilarga qulay zamonaviy va yetarli darajada tushuntirib berish uchun dars mavzusiga oid multemidiya, animatsiya, grafika, diafilm va vidiofilmlardan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli bo'lishiga ko'mak beradi. O'quv mashg'ulotlari davomida pedagogik jarayon o'z navbatida, o'qituvchi darsni zamonaviy tashkil etishi, takomillashtirishi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, axborotlarni to'g'ri va asosli qidirib ularni tahlil qilishi o'quvchilarni muammoli vaziyatlardan chiqishga asosiysi xulosa qilishni o'rgatadi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning nazariy, ijodiy va reflektiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir etadi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki zamon talablariga mos keluvchi, ma'nan yetuk, intellektual rivojlangan kadrlarni tayyorlash uchun o'qituvchi muammoning yechimiga, o'quv materialini o'rgatishga ijodiy yondashishi shart. Ularga mashg'ulotlar mazmuni, o'ziga xosligi, elastikligi, innovatsion mohiyatga egaligi, shaxsga yo'naltirilganligi, ijodiy potentsiali, shaxsning kreativ rivojlanishi



uchun istiqbolni belgilashi kabilarni singdirish lozim. Buning uchun mashg'ulotlar mazmuni chuqur, jozibador, esda qoladigan va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib darsning qiziqarli tashkil etish muhim hisoblanadi. Mediamadaniyatni oshirish boshlang'ich sinf o'quvchilarining, turli bemani o'yinlar shunga o'xshash saytlardan bilib bilmay kirib qolishlaridan saqlashga yordam beradi. O'zining kimligini, o'zligini bilgan inson ota-ona, ona vatan, vatanparvarlik degan muqaddas qadriyatlarning tub mohiyatini anglashga qodir bo'ladi deb o'ylayman.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Ontogenez psixologiyasi O'quv qo'llanma E.G'oziyev Toshkent "NIF MSH" 2020
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: "O'zbekiston", 2012. 39 b, 10-bet
3. Arapbayeva D.K., Norqulova N.T., Rustamova M.M. "Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari". T.: "Navro'z 2017-y.
4. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
5. Расулова З. (2021). Замонавий ахборот-коммуникация технологиялари ўқув жараёнларини ривожлантиришнинг муҳим омили сифатида. *Science and Education*. Vol. 2, Issue 10, 349-359 бетлар.
6. Dilova N.G. (2021). Ajdodlarimiz merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarga ta'lim-tarbiya berishning ahamiyati. *Science and Education*. Vol. 2, Issue 10, 515-523 betlar.
7. Дилова Н.Г. (2021). Педагогик ҳамкорлик жараёнининг мазмуни ва уни ташкил этиш тамойиллари. *Science and Education*. Vol. 2, Issue 10, 547-557 бетлар. 27. Расулова З. (2021). П
8. Ochilova G. Pedagogik mahorat asoslari. Ma'ruzalar matni. – Toshkent, TDIU, 2012.
9. Sayidahmedov N. "Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya". – T.: 2003.
10. Tolipov O'Q., Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot". – T.: "Fan", 2005.
11. Xoliqov A. "Pedagogik mahorat" Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2011 y

## **IMPORTANCE OF EDUCATION LITERATURE IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING**

**Gataulina Gulnara Aliaskarovna**

Senior lecturer, Tashkent State Technical University

### **ABSTRACT**

*In this article, information is provided about teaching a foreign language, how textbooks serve as a basis for many language information that students receive and language practices that occur in practical classes. They can provide a basis for ideas and learning activities, and provide teachers with a rationale for what they should do. The purpose of this analysis is to find out how well the textbook meets the requirements of a good Foreign language textbook.*

**Keywords:** *Textbook, Foreign languages, information, result, teaching, student, language, method, education.*

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada xorijiy tilni o'qitish, darsliklar o'quvchilar qabul qiladigan ko'plab til ma'lumotlari va amaliy mashg'ulotlarda sodir bo'ladigan til amaliyotlari uchun asos bo'lib xizmat qilishi xaqida malumotlar berilgan. Ular g'oyalar va ta'lim faoliyati uchun asos bo'lishi mumkin, shuningdek, o'qituvchilarga bajarishi lozim bo'lgan ishlar uchun mantiqiy asoslar beradi. Ushbu tahlilning maqsadi darslik yaxshi ingliz tili darsligi talablariga qanchalik javob berishini bilishdir.*

**Kalit so'zlar:** *Darslik, xorijiy tili, ma'lumot, natija, o'qitish, talaba, til, metod, ta'lim.*

### **INTRODUCTION**

One of the most important methodological categories requiring close attention is the content of education. Interest in this category is due to the fact that the education content itself depends on the requests of society, which constantly changing, entail its change. The answer to the question: What to teach? Depends "from dominant ideas that should be a person who should know and be able to comply with these ideas." Traditionally, the context of the structure and content of language education are textbooks and training aids that are presented in a wide variety. The purpose of this study is to study the significance, importance and necessity of assessment in foreign language teaching. This study was conducted using the method of problem-based learning. As a result of the research, the importance of assessment in foreign language teaching was studied. During the research, the importance of evaluating the textbook for both the student and the teacher was considered. The information, conclusions and results presented in this article can be used in scientific works, books,

textbooks. Emphasis is placed on the vocational orientation of the content of university textbooks, the review of textbook content is interesting, and in terms of cross-cultural focus, studies on expert evaluation of textbooks have a special place.

## **MATERIALS AND METHODS**

The purpose of our study is a description of the main parameters that could form the basis for the construction of modern foreign language textbooks that implement the personality-developing content of continuous language education. In this regard, we note that the parameters and criteria for estimating textbooks in pedagogy and the methodology are so diverse that in order to study our study seems appropriate not only to review available points of view, but also to analyze them, which is largely intended to determine the initial positions in achieving goals.

## **RESULTS AND DISCUSSION**

An analysis of the literature showed that the textbook was reviewed from the point of view of the development of the methodological preparation of a foreign language teacher in the training system of foreign and foreign languages, a description of the content in the context of the development of language skills and speech skills was presented, electronic textbooks were considered. Particular attention is paid to the professional orientation of the content of the university tutorial, it is interesting to consider the content of the textbook and from the standpoint of intercultural focus, research on expert assessment of textbooks occupies a special niche. All these studies make it possible to determine the main characteristics of the textbook of a foreign language, which can be attributed to: - a holistic (system and conceptual) representation of substantive content in the required volume; - the focus on the coordination of the activities of the teacher and students, management of the learning process and assimilation; - the possibility of obtaining the necessary knowledge and developing the necessary skills and skills, experience of independent creative activity; - the ability to adapt to the actual conditions of the educational process;

- the ability to create multidimensional incentives for the implementation of the real activity;

- Intercultural orientation. It is worth noting that, despite the apparent evidence, it is rather difficult to determine the parameters and criteria for analysis, since most of what is found in the literature cannot be considered unambiguously reliable.

The textbook should ask the opportunities for the formation of individual self-development programs of the student, should include possible individually caused options for learning, the formation of skills and skills necessary for intercultural communication. In this regard, it is necessary to allocate the main parameters for

which an analysis of a textbook of a foreign language in the context of the implementation of the personality-developing content of continuous language education will be possible. All parameters can be divided into two main groups: a) from the position of the structure of the textbook that implements the personality-developing content of language education and b) from the position of the organization of the personality-developing content of language education. A separate group will be parameters associated with the specifics of the "Foreign Language" subject to the subject. So, consider the first group of parameters - the parameters from the position of the structure of the textbook that implements the personality-developing content of language education.

The key in the context of our reasoning is a parameter for the purpose of the textbook, manifested a) in general orientation on the purpose of learning a foreign language in accordance with the level of education b) from the point of view of implementing personal goaling - in this case, the evaluation criterion will be the availability of an opportunity for a learner independently determine for The final and interim targets and the tasks of mastering the content of language education (for example, the presence of descriptors, which determine the general requirements for the results of the development of the content). The following parameter is the personal orientation of the content of the textbook associated with the help of the personality development of the student in relation to the course studied. " The criteria for assessing personal orientation are a) accounting for individual and age features, needs and motives; b) support for intellectual opportunities and level of training; c) Personal (from the standpoint of learning) significance of the educational material. Another important parameter is the possibility of choosing an individual educational trajectory, because the studying "There may be a personal point of view on the content of the subject studying" (in our case, this is a foreign language).

**The evaluation criteria in this case are:**

a) redundancy of the content of language education or the presence of invariant (mandatory) topics for studying and unfilled blocks whose specification is the prerogative of students to meet personal educational needs. At the same time, as S.A.Mikheev, notes so that the excess of scientific information becomes dignity, it is necessary to take into account the volume and nature of the material, the degree of relevance and accessibility for this age category of students, the availability of training time for its study, etc.

b) the presence of means of mastering the learning methods of independent creative, cognitive and organizational activities, for example, the inclusion in the textbook a variety of iconic means and models that ensure identification, processing

and coagulation of the necessary information. In this case, the textbook will not be a "student's potential limiter", and will give it an opportunity to develop. The following parameter is to provide a textbook productivity of learning, in which the main reference point is the "personal educational increment of a studying, developing from its internal and external educational products of training activities."

Evaluation criteria are

a) the presence of such educational situations in which the study itself performs the necessary actions, makes creative activities, takes its own decisions - it is necessary to have such a content that does not allow to "swim within", and becomes complicated by tasks, training situations requiring independent decisions;

b) the availability of an opportunity for the implementation of educational reflection necessary in order for the process of mastering the personal-developing content of language education constantly realized, was monitored and evaluated by students (for example, the presence of estimated tables for (self) estimate) or "competency descriptors, masterful or improved on A certain segment of the learning process that is modeled in the textbook "

c) The manufacturability of the content in which effective independent work of students with the proposed material is possible, the availability and transparency of the landmarks that organize their actions (the availability of a system of references and prompts in the form of applications necessary for the formation of curriculum, the availability of a source list that allows expanding the horizons of students).

## **CONCLUSION**

So, completing the consideration of the key positions of the assessment of the modern textbook of a foreign language in the context of the implementation of the personality-developing content of modern language education, it can be noted that today the market is oversaturated with textbooks and, unfortunately, the teacher, despite the existence of the federal list, is still difficult to deal with. That is why the problem of choice remains quite acute. There is still a need for a teacher with clear criteria, which he could be guided by choosing a textbook on a foreign language, focusing on specific goals and objectives, and most importantly, the personality of the studying.

## **REFERENCES**

1. Berdichevsky, A. L. Methodology of intercultural foreign language education in the university: studies. Allowance / A. L. Berdichevsky, I. A. Giniatulin, E.G. Tarey. M.: Flint, 2019. 368 p.
2. Elizarova, G. V. Culture and training in foreign languages. St. Petersburg: Karo, 2005. 352 p. Kraevsky, V.V. Fundamentals of training. Didactics and technique:



studies. Manual for studies Higher. studies. Institutions / V. V. Kraevsky, A. V. Khututor. M.: Publishing Center "Academy", 2007. P.352

3. Lyubimov, L. L. What prevents our country to improve the quality of school education // Education issues 2011. № 4. S. 11-26.

4. Mikheeva, S. A. System of formalized criteria for assessing a school textbook //Education issues. 2015. №4. Pp. 147-183.

5. Abdullayeva, Markhabo. "THE APPEARANCE OF THE TERM "EDUCATION DICTIONARY" IN WORLD LINGUISTICS IS ANALYZED." (2022).

6. Trev, B.V. Textbook on business English as a means of forming intercultural professional competence // Bulletin BSU. 2010. №15.

7. Tareva, E.G., Schepilova, A.V., Tarev B.V. (2017). Intercultural content of a foreign language textbooks: concept, texts, practices. Xlinguae. 10 (3): 246-255. (in english)

8. Yakushev, M. V. (2014). Typological features of the textbook as a type of educational publication. Series: Humanities and Social Sciences. No. 4: 308-314.

9. Saidakbarova Saodat Parkhadjanovna. ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ЛИНГВОМАДАНИЯТИДА ГАСТРОНОМИК ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАР // Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti: 2021

10. Parhadjanovna S. S. English and uzbek meat idioms reflected by culture and history //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 5. – С. 832-836.

11. Abbasovna, S. M. (2023). Professional Competence of Teachers and its Formation. Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences, 2(4), 52–55. Retrieved from <https://procedia.online/index.php/philosophy/article/view/523>

12. Saodat, S. (2021). THE BENEFITS OF USING CRITICAL INCIDENTS IN TEACHING LANGUAGES. In *Conference. PERSPECTIVES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL EXPERIENCE IN FOREIGN LANGUAGES TEACHING* (Vol. 11, pp. 86-89).

## **FAN VA TA'LIM RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI**

**Shermatova Xilola Mirzayevna,**

FarDU katta o'qituvchisi

**Maxammadjonov Jaxongir,**

FarDU talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada fan va ta'lim rivojlanishining psixologiyada o'rni, ta'lim tizimining texnologik tomonini o'rganib chiqildi fan va ta'lim rivojlanishi haqida ma'lumot keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** yo'naltirganlik, ta'limni insonparvarlashtirish, individuallashtirish, demokratlashtirish, yaxlitlik, tendentsiya, standartlashtirish, parameter.

### **ABSTRACT**

*This article examined the role of the development of Science and education in psychology, the technological side of my educational system and provides information about the development of Science and education.*

**Keywords:** orientation, humanization of Education, individualization, democratization, integrity, trend, standardization, parameter.

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматривается роль развития науки и образования в психологии, технологическая сторона моей системы образования представлена информация о развитии науки и образования.*

**Ключевые слова:** ориентация, гуманизация образования, индивидуализация, демократизация, целостность, тенденция, стандартизация, параметризация.

### **KIRISH**

Zamonaviy jamiyatdagi ta'lim tizimi mamlakatda inson rivojlanishi uchun xizmat qilishi kerak. Buni amalga oshirish uchun, bizning fikrimizcha, quyidagi dolzarb muammolarni hal qilish kerak:

[1]. Ta'limning amaliy yo'naltirilganligini kuchaytirish, o'quv dasturlariga amaliy fanlarni ko'proq kiritish, o'quv jarayoniga amaliyotchi o'qituvchilarni ko'proq jalb etish, bu esa ta'limning amaliyotga yo'naltirilganligini kuchaytirish imkonini beradi.

[2]. Ta'lim tizimining texnologik tomonini imkon qadar saqlab qolish va rivojlantirish. Bu innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish uchun mahalliy ilmiy-

texnika ishlanmalarini jihozlash va ulardan foydalanish muammosini hal qilishga yo'naltirilganligini anglatadi.

[3]. Ijodkorlikni har tomonlama ochib, maktab bitiruvchilarining qiziqishi va faolligini qo'llab-quvvatlagan holda, abituriyentlar uchun oliy o'quv yurtlari tomonidan tayyorlangan imtihon bazasini yaratish yo'li bilan imtihon asosida talabalar bilimini xolis yakuniy baholashning boshqa shakllarini rivojlantirish.

[4]. Ta'lim muassasalari infratuzilmasini rivojlantirish va mehnatga haq to'lash uchun davlat byudjetidan qo'shimcha moliyaviy mablag'lar ajratilsin. Jumladan, tegishli mutaxassislik va ta'lim yo'nalishi bo'yicha professor-o'qituvchilar yaxshi maosh bilan rag'batlantirilsin.

[5]. Tarkibiy ishsizlik muammolarini hal qilish uchun kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash muassasalari infratuzilmasini kengaytirish va yangi dasturlar doimiy ravishda qo'shib borilishi nazoratga olinsin.

[6]. Oliy ta'limni xalqarolashtirish, o'qituvchilar va talabalarning harakatchanligini oshirish hamda kengroq tajriba almashish imkoniyatlarini ta'minlash orqali xalqaro ta'limni eng kerakli xususiyatlarini qo'shimcha kiritgan holda o'z dasturimizda qo'llash.

Ta'lim tizimi davlat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida yetakchi o'rinni egallashga intilish bilan davlat aholining savodxonligi va bilim olishi, shu orqali mamlakatning yuksak intellektual salohiyatli inson salohiyatini shakllantirish haqida qator seminarlar o'tkazish kerak.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Zamonaviy dunyoda inson kapitalining ta'siri kuchayishi bilan birga iqtisodiyot va jamiyatning yangi sifatini shakllantirishning eng muhim omili sifatida ta'limning ahamiyati ortib bormoqda. Buning natijasida quyidagilarga talab kattadir.

[7]. Ta'limni insonparvarlashtirish – o'quvchi shaxsiga jamiyatning oliy qadriyati sifatida qarash, yuksak intellektual, axloqiy va jismoniy fazilatlarga ega fuqaroni shakllantirishga e'tibor qaratish. Bu tamoyil an'anaviy tamoyillardan biri bo'lishiga qaramay, ta'lim taraqqiyotining hozirgi bosqichida uning amalga oshirilishi boshqa shart-sharoitlar, birinchi navbatda, ta'lim tizimi faoliyatining an'anaviy va yangi tendensiyalarining murakkabligi bilan ta'minlanadi.

[8]. Individuallashtirish – oliy o'quv yurtlarida talabalar o'zi xohlagan o'qituvchilar bilan darsdan tashqari shug'ullanishi, ilmiy ish ustida izlanishlar olib borishi uchun talabalarni boshlang'ich yo'naltirish kerak. Bu tamoyilning amalga oshirilishi, eng avvalo, ta'limda shaxsiyfaollik yondashuvini tashkil etishda namoyon bo'ladi. Bolalarni tarbiyalash va o'qitishga bunday kompleks tizimli yondashuvning paydo bo'lishi pedagogika fanining tabiiyki rivojlanishi bilan bog'liq.

[9]. Demokratlashtirish – ta’lim jarayoni ishtirokchilarining (talabalar va o’qituvchilarning) faolligi, tashabbuskorligi va ijodkorligini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ta’limni boshqarishga jamoatchilikni keng jalb etish va faollarni muntazam ravishda rag’abtlantirib borish zarur. Agar ta’lim ijtimoiy jamiyatning eng muhim instituti bo’lib, jamiyatni demokratlashtirishning asosiy vositasiga aylanishi kerakligidan kelib chiqadigan bo’lsak, biz jamiyatimiz demokratik bo’lishini istasak, bolani bolaligidanoq uning qo’lida bo’lgan chegaralar doirasida o’z ishlarini boshqarishga o’rgatishimiz va demokratik tartib-qoidalarining elementar ko’nikmalarini, qarorlar qabul qilishda demokratik yondashuv, jamoatchilik bilan muloqot va hurmatni shakllantirishimiz kerak.

[9]. O’zgaruvchanlik yoki diversifikatsiya-ta’lim muassasalari bir vaqtning o’zida har xil turdagi ta’lim muassasalarini rivojlantirishni nazarda tutadi: gimnaziyalar, litseylar, kollejlari, alohida fanlarni chuqur o’rganadigan maktablar. Bular ham davlat, ham nodavlat muassasalar bo’lishi mumkin. Unda ta’lim tizimidagi tarkibiy o’zgarishlarda namoyon bo’ladi.

[10]. Yaxlitlik – ta’lim tizimidagi tarkibiy o’zgarishlarda namoyon bo’ladi. Yuqori sifatli ta’lim va tarbiya faqat ta’lim tizimining barcha qismlarining real uzluksizligi sharoitidagina amalga oshirilishi mumkinligini anglash murakkab ta’lim muassasalarining (bog’cha-maktab, maktabuniversitet va boshqalar) paydo bo’lishiga olib keladi.

[11]. Psixologiyani zamonaviy ta’lim jarayonida qo’llash. Bu nafaqat psixologiyaga ijtimoiy qiziqishning kuchayishini aks ettiradi, balki bugungi kunda pedagogik vazifalarni shakllantirishning o’zi o’zgarib borayotganini ko’rsatadi. Talaba va o’quvchilarni psixologik jihatdan qo’llash ularning o’z ustida ishlashiga ilhom beradi. O’qituvchining oldida o’quvchilarning bilim va ko’nikmalarini shakllantirish vazifasidan tashqari, bolaning ularni qabul qilishiga imkon beradigan aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish vazifasi turibdi. Biroq bugungi kunda o’qituvchilarimizning psixologik tayyorgarlik darajasi bu muammoni muvaffaqiyatli hal etishga imkon bermayapti. Ushbu muammoni hal qilish uchun maxsus tadqiqotlar o’tkazish kerak, ularning natijalari pedagogika va psixologiyani amaliy bog’lanishini hozirgi tendentsiyasini yaxshiroq amalga oshirishga yordam beradi. Shu sababli, ta’lim muassasalariga o’qituvchi-psixolog lavozimi joriy etildi, bu esa vazifalarni hal qilishga yordam beradi.

[12]. Ta’lim berish jarayonida qiziqarli va foydali metodlardan foydalanish orqali o’quvchini jalb qilish kerak. Har bir dars boshqa darslardan farq qilishi va o’quvchilarni shu fanga qiziqtirishi zarur.

[13]. Standartlashtirish. Ta'lim mazmuni zamonaviy xalqaro ta'lim amaliyotiga xos bo'lib, ta'lim muassasasining turidan qat'i nazar, umumiy ta'limning yagona darajasini yaratish zarurati bilan bog'liq. Ta'limning davlat normasi sifatida qabul qilingan, ijtimoiy idealni aks ettiruvchi va shaxsning ushbu idealga erishish qobiliyatini hisobga oladigan asosiy parametrlar tizimi tushuniladi.

[14]. Raqamlashtirish ya'ni o'qitishning yangi modellarini yaratish va qo'llash va uning mazmunini o'zlashtirish samaradorligini (masalan, dasturlashtirilgan ta'lim) oshirish imkonini beruvchi yangi tizim yaratish va uni amalda qo'llash, sog'lig'i sababli ta'lim muassasalariga borish imkoniga ega bo'lmagan o'quvchilar uchun masofaviy ta'lim imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirish ishlarini olib borish. O'qituvchi uchun kompyuter texnikasi uning mehnat quroli, o'quvchilar uchun ularni rivojlantirish vositasidir.

## REFERENCES

1. Shermatova, H. M. (2023, January). RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI IJTIMOY-IQTISODIY SOHALARDA QO'LLANILISHI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 2, No. 5, pp. 107-113).
2. Shermatova, Z. I. L. O. L. A., & Shermatova, H. I. L. O. L. A. (2022). The role of electronic educational manuals in the field of ICT. *Интернаука*, 4(1), 46-47.
3. Yuldasheva, G., & Shermatova, H. (2022). Ta'limda innovatsion texnologiyalarning qo'llanilish istiqbollari. *Science and Innovation*, 1(B8), 5-9.
4. Шерматова, Х. М., & Мукимова, З. З. (2021). Интеллектуальная культура-важный фактор образовательного процесса. *Экономика и социум*, (4-2), 723-726.
5. Mirzayevna, S. H., Muhammadaliyevna, A. S., & Qizi, O. M. O. (2022). Boshlang'ich Sinflarda Ta'lim Sifatini Oshirishda AKTdan Foydalanish. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(13), 69-74.
6. Yuldasheva, G. I., & Shermatova, K. M. (2021). The use of adaptive technologies in the educational process. *Экономика и социум*, (4-1), 466-468.
7. Shermatova, G. Y. H. (2022). Aniq fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish. *Scientific progress*, 3(1), 372-376.
8. Kh, K. Z., & Nazirjonova, F. S. (2021). The role of new information technologies in education. *Экономика и социум*, (4-1 (83)), 167-170.
9. Sidikjonovna, I. D., & O'rinboyevich, T. F. (2022). Axborot Texnologiyalarini O'qitish Tizimiga Integratsiyalash. *Miasto Przyszłości*, 29, 283-285.



10. Dovlatboyevich, D. M., & Komiljonovna, M. M. (2022). Oliy Ta'lim Muassasalrida Bulutli Texnologiyalardan Foydalanish Metodikasi. *Miasto Przyszłości*, 29, 305-308.
11. Mamirovich, I. S. (2022). Finlyandiya Va O'zbekistonda Ta'lim Tizimini Sifatini Solishtirma Taxlili. *Miasto Przyszłości*, 29, 347-350.
12. Abdullaev, S. (2022). Efficiency in teaching informatics and information technologies. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(4), 952-954.
13. Алдашев, И. (2020). Современные информационные технологии в образовании-это новые возможности. *Экономика и социум*, (6 (73)), 341-344.
14. Tojiyev, T., & Aldashev, I. (2022). The importance of primary school teachers to use act in their activities.
15. Рахимов, К. (2022). Тенденции развития анализа данных, искусственного интеллекта и интернета вещей. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 209-211.

## **TARBIYACHI VA OTA-ONALARNING O‘ZARO HURMATGA ASOSLANGAN MULOQOTINING KALIT FAKTORLARI**

**Buzrukova Dilorom Ma’mirxonovna**

Farg’ona davlat universiteti o’qituvchisi

E-mail: [mdbuzrukova@gmail.com](mailto:mdbuzrukova@gmail.com)

Tel: +99891-282-28-88

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada tarbiyachi ota-onalar bilan muloqotga kirishish jarayonini bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotiga borishni boshlashlaridan avvalroq amalga oshirilishi muhimligi va bu muloqot tarbiyalanuvchilar boshlang’ich ta’lim olishga o’tkazilgunga qadar davom etishi lozimligi, ota-onalarga qanday ma’lumotlar kerak ekanligini, qaysi axborotlarni eshitishni istashlarini aniqlashlari, shuningdek, tarbiyachi ota-onalardan qanday ma’lumotlar olishni xohlashini tushuntirishi, ota-onalar bilan muloqotga kirishning eng maqbul yo’lini aniqlay olishi haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so’zlar:** muloqot, hamkorlik, talabchan ohang, munosabat, faktor, tinglash, ta’sirchan.*

### **ABSTRACT**

*In the article, the importance of communicating with parents before the children start attending preschool and the need to continue this communication until the children are transferred to primary education, what information parents need, it is thought that they can determine what information they want to hear, and also explain what kind of information they want to receive from parents, determine the most optimal way to communicate with parents.*

***Key words:** communication, collaboration, demanding tone, attitude, factor, listening, impressive.*

### **KIRISH**

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida Maktabgacha ta’lim tashkilotlari oila va mahalliy jamoatchiliklar bilan yaqindan hamkorlik olib borishda samarali natijalarga erishilishi alohida ta’kidlangan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining asosiy vazifalaridan biri-bolalar tarbiyasida oilalarga professional pedagogik-psixologik yordam ko‘rsatishdan iborat bo‘lib, shu bilan birgalikda uning o‘rnini to‘liq egallamasdan uning ta’lim funksiyalarini to‘ldirish va to‘liq amalga oshirishdan iborat. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun o‘zaro hamkorlik qilish jarayonining inkor qilib bo‘lmaydigan afzalliklari ko‘p. Bu tarbiyachilar va ota-onalarning bolalarni tarbiyalashda birgalikda ishlashga bo‘lgan ijobiy qarashidir. Ota-onalar

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari har doim pedagogik muammolarni hal qilishda yordam berishiga va shu bilan birga ularga hech qanday zarar yetkazmasligiga amindirlar, chunki ular oila nuqtayi nazarini va bola bilan o'zaro munosabat bo'yicha takliflarni hisobga oladilar. Tarbiyachilar, o'z navbatida, pedagogik muammolarni hal qilishda ota-onalarning istaklarini inobatga oladilar. Bu yerda bolalar asosiy manfaatdor taraf hisoblanadi. Ushbu prinsip muloqotga ijobiy munosabatni bildiradi va ilk bolalik ta'limi tarbiyachilarning ota-onalar bilan olib boradigan barcha ishlariga asoslanadi. Tarbiyachilar har kuni ota-onalar bilan muloqot qilishadi, butun oilaning maktabgacha ta'limga munosabati qanday bo'lishi, shu muloqotga bog'liq. Har kungi muloqot tarbiyachilr va ota-onalar o'rtasidagi xayrixohlik aloqasi o'tkaziladigan tadbirdan ko'proq narsani anglatadi. Muloqotdagi ijobiy munosabat tarbiyachilarga kundalik faoliyati davomida ota-onalar bilan ishlashi uchun zamin yaratadi. Tarbiyachilarning ota-onalar kategoriyalari bilan muloqotida talabchan ohang mos emas. Murabbiylik emas, balki hamkorlik muhim. Hamkorlikning individual yondashuv prinsipi nafaqat bolalar bilan ishlashda, balki ota-onalar bilan ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar bilan muloqotda bo'lgan tarbiyachilar vaziyatni, ota-onalarning kayfiyatini his qilishlari kerak. Bu yerda tarbiyachilarning ota-onalarga ishonchi, hamdardligi va birgalikda muayyan vaziyatda bolaga qanday yordam berishini o'ylash qobiliyati va pedagogik qobiliyati muhim ahamiyatga ega.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Hozirgi kunda aksariyat zamonaviy onalar va otalar ziyoli, bilimli va albatta o'z farzandlarini qanday tarbiyalash kerakligini yaxshi bilishadi. Shuning uchun bugungi kunda pedagogik bilimlarni o'rgatish va oddiy targ'ib qilish pozitsiyasi ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin emas. Og'ir pedagogik vaziyatlarda oilaga o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlash muhitini yaratish oilaviy muammolarni tushunish va yechimini topishda maktabgacha ta'lim tashkiloti jamoasining oila muammolarini hal qilishda samimiy yordam bermoqchi ekanligini e'tirof qilishi kerak. Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila uchun ochiqligi har bir ota-onaga uning bolasi qanday yashayotganini va rivojlanishini bilish va ko'rish imkoniyatini yaratib berishdan iboratdir. Bu muammoli vaziyatlarning paydo bo'lishini oldini olishda muhim ahamyatga ega bo'lib, tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasida shaxsiy aloqalarni o'rnatish, har kuni ota-onalarga farzandi kunni qanday o'tkazganligi, nima o'rganganligi, qanday yutiqlarga erishganligi haqida ma'lumot berib borish kerak. Shuning asosida ota-onalarning psixologik qobilyatini qo'llab-quvvatlash zamonaviy davrning eng dolzarb vazifasiga aylandi. Oilalar bilan muloqotga kirishish jarayonini boshlash bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotiga borishni boshlashlaridan avvalroq

amalga oshirilishi muhimdir va bu muloqot tarbiyalanuvchilar boshlang'ich ta'lim olishga o'tkazilgunga qadar davom etishi lozim. Biz ularga qanday ma'lumotlar kerak ekanligini, ular bizdan aynan qaysi axborotlarni eshitishni istashlarini aniqlashimiz, shuningdek, biz ulardan qanday ma'lumotlar olishni xohlashimizni tushuntirishimiz, ota-onalar bilan muloqotga kirishning eng maqbul yo'lini aniqlashimiz kerak. Shuningdek, munosabatlar va his-tuyg'ular ijobiy muloqot o'rnatishga ta'sir etishini hisobga olgan holda quyidagilarga e'tibor berish juda muhimdir: So'zlovchini faqat eshitishgina emas, balki uning nima demoqchiligini tushunish, idrok etish, o'z diqqatini jamlagan holda hurmat bilan tinglash katta mahorat talab etadi. Oila a'zolari tarbiyachilar bilan bexijolat muloqotga kirishlariga sharoit yaratish uchun tarbiyachi noverbal muloqot elementlarini qo'llashi zarur, masalan, ularning ko'zlariga qarab tinglash, bosh qimirlatgan holda qiziqish namoyon qilib, ular bergan fikrlarni tasdiqlash va shu bilan so'zlashni davom ettirishlari uchun rag'batlantirishi lozim. Tarbiyachi ularni eshitib tushunganiga ishontirishi kerak, bunda o'z savollarini berishi, ularning fikrlarini takrorlagan holda so'zlashishi kerak bo'ladi. Oila vakillariga o'z fikrlari, g'oyalari, quvonch, maqsad va muammolarini ifodalashlari uchun vaqt va imkoniyat berish muhim. Tarbiyachi so'zlashdan ko'ra tinglash muhimroq ekanligini unutmasligi kerak. Faoliyati davomida ijobiy muloqot ko'nikmalaridan foydalanishda quyidagilarga amal qilishi maqsadga muvofiq:

- Ota-onalarga savol yoki maslahat berishdan ko'ra ko'proq ularni tinglang. Og'zaki yoki yozma ravishda ota-onalarga farzandining tarbiyasi va rivojlanishi to'g'risida ma'lumot berib boring.

- Oilalarga ma'lumot uzatish va ulardan ma'lumot olishning individual usullaridan foydalaning.

- Ota-onalar bilan uchrashuvlarni ularga qulay vaqt va joyda rejalashtiring.

- Savol berayotganda yoki biror narsa haqida xabar berganda, oila tushunadigan tildan foydalaning.

- Ota-onalarga o'zlari va boshqa oila a'zolari bilan bog'liq mavzularni ular bilan muhokama qilishni istayotganingizni tushunishlariga imkon bering.

- Ota-onalarga hamkorlik rejalari haqida gapirishdan oldin, ularning istak va xohishlarini hisobga oling.

- Ota-onalarning takliflari, g'oyalari va maxsus so'rovlariga tezkorlik bilan javob bering.

- Oilalar va ularning farzandlariga oid qaror qabul qilishda o'zingizning muammoni hal qilish ko'nikmalingizdan foydalaning.

Noqulay vaziyatlarda o'zini tutishni to'g'ri shakllantirish pedagoglar va ota-onalar o'rtasida sog'lom munosabatlarni saqlashi mumkin. Ota-onalar va pedagoglar

o‘rtasida mumkin bo‘lga ziddiyatli to‘qnashuvlarning sababi ko‘pincha ota-onalarning fikriga ko‘ra, uning bolasiga nisbatan adolatsizlik sodir bo‘lgan vaziyatdir. Ota-onalar o‘z farzandlariga nisbatan noto‘g‘ri muomala qilinayotganligi, yetarlicha e‘tibor berilmayotganligini ro‘kach qiladilar. Muloqot qilish qiyin bo‘lgan ota-onalarning ikkita asosiy turi mavjud. Bular quyidagilar:

Shikoyatlar yozadilar yoki pedagog bilan boshqacha tarzda nizolashadilar:

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga yordam bermaydi, bolaning maktabgacha hayotiga “kirib bormagan”, muloqotga kirishmaydi, pedagogning talablarini inobatga olmaydi. Bunday ota-onalar bilan ziddiyatli vaziyatni hal qilishda pedagog quyidagi xatti-harakatlarga rioya qilishi lozim:

- hech qachon ota-onalar bilan suhbatni bolaning xatti-harakatlaridagi salbiy holatlarni ko‘rsatishdan boshlamang;

- begona odamlar huzurida ota-onalar bilan bolaning xatti-harakatlarini muhokama qilmang;

- oldin bolaning MTTdagi ijobiy taraflariga urg‘u bering;

- ota-onalarning mulohazalari, shikoyatlari, ularning shubhalari, e‘tirozlarini diqqat va sabr bilan tinglang;

- aniq, lo‘nda javoblar, asosli maslahatlar berish maqsadga muvofiq;

- ota-onada farzandiga bo‘lgan ishonchni tarbiyalash zarur;

- ota-onalarning izzat nafsiga qattiq tegmang;

ota-onalarning farzandlarini tarbiyalash tajribasi qanchalik kichik bo‘lishidan qa‘tiy nazar, ularning vakolatlarini kamsitmang.

Tarbiyachi va ota-onalarning ziddiyatdan chiqishlarini eng samarali usullari-bu hamkorlik va murosaga kelish.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Shin A.V. Nazarova V.A. va boshqalar “ Oilalar va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik” metodik qo‘llanma Toshkent-2020.
2. Shodiyeva Q. “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi
3. Гиясова, В. (2023). ОСОБЕННОСТИ КОМПОЗИЦИИ РУССКИХ И УЗБЕКСКИХ СКАЗОК. *Science and innovation in the education system*, 2(5), 125-129.
4. GIYOSOVA, V. (2019). Functioning of fairy-tale as one of the variety of folklore text in oral folk art. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(6), 124-126.



5. Buzrukova, D. M. (2023). “MUHABBAT” HISSIY KONSEPTINING TURLI LINGVOMADANIYAT VAKILLARI IDROKIDAGI TASVIRI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(1), 178-183.
6. Mampurkhanovna, D. B. (2022). The Concept Of “Love” As An Important Element Of The Emotional World Landscape. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 7(5), 95-98.

## **TECHNOLOGY OF DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE QUALITIES BASED ON FORMS OF EXTRACURRICULAR EDUCATION**

**Ibodulloyev Nurali Sheralievich**

Bukhara state university, Bukhara city, Uzbekistan

### **ABSTRACT**

*The article highlights the problems of creativity development, the abilities of primary school students, the work experience of performing tasks, the spiritual, moral and creative development of children outside the classroom, the important aspects and assessment approaches that are focused on in the assessment. Information on the content and methods of forming creative thinking in students is provided.*

**Key words:** *creativity, development, creative abilities, assessment, approaches, ability, ability, research, analysis, creative assignments.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье освещаются проблемы развития творческих способностей, способностей младших школьников, опыта работы по выполнению заданий, духовно-нравственного и творческого развития детей во внеурочное время, важные аспекты и подходы к оцениванию, на которые делается акцент в оценке. Приведена информация о содержании и методах формирования творческого мышления у учащихся.*

**Ключевые слова:** *креативность, развитие, творческие способности, оценка, подходы, способность, исследование, анализ, творческие задания.*

### **INTRODUCTION**

Creative approaches and achievements have advanced human civilization worldwide in fields ranging from science and technology to philosophy, art, and social sciences. Creative thinking is more than just coming up with random ideas. A real skill based on knowledge and experience allows a person to achieve better results in sometimes-difficult situations. Societies and organizations around the world increasingly need innovative knowledge and creativity to solve problems, which, in turn, increases the importance of innovation and creative thinking. It is true that the impact of creative thinking is behind significant types of innovation on society as a whole, but it is also a universal and equalizing phenomenon, meaning that any person, to one degree or another, has the ability to think creatively.

A. Leontev, D. Elkonin, O. Vasilchenko, E. Melkumova, V. Miretskaya, M. Sukhomlina, E. Emmanuel, among the scientists of the CIS countries, studied the

theoretical foundations of the development of individual creative abilities. In the works of foreign scientists such as EPTorrance, N. Rogers, J. Purnell, P. Roberts, AMGalligan, Sh. Tatsuno, the issues of individual abilities and creative potential of a person are revealed. In fact, according to experts in the field of education and psychologists, creative thinking, understood as being engaged in thought processes related to creative activity, leads to the development of a number of other personal skills. These include metacognitive skills, interpersonal and self-awareness skills, and problem-solving skills. At the same time, personal growth, educational success, future professional success, and public reputation also depend on a person's creative thinking skills.

### **DISCUSSION AND RESULTS**

The development of an international program for the assessment of creative thinking can lead to positive changes in educational policy and pedagogy. While creative thinking is considered a unique field with a societal impact, it is a more universal and generalized phenomenon than one might believe. The development of an international assessment program for students' creative thinking can enable positive changes in educational policy and pedagogy. PISA 2022 Student Creativity Framework for Assessment of Student Creative Thinking in PISA 2022 The PISA 2022 International Assessment of Student Creative Thinking provides program officials with reliable, practical, and legal assessment tools that allow them to make evidence-based decisions. The PISA Assessment of Creative Thinking in Research provides a clear, reliable, and actionable assessment tool to help policymakers make evidence-based decisions. The results also fuel debates in society about the importance and methods of developing this important skill through education. This activity in the international assessment program PISA is related to another project of the Organization for Economic Co-operation and Development aimed at supporting a new pedagogy for the development of creative thinking. The main task of education in creative thinking is to form the skills that the student will need today and in the future to lead a successful life in society. Creative thinking is an important skill that today's youth must have, and this skill will help them adapt to a constantly and rapidly changing environment that requires personnel with up-to-date skills beyond simple literacy. In general, today's students will work in fields that do not even exist in the future; forming new skills for new problems will allow them to solve increasingly complex local and global problems through an unusual approach. In recent years, the training of creative people who have a non-standard perspective on the educational needs and problems of society; changes that are able to adequately and timely respond to what is happening in the world.

Akademik qarzdor o'quvchilar ta'til vaqtida yoki keyingi semestrlar mobaynida tegishli fanlardan o'zlashtirilmagan kreditlar miqdoriga mos ravishda bazaviy to'lov-kontrakt miqdoridan kelib chiqqan holda to'lovni amalga oshirgandan so'ng o'zlashtirilmagan fanlarni o'z hisobidan qayta o'qish huquqiga ega bo'ladi.

TDYU kengashi qarori bilan auditoriya soatini sababsiz qoldirish foizi qisqartirilishi va akademik qarzdorlikni bir marta bepul topshirishga ruxsat berilishi mumkin.

O'quvchini kursdan kursga o'tkazish uning GPA qiymatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Yuridik texnikumlar o'quvchilarini kursdan kursga o'tkazishda GPA ko'rsatkichi TDYU tomonidan belgilanadi. GPA ko'rsatkichini to'play olmagan o'quvchi qayta o'qish uchun tegishli kursda qoldiriladi.

Semestr va o'quv yili yakuni natijalari bo'yicha akademik qarzdorligi bor ta'lim oluvchilar o'qishdan chetlashtirilmaydi va kursda qoldiriladi.

Kursda qolgan o'quvchilar faqat qarzdor bo'lgan modullarni o'zlashtirib ularga mos ravishda shartnoma mablag'larini to'laydi. Shartnoma asosida bir kursda qayta

o'qish soni chegaralanmaydi. O'quvchi ikkinchi kursni tugatgandan so'ng ikkala bosqichlari uchun belgilangan eng kam kreditlar miqdorini to'plab, shartnoma to'lovidan qarzi bo'lmasa "bitiruvchi" maqomiga ega bo'ladi. Bunda bitiruvchi maqomiga ega o'quvchi modullarni mustaqil o'zlashtirgan holda muntazam ravishda o'tkaziladigan imtihon sessiyalarida imtihon topshirish yoki yakuniy davlat attestatsiyasidan shartnoma-to'lov asosida o'tish uchun murojaat qilishi mumkin.

O'quvchi o'quv rejasida nazarda tutilgan kreditlarni to'plasa, shu jumladan yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tsa o'rta maxsus professional ma'lumot darajasiga ega bo'ladi.

Yuridik texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlab TDYUga o'qishga yakka tartibdagi suhbat orqali qabul qilingan talabalarning TDYUning birinchi kursi uchun yuridik texnikumlarda to'plangan kreditlari TDYU kengashi qarori bilan ko'chiriladi. Yuridik texnikumlarda ta'lim olishning to'lov qiymati qonunchilik hujjatlariga muvofiq Adliya vazirligi tomonidan mustaqil belgilanadi.

O'quv yili uchun to'lov-kontrakt 60 kredit miqdorida hisoblanadi. O'zlashtirishlari shart bo'lgan (majburiy va tanlov modullar doirasida) kreditlardan tashqari o'quvchilarga o'z ixtiyorlari bilan qo'shimcha modulni qo'shimcha to'lov asosida o'zlashtirishiga ruxsat etiladi.

Fanlar bo'yicha qayta ta'lim olish uchun to'lov qiymati Adliya vazirligi tomonidan butun o'quv yilining kontrakt summasidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Qayta ta'lim olish uchun to'lov mexanizmi Adliya vazirligi tomonidan bir kredit qiymatini hisoblash asosida belgilanadi. Bir kredit qiymati o'quv yili davomidagi ta'lim olish uchun to'lanadigan bazaviy to'lov-kontrakt miqdorini rejalashtirilgan kreditlar miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Ta'lim dasturida belgilangan natijalarga erishish hamda kredit-modul tizimi to'g'ri va haqqoniy qo'llanilayotganligini aniqlash va baholash maqsadida o'quv jarayonining monitoringi o'tkaziladi. Monitoring yuridik texnikumlar va TDYU tomonidan so'rovnomalar, fokus-guruhlar, intervyu olish yoki erishilgan natijalarni tahlil qilish va boshqa usullarda amalga oshirilishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. "Kredit-modul tizimiga o'tish nima uchun kerak? Maqsad, mohiyat va afzallik" "Xalq so'zi online" gazetasi 05.08.2020-yil
2. *Hasanova M, Jumanova M* "Kredit-modul tizimi va uning amaliyotga joriy etilish tamoyillari" *Kiberlineyka*. (25-may 2022-yil)
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.06.2021-yildagi 359-sonli Qarori.

4. Norliev, R., & Ibragimova, O. (2021). THE SPIRITUAL FOUNDATIONS OF A DEMOCRATIC SOCIETY. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(12), 130-134.
5. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik texnikumlarida ta’limning kredit-modul tizimida o‘quvchilar bilimini nazorat qilish tartibi va baholash mezonlari to‘g‘risida Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining buyrug‘i, 02.03.2022-yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami: 3351)

## **VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN TAYINLANADIGAN JINOIY JAZO TURLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHLTLARI**

**Shakirov Farrux Sharafovich**

Toshkent shahar yuridik texnikumi 2-bosqich o'quvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Bugungi kunda voyaga yetmaganlar huquqlarini ta'minlash davlat siyosati darajasidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olingan. Ta'kidlash joizki, qo'yilgan barcha vazifalarning negizi bo'lib, eng avvalo, inson huquqlari himoyasining kafolatlarini so'zsiz ta'minlash, qonun hamda adolat ustuvorligini qaror toptirish hisoblanadi. Shu bois bizdan ushbu mas'uliyatli vazifalarni bajarish uchun Xorijiy davrlarlar qonunchiligini bilan taqqoslagan holda o'z vakolatlarimiz, bilimimiz, tajribamiz va bor imkoniyatlarimizni to'liq safarbar etish, bunda asosiy e'tiborni huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash hamda oldini olishga qaratish va bu borada bir qancha vazifalarni amalga oshirish, huquqiy mexanizimni ham takomillashtirish talab etiladi.*

**Kalit so'zlar:** Jarima, jazo, ozodlikni cheklash, qamoq. ozodlikdan mahrum etish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari.

### **АННОТАЦИЯ**

*Сегодня обеспечение прав несовершеннолетних определено как одна из приоритетных задач на уровне государственной политики. Стоит отметить, что в основе всех поставленных задач лежит, прежде всего, безусловное обеспечение гарантий защиты прав человека, определение приоритета закона и справедливости. Поэтому нас просят в полной мере мобилизовать наши силы, знания, опыт и все наши возможности для выполнения этих ответственных задач, по сравнению с законодательством зарубежных стран, сосредоточив внимание на своевременном выявлении и предупреждении нарушений, и в связи с этим ряда реализации задач, также требуется совершенствование правового механизма.*

**Ключевые слова:** Штраф, наказание, ограничение свободы, лишение свободы. лишение свободы, обязательные общественные работы, исправительные работы.

### **ABSTRACT**

*Today, ensuring the rights of minors is defined as one of the priority tasks at the level of state policy. It is worth noting that the basis of all the assigned tasks is, first of all, unconditional provision of guarantees of human rights protection, determination of the priority of law and justice. Therefore, we are asked to fully mobilize our powers, knowledge, experience and all our capabilities in order to fulfill*

*these responsible tasks, in comparison with the legislation of foreign countries, focusing on early detection and prevention of violations, and in this regard, a number of implementation of tasks, improvement of the legal mechanism is also required.*

**Keywords:** *Fine, punishment, restriction of liberty, deprivation of liberty, imprisonment, compulsory community service, correctional labor.*

## **KIRISH**

Jinoyat qonunida belgilangan insonparvarlik va odillik prinsiplaridan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining oltinchi bo‘limida “Voyaga etmaganlar javobgarligining xususiyatlari” ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, ushbu bo‘lim XV-XVI boblarni o‘z ichiga oladi. Mazkur boblarda voyaga etmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jinoiy jazolar tizimi, jazo tayinlash qoidalari, jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilish masalalari aks ettirilgan. M.H.Rustamboev fikricha, sobiq Ittifoq davrida voyaga etmaganlar jinoyatchiligining oldini olish va unga qarshi kurashishga etarli darajada (ba’zi kamchiliklarini e’tiborga olmagan holda) e’tibor berilgan bo‘lsa ham, ammo jinoyat qonunidagi bunday jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan normalar shu vaqtgacha biror marta ham tizimlashtirilgan holda alohida bir bo‘limda berilmagan edi. Voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir qilinganida, davlat tomonidan ularning bu qilmishiga beriladigan jazoning kattalarga beriladigan jazoga nisbatan ancha yumshoqligi qadimgi quldorlik davlatlariga ham xos bo‘lganligini Rim davlatining “XII jadval qonunlari”da ham uchratamiz<sup>3</sup>.

Aytish kerakki, voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jinoiy jazolarda nomutanosibliklar mavjud. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga jazo tayinlash murakkab jarayon hisoblanadi. JKning 81-moddasida voyaga yetmaganlarga tayinlanadigan jinoiy jazolar tizimi belgilab qo‘yilgan, ya’ni bunda ularga nisbatan tayinlanadigan jarima, majburiy jamoat ishlari, ahloq

tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash, ozodlikdan mahrum qilish jazolari nazarda tutiladi.

Jinoyat kodeksning 82-moddasida jarima jazosini qo‘llashga oid qoidalar belgilab qo‘yilgan. Jarima jazosi aybdordan davlat daromadiga Jinoyat kodeksda belgilangan miqdorda pul undirish hisoblanadi. Ushbu jazo voyaga yetmaganlarga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda tayinlanadi.

Agar mahkum jarima miqdorini olti oy muddat mobaynida to‘lashdan bo‘yin tovlasa, sud mazkur jazo turini majburiy jamoat ishlari yoki axloq tuzatish ishlari jazosiga almashtiradi. Bunda sud to‘lanmagan jarima miqdorini bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdoridagi jarimani majburiy jamoat ishlarining ikki soatiga tenglashtirgan holda hisoblab, majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jazo bilan



almashtiradi yoki bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdoridagi jarimani axloq tuzatish ishlarining bir oyiga tenglashtirgan holda hisoblab, axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazo bilan almashtiradi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Voyaga etmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jarima jazosi ham ma'lum ma'noda muammolidir. Sababi, o'n uch yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan shaxslarga, umuman olganda, voyaga etmaganlarga sodir qilgan jinoyati uchun jarima jazosi qo'llansa, jarimaning miqdorini ularning ota-onalari, qonuniy vakillari to'laydi, fikrimizcha, bunda jazoning tarbiyalash maqsadi o'z ahamiyatini yo'qotadi. Demoqchimizki, mamlakatimizda voyaga etmaganlarning ta'lim olish jarayoniga asosiy e'tibor beriladi, ular dars mashg'ulotlariga ta'sir ko'rsatmagan holda mehnat bilan shug'ullanishlari mumkin. Jarima jazosini ijro etish mexanizmi ham qonunchiligimizda aniq yo'lga qo'yilmagan, shuning uchun aksariyat holatlarda jazodan ko'zlangan maqsadiga erishish imkoni bo'lmaydi. Aytish mumkinki, mazkur jazoni ijrosini ta'minlash uchun voyaga etmagan shaxs boshqa bir jinoyatga qo'l urishi, masalan o'g'rilik jinoyatini sodir qilishi mumkin yoxud voyaga yetmagan shaxs uchun jarima jazosini ijro etish muammo bo'lmasligi, keyinchalik boshqajinoyat sodir etsa ham ushbu jazo orqali qutulishi, natijada jazodan ko'zlangan maqsadga erishilmasligi mumkin.

Sud tomonidan jarima jazosini voyaga yetmaganlarga qo'llashning ayrim xususiyatlari mavjud. Unga ko'ra, jarima jazosini voyaga etmaganlarga tayinlash to'g'risida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli fikrlar mavjud. M.D.Shargorodskiy: "...xalqni umumiy daromadning oshishi bilan jarimani, ayniqsa, kam ahamiyatli jinoyatlar uchun kengroq qo'llashga sharoit yaratiladi", debhisoblagan.

Jarima jazosini tayinlashda jazoning bu turini barcha voyaga etmagan jinoyatchilarga qo'llab bo'lmaydi. Shaxsiy daromadi yoki mulki bo'lmagan voyaga etmagan shaxsga jarimaning tayinlanishi, mahkum bunday jarimani to'lab bo'lganidan so'ng o'zining moddiy sharoitini tiklash maqsadida qonuniy choralar topolmasa yana yangi jinoyat sodir etish xavfi yuzaga keladi. Jazo sifatida jarimani qo'llash vaqtida sud har qanday jinoiy jazo kabi, voyaga etmagan shaxslarga nisbatan ham tayinlanadigan jazolar shaxsiy xarakterga ega ekanligini alohida hisobga olishi lozim. M.I.Kolsov fikricha, jarima jazosini tayinlashda voyaga yetmagan shaxsning mustaqil daromadga, ish haqi yoki mol-mulkka ega ekanligi e'tiborga olinadi. Shuning uchun voyaga etmagan shaxsga nisbatan jarima jazosini tayinlash vaqtida uning shaxsiy mablag'iga e'tibor qaratish kerak<sup>4</sup>.

Jarima jazosining miqdorini belgilashda, sud, bu jazo miqdori voyaga yetmagan jinoyatchining normal turmush sharoiti uchun zarur bo'lgan shart-sharoitdan mahrum

qilib qo‘ymasligi lozimligini e‘tiborga olishi kerak. Jarimani qo‘llash sud organlariga ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan qilmishlarga jazo tayinlashda imkon qadar jazo va javobgarlikni differentsiyalash va alohida yondashishni amalga oshirishiga yordam beradi.

Jarimani katta miqdorda belgilash faqatgina mahkumning emas, uning oilasini ham moddiy sharoitiga ta‘sir qiladi, degan e‘tirozlar o‘rinsiz, chunki o‘sha shaxsga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash uning oilasiga bundan ham og‘irroq musibat, oqibatlar olib kelishi mumkin.

JKning 83-moddasida voyaga yetmaganlarga nisbatan qo‘llaniladigan axloq tuzatish ishlariga oid koidalar belgilangan. Axloq tuzatish ishlari – bu mahkumni sud hukmi bilan belgilangan muddatga majburiy ravishda mehnatga jalb qilib, uning ish haqidan davlat foydasiga muayyan miqdorda foiz undirish tariqasidagi jazo chorasi hisoblanadi. Mazkur jazo turi ham faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga tayinlanadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi quyidagicha tushuntirish bergan: “Axloq tuzatish ishlari pensiya yoshiga etgan, o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxslarga, mehnatga qobiliyatsizlarga, homilador ayollarga, yosh bolasini boqish uchun ta‘tilda bo‘lgan ayollarga va harbiy xizmatchilarga nisbatan tayinlanmaydi”. Ushbu jazoni o‘tash aybdor voyaga yetmaganning o‘z ish joyida, agar u hech qayerda ishlamasa, ushbu jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan o‘zi yashaydigan hududdagi boshqa joylarda o‘taydi. A.Ibragimova fikricha, shaxs o‘n olti yoshga to‘lgandan so‘ng mehnatga layoqatli hisoblanishini e‘tiborga olib, o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxsga nisbatan axloq tuzatish ishlari jazosini tayinlashda sud ayblanuvchining mehnat majburiyatlarini bajara olishini aniqlashi, agar ushbu jazoni bajarishga shaxsning xohishi bo‘lmasa jazo qo‘llashning samarasi bo‘lmasligini e‘tiborga olmog‘i lozim. Amaliyotdagi muammo shundaki, voyaga etmagan shaxs asosan kollej, litsey talabasi yoki maktab o‘quvchisi bo‘ladi, unga nisbatan ahloq tuzatish ishlari jazosi tayinlansa, majburiy ta‘lim prinsipiga zid kelishi mumkin.

Shu o‘rinda taklif sifatida aytishimiz mumkinki, voyaga yetmagan shaxslarga ahloq tuzatish ishlari jazosini tayinlayotganda uning o‘qish joyiga majburiy tartibda biriktirib qo‘yilishi, masalan, ma‘lum vaqtda darsda bo‘lish, ma‘lum vaqtda kutubxonada bo‘lish kabi majburiyatlarni yuklash lozim.

JKning 84<sup>1</sup>-moddasida voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikni cheklash jazosi belgilangan bo‘lib, ushbu jazo turi O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 10 avgustdagi O‘RQ 389-sonli Qonuni bilan kiritilgan. Ushbu jazo sud tomonidan mahkumga nisbatan yashash joyini u yoki bu sabab bilan tark etishni butunlay taqiqlashdan yoki sutkaning muayyan vaqtida yashash joyidan chiqishni cheklashdan

iborat bo‘lib, u bir oydan besh yilgacha muddatga tayinlanadi hamda sud tomonidan belgilanadigan organlar nazorati ostida o‘taladi. Ushbu jazo chorasi, e‘tibor beradigan bo‘lsak, voyaga etganlarga nisbatan bir oydan besh yilgacha, voyaga etmaganlarga nisbatan olti oydan ikki yilgacha tayinlanishi belgilangan.

Sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, aholining odil sudlovga bo‘lgan ishonchini oshirish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta‘minlash va qonuniylikni mustahkamlash maqsadida 2016 yilning 21 oktyabrida qabul qilingan “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF – 4850-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonining 6- bandida voyaga etmaganlar uchun nazarda tutilgan jinoiy jazolarni liberallashtirish, protsessual harakatlarni amalga oshirishda ularning huquqiy himoyasini kuchaytirish, shuningdek sudlanganlik holatini tugatish va sudlanganlikni olib tashlash muddatlari va asoslarini qayta ko‘rib chiqish nazarda tutilgan. Mazkur Farmon ijrosini ta‘minlash maqsadida JK 84<sup>1</sup>-moddani quyidagi tahrirda, ya‘ni: ozodlikni cheklash voyaga etmagan mahkumlarga nisbatan asosiy jazo chorasi sifatida bir oydan ikki yilgacha muddatga tayinlanadi, deb bayon qilinishi maqsadga muvofiq.

JKning 50-moddasiga binoan, ozodlikdan mahrum qilish - mahkumni jamiyatdan ajratib jazoni ijro etish koloniyasi yoki turmaga joylashtirishdan iborat bo‘lgan jazo turi bo‘lib, ushbu jazo umumiy qoidaga ko‘ra, bir oydan yigirma yilgacha muddatga belgilanadi. Jinoyat kodeksining 85-moddasiga ko‘ra, voyaga yetmay turib ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat sodir etgan, ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etgan yoxud qasddan uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan esa ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanmaydi. Ahamiyatli jihati shundaki, voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi mazkur Kodeksning 85-moddasida olti oydan o‘n yilgacha muddatga tayinlanadi, Jinoyat kodeksi 86- moddasining [ikkinchi](#), [uchinchi](#) va [to‘rtinchi](#) qismlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno, deb belgilangan. Vaholanki, voyaga etmaganlarga tayinlanadigan ushbu jazoning minimal darajasi voyaga etgan shaxslarga tayinlanadigan minimal darajadan ham ko‘p hisoblanadi.

Shuningdek, JKda ozodlikdan mahrum qilish jinoyat sodir etish paytida o‘n uch yoshdan o‘n olti yoshgacha bo‘lgan shaxslarga nisbatan:

b) og‘ir jinoyat uchun — olti yilgacha;

v) o‘ta og‘ir jinoyat uchun — o‘n yilgacha muddatga tayinlanadi.

Ozodlikdan mahrum qilish jinoyat sodir etish paytida o‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslarga nisbatan:

b) og‘ir jinoyat uchun — etti yilgacha;

v) o‘ta og‘ir jinoyat uchun — o‘n yilgacha muddatga tayinlanadi<sup>5</sup>, deb ko‘rsatilgan.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan qo‘llaniladigan ozodlikdan mahrum qilish jazosi boshqa jazolarga nisbatan alohida ahamiyatga ega, ya‘ni bunda sodir etilgan jinoyat uchun insonni jamiyatdan ajratish, uni ozodlikdan mahrum qilish, uning muayyan huquqlarini cheklash, unga davlat nomidan majburlov choralarini qo‘llash nazarda tutiladi. Ozodlikdan mahrum qilish voyaga etmagan mahkumga, ayniqsa ozodlikdan mahrum qilishga birinchi marta hukm qilingan shaxslarga juda kuchli ta‘sir ko‘rsatadi, ijtimoiy adolatni tiklashga, yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga ko‘maklashadi. Bundan tashqari, mazkur jazoning jiddiy cheklovlari mavjud, ya‘ni ushbu jazo shaxsni jamiyatdan ajratishdan tashqari, erkin harakatlanish, dam olish vaqtini tanlash, mehnat faoliyati turini, yaqinlari va qarindosh-urug‘lari bilan muloqot qilish huquqlarini cheklash bilan bog‘liqdir.

JK 85-moddasiga asosan, voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi bir oydan o‘n yilgacha muddatga tayinlanadi, ushbu Kodeksning 86 moddasining ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi qimlarida nazarda tutilgan holla mustasno.

Ozodlikdan mahrum qilish jinoyat sodir etish paytida o‘n uch yoshdan o‘n olti yoshgacha bo‘lgan shaxslarga nisbatan:

b) og‘ir jinoyat uchun — besh yilgacha;

v) o‘ta og‘ir jinoyat uchun — etti yilgacha muddatga tayinlanadi.

Ozodlikdan mahrum qilish jinoyat sodir etish paytida o‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslarga nisbatan:

b) og‘ir jinoyat uchun — olti yilgacha;

v) o‘ta og‘ir jinoyat uchun — sakkiz yilgacha muddatga tayinlanadi.

Voyaga etmay turib ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat sodir etgan, ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etgan yoxud qasddan uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanmaydi.

Hukm chiqarish paytida o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosini tarbiya koloniyalarida o‘tash tayinlanadi, deb bayon qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Aytish kerakki, ozodlikdan mahrum qilish jazoning maqsadlariga boshqa (engilroq) vositalar bilan erishish mumkin bo‘lmagan holdagina qo‘llanilishi kerak. Hozirgi sharoitda qonuniy kuchga kirgan hukmlar bo‘yicha mahkumlarning uchdan bir qismidan ko‘prog‘iga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va

jinoyatchilikka qarshi kurashish vizani yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 14 martdagi PQ–2833-sonli qarori

2. Ismailov N.T. Voyaga etmaganlar jinoyatchiligini oldini olishning individual profilaktikasi. Yurid. fan. nomz. ilm. dar. olish uchun diss... avtoref.. – Toshkent: TDYU, 2006.

3. Rustambayev M.H. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. T.2. Umumiy qism. Jazo to'g'risida ta'limot: Darslik. – Toshkent: ILM ZIYO, 2011

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000 yil 15 sentyabrdagi "Voyaga etmaganlar jinoyati haqidagi sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori



## **КОНСТИТУЦИЯВИЙ ИСЛОҲОТЛАРНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ**

**Норбобоев Бахтиёр Жаҳонгир ўғли**

Тошкент шаҳар юридик техникуми 2-босқич ўқувчиси

### **АННОТАЦИЯ**

*Янги таҳрирдаги Конституция Ўзбекистон жамиятининг эволюцион ривожланишидан келиб чиқаётган ҳаётий зарурат бўлиб, бу иш мамлакат, миллат ва халқ сифатида кейинги қадамларимизни аниқлаб олишимиз учун гоаят аҳамиятли масала, адолатли жамият қуриши йўлидаги улкан қадамдир.*

**Калит сўзлар:** Конституция, инклюзив таълим, ижтимоий, иқтисодий, ҳуқуқий, инвестиция, монополия, адолатли суд, парламент.

### **АННОТАЦИЯ**

*Новая редакция Конституции является жизненной необходимостью, вытекающей из эволюционного развития общества Узбекистана, и эта работа является для нас чрезвычайно важным вопросом, определяющим наши дальнейшие шаги как страны, нации и народа, огромный шаг к построению просто общества.*

**Ключевые слова:** Конституция, инклюзивное образование, социальное, экономическое, правовое, инвестиционное, монополия, справедливый суд, парламент.

### **ABSTRACT**

*The newly revised Constitution is a vital necessity arising from the evolutionary development of the society of Uzbekistan, and this work is an extremely important issue for us to determine our next steps as a country, a nation and a people, a huge step towards building a just society.*

**Key words:** Constitution, inclusive education, social, economic, legal, investment, monopoly, fair court, parliament.

### **КИРИШ**

Сўнгги олти йилда эришган ютуқларимизни, хусусан, иқтисодиёт, инсон ҳуқуқлари, одил судлов, сўз ва эътиқод эркинлиги, ижтимоий ҳимоя соҳаларидаги юзлаб чекловларнинг олиб ташлангани, нақд пул, валюта, кредит масалаларидаги муаммолар ҳал қилингани, қўшниларимиз билан орамиздаги 25 йиллик “музлар эригани” ва бошқа ижобий ҳаракатлар ортга қайтмаслигининг конституциявий ҳимоясини таъминлаш зарур. Бу ютуқлар, ҳуқуқ ва эркинликлардан нафақат ҳозирги, балки келажак авлодларимиз ҳам эмин-эркин фойдаланиши учун, уларни, албатта, Конституцияда муҳраб қўйиш талаб этилмоқда.

Ҳаммамиз гувоҳи бўлаяпмизки, дунёда ҳар куни кутилмаган хавф-хатар ва таҳдидлар юзага чиқяпти. Бугунги зиддиятли жараёнлар, иқтисодий қарама-қаршиликлар қачон ва нима билан тугашини башорат қилиб бўлмайди. Ҳатто, айрим давлатларнинг дунё харитасида қолиш-қолмаслиги савол остида қолаётгани ҳам сир эмас. Жаҳондаги қарийб 100 миллион одам ўз ҳаётини сақлаш учун бошқа юртларда бошпана излаб юргани, озиқ-овқат етишмаслиги, энергия ресурслари тақчиллиги, пандемия каби глобал муаммолар ривожланган давлатлар аҳолисини ҳам жиддий ўйлантирмоқдаки, буларнинг бари бизга ҳам таъсир кўрсатмаслиги мумкин эмас.

### **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Бир нарсани алоҳида айтиш керакки, Конституциянинг бу матни олим-у мутахассислар томонидан фақат кабинетларда яратилмади. Балки, даставвал икки босқичда халқимизнинг фикри, таклифлари ўрганилди, шундан сўнггина Конституция лойиҳаси тайёрланди. Авваллари эса Конституция қабул қилишда дастлаб лойиҳа ишлаб чиқилиб, кейин халқ муҳокамасига қўйиларди.

- биринчи босқичда Конституция лойиҳасини шакллантириш учун фуқароларимиз 60 мингдан зиёд таклиф беришди. Уларнинг тахминан ҳар тўрттасидан биттаси лойиҳадан жой олди;

- иккинчи босқичда Конституция лойиҳаси умумхалқ муҳокамасига қўйилди. Оммавий ахборот воситалари, Интернет тармоқлари орқали лойиҳа билан 5 миллион аҳоли танишиб, 150 мингдан ортиқ таклиф ва мулоҳазалар айтилди.

Шу билан бирга, меҳнат жамоалари, олийгоҳлар, маҳалла фаоллари ва зиёлилар билан бўлиб ўтган муҳокамаларда ҳам яна қарийб 10 мингта қўшимча таклиф келиб тушди. Айни пайтда халқаро-ҳуқуқий ҳужжатлар ва 190 дан ортиқ давлатлар тажрибаси ўрганилди, лойиҳа 6 турдаги экспертизадан ўтказилди.

Буларнинг ҳаммаси янги таҳрирдаги Конституцияда жамиятнинг барча қатламлари манфаатлари инобатга олингани, Янги Ўзбекистонни қуриш ғояси атрофида бутун жамият жипслашгани, Бош Қомусимиз том маънода халқ Конституцияси бўлаётганидан далолат беради. Конституция лойиҳасидаги моддалар сони амалдаги 128 тадан 155 тага, нормалар сони 275 тадан 434 тага ошди. Яъни, Асосий қонунимиз матни қарийб 65 фоизга ортиди ва халқимиз таклифлари асосида янгиланди.

Конституцияда Ўзбекистон – суверен, демократик, ҳуқуқий ва ижтимоий давлат экани қатъий белгилаб қўйилмоқда. Кучли ижтимоий ҳимоя ва мухтожларга ғамхўрлик – давлат сиёсатининг муҳим йўналиши бўлиб қолади

Тарихимизда илк бора Ўзбекистон – ижтимоий давлат, деб белгиланмоқда. Яъни, инсонга эътибор ҳамда ғамхўрлик – давлат ва жамиятнинг энг асосий бурчи экани мустаҳкамланаяпти.

Конституцияда камбағалликни қисқартириш, бандликни таъминлаш, ишсизликдан ҳимоя қилиш бўйича давлат ўзига қатор янги мажбуриятлар олиши белгиланмоқда. Умуман давлатнинг ижтимоий соҳадаги мажбуриятлари билан боғлиқ Конституциядаги нормалар 3 баробар кўпайтириляпти.

Хусусан, Конституцияда ҳар кимнинг уй-жойли бўлиш ҳуқуқи белгиланмоқда. Ушбу норманинг амал қилиши ҳар бир фуқаро, жумладан, ёш оилаларнинг ўз бошпанасига эга бўлишини таъминлаб, кишиларнинг ҳаётдан розилик даражасини оширади.

Маълумот учун: ўтган йили мамлакатимизда 50 минг оила учун янги квартиралар олишга шароит яратиб берилган бўлса, бу йил 90 минг оилани уй-жойли қилиш марраси олинган. Яқин 2-3 йилда эса бу рақамни 200 мингга етказиш устида ишланмоқда.

Бундан ташқари, ҳеч ким суднинг қарорисиз ва қонунга зид тарзда уй-жойдан маҳрум этилиши мумкин эмаслиги, уй-жойдан маҳрум этилган мулкдорга уй-жойнинг қиймати ҳамда у кўрган зарарларнинг ўрни қонунда назарда тутилган ҳолларда ва тартибда олдиндан ҳамда тенг қийматда (бозор қийматида) қопланиши таъминланиши кафолатланмоқда.

Аҳоли кафолатланган бепул тиббий хизматлардан фойдаланиши ҳам лойиҳага киритилган. Умуман, лойиҳада аҳоли саломатлигини асраш билан боғлиқ нормалар 4 баробар кўпайтирилмоқда. Бу аҳоли соғлиғини ишончли муҳофаза этиш ҳамда оналар ва болалар ўлими, юқумли касалликлар таҳдидини бартараф этишда жуда муҳим аҳамиятга эгадир.

Маълумот учун: жорий йилда “Кафолатланган хизматлар пакети” қайта кўриб чиқилиб, унда 20 турдаги касалликлар бўйича диагностика, даволаш ва профилактика хизматлари ҳажми тўлиқ қамраб олинади.

Кўп учрайдиган 20 турдаги касалликлар бўйича бирламчи бўғиндаги бепул анализ турлари – 15 тадан 25 тагача, текширувлар – 10 тадан 20 тагача, дорилар – 64 тадан 90 тага оширилади.

Давлат бебаҳо табиий бойликларимизни кўпайтириш, асраб-авайлаш ва атроф-муҳит мусоффолигини сақлаш чораларини кўради

Аҳоли ҳаёти ва саломатлик даражасини яхшилашнинг зарурий шarti сифатида Конституцияда атроф-муҳитни муҳофаза қилиш бўйича комплекс чоралар белгиланмоқда.

Сўнги уч йилда қурилишлардан норози бўлиб, аҳолидан 15 мингта мурожаат келиб тушган, судлар томонидан биргина Тошкент шаҳрида 200 дан ортиқ қурилишлар тўхтатиб қўйилган, автомобиллар сони 1,3 миллионга кўпайиб, 3,6 миллионга етган, ҳар йили атмосфера ҳавосига 2,2 миллион тонна саноат ва транспорт ташланмалари чиқарилаётгани ҳам ушбу масала тобора долзарб аҳамият касб этаётганлигидан далолат бермоқда.

Шу муносабат билан, давлат атроф-муҳитни яхшилаш, тиклаш ва муҳофаза қилиш, экологик мувозанатни сақлаш бўйича чораларни амалга оширади, фуқароларнинг экологик ҳуқуқларини таъминлаш ва атроф-муҳитга зарарли таъсир кўрсатилишига йўл қўймаслик мақсадида шаҳарсозлик фаолияти соҳасида жамоатчилик назоратини амалга ошириш учун шарт-шароитлар яратади, деган норма мустаҳкамланмоқда.

Шаҳарларнинг бош режаларини жамоатчилик муҳокамасидан мажбурий ўтказилиши шартлиги ҳақидаги конституциявий қоида ҳозирги шароитда тобора долзарб аҳамият касб этиб бораётган шаҳарсозликка оид масалаларни халқимиз билан бамаслаҳат ечиш имконини беради.

Ҳар ким қулай атроф-муҳитга, унинг ҳолати тўғрисидаги ишончли ахборотга эга бўлиш ҳуқуқига эгаллиги белгиланмоқда. Аҳолимиз ва келажак авлод учун экологик тоза ҳудудни сақлаб қолишнинг конституциявий кафолатлари яратилапти.

Таълим олиш ҳуқуқи ва имконияти кенгайтирилади, ўқитувчилар конституциявий мақомга эга бўлади

Ижтимоий давлатга хос ёндашувлар таълим соҳасига оид кўплаб модда ва нормаларда ҳам ўз ифодасини топмоқда. Таълим ва илм-фанга оид нормалар қарийб 2 баробарга ошмоқда.

Жумладан, фуқароларнинг олий таълим муассасаларида давлат гранти ҳисобидан ўқиш ҳуқуқи қатъий белгилаб қўйилди.

Маълумот тариқасида айтиш мумкинки, 2017 йилгача олийгоҳларда ўқиш учун давлат грантлари сони фақат қисқариб келган бўлса, охириги олти йилда бу борадаги аҳвол бутунлай ўзгарди. Грантлар сони 2 баравар кўпайиб, 40 мингтага етди. Магистратура учун эса 5 баравар кўпайди.

Асосий қонунда фуқароларнинг бепул бошланғич касб-ҳунарга ўқитилиши ҳам белгиланмоқда.

Ногиронлиги бор болажонларимизга ўз тенгдошлари билан бир хил таълим олиши учун барча шароитларни яратиш кўзда тутиляпти. Шунинг учун, бундай имкониятлар инклюзив таълим сифатида Конституцияга киритилмоқда. Бу шундай нуқсонларга эга болаларимизнинг яққалиниб қолмаслиги,

жамиятнинг тўлақонли аъзоси сифатида шаклланиши ва камол топиши учун муҳим қафолатдир.

Конституцияда давлатнинг ўқитувчилар шаъни ва кадр-қимматини ҳимоя қилиш, уларнинг ижтимоий ва моддий фаровонлиги, касбий жиҳатдан ўсиши тўғрисида ғамхўрлик қилиш мажбурияти кучайтириляпти. Бу қоидалар мамлакатимиздаги 685 минг нафардан ортиқ ўқитувчиларнинг профессионал ўсиши ҳамда ижтимоий ва моддий қўллаб-қувватланиши уларнинг жамиятдаги ижтимоий мақоми, обрўсини янада оширишга хизмат қилади.

Олий таълим ташкилотларига академик эркинлик, ўзини ўзи бошқариш, тадқиқотлар ўтказиш ва ўқитиш эркинлиги ҳуқуқи тақдим этилмоқда. Конституциямизга ушбу норманинг киритилиши профессор-ўқитувчилар ва талабаларнинг ўқув жараёнидаги мустақиллигини таъминлашга хизмат қилади. Жумладан, кейинги йилларда кўплаб нодавлат олий ўқув юртлари очилди, хорижий университетлар филиаллари сони ортмоқда, 41 та давлат олий ўқув юртига академик ва молиявий мустақиллик берилди.

Яна бир муҳим янгилик – давлат оиланинг тўлақонли ривожланиши учун ижтимоий, иқтисодий, ҳуқуқий ва бошқа шарт-шароитлар яратиши конституциявий мустаҳкамланмоқда. Ушбу норманинг киритилиши жамиятимизда оила мустаҳкамлиги ва мўътабарлигини барқарор таъминлашга хизмат қилади.

Энди фарзандлар тарбияси, уларга таълим бериш, баркамол вояга етказиш ҳам ота-она мажбурияти сифатида белгиланмоқда. Боланинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини таъминлаш ҳамда ҳимоя қилиш, унинг жисмоний, ақлий ва маданий жиҳатдан тўлақонли ривожланиши учун энг яхши шарт-шароитларни яратиш эса давлатнинг бурчи сифатида белгиланмоқда.

Конституцияда ҳар кимнинг меҳнати учун ҳеч қандай камситишларсиз ҳамда меҳнатга ҳақ тўлашнинг белгиланган энг кам миқдоридан кам бўлмаган тарзда адолатли ҳақ олиш ҳуқуқи қафолатланмоқда. Мазкур норманинг Конституцияда белгиланиши фуқароларнинг иш ҳақлари миқдори шунчаки эмас, айнан уларнинг муносиб турмуш кечиришини таъминлашда, пировард натижада аҳоли турмуш даражасини яхшилашда ва мамлакатимизда ижтимоий адолатни устувор қадриятга айлантиришда муҳим аҳамиятга эга.

Лойиҳада ҳомиладорлиги ёки боласи борлиги билан боғлиқ сабабларга кўра аёлларни ишга қабул қилишни рад этиш, ишдан бўшатиш ва уларнинг иш ҳақини камайтириш тақиқланиши белгиланмоқдаки, булар давлатимизда гендер тенглиги принциплари тўлақонли амал қилишига олиб келиши тайин.



Бундан ташқари, давлат фуқароларнинг бандлигини таъминлаш, уларни ишсизликдан ҳимоя қилиш, шунингдек, камбағалликни қисқартириш чораларини кўриши ҳам мустаҳкамланмоқда.

Қолаверса, давлат фуқароларнинг касбий тайёргарлигини ва қайта тайёрланишини ташкил этиши ҳамда рағбатлантириши қайд қилинмоқда. Бу янги норма иш билан таъминланмаган фуқароларни камбағаллик ҳолатига тушиб қолишининг олди олишга ёки камбағаллик тоифасига кириб қолган фуқароларни ундан чиқариш бўйича давлат томонидан тегишли чоралар кўрилишига конституциявий кафолат сифатида хизмат қилади.

Конституцияда болалар меҳнатининг боланинг соғлиғига, хавфсизлигига, ахлоқига, ақлий ва жисмоний ривожланишига хавф солувчи, шу жумладан унинг таълим олишига тўсқинлик қилувчи ҳар қандай шакллари тақиқланиши белгиланмоқда. Шукрки, бугунги Ўзбекистонда узоқ йиллар юртимизнинг халқаро имиджига салбий таъсир қилиб келган мажбурий меҳнатга тўлиқ барҳам берилди.

Лойиҳада ҳар ким ишсизликда ижтимоий таъминот олиш ҳуқуқига эгаллиги мустаҳкамланяпти. Пенсия, нафақа ва бошқа ижтимоий ёрдамлар миқдори энг кам истеъмол харажатларидан оз бўлиши мумкин эмаслиги белгилаб қўйилмоқда.

Бу дегани, ҳозирнинг ўзида 2 миллион 200 минг эҳтиёжманд оилалар давлатдан кафолатли моддий ёрдам олади, деганидир. Бу – жами оилаларнинг 25 фоизига тўғри келадики, айти харажатлар учун ҳар йили 11 триллион сўм ажратилади.

Конституция лойиҳасида Ўзбекистон – ҳуқуқий давлат, деб белгиланмоқда.

Жумладан, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш давлатнинг олий мақсади, дея эълон қилинар экан, унда инсон ҳуқуқларига оид нормалар 3 баравардан ортиққа ошмоқда.

Инсон ҳуқуқ ва эркинликлари қонунларимизнинг, ҳар бир вазирлик ва идора фаолиятининг мазмунига айланиши қатъий талаб сифатида белгиланяптики, бу ҳол давлат органлари ҳамда мансабдор шахсларнинг фақат ва фақат фуқароларнинг манфаатларини кўзлаб фаолият кўрсатишига асос бўлади.

Бинобарин, қонунлардаги зиддиятлар ва ноаниқликлар инсон фойдасига ҳал бўлиши шарт ва зарур. Бунга кўра, инсон ва давлат ўртасида муносабатларни тартибга солувчи қонунчиликдаги ноаниқликлар, турли

тушунмовчиликлар бартараф этилади, фуқароларнинг ортиқча оворагарчиликлари олди олинади.

Конституцияда давлат органлари томонидан инсонга нисбатан қўлланиладиган ҳуқуқий таъсир чоралари мутаносиблик принципига асосланиши ва қонунларда назарда тутилган мақсадларга эришиш учун етарли бўлиши кераклиги мустаҳкамланмоқда. Қонунчиликда белгиланмаган мажбурият ҳеч кимнинг зиммасига ўз розилигисиз юклатилиши мумкин эмаслиги қайд этиляптики, ушбу норма одамлар ҳаётини янада энгиллаштиради.

Ҳужжат лойиҳасида Ўзбекистон Республикаси фуқароси Ўзбекистондан ташқарига мажбурий чиқариб юборилиши ёки бошқа давлатга бериб юборилиши мумкин эмаслиги белгиланмоқда. Бу норма фуқароларимизнинг доимий равишда давлат ҳимоясида эканлигига ишончини мустаҳкамлашга, ўз юртидан чиқариб юборилиши ёки бошқа давлатга берилиши каби ҳолатларнинг олдини олишга хизмат қилади.

Давлат хорижда яшаётган ватандошлар билан алоқаларнинг сақлаб қолиниши ҳамда ривожланиши тўғрисида ғамхўрлик қилиши таъкидланяпти. Ушбу норма чет элларда яшаётган, ишлаётган, таълим олаётган ватандошларимизни Ватани билан доимий алоқада бўлишига, тили, маданиятини сақлаб қолиш ҳамда ривожлантиришига, она юрти – Ўзбекистоннинг обрўсини янада оширишга ўз хиссасини қўшишига хизмат қилади.

Инсон ҳуқуқ ва эркинликлари кафолатлари сезиларли даражада кучайтирилмоқда

Хусусан, Ўзбекистонда ўлим жазоси тақиқланмоқда. Ўлим жазосини тақиқлашни конституциявий даражада белгиланиши инсонни ҳаётдан ҳатто давлат ҳам маҳрум этишга ҳақли эмаслигини кафолатлайди.

Бундан ташқари, шахс суднинг қарорисиз 48 соатдан ортиқ муддат ушлаб турилиши мумкин эмаслиги белгиланяпти. Яъни, шахснинг эркинлигини чеклаш билан боғлиқ ҳар қандай ҳаракат фақатгина суд қарори асосида амалга оширилиши шарт. Ушбу қоида тергов органлари томонидан инсонларни ноқонуний ҳибсга олиш, асоссиз қамоққа олиш ва сақлашга йўл қўймасликка қаратилгандир. Бу орқали халқаро эътироф этилган “Хабеас корпус” институтини қўлланиш кўлами янада кенгайди.

Илк бор шахсни ушлаш чоғида унга тушунарли тилда унинг ҳуқуқлари ва ушлаб турилиши асослари тушунтирилиши шартлиги, айбланувчи ва

судланувчиларга ўзига қарши кўрсатма бермаслик (халқаро эътироф этилган “Миранда қондаси”), сукут сақлаш ҳуқуқи берилмоқда.

Ҳар кимнинг ёзишмалари, телефон орқали сўзлашувлари, почта, электрон ва бошқа хабарлари сир сақланиш ҳуқуқига эга эканлиги белгиланмоқда. Бундай ҳуқуқларнинг чекланишига ёки уй-жойда тинтув ўтказишга фақат қонунга мувофиқ ва суднинг қарорига асосан йўл қўйилиши белгилаб қўйилмоқда.

Ҳар ким ўз ҳуқуқ ва эркинликларини қонунда тақиқланмаган барча усуллар билан ҳимоя қилишга ҳақлилиги белгиланяпти. Ушбу қонуннинг мазмун-моҳияти шундаки, фуқаролар ўз бузилган ҳуқуқ ва эркинликларини, ўзгалар ҳуқуқларини бузмаган ҳолда, мустақил ҳимоя қилиш ҳуқуқига эга. Ягона шарт – бу фуқаролар томонидан ўзини ҳимоя қилишда қўлланиладиган усуллар ёки чораларнинг қонунчилик ҳужжатларида тақиқланмаган бўлишидир.

Конституциявий ҳуқуқ ва эркинликлар доираси кенгаймоқда

Биринчи маротаба ҳар ким Ўзбекистон Республикасининг қонунчилигига ва халқаро шартномаларига мувофиқ, агар давлатнинг ҳуқуқий ҳимояга доир барча ички воситаларидан фойдаланиб бўлинган бўлса, инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилувчи халқаро органларга мурожаат этишга ҳақли эканлиги мустаҳкамланмоқда. Бу фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳимояси нафақат миллий қонунчиликда белгиланган нормалар, балки халқаро ҳуқуқ асосида ҳам ҳимояланишини таъминлайди.

Булардан ташқари, ҳар ким давлат органларининг ёхуд улар мансабдор шахсларининг қонунга хилоф қарорлари, ҳаракатлари ёки ҳаракатсизлиги туфайли етказилган зарарнинг ўрни давлат томонидан қопланиши ҳуқуқига эгаллиги қайд этилмоқда.

Конституцияда айбдорликка оид барча шубҳалар, агар уларни бартараф этиш имкониятлари тугаган бўлса, гумон қилинувчининг, айбланувчининг, судланувчининг ёки маҳкумнинг фойдасига ҳал қилиниши кераклиги қайд этилмоқда. Мазкур норма тўғридан-тўғри амал қилувчи қоида бўлиб, тергов ва суд жараёнида фақат ишончли ва қонуний далиллардан фойдаланишни таъминлайди ҳамда шахсни асоссиз равишда жавобгарликка тортилишдан ҳимоя қилади.

Қолаверса, гумон қилинувчи, айбланувчи ёки судланувчи ўзининг айбсизлигини исботлаши шарт эмаслиги мустаҳкамланмоқда, ҳеч ким ўзига ва яқин қариндошларига қарши гувоҳлик беришга мажбур эмаслиги белгиланмоқда. Бу қоидаларнинг Конституцияда белгиланиши жиноий таъқиб остидаги ҳар қандай шахсга ёки унинг яқин қариндошларига руҳий босим ва

турли таҳдидлар ўтказиш, унинг шаъни ва кадр-қимматини камситиш каби бошқа ноқонуний усуллар қўлланишини олдини олишга хизмат қилади.

Яна бир муҳим норма – агар шахснинг ўз айбини тан олганлиги унга қарши ягона далил бўлса, у айбдор деб топилиши ёки жазога тортилиши мумкин эмаслиги кафолатланмоқда. Бу ҳол жиноят бўйича ҳақиқатни аниқлаш, шунингдек, айбсиз инсонларнинг жавобгарликка тортилишини олдини олишга, айти пайтда, жиноят содир этган ҳақиқий айбдор шахс ёки шахсларни аниқлашга хизмат қилади.

Озодликдан маҳрум этилган шахслар ўзига нисбатан инсоний муомалада бўлиниши ҳамда инсон шахсига хос бўлган шаъни ва кадр-қиммати ҳурмат қилиниши ҳуқуқига эгаллиги ҳам тарихда илк бор конституциявий мустаҳкамланмоқда.

Қолаверса, шахснинг судланганлиги ва бундан келиб чиқадиган ҳуқуқий оқибатлар унинг қариндошлари ҳуқуқларини чеклаш учун асос бўлиши мумкин эмаслиги белгиланяптики, буларнинг ҳаммаси мустабид тузумдан қолган иллатга, қанча ёшларимизни ўз орзу-умидларидан воз кечишга мажбур қилган ноинсоний тақиқларга чек қўяди.

Конституцияда ҳар ким ўз шахсига доир маълумотларнинг ҳимоя қилиниши ҳуқуқига, шунингдек нотўғри маълумотларнинг тузатилишини, ўзи тўғрисида қонунга ҳилоф йўл билан тўпланган ёки ҳуқуқий асосларга эга бўлмай қолган маълумотларнинг йўқ қилинишини талаб қилиш ҳуқуқига эга эканлиги мустаҳкамланмоқда.

Қонуний асосларда Ўзбекистон Республикаси ҳудудида бўлиб турган ҳар ким мамлакат бўйлаб эркин ҳаракатланиш, турар ва яшаш жойини эркин танлаш ҳуқуқига эгаллиги, ҳар ким Ўзбекистондан ташқарига эркин чиқиш ҳуқуқига ҳамда Ўзбекистон Республикаси фуқароси Ўзбекистонга тўсқинликсиз қайтиш ҳуқуқига эгаллиги белгиланмоқда. Эндиликда мазкур конституциявий қоида киритилиши билан эркин ҳаракатланиш қадрият даражасида олий ҳуқуқий норма сифатида мустаҳкамланмоқдаки, бу “прописка” тизими муаммосига ҳам барҳам беради.

Лойиҳада давлатнинг фуқароларга Интернет жаҳон ахборот тармоғидан фойдаланишни таъминлаш учун шарт-шароитлар яратиши кафолатланмоқда. Зеро, Ўзбекистонда Интернетдан фойдаланувчилар сони 2016 йилда 12,1 млн бўлган бўлса, 2022 йилга келиб икки баробарга, яъни 24 млндан ошди, шунингдек, мамлакатимиз аҳоли яшаш масканлари ҳудудининг Интернет тармоғи билан қамрови 2016 йилдаги 28% дан 2022 йилда 98% га етган.

Ёшлар ҳуқуқлари ҳимояланиши ва уларнинг жамият ва давлат ҳаётида фаол иштирокини рағбатлантириш кафолатланмоқда.

Жумладан, давлат:

- ёшлар ҳуқуқлари ҳимояланиши ва уларнинг жамият ва давлат ҳаётида фаол иштирокини рағбатлантиришни кафолатлаяпти;

- ёшларда миллий ва умуминсоний қадриятларга содиқлик, халқнинг бой маданий меросидан фахрланиш, ватанпарварлик туйғуларини шаклланишига ғамхўрлик қилиши белгиланаяпти.

Бундан ташқари, ёшларнинг таълим олиши, ижтимоий ва тиббий ҳимояси, уй-жойли бўлиши, бандлиги учун шарт-шароитлар яратиш – давлатнинг конституциявий мажбурияти сифатида киритилапти. Давлат шу орқали ўз зиммасига муҳим мажбуриятларни олмоқдаки, мазкур нормалар, нафақат ёшлар манфаати, балки бутун жамиятимиз ва мамлакатимизнинг келгуси тақдири учун муҳимдир.

Рақобатбардош миллий иқтисодиёт, хусусий тадбиркорлик ва мулк ҳуқуқи кафолатлари мустаҳкамланмоқда.

Ўзбекистон Республикасида барча мулк шакллариининг тенг ҳуқуқлилиги ва ҳуқуқий жиҳатдан ҳимоя қилиниши таъминланиши қатъий белгиланмоқда. Бу фуқаролар фаровонлигини оширишга йўналтирилган Ўзбекистон иқтисодиётининг ривожланиши, мулкдорлар қатламини кенгайтишига хизмат қилади.

Давлат қулай инвестициявий ва ишбилармонлик муҳитини таъминланиши бўйича қоида мустаҳкамланмоқда. Мазкур норма мамлакат иқтисодиётига тўғридан-тўғри инвестицияларни жалб этишни рағбатлантиришга, инвесторларнинг ишончини мустаҳкамлашга, тадбиркорлар ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашга хизмат қилади.

Тадбиркорларнинг қонунчиликка мувофиқ ҳар қандай фаолиятни амалга оширишга ва ўз фаолияти йўналишларини мустақил равишда танлашга ҳақли эканлиги белгиланмоқда. Конституцияга киритилаётган мазкур қўшимчалар эркин бозор иқтисодиётининг энг муҳим талабини ўзида ифода этиб, тадбиркорлик фаолиятини давлат томонидан тартибга солишни асосий мезонларини конституциявий даражада мустаҳкамлашга хизмат қилади.

Ўзбекистон Республикаси ҳудудида иқтисодий макон бирлиги, товарлар, хизматлар, меҳнат ресурслари ва молиявий маблағларнинг эркин ҳаракатланиши кафолатланиши мустаҳкамланмоқда. Бу ҳол товарлар ва хизматларнинг эркин ҳаракатланиши ва реализация қилинишини ноқонуний



чеклашни олдини олишга ва меҳнат ресурсларининг эркин ҳаракатига замин яратади.

Монопол фаолият қонун билан тартибга солиниши ва чекланиши мустаҳкамланмоқда. Конституцияга ушбу норманинг киритилиши товар ва хизматлар бозорининг барча иштирокчилари учун тенг иқтисодий-ҳуқуқий имкониятлар яратиш орқали тадбиркорлар ўртасида ҳалол рақобатни ривожлантиришга ҳамда ишлаб чиқаришга янгиликларни тезкор жорий этиш орқали самарадорликни юксалтиришга хизмат қилади.

Конституцияда илк мартаба ер хусусий мулк бўлиши мумкинлиги назарда тутилмоқда. Ушбу норма янги таҳрирдаги Конституциямиздаги ҳақиқий инқилобий янгиликлардан бири сифатида мулкчилик муносабатларидаги бўшлиқни тўлдирди.

Инсон фаровон яшаши, давлат барқарор ривожланиши учун самарали, ихчам ва халқчил давлат бошқаруви жорий қилинади, парламентаризмни кучайтириш сари дадил қадам қўйилади

Янги таҳрирдаги Конституция халқпарвар давлат қуриш мақсадида кучли парламент, ихчам ва масъулиятли ҳукумат, мустақил ва адолатли суд тизимини барпо этишга қаратилган.

Парламент палаталарининг ваколатлари қайта кўриб чиқилмоқда. Унга кўра, Қонунчилик палатаси ва Сенатнинг ваколатлари сезиларли даражада кенгаймоқда, икки палата ишидаги такрорланишлар бартараф этилиб, ҳар бирининг масъулият соҳаси аниқ белгиланмоқда.

Хусусан, Қонунчилик палатасининг мутлақ ваколатлари амалдаги 5 тадан 12 тага, Сенатда эса, 14 тадан 18 тага кўпаймоқда.

Ҳукуматни шакллантириш ва унинг фаолиятини назорат қилиш, Давлат бюджети ижросига оид масалалар Қонунчилик палатасининг ваколатига, ҳудудлар манфаати ва уларни ривожлантириш, янги вазирликлар ташкил қилиш тўғрисидаги фармонларни тасдиқлаш масалалари эса Сенат ваколатлари доирасига тааллуқли эканлиги мустаҳкамланиши шулар жумласидандир.

Сенат олдида қўйилаётган янги вазифалардан келиб чиқиб, уни ихчам, халқчил ва ҳудудлар манфаатини ифода этадиган идорага айлантириш бўйича нормалар Конституцияда кўзда тутилмоқда. Хусусан, сенаторлар сонини ҳозирги 100 нафардан 65 нафарга тушириш, бунда ҳар бир ҳудуддан тенг равишда 4 тадан сенатор сайланиши, Президент томонидан тайинланадиган сенаторлар сони эса 16 тадан 9 тага камайтирилиши белгиланмоқда.

Парламентнинг қуйи палатаси томонидан киритилган қонунлар Сенатда 60 кун ичида кўриб чиқилиши, муддат ўтиб кетса, ушбу қонун маъқулланган деб

ҳисобланиши ва имзолаш учун Президентга юбориш бўйича норма киритилмоқда.

Парламентнинг суд ва назорат органлари, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ва махсус хизматлар фаолияти устидан назорат функциялари кучайтирилмоқда

Янги таҳрирдаги Конституцияда Ўзбекистон Республикаси Бош прокурори, Ўзбекистон Республикаси Ҳисоб палатаси раҳбарлигига номзодлар аввал Сенатда кўриб чиқилиб, кейин Президент томонидан тайинланиши, шунингдек, республика коррупцияга қарши курашиш органи ва республика монополияга қарши органи раҳбарлари Сенат томонидан сайланиши амалиётини жорий этиш таклиф этилди.

Махсус хизматлар фаолияти устидан парламент назоратини кучайтириш мақсадида Давлат хавфсизлик хизмати раҳбарлигига номзод Сенат билан маслаҳатлашувлардан сўнг Президент томонидан лавозимга тайинланиши белгиланмоқда.

Олий Мажлис палаталарининг биргаликдаги ваколатлари ҳам кучайтирилиб, парламент назоратининг муҳим шакли бўлган парламент текшируви институти Конституцияда алоҳида мустаҳкамлаб қўйилмоқда.

Суд ҳокимиятининг чинакам мустақиллигини таъминлаш мақсадида Судьялар олий кенгашининг барча аъзоларини Сенат томонидан сайлаш тизими киритилмоқда.

Айрим олий мансабдор шахсларнинг лавозимга сайланиш ёки тайинланиш муддатлари бўйича чекловлар белгиланади.

Сенат Раиси ва Қонунчилик палатаси Спикери, Олий суд ва Судьялар олий кенгаши раислари, уларнинг ўринбосарлари, Бош прокурор, Марказий сайлов комиссияси раиси, ҳокимларни лавозимга икки муддатдан ортиқ сайлаш ёки тайинлашга чеклов киритилмоқда.

Конституциявий суд судьяларини қайта сайланиш ҳуқуқисиз 10 йилга сайлаш тартиби белгиланмоқда (ҳозирда биринчи марта 5 йилга, кейин яна 10 йилга сайланади).

Конституцияга адвокатура институтига бағишланган ва адвокатлар фаолиятининг кафолатларини мустаҳкамловчи алоҳида боб киритилмоқда. Адвокат, унинг шаъни, қадр-қиммати ва касбий фаолияти давлат ҳимояси бўлиши ва қонун билан муҳофаза қилиниши мустаҳкамланмоқда.

Вазирлар Маҳкамасининг ваколатлари ва функциялари, унинг жавобгарлиги сезиларли даражада кенгайтирилмоқда. Хусусан, барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш, қулай инвестиция муҳитини яратиш,

камбағалликни қисқартириш, аҳоли учун муносиб турмуш шароитларини яратиш, аҳолини, шу жумладан, ногиронлиги бор шахсларни ижтимоий ҳимоя қилиш тизимининг самарали фаолият кўрсатишини таъминлаш, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, табиий бойликлар ҳамда биологик хилма-хилликни сақлаш ва бошқа соҳаларда ўз олдига қўйилган вазифаларни ҳал этиш учун масъуллиги кенгайтирилди. Бундан ташқари, Ҳукумат зиммасига ижро этувчи ҳокимият органларининг ишида очиқлик ва шаффофликни, қонунийлик ва самарадорликни таъминлаш, давлат хизматларининг сифатини ошириш ва улардан фойдаланиш имкониятини кенгайтириш, фуқаролик жамияти институтларини қўллаб-қувватлаш вазифалари юклатилди.

Ҳокимларнинг халқ депутатлари Кенгашларига раҳбарлик қилиш институти босқичма-босқич бекор қилинади

Маҳаллий ижро этувчи ва вакиллик ҳокимиятининг бўлиниши мамлакатда бутун давлат бошқаруви тизимини чуқур ислоҳ қилиш учун асос бўлади. Шу асосда, маҳаллий Кенгаш раиси билан ҳоким лавозимини бир-биридан ажратиш амалга оширилади.

Барча масалалар ечими чинакам халқ овози бўлган маҳалла даражасига туширилади

Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари давлат ҳокимияти органлари тизимига кирмаслиги белгилаб қўйилмоқда. Конституциямизда мазкур кафолатнинг белгиланиши маҳаллаларга ўз ҳудудини мустақил бошқариш, аҳоли манфаатларидан келиб чиқиб давлат билан шериклик асосида муаммоларни ҳал этиб бориш, ҳудудни ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан ривожлантириш, самарали жамоатчилик назоратини амалга ошириш, аҳоли фаровонлигини таъминлашга муҳим имкониятларни тақдим этади.

Оммавий ахборот воситалари ва фуқаролик жамияти институтлари янада фаол бўлиши учун кенг имконият ва кучли ҳимоя тақдим этилмоқда

## **ХУЛОСА**

Хусусан, оммавий ахборот воситалари фаолиятига тўсқинлик қилиш ёки аралаштириш қонунга мувофиқ жавобгарликка сабаб бўлиши белгиланмоқда. Ушбу норма журналистларнинг эркин, турли маъмурий босимлардан қўрқмасдан фаолият юритишини таъминлайди ҳамда мамлакатимизда ахборот эркинлигини янада юксалишига, жамиятда очиқлик ва ошкоралик, қонунийлик муҳитини мустаҳкамлашга хизмат қилади. Пировардида, давлат ва жамият ўртасидаги мулоқотни мустаҳкамлашга, кучли жамоатчилик назоратини йўлга қўйишга ва сўз эркинлигини таъминлашга эришилади.

Шунингдек, Конституцияда оммавий ахборот воситалари фаолиятининг эркинлиги, уларнинг ахборотни излаш, олиш, ундан фойдаланиш ва уни тарқатишга бўлган ҳуқуқлари кафолатланмоқда.

Конституциямизга илк мартаба фуқаролик жамияти институтларига бағишланган алоҳида боб киритилиши ва улар фаолияти кафолатларининг белгиланиши жамиятда очиклик, ошкоралик ва қонунийлик муҳитини, давлат ва жамият ўртасидаги мулоқотни мустаҳкамлаш ҳамда кучли жамоатчилик назоратини йўлга қўйиш учун мустаҳкам замин ҳозирлайди.

### **Фойдаланилган адабиётлар (REFERENCES)**

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, Т. "Ўзбекистон", 2021й.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. // [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz).
3. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Asarlar. I-jild. – Toshkent: O'zbekiston, NMIU, 2017.
4. <https://t.me/huquqiyaxborot>

## **NAJMIDDIN KUBRO – MO‘G‘ULLARGA QARSHI KURASHGAN XALQ QAHRAMONI**

**Xaitov Bahodir Tursunovich**

Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti

Gumanitar fanlar kafedrasida katta o‘qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi mardonavor kurash olib borgan xalq qahramoni Najmiddin Kubroning faoliyati qisqacha bayon etilgan. Bugungi globalashuv davri harbiy xizmatchilar oldiga qator talablarni ilgari surmoqda. Bo‘lajak ofitserlar nafaqat jismonan, balki ma‘naviy yetuk bo‘lishi zarurligi, shuningdek, mard va jasur farzandlargina Vatanning haqiqiy posboni bo‘la olishlari mumkin. Maqolada yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Najmiddin Kubroning qahramonligidan o‘rnak olishlari lozimligi uqtirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Najmiddin Kubro, Xorazmshohlar davlati, mo‘g‘ullar bosqini, Chingizxon, Vatan, vatanparvarlik.*

### **ABSTRACT**

*This article briefly describes the work of Najmuddin Kubro, the hero of the nation, who fought valiantly against the Mongol invaders. Today's era of globalization puts a number of demands on military personnel. Future officers need to be mature not only physically, but also spiritually, and only brave and brave children can become real guardians of the Motherland. The article mentions the need to follow the example of the heroism of Najmuddin Kubro in educating young people in the spirit of patriotism.*

**Key words:** *Najmuddin Kubro, Khorezmshah state, Mongol invasion, Genghis Khan, Homeland, patriotism.*

### **KIRISH**

Najmiddin Kubro – kubroviya tariqatining asoschisi, mashhur shoir, buyuk avliyo bo‘lish bilan birga ona-Vatanga sadoqati va mehr-muhabbati tufayli dushman bilan jangda ulug‘ sarkardalarcha kurashib shahid bo‘ladiki, uning pok nomi tarixlarga oltin harflar bilan yozildi, hayoti e‘tiqod va ma‘naviy jasoratning buyuk timsoliga aylandi.

Najmiddin Kubro milliy qahramon nomini olgan buyuk shaxsdir.

Vatan ozodligi, millat ravnaqi, xalq taqdiri va farovonligi yo‘lida jonini garovga tikib, mardlik namunalari ko‘rsatgan fidoyi insonlarni milliy qahramon deb ataymiz.

Najmiddin Kubro – tasavvufning mashhur shayxlaridan biri, kubroviya tariqatining asoschisi. Uning hayoti, karomatlari, saxovatu qahramonliklari haqida el



orasida ko‘plab afsona va rivoyatlar mavjud. Xalqimiz o‘zining bu aziz va tabarruk farzandini e‘zozlab, asrlar davomida nomini xotirasida saqlab kelmoqda.

Tasavvufga oid manbalarda ham Najmiddin Kubroning ishlari, martaba va mo‘‘jizalari haqida so‘z boradi. Manbalarning mualliflari, odatdagiday, shayxning tarjimai holini qisqacha ma‘lumotlar berish bilan kifoyalangan holda, ko‘proq ul zotning ko‘rsatgan karomatlarini bayon etish, ustozlari kimligini aytish va tariqatdagi nisbat – silsilasini aniqlashga e‘tibor berganlar.

Chunonchi, Doroshukuhning “Safinat ul-avliyo”, Rizoqulixon Hidoyatning “Riyozul orifin”, Hoji Xalifaning “Tuhfat ul-fuqaro”, Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”, Sulton Husayn bin Sulton Mansur bin Boyqaroning “Majolis ul-ushshoq”, Mavlono Minhajiddinning “Tabaqoti Nosiriy” nomli kitoblarida Najmiddin Kubroning hayoti, sufiylik tariqati va faoliyatiga oid ma‘lumotlar keltirilgan.

Atoqli sharqshunos olim E.E.Bertels xorazmlik ulug‘ shayxning tarjimai holini o‘rganish sari birinchi qadamni qo‘yib, manbalardan Najmiddin Kubro ruboiylarini yig‘ib e‘lon qilgan va shayx haqidagi qadimgi o‘zbekcha qissalardan birini mazmunan qisqacha bayon qilib bergan [4-156].

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Najmiddin Kubro 1145-yilda Xiva shahrida dunyoga keladi. Uning asli ismi Ahmad bin Umar Muhammad alXivaqiy al-Xorazmiy bo‘lib, “Najmiddin”, “Kubro”, “Abuljannob”, “Valiytarosh” so‘zlari bu zoti mukarramning laqab, unvon va kuniyatidir. Qayd etish joizki, bizning ota-bobolarimiz ulug‘ insonlarni martaba va darajasiga munosib ravishda ulug‘ nomlar bilan sharaflab tilga olishni odat qilgan edilar. Ahmad bin Umarning o‘z ismini qo‘yib, laqab va unvonlar bilan el orasida mashhur bo‘lishiga sabab shudir. Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns” asarida qayd etilishicha, Ahmad yoshligidan ilm-donishga qiziqqan qobiliyatli kishi bo‘lgan ekan. U islom asoslari, shariat ilmlarini juda tez o‘zlashtirib olib, Xorazmning manaman degan ulamolaridan o‘zib ketadi va “ilm balosi” degan laqabni oladi. Buning yoniga “Najmiddin” – “dinning yulduzi” degan martaba-unvon qo‘shilib, Ahmad bin Umar shundan keyin Najmiddin Kubro nomi bilan mashhur bo‘lib ketadi. “Abuljannob” so‘zi esa Najmiddin Kubroning kuniyatidir. Mazkur so‘zning ma‘nosi dunyodan parhez qilgan taqvodorning otasi demakdir. Boshqacha qilib aytganda, shayxning taqvo va tavba posboni ekanligiga ishoradir. Jomiy hazratlari yozadilarki, Najmiddin Kubro Iskandariya shahrida muhaddis ulamolaridan hadis ilmini o‘rganib qaytayotganida, yo‘lda bir kecha Hazrati Payg‘ambarimizni tushida ko‘radi va ul zotga murojaat qilib, “menga kuniyat bag‘ishlang” deydi. Hazrati Payg‘ambar Najmiddinga: “Sening kuniyating Abuljannob – dunyodan ijtinob, parhez etuvchi

bo'ladi", deb marhamat qiladilar. Aytishlaricha, Najmiddin shu bashoratdan keyin tasavvufga yuz o'girib, o'ziga munosib piri murshid qidirishga kirishadi.

"Valiytarosh" laqabiga kelsak, bu so'zning ma'nosi "valilarni tarbiyalovchi" demakdir. Zero, Najmiddin Kubroning nafasлари, nazarları shunchalik zo'r bo'lganki, qalblarida ilhom-vajd jo'sh urgan paytda kimga nazarları tushsa, u valiylik martabasini topar ekan [4-157].

Najmiddin Kubro xorijda tahsil olib, yashagan hududlarida ijtimoiy-siyosiy vaziyat birmuncha barqaror va osoyishtalik mavjud bo'lgan. Jumladan, Misrda Salohiddin Yusuf ibn Ayyub (1138-1193) sulton bo'lib (1171-1193), Ayyubiylar sulolasiga (1171-1250) asos soldi. U qisqa vaqt ichida Arabiston va Suriyani ham o'z davlati tarkibiga qo'shib oldi, natijada yirik siyosiy-ma'muriy birlik tashkil topdi. G'arbiy Eron, Iroq va Ozarbayjon hududlarida esa, Saljuqiylarning Iroq sultonligi (1118-1194) vujudga keldi va uning poytaxti Hamadon shahri edi.

Xuddi shu davrlarda Xorazmning iqtisodiy jihatdan tez yuksalishi, muvaffaqiyatli urushlar, savdo-sotiqning gurkirab avj olishi tufayli bu yerda "ulug' xorazmshohlar" davri – xalq ommasi farovonligining nisbatan oshishi, ijtimoiy ziddiyatlarning vaqtincha susayishi davri bo'lgan bo'lsa, imperiyaning chekka joylarida bu davrda ro'y bergan voqealar xalq ommasi ahvoning og'irlashuviga olib keldi. Aholining Xorazm qo'shini tomonidan to'g'ridan-to'g'ri talanishidan tashqari, uzoq davom etgan urushlar hamda yangi qo'shib olingan yerlar xorazmshohlarning yaqinlariga va ittifoqchilariga saxiylik bilan in'om etilishi shunga olib keladi. Ustiga ustak, mahalliy zodagonlar tashqi talofatning o'rnini qoplash uchun dehqon va hunarmandlarni ezishni kuchaytirib yubordilar. Natijada mamlakatda sinfiy kurash kuchayib avj oldi. Bu esa, o'z navbatida, xorazmshohlar davlati poydevorini bo'shashtirdi.

Xorazmshohlar davlatida fan, madaniyat, adabiyot va san'at ham rivoj topgan. Xorazmshohlar o'z davlatining shon-shuhratini oshirish, uni ulug'lash maqsadida o'z saroylariga adabiyot, san'at ahllarini to'plaganlar, ularga rahnamolik qilganlar. Xorazmshohlar davlatida madaniyat, adabiyot va san'at ayniqsa Takash va Muhammad hukmronlik qilgan davrlarda rivoj topdi.

Ushbu davrning taniqli olimlari jumlasiga Rashididdin Votvot, Ismoil Isfahoniy, Tohir Faryobiy, Abulfayz Axsikatiy, Sayfuddin Buxoriy, Abulmajd Jandiy, Ali Hijoziy, Ismoil Jurjoniy, Ali Xorazmiy, Abulhasan Xorazmiy, Muhammad Axsikatiy, Abdulloh ar-Roziy, Mahmud Samarqandiy, Mas'ud Xo'jandiy, Mahmud Zamaxshariy, Abdulkarim as-Sam'oni va boshqalarning nomlarini keltirish mumkin.

1221-yilning qishida 50 ming kishilik mo'g'ul askarlari hujum boshlab, Urganchni qamal qiladi. Urganchliklar dushmanning harbiy kuch va zirhli

quollarining ustunligiga qaramay o‘z ona shahrini mardlarcha mudofaa qiladilar. Mo‘g‘ul askarlari ichiga neft to‘lg‘azilib, piligi yonib turgan ko‘zachalarni irg‘itib tursa-da, erksevar Urganch aholisi bunday og‘ir damlarda ham dushmanga qarshi mardonavor kurashdi. Poytaxt ichida olib borilgan ko‘cha janglarida zamonining buyuk allomasi Najmiddin Kubro o‘z do‘st-u shogirdlari va izdoshlari bilan ishtirok etadi. N.Kubroning iltijo bilan “Yo Vatan, yo sharofatli o‘lim” deb aytgan xitobi rahnamoligida har bir mahalla, ko‘cha-kuy, guzar-u rasta, masjid-u madrasa va har bir xonadon janggohga aylanadi. Mudofaachilar qadrdon shaharning har bir qarich yerini mardona himoya qilib, mardlik va fidokorlik namunalari ko‘rsatadilar. Uzoq davom etgan ko‘cha janglarida minglab mo‘g‘ul askarlari halok bo‘ladi. Mo‘g‘ullar to‘shu paytgacha Movarounnahrning hech bir shahrida bunchalik qurbon bermagan edilar. Bu qonli kurash yetti oy davom etgan.

Mo‘g‘ullar Najmiddin Kubroga ahli a‘yonlari, barcha yor-u do‘stlari bilan shahar tashqarisiga chiqib, jon saqlashni taklif etgan. Ammo shayx ularning taklifini rad qilgan. Oqibat son jihatdan teng bo‘lmagan dushman bilan olib borilgan shiddatli jangda og‘ir yaralangan N.Kubro qahramonlarcha shahid bo‘ladi [6-142].

Najmiddin Kubro 1221-yilda Chingizxon to‘dalariga qarshi jangda shahid bo‘ladi. Dushman Xorazmga yaqinlashganda, Muhammad Xorazmshoh qochib ketgan, lashkar parokanda edi. Shayx muridlarini jamlab, ularga qarab bunday deydi: “Mashriqdan kelgan bu balo Mashriq-u Mag‘ribni yakson etadi, yondirib kul qiladi. Sizlar har biringiz o‘z yurtigingizga boring, o‘z joningizni asrash payida bo‘ling”. As‘hob shayxga iltimos qilib dedilar: “Otulovlar tayyor, agar shayx biz bilan hamroh ketishni ixtiyor etsalar, yaxshi bo‘lardir”. Bunga javoban Shayx Najmiddin Kubro deydi: “Men bu yerda shahid bo‘laman, menga Xorazmni tark etishga ruxsat yo‘q”.

Kuffor, ya‘ni mo‘g‘ul askarlari Gurganjga kirganda, shayx qolgan-qutgan muridlari bilan jangga shaylanadi. U xirqasining ustidan belbog‘ bog‘lab, qo‘yinlarini tosh bilan to‘ldiradi, qo‘liga nayza olib, dushman qarshisiga chiqadi. Kofirlarga qarab tosh ota boshlaydi, bir nechtasini nayza bilan urib yiqitadi. Ammo kofirlar uning ustiga kamon o‘qi yog‘diradilar. Bir o‘q kelib ko‘kragiga tegadi. Yetmish besh yashar muysafid – ilohiy ilhomdan ma‘rifat topib, qalblarni nurlantirgan shayxi kabir holdan toyib, kuchi ketayotganini sezsa ham, jangni to‘xtatmay, dushman bayrog‘ini g‘azab bilan mahkam tutamlab oladi-da, shu holatda jon beradi. Deydilarkim, vafotidan keyin o‘nta odam uning mahkam qisilgan panjalari orasidan bayroqni zo‘rg‘a ajratib olgan. Ulug‘ shayx va donishmand insonning bu qahramonligi, jasorati dushmanni ham hayratga solgan. Bu ish avlodlarga ibrat bo‘ldi, xalq orasida afsonaga aylanib ketdi [5-161].

XIV asrda Oltin O‘rda xoni O‘zbekxon (1312-1341) Xorazm o‘lkasi uning ulusi tarkibida bo‘lgani uchun, Najmiddin Kubro qabri ustiga ulug‘vor maqbara barpo etdi va bu bilan go‘yo og‘ir gunohi uchun uzr so‘raganday bo‘ldi. Bu maqbara asrlar osha vatanparvarlik ramzi sifatida qad roslab turibdi.

Najmiddin Kubroning vatanparvarligi va xalqparvarligi yorqin ifodasini topgan bu ma‘lumot tarixiy va badiiy adabiyotlarda kitobdan kitobga o‘tib keladi. Najmiddin Kubro hukmdorlarning noahilligidan, yurtning buzilishidan, xalqning darbadarligidan aziyat chekkan, qalbi og‘rigan xalqparvar Shayx sifatida gavdalanadi. Najmiddin Kubro iymon-e‘tiqodli chin musulmon edi. U hukmdorlarga bosh egmadi, ammo, e‘tiqodining mustahkamligidan jamiyat qonun-qoidalarini hurmat qilar, “podshohning amri vojib” deb bilguvchi, nazariy va amaliy faoliyatni uyg‘un olib boruvchi ulug‘ vatanparvar edi.

Ko‘hna tarix shundan guvohlik beradiki, alloma aytganiday Xorazmshoh mamlakatni birlashtira olmadi, xalqni yig‘ib yovga qarshi qo‘ya olmadi. Iymonsizlik, g‘oyaviy parokandalik, so‘z va ish birligining yo‘qligi, g‘oyaviy-mafkuraviy zaiflik, ichki nizolar va boshboshdoqlik mamlakat mustaqilligini yo‘qqa chiqardi.

Uning ruhi eng og‘ir damlarda bizga kuch baxsh etgan. Najmiddin Kubro ibrati bizga “elim deb, yurtim deb yonib yashash kerak”ligidan saboq berib turadi.

Nomi afsonaga aylanib ketgan milliy qahramon – Najmiddin Kubroning vatanparvarlik g‘oyalarini o‘rganish, uni ma‘naviy poklanishning asosiga qo‘yish va barkamol avlodni tarbiyalash vazifasiga xizmat qildirish dolzarb vazifalardan biridir.

Shayx Najmiddin Kubro XIII asr javonmardlarining otasidir. Buyuk alloma va xalq qahramonining javonmardlik g‘oyalari Jaloliddin Manguberdi, Pahlavon Mahmud, Said Ali Hamadoniy, Husayn Xorazmiy va Abul Vafo Xorazmiy faoliyatida yanada yuksaklikka ko‘tariladi. Mardlikning oliy namunasi xalqni, Vatanni himoya qilish ekanligini Najmiddin Kubro bizga ko‘rsatib berdi. Tik turganni yiqish-mardlik emas, yiqilganni tiklash, vayron bo‘lgan ko‘ngilni obod qilish-haqiqiy mardlikdir.

Shayx Najmiddin Kubro xalqning xotirasidagi yorqin yulduzdir. Uning bilan bog‘liq rivoyatlar o‘zbek davlatchiligi tarixining sevib o‘qiladigan, qancha o‘qisang shuncha hayratlanadigan yorqin sahifasidir. Najmiddin Kubro milliy g‘urur, vatan tuyg‘usini himoya qilish uchun, qalbimizni iymon nuri bilan bezatish uchun yana ma‘naviyatimiz maydoniga balqib chiqdi. Vatan, millat taraqqiyotinnig tub burilish davrlarida, og‘ir damlarda u o‘zining tarixiy saboqlari bilan yordamga keladi, ma‘naviyatimizning xaloskor kuchiga aylanadi. Axir, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur jasoratiga zamin bo‘lgan, Temur Malik yuragiga mardlik urug‘in sochgan, Dukchi Eshonni Chor Rossiyasi qo‘shinlariga qarshi kurashga da‘vat etgan,

Jaloliddin Rumiyni ruhiyat falsafasini yozishga ilhomlantirgan, Maqsud Shayxzodani fashizmga qarshi “Jaloliddin Manguberdi” dramasi yozishga ilhomlantirgan kuch Najmiddin Kubroning ma’naviy jasoratidir.

“Qadimiy tariximizni har tomonlama o‘rganib, shunday xulosaga kelish mumkinki, eng qaltis va tahlikali davrlarda millatimizga umid va ishonch bergan, uni yovlarga qarshi kurashga undagan, ajdodlarimizni ilmiy kashfiyotlar, harbiy zafarlarga, ma’rifat mash’alini baland ko‘tarib jaholatga qarshi chiqishga chorlagan beqiyos kuch ham aynan ma’naviy jasorat tuyg‘usidir”,-deb ko‘rsatgan edi birinchi Prezidentimiz Islom Karimov [3-163].

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Xorazmni mo‘g‘ul bosqinchilaridan himoya qilishda bayroq tutib jon bergan Najmiddin Kubroning qahramonligida ma’naviy jasorat tuyg‘usi buyuk va ustuvor ahamiyat kasb etgani, alloma shaxsi iymon butunligining beqiyos timsoliga aylanganligi shubhasiz, albatta.

Chindan ham, bugun Shayx Najmiddin Kubroning ruhi yoshlarimizga javonmardlikdan dars berib kelmoqda. Bugun mustaqillikni mustahkamlashda, vatanparvarlik tuyg‘usini tarbiyalashda Najmiddin Kubro ibrati beqiyosdir, biz bugun donishmand ajdodlarimizdan tinimsiz o‘rganishimiz lozim.

N.Kubroning jasorati haqida qator tarixchilar o‘zlarining asarlarida ma’lumot berib o‘tganlar. Ularni turli jihatdan o‘rgangan Jumaboy Rahimov o‘zining “Vatanning sheryurak bahodiri” (Jaloliddin Manguberdi) asarida ancha batafsil sharhlab o‘tadi.

Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” asarida Ko‘hna Urganchni g‘orat qilish ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan vahshiylik asosida amalga oshirilganligi o‘z ixtiyorida noyob tarixiy va daliliy hujjatlarni tilga kiritganligi olimning tarixiy haqiqatga qanchalik tayanganligi, tarixiy adolatga amal qilganligini ko‘rsatadi. Najmiddin Kubroning ozodlik va erk uchun kurashib sharafli o‘lim yo‘lini tanlaganligini Mirzo Ulug‘bek kelajak avlod uchun ibratomuz voqea sifatida yoritadi. Vatan, xalq uchun qanday yashash kerakligini Najmiddin Kubro timsolida ko‘rsatib, uning o‘limoldi qahramonona kurashini, dushmanlar hoqoniyu sardorlariga vatanparvarona raddiya javoblarini alohida sahifaga muhrlaydi. Mirzo Ulug‘bek kelajak avlodni Vatanga, xalqiga sodiqlikni Shayxul Valitarosh va Jaloliddin Manguberdi kabi ajdodlardan o‘rganishga da’vat etgan edi.

Mirzo Ulug‘bekning Najmiddin Kubroning kurashi va hayotining qahramona va jasoratga to‘lib-toshgan sahifasini qanday bezaganligiga nazar tashlaymiz: “Sohibqironi a’zam Chingizxonni muazzam Xorazm tomon lashkar jo‘natgan vaqtda hazrati shayx Najmiddin Kubro huzuriga mening lashkarim o‘sha yoqqa yurish qilmoqda, deb xabar berdi. Shoyad Xorazm ahvoli g‘oratu qatl bilan bartaraf



bo'lg'usi. Maslahatim shulki, sizlar u yerdan tashqari chiqsangizlar darveshlaringizga ham ziyon yetkazilmagay. Hazrati Shayxul Valitarosh, "Oллоh uning arvohini muqaddas tutsin" dedilar: "Mana yetmish yildirki, Xorazm xalqi bilan yashab kelmoqdaman. Bugungi kunda qazoyi ilohiy balo jazosini yubordi. Ularning miyasida muruvvat degan narsa bo'lmaydiki, orasidan qochib o'zimni bir chekkaga olsam. Balki ular bilan begvamona yag'moga duchor bo'lganim tuzukroq bo'lar. Balolarga xalqim bilan birga yor bo'lsam deyman!" [7-278]

Imon-e'tiqod ramzi va uning mustahkam, nurashni bilmaydigan ulug'vor qal'asi Shayxul Valitarosh Najmiddin Kubroning erk va yurt mustaqilligi yo'lidagi jasoratga to'la va shu oliy maqsad uchun jonini tikishi, she'riyat mulkining sultoni, avliyo inson Alisher Navoiy uchun ham ijod manbai bo'ldi. Mavlono Hazrat Alisher Navoiy Jaloliddin Rumiy, Mirzo Ulug'bek va boshqa mashhur mutafakkir allomalar qatorida N.Kubroning el-yurt or-nomusi, ozodligi yo'lidagi mardligini mamnuniyat bilan qalamga olar ekan, Turonu Eron va Xuroson zaminining eng buyuk zotlarining oldingi safidan ekanligini qayd etgan edi. Ulug' shoir o'zining mashhur "Nasoyil ul-muhabbat" asarida Shayxul Valitaroshga alohida sahifa ajratib, avliyolarga xos sifatlarini, Vatan va g'animlarga bosh egmagan mardliklarini qudrat qalami bilan bezaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiy katta ijod va davlat ishlari bilan band bo'lgani bois Xorazmga borib abadiyatga daxldor Ko'hna Urganchadagi Najmiddin Kubro maqbarasini ziyorat qilishni doimo orzu qilgan. Nafaqat ziyorat qilish, balki shu ulug' inson maqbarasi va uning atroflarini jannatning bir qismidek holatga keltirish, qolgan umrini Shayxul Valitaroshning ziyoratiga keluvchilarga xizmat qilish, ul zotning haqlariga duo qilish, hatto shu yerning chinnidek tozaligini shaxsan o'zlarining qo'l kuchlari bilan amalga oshirishni niyat qilgan: "Ana shunda Najmiddin Kubro Abul jannob Shayxul Valitaroshning ruhlarini shod qilgan bo'lar edim".

Shoirning Shayxul Valitaroshga tomon ma'naviy-ruhiy talpinishi yana shundan dalolat beradiki, el-ulus va Vatanga fidoyilik bobida Najmiddin Kubro barchaga o'rnak va ibratomuz hayot kechirdi. Mol-dunyosining barchasini yetim-yesir, miskinlar, musofirlar va qolaversa, tolibi ilm shogirdlariga non, osh, issiq ovqat, kiyim-bosh, boshpana qilib berdi. Vatan, xalq uchun nafaqat boyligi, balki jonidan kechib, borlig'ini baxshida qildi. Shu sifatlarning barchasini o'zlashtirib olgan Alisher Navoiy ham butun boyligini yurt obodligiga sarfladi. Borlig'ini xalq ma'naviyatini yuksaltirishga safarbar etdi [7-282].

Najmiddin Kubroning ibratli hayoti ko'plab olimlar va davlat arboblarning ijodini chetlab o'tmadi. XVII asrda yashab o'tgan davlat arbobi, tarixchi va etnograf olim Abulg'ozil Bahodirxon o'zining mashhur "Shajarai turk" asarida Shayxul

Valitarosh haqida quyidagilarni yozgan edi: “Manqul tururkim hazrati shayx – Najmiddin Kubroning ovozi olamga mashhur bo‘lib erdi. Ul sababdan shahzodalar (Chingizxonning o‘g‘illari Jo‘ji, Chig‘atoy va O‘qtoy) hazrati shayxga kishi (elchi) yubordilar. “Shayx oyoq ostida qolmasunlar, o‘g‘lon va ushoqlari (oilasi, shogirdlari, do‘stu birodarlari) bilan qal‘adan chiqib ketsunlar”, teb. Hazrat shayx yubirdikim, men yakka emasman. Mening qarindosh va muridlarim bor turur. Shahzodalar aytib yubordilarkim o‘n kishi bilan kelsunlar. Shayx aytdilarkim, undan ko‘p tururmiz. Shahzodalar aytadilarkim, unda yuz kishi bilan kelsunlar. Najmiddin Kubro butun shahar ahli uning eng yaqin odamlari ekanligini aytib mo‘g‘ul shahzodalarga shunday javob qaytaradi: “Osoyish kunlarda men bu xalqning barchasi birla oshna va yor edim. Emdi yomon kunlarda nechuk bularni tashlab borayin, men bora bilmasman tedi...” Ul mahalda mo‘g‘ullar shayxning mahallasiga quyilib keladilar. Hazrati shayx bir necha mo‘g‘ullarni o‘z qo‘llari bilan darajai jahannamga yubordilar. Taqi shahid bo‘ldilar”.

Agar Abulg‘oziy Bahodirxon bergan ma‘lumotlarga nazarimizni diqqat bilan qaratsak, Najmiddin Kubroning ovozi olamga mashhurligi va mo‘g‘ul shahzodalari uch marotabaga qadar shaharni tark etib, jonini saqlab qolishga da‘vat etganligining guvohi bo‘lamiz. Uning: “Bu shahar aholisining barchasi oshno, yoru birodarlarim” deya mo‘g‘ullarning uch marotabalik takliflarini rad qilib, ularning elchilarini quruq qaytib ketishga majbur etilishini ko‘z oldimizga keltirsak, Shayxul Valitaroshdagi xalqiga bo‘lgan hadsiz, hisobsiz muhabbat hamda sadoqatini his qilamiz.

Jaloliddin Manguberdi, shahar aholisi va o‘zining muridlari yuragiga ilohiy va loduniy ma‘naviyat qudrati vositasida mardu maydonlik, bahodirlik ruhiy quvvatlarini singdirgan Shayxul Valitarosh ularni Vatan himoyasiga da‘vat etdi. Najmiddin Kubro Vatanni, ona yurti ma‘naviy jabhada Ka‘batulloh darajasiga ko‘tardi. Shu yo‘lda jonni baxshida qiluvchilar Parvardigorning eng aziz insonlari qatoridan joy olib, abadiy jannatga sazovor ekanligini ilohiy ma‘rifat yo‘riqlari bilan asoslab berdi. Shuning uchun kurashib o‘layotgandagi mudofaachi vatanparvarlardagi jismoniy azoblanish o‘rnini Vatan uchun bayromana o‘lish, o‘la olish his tuyg‘usi, erk uchun kurashuvchi har bir jangchi qalbi va shuurida Vatan ozodligiga bag‘ishlangan umrlaridan minnatdorlik hissi egalladi. Bu ilohiy hodisa o‘lim dahshatidan ustun keldi. Mo‘g‘ullarning ommaviy qatlni amalga oshirishlari jarayonida aholi o‘lim vasvosi, qo‘rqquvidan xalos bo‘lgan holda o‘limni oddiy hol tarzida qarshiladilar. Najmiddin Kubro xalqini dushmanga bo‘yin egmay, mag‘rur, qullik kishanini kiymasdan, ozod, erkin inson bo‘lib o‘la bilish sharafiga erishtira oldi. Bu bilan insonning qalbi va jismida o‘limdan ham kuchli ma‘naviy-ruhiy quvvatlar mavjudligini Shayxul Valitarosh tasavvufiy ta‘limoti g‘oyalari bilan isbotlab bera

oldi. Uning bu insoniy sifatlaridan dushmanlar ham lol qoldi, hayratdan yoqalarini ushlashga majbur bo'ldilar. Bu dushmanlarning mutlaq buyuk insonga e'tirofi edi. Najmiddin Kubro insonlarga, keyingi avlodlarga Vatanning muqaddasligi, unda yashiringan sir-sinoatlar tushunchalari mohiyati mazmunini yanada teran anglash imkonini berdi [7-284].

Hozirgi vaqtda jahonda va mintaqamizda harbiy-siyosiy vaziyat keskin o'zgarib, milliy va global xavfsizlik sohasida xatar va tahdidlar tobora kuchayib bormoqda. Ana shunday mas'uliyatli vaziyat va hayotning o'zi erishgan barcha yutuqlarimizni, shu bilan birga, yo'l qo'ygan kamchiliklarimizni chuqur tahlil qilishni barchamizdan talab etmoqda. Shu asosda milliy armiyamizni yanada rivojlantirish va takomillashtirish borasida puxta o'ylangan va izchil harakatlarni davom ettirishimiz darkor [2-223].

### **XULOSA**

Buyuk mutasavvuf olim, xalq qahramoni Najmiddin Kubroning ibratomuz hayot yo'lidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

birinchidan, vatanparvarlik insonparvarlikning eng oliy darajasidir. N.Kubro vatanparvarligi faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliyotda ham o'z ifodasini topgani uchun asrlar davomida o'zining qiymatini also yo'qotgan emas;

ikkinchidan, Najmiddin Kubro – xalq qahramoni va vatanparvar inson sifatida o'z xalqining, Vatanining erki va ozodligi uchun hatto jonidan ham voz kecha olgan buyuk yo'l boshchidir. Uning bu harakatlari bugun biz tarbiya qilayotgan yosh avlod vakillari uchun ibrat namunasiga aylanishi lozim;

uchinchidan, Najmiddin Kubroning vatanparvarligi, Vatanni himoya qilish nafaqat harbiy xizmatchilarning, balki mamlakatimizda yashayotgan har bir fuqaroning muqaddas burchi ekanligini har dam eslatib turadi. Zero, Konstitutsiyamizning 52-moddasida qayd etilganidek: “O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir”[1-18].

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2019.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. / Sh.M.Mirziyoyev 1-tom, - T.: “O'zbekiston”, 2017.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. / I.A.Karimov. –T.: “Ma'naviyat”, 2016.
4. N. Komilov. TASAVVUF (Ikkinchi kitob). –T.: “O'zbekiston”. 1999.
5. N.Komilov. “Tasavvuf”. 1-kitob. -T.: “Yozuvchi”, 1996.
6. M.Rahimov, A.Zamonov. O'zbekiston tarixi. –T.: “Fan”, 2019.
7. Jumaboy Rahimov. Vatanning sheryurak bahodiri. –T.: “O'qituvchi”. 2015.

## **O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA “MA’NAVIYAT” UMUMIY MA’NOLI BIRLIKLARNING MAVZUVIY GURUHLARGA BO‘LINISHI**

**Mamatkulova Nigora,**  
TerDU 2-bosqich magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada o‘zbek xalq maqollarida ma’naviyat mavzusi hamda uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumot beriladi. Maqollarning ma’naviyat semasini aks ettirishiga ko‘ra ma’lum guruhlariga ajratish ularning tadqiq etilishini osonlashtirish bilan birgalikda ulardagi mohiyatning yanada to‘la-to‘kis ochib berilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, ma’naviyat mavzusining mavzuviy guruhlariga ajratilishi leksik-semantik tadqiqiga yanada teranroq yondashishga xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlar:** o‘zbek xalq maqollari, tematik guruhlanish, ma’naviyat kategoriyasi, leksik-semantik tadqiq, yondashuv, lingvistik tadqiq.*

## **DIVISION OF THE SUBJECT OF SPIRITUALITY INTO UZBEK PROVERBS INTO THEMATIC GROUPS**

### **ABSTRACT**

*This article provides information on the topic of spirituality and its specific features in Uzbek folk proverbs. Dividing the proverbs into certain groups according to the way they reflect the theme of spirituality facilitates their research and helps to reveal their essence more fully. In addition, the division of the topic of spirituality into thematic groups serves a deeper approach to the lexical-semantic research.*

***Keywords:** Uzbek folk proverbs, thematic grouping, category of spirituality, lexical-semantic research, approach, linguistic research.*

## **РАЗДЕЛЕНИЕ ТЕМЫ ДУХОВНОСТИ В УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВИЦАХ НА ТЕМАТИЧЕСКИЕ ГРУППЫ**

### **АННОТАЦИЯ**


*В данной статье представлена информация о теме духовности и ее специфических чертах в узбекских народных пословицах. Разделение пословиц на определенные группы по тому, как они отражают тему духовности, облегчает их исследование и помогает полнее раскрыть их сущность. Кроме того, разделение темы духовности на тематические группы служит более глубокому подходу к лексико-семантическому исследованию.*

**Ключевые слова:** *узбекские народные пословицы, тематическая группировка, категория духовности, лексико-семантическое исследование, подход, лингвистическое исследование.*

## **KIRISH**

Hozirgi o'zbek tilida turli kategoriyalarni lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etish tildagi leksik sath qatlamining yanada keng mohiyatan ochib berilishiga xizmat qiladi. Xususan, "hurmat" kategoriyasi, "halollik" kategoriyasi, "yaxshilik" kategoriyasi va hokazo. Biz tadqiq etmoqchi bo'lgan ushbu maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining go'zal namunalari hisoblanmish maqollarda "ma'naviyat" kategoriyasining ochib berilishi lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Ushbu mavzu xususida so'z yuritishdan oldin bu leksik ifodaning mazmun planiga diqqat qilish maqsadga muvofiq. Ma'naviyat leksemasiga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha ta'rif keltiriladi:

*"Ma'naviyat – [a. – axloqiy holat; barcha axloqiy narsalar, xususiyatlar] insoniyatning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy va shu kabi tasavvurlari va tushunchalari majmui"*[4]. Demak, ta'rifdan ko'rinib turibdiki, ma'naviyat ifodasi faqatgina odob-axloq yoki tarbiya bilan bog'liq kategoriya hisoblanib qolmasdan, balki u quyidagi jihatlarni ham o'zida birlashtiradi:



## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Qayd etib o'tish lozimki, "ma'naviyat" kategoriyasi o'zbek xalq maqollarining asosini tashkil etadi, ularni tematik guruhlar asosida o'rganish masalaning mohiyatini yanada oydinlashtiradi. Shu nuqtayi nazardan ularni uch tematik guruhga ajratgan holda tadqiq etdik[3]:

- a) *Maqollarda aks etgan umuminsoniy ma'naviyatga doir maqollar;*
- b) *Milliy ma'naviyatga doir maqollar tahlili;*
- c) *Shaxs ma'naviy sifatlariga oid maqollar va ularning o'ziga xos jihatlari.*



Mazmunidan ko‘rinib turganidek, maqollarda o‘z ifodasini topgan umuminsoniy ma‘naviyatga oid maqollar faqatgina individual shaxsga yoki alohida olingan kishilik jamiyatga emas, balki butun insoniyatga taalluqli ekanligi bilan ajralib turadi. Ya‘ni unda ilgari surilgan mazmun barcha shaxs jamiyatlari uchun taalluqli hisoblanadi. Inson tamadduni shakllanib kelgan davrlardan buyon uning taraqqiyotida aks etgan barcha mavzular, ya‘ni odob-axloq, tarbiya, diniy bilimlar, falsafiy ilmlar, ilmiy nazariyalar va shu kabilar ushbu mavzuning mohiyatini tashkil etadi. Umuminsoniyatga qaratilgan bu turdagi maqollar har bir xalq og‘zaki ijodida mavjud, biroq shunday bo‘lsa-da, undagi mazmun aynan har bir xalq uchun emas, balki butun insoniyat uchun ahamiyatlidir[5].

“*Suv birlashsa – daryo bo‘lar, El birlashsa – olamon[2]*” maqoli ham umuminsoniy mazmun ilgari surilgan o‘zbek xalq maqollaridan biri sanaladi. Ushbu maqol o‘zbek xalq og‘zaki ijodiga taalluqli bo‘lsa-da, biroq undagi mazmun butun kishilik jamiyatiga aloqador hisoblanadi. Unda birlik g‘oyasi ilgari surilgan bo‘lib, uning lingvistik tadqiqiga yuzlanadigan bo‘lsak, undagi suvning birlashishi daryo hosil bo‘lishiga, el birlashsa olamon bo‘lishiga mengzalmoqda. Lingvokulturologik jihatdan esa “daryo” leksemasi orqali “birlik” g‘oyasi o‘rtaga tashlanmoqda. Bu o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan lingvokulturologik kategoriya hisoblanadi.

O‘zbek xalq maqollaridagi ikkinchi tematik guruh bu milliy ma‘naviyatga taalluqli bo‘lgan maqollar hisoblanadi. Milliy ma‘naviyat semasiga oid maqollar aynan bir millat, xalq madaniyati, qadriyatlarini, urf-odatlarini o‘laroq aks ettiriluvchi maqollar hisoblanadi. Ushbu turdagi maqollarning umuminsoniyatga qarata aytilgan maqollardan farqi shundaki, bunday turdagi maqollar, odatda, mavzuviy ko‘lami kichikroq, lingvokulturologik kod ham aynan milliy ma‘naviyatga asoslangan g‘oyalarni o‘zida aks ettiradi. Bundan tashqari, ushbu toifa maqollar semantik jihatdan ham ma‘lum guruhlardan tashkil topadi. Milliy ma‘naviyat semasi aks etgan maqollarga quyidagi maqolni misol sifatida keltirishimiz mumkin. Jumladan, “*Gap bilan osh pishmas[2]*” maqolini tahlil namunasi sifatida olsak. Mazmunan kishini harakatchanlik g‘oyalariga undovchi ushbu maqoldagi lingvokulturologik kod aynan “osh” leksemasi hisoblanadi. Ya‘ni “osh” leksik ifodasi o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan milliy taom sanalib, bu ifoda orqali ushbu maqolning o‘zbek elatiga tegishli ekanligini anglashimiz mumkin.

“*Gap desang, qop-qop. Ish desang, Samarqanddan top[2]*” – bu maqoldagi lingvokulturologik kod bu “Samarqand” toponimi sanaladi. Ushbu shaharning aynan O‘zbekiston hududida joylashganligi uning o‘zbek eliga taalluqli milliy ma‘naviyat aks etgan maqol ekanligidan dalolat beradi. Ushbu maqolning g‘oyasi bu mehnat qilish, mehnatga undash, ish qilishdan qochmaslik sanaladi. Yuqoridagi

maqollarimizdan ko‘rinib turibdiki, maqollarning qaysi toifa guruhiga mansub ekanligi ularning lingvokulturologik kodiga ko‘ra ham farq qilar ekan, ya‘ni maqollardagi ayrim so‘zlar ham ularning qaysi sinfga mansub ekanligini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi guruh maqollari bu shaxs ma‘naviy sifatlariga oid maqollar hisoblanadi. Bu yuqorida qayd etilgan umuminsoniyatga qaratilgan maqollar hamda milliy ma‘naviyatni aks ettiruvchi maqollardan ham kichikroq guruh hisoblanib, ushbu maqollarda ifoda markazi aynan birgina shaxs hisoblanadi. Yanada soddaroq tilda tushuntiradigan bo‘lsak, umuminsoniyatga qaratilgan maqollar barcha jamiyat a‘zolari, umummilliy ma‘naviyat aks etuvchi maqollar ayrim tanlab olingan millat, elat, xalq vakillari hamda shaxs ma‘naviyatini aks ettiruvchi maqollar, yakka kishining dunyoqarashini, milliy ma‘naviyatini namoyon etuvchi maqollar guruhi hisoblanadi. “*Baxilning bag‘ri qattiq[2]*” maqoli ham aynan ayrim olingan shaxslarga nisbatan qo‘llanilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatdagi barcha insonlar ham bu illatga ega bo‘lmaydi, ya‘ni ba‘zi kishilardagina kuzatiladigan ushbu holat xalq maqollarida o‘zining yorqin ifodasini topganligi bilan ahamiyatlidir.

## **XULOSA**

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, o‘zbek xalq maqollarida ma‘naviyat semasining aks ettirilishi hamda ularning ma‘lum tematik guruh asosida shakllantirilishi ularning tadqiq obyekti vazifasini bajarishida muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, xalq maqollari, umuman olganda, ma‘naviyat mavzusining qay darajada yoritib berishiga ko‘ra guruhlanishi (umuminsoniy ma‘naviyat semasiga ega maqollar, milliy ma‘naviyat semasini aks ettiruvchi maqollar, shaxs ma‘naviyatiga doir maqollar) ushbu toifa maqollarining yorqin namoyon bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Berdiyev H, Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1984. – 98 b.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T., 2002. – 164 b.
3. Iskandarova Sh.M. O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o‘rganish (shaxs mikromaydoni): DDA. – Toshkent, 1999. – 76 b.
4. Rahmatullaev Sh. Nutqimiz ko‘rki. T, 1970. – 51 b.
5. Rahmatullaev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili – T, 2010. – 93 b.
6. Rustamov A. So‘z xususida so‘z – T, 1987. – 156 b.

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINI  
MATEMATIK SAVODXONLIGINI OSHIRISH VA MATEMATIKANI  
UYG'UNLASHTIRISHDA AN'ANAVIY VA INNOVATSION USULLARDAN  
FOYDALANISH**

**Mahliyo Dehqonova Shuhrat qizi**

Farg'ona davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrasida o'qituvchisi

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada hozirgi zamon boshlang'ich sinfi o'qituvchisi o'quvchilarga berishi kerak bo'lgan bilimlar haqida fikr yuritilgan. Boshlang'ich sinfi o'quvchilarini o'qitish jarayonida matematik savodxonlikni rivojlantirishning ahamiyati yoritilib, matematikani uyg'unlashtirishda an'anaviy va innovatsion usullardan foydalanish haqida tushunchalar keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** savodxonlik, matematik savodxonlik, o'quv va kognitiv kompetensiya, funktsional savodxonlik, xususiyatlar, komponentlar, qobiliyat.

**ABSTRACT**

*This article discusses the knowledge that a modern primary school teacher should transfer to students. In the process of teaching primary school students, the importance of developing mathematical literacy is emphasized; ideas about the use of traditional and innovative methods in the harmonization of mathematics are derived.*

**Keywords:** literacy, mathematical literacy, educational and cognitive competence, functional literacy, characteristics, components, abilities.

**KIRISH**

“Bizning yuksak vazifamiz – bolalarni muvaffaqiyatga olib kelish, maqsadimiz – ularni baxtli ko'rish. Ushbu loyiha boshlang'ich sinflarda yuqori sifatli ta'limni ta'minlash orqali bu yuksak vazifamizni ilgari surish yo'lida qo'yilgan muhim qadamdir”, – dedi Xalq ta'limi vaziri o'rinbosari Rustam Karimjonov.

Maqolada o'quvchilarning matematik savodxonligini shakllantirishning ba'zi jihatlari bilan bog'liq tadqiqotimiz natijalari keltirilgan. Matematik savodxonlikning ishchi ta'rifini ta'minlab, tadqiqot matematik savodxonlikning to'rtta komponentini aniqlaydi. Matematik savodxonlikning har bir komponentining shakllanishi uning tarkibiy xususiyatlari bilan belgilanadi.

Birinchi komponentning belgilari - dasturning maxsus va umumiy ta'lim kognitiv bilimlari, qobiliyatlari, ko'nikmalari va o'quv faoliyati usullari, ta'limot usullariga ega bo'lish.

Ikkinchi komponent qobiliyat bilan belgilanadi matematik ob'ektlarni, munosabatlarni, harakatlarni tez va keng umumlashtirish, fikrlash jarayonini erkin sozlash, to'g'ridan-to'g'ri fikrdan teskari fikrga o'tish, izchil, to'g'ri, ajratilgan mantiqiy fikrlash, matematik materialni rasmiylashtirilgan idrok etish, masalaning tuzilishi.

Uchinchi komponentning xususiyatlari - matematika tilida muammolarni shakllantirish va yozish qobiliyati, yechimlar natijalari va boshqalar.

To'rtinchi komponent oldingi komponentlarni hayotiy vaziyatlarda amalga oshirishda ifodalanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Maqolada o'quvchilarning matematik savodxonligini shakllantirishning ba'zi jihatlari bilan bog'liq tadqiqotimiz natijalari keltirilgan. Biz o'ylaymizki, akademik kompetensiyalarga ega bo'lgan va matematikani qanday o'rganishni biladigan talabalar matematik savodxonlikka ega bo'ladilar.

Hozirgi vaqtda ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning o'quv kompetensiyalarini rivojlantirishdir. Talabaning o'quv kompetensiyalariga ega bo'lishi uning matematikani o'rganishi uchun zarur shart, ikkinchisi esa uning matematik savodxonligi uchun etarli shartlardan biridir.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, matematik savodxonlikning quyidagi tarkibiy qismlari aniqlanadi:

- tarbiyaviy va kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish;
- vazifani hal qilish uchun zarur bo'lgan turli xil matematik mavzulardagi aloqalarni o'rnatish va materiallarni birlashtirish;
- matematik nutq madaniyatini egallash;
- Hayotiy masalalarning keng doirasini yechishda matematikadan foydalanish.

## **TAHLIL VA NATIJALAR(ANALYSIS AND RESULTS)**

Matematika o'qitishning eng muhim vazifalaridan biri o'quvchilarning matematik nutq madaniyatini shakllantirishdir. Bu masalani muvaffaqiyatli hal etishdan o'quvchilarning o'quv materialini tushuntira olish qobiliyati, pirovardida matematik qobiliyatlarning rivojlanishi bog'liqdir.

Hayotiy vaziyatlarda duch keladigan muammolarni hal qilish uchun matematik vositalardan foydalanish, agar kerak bo'lsa, ta'lim va kognitiv kompetensiyalardan foydalanish qobiliyati orqali amalga oshiriladi; dunyo rasmini idrok etish, atrofdagi voqelikda yuzaga keladigan va matematika yordamida hal qilinishi mumkin bo'lgan muammolarni tan olish tajribasiga ega bo'lish; yechimning ravshanligi, soddaligi, tejamkorligi va ratsionalligiga intilish.

O'qituvchining asosiy muammosi "dasturni sifatli o'zlashtirishni ta'minlaydigan shart sifatida o'quvchilarning ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish vositalari va usullarini izlash".

Ushbu tadqiqotda auditning mazmuni ushbu hodisalarni ko'rib chiqishda yuzaga keladigan ba'zi umumiy hodisalar yoki muammolar turlari atrofida guruhlangan. Bunday hodisalar sifatida quyidagilar taklif qilinadi: miqdor, makon va shakl, o'zgarish va bog'liqlik, noaniqlik.

Matematik savodxonlikning muhim jihatlaridan biri - shaxsiy va maktab hayoti, mahalliy jamiyat, ijtimoiy hayot, mehnat va dam olish bilan bog'liq bo'lgan turli vaziyatlarda matematikadan foydalanishdir.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY).**

Matematik savodxonlikka ega bo'lish shaxsning matematikani turli kontekstlarda shakllantirish, qo'llash va sharhlash qobiliyati sifatida aniqlanadi. Matematik savodxonlik o'quvchiga matematik tushunchalarni nafaqat sinfda, balki kundalik hayotda ham bajarishi, tushunishi va qo'llashiga imkon beradi. O'quvchilarning matematik savodxonlik qobiliyatini oshirish uchun yechim sifatida foydalanish mumkin bo'lgan o'rganish usuli kerak. Kontekstli o'qitish o'qituvchilarga o'quvchilarni haqiqiy dunyo bilan bog'lashga yordam beradigan usuldir. Kontekstli ta'lim va o'rganishni qo'llash orqali, o'qituvchi talabalarga matematika savodxonligini oshirishga yordam berishi mumkin. Nazariy tadqiq orqali ushbu maqola talabalarning matematik savodxonligini oshirish uchun ba'zi kontekstli o'qitish va o'qitish komponentlarini tasvirlashga harakat qiladi. Ma'lum bo'lishicha, adabiyotlar o'rganish bosqichlari va kontekstli o'qitish va o'qitishning tarkibiy qismlari o'rtasida matematik savodxonlik bo'yicha ba'zi ko'rsatkichlar bilan bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

Zamonaviy jamiyat kelajakdagi o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi darajasiga yangi talablarni qo'yimoqda. Zamonaviy ta'limda matematika umumiy madaniyat, funktsional savodxonlik va kundalik foydalanishning elementidir. Aholining barcha toifalarida turli shakllardagi matematik qobiliyatlarni oshirish kerak. Jamiyatdagi bu kompetensiyani piramida sifatida ko'rsatish mumkin, uning cho'qqisida zamonaviy jahon matematikasining asosiy elementlarini yaratishda ishtirok etadigan kichik mutaxassislar guruhi va pastki qismida matematik savodxonlik mavjud bo'lgan aholining butun massasi joylashgan. madaniyat, ijtimoiy, shaxsiy va kasbiy kompetensiyaning ajralmas elementi hisoblanadi. Matematik ta'lim tizimining asosiy ishtirokchisi va omili o'qituvchi-matematikdir. U nafaqat ko'paytiriladigan va o'quvchilarga uzatiladigan ta'riflar va dalillar to'plami ko'rinishidagi matematik bilimlarga ega bo'lishi kerak, balki birinchi navbatda tegishli sohalarda yangi, ilgari



ko'rilmagan vazifalarni hal qilishga, talabalarga faoliyatning matematik modelini berishga tayyor bo'lishi kerak. Xalqaro raqobatbardoshlik va mahalliy ta'lim sifatini ta'minlash nuqtai nazaridan, Davlat dasturida o'quvchilarimiz xalqaro test sinovlarining eng keng tarqalgan uchta tizimi natijalariga ko'ra egallaydigan o'rinlar ko'zda tutilgan. Ularda maktab o'quvchilarining matematika, tabiiy-ilmiy tayyorgarlik sifati, matnlarni o'qish va tushunish qobiliyati, shuningdek, maktab o'quvchilarining funksional savodxonligi, ya'ni bilimlarni darsdan tashqari vaziyatlarda qo'llash qobiliyati baholanadi.

Umuman olganda, bizning maktab o'quvchilarimiz kuchli fan bilimlarini olishadi, lekin ko'pincha ularni hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalariga ega emaslar.

Matematik savodxonlik - bu insonning o'zi yashayotgan dunyoda matematikaning rolini aniqlash va tushunish, asosli matematik mulohazalarni ifodalash va matematikadan ijodiy, qiziqish va fikrlashning hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanish qobiliyatidir.

Keling, matematik savodxonlikning har bir tarkibiy qismiga to'xtalib o'tamiz.

Vazifani hal qilish uchun zarur bo'lgan turli xil matematik mavzulardan bog'lanishlarni o'rnatish va materiallarni birlashtirish - masalani hal qilish uchun zarur bo'lgan turli matematik mavzulardan bog'lanishlarni o'rnatish. Bu matematik ob'ektlarni, munosabatlarni, harakatlarni tez va keng umumlashtirish qobiliyatini nazarda tutadi; izchil, to'g'ri, ajratilgan mantiqiy fikrlash san'ati; fikrlash jarayonining yo'nalishini tez va erkin qayta qurish, to'g'ridan-to'g'ri fikrdan teskari fikrga o'tish qobiliyati; matematik materialni idrok etishni rasmiylashtirish, masalaning rasmiy tuzilishini tushunish qobiliyati; bir nechta bog'liq bo'lmagan hududlardan o'xshash ob'ektlarni topish qobiliyati; qo'llaniladigan usullarni tahlil qilish; turli shakllarda (jadvallar, diagrammalar, grafiklar) taqdim etilgan ma'lumotlarga asoslanib, fikr yuritish, xulosalar chiqarish qobiliyati.

Test topshiriqlari o'qitishning barcha bosqichlarida mavjud bo'lgan umumiy o'quv matematik tadbirlari atrofida guruhlanadigan tarzda yaratilgan:

- matematik fikrlash va fikr yuritish, shu jumladan matematikaga xos bo'lgan savollarni shakllantirish; matematika bunday savollarga taqdim etayotgan javoblarning mohiyatini bilish;

- Matematik dalillar nima ekanligi va ular matematik fikrlashning boshqa turlaridan nimasi bilan farq qilishini bilishni o'z ichiga olgan matematik argumentatsiya;

- matematik mazmun bilan bog'liq o'z fikrlarini yozma yoki og'zaki shaklda ifodalashni o'z ichiga olgan kommunikativ matematik qobiliyatlar; boshqalar tomonidan tuzilgan yozma yoki og'zaki matematik bayonotlarni tushunish.

- Modellashtirish, bu taklif qilinayotgan vaziyatni modellashtirish uchun belgilashni o'z ichiga oladi; matematik strukturadagi real vaziyatni tarjima qilish; real vaziyatni hisobga olgan holda matematik modelni talqin qilish; matematik model bilan ishlash; modelning to'g'riligini baholash; model va olingan natijalarni aks ettirish, tahlil qilish, tanqid qilish; model va olingan natijalarni tavsiflovchi yozuv; modellashtirish jarayonini tizimli nazorat qilish.

- Muammolarni bayon qilish va yechish, jumladan, turli matematik muammolarni shakllantirish, shakllantirish va aniqlash va turli xil matematik muammolarni turli usullardan foydalangan holda yechish.

- Mavjud ma'lumotlarni turli shakllarda taqdim etish, jumladan, dekodlash yoki aksincha, ma'lumotlarni kodlash, tarjima qilish, izohlash, matematik ob'ektlar yoki vaziyatlarni tasvirlashning turli shakllari o'rtasidagi munosabatlarni farqlash va aniqlash; muammoning holatiga mos keladigan ma'lumotlarni taqdim etishning bir shaklidan ikkinchi shakliga tanlash yoki o'tish.

- texnik vositalardan foydalanish, jumladan, matematik faoliyat faolligiga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan turli asbob va asboblarni bilish va ulardan foydalanish qobiliyati; bunday vositalar va asboblarning cheklovlarini bilish.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR(CONCLUSION/RECOMMENDATIONS).**

Matematikani uyg'unlashtirishda an'anaviy va innovatsion usullardan foydalanish usuli. O'rganishning yana bir usullaridan biri - matematika darslarida tarixiy ma'lumotlardan foydalanish. Matematika tarixi bilan ishlash amaliyoti shuni ko'rsatadiki, aynan dars mazmuniga uslubiy jihatdan to'g'ri kiritilgan fan tarixi yordamida o'quvchida matematika haqidagi tasavvurlar umuminsoniy madaniyatning bir qismi sifatida shakllana oladi. Sinfda muammoli vaziyatlarni yaratish usuli aqliy jarayonlarni modellashtirishga ta'sir qiladi. Talabalarning loyiha faoliyatini tashkil etish usuli o'quv va kognitiv faollikni oshirishning didaktik vositasi sifatida qaraladi. Loyihalarni yaratishda faol ishtirok etish talabalarga inson faoliyatining yangi usullarini o'zlashtirish imkoniyatini beradi va ularda ba'zi muhim shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga imkon beradi. O'quv jarayonida didaktik materialning badiiy va estetik jihatdan takomillashtirilishi o'quv faoliyatiga, uning mazmuni, shakllari va amalga oshirish usullariga nisbatan ijobiy his-tuyg'ularning paydo bo'lishini ta'minlashga yordam beradi. Matematika darslarida ko'ngilochar elementlarni qo'llash usuli aqlning moslashuvchanligini rivojlantirishga, naqshsiz

fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga, matematika faniga qiziqishni oshirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, barkamol yondashuvdan foydalanib, matematik ta'limni shaxsiy tajriba va murabbiyning ehtiyojlari bilan bog'liq bilim, ko'nikma va ko'nikmalar bilan to'ldirish mumkin, shunda trener voqelik ob'ektlariga nisbatan samarali va ongli faoliyatni amalga oshirishi mumkin. Shu bilan birga, asosiy rollardan biri ta'lim va kognitiv kompetentsiyaga berilishi kerak, chunki uning shakllanish darajasi ba'zan ko'proq natija sifatini belgilaydi. Ta'lim va kognitiv kompetentsiya mantiqiy, uslubiy, o'quv faoliyati elementlarini o'z ichiga oladi, ular haqiqiy bilish ob'ektlari bilan bog'liq.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Farkhodovich, T. D. kizi, DMS., & kizi, AUY.(2022). Critical Thinking in Assessing Students. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 267-271.
2. Qizi, DMS va Qizi, RGX (2022). IKKI RAQAMLI SONLARNI QO'SHISH VA AYIRISHNI O'RGANISH USULLARI MAKTABDA. *Gospodarka va Innovacje.* , 22 , 61-67.
3. Qizi, D. M. S., & Qizi, R. G. X. (2022). МЕТОДЫ ИЗУЧЕНИЯ СЛОЖЕНИЯ И ВЫЧИТАНИЯ ДВУЗНАЧНЫХ ЧИСЕЛ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 61-67.
4. Qizi, DMS va Qizi, RGX (2022). IKKI RAQAMLI SONLARNI QO'SHISH VA AYIRISHNI O'RGANISH USULLARI MAKTABDA. *Gospodarka va Innovacje.* , 22 , 61-67.
5. Farkhodovich, T. D. kizi, DMS., & kizi, AUY.(2022). Critical Thinking in Assessing Students. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 267-271.
6. Тоджимамаатович, Дж. В. (2023). Понятие и сущность информационной безопасности - Concept and Essence of Information Security. *Сеть синергии: Международный междисциплинарный исследовательский журнал*, 2(4), 643-647.
7. Акмалджонова, А. З. (2021). Методы формирования навыков самостоятельного чтения у учащихся начальной школы. *ACADEMICIA: Международный междисциплинарный исследовательский журнал*, 11(3), 1425-1428.
8. Кизи, S. G. G. O. (2022). ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОСНОВА И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СЛОВА УЧАЩИМСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ. *Европейский международный*

журнал междисциплинарных исследований и управленческих исследований, 2(12), 117-123.

9. Dehqonova M.Sh, Axmedova U.Y., Preparation for mathematical literacy in the process of training future primary school teachers, Vol №11 pp. 714-722, <https://doi.org/10.5281/zenodo.7824388>

10. Ahmedova, U. Y. Q., & Axmedova, M. U. B. Q. (2021). Vatanim Surati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(11), 877-883.

11. Axmedova, U. (2022). On Certain Conditions Of Striking Coefficients Of Fourier Series To Zero. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 3(3), 3-8.

12. Qizi, A. U. Y., & Qizi, A. M. U. B. (2021). Research On Hydronyms and Their Importance.

13. Axmedov, O. U. B. O. G., & Qizi, A. U. Y. (2022). STEREOMETRIYA BO'LIMI VA UNING BA'ZI AKSIOMALARIDAN KELIB CHIQUADIGAN NATIJALAR. International scientific journal of Biruni, 1(2), 127-133.

14. Axmedova, U. Y. Q., & Axmedova, M. U. B. Q. (2022). XALQ OG'ZAKI IJOD NAMUNALARINING BOSHLANG'ICH SINF DARSLIKLARIDA QO'LLANISHI VA ULARNING MAZMUNIIY GURUHLANISHI. International scientific journal of Biruni, 1(2), 345-351.

15. Samatov, B. T. (2020). The strategy of parallel pursuit for differential game of the first order with Gronwall-Bellman constraints. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(4), 15-20.

16. Тажиахматович, С. Б. (2021). ЗАДАЧА УБЕГАНИЯ ДЛЯ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫХ ИГР ПЕРВОГО ПОРЯДКА С ОГРАНИЧЕНИЕМ ГРОНУОЛЛА-БЕЛЛМАНА. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES*, 2(6), 1-5.

17. Ne'matov, I., & Axmedov, O. (2021). BOULE FUNCTION AND ITS INTERPRETATION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 3(3), 8-12.

18. Axmedov, O. U., & Abdumannopov, M. M. (2022). GRONUOLL-BELLMAN CHEGARALANISHLI BIRINCHI TARTIBLI DIFFERENSIAL O'YIN UCHUN PARALLEL QUVISH STRATEGIYASI. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 1(10), 324-326.

19. Abdumannopov, M. M., Akhmedov, O. U., & Tokhtasinov, T. (2022). ESSENTIAL MODES FOR ACTIVATING MASTERING SUBJECTS AT SCHOOLS. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES*, 3(12), 1-4.

20. Abdumannopov, M. M., Axmedov, O. U., To'Lqinboyev, T., & Azizov, M. (2022). MAKTAB O'QUVCHILARINING DARS MASHG'ULOTLARINI O'ZLASHTIRISHINI FAOLLASHTIRUVCHI MUHIM OMILLAR. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 165-169.
21. Muhammadsodiq, A. (2022). Game Theory as a Theory of Conflicts. *International Journal of Culture and Modernity*, 17, 123-126.
22. Axmedov, O. U. B. O. G., & Qizi, A. U. Y. (2022). STEREOMETRIYA BO'LIMI VA UNING BA'ZI AKSIOMALARIDAN KELIB CHIQUADIGAN NATIJALAR. *International scientific journal of Biruni*, 1(2), 127-133.
23. Axmedova, U. Y. Q. (2023). O'QUVCHILARNING FAOLLIK DARAJASIGA KO 'RA FARQLANUVCHI METODLAR, O'QUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 336-343.



## **KORXONANING BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASH MAQSADIDA RISKLARNI BOSHQARISH XUSUSIYATLARI**

**Umarov Suhrobjon Sodiqovich,**  
Fargʻona Politexnika Instituti,  
“Menejment” yoʻnalishi magistranti,  
e-mail: s.suher@mail.ru, +998944479212.

### **ANNOTATSIYA**

*Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir kompaniyalarning asosiy maqsadi daromadni oshirishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun kompaniya barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun korxonaning moliyaviy oqimlarini malakali boshqarishi va bu jarayonda yuzaga keluvchi risklarni samarali boshqarishi kerak. Shunday qilib, ushbu maqolada korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash, ishlab chiqarish korxonalarining likvidligi va to'lov qobiliyatini pasaytirish sabab bo'luvchi risklarni boshqarish bilan bog'liq masalalar muhokama qilinadi.*

***Kalit soʻzlar:** to'lovga layoqatsizlik, bankrotlik, risk, risklarni boshqarish, tadbirkorlik faoliyati, bankrotlik belgilari, moliyaviy holatining tahlili.*

## **УПРАВЛЕНИЕ РИСКАМИ С ЦЕЛЬЮ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ**

### **АННОТАЦИЯ**

*В условиях рыночной экономики главной целью каждой компании является увеличение дохода. Для достижения этой цели компания должна грамотно управлять финансовыми потоками предприятия и эффективно управлять рисками, возникающими в процессе, чтобы обеспечить устойчивое развитие. Таким образом, в данной статье рассматриваются вопросы, связанные с управлением рисками, которые способствуют устойчивому развитию предприятий, снижению ликвидности и платежеспособности производственных предприятий.*

***Ключевые слова:** анализ несостоятельности, банкротства, риск, риск-менеджмента, предпринимательской деятельности, признаков банкротства, финансового состояния.*

## **RISK MANAGEMENT IN ORDER TO ENSURE THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE ENTERPRISE**

### **ABSTRACT**

*In a market economy, the main goal of each company is to increase revenue. To achieve this goal, the company must competently manage the financial flows of the*

*enterprise and effectively manage the risks arising in the process in order to ensure sustainable development. Thus, this article discusses issues related to risk management, which contribute to the sustainable development of enterprises, reducing the liquidity and solvency of manufacturing enterprises.*

**Keywords:** *analysis of insolvency, bankruptcy, risks, risk management, entrepreneurship, signs of bankruptcy, financial condition.*

## **KIRISH**

Kompaniyani samarali moliyaviy boshqarish ko‘p jihatdan inqirozli vaziyatlarni bashorat qilish qobiliyatiga bog‘liq bo‘lib, uning asosiy va zarur elementi tashkilot faoliyatining diagnostikasi hisoblanadi. Korxonaning barqaror rivojlanishining ta‘minlash maqsadida risklarni boshqarish va baholash jarayonini avtomatlashtirishga imkon beradigan model juda dolzarbdir, chunki korxonalari faoliyati muammosiz ishlashga va loyihalarni amalga oshirish jarayonida noishlab chiqarish vaqtini qisqartirishga qaratilgan va bu kompaniyaning yanada barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi.

Ushbu jarayon korxonaning moliyaviy holatini yaxshilash va ma‘lum moliyaviy natijalarni yaratishga qaratilgan. Dunyodagi tahlikali vaziyatda ko‘plab kompaniyalar beqaror bozor sharoitida ishlashlari kerak, bu ularning faoliyati eng ko‘p xavf-xatarlarga duchor bo‘lishidan dalolat beradi [1].

Eng muhim xavflardan biri bu moliyaviy to‘lovga layoqatsizlik xavfi hisoblanadi. Davlatning farovonligi va uning jahon sahnasida rivojlanishi ko‘p jihatdan ushbu hududda joylashgan kompaniyalar, korxonalar yoki tashkilotlarning moliyaviy holatiga bog‘liq. Kompaniyalarning samarali faoliyat yuritishi va rivojlanishi milliy daromad va yalpi milliy mahsulotni yaratishning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Tadbirkorlik o‘z rivojlanish yo‘lida doimiy ravishda xavf va moddiy manfaatlar bilan birga boradi. Aslida, tadbirkor-bu tavakkal qilishga va qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishga tayyor shaxs [2] Bu biznes bilan shug‘ullanadigan shaxsning asosiy farqlovchi xususiyati. Xavf bilan bog‘liq qarorlarni qabul qiladigan menejer kelajkdagi vaziyatlarni yetarli darajada baholashi va yetarli ma‘lumotga ega bo‘lishi, shuningdek, o‘tgan tajribaga e‘tibor qaratishi kerak. Tadbirkorlik konsepsiyasiga boshqa nuqtai nazarlar ham mavjud, masalan, Shumpeter tadbirkorning asosiy ajralib turadigan xususiyati — innovatsion faoliyat deb hisoblagan [3]. Bepul naqd pulni texnologiyalarga, mahsulotlarga investitsiya qilish, investitsiyalardan kerakli daromad olish xavfini olish haqida gapiradi. Bari-bir,

kompaniyaning asosiy maqsadi daromadni ko'paytirishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun sizning ixtiyoringizda moddiy va nomoddiy resurslar bo'lishi kerak.

Tez rivojlanayotgan bozorda kompaniyaning moliyaviy to'lovga layoqatsizligi xavfini boshqarish uchun yetarli bilim va vositalarga ega bo'lish zarur. Iqtisodiy tizimning o'zgarishi munosabati bilan moliyaviy xavfni talqin qilishda juda ko'p qarama-qarshiliklar yuzaga keldi. Kompaniyaning moliyaviy to'lovga layoqatsizligi xavfini prognoz qilish muammosi biznesni boshqarishning nazariy va amaliy muammolari orasida alohida o'rin tutadi.

Tadbirkorlarning davlat bilan moliyaviy munosabatlari ikki tomonlama: tadbirkorlar byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarga soliq va soliqdan tashqari to'lovlarni to'laydilar, moliyaviy qonunchilik talablariga rioya qiladilar; boshqa tomondan, davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarishning vakolatli organlari tadbirkorlik subyektlariga qarz mablag'larini jalb qilish uchun davlat kafolatlar berishi, maqsadli dasturlar doirasida moliyaviy yordam ko'rsatishi, shuningdek, tadbirkorlikning moliyaviy muhitiga bilvosita ta'sir ko'rsatishi, sohadagi qonunchilik bazasini isloh qilishi mumkin soliq, buxgalteriya hisobi va moliya, moliya bozori infratuzilmasini shakllantirishga ta'sir qiladi.

O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakat bo'lgani uchun oldinda rivojlanish istiqbollari ko'p. Biroq, bu ba'zi jarayonlar va omillarning beqarorligini ko'rsatadi. Shunga ko'ra, samarali boshqaruv uchun korxonaning moliyaviy tahlilini o'tkazish va bankrotlik xavfini dastlabki bosqichda aniqlash kerak. Bundan kelib chiqadiki, moliyaviy risklarni aniqlash muhim ahamiyatga ega.

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI**

Mahalliy va jahon iqtisodiy fanlarida ushbu mavzu bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjud. Aslida, turli xil prinsiplar va usullar asosida qurilgan moliyaviy nochorlikni bashorat qilishni baholash uchun ko'plab modellar qo'llaniladi. Misol uchun, Altman modeli bankrotlikni bashorat qilishda eng mashhur bo'ldi [4]. Ushbu model diskriminant tahlildan foydalanadi. Beaver modelida moliyaviy koyeffitsiyentlar nisbati tahlildan foydalaniladi [5]. Fulmer modeli keng tarqaldi va Springate modeli nazariya nuqtai nazaridan unga juda o'xshash [6].

Ushbu sohada ilmiy ishlarga ega bo'lgan rus iqtisodchilari: Zaitseva O. P. [7] va olti faktorli matematik model (bu yondashuv multiplikativ diskriminant tahlil usullariga asoslangan). A. V. Postyushkovning reyting modeli kompaniya faoliyatini moliyaviy monitoring qilishning kuchli va samarali vositasidir [8]. Sheremet A. D. va uning moliyaviy holatini qiyosiy baholash [9]. Kondakov N. P.-kompaniyaning balans tuzilishi va to'lov qobiliyatini baholash modeli [10]. Ushbu model balans tuzilishini va to'lov qobiliyatini ikkita ko'rsatkichning standartlashtirilgan qiymatlari

asosida baholaydi: joriy likvidlik koeffitsiyenti va joriy aktivlarning o‘z manbalari bilan ta‘minlanish koeffitsiyenti. Belikov-Davydov modeli (korxonaning bankrotlik xavfini aniqlash metodologiyasi) [11]. Haydarshina G. A. va uning o‘n bir faktorli logit modeli-bankrotlik xavfi yehtimolini baholash uchun model, shuningdek Filobokova L. Yu., Lvova N. A., A. V. Kolishkin, Ye. V. Gilenko, S. E. Dovjenko, S. A. Jilkin, S. E. Choye, Ye. V. Negashev, Ya.D. Vishnyakov, A. V. Kolosov, V. L. Shemyakin va hokazo [12].

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqot davomida moliyaviy to‘lovga layoqatsizlik risklarini bashorat qilish uchun mavjud modellar tahlili o‘tkazildi unda guruhlash, taqqoslama tahlil, statistik tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

### **NATIJA VA MUHOKAMALAR**

Moliyaviy menejment nuqtai nazaridan bankrotlik ssenariylarini bashorat qilish va kompaniyani takomillashtirishning samarali usullari eng katta qiziqish uyg‘otadi. Bozor sharoitidagi doimiy o‘zgarishlar moliyaviy menejment va menejmentdan bozorning hozirgi holati va kompaniyaning ichki iqlimiga muvofiq tashkilotning samarali ishlashi uchun muvozanatli, ko‘rib chiqilgan qarorlarni qabul qilishni talab qiladi. Korxonaning iqtisodiy tarkibiy qismining murakkabligi boshqaruv xodimlari oldiga noto‘g‘ri vazifalar qo‘yilganligidadir. Cheklangan moliyaviy resurslar sharoitida harakat qilish, texnologik bazani takomillashtirish va malakali marketing siyosatini olib borish kerak. Salbiy o‘zgarishlarni quyidagicha kuzatish mumkin:

1. Ishlab chiqarish vositalari narxining keskin oshishi.
2. Mahsulotlarga talabning pasayishi.
3. Tashkilot faoliyati doirasini tartibga soluvchi qonunchilikdagi o‘zgarishlar.

Kompaniya egasi kompaniya oldiga to‘g‘ri maqsad va vazifalarni qo‘yishi, qo‘shimcha investitsiyalarni izlashi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishi va o‘z kompaniyasining kuchli tomonlarini topishi va ko‘lamini kengaytirishi kerak.

Hozirgi bozor sharoitida kompaniyalar faoliyati doimiy ravishda rivojlanib, o‘zini o‘zi moliyalashtirishi kerak. Asosiy maqsad foyda olishdir va yo‘qotishlar allaqachon moliyaviy xavflarning namoyon bo‘lishining jiddiy belgisidir va moliyaviy oqimlarni boshqarish uchun tanlangan strategiya so‘roq qilinmoqda. Bundan kelib chiqadiki, xavflarni prognoz qilishning dastlabki bosqichlaridan biri bu korxonaning moliyaviy hisobotlarini o‘rganishdir. Kompaniyaning to‘lovga layoqatsizligini ko‘rsatadigan dastlabki belgilarning xususiyatlari quyidagi omillardir:

1. Buxgalteriya hujjatlarini taqdim yetishni kechiktirish.
2. Aktivlar qiymatining pasayishi.

3. Debitorlik qarzlarning aktivlardagi ulushining ko'payishi, shuningdek kreditorlik qarzlarning ko'payishi.

4. Moddiy zaxiralarning ko'payishi.

5. Likvid aktivlarni kamaytirish.

6. Savdo hajmining pasayishi.

Tashkilotning moliyaviy nochorligi uchun zarur shartlar ko'p o'lchovli xarakterga ega. Qabul qilingan har bir qaror muhim, kundalik noto'g'ri qarorlar jami salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bankrotlikni bir necha yil ichida taxmin qilish mumkin. Kapital aylanmasining pastligi va eng likvid aktivlarning bitta aylanmasining yuqori davomiyligi; nuanslarni hisobga olmagan holda va moliyaviy barqarorlikni prognoz qilmasdan yangi bozorlarga kirish; pul oqimlarini boshqarishga mantiqsiz yondashuvlar; likvidsizlarning mavjudligi tashkilotning moliyaviy to'lovga qodir emasligi uchun asosiy ichki shartlardir. Tashqi shartlarga quyidagilar kiradi: iqtisodiyotning inqiroz holati; inflyatsiya; siyosiy va iqtisodiy beqarorlik va boshqalar.


Iqtisodiy adabiyotlarda to'lov qobiliyatini aniqlashga yondashuv mavjud bo'lib, u kompaniyaning to'lov vositalari va majburiyatlari nisbatida ifodalanadi. "To'lov qobiliyati shuni anglatadiki, kompaniya zudlik bilan to'lashni talab qiladigan kreditorlik qarzlarni to'lash uchun yetarli pul va pul ekvivalentlariga ega bo'lishi darkor. Shunday qilib, to'lov qobiliyatining asosiy belgilari:

a) joriy hisobda yetarli mablag' mavjudligi;

b) muddati o'tgan kreditorlik qarzlarning yo'qligi.

Bankrotlik odatda moliyaviy hisobotlarda "kasal" unsurlar borligi bilan dalolat beradi ("zararlar", "vaqtida to'lanmagan kreditlar va qarzarlar", "muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari", "muddati o'tgan chiqarilgan veksellar").

Shu bilan birga, iqtisodchilar tashkilotning to'lovga layoqatsizligining uchta darajasini aniqlaydilar. (1-rasm)



**1-rasm. Tashkilotning to'lovga layoqatsizligi darajalari<sup>208</sup>**

<sup>208</sup> Rasm muallif tomonidan tayyorlandi.



**To'lovga layoqatsizlik** — bu tashkilotning kredit, tijorat, soliq va boshqa operatsiyalardan kelib chiqadigan moliyaviy majburiyatlarini bajara olmasligi. Buni bank hisobvaraqlarida mablag'larning yetishmasligi, kreditorlar oldidagi uzoq muddatli qarzlarni, o'z aylanma mablag'larining yetishmasligi tasdiqlaydi.

**Vaqtinchalik to'lovga layoqatsizlik**-bu kompaniyaning qarzlarini to'lay olmasligi, ammo buni keyinroq qilish imkoniyati mavjud.

**Barqaror to'lovga layoqatsizlik**-qarzdorning to'rt chorak ichida kreditorning talablarini qondira olmasligi. Bu omil biznes yuritishda jiddiy xatolar va likvid aktivlar yetishmasligidan dalolat beradi. Ushbu bosqichdan chiqish yo'llaridan biri bu uzoq muddatli aktivlarni sotish yoki kredit resurslarini jalb qilishdir.

**Mutlaq to'lovga layoqatsizlik**-bu majburiyatlarning aktivlardan oshib ketishi, uzoq vaqt davom yetadi va kompaniyadagi tub o'zgarishlarni hisobga olgan holda ham bu vaziyatdan chiqish juda qiyin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, to'lovga layoqatsizlik har doim ham moliyaviy to'lovga olib kelmaydi, degan xulosaga kelish mumkin, chunki muammolarni erta bosqichda hal qilish mumkin.

Mutlaq to'lovga qodir bo'lmagan tashkilotlar diqqat ostida bo'lishi kerak, ular ko'proq ilmiy qiziqish uyg'otadi. Bunday sharoitda biznes yuritish noto'g'ri qabul qilingan qarorlar xavfini oshiradi, shuning uchun salbiy ta'sirlarning to'planishi.

Milliy biznesining asosiy vazifasi o'zining moliyaviy barqarorligini oshirishdir, chunki bu tashkilotning tijorat sherigi sifatida ishonchliligi mezonlaridan biridir. Shunday qilib, sherikning ishonchlilik darajasini aniqlash uchun moliyaviy barqarorlikni tahlil qilish kerak va korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish, xatarlarni aniqlash va hokazolarning barcha imkoniyatlarini baholash mumkin. Ushbu ko'rsatkich darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, u bozor sharoitlarining tashqi ta'siridan shunchalik mustaqil bo'ladi va shuning uchun bankrot bo'lish xavfi kamayadi.

**Moliyaviy barqarorlik**-bu daromadning xarajatlardan barqaror oshib ketishi, bu kompaniyaga pul oqimlarini erkin boshqarish imkonini beradi. Kompaniyaning rivojlanishi foyda va kapitalning o'sishi, to'lov qobiliyati va kreditga layoqatliligi bilan ta'minlanadigan, minimal xavf darajasiga imkon beradigan bunday jarayon, shuning uchun moliyaviy barqarorlik eng muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyektning ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatining barcha davrlarida shakllanadi. Demak, kompaniyaning moliyaviy barqarorligi-bu kompaniyaning minimal tavakkalchilik darajasi bilan to'lov qobiliyati va kreditga layoqatliligini saqlab, asosan o'z hisobidan kompaniyaning rivojlanishini ta'minlaydigan uning pul resurslarining holati.

Muvaffaqiyatli rivojlanish va raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun kompaniya moliyaviy balansni doimiy ravishda kuzatib borishi kerak. Bugungi kunda, hozirgi iqtisodiy vaziyatda moliyaviy barqarorlik muammosi kompaniyaning muhim moliyaviy va umumiy iqtisodiy muammolaridan biridir. Agar kompaniya inqiroz holatida bo'lsa, uni moliyaviy tiklash uchun zudlik bilan choralar ko'rish zarur.

**Moliyaviy tiklanish**-bu bankrotlik to'g'risidagi ishda qarzdorga nisbatan qo'llaniladigan protsedura. Ushbu tadbirning asosiy maqsadi qarzni to'lash jadvaliga muvofiq to'lov qobiliyatini tiklash va kompaniyaning qarzini to'lashdir.

Korxonalarining beqaror moliyaviy holati nafaqat tashqi umumiy iqtisodiy va siyosiy vaziyat, balki samarasiz boshqaruv tufayli ham yuzaga keladi. Shuning uchun, agar biz faqat moliyaviy barqarorlikni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga e'tibor qaratsak, bu to'lov qobiliyatini, moliyaviy farovonlikni va iqtisodiy o'sishni tiklashga olib kelmaydi. Ijobiy natijalarga erishish uchun ma'lum bir strategiya kerak, ya'ni kompaniya bozorda raqobatbardosh ustunlikka erishish, moliyaviy barqarorlikka erishish va to'lov qobiliyatini ta'minlaydigan muayyan chora-tadbirlar majmui.

Shuni ta'kidlash kerakki, moliyaviy nochorlikka juda ko'p ichki va tashqi omillar ta'sir qiladi. Ushbu omillarning o'zaro bog'liqligi bizni tashkilotning moliyaviy to'lovga qodir emasligi shartlariga olib keladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, tadqiqotning ajralmas qismi bu kompaniya yashaydigan muhit omillarining kombinatsiyasi, korxonada hayotining moliyaviy-iqtisodiy tomonining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikdir.

## **XULOSA**

Moliyaviy to'lovga layoqatsizlik xavfi shundaki, noaniqlik sharoitida faoliyat kompaniyaning reproduktiv jarayonning buzilishi natijasida to'lov qobiliyatini mutlaq yo'qotish ehtimolini aks ettiradi, shuning uchun korxonalarining beqaror moliyaviy holati nafaqat tashqi umumiy iqtisodiy va siyosiy vaziyatni, balki samarasiz moliyaviy menejmentni ham anglatadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, moliyaviy nochorlikka juda ko'p ichki va tashqi omillar ta'sir qiladi. Ushbu omillarning o'zaro bog'liqligi bizni tashkilotning moliyaviy to'lovga qodir emasligi shartlariga olib keladi.

Shunday qilib, juda ko'p sonli omillarni ajratish mavjud. Asosiysi, har bir korxonada uchun sohaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kerakli tasnifni tanlash, tahlil o'tkazish va moliyaviy beqarorlikka olib kelishi mumkin bo'lgan og'riqli joyni topish. Ko'pincha, bu ikki yoki uchta asosiy nuqta, ular nafaqat iqtisodiy, balki jami siyosiy va psixologik omillarni ham hisobga olishlari mumkin. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, tashkilotlar moliyasining ichki xususiyati o'z-

o'zidan sodir bo'layotgan voqealar mohiyatining haqiqiy rasmini aks ettirmaydi. Asosiy ichki va tashqi omillarning o'zaro bog'liqligi kompaniyaning moliyaviy to'lovga layoqatsiz bo'lish xavfi mavjudligini tushunishga yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)**

1. Khatamovna, R. S. (2022). The Importance of Information about Cost Behavior to Increase Efficiency of Enterprise Management. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 4, 190-195.
2. Kudbiev, D., Qudbiyev, N. T., & Imomova, Z. T. Q. (2022). Moliyaviy Hisobotlardan Moliyaviy Menejmentda Foydalanish Masallari. *Scientific progress*, 3(4), 1030-1037.
3. Temirqulov, A., & Qudbiyev, N. (2022). Iqtisodiy rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda soliq siyosati o'rni. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(2), 121-127.
4. Давлятшаев, А. А. (2020). Необходимость проведения анализа региональных инвестиционных проектов. *Национальная ассоциация ученых*, (55-2 (55)), 28-32.
5. Кудбиев, Д. (2022). Особенности И Принципы Развития Системы Финансового Менеджмента В Узбекистане. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 12, 200-206.
6. Кудбиев, Н., & Тожиматов, А. (2023). KORXONALARNING TIJORAT BANKLARI BILAN O'ZARO MUNOSABATLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Scienceproblems. uz*, 3(2), 75-84.
7. Оборин Матвей Сергеевич, & Мартиросян Мартин Ростомович (2021). БАНКРОТСТВО КАК РИСК И ИНСТРУМЕНТ ПРЕВЕНТИВНОГО РЕАГИРОВАНИЯ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. *Интеллект. Инновации. Инвестиции*, (3), 35-47.
8. Пивень И. Г., Бжассо А. А. Разработка методических подходов к оценке эффективности управления компанией в современных условиях // *Экономика и предпринимательство*. 2019. № 7 (108). С. 756–760.
9. Yormatov, I. T. (2022). Роль частного бизнеса в экономике Узбекистана. *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*, 2(11), 215-220.
10. Максудов, М. А., Ёрматов, И. Т., & Максудов, Ж. А. (2019). К вопросам эффективного использования финансовых ресурсов на предприятии. *Экономика и бизнес: теория и практика*, (6-2), 57-61.
11. Эрматов, А. (2023). O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH. *Scienceproblems. uz*, 3(2), 61-68.

12. M.Yu.Raximov, O.T.Astanakulov, N.N.Kalandarova. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. (Darslik). – T.: “Nihol print” OK, 2022. – 484 bet.
13. Якубов, В. Г. (2022). Теоретические Основы Оценки Стоимости Бизнеса. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 3(12), 28-39.

## ЁШЛАР СЛЕНГИ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

**Рахимов Зокир**

ФДУ доценти, ф.ф.н.

**Насимов Жалолдин Сойибжон ўғли**

ФДУ Лингвистика таълим йўналиши магистранти

### АННОТАЦИЯ

*Ушбу мақолада сленгинг замонавий тилшуносликдаги ўрни ва унинг социолингвистик хусусиятлари кўриб чиқилади*

**Калим сўзлар:** сленг, сленгизмлар, ижтимоий гуруҳлар, социолингвистика, ёшлар нутқи.

### АННОТАЦИЯ

*В статье рассматриваются особенности молодежного сленга в современной лингвистике и его социолингвистические особенности.*

**Ключевые слова:** сленг, сленги, социальные группы, социолингвистика, молодежная речь.

### ABSTRACT

*The paper deals with the peculiarities of youth slang in modern linguistics and its sociolinguistic features.*

**Key words:** slang, slangs, social groups, sociolinguistics, youth speech.

### КИРИШ

Ҳозирги замон тилшунослигида сленг энг қизиқарли тил тизимларидан бири ҳисобланади. Сленг - бу муайян ёшдаги ва аҳолининг ижтимоий гуруҳлари томонидан муайян вазиятларда, кўпинча ёшлар томонидан қўлланиладиган сўз ва иборалар бўлиб, у ушбу жамоанинг турмуш тарзи ва урф-одатларини акс эттиради. Ижтимоий гуруҳ - бу ўзаро муносабатлари умумий манфаатлар ва мақсадларга асосланган одамлар жамоасидир. Ҳар қандай ижтимоий гуруҳ тарихан белгиланган меъёрлар доирасидаги шахсларнинг муайян муносабатларини ўзида мужассам этади.

Сленг деганда биз одатда оғзаки нутқ турларидан бирини тушунамиз. У жамият томонидан норасмий нутқ шакли сифатида баҳоланади. Сленг тушунчаси орқали, стилистик характерга эга ва майдони нуқтаи назаридан турли бўлган сўзлар ва фразеологизмлар бирлашади. XIX аср бошларидан бошлаб инглиз луғатшунослари сленг атамасини қўллай бошлайдилар. Сленг атамасини турли тилшунослар турлича ифодалайдилар, халигача унинг аниқ бир этимологияси мавжуд эмас. Замонавий тилшуносликнинг ёшлар нутқи муаммоларига катта қизиқиши, нутқ тилининг мулоқот жараёнларидаги ўрни,



шунингдек, ёшлар сленгини оғзаки нутқ нуқтаи назаридан кўп қиррали ўрганиш қизгин муҳокамаларга сабаб бўлмоқда. Ёшлар сленги ёши бўйича бирлаштирилган кўплаб одамлар учун алоқа воситаси бўлсада ва объектив мавжудлигига қарамай, у ҳодиса макон ва замонда ҳаракатчан ва ўзгарувчандир. Бу тенденцияни оммавий ахборот воситалари саҳифаларида нутқнинг стилистик жиҳатдан қисқартирилган элементларидан фойдаланишнинг сезиларли даражада кўпайиши, жумладан, ёшлар сленглариининг кенг қўлланилишида ҳам кўриш мумкин.

Замонавий инглиз тилида эса сленг оғзаки нутқнинг асосини ташкил қилади ва унинг тил луғат бойлигини катта қисмини эгаллайди. Сленг – бу оғзаки нутқнинг бир тури бўлиб, у маълум бир гуруҳ томонидан қўлланилади. Сленгни одатда социал диалектга мансуб ва у адабий тилга хос деб таъриф берилади. Сленг инглиз тилида ҳам назарий, ҳам амалий нуқтаи назардан ўзига хос хусусиятга эгадир. Олимлар Британия ва Америка сленглариини жуда қизиқарли ва бой лексик майдон деб ҳисоблашмоқда. Лексиканинг бу категориясига доир жуда кўп адабиётлар, луғатлар ва монографиялар мавжуд бўлсада, буни етарлича дея олмаймиз.

### **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Инглиз сленги инглиз тилининг бир қатламидир. Замонавий инглиз тилшунослигида сленг сўзлашув тилнинг фаол ва луғат таркибининг муҳим қисмини намоиш этади. Сленг турли социал гуруҳлар орасида, айниқса унинг яратувчиси бўлган ёшлар орасида кенг тарқалган.

Маълумки, XIX аср охирларида инглиз тилшунослари сленглариини яъни, жонли нутқнинг кўринишларига, унинг хусусияти ва адабий тилга бўлган боғлиқлигига эътиборни кўпроқ қаратиша бошлади. Натижада, сленг бўйича кўплаб илмий ишлар ва тадқиқотлар пайдо бўлди. Сленгнинг тадқиқот қилиш муаммоси бўйича кўзга кўринарли ишлардан бири Дж. Брендер Метьюз (J.Brande Matthews Functioning of Slang. Harper's Monthly Magazine, 1893) эди. 1893 йилга келиб хатто зиёлилар орасида ҳам сленгга яхши муносабатда бўлишни бошлашди, деб таъкидлайди Ж.Б.Метьюз. Сленг луғатлари орасида Дж.Фармер ва У.Е.Хенлининг, ва айниқса Эрик Партрижнинг умумлашган луғати мақтовга лойиқ ишлар деб кўрилмоқда. Чет эл лексикологлариининг ишлариини кўриб, сленг тушунчасини аниқланишда бир қанча тушунмовчиликларга олиб келгани кўришимиз мумкин. Кўп холларда, асосан оғзаки нутқда ва маълум бир гуруҳларда пайдо бўлган, оммада стилистик мақсадларда қўлланиладиган сўзлар ва иборалар сленглариини деб ҳисобланмоқда.

Тилда сленгнинг мавжудлигини, кўплаб тилшунослик мактаблари ва турли изланувчилар нуктаи назаридан қуйидаги хусусий концепцияларда кўрсак бўлади.

1. Кўплаб тадқиқотларда сленг бадиий адабиётларга қарши қўйилмоқда, аммо шу билан биргаликда бир хил ёзувчиларда сленг жаргон ва профессионализмлар, қисман диалектал вариантлар сифатида тушинилади.

2. Сленг аниқ стилистик луғат элементлари мақсадида қўлланиладиган ва янгилик яратувчи сифатида кўрилади.

3. Сленг "психологик " нуктаи назардан профессионал гуруҳларнинг шахсий ижоди сифатида намоён бўлади.

Замонавий тишуносликда сленг атамаси 4 хил турда ифодаланилади:

а) чекланган ижтимоий ва ижтимоий этник гуруҳларнинг (ёшлар сленги, касб- хунарга оид сленг) ўзаро қўлланиладиган махсус луғат;

б) кўпол, баъзан қурилмаган иборалар;

в) на адабий тилга ва на шевага кирган сўзлар;

г) ҳаммабоп лексик қатлам.

Хар бир инглизнинг тил нуктаи назаридан мавжудлигини сленгсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Айниқса мактаб сленг сўз бирликлари хар қадамда қўлланилади. Ёшлар сленгни бойитувчилар хисобланади.

Мисол тариқасида ёшлар нутқидан олинган сленгни келтирамиз:

*A Foxy Girl*

*Mary is sure a fox. Don't she have some boss rags? She looks like she got a lot of soul. She is cool and out -of -sight. Her shoes are clean, and her hair style is real boss.Man, she is fine.*

Стандарт инглиз тилида:

*A beautiful girl.*

*Mary is surely a nice looking girl. Doesn't she have some beautiful clothes? She looks asif she has a lot of spirit. She is exciting and good. Her shoes are attractive and her hair style is really nice.John is relly good looking.*

Ушбу лексик қатламга кирувчи бирликларнинг асосий хусусиятлари қуйидагилардан иборат:

**Қисқалик.** Кўпинча янги сўзлашув иборалари ва сўзлари узоқроқ ва талаффуз қилиш қийинроқ бўлган конструксияларни алмаштиради. Ёшлар қисқа ва лўнда гапиришни яхши кўрадилар. Масалан, "Қандайсиз?" деб таржима қилинган машҳур сленг сўзи "Watcha" ёки "What cheer" иборасидан тузилган.

**Эмоционалик.** Ёшлар нутқи эмоционал бўлиб, унда ҳиссий жиҳатдан нейтрал луғат деярли йўқ. Шунинг учун, инглиз тилида замонавий сленгги ўрганаётганда, ҳар бир алоҳида ибора қандай маънога эга эканлигини аниқ назарда тутмоқ керак. Шундай қилиб, "Noob" сўзи шунчаки "омадсиз" эмас, балки бирор нарсани қандай қилишни билмайдиган, бошқаларни турли саволлар билан безовта қиладиган ва бирон бир ишни ўрганишдаги муваффақиятсизликларидан доимо шикоят қиладиган одамни англатади.

**Машҳурлик** (Популярность). Интернет тўғрисида инглиз тилидаги сўзлашув лексикаси бутун дунё бўйлаб ақл бовар қилмайдиган тезликда тарқалмоқда. Бирорта машҳур сериалда янги ибора эшитилиши билан эртаси кундан бошлаб у барча қитъаларда мароқ билан ишлатилади.

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, сленгнинг лексик қатлами жуда динамик: унда доимий равишда янги иборалар пайдо бўлади ва эскилари машҳурлигини аста-секин йўқотиб, унутилиб, йўқ бўлиб кетади. Сленг одатда нейтралдир, турли ижтимоий гуруҳлар вакиллари томонидан махсус коммуникатив вазиятларда қўлланиладиган табу сленглари бундан мустасно (мисоллар қуйида келтирилган):

*Спортчиларнинг сленги:* a slam dunk - юқоридан отиш (баскетболда) ва a foul ball - мағ'луб бўлган, a switch hitter - ўнг ва чап қўл билан хизмат қиладиган зарба, a roundball - баскетболнинг бошқа номи. Спортчилар сленги кўпинча от, қўшма от, фразема ва икки қисмли номинатив birlikларнинг қўлланиши билан тавсифланади.

*Телевизорда ишлайдиган ходимлар сленги:* off-net - синдикатга сотилган сериалларнинг такрорий намойишлари, a wicket – кўп даромад келтирувчи фильм, одатда чет эл фильми, a one-hander - бир актёр иштирокидаги фильм, a sprocket opera – кинофестивал.

*Америкалик юк машинаси ҳайдовчилари сленги:* Alligator - Йўлда ётган шина бўлаги, Alligator radio/station – Ҳайдовчи кабинасидаги радиостанция, Bear - Қонуннинг ҳар қандай вакилига ишора қилувчи умумий атама, Bear in the air - Юқоридан ҳаракат тезлигини бошқарадиган полиция вертолёти.

Таҳлил қилинган сленг лексик birlikлар натижасида шуни таъкидлаш керакки, сленг маълум ижтимоий гуруҳлар вакиллари нутқий хулқ-атворининг ажралмас қисми ҳисобланади. Асосий сабаб - уларнинг изоляцияга интилишлари, доимий равишда неологизмларни шакллантириш, қайта ўйлаш, метафоралаш орқали инглиз тилининг луғатини тўлдиришга "муҳим" ҳисса қўшишга уринишдир. Шуни ҳам таъкидлашни лозимки, ўз нутқида сленг ишлатадиган маълум бир гуруҳ одамларнинг ижтимоий мавқеи ёки маълумоти

ушбу гуруҳлар вакилларининг ушбу лексик бирликларни ишлатиш сонига таъсир қилмайди.

### **ХУЛОСА**

Шундай қилиб, сленгга берилган таърифлар бўйича хулоса қилсак сленгнинг аниқ бир маъноси бирлаштирилмаган, сленг номинациясига ҳар бир даврнинг ўз таърифи бўлгани учун ҳам унинг аниқланиши тобора мураккаблашиб борган. Сленг тадқиқоти соҳасида ранг- баранг қарашларнинг мавжудлиги ушбу ходисанинг ягона тизимга солинмаганлигини тасдиқлайди. Уни турли қарашларга кўра таҳлил қилиб чиқсак, қуйидаги хулосага келишимиз мумкин - сленг нутқнинг иккинчи даражали шакллар тўплами бўлиб, сленглар эҳтиёжга қараб ўзгаради. У жамият томонидан норасмий нутқ шакли сифатида баҳоланади.

### **Фойдаланган адабиётлар (REFERENCES)**

1. Береговская Э.М. Молодежный сленг: формирование и функционирование // Вопросы языкознания, 1996, № 3, - 32-41б.
2. Гальперин И.Р. О термине сленг. Вопросы языкознания. – 1956. - С. 110.
3. Кочеткова, М. А. Культурологические аспекты сленга: сленг американских студентов. Нижний Новгород. Издательство НГЛУ им. Н. А. Добролюбова, 2008. — 139 с.
4. Левикова С. И. Молодежный сленг как своеобразный способ вербализации бытия. (Бытие и язык. — Новосибирск, 2004. — С. 167–173)
5. Маковский М.М. Английские социальные диалекты – М: Высшая школа, 1982.- 65б
6. Швейцер А. Д. Социальная дифференциация английского языка в США. М., 1983.
7. Flexner S. B. I hear America talking /An Illustrated treasure of American words and phrases/. New York, Van Nostrand, 1976.

## **YANGI O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIGINI TA'MINLANISHIGA QARATILGAN E'TIBOR**

**O.F. Ashurov**

Toshkent davlat transport universiteti,  
“Avtomobil va avtomobil xo'jaligi” kafedrası assistenti

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada yangi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar va uning jamiyat hayotida tub burilish davrining ijtimoiy mohiyati, ijtimoiy ahamiyati va inson qadr-qimmatini hamda gender tengligi tahlil qilingan va gender tengligini buzilishi sabablari va yechimlari haqida to'xtalib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** O'zbekistonni yangi bosqichi, gender tengligi, ta'lim va tarbiya, yoshlar, ayollar huquqlari, barkamollik, Uchinchi Renessans.*

### **ABSTRACT**

*The article analyzes the social nature, social significance, human value and gender equality of the reforms being carried out in the new Uzbekistan and the period of radical change in the life of society, and the causes and solutions of the violation of gender equality are discussed.*

***Key words:** Uzbekistan's new stage, gender equality, education and upbringing, youth, women's rights, well-being, Third Renaissance.*

### **KIRISH**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida xotin-qizlar va erkaklarni teng huquqliligi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu prinsipni amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklarga ta'lim olishda, kasbiy tayyorlanishda, ishda, mehnat uchun rag'batlanishda va xizmat yuzasidan ko'tarilishda teng huquqiy imkoniyatlar yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasi bilan belgilangan O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi prinsipining Konstitutsiyaning 46-moddasi bilan nisbati ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lgan, deyish mumkin. Aynan ayollar va erkaklarga teng imkoniyatlar yaratish doktrinasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasi va uni amalga oshirish uchun qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining „Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida“gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining „O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida“gi Qonunining 2-moddasi, Mehnat kodeksi 6-moddasining birinchi qismi, Oila kodeksining 2-moddasi alohida ahamiyatga ega.



Ayollarning siyosiy huquqlarini ta'minlashda yangi qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksida siyosiy partiyalar tomonidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari mahaliy Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar ta'minlashi nazarda tutilgan. Saylov kodeksining 70 va 91-moddalariga muvofiq ayollarning soni siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar umumiy sonining kamida 30 % ni tashkil etishi kerakligi belgilangan. 2019-yil 2-sentabrda „Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonliklardan himoya qilish to'g'risida“gi[8] va „Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida“gi qonunlar, 2018-yil 2-fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi Farmoni, 2018-yil 2-iyuldagi „Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi, 2019-yil 7-martdagi „Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida“gi qarorlari[10] mamlakatimizda xotin-qizlarning huquqlari himoyasi borasida ustuvor yo'nalishlarni belgilab berdi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar bilan jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida erkaklar va ayollarning huquqlari hamda erkinliklarin kamaytirishga yoki tan olmaslikka qaratilgan har qanday tarzda farqlash, istisno etish yoki cheklash jinsi bo'yicha bevosita kamsitish, sirtidan xolis bo'lib tuyiladigan, biroq bir jinsdagi shaxslarni boshqa jinsdagi shaxslarga nisbatan noqulayroq holatga tushirib qo'yadigan vaziyatlar, holatlar, mezonlar yoki amaliyotlar esa jinsi bo'yicha bilvosita kamsitish sifatida qabul qilinishi belgilab o'tilgan.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Darhaqiqat, har qanday huquqiy davlatning asosiy vazifalaridan biri xotin-qizlarning erkaklar bilan teng huquqligini, jumladan, saylov huquqini ta'minlashdir. Biroq saylov huquqi mamlakatlarda mahalliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda belgilanadi. Jahonning ko'plab davlatlarida saylov huquqi ayollarga erkaklardan birmuncha keyin berilgan. Masalan, AQSHda erkaklar 1970-yilda, ayollar esa saylov huquqiga 1920-yilda ega bo'lgan. Yaponiyada esa erkaklar 1925-yildan boshlab saylovlarda ishtirok etishgan bo'lsa, ayollar bunday huquqni 1945-yilga kelib qo'lga kiritgan. Jahonning eng rivojlangan mamlakatlaridan biri Shvetsariyada ayollar 1971-yilda saylov huquqiga ega bo'lishganligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasida o'tkanyillar davomida demokratik saylov tizimini shakllantirish va uni yanada takomillashtirish borasida ulkan ishlar qilindi. Saylov

tizimimiz xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini, davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi mavqeini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlariga siyosiy partiyalardan ko'rsatiladigan deputatlikka nomzodlarning kamida 30 foizini ayollar tashkil etishi to'g'risidagi normaning kiritilgani buning yaqqol tasdig'idir. 2009-yilgi saylovlar jarayonida mazkur normaning tatbiq etilishi Oliy Majlisning quyi palatasiga umumiy deputatlar sonining 20 foizini tashkil etadigan 33 nafar ayol deputatni saylash imkonini berdi. Taqqoslaydigan bo'lsak, agar Qonunchilik palatasida 1998-yilda atigi 8,2 foiz ayol deputatlikka saylangan bo'lsa, 2004-yilda 17,5 foiz ayol deputat faoliyat yuritgan.

2007-yilga kelib davlatimiz tarixida birinchi marta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomzodiga ayol kishi – "Adolat" sotsial-demokratik partiyasining yetakchisi ko'rsatiladi. 2008-yili esa ilk bor ayol kishi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining spikeri lavozimiga saylandi. Bu jamiyatimizda ayollar mavqeining yanada oshganligidan dalolatdir.

Bugungi kunda mavjud to'rt siyosiy partiyada ayollar nufusi 36 foizdan 50 foizgachadir. Ushbu partiyalar qoshida "Ayollar qanoti" tashkil topgan bo'ib, bu mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlarda xotin-qizlarning o'rni qanchalik yuqoriligini ko'rsatib turadi.

Xotin-qizlarni davlat boshqaruvi organlariga rahbar lavozimlariga taqdim etish bo'yicha "Ijtimoiy fikr" markazi tomonidan "2009-yil saylovi" ruknida o'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma natijalari diqqatga sazovordir. Bunda 21 foiz respondent ayollarga ovoz berishini bildirgan bo'lsa, 2004-yilgi saylovlarda bu ko'rsatkich 17,8 foiz bo'lgan. Lekin gap faqat miqdorda emas. Asosiy masala davlat boshqaruv organlariga saylanadigan ayollarning malakasi, saviyasi, siyosiy jihatdan yetukligidir. Bu yo'nalishda O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2005-yildan boshlab siyosiy partiyalar bilan o'zaro hamkorlikka viloyat, shahar va tuman xotin-qizlar qo'mitalarining raislarini Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida o'qitish hamda ularning raxbarlik malakasini oshirishga mo'ljallangan dastur ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu o'quvga Vazirlar Mahkamasining mutasaddi raxbarlari, turli vazirliklar va uyushmalarning mutaxassislari jalb qilingan. Har yili ushbu dastur asosida 200 ga yaqin Shahar va tuman xotin-qizlar qo'mitalari vakillari taxsil olishmoqda.

Eng quvonarlisi shuki, siyosiy partiyalarda ayolarga munosabat madaniyati yuksalmoqda, erkaklar bilan teng huquqlilik ta'minlanmoqda. Bu esa mustaqillik yillarida mamlakatimizda xotin-qizlar haq-huquqlari hamda erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan mustahkam poydevor yaratilganligiga yaqqol dalildir.

## **REFERENCES**

1. K.P. Aliyeva. O'zbekiston Respublikasida gender tengligini ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari (o'zbek). Toshkent: "Leson Press" MCHJ nashriyoti, 2022 — 169 bet.
2. “O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi” (o'zbek) (doc) (8-dekabr 1992-yil). Qaraldi: 25-iyul 2022-yil.
3. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi Qonun“ (3-sentabr 2019-yil). Qaraldi: 25-iyul 2022-yil.
4. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida”gi Qonun (22-aprel 2014-yil). Qaraldi: 25-iyul 2022-yil.
5. Saylov kodeksi (o'zbek) (doc) (26-iyun 2019-yil). Qaraldi: 25-iyul 2022-yil.

## **ОЛИЙ ТАЪЛИМ СОҲАСИДА ОЛИБ БОРАЁТГАН ДАВЛАТ СИЁСАТИНИНГ АҲАМИЯТИ**

**О. Ф. Ашуров**

Тошкент давлат транспорт университети,  
“Автомобиль ва автомобиль хўжалиги” кафедраси ассистенти

### **АННОТАЦИЯ**

*Ўзбекистон Республикасида олий таълимни тизимли ислоҳ қилишнинг устувор йўналишларини белгилаш, замонавий билим ва юксак маънавий-ахлоқий фазилатларга эга, мустақил фикрлайдиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, олий таълимни модернизация қилиш, илғор таълим технологияларига асосланган ҳолда ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларини ривожлантириш мақсадида мамлакатимизда кенг кўламли ишлар олиб борилаётгани ҳамда олий таълим тизимидаги муаммо ва йечимлар тўғрисида тўхталиб ўтилган.*

**Калит сўзлар:** *Илм-фан, олий таълим, таълим-тарбия, давлат сиёсати, илмий, педагог.*

### **ABSTRACT**

*Determining the priorities of the systematic reform of higher education in the Republic of Uzbekistan, raising the process of training highly qualified personnel with modern knowledge and high moral and ethical qualities to a new level in terms of quality, modernization of higher education, development of social sphere and economic sectors based on advanced educational technologies that large-scale work is being carried out in our country and the problems and solutions in the higher education system were discussed.*

**Key words:** *Science, higher education, education, state policy, scientific, pedagogue.*

### **КИРИШ**

Ўзбекистон Республикасида олий таълим тизимини ислоҳ қилишнинг устувор йўналишларини белгилаш, замонавий билим ва юксак маънавий-ахлоқий фазилатларга эга, мустақил фикрлайдиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, олий таълимни модернизация қилиш, илғор таълим технологияларига асосланган ҳолда ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларини ривожлантириш мақсадида мамлакатимизда кенг кўламли ишлар олиб борилмоқда. Маълумки, замонавий ҳаётни бугунги кунда илм-маърифат ва таълимнинг тараққиётисиз тасаввур этиб бўлмайди. Айниқса, ривожланган хорижий давлатларда таълимни

ривожлантириш биринчи галдаги энг асосий вазифа сифатида белгиланмоқда. Бунга сабаб мамлакатнинг келгуси равнақи айнан шу соҳада қўлга киритган ютуқлари билан чамбарчас боғлиқдир. Айниқса, ҳар бир халқ, ҳар бир миллатнинг эртанги куни бугун вояга етаётган авлод тақдири билан узвий боғлиқ.

### **МАВЗУГА ОИД АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ.**

Бугунги замонавий жамиятда инсон фаолиятининг энг кенг соҳаларидан бири - бу таълим соҳаси ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “тараққиётнинг тамал тоши ҳам, мамлакатни қудратли, миллатни буюк қиладиган куч ҳам илм-фан, таълим ва тарбиядир”[1]деган сўзларида ўз ифодасини топади. Шунинг учун ҳам, Ўзбекистонда таълим тизимини комплекс ривожлантириш, малакали кадрлар тайёрлаш мақсадларига катта куч ва маблағлар йўналтирилмоқда.

Таълим соҳасида давлат сиёсатининг асосий принциплари қуйидагилардан иборат:Таълим ва тарбиянинг уйғунликда олиб борилиши; таълим ва тарбиянинг инсонпарвар, демократик хусусиятга эга эканлиги;таълимнинг узлуксизлиги, узвийлиги ва изчиллиги;12 йиллик (6 ёшдан 7 ёшгача болаларни бир йил давомида умумий ўрта таълимга тайёрлаш ҳамда ўн бир йиллик умумий ўрта ва ўрта махсус) таълимнинг мажбурийлиги;таълим тизимининг дунёвий хусусиятга эга эканлиги;давлат таълим стандартлари ва давлат таълим талаблари доирасида таълим олишнинг ҳамма учун очиклиги;таълим дастурларини танлашга ягона ва табақалаштирилган ёндашув;билимли бўлишни ва истеъдодни рағбатлантириш;инсоннинг бутун ҳаёти давомида таълим олиши;жамиятда педагог ходимлар ижтимоий ҳимоясининг кафолатланганлиги;таълим тизимида давлат ва жамоат бошқарувини уйғунлаштириш.

Давлат жинси, ирқи, миллати, тили, дини, ижтимоий келиб чиқиши, эътиқоди, шахси, ижтимоий мавқеидан қатъий назар, ҳар кимга таълим олишда тенг ҳуқуқларни кафолатлайди.Давлат таълим олиш ҳуқуқини қуйидагилар орқали таъминлайди:

- таълим ташкилотларини ривожлантириш;
- таълим ташкилотларида инновацион фаолиятни ва таълим дастурларини инновацион технологиялар ёрдамида амалга оширишни қўллаб-қувватлаш;
- етакчи классик олий таълим муассасалари мақомини белгилаш ва уларни қўллаб-қувватлаш;
- ишлаб чиқаришдан ажралган (кундузги) ва ажралмаган ҳолда (сиртки, кечки, масофавий, дуал) таълим олишни ташкил этиш;



-кадрлар тайёрлаш ва таълимга оид давлат дастурлари асосида ўқитиш;

-умумий ўрта ва ўрта махсус таълимни бепул олиш;

-оилада ёки ўзи мустақил равишда билим олган, шунингдек, мажбурий умумий ўрта таълимни тўлиқ олмаган фуқароларга аккредитациядан ўтган давлат таълим муассасаларида экстернат тартибида аттестациядан ўтиш ҳуқуқини бериш;

-таълим муассасаларида кадрлар тайёрлаш бўйича давлат буюртмаларини меҳнат бозорининг талабларига мувофиқ шакллантириш.

-Хорижий мамлакатларнинг фуқаролари Ўзбекистон Республикасида халқаро шартномаларга ва қонун ҳужжатларига мувофиқ таълим олиш ҳуқуқига эга.

-Ўзбекистон Республикасида доимий яшаб турган фуқаролиги бўлмаган шахслар таълим олишда Ўзбекистон Республикаси фуқаролари билан тенг ҳуқуқларга эга.

Ўзбекистон Республикасининг таълим тизими қуйидагиларни ўз ичига олади:

-давлат таълим стандартлари, давлат таълим талаблари ва таълим дастурларини ёки улардан бирини амалга оширувчи таълим ташкилотлари;

-якка тартибда педагогик фаолият билан шуғулланувчи жисмоний шахслар (репетиторлик);

-таълим тизимининг фаолият кўрсатиши ва ривожланишини таъминлаш учун зарур бўлган тадқиқот ишларини бажарувчи илмий-педагогик муассасалар;

-таълим соҳасида давлат бошқаруви органлари ҳамда уларга идоравий мансуб ташкилотлар.

-Ўзбекистон Республикасининг таълим тизими ягона ва узлуксиздир.

Ўзбекистон Республикасида таълим қуйидаги турларда амалга оширилади:

1.мактабгача таълим;

2.умумий ўрта ва ўрта махсус таълим;

3.касбий таълим;

4.олий таълим;

5.олий таълимдан кейинги таълим;

6.кадрлар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш;

7.мактабдан ташқари таълим.

### **ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ.**

Охириги йилларда таълимнинг ижтимоий роли ортиб, дунёнинг аксарият давлатларида таълимнинг барча турларига бўлган муносабат ўзгарди. Таълим

ижтимоий ва иқтисодий тараққиётнинг бош, етакчи омили сифатида қаралмоқда.

Бундай эътиборнинг сабаби замонавий жамиятнинг энг муҳим қадрияти ва асосий капитали – бу янги билимларни излаш, эгаллаш ва ностандарт қарорлар қабул қилишга қодир бўлган инсон ҳисобланади. Шундай экан, ҳозирги даврда таълим шахс ва жамиятни ривожлантиришда ҳал қилувчи роль ўйнайди.

Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 8 октябрдаги Ф-4724-сон фармойиши[2] билан ташкил қилинган Ишчи гуруҳ томонидан олий таълим тизимидаги ҳолатни ўрганиш натижаларига кўра, бир қатор олий таълим муассасаларида ҳали ҳам илмий-педагогик салоҳиятнинг пастлиги, таълим жараёнларини ахборот-услубий ва ўқув адабиётлари билан таъминлаш замонавий талабларга жавоб бермаслиги, уларнинг моддий-техника базасини тизимли янгилашга эҳтиёж мавжудлиги аниқланди.

### **ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР.**

Олий таълим тизимида ўз йўналишлари бўйича дунёнинг етакчи илмий-таълим муассасалари билан яқин ҳамкорлик алоқалари ўрнатиш, ўқув жараёнига илғор хорижий тажрибаларини жорий этиш, айниқса, истиқболли педагог ва илмий кадрларни хорижнинг етакчи илмий-таълим муассасаларида стажировкадан ўтказиш ва малакасини ошириш борасидаги ишлар етарли даражада олиб борилмаётганлиги олий таълим тизимини тубдан такомиллаштириш, мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор вазифаларидан келиб чиққан ҳолда, кадрлар тайёрлаш мазмунини тубдан қайта кўриш, халқаро стандартлар даражасига мос олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш учун зарур шароитлар яратилишини таъминлаш мақсадида:

Олий таълим тизимини келгусида янада такомиллаштириш ва комплекс ривожлантириш бўйича фармойишда энг муҳим вазифалар этиб қуйидагилар белгиланди: ҳар бир олий таълим муассасаси жаҳоннинг етакчи илмий-таълим муассасалари билан яқин ҳамкорлик алоқалари ўрнатиш, ўқув жараёнига халқаро таълим стандартларига асосланган илғор педагогик технологиялар, ўқув дастурлари ва ўқув-услубий материалларини кенг жорий қилиш, ўқув-педагогик фаолиятга, мастер-класслар ўтказишга, малака ошириш курсларига хорижий ҳамкор таълим муассасаларидан юқори малакали ўқитувчилар ва олимларни фаол жалб қилиш, уларнинг базасида тизимли асосда республикамиз олий таълим муассасалари магистрант, ёш ўқитувчи ва илмий ходимларининг стажировка ўташларини, профессор-ўқитувчиларни қайта тайёрлаш ва малакасини оширишни ташкил қилиш; олий маълумотли

мутахассислар тайёрлашнинг мақсадли параметрларини шакллантириш, олий таълим муассасаларида ўқитиш йўналишлари ва мутахассисликларини истиқболда минтақалар ва иқтисодиёт тармоқларини комплекс ривожлантириш, амалга оширилаётган ҳудудий ва тармоқ дастурларининг талабаларини инобатга олган ҳолда оптималлаштириш; таълим жараёнини, олий таълимнинг ўқув режа ва дастурларини янги педагогик технологиялар ва ўқитиш усулларини кенг жорий этиш, магистратура илмий-таълим жараёнини сифат жиҳатидан янгилаш ва замонавий ташкилий шаклларни жорий этиш асосида янада такомиллаштириш; янги авлод ўқув адабиётларини яратиш ва уларни олий таълим муассасаларининг таълим жараёнига кенг татбиқ этиш, олий таълим муассасаларини замонавий ўқув, ўқув-методик ва илмий адабиётлар билан таъминлаш, шу жумладан, энг янги хорижий адабиётлар сотиб олиш ва таржима қилиш, ахборот-ресурс марказлари фондларини мунтазам янгилаб бориш; педагог кадрларнинг касб маҳорати сифати ва савиясини узлуксиз юксалтириш, хорижда педагог ва илмий ходимларнинг малакасини ошириш ва стажировкасини ўтказиш, олий таълим муассасалари битирувчиларини PhD ва магистратура дастурлари бўйича ўқитиш, олий таълим муассасалари ва қайта тайёрлаш ва малака ошириш марказлари ўқув жараёнларига юқори малакали хорижий олимлар, ўқитувчи ва мутахассисларни кенг жалб қилиш; олий таълим муассасалари илмий салоҳиятини мустаҳкамлаш, олий таълимда илм-фанни янада ривожлантириш, унинг академик илм-фан билан интеграциялашувини кучайтириш, олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчиларининг илмий-тадқиқот фаолияти самарадорлиги ва натижадорлигини ошириш, иқтидорли талаба-ёшларни илмий фаолият билан шуғулланишга кенг жалб этиш; олий таълимнинг маънавий-ахлоқий мазмунини ошириш, талаба-ёшларга мустақиллик ғояларига, юксак маънавият ва инсонийликнинг миллий анъаналарига содиқлик руҳини чуқур сингдириш, уларда ёт ғоя ва мафкураларга нисбатан иммунитет ва танқидий тафаккурни мустаҳкамлаш бўйича кенг кўламли маърифий ва тарбиявий ишларни олиб бориш; олий таълим муассасалари моддий-техника базасини ўқув ва илмий-лаборатория бино ва корпуслари, спорт иншоотлари, ижтимоий-муҳандислик инфратузилмаси объектларини қуриш, реконструкция қилиш ва капитал таъмирлаш, олий таълим илм-фанининг устувор йўналишлари бўйича ўқув-илмий лабораторияларини замонавий асбоб ва ускуналар билан жиҳозлаш орқали янада мустаҳкамлаш; олий таълим муассасаларини замонавий ахборот-коммуникация технологиялари воситалари билан жиҳозлаш, олий таълим муассасалари талабалари, ўқитувчилари ва ёш тадқиқотчиларининг жаҳон

таълим ресурслари, замонавий илмий адабиётларнинг электрон каталоглари ва маълумотлар базаларига кириш имкониятларини кенгайтириш вазифалари белгилаб берилган.

Мамлакатимиз таълим тизими, жумладан олий таълим соҳаси кенг кўламли ўзгаришлар даврини бошидан кечирмоқда. Сўнги йилларда Республикада олий таълим соҳасини тубдан ислоҳ қилиш ва давлат сиёсатини амалга ошириш борасида бир қатор қонун ва қонуности ҳужжатлари қабул қилинган.

Ушбу ҳужжатлар жумласига: 1.Ўзбекистон Республикасининг 23.09.2020 йилдаги “Таълим тўғрисида”ги қонуни; 2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 08.10.2019 йил ПФ-5847-сон Фармони; 3.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий ва ўрта махсус таълим тизимида бошқарувнинг янги тамойилларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 11.07.2019 йил ПҚ-4391-сон Қарори; 4.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат олий таълим муассасаларининг академик ва ташкилий-бошқарув мустақиллигини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 24.12.2021 й. ПҚ-60-сон Қарори. 5.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат олий таълим муассасаларига молиявий мустақиллик бериш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 24.12.2021 й. ПҚ-61-сон Қарори ва бошқа ҳужжатларни киритиш мумкин[3].

### **ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР.**

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, олий таълим соҳасида давлат сиёсатини амалга ошириш учун бизнинг фикримизча, биринчидан, фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясини ривожлантириш таълим соҳасидаги инновациялар ва давлатнинг ёшлар масаласида фаол сиёсати ҳамда унга таянган ҳолда амалга оширилган ислохотлар сезиларли натижаларни бермоқда; иккинчидан, мамлакатимиз олий таълим тизимини ислоҳ қилишнинг устувор йўналишларини янада ривожлантириш, бунда олий ўқув юртлирида қамров даражасини кенгайтириш ҳамда таълим сифатини ошириш, рақамли технологиялар ва таълим платформаларини жорий этиш, ёшларни илмий фаолиятга жалб қилиш, инновацион тузилмаларни шакллантириш, илмий тадқиқотлар натижаларини тижоратлаштириш, халқаро эътирофга эришиш ҳамда бошқа кўплаб аниқ йўналишларни хорижий тажрибалар асосида қайта кўриб чиқиш лозим. Учинчидан, айниқса, таълим тизимидаги мавжуд имкониятларни сақлаб қолган ҳолда, миллий таълим-тарбия тизимида асос

солиниб таълим соҳасида янгиланиш жараёни бошлаб юборилди. Бу эса мамлакатимизда юқори малакали миллий кадрларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштиришга хизмат қилаётганидан далолат беради.

## REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи; <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-ituv-30-09-2020>.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 8 октябрдаги Ф-4724-сон Фармойиши.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги (ЎРҚ-637-сон, 23.09.2020 й.) қонуни. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 12.10.2021 й., 03/21/721/0952-сон). Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 08.10.2019 йил ПФ-5847-сон Фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий ва ўрта махсус таълим тизимида бошқарувнинг янги тамойилларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 11.07.2019 йил ПҚ-4391-сон Қарори, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат олий таълим муассасаларининг академик ва ташкилий-бошқарув мустақиллигини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 24.12.2021 й. ПҚ-60-сон Қарори, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат олий таълим муассасаларига молиявий мустақиллик бериш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 24.12.2021 й. ПҚ-61-сон Қарори.



## **ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA O'ZBEK TILINI O'QITISHNING TEXNOLOGIYA VA INNOVATSIYALARI**

**Rahmatjonov Shahzodxon Shodiboyzoda**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

+998 93 633 44 12

### **ANNOTATSIYA**

*Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Shuningdek ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kun sayin kuchayib bormoqda. Ushbu maqolada, zamonaviy ta'lim tizimida o'zbek tilini o'qitish texnologiya va innovatsiyalari haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *zamonaviy ta'lim, o'zbek tili, texnologiya, innovatsiyalar, metodika, kompetensiya, talabalar, kommunikativ savodxonlik.*

### **ABSTRACT**

*Currently, modern teaching methods are widely used in the educational process. The use of modern teaching methods leads to high efficiency in the teaching process. It is appropriate to choose these methods based on the didactic task of each lesson. While preserving the traditional form of the lesson, enriching it with various methods that activate the activity of learners, leads to an increase in the level of learning of learners. Also, the interest and attention to the use of innovative technologies, pedagogical and information technologies in the educational process is growing day by day. In this article, there are thoughts and opinions about the technology and innovations of Uzbek language teaching in the modern education system.*

**Key words:** *modern education, Uzbek language, technology, innovations, methodology, competence, students, communicative literacy.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В настоящее время в учебном процессе широко используются современные методы обучения. Использование современных методов обучения приводит к высокой эффективности учебного процесса. Эти методы целесообразно выбирать исходя из дидактической задачи каждого урока. При сохранении*

*традиционной формы урока, обогащению его различными методами, активизирующими деятельность учащихся, происходит повышение уровня обученности учащихся. Также с каждым днем растет интерес и внимание к использованию инновационных технологий, педагогических и информационных технологий в образовательном процессе. В этой статье есть мысли и мнения о технологии и инновациях преподавания узбекского языка в современной системе образования.*

**Ключевые слова:** современное образование, узбекский язык, технология, инновации, методика, компетентность, обучающиеся, коммуникативная грамотность.

## **KIRISH**

Til millatimizning borlig'i, qalbimizning quyoshidir. Til adabiyotni yashnatadigan, millatning ruhiy boyligini oshiradigan ijtimoiy hodisadir. Til yashasa millat ham, adabiyot ham yashaydi. Har qanday tilni o'rganish uchun avval shu tildagi so'zlarni bilib olish kerak bo'ladi. Buning uchun esa shu tildagi gap tuzish, so'zlarni bog'lash, qonun qoidalarni bilish kerak. Tildagi tovushlar talaffuzini yaxshi o'zlashtirib, so'zlarni to'g'ri aytish ham til o'rganishda juda muhimdir. Ona tilim menga g'urur va iftixor tuyg'usini bag'ishlaydi. Xalqlar o'rtasidagi birlik, ahillik hurmat tilni bilishdan boshlanadi. Til bilan ko'ngilni doimo bir tutish kerak. Chunki har bir millatning tili yaxshi insonlar qatoridan suv ichib turadi.

O'zbek tilining imkoniyatlari shu qadar kengki unda nasr va nazm uchun kerakli bo'lgan go'zal va nafis uslublarni topish mumkin. Tilga bo'lgan muhabbat tuyg'usi ona suti bilan qonga kiradi. Tilimiz bizning ruhiy boyligimiz, ma'naviy borligimizdir. Millatni yashnatib, uni dunyoga tanitadigan asosiy vosita til desak adashmagan bo'lamiz. Tilga bo'lgan muhabbat tuyg'usi har bir insonning qalbida josh urib to'lqinlanib turmog'i lozim

Olamning gultoji bo'lgan insonga tuhfa qilingan til uning mislsiz boyligi hisoblanadi. O'zbek tilining borlig'i, boyligi, bo'y-basti-yu butunligini ko'rsata olgan filologiya fanlari doktori, professor Nizomiddin Mahmudov ta'kidlaganlaridek, "Odamni, olamni va Ollohni tanimoqday mashaqqatli, sharaflil yo'lning avval-oxir charog'boni shu tildir. Dunyoda o'zining kimligini anglash, qavmining hamiyati va hurligini ko'rish tuyg'usi ham, avvalo, til tufayli poydordir. Ona tilining inson va aqliy va ma'naviy-ruhiy dunyosining tayanchi ekanligidan iborat haqiqatni hushi o'zida bo'lgan odamlarning barchasi e'tirof etadi".

Har qanday milliy til o'zida shu tilda so'zlovchi xalqning estetik, axloqiy-badiiy va falsafiy, diniy-etnografik, tarixiy va ijtimoiy, mafkuraviy va ma'naviy qarashlarini, ular haqidagi tushunchalar, tasavvurlar, kategoriyalar, mushohadalarni o'zida ifoda

etadi hamda buyuk merosni avloddan avlodga olib o'tuvchi, ularni asrovchi va saqlovchi ma'naviy qurolga, xazinaga aylanadi. Shu sababli ham tilni shunchaki aloqa quroli deb bilish va baholash mantiqqa mutlaqo to'g'ri emas. O'zbek tili – o'zbek xalqining milliy tili. Unda o'zbek xalqining o'zligi, tabiati, saviyasi, tafakkur tarzi o'z tajassumini topar ekan, demak, mazkur tilni asrab-avaylash, uning nufuzini, obro'-mavqeyini ko'tarish shu tilda so'zlovchi har bir shaxsning insoniy burchi va huquqidir

Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchini faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari izlab topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Bugungi ta'lim jarayoni vaqtida interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv darslari jarayoni mobaynida foydalanishga bo'lgan intilish, e'tibor kundan – kunga ortib bormoqda. O'qituvchi ushbu jarayonda o'quvchining shaxsiy takomillanishi, rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga muhit yaratadi va shuning bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini ham bajaradi.

Innovatsion texnologiyalar ta'lim sifati va samaradorligini yanada takomillashtirib, ta'lim jarayonining markaziga o'quvchi va talabalarning o'quv bilish faoliyatini oshirishga yordam beradi, ta'lim jarayoni yaxlitligini ta'minlaydi. O'quvchi faoliyatining yuqori darajadagi ko'rsatkichi, o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish, iroda va faoliyatning o'quvchi ongining predmetiga aylanishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun, dastlab, ta'lim beruvchi maqsadga eltuvchi texnologiyalarni tanlay bilishi, o'quv tarbiyaviy jarayon yaxlitligini ta'minlashi zarur.

O'qituvchi dars vaqtida boshqa ma'lumotni taqdim qilish bilan bir qatorda internet ma'lumotlari, multimedia dasturlari, jadvallar va shunga o'xshash mavzuga doir qo'shimcha ma'lumotlarni ko'rsatib o'tsa, bu nafaqat o'quvchilarning darsga bo'lgan intilishini oshiradi, balki o'quvchilarning erkin o'qishini talab darajasida rivojlantirishiga, mavzuni imkon darajasida to'la o'zlashtirishiga ham yordam beradi. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash natijasida o'quvchilarning erkin fikrlash, tahlil

qilish, xulosalar chiqarish, o'z g'oyasini bayon etish, uni asoslangan tarzda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish malakalari takomillashib, shakllanib boradi.

Pedagogik innovatsiyalar - bu maqsadlarga samarali erishishga yordam beradigan ta'lim sohasidagi yangiliklarni ishlab chiqish, joriy etish, sinovdan o'tkazish va baholash jarayoni. Ular orasida: ta'lim jarayoni vaqt o'tishi bilan o'zgaradi, mehnat bozori bo'lajak xodimlarga yangi talablarni qo'yadi va o'qitish o'zgartiriladi, yangi maqsadlarga moslashtiriladi, bunga erishish uchun yangi pedagogik usullar, uslublar va usullar zarur. Ta'limdagi innovatsiyalar quyidagi maqsadlarga erishishga yordam beradi:

1. Ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish;
2. Talabalarning kognitiv faolligini faollashtirish;
3. Ta'lim va tarbiya ishlarini tashkil etish samaradorligini oshirish;
4. O'quv materialining metodika va didaktika nuqtai nazaridan o'zgartirishlari.

Pedagogik jarayonga faol joriy etilayotgan yangi yondashuvlar belgilangan maqsadlarga erishishga yordam beradi. Ular ta'lim muassasalarida ishning yangi uslub va uslublarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ta'limga yondashuv - bu yangi texnologiyalar uchun asos bo'lgan asosiy tamoyil, talablar va maqsadlar to'plami. Zamonaviy ta'limning talabi o'quvchilarga imkon qadar ko'proq bilim berish emas, balki ularni o'z-o'zidan o'rganishga, nafaqat bilishga, balki olingan ma'lumotlar bilan ishlay olishga o'rgatishdir. Pedagogik innovatsiyalar ikkita asosiy yondashuvga asoslanadi:

1. Talabaga yo'naltirilgan yondashuv o'quv jarayonini har bir o'quvchi-talaba shaxsiga yo'naltirishni nazarda tutadi. Zamonaviy pedagogika har bir o'quvchining o'ziga xos tajribasi va xarakterini hisobga olishi, uning individualligi va iste'dodini rivojlantirishi kerak. Ushbu yondashuvni amalga oshirish tanlov tamoyillariga tayanishni o'z ichiga oladi (talabalar o'zlari xohlagan sohalarni tanlashlari mumkin), ishonch (o'qituvchilar tomonidan avtoritar bosimning yo'qligi), ijodkorlik va muvaffaqiyat, sub'yektivlik, individuallik;

2. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv o'zbek maktabi uchun yangi, u asosiy e'tiborni o'rganish natijasiga qaratadi, natijada esa bilimlar yig'indisi emas, balki ko'nikmalar yig'indisi, o'quvchining muammolarni, konfliktlarni hal qilish, turli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyatidir.

O'zbek tili o'qitish metodikasining asosiy maqsadi til imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli va unumli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy - ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, o'quvchilarda

milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish va talaba shaxsini ma'naviy boyitishdan iborat. Til o'qitish metodikasining asosiy vazifasi talabalarni erkin, ijodiy, mustaqil fikrlarini og'zaki va yozma shaklda, adabiy til me'yorlari asosida to'g'ri ifodalay oladigan, bir ma'noni turli holatlarda berish ko'nikmasi shakllangan yetuk murabbiylarni tarbiyalab yetkazishdir.

Erkin, mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash davlat siyosati darajasidagi vazifa sifatida e'tirof etilayotgan hozirgi kunda nutq madaniyatining ahamiyati juda katta. Zero ta'lim va tarbiya berishda asosiy vosita, qurol til sanaladi. Nutq madaniyatini o'stirish faqat filologiya sohasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ish bo'lmasdan, g'oyaviy-siyosiy, ma'rifiy ishlarning ham eng muhim tomonlaridan birini tashkil etadi. Har bir inson uchun o'z milliy tilini o'rganish hayotiy ehtiyojdir. Ma'lumki, har bir shaxsda nutq madaniyatining yuksalishi milliy til sirlarini o'rganish, adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda to'g'ri gapirish va yozish, tilning leksik va grammatik birliklaridan o'rinli va maqsadga muvofiq tarzda foydalana olish omillariga bog'liq.

O'zbek tilining me'yorlari mukammal shakllanganligi o'zbek xalqi madaniyatining ulkan yutug'idir. Mazkur tilni yuksak darajada asrab-avaylash maqsadga muvofiq. Millatimizning millatligini ko'rsatuvchi, "borligi, birligi, va butunligidan iborat boqiy baxtining bukilmas taxti" hisoblanuvchi raso va ravon tilimizning buguni va ertasi uchun har birimiz mas'ulmiz. Xullas, tilning rivojini ta'minlash, avvalo, jamiyatda til haqidagi tushunchalarning barqarorligiga, til egalarining bebaho boylikka hurmat-ehtiromiga bog'liq.

O'zbek abadiy tili-har qaysi xalq va millat ma'naviyatida ulkan ahamiyat kasb etadigan, uning ruhiy olamini moddiy shaklda yuzaga chiqarish va umumbashariy taraqqiyot uchun xizmat qildirish, el-yurtni birlashtirish, o'zlikni anglashda muhim vosita bo'ladigan buyuk ijtimoiy hodisa. Adabiy til umumxalq tilining sayqallangan, lekin, fonetik va grammatik jihatdan shu xalq shevalaridagi eng yaxshi xususiyatlarni o'zida mujassam etib, sayqallangan, hamma uchun tushunarli va ma'qul me'yorga solingan umummilliy muloqot vositasidir. Tarix va taraqqiyot jarayonida adabiy til o'zgarib, takomillashib boradi. Masalan, Alisher Navoiy davridagi o'zbek adabiy tili hozirgi zamon o'zbek adabiy tilidan farq qiladi. Istiqlol davrida adabiy tilning ma'naviy hayotimizdagi o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Talabalar tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish



xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvga asoslangan avlodning yangi davlat ta'lim standartlari joriy etish talabani to'g'ri faol ishtirok etishi asosida bir qator fanlarni, shu jumladan o'zbek tilni o'qitish uslublarida sezilarli o'zgarishlarni nazarda tutadi. ta'lim jarayonining to'liq ishtirokchisi, uning katta mustaqilligi, aniq amaliy natijaga qaratilgan mashg'ulotlardir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)**

1. Abduraxmonov G, Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. 2018.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. 2022 yil.
3. Turdieva K, Axmedova D. O'zbek tili. 2007.
4. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqidagi" gi qonuni " O'zbek tilining yangi qonunlari" –To'plam 1998, 20-30 bet.
5. Shodmonov E., Rafiev A., G'oyipov "O'zbek tili" (darslik) 1995.
6. Rasulov R., Mirazizov A. "O'zbek tili". 2006.

## **TA'LIM MUASSASASIGA RAHBARLIK QILISHNING BOSHQARUV MADANIYATI. PEDAGOGIK MENEJMENTDA KREATIVLIK VA KASBIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH**

**B.X. Karimova**

Termiz davlat universiteti dotsenti v.b, p.f.b.f.d (PhD)

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada ta'lim muassasasiga rahbarlik qilishning boshqaruv madaniyati hamda pedagogik menejmentda kreativlik va kasbiy kompetensiyani shakllantirish yuzasidan fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim, muassasa, boshqaruv, madaniyat, menejment, kreativlik, kompetensiya, rahbar, lider, ijtimoiy, iqtisodiy, uslub, ijodkorlik.*

### **ABSTRACT**

*This article discusses the management culture of leading an educational institution and the formation of creativity and professional competence in pedagogical management.*

***Key words:** education, institution, management, culture, management, creativity, competence, manager, leader, social, economic, style, creativity.*

### **KIRISH**

Hozirgi zamon fanida “rahbar”, “lider” yoki “liderlik uslubi” va “rahbarlik uslubi” tushunchalarining nisbati yo‘nalishidagi muammolar eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bularning ichida ko‘proq ahamiyat kasb etuvchi B.D. Pargin fikriga ko‘ra lider ma’lum bir guruhda shaxslararo munosabatlarni muvofiqlashtirib turadi, mikro muhitning elementi hisoblanadi, kutilmaganda vujudga keladi va uning holatining barqarorligi kamroq bo‘lib, harakatlanishi guruhning kayfiyatiga bog‘liq va u ko‘proq guruhning faoliyatiga aloqador bo‘lgan qarorlar qabul qiladi. Rahbar esa ijtimoiy tashkilot hisoblangan guruhlarda rasmiy munosabatlarni muvofiqlashtiradi va makro muhitning elementi hisoblanadi. Rahbar holatining barqarorligi ko‘proq bo‘lib, u ma’lum bir tizimda bir necha marta ko‘proq vakolatlarga, qaror qabul qilish, buyruq berish, topshiriqlar berish, talab qilish huquqlariga ega. Qaror qabul qilish jarayoni birmuncha murakkabroq bo‘lib, ko‘pgina, turli xil vaziyatlarni qamrab oladi va bu vaziyatlar faqatgina bitta guruhga tegishli bo‘lmaydi. Rahbar ma’lum bir kengroq ijtimoiy tizimning kichik bir guruhida faoliyat ko‘rsatsada, uning harakat doirasi keng hisoblanadi. Ayrim

mutaxassislarning fikriga ko'ra, liderlik jamoa faoliyatining samaradorligini oshirishda rahbarlik tushunchasini to'ldiradi.

Tadqiqotchi A.Nosirov rahbarlik menejmentida kompetentsiyani muhimligini ta'kidlab o'z fikrlarini bildiring boshqarishda qo'yidagi qobiliyat kompetentsiyalari:

1. Standart kompetentsiya ushbu ya'ni faoliyatga oid innovatsion vazifalarni belgilab olishi qobiliyatidir;
2. Asosiy kompetentsiya – ushbu faoliyatga oid innovatsion vazifalarni belgilash olish qobiliyati;
3. Yetarli kompetentsiya kasb faoliyatining yangi turlarini yarata olish qobiliyati;
4. Kasbiy kompetentsiya – pedagogika va psixologiyaga oid bilimlarga ega bo'lish, o'z ustida ishlash o'quvchilarda motivatsiyani shakllantirishdan iborat, deb ta'kidlaydi[7, 2].

Tadqiqotchi Temurov D - ta'lim muassasasi boshqaruviga oid bilimlarni o'zlashtirishni amaliy faoliyatiga qo'llash bo'yicha qo'yidagi tamoyillarni tavsiya qiladi:

1. Ong va faoliyat birligi. Ushbu tamoyil rahbarning ta'lim muassasasi boshqaruviga oid bilimlarni o'zlashtirishni va amaliy faoliyatda qo'llashi.
2. Ta'lim muassasasini boshqarishning ilmiy va g'oyaviyligi. Mazkur tamoyil boshqaruvga yuksak g'oyaviylik hamda ilmiy asoslangan quyidagi muvofiq boshqariladi.
3. Ta'lim muassasalarida boshqaruvning izchil va uzviylik .Ushbu tamoyil rahbarlar samaradorligining demokratik harakatda kasb kasb etishini anglatadi .
4. Ta'lim muassasasida rahbar boshqaruvning gumanitar xususiyatlarga ega ekanligi. Mazkur tamoyil ijtimoiy faoliyat negizida umum-jamiyat manfaatlari bilan shaxsiy manfaatlar ifodalaydi.
5. Ta'lim muassasalarini boshqarishga har tomonlama (kompleks) tizimli yondashuv. Ushbu tamoyil o'ziga ta'lim muassasa xodimlari bir ijtimoiy faoliyat birlashtiradi.
6. Ta'lim muassasalarini boshqarishning muayan aniq maqsadga yo'naltirilganligi. Mazkur tamoyil ta'lim muassasasining ijtimoiy harakatdagi faoliyati yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda harakatlarning tashkil etishi bilan izohlanadi[8, 95-96].

Demak, “boshqarish” so'zi bugun modernizatsiya qilinib “menejmenti” so'zi bilan boyitildi. Bugungi kunda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning maktab ta'limiga bergan e'tiborlari va ya'ni 2023-yilni “Inson qadri va sifatli ta'lim yili deb, nomlaganlari barcha umumta'lim maktablari o'qituvchilari va pedagogik rahbarlarga

katta ilhom berdi va ta'lim sifatini oshirish maqsadida fidoyilik bilan mehnat qilishiga da'vat etdi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

“Menejment qoidalariga rioya qilib ishlayotgan maktab rahbarlari bugungi ta'lim sohasidagi islohotlarni his etib, boshqarishni zamonaviy kompetentlik qoidalari asosida ishni tashkil etib kuchli instruktiv yetakchilik, aniq belgilangan maqsad, o'qituvchilardan kutilayotgan ijodiy natijalar, o'qib-o'rganish, o'rgatish uchun zaruriy muhit, o'quvchilar va sinfni doimiy kuzatish, oila, maktab, mahalla hamkorlik aloqalarini mustahkamlaydilar. Yangi ilmiy izlanishlar obod mahalla, obod mahalla, obod uy va namunaviy oila tashabbusi asosida rahbarlik ishlarini tashkil etishni talab qiladi. “Boshqaruv madaniyati – bu ma'muriy ijtimoiy va rahbarning psixologik jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishdagi professional va ishchanlik sifatli sintezidir.

“Rahbar” degan nomga ega bo'lgan har bir shaxs o'z tashqi qiyofasi, madaniyat kiyinishi, talabchanligi, bilimi, tashkilotchiligi bilan atrofdagilarga hamisha ibrat namuna bo'lmog'i lozim. Biz yuqorida ta'kidlangan mulohazalardan kelib chiqib, bugungi maktabgacha va maktab ta'limida sohasida faoliyat olib borayotgan rahbarning kompetentligi yo'nalishidagi ba'zi kamchiliklari haqida quyidagi holatlarni tahlil qilindi:

- maktablarda boshqaruv ishlarini talab darajada emasligi;
- fidoyilik, ijodkorlik, tashkilotchilik, kreativlikning yetishmasligi;
- huquqiy madaniyat va savodxonlikning pastligi;
- adolatlilik, halollik va insoflilikning yetishmasligi;
- ish jarayonida mahalliylik va urug' aymoqchilikning ustuvorligi;
- metodik birlashmalarga e'tibor bermaslik, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning yo'qligi;
- maktablarda jamoa ishlarini noto'g'ri taqsimlash va nazoratning pastligi;
- kasbiy va ilmiy tajribaga ega emaslik[3, 83].

Yuqoridagi mulohazalarni o'qib o'rganib, bugungi ta'lim- tarbiya sohasidagi qabul qilayotgan qarorlar asosida bugungi ta'lim jarayoniga menejerlik qilaman degan har bir iqtidorli shaxs o'zining kasbiy kompetentligiga tayanib, rahbarlik ishlarini tashkil qilishi lozim. Umuman olganda, ta'lim muassasalaridagi muvoffaqiyatlar rahbarning ijrochilar mehnatiga bo'lgan munosabatlaridan qanchalik manfaatdorliklarni anglata bilish. Qobiliyatiga sezilarli darajada bog'liqdir.

Zamonaviy menejerning muhim boshqaruv maqsadi o'z xodimlarini axloqiy hamda yuksak darajaga ko'tarishi ularni ma'naviy jihatdan sog'lom jamoaga

aylantirishdan iboratdir. Umuman olganda, ta'lim muassasasidagi muvaffaqiyatlar rahbarning ijrochilar bo'lgan munosobatidan qanchalik manfaatdorligini anglata bilish qobiliyatiga bog'liqdir.

G.Kunts va S.O.Dannelning aniqlashicha, "agar bo'ysunuvchilar rahbarlar tomonidan o'rnatilgan tartib qoidalar va ehtiyojlarga ko'ra boshqarilsa, ular o'z imkoniyatlarining taxminan 60 yoki 65% darajasida ishlashi mumkin, ya'ni o'z ishida saqlanib qolish maqsadida, shunchaki o'z majburiyatlarini qoniqarli darajada bajaradi, bo'ysunuvchilarning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish uchun, rahbarlar liderlikni amalga oshirish bilan ularda tegishli mulohaza shakllantirishi zarur". Rahbarlik - odamlarga maqsadli ta'sir o'tkazishga qaratilgan, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog'liq boshqaruvning tarkibiy qismidir. Saylab qo'yilgan yoki tayinlangan rahbar qator funktsiyalarni bajaradi: jamoa faoliyati maqsadlarini aniqlaydi va shakllantiradi, shu faoliyatni rejalashtiradi, rag'batlantirish vositalari va usullarini belgilaydi, uni nazorat qilishni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2019 yil 23 avgustdagi xalq ta'limi tizimi xodimlari bilan bo'lgan telemuloqotda quyidagicha fikrlarni bildirganlar: "Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri – kasbiy kompetentligi va intellektual salohiyatining yuqoriligi, sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodligi va o'z kasbini sevishidir. Bu fazilatlar pedagoglarni boshqa kasb egalari bilan ajratib turadi".

Bugungi talaba-yoshlarda kreativlikni shakllantirish uchun bugungi pedagog namunaviy intellektga ega bo'lishi, zamonaviy ta'lim-tarbiya qonuniyatlarini mukammal bilishi va shu asosda o'z kasbi bilan bog'liq ijodkorlik qilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Bugungi professor-o'qituvchi o'z shogirdlariga Vatanga sadoqat, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy maslahat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishi bilan bir qatorda mantiqiy fikrlashga odatlantirish va ijod qilishni o'rgatishi kerak bo'ladi. Bo'lajak pedagoglarga kreativlik bo'yicha ijodiy faoliyat turlarini shakllantirish quyidagicha bo'ladi.

Kreativlik quyidagi faoliyatni qamrab oladi:

- Akseologik yondashuv;
- Akmeologik yondashuv;
- Kreativ yondashuv;
- Refleksiv yondashuv.

O'qituvchining kompetensiyasini quyidagicha izohlash mumkin:

- Pedagog faoliyatining maqsadi va mazmuni;



- Shaxsiy va kasbiy sifatlar;
- Pedagogik qobiliyat, metod va texnologiyalar;
- Kasbiy motivatsiya.

O'qituvchi mehnat faoliyati davomida ta'lim vazifalarini amalga oshirishda hayot davomida ahamiyatga ega bo'lgan kompetensiya zarur bo'ladi, Ularga quyidagilar kiradi:

- Kommunikativ kompetensiya;
- Innovatsion kompetensiya;
- Muammolarni hal eta olish;
- O'z-o'zini rivojlantiruvchi muhitni yaralish.

Kommunikativ kompetensiya -o'qituvchidan to'laqonli muloqot-chanlikni talab etadi. Har qanday vaziyatda ta'lim oluvchi va jamoa a'zolari bilan ijobiy munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Informatsion kompetensiya - o'qituvchi o'z fani va unga bog'liq holda bo'lgan barcha yangiliklardan boxabar bo'lishi zarur. Shuning uchun ham pedagog axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Pedagogik takt va pedagogik etika» mavzusi bo'yicha talabalarga nazariy materiallar beriladi, seminar mashg'ulotlarini bajarishlari uchun uslubiy maslahatlar beriladi. Talabalar o'z ustilarida muntazam ishlab, berilgan seminar mavzusi topshiriqlarini turli axborot vositalaridan foydalanib bajarish hamda ularni amaliy faoliyatda qo'llay olishlari darajasiga yetishgan, ya'ni pedagogik kompetentliklar shakllanishi kerak.

“O'qituvchi faoliyatida muomala madaniyati va psixologiyasi hamda pedagogik takt va pedagogik etika” mavzusini yoritishda o'qituvchi faoliyatida muomala madaniyatining o'ziga xos turlari, muloqotni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi, pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyatlari va funksiyalari, pedagogik etikaning mohiyati va xususiyatlari hamda o'qituvchi etikasida dilkashlik va pedagogik takt bo'yicha bilimlar beradi. Bu bilimlar amaliy va seminar mashg'ulotlari jarayonida mustahkamlanib boriladi. Mavzu yakunida talabaning bilimi testlar yoki boshqa topshiriqlar orqali tekshiriladi. Har bir modul bo'yicha mavzular shu tarzda talabalarga yetkazilib, ularda shu fan bo'yicha bilim va ko'nikmalari shakllantirib, bo'lajak o'qituvchi xislatlari tarbiyalanadi, pedagogik kompetentligi shakllantirib boradi[5].

Shu munosabat bilan bugungi kunda pedagogik boshqaruvda qatnashuvchilarga ya'ni o'qituvchi shaxsiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- o'z fanini chuqur bilishi va uning metodikasini yetarli darajada o'zlashtirish;
- keng ilmiy dunyoqarashli va teran e'tiqod sohibi bo'lishi;

- ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatni chuqur tushunishi;
  - ijtimoiy va fuqarolik burchini chuqur anglashi;
  - ijtimoiy-siyosiy faol bo'lishi;
  - o'z kasbi va bolalarni sevishi;
  - ruhiy pedagogik ziyrak bo'lishi va yangilikka intilishi;
  - o'z xalqi tarixi, milliy qadriyatlari va urf-odatlarini chuqur o'rganishi va ularni targ'ibot qilishi;
  - pedagogik kuzatuvchanlik, tashkilotchilik, talabchanlik, qat'iylik, vazminlik, haqqoniylik, o'zini tuta bilish kabi xislatlar sohibi bo'lishi;
  - o'z kasbiga to'la layoqatli va pedagogik takt (odob) egasi bo'lmog'i lozim[5].
- Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan har bir pedagog-o'qituvchi o'zining butun bilim va tajribasini ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga yo'naltirishi bugungi kunning muhim dolzarb masalasidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Kenjaboyev A, Kenjaboyeva D. Pedagogik deontologiya va kompetentlik. Termiz 2022 yil. 100 bet.
3. Kenjaboyev A.E. Pedagogik rahbarning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahorati. Zamonaviy ta'lim jur. 2020 № 10. 83 bet.
4. Kenjaboyev A.E. “Zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetentligi va kreativligi – bugungi kun talabidir”. Xalq ta'limi jurnali 2020 yil № 5.9-11 bet.
5. M.Ochilov. “Muallim qalb me'mori” Toshkent “O'qituvchi” 2001 yil.
6. Musurmanova O. “Pedagogik texnologiyalar - ta'lim samaradorligi omili”. T.: Yoshlar nashriyot uyi. 2020 yil 56 bet.
7. Nosirov A. Rahbarning kasbiy kompetentligi va boshqaruv madaniyat ta'lim menejmenti jurnali. 2013 yil №6, 2 bet.
8. Temirov D. Ta'lim muassalarini boshqarishda pedagogik tamoyillar uzviyligi .Ta'lim menejmenti jur 2013 yil №6. 95-96 betlar.
9. Hamrayeva, O. F. Q. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1), 537-544.
10. Hamrayeva, Oynisa Farxod Qizi (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI

RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (1), 537-544.

11. Mamaraimova, Z. S. (2021). KO'P TILLILIK MUHITIDA OILAVIY TARBIYA MUNOSABATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 657-665.

12. Sh, M. Z. The social role of folk traditions and rituals multinational people. *Pedagogical education and science*.–2019.

13. Shafoatovna, M. Z. (2021). Scientific and Theoretical Basis of Factors for Improving Family Education in a Multilingual Environment. *World Bulletin of Management and Law*, 1(1), 15-16.

14. Shafoatovna, M. Z. Factors That Improve Family Education in a Multilingual Environment. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 55-57.

## **YUQORI SINIF O‘QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH JARAYONINING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI VA OMILLARI**

**Z.Sh. Mamaraimova**

Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada yuqori sinf o‘quvchilarini oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari va omillari yuzasidan fikrlar bayoni keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *oila, ota-ona, sifat, farzand, namuna, millat, qatlam, din vakil, guruh, ijtimoiy hodisa, mazmun, bo‘lmog‘i darkor, ruhiy-ma‘naviy, millat, xalq, jamiyat, kuch, yuksak ishonch, e‘tiqod.*

### **ABSTRACT**

*This article presents a statement of opinions on the socio-pedagogical features and factors of the process of preparing high school students for family life.*

**Key words:** *family, parents, quality, child, example, nation, stratum, representative of religion, group, social phenomenon, content, necessary, spiritual-spiritual, nation, people, society, strength, high confidence, faith.*

### **KIRISH**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yildi. Ona tili - millatning ruhi o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkur, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma‘naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Bu - uzoq va yaqin qo‘shnilarimiz bilan hamjihatlik va hamkorlikni yanada mustahkamlash, jahon hamjihatligi bilan hamohang bo‘lib yashash va unda o‘zimizga xos, o‘rinni egallab olishdek ezgu maqsadlardir.

Yuqori sinf o‘quvchilarini oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarida quyidagi omillarga e‘tibor qaratishimiz lozim. Jumladan:

- tafakkur nima? - (arab - fikrlar majmui) - muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat jamiyat, davlat manfaatlari, orzu-istak va maqsad - muddolari ifodalangan g‘oyaviy -nazariy qarashlar va ularni amalga oshirish tizimi.

- milliy sifatlar nima? - mazmunan - mohiyati, maqsad va vazifalari hamda namoyon bo‘lish xususiyatlarida o‘z aksini topadi.

- milliy tamoyillar nima? - biror-bir ta'limot, dunyoqarashning asosiy, birlamchi qoidasi, boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy yo'nalishi.

- milliy xususiyatlar nima? - bu birinchi Prezidentimiz tomonidan ko'rsatib berilgan bo'lib, "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari" risolasida qisqa va muxtasar tarzda bayon qilgan. Ularning eng asosiy jihati - bu xususiyatlarning umuminsoniy mazmun-mohiyatida to'la-to'kis o'z aksini topgani bilan belgilanadi.

- milliy qadriyatlar - millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyat shakllari, milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

- milliy mentalitet. (lot. Meng - aql, idrok, zehn, fahm-farosat) - millatning tarixan shakllangan tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, yashash va fikrlash tarzi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda kamolga yetgan qobiliyati va ruhiy quvvati. Bu tushuncha millatga xos an'analar, rasm-rusmlar, urf-odatlar, diniy e'tiqodni ham o'z ichiga oladi. O'z navbatida u muayyan millatga mansub kishining turmush tarzi, fikrlashi, dunyoqarashini ham bir qadar belgilaydi, gohida uni baholash uchun asos bo'ladi, chunki oilaviy tarbiya munosabatlarini takomillashtirish texnologiyasi nazariy va amaliy jihatidan Surxondaryo viloyatidagi, tumalardagi va hududlarda hamda umum ta'lim maktablarda 50 dan ortiq yashab turgan millat vakillari bilan olib borilgan davra suhbatlari, anketalar va test-savollari shuni ko'rsatadiki: russiy zabon oilalarda, qozoq oilalarda o'tkazilgan suhbatlarida do'stlik, birdamlik, mehr-oqibat kabi tarbiyaviy savollar bilan suhbatla-shildi, ularni o'zbek xalqiga bo'lgan munosabatlari yaxshi ekanligi ma'lum bo'ldi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ko'p tillilik muhitida oilaviy tarbiya munosabatlarini takomillashtirish texnologiyalarini o'rganish tarbiyaning milliy sifatleri mazmun-mohiyati, maqsad vazifalari quyidagi asosiy sifatlar omili bilan cheklanadi:

- insonlar ongida tarixiy xotirani uyg'otish, o'tmishdan saboq olish va o'zlikni anglash mezonini ishlab chiqilishi;

- xalqimizni tub maqsadlari irodasi va jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi g'oyaviy bayroq vazifasini anglab yetish;

- inson qalbi va ongiga ijobiy ta'sir etadigan tushuncha va tuyg'ular, go'zal va hayotiy g'oyalar tizimini o'zida mujassam etmog'i lozim;

- har bir millat va fuqarolik ezgu niyatlarini ro'yobga chiqarishiga imkon beradigan eng maqbul yo'lni ko'rsata olish omillari;



- millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch-e'tiqodning manbai bo'lishi kerak;

- O'zbekiston yashovchi barcha xalq, millat, elat, ijtimoiy qatlam va din vakillariga birday taalluqli bo'lishi zarur;

- Mamlakatimiz aholisi va boshqa millatlar ongida va qalbida "O'zbekiston - yagona Vatan" degan tuyg'uni yuksak darajada takomillashtirishga xizmat qilinishi;

- turli millat, qatlam, din vakillari, siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan sotsial fenomen-ijtimoiy hodisa mazmuniga ega bo'lmog'i darkor;

- biror-bir dunyoqarashni mutlaqlashtirmaslik yoki biron-bir kuch, partiya yoki guruh qo'lida siyosiy qurolga aylanmaslik;

- har qanday ilg'or g'oyani o'ziga singdirishi va har qanday yovuz g'oyaga qarshi javob olishi mumkin;

- sub'ektivizm, vamonterizm kabi illatlardan xoli va jamoatchilikning xolis fikriga tayanuvchi ob'ektiv mafkura bo'lishi zarur;

- so'z bilan ishni, nazariya bilan hayotni birlashtirish olishi imkon qadar maqsadga muvofiq bo'lishi kerak;

- davr o'zgarishlariga qarab, o'zi ifodalaydigan g'oya, manfaat, maqsad-muddolarni amalga oshirishning yangi-yangi vositalarini tavsiya eta olish, ya'ni yangicha vaziyatga tez moslashadigan hozir javob va ijodiy asoslanishi kerak;

milliy sifatlar mafkurasi ana shu qayd etilgan sifatlarni ko'p tillilik muhitida oilaviy tarbiya munosabatlarni takomillashtirishga ega bo'lgan taqdiridagina jamiyat hayotida yetakchi ma'naviy-ma'rifiy omilga aylanishi va kutilayotgan muhim vazifalarni bajara olishi mumkin bo'lgan e'tiqodga ega bo'ladi.

Millatimizdagi jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi kabi demokratik tamoyillariga rioya qilgan holda ma'rifat yo'l bilan singdiriladi.

O'tmishda xalqimiz butun insoniyatning moddiy va ma'naviy madaniyatini o'zining bebaho durdonalari bilan boyitgan. Ammo, mustabid tuzum davrida u o'z tarixini, an'alarini, madaniyatini, urf-odat va qadriyatlarini to'la-to'kis o'rganish imkoniyatidan mahrum edi. Chunki, o'sha davrda biron-bir millatning tarixi, milliy madaniyatini rivojlantirish hukmron mafkura maqsadlariga tubdan zid edi.

Milliy istiqlool mafkurasi mamlakatimiz fuqarolarining asrlar davomida shakllangan, ma'naviyati, urf-odatlari, an'analari va qadriyatlaridan oziqlanadi.

Oilada ota-onalar o'zlarida quyidagi sifatlar bilan o'z farzandlariga namuna bo'lishlari lozim:

- Ota-onalarning axloqiy jihatdan shaxsan namuna bo'lishlari.
- O'zlariga topshirgan ishni mas'uliyat bilan bajarishlariga.

- Bolalar tarbiyasidagi burchlarini mas'uliyat bilan his qilishlariga va bajarishlariga.
- Mehnatda shaxsan namuna ko'rsatishlariga.
- Barcha farzandlarini teng ko'rishga.
- Farzandlarining harakter xususiyatlarini yaxshi bilishga.
- Bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning [turli xil metod](#), usul va vositalarini yaxshi bilish hamda ulardan oqilona foydalana olishga.
- O'z obro'sini oilada doimo saqlashga.
- Farzandlarini doimo mehnat topshiriqlari bilan band qilishlariga va talabchanliklariga.
- Oila xo'jaligini mohirlik bilan boshqara olishlariga.
- Oila tarbiyasini ijtimoiy tarbiya bilan bog'lab olib borishiga.
- Ota- ona talablarida birlikning bo'lishiga.
- Ota-onalarning oilani iqtisodiy ta'minlashga va hokazo.

O'zbekistonning mintaqada va xalqaro maydonda tinchlik hamda barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan xalqaro tashabbuslarini izchillik bilan ilgari surish, mamlakatning dunyo hamjamiyatidagi iminjini, obro'-e'tiborini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish va uni amalda bajarish kun talabidir.

O'zbekiston tashqi siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etadigan yana bir yo'nalish sifatida jahon siyosiy va iqtisodiy tizimida yetakchi o'rin tutgan modernizatsiya jarayonlari uchun kerakli ilg'or texnologiyalar manbai sinalgan, sanoati rivojlangan G'arb davlatlari bilan ko'p qirrali hamkorlik, rivojlantirish masalasiga e'tibor qaratilgan.

Tashqi siyosatimizning yana bir asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga global siyosiy va iqtisodiyotda tobora asosiy o'rinlardan birini egallab borayotgan Osiyo Tinch okeani mintaqasi tushunchalari kiritilgan.

Tashqi siyosatimizning muhim ustuvor yo'nalishlaridan yana bir sifatida O'zbekistonning xalqaro va mintaqaviy faoliyatidagi ishtiroki ko'rsatilgan va asoslangan.

Mumtoz adabiyotimizning vakillari bo'lish shoirlarimizga otinoylar muallimlik, murabbiylik va ustozlik qilishgan. X asrdayoq Turkistonda dongdor shoirlarimiz yetishib chiqqani bilan Faxrlansak arziydi. X asrda yashab, ijod etgan Robia Balxiy, XI asrda yashagan Oysha Samarqandiy, XII asrda yashagan Munisa, XIII asrda yashagan Mutriba begimlarning nomlari ajoyib shoirlar sifatida tarixda qolgan. Mehriy, Nihoniy, Iffatiy, Shamila, Gavharbegim, Dilshod Xotut kabi shoirlarimiz esa Alisher Navoiyga zamondosh bo'lishgan. Boburiylar xonadoniga mansub sohibali

Har bir millatning ko'zgusi bo'lmish uning xalq og'zaki ijodi qadim tarixni o'z ichiga oladi. Unda xalqlarning jamiyki urf-odatlar, beqiyos an'analari, milliyligi, umumbashariy qadriyatlari aks etadi. Bu ko'zgu orqali o'sha millatning milliy o'zligi yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki uning zamirida necha-necha mehnatlar mujasamdir. Ota-bobolarning ko'rgan –kechirganlari yuzasidan vujudga kelgan, bir qancha sinovlarning natijasi o'laroq paydo bo'lgan bu kabi o'lmas asarlar zamonlar o'tgani sayin sayqallanib boraveradi. Barcha millatlarning xalq og'zaki ijodidagi namunalari bir-biriga o'zaro o'xshamasligi mumkin, biroq mantiqan olib qaraydigan bo'lsak, ularning maqsadi, umumiy tushunchasi (jasur, xalqparvar, sof vijdon egasi bo'lgan qahramonni asarning bosh obrazi sifatida gavdalantirilishi) kabi jihatlari bilan ham yaqindir.

Xalq og'zaki ijodida ota-bobolarimizning aytmoqchi bo'lgan pand-nasihatlari, el e'zozlagan odam bo'lishning talab-qoidalari, Alp Erto'nga, To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi ajoyib yurt farzandlarining botirliklari,

xalqimizning urf-odatlari, milliy fazilatlarimiz haqida san'at darajasiga ko'tarilgan so'z tizimlaridan iborat maqol, qo'shiq, ertak, doston, bolalarga bag'ishlangan asarlar va boshqa janrlardagi namunalarda ifodasini topadi. Shuning uchun ham xalq og'zaki ijodini milliy qadriyatlar deb atash odat bo'lgan. Xalq og'zaki ijodi ilmda folklor deb yuritiladi. Bu atamani 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo'lib, uning ma'nosi "xalq donoligi" degan tushunchadan iborat. Aslini olganda, folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san'at namunalari tushuniladi. Me'morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo'zlik, musiqa, raqs, og'zaki adabiyot namunalari - hammasini folklor deb tushunish qabul qilingan.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Har bir san'at sohasida ish olib borayotgan mutaxassis o'zi tanlagan tumi "folklor" deb atayveradi. Masalan, musiqachi xalq kuylarini, xoreograf xalq raqslarini, arxitektor xalq me'morchiligini, folklorshunos olim xalq dostonlari, ertaklarini folklorasari deb hisoblaydi. Biz - so'z san'ati sirlarini o'rganuvchi sohada ish yuritganimiz uchun maqol, topishmoq, lof, askiya, latifa, qo'shiq, ertak, dostonlarni folklor namunasi sifatida yozib olamiz, tahlil qilamiz. "Folklor" atamasini talaffuz qilganimizda xalq og'zaki ijodini tushunamiz. Xalq og'zaki ijodini o'rganuvchi olim folklorshunos hisoblanadi. Folklorshunoslik hozirgi paytda adabiyotshunoslikning tarkibiy qismidir. Badiiy adabiyot xalq og'zaki ijodidan boshlanadi. Binobarin, adabiyot tarixining birinchi qismini folklor tashkil etadi. Shuning uchun filologiya fakulteti talabalari mutaxassis sifatida shakllanish jarayonini xalq og'zaki ijodini o'rganishdan boshlaydilar.<sup>209</sup>

#### **O'zbek folklorining go'zal namunasi. Alpomish.**

Umumiy olib qaraganda, barcha xalqlarning folklor san'ati deyarli o'xshash janrdagi asarlarni o'z ichiga oladi. Xususan, eng ko'p uchraydigani – doston, bundan tashqari topishmoqlar, maqollar va shu kabilar. Asosan, dostonlarni uchratamiz. Sababi ular baxshilar tomonidan musiqa jo'rliga ijro etilganidadir. Ular liro-epik turga mansub bo'lib, ham she'riy usulda ham nasriy usulda bayon etiladi. Dostonlar adabiy dostonlar ham bo'lishi mumkin, ya'ni bunda asar kim tomonidan yozilganligi, aniqroq qilib aytganda, muallifi aniq bo'ladi. Bu kabi dostonlarga Hamid Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor", "Semurg' yoki Parizod va Bunyod" singari dostonlarni kiritishimiz mumkin.

Xalq dostonlari esa muallifi noma'lum, og'izdan og'izga o'tib keladigan asarlardir. Aslida ularning muallifi ham xalq hisoblanadi. O'zbek xalq poetikasining eng mashhur dostonlari "Alpomish", "G'o'ro'g'li", "Rustamxon"

<sup>209</sup> Omonulla Madayev. O'zbek xalq og'zaki ijodi. 2010. 7-bet

hamda “Kuntug’mish” asarlaridir. Lekin bularning ham ichida “Alpomish” alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

“Alpomish” dostoni faqat ijro jihatidan emas, mazmun, g’aroyib voqealar tasviri, qahramonlar sarguzashtlari, hayotiy muammolaming qo’yilishi bilan ham murakkabdir. Masalan, ilm tarixida bir ayolning bir nechta aka-ukalar bilan bitta oila bo’lib turmush qurishi - poliandriya haqida ma’lumotlar bor. Biz Fozil Yo’ldosh o’g’lining bunday oila tizimi haqida ma’lumoti bor-yo’qligini bilmaymiz. Lekin ustozdan o’rganilgan matnga fidoyilik, ustoz fikrini ikki qilmaslik, ustoz gapini buzmaslik odati Fozil otani doston aytishda bir necha marta alp aka-ukalar nomidan Barchinga qarata: “...yo birimizga teg, yo barimizga teg”, - deyishga majbur qilgan. Insoniyat tarixidagi minglab yillar oldin o’tgan poliandriya oila tushunchasi, qanday qilib, “Alpomish”da saqlanib qoldi. Yana qizig’i shundaki, na Boysari, na Barchin alp aka-ukalaming gaplariga ortiqcha asabiy munosabatda bo’lmaydilar, bu gapni oddiy maishiy hayot holati sifatida qabul qiladilar. Bunga o’xshagan hozirgi ijtimoiy hayot nuqtai nazaridan tushunish va atroflicha sharh berish o’ta qiyin voqea lavhalari dostonda juda ko’p. Olimlar ularga imkon darajada ilmiy izoh berishga harakat qilib kelmoqdalar.<sup>210</sup> Hatto baxshilarning qobilyatlarini aniqlash maqsadida ularga “Alpomish” dostonini ijro ettirilganligi haqida ham ma’lumotlar keltirib o’tilgan. Bundan tashqari ayrim manbalarda ushbu dostonning qirqdan ziyo variantlari mavjudligi haqida ham ma’lumotlar ham bor.

“Alpomish” dostoni bundan ming yil oldin turkiy xalqlarning qadimgi dostonchilik an’analari asosida xalq og’zaki ijodi namunasi sifatida yaxlit doston shaklini olgan bo’lsa-da, aslida “Alpomish” dostoning eng qadimiy qatlamlari miloddan avvalgi yuz yilliklarda yurtimizda kechgan jarayonlarning badiiy talqinini o’zida aks ettirgan. Mamnuniyat bilan qayd etish kerakki, “Alpomish” dostonini xalqaro YUNESKO tashkiloti jahon ma’naviy mulki sifatida tan oldi. Eslatmoq o’rinliki, bu doston bir paytlar deyarli unutilayozgan edi. Faqatgina to’ylarda taniqli baxshilar tomonidan kuylanardi. Endilikda esa, u turli variantlarda yozib olinib, ko’p nusxalarda kitob holida qayta-qayta nashr etildi.<sup>211</sup>

Shu o’rinda aytish joizki, 2000-yilda jahon miqyosida ushbu dostonning ming yilligi nishonlangan bo’lsa, mamlakatimizda 1999-yil 9-noyabrda tantanali ravishda nishonlanganligi haqida maktab o’quv darsliklarida ham aytib o’tilgan.

“Alpomish” - o’zbekning o’zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimiz avlodlardan avlodlarga o’tkazib kelayotgan qahramonlik qo’shig’idir”. “Aslida xalqimizning qadimiy va

<sup>210</sup> Omonulla Madayev. “O’zbek xalq og’zaki ijodi”.2010. 178-bet

<sup>211</sup> <https://askinfo.uz/1021/alpomish-dostoni-haqida-insho>

shonli tarixi tuganmas bir doston bo'lsa, "Alpomish" ana shu dostonning shohbaytidir"<sup>212</sup>

### **INGLIZ FOLKLORI. BEOWULF.**

Qadimgi ingliz adabiyoti VII asrdan 1066 yilgi Norman istilosidan keyingi o'n yilliklargacha bo'lgan o'rta asrlarning boshlarida Angliyada qadimgi ingliz tilida yozilgan she'r va nasrni nazarda tutadi, bu davr ko'pincha Anglo-Sakson Angliyasi deb ataladi.<sup>213</sup> VII asrda "Kedmonning madhiyasi"( Caedmon's Hymn) asari ingliz tilidagi eng qadimgi she'r hisoblanadi, chunki u Bede matnining VIII asr nusxasida, ingliz xalqining cherkov tarixida uchraydi<sup>214</sup> XII asrning o'rtalarida yozilgan ayrim she'rlar ham eski ingliz tiliga ham misol bo'la oladi.<sup>215</sup> Qadimgi ingliz adabiyoti quyidagilardan iborat: va'zlar va ulug' kishilarning hayoti; Injil tarjimalari; ilk cherkov otalarining lotin tiliga tarjima qilingan asarlari; xronikalar va hikoya tarixi asarlari; qonunlar, vasiyatnomalar va boshqa huquqiy hujjatlar; grammatika, tibbiyot va geografiyadan amaliy ishlar; va she'riyat.<sup>216</sup> Hammasi bo'lib, o'sha davrga oid 400 dan ortiq qo'lyozma saqlanib qolgan, ulardan 189 tasi asosiy hisoblanadi.<sup>217</sup> Bundan tashqari, qadimgi inglizcha matnlarning bir qismi tosh konstruktsiyalar va bezakli narsalarda saqlanib qolgan<sup>218</sup>.

Ingliz xalqining ham milliyligini ko'rsatib turuvchi xalq og'zaki ijodi nafaqat dostonlardan balki bir qator afsona hamda miflardan ham iboratdir. Ushbu asarlarning ham asosiy mavzusi yomonlik ustidan yaxshilikning g'alaba qozonishi, ona vatan uchun kurash, mardlik, do'stlikning ustunligi kabi kabi bir qator mavzulardir. Ingliz xalqining "Alpomishi"i bo'lmish "Beowulf" dostoni ham katta mavzuni qamrab oladi. Ushbu dostonda qahramonlik, yovuz kuchlarga tik qaray olish hamda shijaotlilik kabi hislatlar ulug'lanadi. Bu asar ingliz tilida saqlanib qolgan eng qadimiy epik she'r va xalq tilidagi Yevropa adabiyotining eng qadimgi asari hisoblandi. Ushbu asar qadimgi ingliz "sakslar" tilida yozilgan. O'shandan beri uni 65 tilga tarjima qilingan deya taxmin qilinadi<sup>219</sup>.

Afsuski, ushbu mashhur epik she'rning kelib chiqishi haqida kam ma'lumot mavjud. Ko'pchilik "Beowulf" VII asrda vafot etgan shoh uchun elegiya sifatida tuzilgan bo'lishi mumkin, deb hisoblashadi, ammo bu shoh kim bo'lganligi haqida deyarli ma'lumotlar mavjud emas. Eposda tasvirlangan dafn marosimlari Satton Hooda topilgan dalillarga juda o'xshashligini ko'rsatadi. 1845 yilda qo'lyozma sahifalari

<sup>212</sup> Islom Karimov "Alpomish" dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan nutqidan. "Xalq so'zi" gazetasi . 1999.

<sup>213</sup> Henry Bradley, John Manly, (1911). "English Literature"

<sup>214</sup> Lerer Constance. "The Metrical grammar of Beowulf". 1997. 7-bet

<sup>215</sup> William Paton Ker. "Beowulf" 1999. 11-bet

<sup>216</sup> Kameron 1982. 275-bet

<sup>217</sup> William Paton Ker. "Beowulf". 1990. 15-bet

<sup>218</sup> Kameron Saunders. "Beowulf project". 1982. 275-bet

<sup>219</sup> <https://uz.socmedarch.org/beowulf-what-you-need-to-know-1788397-8543>



keyingi zararlardan xalos qilish uchun qog'oz ramkalarga o'rnatildi. Chindan ham bu usul sahifalarni himoya qila oldi, lekin chekkalari atrofidagi ba'zi harflarni ham qoplab olganligi tufayli ayrim so'zlar yopiq ya'ni ko'rinarsiz holga kelib qoldi.

Biroq, 1993 yilda Britaniya kutubxonasi "Elektron Beowulf" loyihasini boshladi. Maxsus infraqizil va ultrabinafsha yoritish texnikasi yordamida qo'lyozmaning elektron tasvirlari yasalganligi sababli yopiq harflar aniqlandi.

Ayrim taxminlarga ko'ra, she'r miloddan avvalgi 700-yillarda tuzilgan bo'lishi mumkin va u oxirigacha yozilmagan bo'lsa-da ko'plab takrorlashlar orqali hozirgi holigacha yetib kelgan "Beowulf" ko'plab butparast va folklorik elementlarni o'z ichiga oladi, ammo inkor etilmaydigan xristian mavzularini ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu ikkilamchi narsa ba'zilarining eposni bir nechta muallifning asari sifatida talqin qilishiga olib keldi. Boshqalar buni ilk o'rta asrlarda Buyuk Britaniyada butparastlikdan nasroniylikka o'tishning ramziy belgisi sifatida ko'rishgan.<sup>220</sup>

### **QO'LYOZMA TARIXI**

"Beowulf" ning yagona qo'lyozmasi sanalari taxminan 1000 yilga to'g'ri keladi. Qo'l yozish uslubi shuni ko'rsatadiki, uni ikki xil odam yozgan. Yozuvchi asl hikoyani bezatganmi yoki o'zgartirganmi, noma'lum. Dostonning birinchi transkripsiyasi 1818 yilda Islandiyalik olim Grimur Xonson Torkelin tomonidan qilingan. Qo'lyozma judayam eskirsa-da undagi ma'lumotlar yaxshi saqlanib qolganligi sababli Torkelinning versiyasi juda qadrlanadi, ammo uning to'g'riligi ko'plab shubhalar ostida qolgan.

Dastlab ushbu qadimgi dostonning birinchi tarjimasi 1818 yildagi transkripsiyasi bilan bog'liq ravishda Torkelin tomonidan lotin tiliga qilingan edi. Ikki yildan so'ng Nikolay Grundtvig zamonaviy tilda, daniyalik tilida birinchi tarjimani amalga oshirdi. Zamonaviy ingliz tiliga birinchi tarjimani 1837 yilda J. M. Kemble amalga oshirgan. Hammasi bo'lib epik she'r 65 tilga tarjima qilingan deb taxmin qilinadi. O'shandan beri ko'plab zamonaviy ingliz tilidagi tarjimalar mavjud. 1919-yilda Frensis B. Gummer tomonidan tayyorlangan versiya mualliflik huquqiga ega emas va u bir nechta veb-saytlarda bepul. Ushbu epic asarning nasrda ham, she'r shaklida ham so'nggi paytlarda ko'plab tarjimalari mavjud<sup>221</sup> Beovulfning eng asosiy qahramonlari – Gits qahramonlaridan biri bo'lgan Beovulfning o'zi; Xrotgar, Daniya qiroli; va Wiglaf, jangchi va Beovulfning yaqin do'sti. Doston voqealari bir qancha yillar davomida sodir bo'ladi, ya'ni u Beovulfning yoshligidagi harakatlaridan boshlanib, toki uning o'limigacha bo'lgan bir nechta jarayonlarni qamrab oladi. Beovulf to umrini oxirigacha Gitsni taxminan ellik yil davomida qiroli sifatida boshqaradi.

<sup>220</sup> Ellen Moore. 2021. 4- noyabr

<sup>221</sup> <https://uz.socmedarch.org/beowulf-what-you-need-to-know-1788397-8543>

Asardagi Beovulf ta'riflarining aksariyati Beovulfning tashqi ko'rinishidan ko'ra harakatlariga ko'proq tasvirlab beradi biroq bu asarda Beovulfning tashqi tasviri ko'rsatilmagan degani emas chunki asarni kerakli qismlarida uning tashqi ko'rinishi haqida bir nechta tafsilotlarni olishingiz ham mumkin. Yani, "bo'yi baland bo'lishidan tashqari, Beovulf juda kuchli. U go'yoki "o'ttizta kuchga ega / Har bir qo'lning ushlagichida" (Heaney).<sup>222</sup> U yosh, taxminan yigirma yoshda va Anglo-Sakson me'yorlariga ko'ra, yaxshi ko'rinishga ega. Uning o'zini tutish yo'lini ko'rganlarning barchasi darhol u olijanob, kuchli va dono bo'lishi kerak, deb to'g'ri taxmin qilishadi. Beovulfning she'rdagi birinchi asosiy vazifasi so'nggi o'n ikki yil davomida har kecha Xrotgar xalqini qo'rqitayotgan yirtqich maxluq Grendelni o'ldirishdir. Beovulf yalang ya'ni hech qanday quolsiz qo'llari bilan Grendelning qo'lini tanasidan ayirib tashlaydi va yirtqich hayvon oqsoqlanib voqea davomida Beovulf tomonidan o'ldiriladi. Keyin Grendelning onasi o'g'lining o'limi uchun qasos olish uchun keladi va Beovulf ham borib uni mag'lub etishiga to'g'ri keladi. U Grendelning onasini o'ldiradi va g'alaba bilan Xrotgarga qaytib keladi, Xrotgar qiroli uni xizmati uchun juda yaxshi mukofotlaydi. Bu ikkala jang mohiyatan Beovulfga o'zini Daniyaliklar va Gitslar oldida ko'rsatishga imkon beradi va o'z obro'sini mustahkamlaydi.<sup>223</sup> Lekin qahramon Beowulfning sarguzashtlari bu yerda yakunlanib qolmaydi. Sababi u asar davomida ulkan va yovuz ajdar bilan ham jang qilishiga to'g'ri keladi. Asar ham yaxshilik bilan ham asosiy qahramon beovulfning o'limi bilan yakunlanadi.

## **XULOSA**

Shuni aytish joizki, har bir yaratiladigan asarlar, albatta, yaxshiliklarni ko'zlagan holda yaratiladi. Ulardan chiqariladigan xulosalar inson tushunchasiga bog'liqligi ham ehtimoldan holi emas. Ayniqsa, xalq tomonidan bunyod etiladigan asarlar ham chuqur ma'noni o'z ichiga qamrab oladi. Yuqorida ko'satib o'tilgan asarlar ikki xalqning eng mashhur durdonalaridan bo'libgina qolmay, ularning badiiy ijodga bo'lgan ishtiyoqini ham yaqqol namoyon eta oladi. Garchi barchamiz ham xalq og'zaki ijodini doimiy ravishda hayotizga tatbiq etolmasakda uning kichik-kichik ko'rinishlarini turmush tarzimizda albatta ko'ra olishimiz mumkin. Misol qilib aytadigan bo'lsak, ular urf-odatlarimizda sezilarli darajda muhim ekanligini his etamiz. Ya'ni to'ylarda, milliy bayramlar nishonlanganda, farzand dunyoga kelganda yoki mehmondorchili hollarida bir qator misollarning guvohi bo'lamiz. Bu kabi odatlar nafaqat o'zbek xalqining balki boshqa xalqlarning ham tumush tarzida yaqqol namoyon bo'lishi shubhasiz. Shu o'rinda aytish joizki, xalq og'zaki ijodi millatning

<sup>222</sup> Beovulf 1997.

<sup>223</sup> Study.com

milliyligini ko'rsatibgina qolmay to millat yo'q bo'lib ketmaguncha u bilan hamnafas bo'lib yurishi ham yuqorida ko'rsatilgan fikrlamiz naqadar to'g'ri ekanligiga asos ham bo'la oladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Omonulla Madayev (2010) "O'zbek xalq og'zaki ijodi"
2. Tojixon Sobitova, Omonulla Madayev (2010) "Xalq poetik ijodi"
3. Henry Bradley, John Manly (1991) "English literature"
4. <https://uz.socmedarch.org/beowulf-what-you-need-to-know-1788397-8543>
5. Robert, Niles, John (1998) "A Beowulf handbook"
6. <https://askinfo.uz/1021/alpomish-dostoni-haqida-insho>
7. Lerer, Seth (1997) "Genre of the Grave and the origins of the Middle English Lyric"
8. Ker, Neil r. (1990) "Catalogue of Manuscripts containing Anglo-Saxon"
9. Cameron, Angus (1982) "Anglo-Saxon literature"
10. Aziza, O., & Sevara, S. (2023). INGLIZ TILI ME'YORIY TALAFFUZ STANDARTLARINI O 'QITISH MEZONLARI. *Involta Scientific Journal*, 2(1), 138-141.
11. Shermamatova, S., & Tursunova, M. (2022). THE WORK CURRENTLY BEING DONE TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION IS THEIR EFFECTIVENESS.
12. Shermamatova, S., & Odiljonova, M. (2023). O'ZBEK VA INGLIZ ADABIYOTIDA METAFORALARNING FOYDALANISH TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 91-97.
13. Shermamatova, S., & Umirjonova, S. (2023). INGLIZ VA O 'ZBEK TILIDA SINONIM SO 'ZLARNING QO 'LLANILISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 98-104.

## **O‘ZBEK TILIDA MA’NO KO‘CHISH USULLARI: METAFORA, METANOMIYA, SINEKDOXA, VAZIFADOSHLIK**

**S.Shermamatova**

Farg‘ona davlat universiteti,  
Ingliz tili va adabiyoti fakulteti o‘qituvchisi,

**Nilufarxon Sobirova,**

**Zeboxon Nazirova**

Farg‘ona davlat universiteti talabalari

### **ANNOTATSIYA**

*Bu maqola o‘zbek tilidagi ma‘no ko‘chish uslublari, ularning turlari, tasnifi haqida ma‘lumotlar berilgan va ularga misollar ham keltirilgan. Ma‘no ko‘chish uslublari: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazofadoshlik haqida malumotlar berilgan va misollar bilan yanada chuqurlashtirib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, korpus, meta, anoma, metaphore, sinekdohe, funksiyadoshlik.*

### **ABSTRACT**

*This article provides information on the methods of migration in Uzbek, their types and classification, and examples of them. Meaning methods: metaphor, metonymy, synecdoche, vasofadism are given and examples are further deepened.*

***Key words:** metaphor, metonymy, synecdoche, function, corpus, meta, anoma, metaphor, synecdoche, function.*

### **KIRISH**

“Qoshlari kamon, kipriklari o‘q, lablari g‘uncha, tishlari inju, oy yuzli, gulyuz, pariroy bu kabi gozal so‘zlarni faqatgina o‘zbek adabiyotida ko‘rishingiz mumkin. Chunki bu so‘zlardan foydalanish bu kabi uslub o‘zbek shoirlariyu, o‘zbek yozuvchilariga hosdir.

So‘zlarda ikki xil ma‘no turi mavjud bo‘lib. Birinchisi o‘z ma‘no, ikkinchisi esa ko‘chma ma‘no deb yuritiladi. Birinchi ma‘no turiga keladigan bo‘lsak, o‘z ma‘no so‘zlarning yakka holda kelganda ham matn ichida kelganda ham bir manoni anglatga bu o‘z ma‘noli so‘z deyiladi. Agar yakka holdagi ma‘nosi bilan matn ichidagi ma‘nosi ikki xil bo‘lsa unda bu so‘z matn ichida ko‘chma ma‘noda qo‘llanayotgan bo‘ladi. Qanday qilib so‘zning o‘z ma‘noda va ko‘chma ma‘noda qo‘llanilayotganini topishimiz mumkin degan savolga biz shunday deb javob beramiz: bu juda onson matn ichidagi so‘zlarni yakka holda qo‘llab ko‘ramiz bunda yuqorida aytganimizdek matn ichidagi so‘z yakka holda kelganda ham matn ichida kelganda ham bir xil ma‘no anglatga o‘z ma‘noda qo‘llanilayotgan yoki yakka holda boshqa ma‘no

anglatsa ko‘chma ma‘noda qo‘llanilayotgan bo‘ladi. Buni sizga bir qancha misollar yordamida tushuntirib berishimiz mumkin. Misol uchun: "Sovuq niyyat qilma do‘stim" degan gapdagi "sovuq" so‘zini yakka holda qo‘llab ko‘ramiz "sovuq" so‘zi havoga, suvga nisbatan o‘z ma‘noda qo‘llaniladi. "Sovuq niyyat", "sovuq nafas", "sovuq bashara" bunday birikmalar bilan gaplarda kelganda "sovuq" so‘zi o‘z ma‘nodan chiqib ko‘chma ma‘noda qo‘llanilayotgan bo‘ladi. "Bir sixga qornim to‘yib qoldi" bu gapda esa "six" so‘zini yakka holda qo‘llab ko‘ramiz "six" so‘zi yakka holda qo‘llanganda six ya‘ni temir narsa buyun ma‘nolarini anglatadi va u yiyiladigan narsa emas bu so‘z ham yakka holda qo‘llanganda va matn ichida kelganda ikki xil ma‘nolarni anglatyapti va matn ichida ko‘chma ma‘noda qo‘llanilyapti. Mana so‘zlarning ikki xil ma‘nosini o‘z va ko‘chma ma‘nosini va uni qanday qilib topishni o‘rganib oldik.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Bizga ko‘chma ma‘nodagi so‘zlarni toping degan savollar, testlar abituriyentlik paytlarimizdan boshlab bizni qiynaydi. DTM testlarida ham bu kabi savollar kam emas, shuning uchun ham ko‘chma ma‘nodagi so‘zlarni va ularning turlarini mustahkam qilib o‘rganishimiz zarurdir.

#### **9. METAFORA.**

“Metafora - biror narsa yoki harakatni tushuntirish maqsadida ma‘lum bir boshqa

obyekt xususiyatidan foydalanadigan adabiy tushuncha” – deb ta‘riflaydi John Stephen.<sup>224</sup>

Keling o‘rganadigan munosabatlarimiz qaysilar ekanini bilib olaylik:

1 Tashqi o‘xshashlik munosabati.

2 Aloqadorlik munosabati.

3 Butun va qism munosabati.

4 Vazifadagi o‘xshashlik munosabati.

Ma‘no ko‘chish usullari to‘rt xil ular:

1 Metafora

2 Metonimiya

3 Sinekdoxa

4 Vazifadoshlik

Bular ma‘no ko‘chish usullarining ketma- ketligi. Bundan tashqari ma‘no ko‘chishining kinoya, tag ma‘no degan turlari ham mavjud. Bular haqida esa to‘rt xil usullari haqida ma‘lumot berilgandan so‘ng to‘xtalib o‘tamiz.

<sup>224</sup> O‘zbek tili stilistikasi.T.:O‘qituvchi,1983,-B.246



•Metafora- metaphora "ko'chirma" demakdir. Predmet, narsa, hodisalarning tashqi o'xshashiligiga, shakliy, ichki belgilariga asoslanib ma'no ko'chishiga metafora deyiladi. Ko'proq tashqi o'xshashlikka metafora deyiladi. Metafora usulida nom ko'chishi narsa va hodisalar o'rtasida nisbiy o'xshashlikka ko'ra bo'ladi va ularning rangi, shakli, harakati ikkinchi shunday predmet belgisi bo'lgan nomini oladi. Bu usul bilan ma'no ko'chishi uchun umumiy belgi tushuncha saqlanadi. Misol uchun "qora niyyat" bunda qora so'zida ma'no ko'chishi kuzatilyapti. Qora qalam bo'lganda o'z ma'no bo'lardi, qora rang bilan ichidagi yomon niyyatni o'xshatganligi sababli metafora usulida ma'no ko'chyapti.

Xususan, Arastu bu atamani keng ma'noda qo'llagan. Faylasuf o'zining "Ritorika" asarida quyidagi fikrni ifodalaydi: "Metafora yuksak darajada aniqlik, yoqimlilik va oxorlilik jozibasiga ega, undan o'rinli foydalanish nutqni bezaydi"<sup>225</sup>

Metafora ko'proq quidagilarga:

1. Odam tana azolariga (qo'l, oyoq, yuz, lab, tish, yelka).
2. Kiyimlar va ularning biror qismiga (yoqa, etak).
3. Hayvon, parranda va hashorotlarning biror azosi (qanot, dum, tumshuq, shox).
4. O'simlik va uning qismi (ildiz, tomir).
5. Qurollar (nayza, pichoq).

Masalan: Tog'ning etagidagi uy. Uyimiz daryo yoqasida.

## 2. METONIMIYA.

Metanomiya "meta"-qayta, "anoma"-nom deganidir.

Predmet narsa va hodisalarning bog'lanishidan birining nomini ikkinchisiga ko'chirish tufayli yuzaga keladigan ma'no ko'chishi metonimiya deyiladi. Bunday ma'no ko'chishiga tashqi va ichki o'xshashliklar hissobga olinmaydi balki, so'z ma'nolarining bir-biriga bog'liqligi hissobga olinadi. Shunga ko'ra quidagi munosabatlarga bo'linadi.

1. in munosabati (ko'za, piyola, samovar).

Masalan to'ldirib qo'y qadahlarni yangrasin gulyor (qo'shiq).

2. Joy tashkilot so'zidagi doimiy aloqaga ko'ra (shahar, tashkilot).

3. Muallif bilan asari orasidagi aloqa.

Masalan Navoiyni o'qidim.

4. Boshqa hodisalar bilan uzviy aloqa orasida kelishi mumkin.

5. Tasir sababi munosabati

Bolalar uyning qivonchi

6. O'zining mazmuni uchun qita

Bir chashka iching

<sup>225</sup> O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

7. Ramziy ma'noqa ega bo'lgan belgi  
Ular bayroqa sodiqlik qasamyod qildilar.

8. Hammasi uchun qism munosabati.

Jamoangizni to'rini himoya qiling.

9. Hammasi qism uchun.

Avtomobilni yuving.(korpusga murojat).

10. Siz foydalanadigan asbob.

Bu Parijdagi eng yaxshi chotka. (Rassomga murojat qilish).

Masalan o'n to'qqizga chiqasan bugun.

Metonimiya bilib olganingizdek aloqa yuzasidan ma'no ko'chish turi hissoblanadi. Bu ma'no ko'chish turini ham avvalgilardak avval ma'nosi ko'chgan so'zni topamiz so'ng u so'zni qanday ma'nosi ko'chganligini aniqlaymiz agar tashqi ko'rinishi o'xshash bo'lsa metafora, aloqa yuzasidan ma'no ko'chsa metonimiya bo'ladi.

### 3. SINEKDOXA.

Ma'no ko'chish usulining sinekdoxa turiga ham keldik. Sinekdoxa "sinekdohe" - birga anglamoq deganidir. Butun orqali qism, qism orqali butunni ifodalash asosida so'zlardagi ma'no ko'chish usuli sinekdoxa deyiladi. Masalan: "qo'limni kesib oldim" deganda qo'limni deb barmog'ini nazarda tutmoqda, barmoq qo'lning qismi bo'lganligi uchun ya'ni butun orqali qismni anglatmoqda, "tuyoqlarni ko'paytiramiz" bu gapda esa tuyoq deb hayvonlarni nazarda tutmoqda, tuyoq hayvonning qismi bo'lganligi uchun qism orqali butunni nazarda tutmoqda, yoki bo'lmasa "eshikka kirin mehmon bir chaqchaqlashamiz" bu gapda ma'nosi ko'chgan so'z "eshik" so'zi bo'lib, bu gapda "eshikka kirin" deb uyini nazarda tutmoqda. Eshik uyning qismi bo'lganligi uchun bunda ham qism orqali butun nazarda tutilmoqda.

Sinekdoxa quidagi munosabatlarga ko'ra ma'no ko'chadi.

1. Tana a'zolari orqali.

O'n qo'lingni og'zinga solma.

2. Kiyim va uning qismlari orqali.

Hisobida adashgan cho'ntagidan ayrilar.

3. Predmet, narsa, qurol.

Xamir uchidan patir.

4. Hayvon parranda tana a'zolari.

Qizilishton (qush), tulki (tulki terisi).

5. Daraxt va mevasi.

Namangonning oknasi hil hil pishibdi. ( qo'shiq).

### 4. VAZIFADOSHLIK.

Vazifadoshlik - funksiyadoshlik deganidir. Narsalar, buyumlar, predmetlarning vazifasi o'xshashligiga asoslanib ma'no ko'chish turi vazifadoshlik deyiladi. Vazifadoshlik bilan metaforani faqrlab olish juda zarurdir. Misol uchun metaforada ham vazifadoshlikda ham narsalar, predmetlarning o'xshashligiga qaraladi, lekin metafora tashqi o'xshashlik bo'lsa vazifadoshlikda esa narsa, buyum, predmetlarning tashqi o'xshashligiga emas balki faqatgina vazifasi o'xshashligiga qaraladi. Misol uchun: "stolning oyog'i qiyshayib qoldi" bu gapda ma'nosi ko'chgan so'z "oyog'" so'zi bo'lib inson oyog'i bilan stolning oyog'ini vazifasi bir xilligi uchun vazifadoshlik bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Aziza, O., & Sevara, S. (2023). INGLIZ TILI ME'YORIY TALAFFUZ STANDARTLARINI O'QITISH MEZONLARI. *Involta Scientific Journal*, 2(1), 138-141.
2. Shermamatova, S., & Tursunova, M. (2022). THE WORK CURRENTLY BEING DONE TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION IS THEIR EFFECTIVENESS.
3. Shermamatova, S., & Odiljonova, M. (2023). O'ZBEK VA INGLIZ ADABIYOTIDA METAFORALARNING FOYDALANISH TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 91-97.
4. Shermamatova, S., & Umirjonova, S. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA SINONIM SO'ZLARINING QO'LLANILISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 98-104.
5. O'zbek tili stilistikasi. T.: O'qituvchi, 1983, -B.246
6. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

## “NASOYIM UL-MUHABBAT”DA AHMAD YASSAVIY ZIKRI

**Saydullayeva D.I.**

Samarqand davlat universiteti Filologiya fakulteti magistranti

(Samarqand, O‘zbekiston)

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada tazkirachilik tarixi va ta’rifi, Alisher navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasining o‘ziga xosligi, unda zikr etilgan shayxlar qatorida Xoja Ahmad Yassaviyning o‘rni haqida so‘z boradi. Xoja Ahmad Yassaviy haqidagi zikrlar tazkiraning bir necha o‘rinlarida uchrashi, jumladan, ul zotning ustozlari, muridlari, qarindoshlari haqida ma’lumot berilayotganda, shayx ul-mashoyixning nomi zikr etilishi Hazrat Navoiyning Ahmad Yassaviyga bo‘lgan ulkan ehtiromi o‘laroq xulosalangan. Shuningdek, mazkur ilmiy maqolada Ahmad Yassaviy hayoti va ijodiga doir tadqiqotlardan fikr-mulohazalar ham keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** tasavvuf, shayx, shayx ul-mashoyix, zikr, tazkira, murshid, murid, musohib.

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье говорится об истории и определении тазкиризма, уникальности тазкира «Насаим уль-Мухаббат» Алишера Навои, Ходжи Ахмеда Ясави среди упомянутых в нем шейхов. Упоминание Ходжи Ахмада Ясави в нескольких местах тазкиры, в том числе упоминание имени Шейха уль-Машайиха при даче сведений о его учителях, мюридах и родственниках, делается выводом о большом уважении Хазрата Навои к Ахмаду Ясави. Также в данной научной статье представлены комментарии из исследований о жизни и творчестве Ахмеда Ясави.*

**Ключевые слова:** мистицизм, шейх, шейх уль-машойих, зикр, тазкира, муришид, мурид, интервьюер.

### ABSTRACT

*This article talks about the history and definition of tazkirism, the uniqueness of Alisher Navoi's "Nasayim ul-Muhabbat" tazkir, and the place of Khoja Ahmed Yassavi among the sheikhs mentioned in it. The mention of Khwaja Ahmad Yassavi in several places of the tazkira, including the mention of Sheikh ul-Mashayikh's name when giving information about his teachers, murids, and relatives, is concluded as Hazrat Nawai's great respect for Ahmad Yassavi. Also, in this scientific article, comments from studies on the life and work of Ahmed Yassavi are presented.*

**Key words:** mysticism, shaykh, shaykh ul-mashoyikh, zikr, tazkira, murshid, murid, interviewer.

## **KIRISH**

Soʻz mulkingning sultoni Alisher Navoiy ulkan lirik meros yaratish bilan birga, nasriy asarlar ham yozib qoldirgan. Bu asarlar oʻzining ilmiy-tarixiy ahamiyati jihatdan mumtoz nasrning oʻziga xos koʻzgusi sifatida mashhurdir. Tazkiranavislikda “Majolis un-nafois” bilan ijodini boshlagan Alisher Navoiy Abdurahmon Jomiyning “Nafohat ul-uns” tazkirasini ijodiy tarjima qilish yoʻli bilan “Nasoyim ul-muhabbat”ni yaratdi.

Oʻzbek adabiyoti tarixida tazkirachilik anʼanalari alohida ajralib turadi. Tazkira arabcha soʻz boʻlib “zikr”, yaʼni “eslatib oʻtish”, “yozib qoʻyish” maʼnolarini anglatadi. Tazkira milliy va oʻzaro yaqin boʻlgan adabiyotlar tarixini yaratishda, muayyan davrning adabiy muhitini oʻrganishda, adabiy siymolar va asarlarni tadqiq etishda adabiyotshunoslikning benazir janri sifatida xizmat qiladi. Tazkiraning eng qadimgi namunasi Abu Mansur Saolibiy yaratgan “Yatimat ud-dahr fi mahosini ahl al-asr” (“Zamona ahlining fazilatlarini haqida yagona durdona”) asaridir. Bu asar (XII asr) Arab, Ajam, Movarounnahr, Xorazm va Xuroson adabiyoti haqida qimmatli maʼlumotlar beradi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Mutasavvif shayxlar hayotidan hikoya qiluvchi mazkur asarga Alisher Navoiy shunchaki tarjima sifatida yondashmasdan, qoʻshimcha tarzda shayxlarni ham ilova qilgan. Bu haqda asarning oʻzida shunday deydi: “Nafahot ul-uns”gʻa doxil boʻlmabdur erdi – har qaysini munosib mahalda doxil qildim va Hind mashoyixi sharhi ham oz mazkur erdi, mumkin bor tilab, topib hazrat Qutb ul-avliyo Shayx Farid Shakarganj q. a.din soʻnggi mashoyixgacha ilhoq qildim va turk mashoyixi zikri ham ozroq erdi, oni dogʻi Hazrat shayx ul-mashoyix Xoja Ahmad Yassaviy r.din bu zamongʻacha ulcha mumkin bor tilab topib, zikrlarin va baʼzi holotu soʻzlarin oʻz mahalida darj qildim”.<sup>226</sup> Navoiy Jomiy tomonidan zikr etilmagan 214 mutasavvif hayotiva ijodini ham qalamga olarkan, ularning 100 dan ortigʻi tirkiy mashoyix ekanini taʼkidlaydi.

Navoiy yashagan davrda tasavvuf va u bilan bogʻliq qarashlar ijtimoiy hayotning muhim bir maʼrifiy, axloqiy, tarbiyaviy kategoriyalarini belgilab beruvchi taʼlimot hisoblangan. Shunday ekan, shoir ijodini bu taʼlimotdan ajratib oʻrganishga harakat qilish mutlaqo notoʻgʻridir. Shu maʼnoda Turkistondan yetishib chiqqan Shayx ul- mashoyix, “Yassaviya” ( ayrim manbalarda “Jahriya”) tariqatining asoschisi Ahmad Yassaviy zikri “Nasoyim ul-muhabbat”da alohida oʻringa ega.

<sup>226</sup> A. Navoiy Mukammal asarlar toʻplami 20 tomlik. 17-tom. “Nasoyim ul-muhabbat”, “FAN” nashriyoti. T, 2001. – B. 4.



Hazrat Navoiy tazkiraning muqaddimasidayoq Ahmad Yassaviy nomini ta'kidlaydi. Manbani mutolaa qilish jarayonida shunga amin bo'lish mumkinki, ulug' shoir boshqa shayxlar zikrida ham Yassaviy nomini ko'p bor eslaydi. Jumladan, Xoja Yusuf Hamadoniy haqida yozarkan, Alisher Navoiy uning xalifalari haqida to'xtalib, shunday sanaydi: "As'hob arosinda xulafosi to'rt kishi erdilar: Xoja Abdulloh Barqiy va Xoja Hasan Andoqiy va Xoja Ahmad Yassaviy va Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyy q. t. a. Va Xoja Yusufdin so'ngra bu to'rt kishidin har biri irshod va da'vat maqomida ermishlar va muridlar aning xizmatida adab bila mulozim. Chun Xoja Ahmad Yassaviy Turkiston sori azimat qildi. Barcha as'hob va irodat ahlini Xoja Abdulxoliq mutobaatig'a dalolat qildi".<sup>227</sup> Ushbu parcha orqali ko'rish mumkinki, Ahmad Yassaviy Xoja Yusuf Hamadoniyning suhbatdoshlaridan, shu bilan birga, tariqat sulukini keyingi avlodga yoygan pir-murshid darajasidagi shogirdi, xalifasi sifatida tanishtirilmogda.

Shuningdek, Ahmad Yassaviy nomiga murojaat qilish boshqa shayxlar hayoti haqida zikr etilganda ham davom etganini ko'rishimiz mumkin. Chunonchi, Hazrat Navoiy Qusam Shayx haqida ma'lumot berar ekan, uning Ahmad Yassaviy xonadonidan ekanini zikr qiladi: "Ul turk mashoyixidindur. Xoja Ahmad Yassaviy q. s. xonadonidindur".<sup>228</sup> "Nasoyim ul-muhabbat"da bu kabi lavhalarni ko'plab uchratish mumkin.

Alisher Navoiy Shayx Raziuddin Ali Lolo haqida eslay turib uning Ahmad Yassaviy xonadonida bir muddat yashaganini hikoya qiladi. Shayx Ali Loloning Najmiddin Kubro haqida eshitish voqeasi ham ayni Ahmad Yassaviy huzurida sodir bo'lganiga urg'u beradi: "Ul chog' Shayx Ali Lolo Turkistonda erdi. Xoja Ahmad Yassaviy q. s. xonaqohida xilvatda o'lturub erdi. Ittifoqan birov Xorazmdin kelib erdi va Xoja Ahmad Yassaviy q. s. andin so'radurki, Xorazmda holo hech darveshe bu toifadin bormukim, el bu tariqni andin bilgaylar? Ul dediki, bir yigit paydo bo'lubdur va xalq irshodig'a mashg'uldur va ko'p el anga irodat kelturub tegrasig'a yig'ilibdurlar. Xoja so'rdilarki, oti nedur? Javob berdiki, Shayx Najmuddin Kubro. Chun Shayx Ali Lolo bu otni eshitti, xilvat ichidin iztirob bila chiqti va safarg'a belin bog'ladn. Xoja so'rdilarki, ne voqe'dur? Ayttikim, safar qilurmen. Xoja dedilarki, qishdur, tahammul qil yoz bo'lg'uncha. Shayx Ali Lolo dediki, qilaolmon. Andin musofir bo'lub, Shayx Najmuddin Kubro xidmatlarig'a keldi va sulukka mashg'ul bo'ldi". Boshqa zikr etishlardan farqli ravishda, yuqoridagi o'rinda Ahmad Yassaviyning so'zlari ham keltirilganki, bu iqtibos orqali Shayx Ahmad

<sup>227</sup> A. Navoiy Mukammal asarlar to'plami 20 tomlik. 17-tom. "Nasoyim ul-muhabbat", "FAN" nashriyoti. T, 2001. – B. 122.

<sup>228</sup> A. Navoiy Mukammal asarlar to'plami 20 tomlik. 17-tom. "Nasoyim ul-muhabbat", "FAN" nashriyoti. T, 2001. –B. 124.

Yassaviyning o‘z shogirdiga bo‘lgan munosabatini ham anglash qiyin emas. Ya’ni ustoz o‘z shogirdiga qish vaqtida yo‘lga chiqmaslikni, kun isiganda boorish lozimligini uqtirmoqda. Ayni shu ko‘chirma gap orqali ham Xoja Ahmad Yassaviyning shaxsiyatiga oid jihatlar bo‘y ko‘rsatganini sezish mumkin.

Bulardan tashqari, Hazrat Navoiy Yassaviyning bir qancha muridlarini qalamga olarkan, ularning nomlari qatorida Xoja Ahmadning ham nomini eslaydi. Jumladan, Qutbiddin Haydar, Hakim ato, Ismoil ato(Ahmad Yassaviyning ukasining o‘g‘li), Keshlig‘ ato, Sayyid ato, Bobi mo Husayn kabi shayxlarning tarjimai holi haqida ma’lumot berar ekan, ularning hayot yo‘li Ahmad Yassaviy bilan kesishgani haqida qimmatli fikrlarni qayd etib o‘tadi.

Ahmad Yassaviyning ta’rifiga anchagina hajmdor o‘rin ajratgan Hazrat Navoiy Xoja Ahmadning hayot yo‘li, maslagi, af’oli, ilmi kabi xususiyatlarni mantiqiy izchillikda bayon etadi. “Nasoyim ul-muhabbat”da 611-o‘rinda Ahmad Yassaviy haqida so‘z boradi: “Turkiston mulkining shayx ul-mashoyixidur. Maqomoti oliy va mashhur, karomoti mutavoli va nomahsur ermish. Muridu as’hobi g‘oyatsiz va shohu gadoning irodat va ixlosi ostonida nihoyatsiz ermish”.<sup>229</sup> Ushbu parchadan Ahmad Yassaviyning Turkiston elide mashhur ekanini, shayx-ul mashoyix – shayxlarning shayxi degan rutbaga erishganini, maqomi yuksak va mashhurligi, karomati buyuk va chegarasiz ekani, muridlari-yu suhbatdoshlari bisyor ekani haqida ma’lumotlarni o‘qish mumkin.

Uning xalq orasida bu qadar mashhur bo‘lishi, albatta, tasodif emas. Ulug‘ shayx yangi tariqatga asos solish bilan birga, bu tariqat maslagini soda she’riy janrlarga joylashtirdi va ayni shu jihat bu tariqatning ham, ulug‘ pir murshidning ham el orasida mashhur bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Bu haqda adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul shunday yozadi: “Yassaviygacha ham so‘fiyona she’r irshod uchun bir vosita o‘laroq qabul qilingan edi. Yassaviy, eng avvalo, ana shu uchun she’rga murojaat qildi. Diniy-tasavvufiy ma’nolar muridlaridan tashqari keng xalq ommasi ongi va qalbidan oson o‘rin topishini ta’minlash niyatida she’r imkoniyatlaridan ham mohirlik ila foydalana oldi”.<sup>230</sup> Olimning yuqoridagi fikrlarida jon bor. Ahmad Yassaviy muridlari orasida ham, oddiy xalq orasida ham ma’lum va mashhur murshid bo‘lgan.

“Nasoyim ul-muhabbat”da Xoja Ahmad haqidagi zikrda uning ustozlari va shogirdlari haqida ham eslatmalar mavjud. Hazrat Navoiy Xoja Yusuf Hamadoniy, Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniylarni Yassaviyning ustozlari sifatida sanasa, Xoja

<sup>229</sup> A. Navoiy Mukammal asarlar to‘plami 20 tomlik. 17-tom. “Nasoyim ul-muhabbat”, “FAN” nashriyoti. T, 2001. – B. 200.

<sup>230</sup> Хаққул И. Аҳмад Яссавий. – Тошкент: Ф.Фуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б. 9.

Abdulloh Barraqiyy va Xoja Hasan Andoqiyy kabi shayxlarni musohibi tarzida tanishtiradi. Shogirdi sifatida esa Shayx Raziyyuddin Ali Loloning nomini zikr etadi.

Alisher Navoiyning mazkur tazkirani o‘qir ekanmiz, ulug‘ mutafakkirning nasrda ham mohir san‘atkor bo‘lganini e’tirof etmoq lozim bo‘ladi. Buyuk shoir nasriy tazkira bo‘lmish “Nasoyim ul-muhabbat”ning har bir satrida ulkan tarixiy-adabiy ma’lumotlar ulashib boradi. Chunonchi, Xoja Ahmad Yassaviyning hayotiga doir qimmatli ma’lumotlarni ham ayni shu asardan olishimiz mumkin. “Aning mazori Turkistonda, Yassi degan yerdaki, aning mavlid va manshaidur voqe’ bo‘lubdur va Turkiston ahlining qiblai duosidir”.<sup>231</sup> Ushbu qisqa jumlada uchta muhim jihat keltirilgan. Birinchidan, Xoja Ahmad Yassaviyning qabri qayerdaligi to‘g‘risida ma’lumot. Ikkinchidan, shayxning tug‘ilgan joyi ham, vafot etgan joyi ham Yassi ekani to‘g‘risida fikr. Uchinchidan, bu maqbaraning Turkiston eli uchun muhim ziyoratgoh maskani ekanligi haqida xulosa. Bu ma’lumotlarni tasavvufshunos olim Hamidxon Islomiy ham ilmiy jihatdan yuqori baholab shunday yozadi: “Alisher Navoiyning Yassaviy to‘g‘risidagi teran, sir mazmunda yozganlari g‘oyatda katta ahamiyatga molikdur”.<sup>232</sup> Albatta, bu kabi ma’lumotlar ulug‘ shayxning hayot yo‘lini, tarjimaiy holini tiklash uchun xizmat qilgani aniq.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, hazrat Alisher Navoiy Xoja Ahmad Yassaviyga nihoyatda ixlos bilan qaragan va o‘zining shayxlar haqidagi tazkirasining 611-bobini ushbu avliyo zotga bag‘ishlagan. Qolaversa, boshqa shayxlar zikrida ham Ahmad Yassaviy bilan bog‘liq o‘rinlar va voqea-hodisalar haqida axborot bergan. Bu zikrlar orqali shayx ul-mashoyix – Ahmad Yassaviyning hayoti va ijodiga oid ko‘plab foydali ma’lumotlar bilan birga, hazrat Navoiyning bu zotga nihoyatda yuksak ehtiromda munosabat qilganini ham bilish mumkindir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. A. Navoiy Mukammal asarlar to‘plami 20 tomlik. 17-tom. “Nasoyim ul-muhabbat”, “FAN” nashriyoti. T, 2001.
2. Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2004.
3. Islomiy H. Sul-tonil orifiyn Xoja Ahmad Yassaviy. – Toshkent: Fan, 2005.
4. Хаққул И. Аҳмад Яссавий. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.

<sup>231</sup> A. Navoiy Mukammal asarlar to‘plami 20 tomlik. 17-tom. “Nasoyim ul-muhabbat”, “FAN” nashriyoti. T, 2001. – B. 200

<sup>232</sup> Islomiy H. Sul-tonil orifiyn Xoja Ahmad Yassaviy. – Toshkent: Fan, 2005. – B. 5.

## **YANGI SO'Z YODLASHNING SAMARALI USULLARI**

**S.Shermamatova**

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

**M. Aliyeva**

Farg'ona davlat universiteti

Xorijiy tillar va adabiyot fakulteti talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Chet tilini o'rganuvchi o'quvchilarni qiynayotgan masalalardan biri bu so'z yodlashdir. Sababi ko'pchilik o'rganuvchilar samarasiz va ancha eski bo'lgan so'z yodlash usullaridan foydalanadilar. Lekin hozirgi rivojlangan dunyoda bunga ham albatta yechim topilgan. Hozirda dunyoda chet tili so'zlarini tez va oson, samarali yodlash usullari mavjud. Lekin, afsuski, ko'pchilik bundan bexabar. Ushbu maqolada aynan shu muammoga yechim beriladi va mavzu to'liq yoritilib beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *so'z yodlash usullari, sinonim va antonim so'zlar, kombinatsiya usuli, xotira, qisqa va uzoq muddatli xotira, mnemonika, duolingo.*

### **ABSTRACT**

*One of the problems of foreign language learners is vocabulary memorization. This is because most learners use ineffective and outdated vocabulary memorization methods. But in today's developed world, there is definitely a solution for this. Currently, there are fast, easy, and effective ways to memorize foreign language words in the world. But, unfortunately, many people are not aware of this. In this article, a solution to this problem will be given and the topic will be fully covered.*

**Key words:** *word memorization methods, synonyms and antonyms, combination method, memory, short and long-term memory, mnemonics, duolingo.*

### **KIRISH**

Hozirgi kunda chet tillarini o'rganish yoshlar orasida ommalashib bormoqda. Har bir inson chet tilini: o'qish, sayohat qilish, ishlash va shunga o'xshash maqsadlarda o'rganadi. Xorijiy tillarni o'rganish nufuzli ta'lim dargohlarida o'qishga, rivojlangan mamlakatlarda ishlab, o'z malakasini, tajribasini oshirishga, turli xil davlatlarda sayohat qilishga yordam beradi.

“One language sets you in a corridor for life. Two languages open every door along the way” Frank Smith<sup>233</sup>

“ Bir til sizni hayot so'qmog'iga olib chiqadi. Ikkitasi esa yo'ldagi barcha to'siqlarni yengishga yordam beradi” Frenk Smit

<sup>233</sup> Shohruh Mirzo Rahmonov va Iskandar Sattibayev "So'z yodlash sirlari" , Toshkent 2015, "Istiqlol nuri", 70-bet

Boshqa tillarni o'rganish avvalo ularning so'zlarini yodlash bilan boshlanadi. So'zlarni yaxshi bilish, ularni to'g'ri talaffuz qilish va o'z o'rnida foydalana olish insonga o'zi xohlagan tilida ravon muloqot qila olishiga sabab bo'ladi.

Chet tili o'rganuvchilarning asosiy muammolaridan biri bu- so'z yodlash, ularni uzoq muddat eslab qola olmaslik va muloqotda so'zlardan foydalana olmaslikdir. Bu muammoga asosiy sabab: so'z yodlashda eskirgan usullardan foydalanish, misol uchun takrorlash usuli. Takrorlash usulidan foydalanib yodlangan so'zlar bir muddat yodda qoladi va vaqtlar o'tib xotiradan butkul o'chib ketadi. Yangi so'zni oson yodlash, muloqotda qo'llash va albatta xotirada uzoq muddatga saqlash uchun so'z yodlashning yangi va samarali usullaridan foydalanish zarur.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Quyida beriladigan bir nechta usullar bu muammoga yechim bo'ladi.

1-usul. Daftar tutishga e'tibor berish kerak. Lug'at yoziladigan daftar iloji boricha o'zi bilan birga olib yurishga qulay bo'lishi kerak. Har xil rangli ruchkalardan foydalanish so'zlarga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Har bir guruhga alohida rangdan foydalanish so'zni oson ajratib olishga yordam beradi. Misol uchun: sifat so'z turkumidagi so'zlar yashil rangda, fe'llar qora, otlar qizil rangda<sup>234</sup>.

2-usul. Kartochkalarga yozib yodlash. Bu usul eng samarali usullardan biri, qisqa muddatda ko'p so'z yodlashga yordam beradi. Yangi so'zlarni kartochkalarga bir tarafga tarjimasini, ikkinchi tarafga so'zni o'zini yoziladi. Kartochkalar birma bir tortiladi, bilgan so'zlar chiqarib yuboriladi, bilmagan so'zlar esa qoladi. Qolgan so'zlarni yana tarjimasini topishga harakat qilinadi, kartochkalarni tortish oxirgi so'zni yodlamaguncha davom etadi<sup>235</sup>.

3-usul. Stikerlardan foydalanish. So'zlarni stikerlarga yozib, ularni eng ko'p uchratadigan joyga yopishtirib qo'yish. Har safar qaralganda so'z yodga tushadi va bunga alohida vaqt ajratishni xojati qolmaydi. Agar so'zlar predmet, jihozlardan iborat bo'lsa, stikerlarni o'sha jihozga yopishtirish maqsadga muvofiq. Misol uchun door so'zini stikerga yozib, eshikka yopishtirib qo'yiladi va har safar eshikdan tashqariga chiqqanda bu so'z ko'zga tashlanadi va xotirada qoladi<sup>236</sup>.

4-usul. So'z yodlaganda o'sha so'zning sinonim yoki antonimi bilan yodlash-ko'proq so'z yodlashga va eslab qolishga oson bo'ladi. Misol uchun: long - short, sun - moon, left - right. E'tibor beriladigan joyi shundaki, sinonimlarni yodlayotganda ularning asl ma'nolari bilan birgalikda yodlash kerak. Chunki har bir so'zning har xil ma'nolari bor: salbiy, ijobiy va hokazo. Agar so'zning ma'nosiga e'tibor berilmasdan

<sup>234</sup> <https://prep.uz/news/maslahat/so-z-yodlashning-siz-bilmagan-sirlari>

<sup>235</sup> <https://global-edu.uz/articles/ingliz-tilidagi-sozlarni-oston-eslab-qolishning-eng-zor-yollari/>

<sup>236</sup> <https://global-edu.uz/articles/ingliz-tilidagi-sozlarni-oston-eslab-qolishning-eng-zor-yollari/>



yodlansa, bu albatta xato bo'ladi. So'zning ma'nosini bilgan holda yodlash, so'zni ko'proq tushunishga va oson esda saqlab qolishga yordam beradi. Misol uchun: nam, xo'l, shalobbo. Bu uchchala so'z o'zaro sinonim, lekin ma'nolari har xil. Agar nam so'zi ishlatiladigan joyda shalobbo so'zi ishlatilsa, bu albatta ma'noviy jihatdan xato hisoblanadi. Shuning uchun sinonimlarni ma'nosini tushungan holatda yodlab, ularni o'z o'rnida ishlatish yaxshi natija beradi.

5-usul. So'zlarni kombinatsiya uslubida yodlash. Kombinatsiya- bir turdagi narsalarning birikmasi. Kombinatsiya usulida yodlash bir guruhga kiruvchi so'zlarni yodlash demakdir. Misol uchun: uy jihozlari, tana a'zolari, kiyimlar, musiqa asboblari va shunga o'xshash bir guruhga kiruvchi so'zlarni birgalikda yodlash. Misol uchun: tana a'zolari – parts of body: eyes, ears, head, nose, teeth, hand, foot...

Xotira- inson miyasining bir qismidir. U hayotda bo'lib o'tgan voqea-hodisalarni, narsalarni miyaga saqlab olish va uni esga tushirishdan iborat aqliy faoliyatdir. Til o'rganishda xotira katta ahamiyat kasb etadi. So'zlarni, qoidalarni, talaffuzlarni, umuman olganda barcha o'rganilgan yangi narsalarni eslab qolish xotiraning vazifasi hisoblanadi.

“Xotira texnikalarining amaliy yordam beradigan eng muhim sohasi, meningcha so'zlarni yodlab qolish sanaladi” Shohruh Mirzo Rahmonov

Bundan ko'rinib turibdiki, nafaqat xotira so'zlarni yodlab qolishga yordam beradi, balki, so'zlarni yodlash ham xotirani mustahkamlashga o'z hissasini qo'shar ekan.

Xotira turlari. Xotiraning 2 turi mavjud. Bular: qisqa muddatli xotira va uzoq muddatli xotira. Qisqa muddatli xotira yodlangan narsani bir muddat eslab qolib, so'ng uni esdan chiqarib yuboradigan xotiradir. Qisqa muddatli xotiraning yomon tarafi ma'lumotlar tez fursatda xotiradan o'chib ketishidir. Buning oldini olish uchun yodlash kerak bo'lgan ma'lumotni takrorlash yoki o'sha manbaga 7 sekund vaqt mobaynida diqqatini jamlab e'tibor qaratish kerak<sup>237</sup>.

Uzoq muddatli xotira. Miya qabul qilgan ma'lumotlarni uzoq muddat davomida saqlab qoladigan xotiradir.<sup>238</sup> Inson nimaga ko'proq ahamiyat berib, e'tibor berib yodlansa, bu u uchun muhimligini bilsa, miya o'sha ma'lumotni uzoq muddatli xotiraga saqlaydi. So'z yodlashning turli xil usullarining mavjudligini sababi shundaki, yodlangan ma'lumotni qisqa muddatli xotiradan uzoq muddatli xotiraga o'tkazishdir. Ma'lumotlarni uzoq muddatli xotiraga o'tkazishda mnemonika asosiy vazifani bajaradi.

<sup>237</sup> Sh.M.Rahmonov ``Mukammal xotira``, 2014 "Yangi asr avlodi", 34-bet

<sup>238</sup> Sh.M.Rahmonov ``Mukammal xotira``, 2014 "Yangi asr avlodi", 35-bet

Mnemonika soʻzi yunonlarning Xotira xudosi “Mnemosin” soʻzidan olingan. Mnemonika qiyin soʻzlarni oson usulda yodlashdir. Mnemonika turli xil texnikalarni oʻz ichiga oladi va ular qisqa muddat mobaynida koʻp soʻzlarni, maʼlumotlarni esda saqlab qolishga yordam beradi<sup>239</sup>. Shuningdek, yodlanayotgan soʻzga qoʻshimcha maʼno qoʻshish va soʻzni tasavvur qilish orqali oʻsha soʻzni yodlash ham mnemonika deyiladi.

Xotiramizning 4ta xususiyati bor. Bularni biz bosh xarflarini birlashtirgan holda Mato deb atashimiz mumkin. Bular: makon, assotsatsiya, tasavvur va oraliqli takrorlash.

Makon xususiyati. Inson miyasi biror narsani yodlayotganda, oʻrganayotganda uni biror bir makon bilan bogʻlagan holatda oʻrgansa esda saqlab qolishi osonroq boʻladi. Bunga misol qilib shuni aytish mumkinki, inson biror bir qoʻshiqni eshitganda uni ilk bor qayerda, qanday holatda eshitgan holatini yodiga olishi yoki biror bir shirinlik, meva, taomlarni birinchi marta qayerda tanavvul qilgani esiga tushishi tabiiy holdir. Makon xususiyati xuddi shunday. Mnemonik texnikalardan foydalanib soʻz yodlashda miyamizning makon xususiyati katta yordam beradi. Misol uchun: Inson hayotida eng koʻp xotiralari uning uyida oʻtadi va eng koʻp biladigan joyi ham uning uyidir. Hattoki chiroq oʻchib qolsa ham bimalol taxmin qilib oʻz uyida harakatlana oladi. Biror bir soʻz yodlashni oʻzi yaxshi bilgan joydagi makonlar bilan bogʻlab yodlash katta samara beradi. Shuning uchun, uydagi jihozlardan foydalanib soʻz yodlashni boshlaymiz. 5ta uy jihozlari tanlab olinadi va 5ta yodlash uchun kerak boʻlgan soʻzlar tanlab olinadi<sup>240</sup>.

Misol uchun:

- |               |             |
|---------------|-------------|
| 1. Shkaf      | 1. Olma     |
| 2. Televizor  | 2. Merkuriy |
| 3. Divan      | 3. Oshqovoq |
| 4. Muzlatgich | 4. Qoʻl     |
| 5. Tokcha     | 5. Robot    |

Endi makon xususiyati va mnemonikadan foydalanib xar bir soʻzni oʻzining makoniga joylashtirib chiqiladi. Olma bilan shkafni qanday qilib bir biriga bogʻlasa boʻladi? Tasavvurni ishga solgan holda shkaf toʻla olmalar borligini va ular toʻkilib yotganligi oʻylanadi. Merkuriy va televizor. Televizorda Merkuriydan kelgan oʻzga sayyoraliklar haqida maʼlumot berilmoqda. Divan va oshqovoq. Oshqovoq divanda koʻrpaga oʻrangan holatda uhlamoqda. Muzlatgich va qoʻl. Muzlatgichning qoʻli bor va u qoʻllari bilan raqsga tushmoqda. Tokcha va robot. Tokchada har xil robotlar

<sup>239</sup> Sh.M.Rahmonov ``Mukammal xotira`` , 2014 "Yangi asr avlodi" , 48-bet

<sup>240</sup> Shohruh Mirzo Rahmonov va Iskandar Sattibayev "Soʻz yodlash sirlar" , Toshkent 2015, "Istiqlol nuri", 12-bet

birga o'tirib, bir birlari bilan gaplashmoqda. Ana endi uydagi har bir jihoz yodga olinadi: olmalarga to'la shkaf, Merkuriydan kelgan o'zga sayyoraliklar haqida ma'lumot berayotgan televizor, oshqovoq uhlab yotgan divan, qo'li bor muzlatgich va robotlarga to'la tokcha. Makon bilan bog'langan tasavvur inson miyasining uyg'onishiga va faoliyatining yaxshilanishiga sabab bo'ladi.

Assotsatsiya (aloqadorlik) xotiraning ikkinchi asosiy xususiyati hisoblanadi. Ikki narsa o'rtasida o'zaro bog'liqlik.<sup>241</sup> Misol uchun: lazgi so'zini uchratganda albatta Xorazm esga keladi yoki sariy, deli bayrami kabi so'zlarni ko'rganda shubhasiz, Hindiston yodga olinadi. Assotsatsiya ma'lum bir yangi narsani eski ma'lumot bilan bog'lab o'rganishdir. Misol uchun: feel- his qilmoq (ingliz tilida) so'zi o'zbek tilidagi fil o'zi bilan talaffuz jihatidan o'xshash. Yodlashga oson bo'lishi uchun bu ikkala so'z ma'noviy jihatdan birlashtiriladi ya'ni ta'sirli filmni ko'rgan fil bosh qahramon holatini his qildi va tinmay yig'ladi. Namuna qanchalik kulguli yoki g'ayrioddiy bo'lsa, shuncha oson va uzoq muddat davomida xotirada qoladi.

Tasavvur. Biror bir so'zni eshitganda uni tasavvur qila olish xotiraning xotiraning yana bir xususiyatidir.<sup>242</sup> Misol qilib divan so'zini olish mumkin. Divan so'zini uchratganda xotiraga albatta katta, yumshoq, o'tirsa yoki yotsa bo'ladigan jihoz keladi. Shu so'zni inglizcha tarjimasi "sofa" bo'ladi. Endi uni tasavvur qilib ko'rish kerak: yumshoq sofa, katta sofa, yangi sofa. Bu usul yordamida yangi so'zni hayolan tarjimasi bilan bog'lab tasavvur qilgan holatda yodlash mumkin.

Oraliqli takrorlash. Bu ham xotiraning xususiyati hisoblanadi. Yodlangan ma'lumot tartibli ravishda takrorlanib tursa, xotirada umrbod qolishiga sabab bo'ladi.<sup>243</sup> Tartibli ravishda takrorlash- ma'lumot olingandan so'ng, 1soatdan keyin, 1kundan keyin, 1haftadan keyin va 1oydan keyin takrorlash hisoblanadi. Bu miyani charxlab turish demakdir.

Bundan tashqari takrorlashning boshqa turi ham mavjud. U 96soatlik vaqtni o'z ichiga oladi. Har 4 kunda bir marta yodlangan ma'lumotlarni takrorlash xotirada ma'lumotning uzoq saqanishiga sabab bo'ladi. Chunki, inson miyasi olingan ma'lumotni 4kun davomida saqlaydi va 4kundan keyin takrorlanmasa, ma'lumot miyadan o'chib ketish ehtimoli bor. Shuning uchun so'z yodlab bo'lgandan so'ng, 4kundan keyin 1marta so'zlarni takrorlab qo'yilsa, o'sha so'zlar miyada umrbodga qoladi.

So'z yodlashda e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan masalalar:

1. So'zni tanlab yodlash kerak. Kundalik ravishda yangi so'zlarga duch kelinadi va har bir inson bilmagan yangi so'zlarini yodlagisi keladi. Ammo, so'zlarni saralab

<sup>241</sup> Shohruh Mirzo Rahmonov va Iskandar Sattibayev "So'z yodlash sirlari" ,Toshkent 2015, "Istiqlol nuri", 13-bet

<sup>242</sup> Shohruh Mirzo Rahmonov va Iskandar Sattibayev "So'z yodlash sirlari" ,Toshkent 2015, "Istiqlol nuri", 14-bet

<sup>243</sup> Shohruh Mirzo Rahmonov va Iskandar Sattibayev "So'z yodlash sirlari" Toshkent 2015, "Istiqlol nuri", 15-bet

yodlash kerak. Bunda e'tibor qaratiladigan narsa shuki, yodlanayotgan so'zni kundalik aktiv lug'atda foydalana olinadimi, muloqotda bemalol ishlatilsa bo'ladimi, bu so'z inson uchun foydalimi degan savollarga javob topa olish kerak. So'zni tanlab yodlash miyani behudaga qiynalmasligiga va vaqtni tejashga yordam beradi<sup>244</sup>.

2.Tarjimada aynan o'sha tilning lug'atidan foydalanish. Ikki tilli lug'at bilan bunday lug'atning farqi shundaki, so'zning ma'nosi o'sha tilda kengroq yoritilib beriladi. Bu orqali o'sha tarjimadagi yangi so'zlarni uchratish va ular haqida ma'lumotga ega bo'lish ham mumkin. Bir tilli lug'atning yana bir foydali tomoni, u lug'atda bir qancha so'zni qanday ishlatishga oid bo'lgan misollar gaplar bilan keltirib o'tiladi. Ingliz tilida aynan o'sha lug'atlarga misol qilib Longman dictionary, Oxford va Cambridge dictionary lug'atlarini keltirish mumkin.

3.So'zni talaffuzini eshitib, baland ovozda takrorlash. Bu usul so'zni to'g'ri talaffuz qilishga, eshitishni (listeningni) yaxshilashga va og'zaki nutqda (speakingda) rivojlanishga o'zining sezilarli yordamini beradi.

4.Har kuni o'qish. Bir tilni o'rganayotgan o'quvchi o'sha tilda o'zining bilim darajasiga mos bo'lgan kitoblarni, gazeta va jurnallarni har kuni, uzluksiz ravishda o'qishi, uning o'sha tilga tezroq tushunishiga, o'qish darajasi (reading) ning oshishiga va dunyo qarashining oshishiga sabab bo'ladi.

5.Uhlashdan oldin takrorlash. Kun davomida o'rganilgan so'zlarni yoki ma'lumotlarni takrorlash, o'sha ma'lumotning miyada ko'proq saqlanishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi<sup>245</sup>.

6.Fikrni bir joyga jamlab o'rganish. Inson qanchalik darajada fikrini bitta narsaga qaratib, fikrni jamlab biror narsani yodlasa, u narsani yodlash shunchalik tez va oson bo'ladi.

7.Yodlangan so'zni, o'rganilgan ma'lumotni qay darajada yodlanganini tekshirib ko'rish. Buning uchun hozirda hammadam mavjud bo'lgan uyali aloqa vositasi ilovalaridan foydalansa bo'ladi. Chunki telefonda so'z yodlash va uni tekshirib ko'rish uchun mavjud bo'lgan ilovalar judayam ko'p.

Misol uchun: Duolingo ilovasi. Bu ilovada o'rganuvchi darajasiga to'g'ri keladigan so'zlar testlar orqali o'rgatiladi. Bu ilovaning yana bir foydali tarafi shundaki, ilova orqali istalgan tillarni o'rganish mumkin.<sup>246</sup>

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish joizki, so'zlarni xilma xil usullardan foydalangan holda yodlash kerak. Agar zerikarli usullardan foydalanib yodlansa, u ma'lumot

<sup>244</sup> Belinda Young-Davy "50ways to practise vocabulary " 2013, Wayzgoose Press, 5-bet

<sup>245</sup> <https://peskiadmin.ru/>

<sup>246</sup> <https://www.terabayt.uz/>

miyada uzoq muddat davomida turmaydi. Maqolada keltirilgan usullardan foydalanib soʻz yodlash, soʻzni uzoq muddat davomida xotirada qolishiga va fanga boʻlgan qiziqishni oshirishda yordam beradi. Har bir insonning oʻzining oʻrganish uslubi mavjud. Shuning uchun maqolada keltirilgan usullardan baʼzilari uning usuliga mos kelishi va baʼzilari mos kelmasligi mumkin. Har bir shaxsda tanlash ixtiyori mavjud.

## **REFERENCES**

1. Shohruh Mirzo Rahmonov va Iskandar Sattibayev “Soʻz yodlash sirlari”. Toshkent 2015, “Istiqlol nuri” nashriyoti
2. Sh.M.Rahmonov “Mukammal xotira”. 2014-yil “Yangi asr avlodi” nashriyoti.
3. Belinda Young-Davy "50ways to practise vocabulary ". 2013, Wayzgoose Press.
4. Aziza, O., & Sevara, S. (2023). INGLIZ TILI MEʼYORIY TALAFFUZ STANDARTLARINI OʻQITISH MEZONLARI. *Involta Scientific Journal*, 2(1), 138-141.
5. Shermamatova, S., & Tursunova, M. (2022). THE WORK CURRENTLY BEING DONE TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION IS THEIR EFFECTIVENESS.
6. Shermamatova, S., & Odiljonova, M. (2023). OʻZBEK VA INGLIZ ADABIYOTIDA METAFORALARNING FOYDALANISH TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 91-97.
7. Norliev, R., & Ibragimova, O. (2021). THE SPIRITUAL FOUNDATIONS OF A DEMOCRATIC SOCIETY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(12), 130-134.
8. Norliev, R., & Ibragimova, O. (2021). Constitutional And Legal Basis Of The Institute Of Public Control In The Republic Of Uzbekistan (Theoretical Analysis). *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 3(04), 42-45.
9. Shermamatova, S., & Umirjonova, S. (2023). INGLIZ VA OʻZBEK TILIDA SINONIM SOʻZLARNING QOʻLLANILISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 98-104.



## UILYAM SIDNEY PORTERNING BADIY-STILISTIK USULI VA USLUBI

**Yagyayeva Elvina,**

Farg'ona politexnika instituti, Ingliz tili o'qituvchisi,

**Rayimjonova Shoiraxon Vaxobjon qizi,**

Farg'ona davlat universiteti

Lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi magistranti

### ANNOTATSIYA

*O. Genri taxallusi bilan mashhur bo'lgan amerikalik yozuvchi Uilyam (Bill) Sidney Porterning asari misolida adabiyotdagi eng keng tarqalgan va ommabop kichik shakllardan biri - qisqa hikoyalarni yaratishda badiiy uslubni o'rganish metodi tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar :** usul, hazil, realizm, siyosat , qissa.

### ABSTRACT

*One of the most common and popular sub-forms in literature is the study of artistic style in the creation of short stories, on the example of the work of the American writer William (Bill) Sidney Porter, better known by the pseudonym O. Henry.*

**Key words:** method, humor, realism, politics, story.

### АННОТАЦИЯ

*Одной из наиболее распространенных и популярных подформ в литературе является изучение художественного стиля в создании коротких рассказов, на примере творчества американского писателя Уильяма (Билла) Сидней Портера, более известного под псевдонимом О. Генри .*

**Ключевые слова:** метод, юмор, реализм, политика, сюжет.

### KIRISH

Ahamiyatlisi, O.Genri o'z hayotida juda ko'p azob chekib, o'zini tevarakatrofdagi olamni yanada keskinroq idrok qila boshlagan. Mazmunning barcha subyektivligi va ifoda shaklining bevositaligi bilan lirik asar doimo ma'lum bir hayotiy umumlashtirishni o'z ichiga oladi.

“Qirollar va karam” romaniga asos bo'lgan Lotin Amerikasi haqidagi qissalarida muallif AQShning kuchsiz davlatlarga nisbatan imperialistik, mustamlakachilik siyosatini qoralaydi, ularning milliy boyliklarining talon-taroj qilinishiga qarshi norozilik bildiradi.

O. Genrining muhim hikoyalari guruhi kapitalistik shahar tasviriga bag'ishlangan. Katta shahar kichkina odamning taqdiriga befarq va shafqatsiz. O. Genri tartibsizlik, oddiy odamlarning qashshoqligi, ularning amalga oshmagan

umidlari, singan illyuziyalarining ta'sirchan manzarasini chizadi ("Mebelli xona", "Chardakdagi xona", "Magisning sovg'alari"). Mashinistlar, sotuvchilar, aktyorlar, mayda xizmatchilar, bu qissalar qahramonlari muallif tomonidan hamdardlik va hamdardlik bilan tasvirlangan, ular kapitalistik shaharning qurboni, shafqatsiz va yuraksizdir.

"Ayol" qissasi amerikalik davlat arboblarning o'zboshimchaligini masxara qiladi. Ko'pgina hikoyalarda burjua jamiyatining yirtqich axloqi, uning ikkiyuzlamachiligi va ikkiyuzlamachiligi qoralanadi ("Elsi Nyu-Yorkda", "Yomon yolg'on", "Qora Bill qanday yashiringan"). Amerika burjua voqeligini tanqidiy idrok etgan O.Genri ham Bret Xart singari romantiklashgan Amerika G'arbga ijobiy ideal sifatida qarshi chiqishga harakat qildi. "Yurak va xoch", "Qutqaruv", "Ronchadagi sanatoriy" qissalarida tabiiy, tabiatga yaqin, insoniylik, yuksak axloqiy tamoyillar, halollik, g'urur, o'z-o'zidan o'zini tuta bilish qobiliyatini saqlab qolgan insonlar tasvirlangan. O. Genri, o'ziga xos tarzda, ijobiy dastur uchun boshqa romantik qidiruvlarni davom ettirdi. U amerikalik serseri – Xoboning ishqiy qiyofasini yaratadi, u badavlat, tartibli filistiy hayotdan ko'ra sarson-sargardon hayotni afzal ko'radi.

Hikoyalaridagi yana bir yo'nalish "olijanob firibgar" obrazi bilan bog'liq. Uning ko'plab romanlarining qahramoni - Jeff Peters, muallifning munosabati ikkilik bilan ajralib turadi. Bir tomondan, Jeff qo'pol, beadab. Boshqa tomondan, u yaxshi impulslardan mahrum emas, sarguzashtni yaxshi ko'radi va o'zini kinoya bilan muomala qiladi. Jeffning surati, xuddi unga o'xshagan boshqa qahramonlar singari, kulgili hamdardlik bilan chizilgan.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O.Genrining realistik va ishqiy hikoyalari haqida gap ketganda, yozuvchi "nozik realizm" ruhida yozilgan sentimental qissa va qissalarni ham yaratgan, deyish mumkin emas. Uning an'anaviy "baxtli yakun" bo'lgan juda ko'p qisqa hikoyalari bor, ular shunchaki qiziqarli. 19-asr oxiri — 20-asr boshlaridagi Amerika adabiyotida O.Genri tanqidiy realistik maktab, «yumshoq realizm» maktabi va kechki romantik oqim o'rtasida oraliq pozitsiyani egallagan.

V.N.Bogoslovskiyning fikricha, O.Genrining badiiy uslubi uning qissalarida ko'pincha bir-biri bilan chambarchas bog'langan realistik, sentimental va "nazokatli" elementlarning uyg'unligidir. Uning qissalaridagi janr turlari juda xilma-xil: satira qissasi, anekdot qissasi, grotesk qissasi, sarguzashtli romantik qissa, parodiya qissasi va boshqalar. Yozuvchining badiiy uslubining eng xarakterli xususiyatlari - hazil va satira, ironiya, hajviy grotesk. Hikoyalar dinamik, so'zlashuv tilida jargon, parodiya usullari va kutilmagan taqqoslashlar yordamida yozilgan.

Ota Genri, o'zidan oldingi va zamondoshlaridan ko'ra ko'proq hayratlanarli yakuni bilan harakat romani shaklidan foydalangan. Bu nafaqat qiziqarli, balki ma'lum bir badiiy funktsiyani ham bajardi: kutilmagan yakun haqiqiy va orzu o'rtasidagi tafovutni ochib berdi, voqelikning qarama-qarshiliklarini ochib berdi. Keling, yozuvchining badiiy uslubining o'ziga xos xususiyatlarini batafsil ko'rib chiqaylik.

Oxirining kutilmaganligi (lekin har doim ham baxtli emas) O. Genrining qisqa hikoyasida doimo mavjud. U umuman kashshof emas edi; Edgar Allan Po ham qisqa hikoya janriga nazariy qarashlarini rivojlantirib, tanbeh haqida yozgan. O. Genri kutilmagan denoument yaratish san'atini "ikki denoument" ni kiritish bilan boyitdi. - oldindan ajratish va Birinchisini to'ldiradigan, aniqlashtiradigan yoki aksincha, to'liq rad etadigan haqiqiy tanbeh " .

Kutilmagan tanbeh ko'p hollarda aynan "hayot" (ya'ni haqiqatda yuzaga keladigan) syujetlariga xosdir. Bu qiziqarli va an'anaviy deb da'vo qiladigan har qanday og'zaki hikoya uchun zaruriy talabni tashkil qiladi og'zaki hikoya, ma'lumki, 19-asrning birinchi yarmida Amerika qissasi janrining shakllanishida asosiy rol o'ynadi; Evropa an'alarining ta'siri bu ma'noda kamroq sezildi.

Keling, syujetning rivojlanishi nuqtai nazaridan - O. Genrining turli mavzuli sikllardagi uchta qisqa hikoyasini ochishga harakat qilaylik. Va oxiri baxtli yoki kulgili bo'lsin - ma'lumki, fojiali tanbeh u bilan kamdan-kam uchraydi.

Shunday qilib, keling, misol tariqasida uchta qisqa hikoyani olaylik: "Eshik va dunyo", "Qora Bill qanday yashirdi" va "Jungli chaqaloqlari".

"Eshik va dunyo" - bu Lotin Amerikasi bo'lgan qisqa hikoya bo'lib, "Qirollar va karam" to'plamining qayta ko'rib chiqilgan versiyasiga kiritilmagan kam sonli hikoyalardan biridir. Peruning xudojo'y shaharchasi La Pasda ikki qochqin, tsivilizatsiyalashgan jamiyatdan surgun bo'lgan ikki kishi uchrashib, sevib qolishdi: xonim o'z do'stini, zo'ravon va qo'pol millionerni yarador qildi. Dunyoviy hayotning nozik jinoiy hikoyasi ruhida, ko'plab istehzoli chekinishlar va biroz ahmoqona parodiya bilan muallif qayg'u va jinoyatlari bilan bog'langan bu er-xotin qanday qilib keng dunyo eshigini yopib qo'yganini hikoya qiladi - bundan buyon ularning dunyosi. bir-biriga - va zavq bilan "lotus mamlakatida" birgalikda hayotga tayyorlana boshladilar.

La Pasga paroxod yuboradi. O'ldirilgan millionerning o'zi undan chiqadi; u Lotin Amerikasi qirg'og'ida sarmoya uchun joy qidirib, omon qoldi, u hayratda qolgan Merriamni ko'rganidan juda xursand va uning yarasini uzoq vaqt kechirdi ... Ayni paytda, Konnant xonim kuyovning kechki kelishini kutmoqda, paroxod olib kelgan eski gazetalarni o'qiydi. Xronika yozuvidan ma'lum bo'lishicha, uning eri

o'limni xayoliga ham keltirmagan - u tasodifan unga valerian bergan - va g'oyib bo'lgan xotini bilan sirdan ajrashgan. O'tmishning og'irligi sevganidan ko'tarilganini, undan ajralganiga motam tutganini hali bilmagan, lekin allaqachon dunyoga qaytishga cheksiz intilayotgan kelin shosha-pisha ko'ylaklarini yig'ib, yuklarini olib, qo'shni shaharga yo'l oladi. San-Fransiskoga boradigan kema jo'nab ketishi kerak. Yo'lda - sentimental ayolning yuragi - u Merriamga yana bir qarashga qaror qiladi, uni qandaydir bahona bilan mehmonxonadan bir daqiqaga chaqiradi. Mehmonxonada unga senor Merriam bugun soat uchlarda Panamaga jo'nab ketgani haqida xabar berishdi...

Syujet, biz ko'rib turganimizdek, sinab ko'rilgan va sinovdan o'tgan usullarning to'liq to'plami yordamida qurilgan: tushunmovchilik (qahramonlar o'zlarini qotil deb qaror qilishdi va faktlarni tekshirmasdan g'oyib bo'lishdi); tasodif (nafaqat syujet syujeti). qahramonlar hikoyasi bir-biriga to'g'ri keladi, lekin ayni paytda tanbeh - bir xil kema ikkalasi uchun ham erkinlik keltiradi); hikoya qiluvchi tomonidan niqoblangan vaziyatlarda ( Merriamning ketishga qarori haqida hech narsa aytilmagan - va hech qanday kechikishsiz). O'quvchi ikki baravarga tayyor ajablanib: birinchi navbatda, qahramonlar qotil emasligi va erkin ekanligi ma'lum bo'ldi; butun e'tiborni Konnant xonimning "psixologik to'qnashuvi" ga qaratgan holda (nafis kinik ohangda berilgan) muallif yana bir bor bahorni bosadi: Konnant xonim, albatta, qo'rqqoq egoist, lekin u o'zini pushaymonlikdan qutqara oldi, chunki uning sevgilisi birinchi bo'lib qochib ketdi va hatto xayrlashuv xatini ham qoldirmadi.

Bu dunyoviy vaziyatdan ko'ra aql bovar qilmaydigan narsani tasavvur qilish qiyin. Biroq, O. Genri bizni uning haqiqiylikiga ishontirishga urinmaydi, bu haqda u kirish paragrafida ogohlantiradi. Muallifning bizga bo'lgan bosimini his qilmasdan, biz finalga etgunimizcha sodir bo'lgan hamma narsani osongina qabul qilamiz, ikkinchi syurpriz. Bu g'oyaning jo'shqinligi, bir so'z bilan izohlanmagan axloqidir.

Levidovaning so'zlariga ko'ra, siz hech qanday romantik eshik orqasida haqiqiy dunyodan yashira olmaysiz, u sizni hamma joyda bosib oladi. Bundan tashqari, "to'qilgan ochni tushunmaydi" va baxtsizlikning eng nozik o'rtoqlari, agar ular baxtsizlikni o'zi silkita olsalar, noto'g'ri sheriklikdan voz kechishga moyildirlar.

"Qora Bill qanday yashirdi" O. Genrining eng yaxshi hikoyalardan biri bo'lib, rus o'quvchisining u bilan tanishishini 1910 yilda uning tarjimasini boshlaganligi bejiz emas. "Qora Bill" pikaresk hikoyalar turiga mansub bo'lib, voqea Texasda bo'lib o'tadi - pikaresk syujeti va texas fonida quvnoq energiya taassurotlari, beparvo masxara qiluvchi hazil, qizil yuzli serseri hikoyasi. Hamn, nasoslarda yuk poyezdini kutmoqda. Biz to'liq ishonch bilan hikoyachiga ergashamiz, u xobo (tramp) - Sigaret qoldig'i - tezyurar poezddan sakrab tushib, Texas chakalakzorlari bo'ylab yigirma

mil yurib, tanho ranchoga duch kelib, qanday qilib dapper bilan cho'pon bo'lib qolgani haqida, go'zal qo'y dehqon Ogden, juda shaharlik yangi ko'chmanchi.

Persival Sent-Kler deb tanishtirgan cho'poniga ularning o'rnida taniqli temir yo'l bosqinchisi Blek Bill yashiringanligi haqida xabar beradi, u yaqinda poezdga bir qo'li bilan va muvaffaqiyatli hujumni amalga oshirib, o'n besh yoshni oldi. pochta mashinasidan ming dollar. Hisob-kitoblar yangi bo'lib chiqdi, ma'lum bir masala, qaroqchi ularni biron bir joyda o'zgartirdi, bu esa detektivlarga uning iziga hujum qilish imkonini berdi. Sent-Kler Ogdenga (va o'quvchiga) o'z shubhalarini aniq ko'rsatadi, u yangi kelgan qo'y dehqoni Qora Billga o'xshaydi. Ammo Sent-Kler uni bermoqchi emas - Xudo uni ming dollarlik mukofot bilan taqdirlasin, Blek Bill shaxsan uni hayratda qoldiradi, shuning uchun egasi tashvishlanmasin. Ogden avvaliga bunday imondan g'azablanadi, keyin uni hazil bilan qabul qilishga qaror qiladi.

Ajratish variantlari oxirgisi qolmaguncha, qo'g'irchoqlar kabi bir-biriga yashiringan. O'z vaqtida qoldirishning xuddi shunday usuli bilan muallif bizni boshidan noto'g'ri yo'lga olib boradi va oxirigacha bizni qorong'ulikda saqlaydi. O'z-o'zidan bu unchalik qiziq emas, detektiv hikoyalar va romanlarning barcha mualliflari ko'proq yoki kamroq muvaffaqiyatga erishadilar.

Bu romanning jozibasi boshqa narsada: hikoya boshlanganda, Qora Bill yana buferda sayr qilayotgan sersuvga aylanadi; dadillik ham, ayyorlik ham uni mevasidan chinakam foydalanishga ruxsat berilmagan "baxt janoblari" qabilasidan olib chiqmadi. Hatto omadli bo'lsa ham, ular juda beparvo, juda erkin, kuponlarni kesish uchun juda amaliy emas. Va bu erda yana bir ajablantiradigan narsa bor - faqat nazarda tutilgan. O'ylash kerakki, qo'y dehqon Ogden nima bo'layotganini hech bo'lmaganda cho'ntagiga banknota qo'ygan paytda tushundi. Hammasi hal bo'lishini bilgan holda, u cho'ponga hokimiyat e'tiborini qaratmoqchi emas edi. Qora Bill yoki "Janob Persival Sent-Kler", unga Bu yoqdi va politsiya Black Billni olmadi.

Ko'rib turganingizdek, finalning hayratlanarliligi mexanik xarakterga ega emas, u muayyan mualliflik vazifalari bilan bog'liq. Agar saxovatli karnukopiyadan – O.Genri qissasining son-sanoqsiz syujet variantlari orasidan yana bitta pikaresk variantni, aldangan yolg'onchilar haqidagi syujetni tanlasak, gap faqat yozuvchining zukkoligi va sirida emasligini yana bir bor ko'ramiz. hiylalar majmuasiga umuman to'g'ri kelmaydi.

Jungle Babies suhbatlari dastlab musiqa zali masxaraboziga o'xshaydi. Hikoyachi Billy va Montague Kumush - G'arbdan kelgan bir nechta qotib qolgan firibgarlar - Nyu-York aholisining aybsizligi mavzusida takroriy fikr almashishadi. Bir do'stim boshqasiga ishontirib aytmoqdaki, unga nisbatan mubolag'a bo'lib, nyu-yorklik



odamning sochini kesish hech qanday qimmatga tushmaydi; suhbatdosh izoh beradi, u ko'proq shubhalanadi. Keyin haqiqiy harakat boshlanadi: mehmonxona tanishi o'zining portretlariga o'xshash Pierpont Morganni do'stlari xonasiga olib keladi. "Uoll-strit qiroli" o'zini shu qadar aniq nomuvofiqlik bilan tutadiki, bu hiylani faqat ahmoqgina qabul qiladi. Biroq, bizning sarguzashtchilarimiz ahmoq bo'lmasa-da, ular bir zumda "sotib olishadi" va ertasi kuni ertalab daryo bo'yidagi lombard do'konida ko'rgan nimfalar bilan suratni ikki yarim ming dollarga sotib olishadi.

Gap shundaki, "Perpont" ularga bir kun oldin aytganidek, u tomonidan maxsus yuborilgan odam Leonardo da Vinchining ushbu durdona asarini sotib olish uchun butun Evropa bo'ylab sayohat qilgan (buyuk ustaning boshqa barcha durdonalari uning kolleksiyasida), rasm, mish-mishlarga ko'ra, AQShga olib ketilgan. U rasmni shu qadar ta'riflaganki, g'arblik janoblar Nyu-Yorkdagi tanishlari bilan sayrga borganlarida va tasodifan lombard do'koniga kirib ketishganida, durdona darhol Montaguga yugurdi. Ko'zda kumush.

Bu yerda hech qanday ajablanib bo'lmaganga o'xshaydi. Syujet muammosiz, darslik ravshanligi bilan rivojlanadi; biz aldangan firibgarlarning fitnasi bilan shug'ullanayotganimizni va o'zlarini baland ovozda sarguzashtchilar deb ataydigan G'arbdan oddiy odamlar Nyu-Yorkda tez va og'riqsiz ravishda soqol olishlarini bilamiz. O. G. Genri esa bizni aldamaydi.

- Xo'sh, janob Morganni qanday topdingiz? Men so'rayman. U rasm uchun qancha to'lagan?

Kumush o'tirib, dasturxonning chetini saralay boshlaydi.

"Janob Morganni ushlay olmadim, - deydi u, - chunki janob Morgan ikkinchi oydan beri Yevropa bo'ylab sayohat qilmoqda. Ammo men tushunmadim, Billi: xuddi shu surat barcha do'konlarda sotiladi va ramka bilan birga uch dollar qirq sakkiz sent turadi. Va ramka uchun ular alohida-alohida uch dollar va ellik sent so'rashadi - bu qanday mumkin, men bilmoqchiman?"

Mana, mashhur "zigzag" O. Genri. Ammo bu erda, masxaraboz suhbat va syujeti bilan, hazil sifatida yalang'och, kutilmagan komediya yakuniga umuman syujet hiylasi bilan erishilmagan. Komiks esa oddiy; Aslini olganda, bu erda taniqli maqol o'ynaladi - "ramka qimmatroq" degan rasmni kim eshitmagan? Ammo Kumushning Nyu-Yorkdagi savdo sirlari haqidagi bu qisqa hayrati oxirgi nuqtadir.

Axloq aniq, G'arbdan kelgan "janoblar" Nyu-Yorkni mo'l-ko'l yashaydigan o'z hunarmandlari bilan raqobatlasha olmaydi - ishlar qilinadigan shahar. "O'rmondagi go'daklar" hikoyasi bizni syujet rivoji nuqtai nazaridan qiziqitirdi. Boshqa ikkita qissa kabi u ham kuzatishlarimizni mustahkamlaydi: O.Genri uchun syujet o'z-o'zidan maqsad emas, u o'z uslubining eng muhim elementlari bilan bog'langan. Ulardan biri,

ehtimol, eng muhimi, amerikalik ijodkorlik tadqiqotchisi O. Genri chaqiradi "motivlar o'yini" .

### **XULOSA**

O. Genri ma'lum bir amerikalik hikoyani yaratdi. Uning eng yaxshi asarlari Amerika hayotining kaleydoskopik rang-barang, mozaik dostonini ifodalovchi "kichkina amerikalik" ga bo'lgan samimiy muhabbati bilan ajralib turadi . Hikoyalarning baxtli yakunlari dunyoviy bo'lishi mumkin emas, lekin ular yozuvchining o'z qahramoniga, uning baxtga bo'lgan huquqiga, katta olamning dushmanligi va befarqligiga bardosh bera olish qobiliyatiga romantik bo'lgan ishonchini ifodalaydi. O. Genrining ko'p hikoyalari ertaklarga o'xshab ketadi, lekin u o'zining istehzoli va nozik hikoyalarni kundalik va ijtimoiy haqiqiylik qobig'ida kiyib olgan; Uning hikoyalarda kotiblar va sotuvchilar, sarson va millionerlar, kovboylar va qashshoq rassomlar, hurmatli shaharliklar va firibgarlar yashaydi. Bunda biz O.Genri badiiy uslubining o'ziga xosligini ko'ramiz: uning ijodida turli adabiy oqimlarning ta'siri seziladi (realizm – katta olamdagi “kichkina odam” tasvirida; sentimentalizm va neoromantizm – uning ko'plab qahramonlarining xatti-harakatlari aqlga emas, balki his-tuyg'ularga asoslangan; o'zlari voqealar, vaziyatlar ko'pincha bizga g'ayrioddiy, g'ayrioddiy ko'rinadi).

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Vnukov, N. A. O'zini O. Genri deb atagan. Leningrad: Bolalar adabiyoti, 1973 yil.
2. Genri, O. Ishbilarmonlar: hikoyalar. - M.: Eksmo, 2010, p. 20-25, b. 399, b. 525.
3. Zatonskiy, D.V. G'arbning zamonaviy nasrining janr xilma-xilligi. Kiev: 1989, s. 197.
4. Zolotarevskaya, F. O. Genri va uning qisqa hikoyalari. – M.: 1991, b. 67.
5. Levidova, I. M. O. Genri va uning qissasi. - M.: Badiiy adabiyot, 1973, s. 116, b. 118-123, b. 123-132.
6. Levidova I. M. Biobibliografik ko'rsatkich. - M.: 1960, b. 118.
7. Meshcheryakov, V.P. Adabiy tanqid asoslari// V.P. Meshcheryakov, A.S. Kozlov, N.P. Kubareva. – M.: 2003, b. 60-61.
8. Odintsov V.V. Badiiy nasr tili haqida. - M.: 1973 yil, 28-bet.
9. Startsev, A. Uitmendan Xemingueygacha. - M.: 1972, b. 58.
10. Timofeev, L.I. Adabiyot nazariyasi asoslari. - M.: 1963 yil, 339-bet.
11. Ulyashov P.S. Bu o'zgarmas janr. - M., 1987, b. 137.
12. Eyxenbaum, B. M. O. Genri va qissa nazariyasi, 1984, bet. 5-7, b. 21.

13. Еухенбаум, В. М. О. Генри. То'плам asarlar, 4-jild. – М., Gosizdat, 1975, bet. 198.
14. Гопорова, Н., & Убайдуллаева, Д. (2022). КОММУНИКАТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СРЕДСТВ ВЫРАЖЕНИЯ ДИРЕКТИВНЫХ РЕЧЕВЫХ АКТОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(12), 825-827.
15. Ubaydullaeva, D. (2022). ҲОЗИРГИ ЗАМОН ТИЛШУНОСЛИГИДА ҚЎШМА ГАПЛАР ТАВСИФИ, ТАСНИФИ ВА МЕТАТИЛИ МАСАЛАЛАРИ. *Science and innovation*, 1(В6), 560-564.
16. Ubaydullayeva, D., & Raхmonqulova, M. (2022). TILSHUNOSLIKDA IJTIMOIY YO'NALISHNING TARAQQIYOTI. *Science and innovation*, 1(В6), 869-873.
17. Убайдуллаева, Д. (2022). ПРОБЛЕМЫ ОПИСАНИЯ, КЛАССИФИКАЦИИ И МЕТАТАЛОГИИ СЛОЖНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ. *Наука и инновации*, 1(6), 560-564.

## **OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KASBIY- KOMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

**O.F. Hamroyeva**

FarDUo'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada kompetensiya tushunchasining mazmun mohiyati ochib berilgan. Ta'lim oluvchilarda kasbiy kompetentlikni pedagogik jihatdan rivojlantirish yo'llari ko'rsatilgan. Bo'lajak o'qituvchilar uchun egallanishi mumkin bo'lgan pedagogik kompetentlikning rivojlanish darajasini aniqlaydigan kompetensiyalar majmuasi mazmuni yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** kommunikativ kompetentlik, bo'lajak o'qituvch, muloqot, oliy ta'lim, kompetensiya, tadqiqotchi, shaxs, yaxlit, ijtimoiy-madaniy, qobiliyat axborot.*

### **ABSTRACT**

*This article reveals the essence of the concept of competence. ways to pedagogically develop professional competence in learners are shown. The content of the set of competencies, which determines the level of development of pedagogical competence that can be acquired for future teachers, is highlighted.*

***Key words:** communicative competence, future teacher, communication, higher education, competence, researcher, person, holistic, socio-cultural, ability information.*

### **INTRODUCTION**

Yurtimizda faol, intiluvchan, iqtidorli va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, zamonaviy bilim hamda kasblarni chuqur egallagan - bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo'lgan yoshlarni voyaga yetkazish uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Bugungi kunda fan va texnika rivoji ta'lim va uning natijalariga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirishni talab etmoqda. Shunga asosan, yangi avlod standartlarini yaratish pedagoglarning oldiga muhim vazifa qilib qo'yilmoqda.

Hozirgi vaqtgacha yaratilgan davlat ta'lim standartlari tizimli-faoliyatli yondashuvga asoslangan, ya'ni ta'lim maskanlarining maqsadini bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish tarzida aniqlashtirishdan iborat edi. Shu bois yangi davlat ta'lim standartlarini o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan kompetent-faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda. Chunki oliy ta'limda tashkil etilayotgan o'quv-tarbiya jarayonining mohiyati

tinglovchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, balki bilimlarni axborot-verbal tarzda yetkazish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo'lib qolmoqda.

Bunday reproduktiv tarzda o'zlashtirilgan ma'lumotlar tinglovchining amaliy faoliyat tajribasini rivojlantirishga yetarlicha imkon bermaydi. Oqibatda, talabalar juda ko'p axborotni behuda jamg'arilishi, ta'limning samarasi past ekani va uning real voqelikka mos kelmasligi kabi tafovutlar ko'zga tashlanmoqda. Aniqrog'i, talaba real hayotdan uzoqlashib qolgandek, uning oldiga faqat ilgaridan to'plangan axborotlarnigina o'zlashtirish maqsadi qo'yilgandek tuyuladi.

Demak oliy ta'lim muassasasi talabalarini kommunikativ kompetentligini shakllantirish pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o'ziga xos o'rin tutadi. Ayniqsa ta'limni modernizatsiyalash bilan bog'liq islohotlarning joriy bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish bilan boyib bormoqda. "Kompetentlik" va "ta'limda kompetentli yondoshuvning asosiy tushunchalaridir. Manbalar tahlili esa, ularning ilmiy adabiyotlarda bir qiymatli ta'rifga ega bo'lmagan murakkab, ko'pkomponentli va fanlararo tushunchalar ekanligini ko'rsatadi. fikricha ular hajmi, turkumi, semantikasi va mantiqiy tuzilmasi bo'yicha farqlanib, kompetentli shaxs tavsifi (xususiyatlari, odatlari va boshqalar) sifatida qaralishi mumkin. Kompetentli shaxs tavsifi (xususiyat, shaxs sifati, uning komponenti), shaxs tuzilmasida yaxlit ta'lim, xususiyatlari tizimi, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash natijasida yuzaga keluvchi holatlar (tayyorgarlik, yo'naltirilganlik va boshqalar) sifatida ifodalanishi mumkin, ko'pincha esa, kompetentli bilim va tajriba bilan tenglashtiriladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Pedagogik adabiyotlarda, bugungi kunda, "kompetensiya", "kompetentlik" atamaları keng qo'llanilmoqda va barqarorlashmoqda. Ammo, hozirga qadar ta'limning u yoki bu bosqichi bitiruvchisining optimal obraziga qo'llash mumkin bo'lgan «kompetentlik» tushunchasining yagona va aniq ta'rif mavjud emas.

Manbalarda shaxsning bilimi, ko'nikmasi, malakasi, qobiliyati, mehnatsevarligi, kasbiy mahorati kabi sifatlarini ifodalash uchun «kompetentlik» va «kompetentlilik» atamalaridan foydalanilgan.

"Competentia" lotincha so'z bo'lib, o'zbek tilidagi lug'aviy ma'nosi "inson yaxshi biladigan", "tajribaga ega bo'lgan" kabi ma'nolarni bildiradi. Demak, biror bir



sohada kompetentli inson shu soha haqida asosli fikr yuritish va unda samarali faoliyat olib borish uchun mos bilim va ga ega hisoblanadi.

Ilmiy manbalarda kompetentlik va kompetensiyaning quyidagi ta'riflarini uchratish mumkin: motivlashgan qobiliyat; shaxsning xususiyat va sifatleri, shaxsiy chizgisi; faoliyatga tayyorgarlik mezonlari; masalani hal etish va uning natijalarini olish uchun zarur bo'lgan qobiliyat; faoliyatga bog'liq bilim, ko'nikma, malaka va tajriba (inson tomonidan o'zlashtirilgan masalani yechish, usullar va yo'llarini bir butunga birlashtirish), shu bilan birga shaxsning motivlashgan va hissiy-irodaviy sohasi.

Kompetensiyalar tayanch va asosiy kompetensiyalarga bo'linadi. Tayanch kompetensiya - bu o'z tavsifi va qo'llanilish darajasi bo'yicha ommaviy, asosiy kompetensiya esa, o'z tavsifi va qo'llanilish darajasi bo'yicha qaralayotgan mutaxassislikka mos keluvchi kompetensiyadir. Uni kasbiy kompetensiya deb ham atash mumkin.

Tayanch kompetentlik oliy pedagogik ta'limning har bir bosqichi uchun ta'lim bloklari va o'quv fanlari darajasida aniqlanadi. Tayanch kompetentlik tartibini belgilashda kasbiy pedagogik ta'limning asosiy maqsadlariga muvofiq ijtimoiy va shaxsiy tajribaning mohiyati, ijtimoiy jamiyatda kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida hayotiy ko'nikmalarni egallashga imkon beruvchi asosiy turlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nuqtai nazardan ular quyidagi kompetentlik turlariga bo'linadi:

1. Yaxlit-mazmunli kompetentlik. Bu talabaning qadriyatli yo'nalishlari bilan bog'liq, uning ijtimoiy borliqni his eta bilishi va tushunish qobiliyati, mustaqil hayot yo'lini topa olishi, o'zining ijtimoiy jamiyatdagi roli va o'rnini anglab yetishi, harakatlarni tashkil etishda aniq maqsadni belgilash hamda qaror qabul qilish malakasi, dunyoqarashi bilan bog'liq kompetentlik, u talaba uchun o'quv va boshqa vaziyatlarda o'zini aniqlash mexanizmini ta'minlaydi. Talabaning individual ta'lim yo'nalishi va uning hayotiy faoliyatining umumiy dasturi ana shu kompetentlikka bog'liq.

2. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik. Talaba chuqur o'zlashtirishining zarur bo'lgan bilim va faoliyat tajribasi doirasi, milliy va umuminsoniy madaniyatlar xususiyatlari, inson va insoniyat hayotining ma'naviy-axloqiy asoslari, oilaviy va ijtimoiy an'analarning madaniy asoslari, inson hayotida fan va dinning roli, ularning moddiy borliqqa ta'siri, turmush va dam olish borasidagi bilimlar, masalan, bo'sh vaqtni samarali tashkil etish usullarini bilishidan iborat.

3. O'quv-bilish kompetentligi. Bu talabaning o'rganilayotgan aniq ob'yektlar bilan bog'liq mantiqiy, metodologik va ijtimoiy faoliyati elementlaridan iborat bo'lgan mustaqil fikrlash kompetentliklarining to'plami bo'lib, unga maqsadni ko'ra

bilish, faoliyatni rejalashtirish, uning mazmunini tahlil qilish, refleksiya, faoliyatga shaxsiy baho berish borasidagi bilim va malakalari kiradi. O'rganilayotgan ob'yektlarga nisbatan talabalar kreativ ko'nikmalar, ya'ni bilimlarni bevosita borliqdan olish, nostandart vaziyatlarda muammoni hal etishning harakat usullari va evristik metodlarini egallaydi.

4. Axborot olish kompetentligi. Audio-video ko'rsatuv vositalari va axborot texnologiyalari yordamida mustaqil izlanish, tahlil qilish va zarur axborotlarni tanlab olish, ularni tahlil etish, o'zgartirish, saqlash va uzatish mahorati shakllantiriladi. Ushbu kompetentlik talabaning o'quv fanlari asoslarini muhim axborotlar asosida o'zlashtirishini ta'minlaydi.

5. Kommunikativ kompetentlik. Ta'lim oluvchilar bilan o'zaro munosabatlar, ularning usullari, muloqot jarayonida ustuvor o'rin tutuvchi tilni o'zlashtirish, guruhlarda ishlash ko'nikmalari, jamoada turli xil ma'naviy- ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishni bilishni o'z ichiga oladi.

6. Ijtimoiy-faoliyatli kompetentlik fuqarolik (fuqaro, kuzatuvchi, saylovchi, vakil vazifasini bajaruvchi), ijtimoiy-mehnat sohasi (iste'molchi, xaridor, mijoz, ishlab chiqaruvchi huquqlari), oilaviy munosabatlar va majburiyatlar, iqtisod va huquq masalalari, kasbiy, shuningdek, shaxsiy mavqeini aniqlash borasidagi bilim va tajribalarni egallash (xususan, mehnat bozoridagi mavjud vaziyatni tahlil qilish, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni ko'zlab harakat qilish mahorati, mehnat hamda fuqarolik munosabatlarining odobini bilish) ni anglatadi.

7. Shaxsning o'z-o'zini takomillashtirish kompetentligi ma'naviy, motivatsion, intellektual va amaliy jihatdan o'z-o'zini rivojlantirish, irodaviy va hissiy jihatdan o'z-o'zini boshqara olishga qaratilgan. Talaba shaxsiy manfaatlari va imkoniyatlariga ko'ra faoliyat usullarini egallaydi, bu unga o'zida zamonaviy mutaxassisga xos bo'lgan shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirish, tafakkurini, madaniyati va xulqini shakllantirishga yordam beradi.

“Kommunikativ kompetentlik” tushunchasi bilan yaqin aloqador bo'lgan – “shaxsning kommunikativ yadrosi” tushunchasi mavjud. “Kommunikativ yadro” tushunchasi yaqinda paydo bo'lgan va ilmiy tadqiqot ishlarida zamonaviy psixolog A.A.Bodalev tomonidan birinchi marta qo'llanildi. Shaxsning kommunikativ yadrosi psixologik hodisa sifatida ko'rib chiqilishi har bir insonda muloqotni yanada muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beruvchi asos mavjud. Bunday asos har qanday katta yoshli insonlarda, bolalar shaxsida ham mavjud bo'lib, kommunikativ yadrosiga shaxsiy xususiyat va sifatlar kirishi mumkin.

Oliy ta'lim talabalarini kasbiy kompetentligining shakllanishi nafaqat o'quv predmetlari ro'yxati, balki, fanni o'zlashtirish jarayonida shakllanadigan kasbiy

ko'nikma va bilimlar, shuningdek, talabaniing ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotdagi faol o'rnidan iborat ta'lim mazmuni orqali amalga oshiriladi. Buning barchasi majmuaviy holda, bo'lajak pedagog shaxsini shunday tarbiyalaydiki, u o'z-o'zini rivojlantirish va o'z komilligi ustida ishlay olish usullariga ega bo'ladi, bu esa, o'z vaqtida pedagogga "inson-inson" tizimida kasb ustasi - sub'yekti sifatida samarali faoliyatni ta'minlaydi.

Oliy ta'lim talabalarini kasbiy kompetentligini ta'riflashga turlicha yondoshuvlar mavjud. Masalan, N.F. Talizining nuqtai nazaricha, u uchta asosiy tarkibiy qismlarga (sifatlar, bilimlar, ko'nikmalar) mos kelishi kerak.

Ularga quyidagilar kiradi:

Sifatlar: ishga munosabatni ifodalovchi: mehnatsevarlik, e'tiborlilik, ijodiy yondoshuv; hatti-harakat va faoliyatning umumiy ma'romini tavsiflovchi: ijrochilik, mustaqillik, so'ziga sodiqlik, obro'lilik, faollik va shijoatlilik; aqliy qobiliyatlar: egiluvchanlik, zukkolik, uzoqni ko'ra bilishlik; ma'muriy-tashkiliy: ish muhitini yaratish ko'nikmasi, insonlarga rahbarlik qilish ko'nikmasi, jamoani himoya qilish, insonlarni farqlay olish, ularni ishontira olish ko'nikmasi; insonlarga munosabatni tavsiflovchi: rostgo'ylik, tarbiyalilik; o'ziga munosabatni tavsiflovchi: talabchanlik, kamtarlik, dadillik, mukammallik.

Bilimlar: o'z mutaxassisligi bo'yicha kasbiy, umummadaniyat, kasbiy faoliyat haqida ma'lumotlilik.

Ko'nikmalar: qo'yilgan masalalarni yechish, adabiyotlar bilan ishlash, faoliyatni rejalashtirish.

Bu ro'yxat faoliyat turiga qarab to'ldirilishi yoki qisqartirilishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining quyidagi asosiy kompetensiyalari ajratiladi: o'quv-bilish, axborotli, kommunikativ, ijtimoiy-foydali, shaxsiy o'z-o'zini takomillashtirish. Bularning barchasi bitiruvchiga kasbiy bilim, ko'nikma va keyingi hayotda faoliyat usullari majmuasini ongli ravishda qo'llash imkonini beradi.

Kompetentlik - insonning faoliyatli tavsifi, shuning uchun uning tasniflanishi eng avvalo, faoliyat tasnifiga mos bo'lishi kerak. Umumiy holda bular mehnat, o'quv, o'yin va kommunikativ kompetentliklar. Bularga yana quyidagilarni qo'shimcha qilish mumkin:

- kompetentlikni faoliyatning yo'naltirilgan ob'yekti bo'yicha tasniflash, u «inson-inson», «inson-texnika», «inson-badiiy obraz», «inson-tabiat», «inson- belgili tizim» sohaslarida kompetentlikni beradi;

- kasblarning alohida sinflari va guruhlari sohasidagi kasbiy kompetentlik;
- aniq faoliyat (mutaxassislik) dagi predmetli kompetentlik.

Jamiyatning turli sohasida esa quyidagi maxsus kompetentliklar ham talab etiladi: maishiy xizmat sohasida, san'at sohasida, sport sohasida va boshqalar.

Kasbiy kompetentlik tizimini shakllantirish holati, sifat va miqdoriy jihatidan o'zgarishlar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lish uchun axborot sharoitlarini yaratish sifatida pedagogik monitoring xizmat qilishi mumkin. Pedagogik monitoring talabani shaxsi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish maqsadida sosiologik, psixologik va bajaruvchilik monitoringini birlashtiradi. Talabani shaxsini o'rganishga bunday majmualiy yondoshuv, avvalambor, mavjud real o'quv imkoniyatlarni, ya'ni ta'lim olganlik darajasi, o'qitilishi, bilish va shaxsiy qiziqishlar, o'qish ma'nosi va sust o'zlashtirishning didaktik sabablarini o'rganish, talabalar va pedagoglarning ta'lim jarayoni bilan qoniqish darajasi, ta'lim oluvchilarning emotsional holati, o'zaro munosabatlar xarakteri va boshqalarni amalga oshirishga yo'naltiriladi.

U pedagogik kompetentlik tuzilmasida quyidagi uchta tashkil etuvchini ajratgan: faoliyatli, kommunikativ va shaxsiy. L.M.Mitina tomonidan taklif etilgan pedagogik kompetentlikni tuzilmashtirishdan kelib chiqqan holda, biz, bo'lajak mutaxassislar uchun egallanish darajasi pedagogik kompetentlikning rivojlanish darajasini aniqlaydigan quyidagi kompetensiyalar majmuasi yetarli va zarur deb hisoblaymiz:

- faoliyatli yoki maxsus kompetensiya (bilim, ko'nikma, malaka va pedagogik faoliyatni amalga oshirishning individual usullari);

- shaxsiy yoki kasbiy kompetensiya (kasbiy o'z-o'zini takomillashtirish va o'zo'zini amalga oshirishga oid bilim, ko'nikma va malakalar);

- kommunikativ kompetensiya (pedagogik faoliyatni ijodiy amalga oshirishga oid bilim, ko'nikma va malaka).

Professionallik va kompetentlik tushunchalari umumiy xususiyatlarga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, har doim ham belgilangan talablar va standartlarga to'liq mos keladigan odamlar chinakam professionallar bo'lavermaydi, sabab, ba'zilari bilimlarni amalga qanday qo'llashni bilishmaydi, demak, bunday pedagogik faoliyat samarasiz bo'lib qolaveradi.

## **XULOSA**

Xulosa o'rinda aytish kerakki kommunikativ o'zini o'zi takomillashtirish maqsadi aniq, ammo motivlar turlicha bo'lishi mumkin. Insonparvar yo'nalgan o'qituvchi uchun kommunikativ o'zini o'zi takomillashtirish nafaqat o'zi uchun o'zini o'zi yaxshilashda, balki samarali o'zaro munosabatni amalga oshirishning asosiy sharti sifatida kechishi kerak bo'lib, bu bolalarning rivojlanishiga, ularning individualliklari va o'ziga xosliklarini saqlashga yordam beradi. Shuning uchun

kommunikativ o‘zini o‘zi rivojlantirishda amaliy mashg‘ulotlar katta ahamiyatga egadir. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari amaliy yondashuv orqali kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil qilishning metodik ta‘minotini ishlab chiqishni taqozo qildi. O‘quv mashg‘ulotini axborot, o‘zini o‘zi anglash va amaliy kabi uchta blokda qurish maqsadga muvofiq.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. L.V.Klimberi, N.V. Yadrova, R.M. Nurjanova, Talabalarning kognitiv faolligini shakllantirishga zamonaviy yondashuvlar // Fan va ta‘limning zamonaviy muammolari. - 2017. - 6-son;
2. G.I. Shchukin. Talabalarning kognitiv qiziqishlarini shakllantirishning pedagogik muammolari: darslik /. - M.: Pedagogika, 2008. -- 296 b.
3. Okhunova, D. K. (2022, October). APPROACHES TO EXPANDING THE POSSIBILITIES OF COGNITIVE ACCEPTANCE OF PROFESSIONAL KNOWLEDGE OF FUTURE TEACHERS. In *INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS*. (Vol. 1, No. 5, pp. 26-32).
4. Kahhorjonovna, O. D. (2022). Approaches to Preparing Future Teachers for the Organization of Cognitive Processes in General Secondary Schools. *Miasto Przyszłości*, 29, 6-7.
5. Hamrayeva, O. F. Q. (2023). OLIY TA‘LIM MUASSASASI TALABALARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1), 537-544.
6. Sh, M. Z. The social role of folk traditions and rituals multinational people. *Pedagogical education and science*.–2019.
7. Shafoatovna, M. Z. (2021). Scientific and Theoretical Basis of Factors for Improving Family Education in a Multilingual Environment. *World Bulletin of Management and Law*, 1(1), 15-16.
8. Shafoatovna, M. Z. Factors That Improve Family Education in a Multilingual Environment. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 55-57.
9. <https://natscience.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2982>



## **O‘SMIRLIK DAVRI**

**Sharipova Odinoxon Akmal qizi**

Navoiy viloyati Xatirchi tumani 33-umumiy o‘rta ta’lim  
maktabi amaliyotchi psixologi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqola o‘smirlik davrida o‘z-o‘ziga baho berish tizimining rivojlanish xususiyatlari, ularning ong va dunyoqarashining shakllanishi, o‘smirlik yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ular bilan ishlash, muammoli vaziyatlarni yechish ko‘nikma-malakalarini rivojlantirish masalalariga bag‘shlanadi.*

***Kalit so‘zlar:** o‘smir, yetakchi faoliyat, muloqot, psixologik yangilik, o‘z-o‘ziga baho berish, jinsiy yetilish jarayoni, o‘spirinlik davriga o‘tishdagi inqiroz.*

## **ADOLESCENT PERIOD**

**Sharipova Odinoxon Akmal kizi**

Practitioner psychologist of the 33th comprehensive school of  
Khatirchi district of Navoi region

### **ABSTRACT**

*This article is devoted to the development of the self-evaluation system during adolescence, the formation of their consciousness and worldview, the development of skills for working with adolescents, taking into account their age and psychological characteristics, and solving problem situations. will be done.*

***Keywords:** adolescent, leadership activity, communication, psychological innovation, self-evaluation, sexual maturation process, crisis in transition to adolescence.*

## **ПОДРОСТКОВЫЙ ПЕРИОД**

**Шарипова Одинахон Акмал кизи**

Практический психолог 33-й общеобразовательной школы  
Хатырчинского района Навоийской области

### **АННОТАЦИЯ**

*Данная статья посвящена развитию системы самооценки в подростковом возрасте, формированию у них сознания и мировоззрения, развитию навыков работы с подростками с учетом их возрастных и психологических особенностей, решению проблемных ситуаций.*

***Ключевые слова:** подросток, лидерская деятельность, общение, психологическая инновация, самооценка, процесс полового созревания, кризис перехода в подростковый возраст.*

### **KIRISH**

Kichik maktab yoshining oxiriga kelib an'anaviy ta'lim tizimida chuqur motivatsion inqiroz kuzatiladi (ba'zan uni motivatsion vakuum ham deb ataladi). Bunda yangi ijtimoiy pozitsiyani egallash bilan bog'liq motivatsiya yo'qoladi (o'qish hayotiy majburiyatlardan biriga aylanadi), o'qishning mazmunli motivlari mavjud bo'lmaydi, shakllanmagan bo'ladi. Inqiroz belgilari quyidagilarda namoyon bo'ladi: maktabga umuman salbiy munosabat, unga borish majburiy emas, o'quv topshiriqlarini bajarishni istamaslik, o'qituvchilar bilan nizolashishlar. Bola o'quv faoliyatida qanchalik kam muvaffaqiyatga erishgan bo'lsa, unga shunchalik og'ir tuyuladi. Maktabda o'quvchining barqaror mavqei shakllangan bo'ladi, ayniqsa qulay bo'lmagan mavqe o'smirlik davriga o'tishda ham saqlanib qoladi. Boshlang'ich sinf davrida bilim, malaka va ko'nikmalarning yetishmasligi tufayli hal qilinmagan qiyinchiliklar o'smirlik davriga o'tishda yanada chuqurlashadi. Bola hal qilishi zarur bo'lmagan, muammolar, topshiriqlarga duch keladi. (O'zini tekshirish va boshqalar bilan solishtirish, har xil o'qituvchilarning talablariga, ta'limning yangi sharoitlariga moslashish). Shunday qilib, rivojlanishning ijtimoiy vaziyatini qayta qurishda turli topshiriqlarni bajarishning asosiy sharti sifatida o'z xislatlari va ko'nikmalariga, "o'ziga yo'nalganlik" vujudga keladi. Bolalar xarakterida kattalikka intilish kuzatiladi. Tengdoshlari bilan muloqot shaxsiy rivojlanishning ko'p jihatlarini belgilay boshlaydi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lim to'g'risida qonun, Sh.Mirziyoev asarlari, mavzuga doir adabiyotlar hamda internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo'llanildi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O'smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. "Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas" ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. O'smirlik — bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik

taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, xarakteri shakllanadi, ma'naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O'smirlik balog'atga yetish davri bo'lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi. Bu yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Bu o'zgarishlar fiziologik hamda psixologik o'zgarishlardir. Bu bosqichlar o'smirlik yoshini ikki xil davrga — kichik o'smirlik davri va katta o'smirlik davrlariga to'g'ri keladi. Birinchi bosqichda o'smir o'zini "bola"lardan ajratib, endi o'zini kattalar olamiga mansubligini ta'kidlamochidek bo'ladi. Kattalar hayotiga kirishga qiziqish o'smirlarning asosiy xarakteristikalarini hisoblanadi. Bu davr uchun kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilish va o'zining mana shu yarashmagan qiliqlariga tanqidiy baho bera olmaslik, uning katta yoshli kishilarga yaqin bolishi, yordam berayotgan bir guruh tengdoshlari bilan ortiq darajada bog'liq bo'lib qolishi va shu singari holatlar xarakterlidir. Ikkinchi bosqichda o'smir endi o'zining yosh bola emasligiga shubha qilmaydi va o'zligini aniq anglay boshlaydi, o'z shaxsini ulug'lab, o'ziga xos harakatlar qila boshlaydi. O'smirlarni o'z shaxslari haqidagi fikrlar ko'proq qiziqtiradi, ular o'zlarini bilishga, maqsadli rivojlantirishga, tarbiyalashga harakat qiladilar. O'smirlik davrida ichki erkinlikning o'sishida, o'z-o'zini anglash layoqatlarida, mustaqil xatti-harakatlarida katta sifat o'zgarishlari yuz beradi. Bunday o'zgarishlarning yuzaga kelishida irodaning ham ahamiyati katta. Iroda oliy psixik funktsiya sifatida o'smirning erkin harakat qilish quroli, shuningdek, shaxsi rivojining magistral chizig'i bo'lib hisoblanadi. Bu davrga kelib uning harakatlari o'zi bilan o'rtoq bo'lgan bir guruh tengdoshlariga bog'liq bo'lmay qoladi. O'rtoqlari o'smirda o'zi to'g'risidagi noto'g'ri tasavvurlardan qaytib, jiddiy o'ylab ko'rishga uni majbur qilmoqchi bo'lganlarida ham u bemalol rad javobini berishi va o'z fikrida qat'iy turib himoya qilishi mumkin. Bu davrda o'zga kishilarning ichki dunyosiga ortiqcha qiziqish bilan qarash va o'z xatti-harakatlarini o'zi tahlil qilish, o'z-o'zini tarbiyalashning elementlarini yuzaga kelishi mana shu ikkinchi bosqichdagi o'smirlar hayotiga xos xususiyatlardir. O'smirlik davriga ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi salbiy xususiyatlar xosdir. O'smirlar hayotda, ekranda va kitoblarda kattalarning mustaqilligini va erkinligini, ularning katta va qiziqarli ishlarini, dadil harakatlarini, qahramonliklarini, atrofdagilar orasidagi obrularini ko'radilar hamda havas qiladilar. O'smirda katta yoshli odam bo'lishga yoki hech bo'lmaganda katta yoshli odam bo'lib ko'rinishga qiziqish, intilish paydo boladi va bu xohishni amalga oshirish unga osondek bo'lib ko'rinadi. O'smirlarning ehtiyojlari va imkoniyatlarining o'zaro mos kelmasligi o'smirlar bilan ota-onalari, o'qituvchilari va boshqa murabbiylari o'rtasida qarama-

qarshilikni keltirib chiqaradi. O‘smir o‘zining juda ko‘p istaklari, “xohlayman”larini amalga oshirishga intiladi: katta yoshli odamlar ega bo‘lgan hamma narsalardan foydalanishga, erkin, mustaqil va ozod bo‘lishga intiladi. Tevarak-atrofdagi odamlarga o‘zining ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatish uchun u kuchli, qo‘rqmas va epchil bo‘lishga intiladi. Tarbiyachilar ham o‘z tarbiyalanuvchilari xuddi shunday bo‘lishlarini istaydilar, ammo ular ana shu fazilatlarining faqat “kerakligi» uchun shunday bolishini istaydilar. Ana shunday “xohlayman” va “kerak” o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar ba‘zan oilada, maktabda keskin ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Tarbiyalangan odamda “xohlayman” faqat “kerak”ni bajarish orqaligina amalga oshiriladi. Agar o‘smir bola tushunishga o‘rgatilmagan bo‘lsa va “kerak” bo‘lgan narsani bajarishga odatlanmagan bo‘lsa, u o‘zboshimchaligini namoyon qilish orqali tarbiyachilarning talablariga qarshilik qiladi hamda o‘zining shaxsiy asoslanilmagan xohishlari asosida ish tutadi. O‘smirning yangi huquqlarga da‘vosi, avvalo, kattalar bilan o‘zaro munosabatlarning butun muhitiga oid bo‘ladi. O‘smir avval bajonidil bajaradigan talablarga endi qarshilik ko‘rsata boshlaydi: uning mustaqilligini cheklashganda, vasiylik qilishganda, yo‘naltirishganda, nazorat qilishganda, quloq solishni talab qilishganda, jazolashganda, uning qiziqishlari, munosabatlari va fikrlari bilan hisoblashishmaganda u juda xafa bo‘ladi va norozilik bildiradi. O‘smirda o‘z qadrini bilish hissi paydo bo‘ladi va u o‘zini kamsitish, mustaqillik huquqidan mahrum qilish mumkin bo‘lmagan inson, deb biladi. Bolalikdagi kattalar bilan bo‘lgan munosabat haqidagi fikrlari o‘zgaradi va uning o‘z kattaligi darajasi haqidagi tasavvurlari bilan mos kelmay qoladi. U kattalar huquqini cheklaydi, o‘zinikini esa kengaytiradi. Kattalarning o‘z shaxsi va insoniylik qadrini hurmat qilishlarini xohlaydi, ishonch va mustaqillik namoyon etishga da‘vo qiladi, ya’ni kattalar bilan ma’lum teng huquqlilikka va ularning shu narsani tan olishlariga erishishga harakat qiladi. O‘smirlik davriga kimningdir xatti-harakatini imitatsiya qilish xosdir. Ko‘pincha ular o‘zlariga tanish va yoqadigan kattalarning xatti-harakatlariga imitatsiya, taqlid qiladilar. O‘smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qolishlari ham mumkin. O‘smir katta odam, shuningdek, chekuvchi, ichuvchi singari yangi rollarda o‘zini noqulay his qiladi. Psixik rivoji jihatidan bolalarga yaqin, lekin ehtiyojlari jihatidan kattalarga yaqin bo‘lgan o‘smirda juda ko‘p noqulay va tashvishga tushuvchi holatlar bo‘ladi va ular o‘smirda krizisni yuzaga keltirib chiqaradi. Bu krizis o‘smirning ma’naviy o‘sishi, shuningdek, psixikasidagi o‘zgarishlar bilan ham bog‘liqdir. Bu davrda bolaning ijtimoiy mavqei o‘zgaradi, o‘zining yaqinlari, do‘stlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzaga keladi. Lekin eng katta o‘zgarish uning ichki dunyosida yuzaga keladi. Ko‘pgina o‘smirlarda o‘zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. Shuningdek, o‘zi haqidagi mavjud

fikrlarining bugun unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga to'g'ri kelmayotganligi o'smirning asabiylashishiga olib keladi. Bu esa o'smirda o'zi haqida salbiy fikr va qo'rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Ba'zi o'smirlarni nima uchun atrofdagilar, kattalar, shuningdek, ota-onasiga qarshi chiqayotganligini anglay olmayotganligi tashvishga soladi. Bu holat ularni ichdan asabiylashishlariga sabab bo'ladi va o'smirlik davri inqirozi yuzaga keladi. Krizis boladagi mavjud tushkunlik, yolg'izlikka intilish, passivlik yoki aksi, o'jarlik, qaysarlik, agressivlik, hayotga salbiy munosabatlarning kechishida namoyon bo'ladi. Bunday paytlarda u o'zi singari katta fiziologik, psixologik o'zgarishlar kechayotgan o'rtog'i bilan muloqot qilishga katta ehtiyoj sezadi. Do'sti o'smirda ijobiy ta'sir qiladimi yoki uni yo'ldan urib, yomon ta'sir qiladimi — bu narsa uning axloqiy qiyofasi bilan bog'liq. O'rtoqlarining ta'siri ostida o'smir o'zining ehtiyojlari va istaklarini qondirishi mumkin. Agarda bundan qanoatlanish unga katta mamnunlik bag'ishlarsa, bunday hollarda uning ba'zi bir harakat yoki qiliqlarga nisbatan bo'lgan tasodifiy qiziqishlari dastavval ishtiyoqqa, undan keyin ehtiros yoki odatga aylanishi mumkin. Ana shunday yo'l bilan o'quvchilarda, masalan, matematikaga, fizika yoki ximiyaga, duradgorlik, slesarlik yoki qandaydir boshqa bir ishlarga nisbatan ishtiyoq yuzaga keladi, ammo o'quvchilar xuddi shunday yo'l bilan yolg'onchilikka, bezorilikka va boshqa axloqsiz xatti-harakatlarga ham o'rganib qolishlari mumkin. O'smirlik davridagi barcha nomunosib harakatlar bir onda o'tib ketadigan xohishlarning ko'pligidan va kelib chiqadigan oqibatni nihoyatda yuza tarzda ko'ra bilishlikdan kelib chiqadi. Deyarli barcha zararli xohishlar oldin zararsiz va yengillik bilan amalga oshiriladigandek bo'lib ko'rinadigan ko'ngil ochish tarzidagi ishlardan boshlanadi. Aslida esa bu ishlarni amalga oshirishga o'smirlarning imkoniyatlari yetmaydi. Bunga shaxs taraqqiyotining tabiiy ehtiyojlari ta'sir qiladi. Agarda o'smir bolalar faqat bajara oladigan ishlarni qilganlarida edi, ular o'zlarining psixik xususiyatlarini rivojlantira olmagan bo'lar edilar. O'smirlar, o'zlarining turli xil xohishlarini bevosita qondirishdan bo'lak narsani ko'ra olmaydilar va bunday xohishlar xatarli oqibatlarga tomon yo'llaganda o'zlarini vaqtida to'xtatib qola olmasliklari ham mumkin. O'quvchilarni o'z xatti-harakatlarining oqibatlarini oldindan ko'ra bilishga va o'zlarini tuta bilishga o'rgatish tarbiyachilarning asosiy vazifasidir. O'smirlar haddan tashqari g'ayratli va besaramjon bo'ladilar, ular uchun bekorchilik juda og'irdir, bir xil tarzidagi ishlardan tezda toliqadilar, bir xildagi ish bilan qiziqmay qo'yadilar, bu esa ularning ta'lim jarayonlari muvaffaqiyatiga kuchli ta'sir qiladi. Binobarin, o'smirlarga muvaffaqiyatli ta'lim va tarbiya berishda ularni turli faoliyatlarga qiziqtirish va turli xil foydali mashg'ulotlarga jalb qilish hamda qiyinroq, lekin kuchlari yetadigan ishlar bilan shug'ullantirish nihoyatda muhimdir.



“O‘smirlik yoshining mohiyati shundan iboratki, o‘smir birmuncha faolroq ijtimoiy muhitga yetilgan bo‘lib, bolalik chog‘ida vujudga kelgan eski munosabatlarni buzib, ana shu muhit uchun kurasha boshlaydi”. Har bir o‘smir muvaffaqiyatli ishlar bilan tevarak-atrofdagi odamlar o‘rtasida o‘z shaxsini tasdiqlashga intiladi. Kattalar o‘smirlarning foydali jamoa ishlarida muvaffaqiyatga erishishlarida yordam berishlari va bu bilan ularning o‘z qadr-qimmatlarini namoyon qilishlariga imkon berishlari lozim. Aks holda ular boshqalarning oldida o‘zlarini yuqori qo‘yishlari, bepisandlik qilishlari mumkin. Buni ular o‘zlarining qadr-qimmatlari tan olinmaganligi yoki kamsitilganligiga qarshi chiqib, salbiy ishlar va xatti-harakatlar orqali amalga oshirishlari mumkin bo‘ladi. O‘smirlar nihoyatda taqlidchan bo‘lib, ularda hali aniq bir fikr, dunyoqarash shakllanmagan bo‘ladi. Ular tashqi ta’sirlarga va hissiyotlarga juda beriluvchan bo‘ladilar. Shuningdek, ularga mardlik, jasurlik, tantiqlik ham xosdir. Tashqi ta’sirlarga beriluvchanlik o‘smirda shaxsiy fikrni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi, lekin bu shaxsiy fikr aksariyat hollarda asoslanmagan bo‘ladi. Shuning uchun ham ular ota-onalarning, atrofdagi kattalarning, ustozlarning to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatishlariga qaramay, o‘z fikrlarini o‘tkazishga harakat qiladilar. O‘smirlarga farosatlilik, tejamkorlik, ehtiyotkorlik va uzoqni ko‘ra bilishlik kabi psixik xususiyatlar hali yetishmaydi. Tengdoshlari, shuningdek, sinfdoshlari guruhida o‘smir o‘zining kelishuvchanlik xususiyati bilan namoyon bo‘ladi. O‘smir o‘z guruhiga bog‘liq va qaram bo‘lgani holda shu guruhning umumiy fikriga qo‘shilishiga va uning qarorini doimo bajarishga tayyor bo‘ladi. Guruh ko‘pincha o‘smirda “biz” hissining shakllanishiga yordam beradi va uning ichki holatini mustahkamlaydi. O‘smir yoshdagi bola uchun do‘st tanlash juda katta ahamiyatga ega. O‘smirlik davrida do‘stlik juda qadrlil hisoblanadi. Do‘stlar doimiy ravishda ruhan, qalban yaqin bo‘lishga ehtiyoj sezadilar. Bu ehtiyoj o‘smir do‘stlarning holahvol so‘rashishi va ko‘rishishlarida (qol berib, quchoq ochib ko‘rishish) birga o‘tirish va birga yurishga harakat qilishlarida ko‘rinadi. Ko‘pgina ana shunday juda yaqin munosabatlar, o‘smirlarning shaxs bo‘lib shakllanishida, hamkorlikdagi harakatlarning izi inson qalbi va xotirasida bir umrga saqlanib qoladi. O‘smir yoshlarning xulq-atvori va faoliyatlarida ba’zan o‘zlarining kuchlari yetmaydigan qarama-qarshiliklar paydo bo‘ladi. Asosiy qarama-qarshilik juda ko‘p orzu-tilaklarni vujudga keltiruvchi, jadal ortib borayotgan jismoniy, ma’naviy va moddiy ehtiyojlar bilan ularni qondirish uchun nihoyatda cheklangan hamda ko‘p jihatdan yetarli bo‘lmagan imkoniyatlari o‘rtasidagi qarama-qarshilikdir. O‘smirning o‘z kuchiga to‘la ishonmasligi uni butun vositalar bilan shunchaki o‘zini katta kishi bolib qolganligini ta’kidlashga majbur qilibgina qolmay, shu bilan birga bu tuyg‘uni yetarli baholay olmaslik holatini ham vujudga keltiradi. Bu o‘z navbatida kattalarga qo‘pol

munosabatda bo'lish va agressivlikni hamda ota-onalar bilan o'qituvchilarning maslahat va talablarini pisand qilmaslik kabi xulq-atvor alomatlarini ham keltirib chiqaradi. "Oltinchi sinf muammolari"ga bag'ishlangan tadqiqot ishida shu yoshdagi bolalarning xulq-atvor xususiyatlari va turli xil fanlar bo'yicha o'zlashtirishning pasayishi bilan bog'liq bo'lgan muammolarning o'sib borishi quyidagicha namoyon bo'lgan: oltinchi sinf o'quvchilari to'rtinchi sinfga nisbatan 6 marta ko'proq qaysarlik qilishlari, 10 marta ko'proq o'qituvchilarga qarshilik ko'rsatishlari, 7 marta ko'proq boshqalar irodasiga to'sqinlik qilishlari, 9 marta ko'proq boshqalar kamchiliklariga e'tibor berishlari, 5 marta ko'proq faqat o'z xohish-istaklariga bo'ysunishlari va nihoyat 42 marta ko'proq o'z xatti-harakatlari motivlariga ega bo'lmasliklari aniqlangan.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Shunday qilib, xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, ijobiy sifatlar, ehtiyojlar va intilishlar har bir yoshda, jumladan, ma'lum darajada yoldan ozgan o'smirda ham bo'ladi. O'smirlar hamma narsani bilishga qiziqadilar. Ko'pchilik o'smirlar boshqalardan yomonroq bo'lishni xohlamaydilar va o'z muhitida ko'zga tashlanib turishga hamda boshqalardan nimalar bilandir farq qilishga intiladilar. O'smirlarning hammasi g'ayratli va faoldirlar, biroq, o'zlarining kuch-quvvatlarini qayoqqa yo'naltirishni hamma vaqt ham bilavermaydilar. Binobarin, ularni bevosita natijalari bilan xursand qiladigan xilma-xil foydali va qiziqarli ishlar bilan band qilish kerak. O'smirlar, garchi hamma vaqt ham bunga tayyor emasliklariga qaramay, mustaqillikka intiladilar. Ammo ko'pincha mustaqil ish-harakatlar uchun ularning imkoniyatlari bo'lmaydi. Demak, ularni mustaqil faoliyatga yaxshiroq tayyorlash va ularga mustaqil ishlarni ishonib topshirish hamda muvaffaqiyatli bajarilishini hamma vositalar bilan ta'minlash kerak. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, o'smirlar psixikasida ijobiy tomonlar yetarli darajada mavjuddir. Bu ijobiy tomonlardan foydalanib va ularni rivojlantirish, salbiy ishtiyoq, mayl, ishlar va xatti-harakatlarni yo'qotish kerak. Katta o'smirlar asta-sekinlik bilan bevosita ishlari va xatti-harakatlarining natijalarini hamda oqibatlarini oldindan ko'ra boshlaydilar. Ularda o'z-o'zini tuta bilish, matonat paydo bo'ladi, qarorlari birmuncha qat'iy bo'la boshlaydi, iroda tarkib topadi. Ular o'zlarining faoliyatlarida ishtiyoq va istaklardan ko'ra ko'proq sog'lom fikrga asoslanadigan bo'ladilar. Ularning ichki kechinmalari va hayajonlari endi irodaviy nazoratga bo'ysundirilgan bo'ladi. Lekin axloqiy va estetik hislarning taraqqiyoti tufayli ichki kechinmalari va hayajonlari yanada kuchliroq bo'ladi. Kattalarga nisbatan qo'pol munosabatning paydo bo'lishi, noxush xulq-atvor alomatlari, o'smir yashaydigan ijtimoiy shart-sharoitlar, uning tengdoshlari va turli jamoalardagi mavqei, kattalar bilan munosabati, maktab va oilasidagi munosabatlari sababli yuzaga

keladigan xarakter belgilaridir. Mana shu ijtimoiy sharoitlarni o'zgartirish yoli bilan o'smirlarning xulq-atvoriga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatish mumkin.

### REFERENCES

1. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O'zbekiston, 2020.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O'zbekiston, 2017.
3. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogik psixologiya». — T.: TDPU. 2009.
4. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibayeva R.N. Mustaqil fikrlash. — T.: Sharq. 2000.
5. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. — T.: Fan. 2003.
6. Халперн Д. Психология критического мышления. Питер. 2000.
7. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
8. Югай А.Х., Мираширова Н.А. “Общая психология” – Ташкент 2014.
9. Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.
10. Sulaymonov, J. B. (2021). IBN XALDUNNING „MUQADDIMA “ASARIDA JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(4), 732-737.*
11. Sulaymonov, J. B. (2021). ABU ZAYD ABDURAHMON IBN XALDUNNING „MUQADDIMA “ASARIDA DAVLAT TUSHUNCHASIGA YONDASHUVLAR TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(6), 9-14.*
12. Sulaymonov, J. B. (2022). ABDURAHMON IBN XALDUN AXLOQIY QARASHLARI VA SARVAPALLI RADHAKRISHNAN AXLOQIY QARASHLARINING QIYOSIY JIHATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 25), 363-373.*
13. Сулаймонов, Ж. (2021). АБДУРАХМОН ИБН ХАЛДУННИНГ ТАМАДДУН ТАРАҚҚИЁТИ ҲАҚИДАГИ ҚАРАШЛАРИДА ЖАМИЯТ ТАҲЛИЛИ. *Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 1), 451-455.*
14. Сулаймонов, Ж. Б. (2022). ИБН ХАЛДУН ҚАРАШЛАРИДА “ТААССУБ” КАТЕГОРИЯСИНING АҲАМИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 23), 864-871.*
15. Сулаймонов, Ж. Б. (2022). АБДУРАХМОН ИБН ХАЛДУН ИЖТИМОИЙ ҚАРАШЛАРИ ВА ЛИ ЮЛГОК ИЖТИМОИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ ЖИҲАТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(6), 1477-1483.*

## **O‘SPIRINLIK DAVRIDAGI PSIXOLOGIK O‘ZGARISHLAR**

**Abdurahmonova Guljahon Faxriddinovna**

Navoiy viloyati Xatirchi tumani 33-umumiy o‘rta ta’lim  
maktabi amaliyotchi psixologi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada o‘spirinlik davrining psixik xususiyatlari, bu davrdagi aqliy va emotsional rivojlanish, shaxs xususiyatlari yoritiladi. Ularning ong va dunyoqarashining shakllanishi, o‘spirinlik yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ular bilan ishlash, muammoli vaziyatlarni yechish ko‘nikma-malakalarini rivojlantirish masalalariga to‘xtalinadi.*

***Kalit so‘zlar:** Pedagogika, psixologiya, ilk o‘spirinlik, o‘spirinlik, intellektual rivojlanish, yetakchi faoliyat, muloqot, emotsional rivojlanish, yangi psixologik tuzilma.*

## **PSYCHOLOGICAL CHANGES DURING ADOLESCENCE**

**Abdurahmonova Guljahon Faxriddinovna**

Practitioner psychologist of the 33th comprehensive school of  
Khatirchi district of Navoi region

### **ABSTRACT**

*In this article, the mental characteristics of adolescence, mental and emotional development, personality characteristics during this period are highlighted. The formation of their consciousness and worldview, taking into account the age and psychological characteristics of adolescent children, working with them, and developing the skills to solve problematic situations will be discussed.*

***Keywords:** Pedagogy, psychology, early adolescence, adolescence, intellectual development, leadership activity, communication, emotional development, new psychological structure.*

## **ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ**

**Абдурахмонова Гулжахон Фахриддиновна**

Практический психолог 33-й общеобразовательной школы  
Хатырчинского района Навоийской области

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье выделены психические особенности подросткового возраста, психическое и эмоциональное развитие, особенности личности в этот период. Речь пойдет о формировании их сознания и мировоззрения с*

*учетом возрастных и психологических особенностей детей-подростков, работе с ними, развитии навыков решения проблемных ситуаций.*

**Ключевые слова:** Педагогика, психология, юношеский возраст, подростковый возраст, интеллектуальное развитие, лидерская деятельность, общение, эмоциональное развитие, новая психологическая конструкция.

## **KIRISH**

Ilk o'spirinlik davri "kamolot bo'sag'asi" deb ta'riflanadi. Bu kamolot bosqichi fiziologik, psixologik va ijtimoiy chegaralarni o'z ichiga oladi. Psixologiya fani o'spirinlik muammosini kompleks o'rganishni da'vat etadi. Bu juda qiyin masala, chunki psixofiziologik taraqqiyot sur'ati bilan uning bosqichlari ijtimoiy yetilish muddati bilan hamma vaqt ham to'g'ri kelavermaydi. Akseleratsiya natijasida bugungi ilk o'spirinlarning taraqqiyoti avvalgi avlodlarga nisbatan o'rtacha ikki-uch yil avval yetilmoqda. 15-16 yoshdan 23 yoshgacha bo'lmoqda. Bunda ilk o'spirinlik 15-18 yosh, o'spirinlik 18-23 yoshdagi yigit va qizlarni o'z ichiga oladi. Demak, o'spirinlik ham oldin boshlanadi. Lekin, bu taraqqiyot davrining konkret mazmuni birinchi navbatda ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi. Yoshlarning jamiyatda tutgan o'rni, ularning mavqei, ular egallaydigan bilimlarning hajmi va bir qator boshqa omillar ijtimoiy sharoitlarga bogliqdir. Ilk o'spirinlik yoshidagi bolalar bu 15 yoshdan 17-18 yoshgacha bo'lganlardir. O'spirinlik — bu odamning fuqaro sifatida shakllanishi, uning ijtimoiy jihatdan yetilishi, o'z taqdirini o'zi hal qilishi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi davri, fuqaro va vatanparvarning ma'naviy sifatleri tarkib topadigan davrdir. Faol ijtimoiy hayot, o'qishning yangi xarakteri (mustaqil bilim olish) yigit va qizlarda dunyoqarashning shakllanishiga, ularda mustaqillik va burch hissining tarkib topishiga, bilimning turli sohalarida ularning ijodiy qobiliyatini avj oldirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Rus psixologi L.I.Bojovich ilk o'spirinlik davrida shaxs motivatsion sohasining rivojlanishiga urg'u beradi: o'quvchilarning hayotda o'z o'rnini va ichki pozitsiyasini aniqlashi, dunyoqarashning shakllanishi va uning bilish faoliyatiga, o'z-o'zini anglashga va axloqiy ongga ta'siri nazarda tutiladi. Ilk o'spirinlar mustaqil hayot sohasida yaqin istiqbolga ega bo'lar ekanlar, o'zlarining hayot yo'llarini belgilab olishga, bundan buyongi mehnat faoliyatlarining aniq istiqbollari aniqlab olishga, o'zlarining kelgusi ixtisoslarini tanlashga intiladilar. Shu munosabat bilan kasb-hunarga oid qiziqishlar tarkib topadi va yanada barqarorroq bo'lib qoladi, yigit va qizlar o'z kelajaklari haqida jiddiyroq o'ylay boshlaydilar. Ilk o'spirinlik davridagi jismoniy rivojlanish ustida to'xtalib o'tamiz, bu narsa quyidagi sabablarga ko'ra muhimdir. Jismoniy rivojlanishning ayrim xususiyatlari ilk o'spirin shaxsining ayrim sifatleri rivojlanishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi va uning bundan keyingi hayot faoliyati sohasidagi imkoniyatlarini



bir qadar belgilab beradi. Birinchidan bu o‘rinda kasb tanlash nazarda tutiladi, bu esa ma’lum darajada yigit va qizlarning individual jismoniy tuzilishi xususiyatlariga ham bog‘liqdir. Ikkinchidan, jinslarning o‘zaro mayli ta’sir ko‘rsatadiki, bunda jismoniy rivojlanish xususiyatlari ancha muhim rol o‘ynaydi. O‘zining jismoniy kuchini va jozibadorligini, sog‘lomligi va mukammalligini his etish yigit va qizlarda o‘ziga ishonch, dadillik, tetiklik, optimizm va xushchaqchqlik singari sifatning tarkib topishiga ta’sir ko‘rsatadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta’lim to‘g‘risida qonun, Sh.Mirziyoev asarlari, mavzuga doir adabiyotlar hamda internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo‘llanildi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ilk o‘spirinlarning bilish jarayonlari shunday darajaga yetadiki, kattalar bajaradigan barcha aqliy ishlarni bajarishga amaliy jihatdan tayyor bo‘ladilar. Ularning bilish jarayonlari murakkab va egiluvchan bo‘lib boradi. Ular bu yoshga kelib jiddiy ishlarga ko‘p vaqtlarini ajrata boshlaydilar, dam olish va o‘yin-kulguga juda kam vaqt ajratadilar. Ularning barcha bilish jarayonlari, jumladan, xayol, xotira, nutq, tafakkur rivojlanadi. Ilk o‘spirinlik yoshidagi o‘quvchilarning bilish jarayonlari turli nuqtayi nazarlarni tahlil etishga va bu masala bo‘yicha har tomonlama fikr yuritishga yordam bera oladi. Bilishga qiziqishning rivojlanishi, o‘qishga ongli munosabatda bo‘lishning o‘sishi bilish jarayonlarining ixtiyoriyligini, ularni boshqara olish mahoratini yanada rivojlantirishga undaydi. Bu yosh davrining oxiriga borib, o‘quvchilar o‘zlarining bilish jarayonlarini to‘la-to‘kis egallab oladilar, ularni hayot va faoliyatning muayyan vazifalariga bo‘ysundiradilar. Ular axloqiy va siyosiy va boshqa mavzular bo‘yicha erkin fikrlaydilar. Ilk o‘spirinlarga umumiydan xususiyga, xususiydan umumiyga xulosa chiqarish, ya’ni induksiya va deduksiya xosdir. Ilk o‘spirinlar ko‘pchilik ilmiy tushunchalarni o‘zlashtiradilar, turli masalalarni yechish jarayonida ulardan foydalanishni o‘rganadilar. Bu esa ularda nazariy yoki so‘z-mantiq tafakkurning rivojlanganligini bildiradi. Kuzatish aniq maqsadga qaratilgan va yanada sistemali bo‘lib boradi. Shaxsning kuzatuvchanlik xususiyati rivoj topadi. Shu bilan birga N.D.Levitov ko‘rsatib o‘tganidek, o‘spirinlar o‘z kuzatishlarida parishonxotir bo‘lmaliklarini, kuzatishni o‘z oldilariga qo‘yilgan vazifalarga bo‘ysundirishlarini, yetarli darajada to‘plangan faktlar to‘planmaguncha xulosa chiqarishga shoshilmasliklarini nazorat qilib borish zarur. Ilk o‘spirinlarning o‘quv faoliyati ularning faolligi va mustaqilligiga ancha yuqori talablar qo‘yadi. Akademik

litsey va kasb-hunar kolleji dasturida belgilangan materiallarni o'zlashtirish uchun nazariy tafakkur rivojlangan bo'lishi hamda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini egallash zarur. Xotirani rivojlantirishda mavhum so'z-mantiq xotira, ma'nosiga tushunib esda olib qolishning roli sezilarli darajada ortadi. Garchi ixtiyoriy xotira ustunlik qilsa-da, ixtiyorsiz esda olib qolish ham ilk o'spirinlar tajribasidan chiqib ketmaydi. U faqat o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi, ilk o'spirinlarning qiziqishlari, xususan ularning bilishga oid va kasb tanlashga oid qiziqishlari bilan ko'proq boglanadi. Shu bilan birga faol ravishda bilim egallash, o'qish va jamoat faoliyatida har holda ixtiyoriy xotira yetakchi rol o'ynaydi. So'zma-so'z yodlab olish alohida hollarda zarur ekanligini o'quvchilar yaxshi tushunadilar. Ilk o'spirinlar esda olib qolish usullaridan — rejalarni va tekstning sxemalarini, konspektlarni tuzish, asosiy fikrlarni ajratib ko'rsatish va ostiga chizish, ilgari ma'lum bo'lgan fikrlarga taqqoslash, solishtirish usullaridan o'smirlarga qaraganda beqiyos darajada keng suratda foydalanadilar. Ular esda olib qolishga alohida-alohida yondashadilar. 387 Qiziqishlarning differensiyalashganligi diqqatning tanlovchanligini, ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqatning roli ancha ortishini belgilab beradi. Ilk o'spirinlarda ixtiyoriy diqqatdan keyingi diqqat bilan bir qatorda ixtiyoriy diqqatning ham ahamiyati ortadiki, ular o'quv materialini bilan bevosita qiziqmasdan, o'rganilayotgan hodisalarning hayotiy ahamiyatini tushunib, unga diqqatlarini qaratadilar. Diqqatni ko'chirish va taqsimlash qobiliyati sezilarli ravishda rivojlanib, takomillashib boradi. Xususan, diqqatni taqsimlash bir vaqtning o'zida o'qituvchining tushuntirgan narsalarini ham tinglash, ham yozib borish, o'z javobining mazmunini kuzatib borish mahoratining shakllanishida o'z aksini topadi. Ilk o'spirinlar o'quv ishlari jarayonida o'zlariga ta'sir qiladigan chalg'ituvchi narsalarga o'smirlardan ko'ra ko'proq qarshi turishga, bardosh berib yengishga qobildirlar. Ilk o'spirinlarning ayrimlarida diqqatning tanlovchanligi shu narsada ham ko'rinadiki, ular o'quv materialini idrok qilar ekanlar, hamma vaqt uning ahamiyatiga baho berishga, uni amaliy jihatdan ahamiyatliligi nuqtayi nazaridan idrok qilishga harakat qiladilar. Agar unga material muhim bo'lib tuyulmasa, u o'z diqqatini susaytiradi. Shunisi qiziqki, diqqatning bu o'ziga xos harakati ko'pincha atayin ro'y bermaydi. Odatda ilk o'spirinning diqqati shu sohadagi muayyan bilimlarni amalda tatbiq etish haqida gap borgan vaqtdagina ixtiyorsiz ana shu predmetga qaratiladi. Bu yoshdagi o'spirinlar atrofdagi turli voqea-hodisalardagi haqiqatni bilishga intiladi. Ularni tayyor yechimlar, ma'lumotlar emas, balki shu yechim va ma'lumotlarni o'zlari mulohaza yurgizib, qidirish jarayonining o'zi ko'proq qiziqtiradi. Bu borada turli masalalar bo'yicha bahs va munozaralar yuritishga va o'zlarining fikrlarini isbotlashga juda qiziqadilar. Bu davrda bilish jarayonlarining rivoji faol ravishda davom etadi. Bu rivojlanish o'spirinning o'ziga va

uning atrofidagi kuzatuvchilarga kam seziladi. Bu davrga kelib, o'spirinlar to'la ravishda mantiqiy tafakkurga ega bo'ladilar, nazariy fikr yuritib, o'lgan bilimlarini tahlil eta oladilar. Ular endi bemalol axloqiy, siyosiy va boshqa mavzularda bahslasha olib, o'z munosabatlarini bildira oladilar. O'spirinlik davrida bolalar juda ko'p ilmiy tushunchalarni o'zlashtirib, ulardan turli masala va muammolarni yechishda foydalana oladilar. O'spirinning o'z-o'zini anglashi o'quv, mehnat va muloqot motivatsiyalarining o'zgarishida o'z aksini topadi. Bu davrda, bolada yangi faoliyatlar yuzaga kelib, psixik rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi. O'spirinlik yoshi o'qish, mehnat, muloqot singari yetakchi faoliyatlar asosida umumiy va maxsus layoqatlarning rivojlanayotganligi bilan xarakterlanadi. Lekin, bu rivojlanish O'spirinning o'ziga va uning atrofidagi kuzatuvchilarga kam seziladi. O'spirinlik davriga kelib, juda ko'p bolalarda o'z faoliyatlarini oldindan rejalashtirish layoqati yaxshi rivojlangan bo'ladi. Shuningdek, o'z-o'zini boshqarish ham o'spirinlik yoshidagi bolalarda yaqqol ko'zga tashlanadi. O'spirinning o'quv mashg'ulotiga munosabati o'z xususiyati va mazmuni jihatidan boshqa yoshdagi o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi munosabatidan tubdan farq qiladi. Ular voyaga yetib boradilar, ularning tajribasi ortadi; ular mustaqil hayot bo'sag'asida turganliklarini anglaydilar. O'quvchilarning o'qishga ongli qarashi kuchayadi, bu qarash bevosita hayotiy ma'no kasb etadi. Ilk o'spirinlar jamiyatning kelajakdagi mehnat hayotida to'laqonli ishtirok etishning zaruriy sharti bilim, ko'nikma va malakalarning mavjud fondi ekanligini, hosil qilingan mustaqil bilim egallash ko'nikmalari ekanligini aniq ravshan his qiladilar. Bilimlarga ehtiyoj sezish hozirgi vaqtda ilk o'spirinlarning xarakterli xususiyatlaridan biridir. O'quv rejasi va dasturning murakkablashuvi, yangi fan va mavzularning kiritilishi, o'zlashtirilishi nazariy tafakkur yordamida amalga oshirishni taqozo etadi. Ana shundan kelib chiqqan holda, o'quvchilarning o'qishga munosabati ham o'zgaradi, ular ayrim fanlarga tanlab munosabatda bo'la boshlaydilar. O'spirinlik davrida bilishga oid qiziqish ko'lami tobora amaliy xususiyat kasb eta boshlaydi. Jumladan, ijtimoiy-siyosiy masalalarga, texnika, tabiatga, osmon jismlariga, sport va hokazolarga qiziqishi kuchayadi. O'spirinlarda sezgirlik, kuzatuvchanlik yanada takomillashib boradi, mantiqiy xotirasi, esda olib qolishining oqilona yo'li sifatida ta'lim jarayonida yetakchi vazifani ado eta boshlaydi. Mazkur pallada o'spirinlarning tafakkuri tobora mantiqiy, faol, mustaqil va ijodiy xususiyat kasb eta boshlaydi. Tafakkur rivojlanishi bilan birgalikda o'quvchilarning nutq madaniyati rivojlanadi. O'spirin turli janrdagi adabiy asarlarni o'qishi, tushunishi orqali mustaqil fikr yuritish, mulohaza qilish va munozaraga kirishish, nazariy fikrlash hamda o'z-o'zini tahlil qilishga o'rganib boradi. O'spirinlik tafakkurining sifatiga uning mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustaqilligi, samaradorligi,

tezligi kabilar kiradi. Tafakkurning mazmundorligi deganda, o'spirin ongida tevarak-atrofdagi voqelik to'g'risida qancha miqdorda mulohazalar, muhokamalar va tushunchalar joy olganligi nazarda tutiladi. Tafakkurning chuqurligi deganda esa, moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning asosiy qonunlari, xossalari, sifatlari, ularning o'zaro bog'lanish va munosabatlari o'spirinning fikrlash faoliyatida to'liq aks etganligi tushuniladi. Tafakkurning kengligi o'zining mazmundorligi va chuqurligi sifatlari bilan bog'liq bo'ladi. Tafakkurning mustaqilligi deganda o'spirinning shaxsiy tashabbusi bilan o'z oldiga yangi vazifalar qo'ya bilishi, bu vazifalarni hech kimning yordamisiz, oqilona usullar bilan mustaqil hal qilish xususiyatini tushunish kerak. Tafakkurning tezligi qo'yilgan savolga to'liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi. Ayrim qiz va yigitlar aqliy rivojlanishdan orqada bo'lib, o'quv materiallarini o'zlashtirishga ulgurmaydilar yoki qiynaladilar, ular tevarak-atrofdagi voqelikni bilib olish maqsadida umumlashtiruvchi tushunchalardan foydalanishni bilmaydilar, chunki bu tushunchalar, xulosalar, fikrlar, hodisa va faktlarni yodlab oladilar. Bolalarni aqliy jihatdan rivojlantirish uchun o'qish faoliyatlarida faollashtirish va ularning bilimlarini ongli ravishda o'stirib borish kerak. Ta'limda onglilik o'quvchining yuqori darajadagi faolligi bilan ta'minlanadi. Bilimlarini faol faoliyat ko'rsatib o'zlashtirganda, o'quvchilar bu bilimlarni yaxshi tushunibgina qolmay, ularni amaliy faoliyatda qo'llashga ham o'rganadilar. O'quvchilarga ijtimoiy masalalar, iqtisodiy hamda ijtimoiy faktlar va hodisalarni mustaqil ravishda ilmiy tahlil qilish va ularga baho berish usullarini maxsus o'rgatish muhim va zarurdir. Bu o'rinda o'quvchilarning mustaqil fikrlashlarini faollashtirishga, to'g'ri rahbarlik qilgan holda rivojlantirish lozim. O'spirinlarning aqliy jihatdan rivojlanishida nazariy tafakkurning roli kattadir. O'spirin adabiy asarlarni o'qish va tushuntirish orqali mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish va munozaralarga kirishishga o'rgana boradi. Unda asta-sekin tabiat va jamiyat haqida o'zining nuqtayi nazari, e'tiqodi, qarashi shakllanadi. Ma'lumki, shaxsning ana shu fazilatlarini uning fikrlashi, mustaqil o'ylashi, to'g'ri hukm va xulosalar chiqarishi, qat'iy qarorga kela olishi natijasidir. O'spirinlarning adabiy asarni baholashi, u haqda shaxsiy fikrlarni bildirishi, muammo yuzasidan bahslashuvi insoniy xislatlarning muayyan darajada ishtirok etishi tanqidiy tafakkurning aynan o'zginasidir. Turmushda uchraydigan noo'rin tanqidiylik esa o'spirinning badiiy didi va hayotiy tajribasi zaifligidir. O'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilar tafakkuridagi tanqidiylikni haqqoniylik darajasiga ko'tarishdan, ularga voqelikka odilona, oqilona, tanqidiy nuqtayi nazardan qarashni o'rgatishdan iborat. O'spirinlarda moddiy dunyo to'g'risida shaxsiy fikrlar, mulohazalar, ilmiy dunyoqarash tarkib topganidan keyingina tafakkurning tanqidiylik xususiyati rivojlana boshlaydi. Tanqidiy tafakkurning rivojlanishi o'quv

materiallarini puxta o'zlashtirishga, ta'lim jarayonida tashabbuskorlikka, voqelikni isbotlash va asoslash ko'nikmalari tarkib topishiga imkon yaratadi. Hodisalar to'g'risida hukm va xulosa chiqarish, tasdiqlash yoki inkor qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'spirinning qobiliyati va iste'dodi ta'lim jarayonida, mehnat faoliyatida rivojlanadi. Qobiliyatning o'sishi bilimlar, ko'nikmalar, malakalarning sifatiga bog'liq bo'lib, shaxsning kamol topish jarayoniga qo'shib ketadi. Demak, maktabda o'tiladigan, darslar, laboratoriya ishlari, amaliy mashg'ulotlar, referat, konspekt yozish kabi faoliyat turlari o'spirinlar o'zlashtirish uchun zarur materiallarni mustaqil holda tushunishga olib keladi. Shaxsning bilish jarayonlari uning emotsiyalari bilan bog'liq. O'smirlik davridagi kuchli emotsional reaksiyalar garmonal va fiziologik jarayonlarga bog'liq. O'smir va o'spirinlardagi emotsional reaksiyalar faqat garmonal o'zgarishlarga bog'liq bo'lib qolmay, balki ijtimoiy omillar va tarbiya sharoitlari, individual-tipologik farqlarga ham bog'liq. Katta bo'lishdagi psixologik qiyinchiliklar, "Men" obrazi va intilish darajasi orasidagi qarama-qarshilik kabi o'smirlarga xos bo'lgan emotsional zo'riqish, ilk o'spirinlik davrida ham saqlanib qoladi. Shunday qilib, ilk o'spirinlarning emotsiyalari, intellekt singari aniq qo'zg'atuvchi bu sinaluvchi uchun qanday ahamiyatga egaligini hisobga olmasdan o'lchash mumkin emas. İlk o'spirinlik davridagi emotsional qiyinchilik va muammolarni aniq qarab chiqish lozim, chunki ularning kelib chiqish sabablari har xil. O'smirlik davridagi dismorfofobiya — o'z tanasi va tashqi ko'rinishidan tashvishlanish ilk o'spirinlik davrida o'tib ketadi. İlk o'spirinlarda namoyon bo'ladigan xavotirlanish belgilari bu yoshdagi maxsus qiyinchiliklarga reaksiya emas, balki ilgari olingan ruhiy jarohatlanishning keyin namoyon bo'lishidir. Ko'pchilikda o'smirlikdan ilk o'spirinlikka o'tishda muloqotchanlik va umumiy emotsional kayfiyat yaxshilanadi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Shunday qilib, xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, ilk o'spirinlik yoshi emotsional holatlarni ifodalash usullari va emotsional reaksiyalarning differensiallashishini hamda o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini boshqarishning ortishini kuzatish mumkin. İlk o'spirinlarning kayfiyati o'smirlarga nisbatan barqaror va anglangan hamda ijtimoiy sharoitning keng doirasiga mos bo'ladi. Doimo hissiyot vujudga keltiradigan shaxsiy muhim munosabatlar doirasining kengayishi oliy hislarning rivojlanishida namoyon bo'ladi. Axloqiy norma va tamoyillarning ma'lum tizimini o'zlashtirish jamiyat va boshqa odamlar oldida mas'uliyat hissi, hamdardlik qobiliyati, do'stlik va muhabbat ehtiyoji, o'rtoqlik hissi va axloqiy-siyosiy hislar kabi yuksak axloqiy hislarga aylanadi. İlk o'spirin tomonidan qabul qilingan xulq-atvor normalarining buzilishi unda aybdorlik hissini vujudga keltiradi. Shu bilan birga unda



estetik hislar doirasi ham kengayadi. Ilk o‘spirinlarda intellektning rivojlanishi bilan birga hazil-mutoyiba hissining ham rivojlanishini ta’kidlash joiz. Intellektual va praksis hislar ham sezilarli rivojlanadi. Sodda bolalarcha qiziquvchanlik tafakkur jarayonidan ongli zavqlanish, qiyinchiliklarni yengishdan quvonish, ijodga ongli intilish va boshqalarga aylanadi. Shunga ko‘ra har kim qobiliyatiga yarasha kasb-hunar tanlasa, bu sohada muvaffaqiyatli mehnat qilsa, ijtimoiy turmush taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shgan bo‘ladi. O‘spirinlar u yoki bu kasbni o‘z ixtiyorlari bilan ongli ravishda tanlashlari uchun ular mustaqillik, dadillik, qat’iylik, o‘zini tuta bilish, chidamlilik, sabr-toqat kabi irodaviy xislatlarga ega bo‘lishlari kerak. Mehnat qilishda muqaddas burchni bajarish istagi, maqsadning aniqligi, hunar o‘rganishga ishtiyoqmandlik mazkur fazilatlarining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘spirinlar aqliy rivojlanishida tasavvurning ahamiyati juda katta, chunki inson biron-bir ishni qilishga kirishar ekan, albatta uning natijasini tasavvur eta olishi kerak. Tasavvursiz hech qanday ishni to‘g‘ri rejalashtirish mumkin emas. O‘spirinda tasavvur qila olish layoqati yaxshi rivojlangan bo‘lsagina, u o‘z hayotidagi idealni tasavvur eta oladi, shunga ko‘ra uzoq va yaqin rejalarini tuzadi. Hozirgi yigit va qizlarni 30—40 yil avvalgi tengqurlari bilan solishtirganda, ularning umumiy saviyalari naqadar o‘sganligini ko‘rish mumkin. O‘spirinlarning intellektual qiziqishlari doirasi keng va ko‘p qirralidir. O‘spirinlarning qiziqishlari aksariyat hollarda o‘zi tanlagan kasb va yo‘nalish, shuningdek, hayotiy rejalariga asoslangandir. O‘spirinlik yoshiga kelib, yigit va qizlarning dunyoqarashlari yuksak pog‘onaga ko‘tarila boshlaydi. Bu esa o‘spirinning tashqi olamni tushunishiga, baholashiga bo‘lgan munosabatlarini aniqlashga yordam beradi. O‘spirinlarning dunyoqarashi endi ularning ilmiy, falsafiy, siyosiy va diniy qarashlari tizimidan iboratdir. Ma’lum bir kasbda faoliyat ko‘rsatishni boshlayotgan o‘spirin unga intellektual, ijtimoiy-psixologik hamda axloqiy jihatdan tayyor bo‘lishi kerak. O‘smirlik davrining oxirlari va o‘spirinlik yoshiga kelib, ularda mehnat ko‘nikma va malakalari rivojlanadi. Bu ko‘nikma va malakalari ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatlari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq. Har qanday kasbiy ko‘nikma va malakalarning o‘sishi, avvalo, o‘spirin intellektining umumiy rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. Shuning uchun ham bu davrdagi o‘spirinlar intellektning rivojlanishiga alohida e’tibor berish lozim. O‘zining kasbiy taqdirini tasodifan yoki noto‘g‘ri hal etilishi murakkab ichki kechinmalarga, ikkilanishlarga, ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Bu esa yigit va qiz hayoti uchun ham, jamiyat uchun ham katta zarar keltiradi. Kasb tanlash vaqtida ilk o‘spirinlar o‘z moyilligi va qobiliyatlarini shaxsiy sifatlar, xususan, nerv sistemasining tipi, analizatorlar xususiyati emotsional-irodaviy sifatlarini ham hisobga olishlari zarur.

## REFERENCES

1. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O'zbekiston, 2020.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O'zbekiston, 2017.
3. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogik psixologiya». — T.: TDPU. 2009.
4. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibayeva R.N. Mustaqil fikrlash. — T.: Sharq. 2000.
5. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. — T.: Fan. 2003.
6. Халперн Д. Психология критического мышления. Питер. 2000.
7. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
8. Югай А.Х., Мираширова Н.А. “Общая психология” – Ташкент 2014.
9. Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.
10. Sulaymonov, J. B. (2021). IBN XALDUNNING „MUQADDIMA “ASARIDA JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 732-737.
11. Sulaymonov, J. B. (2021). ABU ZAYD ABDURAHMON IBN XALDUNNING „MUQADDIMA “ASARIDA DAVLAT TUSHUNCHASIGA YONDASHUVLAR TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(6), 9-14.
12. Sulaymonov, J. B. (2022). ABDURAHMON IBN XALDUN AXLOQIY QARASHLARI VA SARVAPALLI RADHAKRISHNAN AXLOQIY QARASHLARINING QIYOSIY JIHATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 25), 363-373.
13. Сулаймонов, Ж. (2021). АБДУРАХМОН ИБН ХАЛДУННИНГ ТАМАДДУН ТАРАҚҚИЁТИ ҲАҚИДАГИ ҚАРАШЛАРИДА ЖАМИЯТ ТАҲЛИЛИ. *Academic research in educational sciences*, 2(Special Issue 1), 451-455.
14. Сулаймонов, Ж. Б. (2022). ИБН ХАЛДУН ҚАРАШЛАРИДА “ТААССУБ” КАТЕГОРИЯСИНИНГ АҲАМИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 23), 864-871.
15. Сулаймонов, Ж. Б. (2022). АБДУРАХМОН ИБН ХАЛДУН ИЖТИМОЙ ҚАРАШЛАРИ ВА ЛИ ЮЛГОК ИЖТИМОЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ ЖИҲАТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 1477-1483.

## **IJTIMOYILASHUV MUAMMOSI SIFATIDA BOLA PSIXIK RIVOJLANISHINING IJTIMOY O'RGANISH NAZARIYASI**

**Hamroyeva Zilola Hurmamatovna**

Navoiy viloyati Xatirchi tumani

65-umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada ijtimoiylashuv — biologik mavjudot ya'ni go'dakning tamomila oila, guruh umuman olganda insoniyat jamiyatini to'laqonli a'zosiga asta-sekin aylanish jarayoni sifatida, yangi ijtimoiy xulq-atvorni egallash jarayoni sifatida talqin qilinadi. Xulq-atvorning umumiy nazariyasi xulq-atvor namunalari qanday tarzda o'zlashtirilishini va ularning namoyon bo'lishi o'zaro aloqada bo'lgan tashqi va ichki ta'sir manbalari tomonidan qay tarzda doimo boshqarilishi izohlanadi.*

**Kalit so'zlar:** *Pedagogika, psixologiya, ijtimoiy o'rganish, ijtimoiylashuv, ijtimoiy tasavvurlar, shaxslararo moslik.*

## **SOCIAL LEARNING THEORY OF CHILD PSYCHOLOGICAL DEVELOPMENT AS A PROBLEM OF SOCIALIZATION**

**Hamroyeva Zilola Hurmamatovna**

Practitioner psychologist of the 65th comprehensive school of

Khatirchi district of Navoi region

### **ABSTRACT**

*In this article, socialization is interpreted as a process of gradual transformation of a biological being, i.e. a baby, into a full-fledged member of the whole family, group, human society, as well as the process of acquiring new social behavior. A general theory of behavior explains how patterns of behavior are acquired and how their manifestation is constantly controlled by interacting external and internal sources of influence.*

**Keywords:** *Pedagogy, psychology, social learning, socialization, social perceptions, interpersonal compatibility.*

## **СОЦИАЛЬНАЯ ТЕОРИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ КАК ПРОБЛЕМА СОЦИАЛИЗАЦИИ**

**Хамроева Зилола Хурмаматовна**

Практический психолог 65-й общеобразовательной школы

Хатырчинского района Навоийской области

## **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье социализация трактуется как процесс постепенного превращения биологического существа, то есть младенца, в полноценного члена всей семьи, группы, человеческого общества, а также процесс приобретения нового социального поведения. Общая теория поведения объясняет, как приобретаются модели поведения и как их проявление постоянно контролируется взаимодействующими внешними и внутренними источниками влияния.*

***Ключевые слова:** педагогика, психология, социальное обучение, социализация, социальные представления, межличностная совместимость.*

## **KIRISH**

Ijtimoiy o'rganish ta'limotining markaziy muammosi sifatida ijtimoiylashuv Amerikada XX asrning 30-yillari oxirida ijtimoiy o'rganishning kuchli psixologik yo'nalishi yuzaga kelgan. Ijtimoiy o'qitish sohasida anchadan beri tadqiqotchilarning bir necha avlodi ishlab kelishmoqda. Bu avlodlar amerika psixologiyasining o'zida ajratib ko'rsatilgan. Birinchi avlod (XX asrning 30—60-yillari) - N.Miller, D.Dollard, R.Sirs, B.Uovayting, B.Skinner, bu tadqiqotchilarni hali bixeviorizm ham ijtimoiy o'qitish nazariyasiga kiritadilar. Ikkinchi avlod (60—70-yil) — A.Bandura, R.Uoters, S.Biju, D. Gevirt va boshqalar. Uchinchi avlod (70-yildan boshlab) V.Xartup, E.Makkobi, D.Aronfrid, U.Branfenbrener va boshqalar. N.Miller va D.Dollard ijtimoiy o'qitish yo'nalishining birinchi namoyandalari bo'lib, bixevioral o'qitishning asosiy tamoyillarini psixoanalitik nazariyaning ba'zi holat va g'oyalari bilan to'ldirishga harakat qilganlar. Empirik asos sifatida ular ham bola va hayvonlar xulq-atvorining eksperimental o'rgatish ma'lumotlarini ayniqsa nevrotiklar xulq-atvoriga oid boy klinik ma'lumotlarni qo'llash mumkin deb hisoblaganlar. Eksperimental xulq-atvorga o'rgatishda boshqaning (modelning) harakatini kuzatishning ahamiyati ko'rsatilgan, bu yangi reaksiyani paydo bo'lgunga qadar vaqtni qisqartirishda, sinov va xatolar sonining kamayishida ifodalaydi. Klassik bixeviorizm nazariyachilaridan farqli ravishda ijtimoiy o'qitish nazariyasi xulq-atvorda ichki motivatsiyaning rolini tan olib avvalo uning qo'zg'atuvchi funksiyasining muhimligini ta'kidlaydilar, ular organik ehtiyojlardan kelib chiquvchi (ochlik, suvsizlik, og'riq) birlamchi qo'zg'atuvchilarni jahl, ayb, harakatlarga ehtiyoj, qo'rquv, xavotirlanish ikkimlamchi qo'zg'atuvchilarni ajratganlar. Psixoanalizda xulq-atvorning asosiy boshqaruvchisi qoniqish tamoyili ular tomonidan qo'llab-quvvatlash tamoyiliga (rag'batlantirish) o'zgartirilgan.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lim to'g'risida qonun, Sh.Mirziyoev asarlari, mavzuga doir adabiyotlar hamda internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo'llanildi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Dastlab ijtimoiy o'rgatish nazariyasi qat'iy obyektiv (pozitiv) empirik bilimlarni egallash metodlarini ishlab chiqishga yaqqol ifodalangan yo'nalganlik bilan salbiy va ijobiy falsafiy asosga qurilgan. Psixologik tadqiqot metodologiyasi rejalashtirishning puxtaligini ma'lumotlarni qayd etishning tizimligini bog'liq va bog'liq bo'lmagan o'zgaruvchilarni nazorat qilish va o'zlashtirishni miqdoriy baholashning mumkinligi talab qiladi. Individda xulq-atvor namunalari rollar, me'yorlar motivlar, kutuvlar, hayotiy qadriyatlar, emotsiyalarni o'tkazish orqali individning ijtimoiy xulq-atvorini hayotiy shakllantirishni ifodalash uchun N.Miller va D.Dollard tomonidan ijtimoiy o'rgatish atamasi kiritilgan edi. Ushbu ilmiy yo'nalish vazifalarini uning nazariy yetakchisi Bandura shunday shakllantirgan. XX asrning ikkinchi yarmida Amerika psixologiyasini rivojlanishi uchun ijtimoiylashuv muammosini asosiy deb hisoblash mumkin. Jamiyat bolalarni umum qabul qilingan me'yoriy muammolar bilan muvofiqlikda o'zlarida tutishlariga undashda qo'llaydigan mexanizmlar ya'ni usullarni yetilishi esa uning bosh maqsadidir. Ijtimoiy o'qitish nazariyasi psixoanalizda (misol uchun antogonizm haqidagi dastlabki tezis, bola va jamiyatning qarama-qarshiligi) ba'zi bir holatlarni qabul qilib o'zlashtirgan va ularni o'rgatishning bixevioristik tamoyillari bilan bog'langan. Ijtimoiy o'qitish yo'nalishi nazariyasining butun bir spektridan iborat. O'qitishning aniq mexanizmlariga yondashuvlarda nazariya mualliflarining qarashlari farqlanadi, biroq ijtimoiy xulq-atvorga o'rgatish g'oyasi ahamiyatini butunlay qo'llab-quvvatlaydilar. O'tgan asrning 40—50-yillarida manipulyativ laboratoriya eksperimenti tadqiqotning hukmron metodi bo'ldi. Ijtimoiy o'rgatishda bolalik o'tib ketuvchi nevroz bilan qiyoslanganda xulq-atvor buzilishi va qayta yo'naltirish davri sifatiga tushunilgan. Bu tushunchalardan kelib chiqib, bolani ijtimoiylashtirishi uchun ota-onaning vazifasi quyidagilardan iborat bo'lgan: ovqatlantirish, tuvakka o'rgatish, bolada agressiyaning namoyon bo'lishi, uni jinsiy identifikatsiyasi va me'yoriy xulq-atvorning boshqa xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan yosh davriga oid muammolarni bartaraf qilish.

Kuzatish, taqlid qilish orqali o'rgatish fenomeni Murakkab ijtimoiy xulq-atvorning egallanishini izohlash uchun operant va respondent o'rgatish mexanizmlari yetarli emas.



Javob topish jarayonida, birlamchi ahamiyatni o'rgatishning o'ziga xos tipivizual o'rgatishga yoki kuzatish yordamida o'rgatishga qarata boshlaganlar. Albert Banduraning 1960-yillardagi erta ishlari bixeviorizmga o'rganishning kognitiv modellari uchun ko'priklardan biri hisoblanadi. Bunda kuzatish o'rganish jarayoni bo'lib, hech qanday o'quv faoliyatisiz amalga oshadi, kuzatilayotgan model esa hatto kuzatuvchi uchun taqlid manbayi bo'layotganini sezmasligi ham mumkin.

1. A. Bandura 1925-yilda o'rgatishning bunday usulini ijtimoiy kognitiv deb nomlagan. Kognitiv o'rgatish o'rgatilayotganning birm uncha katta faolligini nazarda tutadi, individ o'rgatiluvchiga aylanadi, deb ham aytish mumkin. U o'zining harakatlari oqibatini kuzatadi, ulardan qay biri o'zining natijasiga ko'ra muvaffaqiyatli, qay biri keraksiz yoki zararli ekanligini qayd qiladi va eslab qoladi. Bundan tashqari o'rgatish, biror-bir aktda harakatda to'g'ridan to'g'ri ishtirokni qat'iy majburiy talab qilmaydi, model xulq-atvorining kuzatuvchisi bo'lishni o'zi yetarlidir. Oqibatda xulq-atvor namunasi qaytadan ishlab chiqiladigan inson. Bu holatda inson boshqaning harakatlarini ko'zga ko'rinadigan oqibatlariga tayanishi mumkin ma'lumot axborot olish va o'z xulq-atvorini kuzatishi xulq-atvorning ma'lum bir shakliga harakatning kognitiv obraziga bixevioral moyillikni yaratadi. Xulq-atvor modeliga amal qilish kodlangan axborot ma'lumotga tayangan holda sodir bo'ladi. Agressiyani moyillashtirish sharoitlarini o'rganish ijtimoiy o'rgatish nazariyasining tayanch mavzularidan biridir. Ijtimoiylashuv tushunchasi favqulotda keng va ko'p qirralidir, har bir madaniyatda jamiyatning tarkibiy a'zosini sifat va bilishga o'z talablari mavjud. Biroq, xulq-atvorning ba'zi ko'rinishlari ko'proq universal umumiy rol o'ynaydi? Hamkorlik, o'zaro yordam, altruistik xulq-atvor, agressiyaning maqbul shakllari hayotning bunday jihatlarga o'rganish har qanday ham jamiyatda mutlaqo zarurdir. A. Bandura bolalar va o'spirinlardagi agressiyaning laboratoriya va dala tadqiqotlarini o'tkazgan. Masalan, bir qator eksperimental tadqiqotlarda 4 yoshli bolalar guruhiga modellar uchun turli oqibatlarga olib keluvchi rag'batlantirish yoki jazolash, zo'ravon xulq-atvor namunalarini ifodalovchi filmlar namoyish etilgan. Katta yoshdagi odam ishirilgan rezinka qo'g'irchoqni mushtlari bilan urib. uning sha'niga qo'pol luqma tashlagan, so'ngra uni taqdirlashgan, shirinlik bilan mehmon qilishgan yoki urishishgan, koyiganlar, filmdan so'ng bolalarga filmda ishtirok etgan o'yinchoqlarni mustaqil o'ynash imkoniyati berilgan. Natija shuni ko'rsatdiki, agressiv obrazli taqdirlangan odam modeli ishtirok etgan filmni ko'rgan bolalarda agressiv xulq-atvor darajasi yuqori bo'lgan. Manipulyativ eksperimental tadqiqotlar doirasida bola xulq-atvoriga tobe o'zgaruvchi modelining turli xarakteristikalarini ta'siri mustaqil o'zgaruvchi o'rganilgan. Model xarakteristikasini turlarga tavsiflash jinsi, yoshi, etnik mansubligi obro'-e'tibori hokimlik va pulga

munosabati sinaluvchi kuzatuvchilarning xulq-atvor strategiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi bir qator omillarni aniqlash imkonini berdi. Qo'llab-quvvatlash taqlid qilish asosida yuzaga kelgan xulq-atvorni saqlash uchun zarur. O'tmishdagi xulq-atvorni bevosita tashqi qo'llab-quvvatlash qo'zg'atuvchi va axborot funksiyasini bajaradi. A.Bandura bilvosita qo'llab-quvvatlash, ya'ni modelni rag'batlantirishni kuzatish va o'z-o'zini qo'llab-quvvatlashning o'z xulq-atvorini ijobiy baholash xuddi shunday ahamiyatini e'tirof etgan. Shunday qilib, Skinner talqini bo'yicha agar radikal keskin, qat'iy bixeviorizm, xulq-atvor stimullar termini va qo'llab-quvvatlovchi oqibatlar orqali tushuntirilishini tasdiqlasa, A.Bandura nuqtayi nazarida esa xulq-atvorning tashqi holatli omillarning o'zaro determinizmida, masalan, rag'batlantirish va jazolash va ichki kognitiv ketish, ong, idrok qilish, qabul qilish haqida gapirish lozim. Modelni kuzatish qaysi xulq-atvor to'g'ri va u qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqida xulosa qilish imkonini beradi, biroq ko'plab murakkab xulq-atvor aktlariga o'rgatishni tushuntirish uchun velosipedda yurish, xirurgik operatsiyalarni bajarish imitatsiya, taqlid qilish, o'xshatish mexanizmi yetarli emas. A.Bandura faqatgina kuzatuv orqali yangi xulq-atvor aktiga o'rganish mumkin emasligi haqidagi qarshilikni e'tirozni hisobga olgan. O'zining ijtimoiy o'rgatish nazariyasi nomli asarida u S-R chizmasiga qanday qilib modelning taqlidi subyektda yangi xulq-atvor aktini shakllanishiga olib kelishini tushuntirish uchun zarur bo'lgan 4 oraliq jarayonni kiritgan kuzatish orqali o'rgatish komponentlari diqqat jarayonlari, saqlab qolish, harakat ijrosi va motivatsiya quyidagilar bilan aniqlanadi:1.

1. Modelga diqqatni qaratish va tushunish anglash quyidagilar bilan aniqlanadi; model xususiyatlari ijtimoiy xarakteristika, obro'-e'tiborning namoyon bo'lishi, kompetentlik, shaxsiy jozibadorlik; harakat namunasining xarakteristikalari funksional amaliy ahamiyati. yangiligi, zaruriyati; avvalgi qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq bo'lgan kuzatuvchining o'zini sensor qobiliyati perseptiv ustanovkasi va motivatsiyalari.

2. Modelning eslab qolib, saqlab qo'yishi kognitiv tashkil etish, obrazli va verbal kodlashtirish yordamida amalga oshiriladi.

3. Motorli reproduktiv jarayonlar xotirada ramziy kodlashtirilgan ma'lum otlarni, muvofiq bo'lgan harakatlarga, real xulq-atvorga o'tkazishni amalga oshiradi. Ushbu aniq muvozanatlashgan harakatlarga o'rganish mumkin va zarur jismoniy qobiliyati, teskari aloqa aniqligi inobatga olinadi.

4. Motivatsion jarayonlar qo'llab-quvvatlashni o'zgarish xarakteri bilan bog'liq bo'lgan kuzatishdan real xulq-atvorda model ijrosiga o'tish sodir bo'lishini aniqlaydi, tashqi bilvosita o'z-o'zini qo'llab-quvvatlash. A.Bandura ijtimoiy kognitiv o'rgatishni murakkablik darajasi bo'yicha bir qancha turli ko'rinishlarini tavsiflagan modelning

oddiy taqlidi, imitatsiya, o'xshatish, nusxa olish, ma'lum bir harakatlarning o'tkazilishini, uzatilishini ta'minlaydi. Shirinlik bilan mehmon qilish, ko'rishganda salomlashmoq, mavhum modellashtirish orqali kuzatuvchi o'zining aniq namunalar doirasidan chetga chiquvchi xulq-atvorini tartibga soladi. Mavhum abstrakt modellashtirish ongli tafakkurga asoslanadi, qachonki kuzatuvchi tashqi turli reaksiyalardan umumiy qirralarni ajratib olib, tam oyillarni aniqlaganda qoidalarni shakllantiradi. Bunday tarzda xulq-atvor nutqning ma'lum bir uslubi tuzilishi mumkin mehribon, xayrixoh, muloqotchan yoki qaysar, agressiv, berahm inson bo'lish ijtimoiy o'rgatishni birmuncha darajada murakkab ko'rinishi kreativ ijodiy modellashtirish ta'sirning turli manbalarini innovatsion sintezi natijasi sifatida ijod elementlarini qamrab oladi. 1980-yillar o'rtalaridan boshlab A.Bandura ko'p e'tiborini aynan rivojlanishning ichki omillariga qaratadi, o'z-o'zini baholash, nazorat qilish, muvaffaqiyat garchi modellashtirish uning ishlarini muhim mavzusi bo'lib qolishda davom etsada, u shaxs shakllanishi va o'zgarishini tushuntirish uchun shaxs mahsuldorligining kognitiv mexanizmini taklif qilgan.

Ijtimoiy o'rgatish yo'nalishining boshqa vakili R.Sirs ota-ona va farzand munosabatlarini o'rgangan. R.Sirs ilk bolalik davridagi har bir bola xulq-atvorini ona va bola xulq-atvori birligini ifodalovchi o'ziga xos diadik birlik ichida keluvchi davr sifatida ko'rib chiqishni muhim deb hisoblagan. U bolaning rivojlanishiga ota-onaning ta'sirini amalga oshiruvchi vosita bo'lgan mexanizmi tushuntirish uchun o'rgatish nazariyasi doirasida psixoanalitik atamalarni yengish, regressiya, identifikatsiya qo'llagan. R.Sirs tomonidan bolaning rivojlanishida xulq-atvorning umumiy motivatsiyasi xarakteriga ko'ra farqlanuvchi uchta yoshga bog'liq faza ajratilgan. R.Sirs bo'yicha xulq-atvor shakllanishi motivatsiyasi hayoti davomida orttirilgan hosil bo'lgan ehtiyojlar – tobelik yoki qaramlik bevosita bog'liqlikda bo'ladi. Boshlang'ich fazada bola o'zining organik sezgisiga yuklangan va autik bo'lgan. Biologik ehtiyojlarni qondirilishi, ochlik va chanqovni qondirmoq, sovuqlik va og'riqdan xalos bo'lish onaning harakatlari bilan bolani bog'laydi, bu birinchi o'rgatish tajribasini tashkil etadi. Bunday tarzda onaga tobelik bog'liqlik tug'iladi. Bola ijtimoiylashuvni boshlanishi diadik o'zaro ta'sirni ortganligini unga kim g'amxo'rlik ko'rsatayotgan bo'lsa ular bilan birlamchi harakatini ko'rsatadi. Maktabgacha tarbiya yoshida bolaga birmuncha darajada yetukroq xulq-atvorni shakllantirishga yordam berib, quvvatlashning asosiy vakili sifatida namoyon bo'luvchi ona-ota, oilaning boshqa a'zolari muhim ta'sir ko'rsatadi. Bola o'quvchi oila a'zolaridan kamroq darajada qaram bo'ladi. Shu o'rinda uni o'qituvchi tengqurlari do'stlaridan qaramligi ortadi. Tobe qaram xulq-atvorning xarakterli shakllari ilk bolalik davrida shakllanadi, ular ba'zan hayot davomida o'rganiladi,

mustahkamlanadi va saqlab qo'yiladi. Ular orasida diqqat bilan qidirish, sening ish va yumushlaringda boshqa insonning ishtirokini ta'minlashga intilish, yordam so'rab murojaat qilish, ushlab turish va fazoviy yonida bo'lish yaqinlikka intilish va boshqalarni kiritish mumkin. Juda kuchsiz qaramlik adekvat ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirish uchun zarur bo'lgan motivatsion bazalarni ta'minlay olmasa, juda kuchli qarshilik esa individni shaxsiy motivatsiyasiga o'tishga, mustaqil, erkin bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Ota-onalarning bola bilan o'zaro ta'sirda bo'lish uslubi rag'batlantirish va jazolash nuqtayi nazari bilan uyg'unlashgan, juda chuqur o'ylangan bo'lishi kerak. Shuningdek, D.Gevirts yetuklik va go'daklik yoshidagilarning ijtimoiy motivatsiyasi va qaramligini yuzaga kelish shartlarini o'rgangan. Uning yondashuvini yangiligi shundaki, unda bolaning xulq-atvori ota-ona xulq-atvoriga quvvatlovchi ta'sir manbasi sifatida talqin qilingan. Ota-ona rag'batlantirish va jazolash tizimlarini qo'llagan holda o'z farzandining xulq-atvorini shakllantiradi, lekin bola hatto go'dak chaqaloq ham jilmayish, kulish, yig'lash vokalizatsiyani namoyish etib, ota-onasida turli xil ko'rinishdagi xulq-atvorini shakllantirishi va nazorat qilishi mumkin. R.Sirsning ota-ona va farzand munosabatini asosi sifatidagi diadik tamoyili haqidagi g'oyalari keyinchalik qayta ishlab chiqilgan. Ijtimoiy xulq-atvor har qanday xulq-atvorning umumiy qonuniyatlariga bo'ysunadi, biroq muhitning stimulli qo'zg'atuvchi, rag'batlantiruvchi ta'siri boshqa odamlar xulq-atvori bilan asoslanadi. D.Gevirts aniq bir bola uchun u yoki bu stimullarning ta'sirchanligi xususidagi masalani alohida ta'kidlaydi. Bolaning individual rivojlanishida aynan bir xil stimullar ham turli qo'zg'atuvchi kuchga ega bo'lishi mumkin. Ijtimoiy-motivatsion rolni bajarish uchun stimulyatsiya qo'zg'atuvchi rag'bat ahamiyatli funksional bo'lishi kerak. Muntazam ravishdagi tanbeh, pand-nasihat bolaning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatmay qo'yadi.

1. Bolaning psixologik tabiati haqidagi tasavvurlarning o'zgarishi. Shunday qilib, XX asrning ikkinchi yarmida amerika psixologiyasida rivojlanish asta-sekin bolaning psixologik tabiati haqidagi tasavvurlarga o'zgaradi. Bola nafaqat o'z atrofidagilarning ta'sirini his qiluvchi, balki o'zi ham ularga ta'sir ko'rsatuvchi, ya'ni o'zaro aloqa bo'yicha ham korsubjekt sifatida faol mavjudot sifatida ko'rib chiqila boshlandi. Yangi yondashuvning ayrim jihatlari A.Bandura va D.Gevirts g'oyalarida ifodalandi, chunonchi, masalan, hayotning ilk bosqichlarini mustaqil ravishda kuzatish orqali o'rgatish haqiqiy amaliyligini, xulq-atvor harakatlari tuzilishida ichki kogniuv o'zgaruvchilarni ajratishni, ichki quvvatlovchi javoblar ahamiyatini e'tirof etgan. XX asrning 70-yillari o'rtalariga kelib, psixika ontogenezini tadqiq qilish uchun ijtimoiy o'rgatish nazariyasi va manipulyativ eksperiment metodidagi asosiy qiyinchilik yo'nalishning o'zini ichida aniq bo'ldi:

— ma'lum otlar aniqligi va to'g'riligiga urinishda qidiruv eksperimentidan voz kechish yuz berdi, eksperimental metod o'zo'zidan ma'lum bo'lgan faraz bilan laboratoriya testlariga muvofiqlashtirishdi;

— ko'pincha laboratoriya eksperimenti sun'iy xarakter kasb etgan real hayotiy muammolardan ajratib olingan va bolaning psixik rivojlanish jarayonlarini tushunish uchun yaroqsiz amaliyot talablariga javob bera olmaydi:

— tadqiqot natijalari yoshga bog'liq tafovutlar va kishilar xarakteristikalarini qayd etishni o'zida namoyon etgan, lekin ularning yordami bilan rivojlanish sabablarini va shartlarini aniqlab bo'lmagan — ko'p takrorlanuvchi empirik ma'lumotlarda tushunchani umumlashtiruvchilari kam sonli va kuchsiz edi; — kattalar va bolalar, hayvonlar va insonlar psixik faoliyatining umumiy mexanizmlari mavjudligiga uqtirish insonning ontogenetik rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlarning haqiqiy imkoniyatlarini tizimli ravishda pasayishiga olib keldi. Ma'lum qilinishicha, rivojlanish psixologiyasi "imkon qadar qisqa oraliq vaqt mobaynida qiziq bir inson bilan ajoyib o'zaro ta'sir vaziyatida bolaning g'alati xulq-atvori haqidagi fan" istehzoli bo'lish kerak emas deb uni U.Bronfenbrenner ta'riflagan. Ushbu qarama-qarshiliklarni anglash rivojlanishning amerika psixologiyasida yangi tendensiya (g'oya) tabiiy tadqiqot g'oyasini tug'ilishiga bolaning psixik rivojlanishi tuzilishidagi aksentlar aralashuviga olib keladi. XX asrning 80-yillari boshida ilmiy tadqiqotning majburiy xarakteristikalaridan biri ekologik validlik talabi bo'lgan. Ekologik validlik kundalik hayotdagi vaziyatlar xususiyati sinaluvchilarni tadqiqot vaziyatda qurshab turuvchi shart-sharoitlar muvofiqligi sifatida muhokama qilinadi. Tadqiqotchining dolzarb shiori bolaning bilish jarayonlari va har qanday faolligini bu uning tabiiy maqsadga yo'naltirilgan faoliyatida qanday o'rin egallasa shunday ko'rinishda o'rganish kerak, eksperimental tadqiqot o'tkazishga yangi talablar ilgari surilgan edi: sinaluvchiga ko'rsatmani maishiy(kundalik) tilda taqdim qilish eksperimentator faolligini cheklash, sinaluvchini diqqat bilan kuzatishi va uning hal etish strategiyasini qayd qilib borish o'zgarishlarni aniqlash o'rgatuvchi eksperimental tadqiqotlar qo'llanilishidan voz kechish real hayotda aynan shu metod va mexanizmlar qo'llanilishiga kim kafolat beradi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Insoniyat taraqqiyotini tushunishga ekologik yondashuvda bu o'zgarishlar birmuncha darajada yaqqolroq ko'zga tashlanadi. U.Bronfenbrenner, D.Kyun, D.Vulvili, R.Makkol bolaning hayotini yaqin oilaviy qurshovdan boshlab, ijtimoiy, tarixiy kontekstgacha o'z ichiga oluvchi real sharoitlarida uning kundalik xulq-atvorini o'ziga xos xususiyatlarini diqqat bilan tadqiq qilish zaruriyatiga e'tiborini



qaratadi. Analizga ekologik ahamiyatli o'zgaruvchilar sifatida bolaning barcha hayotiy jabhalari kiritiladi uy, oila, sinf, transport, ijtimoiy rollar va funksiyalar: qiz, opa, o'quvchi xulq-atvor faolligini xarakteristikasi davomiylik, zo'riqish. U.Bronfenbrennning ekologik tizim modeli keng mashhurlikka ega bo'ldi. Ular tomonidan bolaning rivojlanishi dinamik jarayon sifatida ko'rib chiqiladi, bir tomondan ko'p darajali hayotiy muhit o'sib ulg'ayuvchi individga ta'sir ko'rsatadi va boshqa tomondan uning o'zi faol ravishda uni qaytadan tuzadi. U.Bronfenbrenner bolaning hayotiy muhitini to'rt darajasini ajratgan. Hayotiy muhitning mikrodarajasi individni uning yaqin atrofida bilan o'zaro ta'sirini oila, bog'cha, xarakterli bo'lgan mashg'ulotlar va ijtimoiy rollarni o'z ichiga oladi. Mezodaraja yoki mezotizim ikkita yoki undan ko'p mikrotizimlar o'rtasida rasmiy yoki norasmiy aloqalar yuzaga kelganda hosil bo'ladi, masalan, oila va maktab oila va tengdoshlar guruhi o'rtasida. Ekzodaraja individ tajribasi bilan bevosita bog'liq bo'lmagan, lekin unga bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi keng ijtimoiy muhitni qamrab oladi. Ota-onaning bandlik xarakteri, mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat, oilaviy axborot vositalarining roli va nihoyat makrodaraja yoki makrotizim qadriyatlar, an'ana odatlar, qonunlar hukumat dasturlarining madaniy va tarixiy kontekstini hosil qiladi. U.Bronfenbrennning fikriga ko'ra, bu barcha quyi darajalarga muhim ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotchilarning ko'proq e'tiborini jalb qiladigan hayotiy yo'l insonning rivojlanish g'oyasini laboratoriyaning nazorat qilinuvchi sharoitlarida o'rganib bo'lmaydi. Nafaqat oldindan aytish mumkin bo'lgan yoshga bog'liq o'zgarishlarni, balki har bir yoshga bog'liq o'zgarishlarni, balki har bir avlod uchun keng madaniy va tarixiyillarni hisobga olishni talab qiladi. P.Baltes 3 turdagi omillarni ajratgan.

1. Yoshga bog'liq me'yorlar.
2. Tarixiy me'yoriy.
3. Me'yoriy bo'lmagan omillar.

Yoshga bog'liq me'yoriy omillar bu aytish mumkin bo'lgan yoshdagi o'zgarishlarda biologik tishlarni yorib chiqishi, jinsiy yetilishi (menopauza va b.) va ijtimoiy (maktabga chiqish, harbiy xizmatga chaqiruv, nafaqaga chiqish va boshqalar) sodir bo'ladi. Tarixiy me'yoriy omillar — bu butun yosh davri kategoriyalariga (qatoriga) u yoki bu tarzda ta'sir ko'rsatadigan global (dolzarb) mashtabdagi tarixiy hodisalardir (urush, siyosiy va iqtisodiy tarzda o'zgarishi, epidemiya). Me'yoriy bo'lmagan omillar — hayotning aniq bir vaqti bilan bog'liq bo'lmagan, lekin uni ba'zan keskin (birdan) o'zgartirishga qodir bo'lgan, shaxs hodisalarini aks ettiradi (kasallik, jarohat, muhim inson bilan uchrashuv ajrashish va boshqalar). Aslida vaziyat bundanda murakkab chunki, ajratilgan omillar ta'siri bir qator boshqa

xususiyatlar, xususan jins, yosh, irq, ijtimoiy mansubligi. Soʻz inson hayot yoʻliga bu omillarning murakkab qorishgan taʼsiri haqida bermoqda. Shunday qilib, biz inson psixik rivojlanishini aniqlovchi omillar muammosiga asosiy eʼtiborni qaratib, O.Uotsonning klassik bexiviorizm nazariyasi, B .Skinnerning operant oʻrgatish nazariyasi, A.Banduraning ijtimoiy kognitiv nazariyasi va U.Bronfenbrennerning ekologik tizim modeli misolida rivojlanish psixologiyasidagi xulq-atvor yondashuvi evolutsiyasini kuzatdik.

## REFERENCES

1. Taʼlim toʻgʻrisida. Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: Oʻzbekiston, 2020.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:Oʻzbekiston, 2017.
3. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogik psixologiya». — T.: TDPU. 2009.
4. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibayeva R.N. Mustaqil fikrlash. — T.: Sharq. 2000.
5. Norliev, R., & Ibragimova, O. (2021). Constitutional And Legal Basis Of The Institute Of Public Control In The Republic Of Uzbekistan (Theoretical Analysis). *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 3(04), 42-45.
6. Norliev, R., & Ibragimova, O. (2021). THE SPIRITUAL FOUNDATIONS OF A DEMOCRATIC SOCIETY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(12), 130-134.
7. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. — T.: Fan. 2003.
8. Халперн Д. Психология критического мышления. Питер. 2000.
9. Gʻoziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
10. Югай А.Х., Мираширова Н.А. “Общая психология” – Ташкент 2014.
11. Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.
12. Sulaymonov, J. B. (2021). IBN XALDUNNING „MUQADDIMA “ASARIDA JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TAʼSIR QILUVCHI OMILLAR TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 732-737.
13. Sulaymonov, J. B. (2021). ABU ZAYD ABDURAHMON IBN XALDUNNING „MUQADDIMA “ASARIDA DAVLAT TUSHUNCHASIGA YONDASHUVLAR TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(6), 9-14.

14. Sulaymonov, J. B. (2022). ABDURAHMON IBN XALDUN AXLOQIY QARASHLARI VA SARVAPALLI RADHAKRISHNAN AXLOQIY QARASHLARINING QIYOSIY JIHATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 25), 363-373.
15. Сулаймонов, Ж. (2021). АБДУРАҲМОН ИБН ХАЛДУННИНГ ТАМАДДУН ТАРАҚҚИЁТИ ҲАҚИДАГИ ҚАРАШЛАРИДА ЖАМИЯТ ТАҲЛИЛИ. *Academic research in educational sciences*, 2(Special Issue 1), 451-455.
16. Сулаймонов, Ж. Б. (2022). ИБН ХАЛДУН ҚАРАШЛАРИДА “ТААССУБ” КАТЕГОРИЯСИНING АҲАМИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 23), 864-871.
17. Сулаймонов, Ж. Б. (2022). АБДУРАҲМОН ИБН ХАЛДУН ИЖТИМОЙ ҚАРАШЛАРИ ВА ЛИ ЮЛГОК ИЖТИМОЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ ЖИҲАТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 1477-1483.
18. Сулаймонов, Ж. Б. (2022). АБДУРАҲМОН ИБН ХАЛДУН ИЖТИМОЙ ҚАРАШЛАРИ ВА КОНФУЦИЙ ИЖТИМОЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ ЖИҲАТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 26), 613-621.

**ABDULLA AVLONIY PEDAGOGIK FAOLIYATIDA MA'RIFIY  
MASALALARNING AKS ETISHI**

**Xomidova Gulzebo Rayimboy qizi**

Navoiy viloyati Xatirchi tumani 19-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqola atoqli ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniyning ijtimoiy faoliyati va ijtimoiy qarashlarida ma'rifatparvarlikning o'rni, shuningdek, uning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida keltirilgan ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaga oid qarashlari, ta'lim-tarbiyaning millat ma'naviyati, ma'rifatini yuksaltirishdagi ahamiyati va kelajak avlodni, millatni ma'naviyatli, ma'rifatli, komil qilib tarbiyash kabi masalalarning qisqacha tahliliga bag'ishlanadi.*

***Kalit so'zlar:** Pedagogika, ta'lim-tarbiya, ma'rifatparvarlik, jadidchilik, yangi usul maktablari, gazeta, jurnal, "Xayriya jamiyat", "Turon" teatr truppasi.*

**REFLECTION OF EDUCATIONAL ISSUES IN THE PEDAGOGICAL  
ACTIVITY OF ABDULLA AVLONI**

**Khomidova Gulzebo Rayimboy kizi**

Teacher of native language and literature at the 19th general secondary  
school of Khatirchi district, Navoi region

**ABSTRACT**

*This article describes the role of enlightenment in the social activities and social views of the famous enlightened writer Abdulla Avloni, as well as his views on spiritual and educational education presented in his work "Turkiy Guliston yoxud axloq" education and education in the nation. It will be devoted to a brief analysis of issues such as the importance of raising spirituality and enlightenment and raising the future generation, the nation, to be spiritual, enlightened, and perfect.*

***Keywords:** Pedagogy, education, enlightenment, modernism, new method schools, newspaper, magazine, "Xayriya jamiyat", "Turon" theater troupe.*

**ОТРАЖЕНИЕ ВОПРОСОВ ОБРАЗОВАНИЯ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ  
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АБДУЛЛЫ АВЛОНИ**

**Хомидова Гулзебо Райимбой кизи**

Учитель родного языка и литературы 19-й общеобразовательной школы  
Хатырчинского района Навоийской области

## **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье описывается роль просвещения в общественной деятельности и общественных взглядах известного писателя-просветителя Абдуллы Авлони, а также его взгляды на духовно-просветительское воспитание, изложенные в его труде “Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ”, воспитание и образование в нации. Она будет посвящена краткому анализу таких вопросов, как важность воспитания духовности и просвещения, воспитания будущего поколения, нации духовными, просвещенными и совершенными.*

**Ключевые слова:** педагогика, образование, просвещение, модернизм, новометодные школы, газета, журнал, «Хайрия жамият», труппа театра «Турон».

## **KIRISH**

Yer yuzida barcha o‘lmas obidalar, insoniyat hayotini tubdan o‘zgartirib yuboradigan jamiki ulug‘ kashfiyot va ixtirolar, mumtoz san’at va adabiyot durdonalari odamzotning aql-tafakkuri mahsulidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning asriy qadriyatlarimiz asosida yaratgan “Turkiy “Guliston” yoxud axloq” asari sharqona tarbiyaning noyob qo‘llanmasi sifatida bugungi kunda ham o‘zining qadri va ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Hozirgi kunda ushbu mavzu dolzarbligi haqida gapirsak, jadidlarning yetuk vakili Ismoilbek va uning davridagi jadidchilarning ma’rifatparvarlik g‘oyalari haqidagi ma’lumotlar bilish, bugungi kunda ma’naviy hayotimizdagi qadr-qiyamatini bilish uning ilmiy merosini asrashdek vazifalarni oldimizga qo‘yadi. Ma’lumki, jadidchilik eng avvalo ma’rifatparvarlik harakati sifatida paydo bo‘lgani uchun jadidlar o‘z faoliyatlarini maktablar ochish, darsliklar yozish va matbuot nashrlarini chiqarish bilan boshladilar. Jadidlarning til, yozuv va imlo bilan bog‘liq qarashlari ularning ana shu amaliy harakatlarida ham aks etgan edi. Bu xalqimizni ma’rifatli qilishga bo‘lgan urinishlar edi.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng ma’rifatchilik tarixini o‘rganishga keng yo‘l ochib berildi. Ko‘plab ilm ahli nomlari oqlandi va ularning ijodini ask etiruvchi asarlar chiqa boshladi. Bularning ichida Abdulla Avloniyning ma’rifatparvarlik falsafasi alohida o‘rin tutadi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta’lim to‘g‘risida qonun, Sh.Mirziyoev asarlari, mavzuga doir adabiyotlar hamda internet manbalaridan



foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo'llanildi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Abdulla Avloniy shoir, yozuvchi, dramaturg, ammo pedagogika uning hayotidagi muhim sahifani tashkil etadi. U faoliyatning ilk bosqichidan to umrining so'nggi damlarigacha o'qituvchilik qildi, pedagogika fanining ham nazariy, ham amaliy masalalari bilan mustaqil shug'ullandi, darsliklar yaratdi. XX-asr zamonaviy o'zbek pedagogikasining asoschisi, o'zbek tili va adabiyoti o'qitish metodikasi fanining tamal toshini qo'ygan mutafakkiridir.

1904-yilda Abdulla Avloniy Mirobod mahallasida eski maktablardan farq qiluvchi usuli jadid maktabi ochdi va o'zi mudirlik hamda o'qituvchilik qildi. Shu vaqtdan uning pedagogik faoliyati boshlandi, maktabning dovrug'i Toshkentning uzoq chekkalariga ham tez tarqaldi. Ushbu maktabning birinchi o'quvchilaridan, uzoq yillar Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) pedagogika kafedrasiga mudirlik qilgan, marhum pedagog olim Yusuf Tohiriy mazkur maktab va uning o'qituvchisi A.Avloniy haqida quyidagi xotiralarini yozib qoldirgan edi: "Shaharning qarama-qarshi chekkasida, temir yo'l ishchilari istiqomat qiladigan Mirobodda yangi tipdagi maktab ochilganligi haqida eshitib qoldik. Tez orada bu maktabning fazilatlari haqidagi shov-shuvlar, uning muallimi Avloniyning dovrug'i butun shaharga tarqaldi. Hammaning tilida: «Miroboddagi maktab 6 oyda o'qish-yozishni o'rgatarmish, jo'g'rofiya, hisob, tabiatni o'rganish degan darslar o'qitilarmish», - degan gap yurardi. Bizga juda sirli tuyulgan bu maktabni va uning donishmand muallimini ko'rishga hammamiz oshiqardik. Nihoyat bir kuni uch-to'rttamiz borishga jazm qildik. Maktab pastakkina, nimqorong'u bo'lib, masjid yo'lagiga joylashgan edi. Xonaning tepasidagi yorug'lik uchun qoldirilgan tuynukdan qish va bahorda qor bilan yomg'ir ham tushib turardi. Lekin xonada o'quvchilar va o'qimoq uchun kelganlar soni ko'p edi. Xayolimizda domlanning allaqanday bir sirli tomoni bor edi. Bizni qotmagina, kichik jussali, qorachadan kelgan, istarasi issiq, cho'qqi soqol bir kishi kutib oldi. Bu nomi tilga tushgan muallim Avloniy edi. O'qishga qabul qilindik. Ko'p o'tmay ko'z oldimizda yangi bir dunyo ochilganiga to'la ishonch hosil qildik. Maktab o'quvchilari o'qish yozishda, hisob masalalarini hal etishda, tabiat hodisalaridan xabardor bo'lishlari, juda ko'p she'r va hikoyalarni yod bilishlari bilan hammamizni lol qoldirishdi. Avloniy maktabi bizdan borgan bolalar bilan liq to'ldi. Shu tariqa bu maktab tobora shuhrat topib bordi». A.Avloniy birinchilardan bo'lib ushbu maktabiga rus tilini o'quv predmeti sifatida kiritdi. Bunday usuli jadid maktablari xalq o'rtasida qanchalik shuhrat qozonmasin, mustamlakachi ma'murlarning katta qarshiliklariga duch keldi. Chunki ularning bu

faoliyati chinakam fidoyilik edi. Hukumat mahalliy maktablarni va muallimlarini iqtisodiy ta'minlamagani yetmaganday, o'qituvchilari, o'qitadigan darslik va kitoblari, hatto o'quvchilarigacha qattiq nazorat ostiga olgan edi. Abdulla Avloniy nomidagi Xalq Ta'lim xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish Markaziy institutidagi A.Avloniy memorial muzeyida Sirdaryo viloyat xalq o'quv yurtlari inspektorining A.Avloniy nomiga yozgan so'rovnomasi saqlanadi. Mazkur hujjat rus tilida bo'lib, tarjimasi shunday:

***“Toshkentning ruslar qismida yashovchi Mulla Abdulla Avlonovga”***

1914-yil 26-fevraldagi arizangizga qo'shimcha yozma ravishda quyidagilarni talab qilaman: Siz ochgan maktabda darslar qaysi darslik va dastur asosida olib boriladi? Darsliklar mualliflarining familiyalari kimlar? Darsliklar qachon va qayerda nashrdan chiqqan?

***Sirdaryo viloyat xalq o'quv yurtlari inspektori: [imzo].***

Bunday ta'qib va tazyiqlar natijasida Avloniyning Mirobodda ochgan maktabi 1908- yilda yopib qo'yildi. 1909-yilda u ikkinchi marta Degrez mahallasida maktab ochdi. Usuli jadid maktablari ochish, ularni xalq o'rtasida targ'ib-tashviq qilish bilan ish bitmas edi. Ularda yangicha o'qitish usullaridan kelib chiqqan holda tuzilgan yangi darsliklar, o'quv jihozlari suv bilan hovodek zarur edi. Usuli savtiya metodi asosida yaratilgan alifbo darsliklari, o'qish kitoblari, majmualar, turli fanlar bo'yicha darsliklar yo'q darajada edi. Jadid pedagoglaridan Hoji Muyin Shukrullayevning quyidagi so'zlari zamirida katta haqiqat yotar edi: “1901-yildan e'tiboran Qo'qon va Toshkentda, 1903-yildan Samarqandda yangi maktablar ochila boshladi. Bu maktablar Turkistonning katta shaharlarida son jihatidan (taqlidiy suratda) bir daraja ko'paygan bo'lsa ham 4-5 yildan keyin yana kamayib, faqat ba'zi tuzuklari davom etdi. Buning bir sababi kitobsizlik bo'lsa, boshqa sababi o'qituvchilarning usuli ta'limdan xabarsizliklari edi».

Darsliklar yaratish, ularni nashrdan chiqarish ishlari katta bilim, malaka hamda mablag' talab qilar edi. Shuning uchun ham Toshkentda Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li, Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy, Buxoroda Abdulvohid Munzim, Shamidxo'ja Mehriy, Sadridin Ayniy, Qo'qonda Hamza Hakimzoda, Ashirali Zohiriylar o'lkada faoliyat ko'rsatgan dastlabki xayriya jamiyati va shirkatlarining asoschilari edilar. A.Avloniy 1909-yilda “Xayriya jamiyat”ini ochdi. Bu jamiyat Turkiston o'lkasida ochilgan birinchi rasmiy jamiyat edi. Bu haqda Orenburgda chiqadigan “Vaqt” hamda “Sadoyi Turkiston” gazetalarida xabar bosilgan. Jamiyatning 1909-yil 12 mayda rasmiy ro'yxatdan o'tkazganligi haqidagi Nizomda uning faoliyat doirasi aniq belgilangan. Unda yoshlarni o'qitish, iqtidorli yoshlarni taraqqiyot etgan chet el oliy o'quv yurtlariga

yuborish, ularni stipendiya bilan ta'minlash, yangi ochilayotgan maktablar uchun darsliklar nashr etish, kambag'al bolalarni bepul o'qitish va o'quv qurollari bilan ta'minlash kabi 41 moddadan iborat masalalar mavjud edi. Ushbu jamiyat qoshida "Turkiston kutubxonasi" shirkati tashkil etiladi. Shirkat o'z oldiga maktablar uchun darsliklar nashr etish, Rusiyaning turli o'lkalarida nashr etilgan darsliklarni sotib olish va Turkiston maktablariga arzon narxlarda tarqatish maqsadini qo'ygan edi. Turkiston o'lkasida yaratilgan deyarli hamma darsliklar "Turkiston kutubxonasi" da bosmadan chiqqan. Bunday darsliklar oxirida muallifi, narxi va qayerdan sotib olish manzili berilar edi. Masalan, Muhammad Rasul Rasuliyning "Bolalar bog'chasi" darsligi oxirida shunday e'lonni o'qiydiz:

"Ibtidoiy maktablarning birinchi sinf shogirdlari uchun turli kitoblardan olinub, ochiq til va yengil tarkiblar ila yozilish qiroat kitobidir". Nashiri "Turkiston kutubxonasi".

***Murojaat uchun adres: Eski Toshkand "Turkiston kutubxonasi".***

Xayriya jamiyati o'lkadagi barcha hur fikrli ziyoli yoshlarni, boylarni o'z atrofiga birlashtirdi. Abdulla Avloniy usuli jadid maktablarini darsliklar bilan ta'minlash ishiga alohida e'tibor berdi. 1905-1917-yillar orasida o'nga yaqin darslik va qo'llanmalar yaratdi. Ushbu alifbo darsligi ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi alifbo qismida harflar tanitiladi, ularning so'z o'rniga qarab oladigan shakllari o'rgatiladi. O'qitishni soddaroq shaklga ega bo'lgan harflardan boshlaydi, ya'ni darslar soddadan murakkabga o'tib boradi. A.Avloniy darslik tuzishda ham, dars berish jarayonida ham didaktik prinsiplarga to'la amal qildi. Darslikning alifbo qismi olti oyga mo'ljallangan. Ushbu qismda o'qish bilan parallel yozishga ham o'rgatib boriladi. Darslikning ikkinchi qismi bolalarbop pand-nasihatlari, ta'limiy-tarbiyaviy xarakterdagi kichik-kichik hikoyalar, she'riy manzumalardan tashkil topgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Abdulla Avloniy birinchi o'zbek teatri tashkilotchilaridan edi. U 1913-yilda "Turon" teatr truppasini tashkil qildi, ko'plab dramatik asarlar yaratdi, ularni rejissor sifatida sahnalashtirdi. Uning bu faoliyatni o'z maktabida xor, ifodali o'qish hamda musiqa va ashula darslarini tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. U o'quvchilarning xor bo'lib o'qishlariga, timsollarga bo'lib o'qishlariga ham dirijordek, ham rejissordek rahbarlik qildi.

Xulosa qilib aytganda, A.Avloniy XX-asr tongida maktablarda birinchi bo'lib texnik vositalardan foydalanib, ifodali o'qishning yangi turlarini yaratdi. "Turkiy guliston yohud ahloq" asari muallifi A. Avloniyning o'zi: "«Men bu asarimni birinchi maktablarimizning yuqori sinflarida ta'lim bermak ila barobar ulug' adabiyot, axloq havaskorlarining anzori oliylarig'a taqdim qildim», deb ta'kidlaganidek, asar 1900 yillardan boshlab xalq o'rtasida ancha katta shuhrat qozona boshlagan "usuli jadid"

maktablarining yuqori sinflari o'quvchilari uchun darslik sifatida yaratilgan edi. Ammo asar darslikdan ko'ra pedagogika faninnig ham nazariy, ham amaliy masalalarini yorituvchi ilmiy asar sifatida namoyon bo'ldi. XX asr boshlarida pedagogikaning nazariy va amaliy masalalariga bag'ishlangan asarlari yaratilgan: Fitratning "Najot yo'li" ("Rahbari najot"), Hamzaning "Qiroat kitobi" asarlari shular jumlasidandir, ammo A.Avloniy asari ushbu sohada yozilgan birinchi asardir. Mutafakkirlar mazkur asarlarini "usuli jadid" maktablarining yuqori sinf o'quvchilariga darslik sifatida yaratgan ekanlar, bu maktablarni bitirib chiquvchi va o'zlari ham "usuli jadid" maktablarida o'qituvchi bo'lib ishlovchi yosh o'quvchilarni tayyorlash, pedagogika faninnig o'ziga xos nozik tomonlari bilan ularni oshno qilishni ko'zda tutganlar. Chunki XX asr boshlarida ham o'qituvchilar tayyorlaydigan birorta na oliy va na o'rta maxsus bilim yurti yo'q edi. Rus-tuzem maktablari uchun o'qituvchi kadrlar tayyorlaydigan Toshkent o'qituvchilar seminariyasining tub maqsadlari ma'lum edi. Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li, Abdulla Avldoniy, Ishoqxon Ibrat, Siddiqiy Ajziy, Abduqodir Shakuriy maktablarini bitirib chiqqan va o'qituvchilikka muhabbat qo'ygan ko'pi yoshlar ketma-ket ochilayotgan "usuli jadid" maktablarida ustozlari rahbarligida o'qituvchi bo'lib ishlaganlar. Qayum Ramazon, Shoarasul Zunnun, aka-uka Sobirjon va Shokirjon Rahimiy, Ismatulla Rahmatullayevlar shular jumlasidandir.

A.Avloniy ta'lim va tarbiya birligiga alohida ahamiyat beradi. Inson aqliy faoliyatinnig ifodasi bo'lmish fikr tarbiyasi orqaligina katta sharaftga, barkamollikka erishadi, bu o'rinda o'qituvchinnig fikrlash doirasining kengligi, bilim saviyasinnig har jihatdan yuksakligi o'quvchilari tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish aql bilan ish tutishga olib keladi: o'quvchilarni yaxshi xulqlar bilan yomon xulqlarni farqlashga, komil inson uchun zarur bo'lgan yaxshi xulqlarni egallashga, insonni zalolatga yetaklovchi yomon xulqlardan uzoq bo'lishga o'rgatadi. Jadidchilik harakati namoyandalari g'arbiy Yevropa ma'rifatparvarlari kabi ilm-ma'rifatni, zamonaviy taraqqiyotni bayroq qilib ko'tardilar, taraqqiyotga to'g'anoq bo'layotgan mutaassib ulamolarga, qadimchilarga qarshi keskin kurash olib bordilar. Shuni unutmash kerakki, o'zbek ma'rifatparvarlarining Yevropa ma'rifatparvarlaridan ajralib turadigan asosiy jihati shundaki, ularnig faoliyati zaminida millatni mustamlakachilik zulmidan ozod etish, istiqloq g'oyasi yotar edi. Shuning uchun ham jadid mutafakkirlari oq va qizil imperiyaga birday ma'qul emas edilar. Abdulla Avloniy pedagogik qarashlarida aql va ilmning yuksak darajada ulug'lanishi bevosita insonni ulug'lash bilan uzviy bog'lanadi. Chunki Olloh insonni barcha mavjudodlardan, mahluqotlardan ulug' qilib yaratdi. Unga ikki dunyo saodatiga erishishdek buyuk maqsad uchun Aql berdi. Inson shu Aql yordamida ilm--

ma'rifatni, taraqqiyotni egallaydi, dunyoni boshqaradi. Mana A.Avloniyning aqlga bergan ta'rifi: "Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidur... Janobi haq insonni hayvondan so'z va aql ila ayirishdur. Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallallahu alayhi vassalam afandimiz: "Ey insonlar! Aqlingizga tavoze' qilingiz. Siz janobi haq buyurgan va qaytargan narsalarni aqlingiz ila bilursiz", demishlar". A.Avloniy aql, ilm, tajriba bilan kamol topadi deydi. Avloniy fikricha, ilm har ishda bizga rahnamo, ikki dunyo saodatiga etuvchi ulug' ne'matdur. Ilmsiz kishi mevasiz daraxt kabidur. Asar muallifi ilmni ikki qismga: ilmi diniy va ilmi foniya ajratadi. Ammo u bu ismlar o'rtasiga to'siq qo'ymaydi, aksincha, diniy kishi bo'lish uchun ham hisob, handasa, tarix, hikmat, tib, kimyo, ziroat kabi fonniy ilmlarni o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Muallif fikricha, har bir millatning taraqqiy va toleysi yoshlarning ilm va ma'rifatiga, hunar va san'atiga bog'liqdir. "Ammo bizdagi "Ajabo Qur'onimiz, Payg'ambarimiz o'qingiz, deb amr qilg'on holda, bizlar na uchun harakat qilmaymiz, boshqa millatlarnig o'g'ullari qizlari kecha demay, kunduz demay, yoz demay, qish demay ilm yo'lida jonlarini fido qilub, qovushub, yugurushib, ko'zlarimizni qamashdurib turgan bir zamonda bizlar hamon uyqudan g'aflatdan, jaholatdan boshimizni ko'tarmaymiz, ibrat olmaymiz. Payg'ambarimiz: "Olim bo'l, ilm talab qiluvchi bo'l, yoki ilmni eshituvchi bo'l, hech bo'lmasa, shularga muhabbat qiluvchi bo'l, beshinchisi bo'lma, halok bo'lursan, - demadilarmu?", deydi alloma. Bundan ham kattaroq to'siq mustamlakachi ma'murlar bo'lib, o'lkada har qanday ijobiy yangilikni, ayniqsa, maorif sohasidagi o'zgarishlarga, "usuli jadid" maktablarining xalq ma'naviyatiga kirib borishiga tish-tirnoqlari bilan qarshilik ko'rsatar, ularga qarshi kurashda mutaassib ulamolardan ustamonlik bilan foydalanar edilar. Zamonaviy kasb-hunar maktablari, oliy o'quv yurtlari ochish, millatni ilm-ma'rifat nuridan bahramand qilishni mustamlaka ma'murlari xayollariga ham keltirmas edilar. XIX asrning 90-yillari oxirlarida rus-tuzem maktablarida o'qiydigan mahalliy millat bolalari uchun S.M.Gromeniskiyning uch kitobdan iborat "Книга для чтения" ("O'qish kitob") asari darslik sifatida nashrdan chiqarildi. N.Ilminskiy qarashlari zaminida yaratilgan ushbu darslikda Rusiyani, rus xalqini ulug'lovchi, Rusiyani buyuk vatan sifatida ta'rif-tavsif etuvchi o'nlab nazmiy va nasriy matnlar berilgan edi. Bu darslikning shovinistik maqsadini jadid pedagoglari tushunib yetgan va millat farzandlarini vatanparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratgan edilar. Bu hol ular yaratgan har bir darslikda, har bir ilmiy, badiiy asarlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yohud axloq" asarida "Vatanni suymak" degan bobida Vatan tuproqi muqaddas. Unda ajdodlarimizning xokilari bor, unda kelajak nasllarimizning haqlari bor. Shuning uchun ham Vatanni oddiygina



sevish mumkin emas, uning istiqboli uchun kuyunish, kurashish, kelguvchi avlodlarga to'la-to'kis, ozod farovon holda topshirish hissi ham mavjud. Abdulla Avloniy ona-Vatanga mana shunday yoniq qalb bilan munosabatda bo'ladi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, xalq maorifini tubdan isloh qilish, darsliklar, o'quv qo'llanmalari yaratish, Abdulla Avloniyning oktabr to'ntarishigacha bo'lgan faoliyatining asosini belgilaydi. U 1917 yil avgustda Qozonda Butunrossiya musulmon muallimlarining II Qurultoyida ishtirok etdi, shu yili Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li bilan "O'qituvchilar jamiyati"ni tuzdi. Maqsad iqtidorli yoshlarni taraqqiy etgan chet el oliy o'quv yurtlariga yuborish va kelgusida o'lkada ochilajak oliy o'quv yurti uchun milliy mutaxassislar tayyorlash edi. Avloniy sho'rolar hukumatiga katta umid bog'ladi, ammo bu hukumat dastlabki kunlardan boshlab munofiqona siyosat olib bordi, uning bunday shovinistik, mustamlakachilik siyosatiga bo'lgan munosabati "Afg'on sayohati" ocherklarida o'z ifodasini topdi. A.Avloniy 1920 yillarda o'qituvchilik faoliyatini davom ettirdi. 1930 yildan CAFY (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)da pedagogika fakultetining o'zbek tili va adabiyoti kafedراسi professori va mudiri lavozimida ishladi. Avloniyning maktab darsliklari suhbat usuli bilan bolalarning nutqini uyushtirishda, badiiy so'zlashuvga o'rgatishda katta ahamiyat kasb etadi. 7-sinflar uchun yaratgan xrestomatiyasida M.Gorkiy, V.Mayakovskiy, G'.G'ulom, H.Olimjon, Oybek, K.Yashin, Uyg'un asarlarini birinchi bor maktab darsliklariga kiritadi hamda ularning hayoti va ijodi haqida ma'lumot beradi. Avloniy butun ongli faoliyatini xalq maorifiga bag'ishladi. Ko'rib chiqqanimizdek, Abdulla Avloniy o'zbek adabiyotining yorqin siymolaridan biri sifatida o'z davrida qizg'in faoliyat olib borgan.

### **REFERENCES**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – b.28.
3. Boboxonov A., Maxsumov M. Abdulla Avloniy. Pedagogik faoliyati. T., 1996.
4. Raxmonov M. O'zbek teatri tarixi. T., 1968 y.
5. Qosimov B. Abdulla Avloniy. T., 1979. Qosimov B. Inqilobiy she'riyat sahifalari. T., 1977.
6. Abdulla Avloniy . Tanlangan asarlar. 1-jild T., 1998 yil., Abdulla Avloniy . Tanlangan asarlar. 2-jild T., 2006 yil
7. Baldauf I. Jadidism in Central Asia within Reformism and Modernism in the Muslim World // Die Welt des Islams.-2000.-№ 1 (41).-C. 72-88

8. Sulaymonov, J. B. (2021). IBN XALDUNNING „MUQADDIMA “ASARIDA JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 732-737.
9. Sulaymonov, J. B. (2021). ABU ZAYD ABDURAHMON IBN XALDUNNING „MUQADDIMA “ASARIDA DAVLAT TUSHUNCHASIGA YONDASHUVLAR TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(6), 9-14.
10. Sulaymonov, J. B. (2022). ABDURAHMON IBN XALDUN AXLOQIY QARASHLARI VA SARVAPALLI RADHAKRISHNAN AXLOQIY QARASHLARINING QIYOSIY JIHATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 25), 363-373.
11. Сулаймонов, Ж. (2021). АБДУРАХМОН ИБН ХАЛДУННИНГ ТАМАДДУН ТАРАҚҚИЁТИ ҲАҚИДАГИ ҚАРАШЛАРИДА ЖАМИЯТ ТАҲЛИЛИ. *Academic research in educational sciences*, 2(Special Issue 1), 451-455.
12. Сулаймонов, Ж. Б. (2022). ИБН ХАЛДУН ҚАРАШЛАРИДА “ТААССУБ” КАТЕГОРИЯСИНINГ АҲАМИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 23), 864-871.
13. Сулаймонов, Ж. Б. (2022). АБДУРАХМОН ИБН ХАЛДУН ИЖТИМОИЙ ҚАРАШЛАРИ ВА ЛИ ЮЛГОК ИЖТИМОИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ ЖИҲАТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 1477-1483.
14. Сулаймонов, Ж. Б. (2022). АБДУРАХМОН ИБН ХАЛДУН ИЖТИМОИЙ ҚАРАШЛАРИ ВА КОНФУЦИЙ ИЖТИМОИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ ЖИҲАТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 26), 613-621.

## **ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТ**

**Алиёров Фазлиддин Жўракулович**

Навоий вилояти Хатирчи тумани

23-умумий ўрта таълим мактаби амалиётчи психологи

### **АННОТАЦИЯ**

*Ушбу мақолада психологик хизматнинг мазмуни психопрофилактика, психологик маориф ва маърифат, психодиагностика, психик ривожлантириш ва психокоррекция, психологик консультация каби масалалар ёритилади. Халқ таълими тизимида психологик хизмат мақсади шахснинг ҳар томонлама мукаммал психологик тараққиётини таъминловчи оқилона, зарур шарт-шароитлар, омиллар, қулай вазият ва муҳит яратишдан иборат эканлиги тўғрисида сўз боради.*

**Калит сўзлар:** *Диагностика, коррекцион ишлар, ўз ўзини бошқариш имконияти, консультатив ишлар, иродавий сифатлар, психологик талаблар, анализ, синтез, умумлаштириш.*

## **PSYCHOLOGICAL SERVICE IN THE EDUCATIONAL SYSTEM**

**Aliyorov Fazliddin Jurakulovich**

Practitioner psychologist of the 23th comprehensive  
school of Khatirchi district of Navoi region

### **ABSTRACT**

*This article highlights the content of psychological services, such as psychoprophylaxis, psychological education and enlightenment, psychodiagnostics, psychological development and psychocorrection, psychological counseling. The system of public education says that the purpose of the psychological service is to create reasonable, necessary conditions, factors, a favorable environment and environment that ensure the perfect psychological development of a person in all aspects.*

**Keywords:** *diagnostics, correctional work, self-management, advisory work, volitional qualities, psychological needs, analysis, synthesis, generalization.*

## **ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СЛУЖБА В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ**

**Алиеров Фазлиддин Журакулович**

Практический психолог 23-й общеобразовательной школы

Хатырчинского района Навоийской области

## **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье освещается содержание психологических услуг, таких как психопрофилактика, психологическое образование и просвещение, психодиагностика, психологическое развитие и психокоррекция, психологическое консультирование. В системе народного образования говорится, что целью психологической службы является создание разумных, необходимых условий, факторов, благоприятной обстановки и среды, обеспечивающих совершенное психологическое развитие человека во всех аспектах.*

***Ключевые слова:** диагностика, коррекционная работа, самоуправление, консультативная работа, волевые качества, психологические потребности, анализ, синтез, обобщение.*

## **КИРИШ**

Халқ таълими тизимидаги психологик хизматнинг мақсади - шахснинг ҳар томонлама мукамал психологик тараққиётини таъминловчи оқилона, зарур шарт – шароитлар, омиллар, қулай вазият ва муҳит яратишдан иборатдир. Психологик хизматда тадқиқот ва таъсир ўтказишнинг объекти ўқув масканигача ёшдаги болалар, умумий ўрта таълим ўқувчилари, махсус ўқув юрти ва олий ўқув маскани талабалари, ўқитувчилар, ота-оналар бўлиб ҳисобланади. Тадқиқот объектига кирган кишиларни яқка тартибда, алоҳида гуруҳий ёки жамоавий шаклда ўрганиш мумкин. Психологик хизматнинг мазмуни психопрофилактика, психологик маориф ва маърифат, психодиагностика, психик ривожлантириш ва психокоррекция, психологик консултациядан иборат.

Психологик хизматлар психологдан инсон шахси ва индивидуаллигини таркиб топтириш жараёнига фаол таъсир ўтказишни тақозо қилади. Халқ таълими тизимидаги психологнинг вазифаси психологик хизматни муайян қоида, мезонга асосланиб ташкил қилишдан иборат бўлиб, ёш давр хусусиятларига биноан (ўқувчилар, талабалар) психиканинг ривожланиши, шахснинг шаклланиши қонуниятларни амалиётга тадбиқ этиш, ўқитувчилар жамоасига талабалар таълим-тарбиясини индивидуаллаштиришда ёрдамлашиш, уларнинг қобилияти, майлининг даражасига қараб ўқитувчиларга коррекцион (тузатиш) ишларини амалга оширишда кўрсатмалар беришдан иборат.

## **АДАБИЁТЛАРИ ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАР**

Тадқиқот олиб бориш давомида Кадрлар тайёрлаш миллий дастури, Таълим тўғрисидаги қонун, мавзуга оид адабиётлар, тизимлилик, назарий-дедуктив хулоса чиқариш, анализ ва синтез тамойиллардан фойдаланилди.

## **МУҲОКАМА НАТИЖАЛАРИ**

Психологик ишлар мажмуаси ўқувчиларни ўқув масканларида ўқитиш давомида психологик-педагогик жихатдан чуқурроқ ўрганишга йўналтирилган бўлиб, уларнинг индивидуал хусусиятларини таълим ва тарбиясидаги нуқсонларнинг сабабини аниқлашга мўлжаллангандир. Диагностик ишлар гуруҳий ёки яқка тартибда ўтказилади. Бу аснода амалий психолог қуйидаги яққол вазифаларни бажаради:

- Ёш давр тараққиётининг муайян мезонларига мувофиқлигини аниқлаш мақсадида психолог болалар, ўқувчилар, академик лицей ва касб-ҳунар коллеж тингловчилари, олий ўқув юрти талабаларини психологик текширувдан ўтказди, уларнинг камолот даражаларини белгилайди. Ўқитувчиларнинг касбий яроқлиги ва лаёқатини диагностика қилади, уларнинг шахс ҳислатлари, иродавий сифатлари, ҳис - туйғулари, ўз-ўзини бошқариш имкониятлари, интеллектуал (ақлий) даражаси ва педагогик қобилиятини текширади;

- Психолог ўқувчилар ва талабаларнинг психологик хусусиятлари, уларнинг қизиқиш, майл, иқтидорлиги кабиларни ўрганади, уларга индивидуал муносабат ва ёндашишни йўлга қўяди, мутахассис ва етук шахс сифатида шаклланишига муайян ёрдам кўрсатади, тренинг (маҳсус машқ) ўтказди;

- Ўқув масканигача ёшдаги болалар, ўқувчилар, академик лицей ва касб-ҳунар коллеж тингловчилари, олий ўқув юрти талабаларида учрайдиган қув малакалари ва кўникмаларини эгаллашдаги нуқсонлар, хулқ-атвордаги камчиликлар, ақлий тараққиёт ва шахс фазилатларидаги бузулишлар сабабларини диагностика қилади;

- Болаларнинг вояга етган одамлар ва ўз тенгқурлари билан муомаласи хусусиятини текширади. Уларнинг этноқиёфаси ва этномаданияти хусусиятини ҳисобга олган ҳолда психофизиологик методикаларни муайян шароитга мослаштиради;

- Бошқа соҳанинг мутахассислари билан биргаликда руҳий ривожланишдаги нуқсонлар хилма-хиллигини ҳисобга олиб, табақалашган, дифференциал диагностикани амалга оширади;

нуқсонларнинг тиббий ва дефектологик табиатини аниқлайди;

девиант (қонунбўзарлик) аксил ижтимоий хулқ-атвор сабаблари ва уларнинг шакллари белгилайди;

гиёхвандлик, таксикоманлик, алкоголизм, ўғирлик, дайдиликнинг ижтимоий-психологик илдизларини текширади, уларнинг омилларини таҳлил қилади. Ўқув масканида ташкил этилган психологик хизматнинг самарали йўллари кидириш, шарт-шароитлар ва муҳитни ҳар томонлама,



тўлиқ ўрганиб чиқишни ҳар бир ўқувчининг ёш хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда индивидуал ва гуруҳий ишлаш услубларини аниқлаш лозим. Ўқув маскани психологи ўқувчилар ўртасида учраб турадиган психик ривожланишдан кечикиш ҳолларини тўлиқ ўрганиши, уларни келтириб чиқарувчи омиллар ва ижтимоий - психологик шарт-шароитларни таҳлил қилиши лозим.

Ўқув маскани психологи турли ёшдаги ўқувчиларнинг қобилиятлари, йўналиши, лаёқатлари ва касбий қизиқишларига доир аниқ илмий таҳлиллар, тест натижалари асосида тузилган маълумотлар банкига эга бўлиши керак. Бу маълумотларга асосланиб, психолог уларга алоҳида-алоҳида ёндашиш, айримларга қўшимча дарслар ташкил этиш, ўқув маскани, оила ва жамоатчилик ҳамкорлигида қобилиятларини ўстириш билан боғлиқ аниқ кўрсатмалар ишлаб чиқиши лозим. Ўқув маскани психологи синфлардаги руҳий ҳолатларни, ўзаро муносабатлар билан боғлиқ бўлган психологик муҳитни аниқлаши, расмий ва норасмий лидерлар ўртасидаги муносабатларни чуқур ўрганиши, ўқув маскани маъмурияти ва тарбиявий ишлар бўйича директор ўринбосарига зарур йўл-йуриқлар тавсия қилиши жоиз. Бундан ташқари, ўқув маскани психологи турли можаролар, зиддиятлар, тартиббўзарликларнинг олидини олиш, уларнинг психологик илдинини ўрганиш чора-тадбирлари бўйича консультациялар ташкил этиши шарт. Бундай консультациялар ота-оналар ва педагоглар жамоаси учун алоҳида ташкил қилинади. Амалий психолог фаолиятининг яна бир томони турли масалалар бўйича ўқитувчилар жамоасига психологик ёрдам беришдир. Бунда у жамоадаги соғлом муҳитнинг асоси бўлмиш ўзаро муносабатларни яхшилашга қаратилган ижтимоий психологик тренинг машғулотларидан самарали ва ўз вақтида муттасил фойдаланиши, узлуксиз равишда диагностик синовлар ўтказиб туриши, педагогнинг касбий маҳоратини ва нутқ қобилиятини оширишда ижтимоий психологиянинг барча фаол тайёргарлик усулларида фойдаланиши зарур.

Юқоридаги вазифалардан келиб чиққан ҳолда, ўқув маскани психологи ўз фаолиятининг асосий йўналишларини белгилаши мумкин. Улар диагностик ва тузатиш ишлари, психопрофилактик ишлар, психологик консультациялар, ўқитувчилар, ота-оналар ва ўқувчиларнинг психологик саводхонлигини кўтариш, психология методларини аниқ шароитларга мослаштириш, улардан самарали фойдаланиш, тўпланган илмий маълумотларни изчил тарзда таҳлил қилиб бориш, тестлар тузиш, уларнинг сезгирлигини илмий асослаш ва ҳар бир ўқувчи қобилиятини, қолаверса, ўқитувчилар билимдонлигини тестлар

ёрдамида мунтазам текшириш, илмий хулосалар ва кўрсатмалар тайёрлаш кабилардан иборат.

Ҳар бир ўқитувчи қуйидагиларни ўзига камраб олувчи “психологик минимум” ни эгалламоғи даркор:

- ўқувчилар тафаккури, хотираси, идроки ва диққатининг ёш хусусиятлари, уларнинг ҳиссий-иродавий жараёнларда юзага келиши тўғрисидаги билимлар;

- ўқувчилар ўқув фаолиятининг психологик тузилиши, уни ташкил қилувчи ақлий ҳаркатлар, усуллар юзасидан тушунчалар;

- ўқувчилар муомала қилиш малакалари ва улар билан психологик мулоқот ўрнатиш кўникмаларига доир билимлар;

- шахсни шакллантиришнинг психологик қонуниятлари бўйича кенг тасаввурлар;

- ўқувчиларни ўрганиш методикалардан фойдаланиш кўникмалари ва уларнинг фаолиятини яъни “Кузатиш картаси” ни тўлдириш;

- таълим ва тарбиянинг психологиясига доир адабиётларни ўқишга нисбатан эҳтиёжлари ва қизиқишларининг мавжудлиги.

Халқ таълимининг барча тоифадаги муассасаларида шахсни ўрганиш учун муайян тизимдаши методларни қўллаш жоиз, токи улар ўқувчида ўзини ўзи идрок қилиш, ўз ўзини баҳолаш, ўзини ўзи таҳлил қилишни таъминласин.

Республикада ўқув масканида психологик хизмат кўрсатиш ишларини такомиллаштириш ўқувчиларни жамият олидида турган улкан ва илғор ишларга тайёрлашда ўзининг муносиб ҳиссасини кўшмоқда.

Ўқув маскани психологининг асосий вазифалари қуйидагилардан иборат:

- ўқувчилар, ўқитувчилар ва ота-оналар учун консултация ишларини олиб бориш;

- ўқувчиларни касб танлашга йўналтириш, ўзлаштириш сустигининг сабабини аниқлаш;

- характерида турлича акцентуацияси мавжуд ўқувчилар билан психокоррекцион ишларни ўтказиш;

- ўқитувчиларнинг психологик саводхонлигини ошириш фаолиятини уюштириш;

- тарбияси қийин болалар ва ўсмирларнинг психологик хусусиятларини ўрганиш;

- ўзлаштириши паст ўқувчилар билан ишлашга доир аниқ психологик-педагогик тавсиялар, кўрсатмалар ишлаб чиқиш;

- иқтидорли ўқувчиларни танлаш, улар билан индивидуал иш олиб бориш;

- ўқитиш ва тарбиялашнинг янги методларини муҳитга мослаштириш;
- ўқув масканида психологик муҳитни ўрганиш ва уни барқарорлаштириш;
- ўқитувчилар ва ўқувчилар жамоасида шахслараро муносабатларни тадқиқ этиш;
- ўқитувчининг шахсини ва педагогик қобилиятини текшириш;
- ўқувчилар шахсини ўрганишга оид ўқитувчилар фаолиятини мувофиқлаштириб туриш.

Педагог ходим билан ўқув маскани психологи ўртасидаги ўзаро ва ўқувчилараро муносабат касбий-ахлоқий асосга, психологик одоб, назокатга риоя қилиб, илтифотлилик, талабчанлик, сезгирлик, ростгуйлик, ўзаро ёрдам, диний эътиқодларни ҳурмат қилиш каби сифатлар мажмуаси намунасини намоёйиш этиш негизида кўрилмоғи даркор.

Психолог таълим-тарбия иш режасини тузишда, тарбиявий тадбирлар ишлаб чиқишда, ўқув дастури ва қўлланмасини яратишда фаол иштирок этиши, бош мақсад бўлаган шахснинг интеллектуал қобилияти, умуминсоний фазилати, билим олиш кўникмалари ва малакалари, мутахассислик хислатларини шаллантиришдек муқаддас ишга ўзининг улушини қўшишдан иборат шарафли вазифани бажаради.

### **ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР**

Халқ таълими тизимида психологик хизмат мақсади-шахснинг ҳар томонлама мукамал психологик тараққиётини таъминловчи оқилona, зарур шарт-шароитлар, омиллар, қулай вазият ва муҳит яратишдан иборат. Унинг мазмуни психопротектив, психологик маориф ва маърифат, психодиагностик, психокоррекцион, психологик консультациялардан ташкил топади. Ушбу вазифалар гуруҳ ёки жамоа шаклида, ўқув масканигача ёшдаги болалар, умумий ўрта таълим ўқувчилар, махсус ўқув юрти ва олий ўқув маскани талабалари, ўқитувчилар, ота-оналар билан амалга оширилади. Халқ таълими тизимидаги, ўқув масканидаги психологларнинг психологик хизмати муайян қоида ва мезонларга асосланиб, ўқитувчилар жамоасига ўқувчи талабалар тарбиясидаги ўзгаришларни бошқаришга, коррекцион ишларни амалга оширишга кўрсатмалар бериш ҳамда ўқитувчилар, ота-оналар ва ўқувчиларнинг психологик саводхонлигини кўтариш, психологик методлардан самарали фойдаланиб ҳар бир ўқувчи қобилиятларини текширишда ифодаланади.

### **REFERENCES**

1. Та'лим то'ғ'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – Т.: O'zbekiston, 2020.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O‘zbekiston, 2017.
3. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogik psixologiya». — T.: TDPU. 2009.
4. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibayeva R.N. Mustaqil fikrlash. — T.: Sharq. 2000.
5. Норлиев, Р. (2021). Ўзбекистон миллий тараққиётининг янги босқичида маънавий юксалишнинг ижтимоий-фалсафий асослари. Общество и инновации, 2(2), 99-104.
6. Ibragimovich, N. R. (2020). Social And Philosophical Fundamentals Of National Development. The American Journal of Applied sciences, 2(07), 45-49.
7. Norliev, R., & Ibragimova, O. (2021). Constitutional And Legal Basis Of The Institute Of Public Control In The Republic Of Uzbekistan (Theoretical Analysis). The American Journal of Political Science Law and Criminology, 3(04), 42-45.
8. Югай А.Х., Мираширова Н.А. “Общая психология” – Ташкент 2014.
9. Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.
10. Давлетшин М.Г. Замонавий мактаб ўқитувчисининг психологияси. Т., “Ўзбекистон”, 2001.
11. Дўстмухамедова Ш.А. Ўқитувчиларнинг ўқув фаолиятларини бошқариш психологияси. Тошкент, 2000.
12. Реан А.А., Коломинский Я.Л.. Социальная педагогическая психология. Спб. 2000.
13. Зимняя И.А., Педагогическая психология. М.: Логос. 2003, 384 с.
14. Sulaymonov, J. B. (2021). IBN XALDUNNING „MUQADDIMA “ASARIDA JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 732-737.
15. Sulaymonov, J. B. (2021). ABU ZAYD ABDURAHMON IBN XALDUNNING „MUQADDIMA “ASARIDA DAVLAT TUSHUNCHASIGA YONDASHUVLAR TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(6), 9-14.
16. Sulaymonov, J. B. (2022). ABDURAHMON IBN XALDUN AXLOQIY QARASHLARI VA SARVAPALLI RADHAKRISHNAN AXLOQIY QARASHLARINING QIYOSIY JIHATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 25), 363-373.

17. Сулаймонов, Ж. (2021). АБДУРАҲМОН ИБН ХАЛДУННИНГ ТАМАДДУН ТАРАҚҚИЁТИ ҲАҚИДАГИ ҚАРАШЛАРИДА ЖАМИЯТ ТАҲЛИЛИ. *Academic research in educational sciences*, 2(Special Issue 1), 451-455.
18. Сулаймонов, Ж. Б. (2022). ИБН ХАЛДУН ҚАРАШЛАРИДА “ТААССУБ” КАТЕГОРИЯСИНИНГ АҲАМИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 23), 864-871.
19. Сулаймонов, Ж. Б. (2022). АБДУРАҲМОН ИБН ХАЛДУН ИЖТИМОЙ ҚАРАШЛАРИ ВА ЛИ ЮЛГОК ИЖТИМОЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ ЖИҲАТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 1477-1483.
20. Сулаймонов, Ж. Б. (2022). АБДУРАҲМОН ИБН ХАЛДУН ИЖТИМОЙ ҚАРАШЛАРИ ВА КОНФУЦИЙ ИЖТИМОЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ ЖИҲАТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 26), 613-621.



**CONTENT / СОДЕРЖАНИЕ / MUNDARIJA**

<b>Ахмедова С.Д., Иззетова Э.М. // «Бабур – наме» Захир ад – дина Мухаммада Бабур – литературный памятник культуры народов востока (фонды рукописей Британии).....</b>	<b>5</b>
<b>Yo‘ldoshev M.X. // O‘rta asrlarda O‘rta Osiyoda bog‘dorchilikning rivojlanishi (temuriylar davri misolida).....</b>	<b>16</b>
<b>Sodirjonov M.M. // Inson kapitali rivojlanishida oliy ta‘limning ahamiyati.....</b>	<b>23</b>
<b>Tojjeva Z.Z., Akhmedov Sh.I. // The problems faced by the learners of arabic language as non-native speakers.....</b>	<b>30</b>
<b>Madg‘oziyev R.X. // Kichik biznesni rivojlantirishda mikromoliyalashtirishning roli.....</b>	<b>34</b>
<b>Zokirov A.I., Kamolova M.M. // Classification of optical radiation receivers for the development of optoelectronic information-measuring systems.....</b>	<b>45</b>
<b>Raximova Y.D. // Ogoh Sirri Levendning Navoiy biografiyasiga oid izlanishlari.....</b>	<b>48</b>
<b>Abdullayeva N.A., Mirzayeva D.I. // Abdulla Qodiriy asarlarida qo‘llagan maqollar va ularning tahlili.....</b>	<b>53</b>
<b>Patidinova F.Q. // The english effect.....</b>	<b>61</b>
<b>Komilova N.Sh. // Dealing with clashes of culture.....</b>	<b>68</b>
<b>Rustamov I. // Doira cholg‘u ijrochiligida ijroviy usullarning ahamiyatiga doir</b>	<b>74</b>
<b>Наркулова И.Р. // Актантная структура глаголов восприятия в современном русском языке.....</b>	<b>80</b>
<b>Mamatraimov K.M. // O‘zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi: taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik.....</b>	<b>87</b>
<b>Shermamatova S., Odiljonova M. // O‘zbek va ingliz adabiyotida metaforalarning foydalanish tahlili.....</b>	<b>91</b>
<b>Shermamatova S., Umirjonova Sh. // Ingliz va O‘zbek tilida sinonim so‘zlarning qo‘llanilishi.....</b>	<b>98</b>
<b>Abdullayeva M.G‘. // Mavlid marosimining paydo bo‘lishi va o‘tkazilish tarixi.....</b>	<b>105</b>
<b>Ержанова С.М. // Маҳалла раислари сайловларини ўтказишнинг ҳуқуқий асослари ва ўзига хос хусусиятлари.....</b>	<b>110</b>
<b>O‘ljayeva Sh.M., Tosheva G.Sh. // Amir Temur saltanatida sog‘lom avlod tarbiyasi masalalari.....</b>	<b>114</b>

<b>Курдошев Б.Ф.</b> // <i>Кичик мактаб ўқувчиларининг жисмоний тайёргарлиги ва жисмоний сифатларини ривожлантириши масаласи</i> .....	<b>121</b>
<b>Хазраткулова С., Ишниязова Ш.А.</b> // <i>Композиционные особенности рассказов А.П. Чехова</i> .....	<b>126</b>
<b>Achilov O.R., Tadjidinova U.U.</b> // <i>Tarjimonlik va tarjima madaniyati muammolari</i> .....	<b>131</b>
<b>Sayfiyev A.O'.</b> // <i>Xalqaro investitsiya huquqi va uning asosiy manbalari</i> .....	<b>136</b>
<b>Abduolimova M., Isaqova O.</b> // <i>Turli tizimli tillar (O'zbek va ingliz tillari)da metaforalarning asosiy turlari va o'rganilish yo'nalishlari</i> .....	<b>151</b>
<b>Пирназаров А.Б.</b> // <i>Ижро ҳокимияти органларининг давлат хизматларини кўрсатиши билан боғлиқ ваколатларининг ҳуқуқий асослари</i> .....	<b>157</b>
<b>Djalalova N.</b> // <i>Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kreativlik jihatlari</i> .....	<b>162</b>
<b>Юлдашева Н.А., Кошназарова М.А.</b> // <i>Аждодлар йўли - маънавий камолот бешиги</i> .....	<b>168</b>
<b>Исламова С.Б., Лиходзиевский А.С.</b> // <i>Жанровое своеобразие антиутопии в романе Т.Толстой «Кысь»</i> .....	<b>177</b>
<b>Маматкулов Т., Усаров З.И.</b> // <i>Замонавий инновацион усуллар қўлланган ҳолда “Адир” арна навининг оригинал уруғларини жорий қилиши натижалари</i> .....	<b>180</b>
<b>Sulaymanova D.B.</b> // <i>“Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o'qitishda elektron resurslar va mediateknologiyalarning zaruriyati</i> .....	<b>195</b>
<b>Заиров Ш.Ш., Уринов Ш.Р., Номдоров Р.У., Боймуродов Н.А.</b> // <i>Баланд погоналар қиялигини ботиқ профилда шакллантириши орқали карьер бортларининг турғунлигини ошириши усули</i> .....	<b>201</b>
<b>Yaxshiyev Sh.B.</b> // <i>“Moddalarning toifalanishi. Murakkab moddalarning toifalanishi. Metallar va metallmaslar” mavzusini o'qitish</i> .....	<b>206</b>
<b>Раҳимжонов А.</b> // <i>“Кўчмас мулкка бўлган ҳуқуқларни давлат рўйхатидан ўтказиши тўғрисида”ги қонуннинг мазмун моҳияти</i> .....	<b>211</b>
<b>Исламова С.Б., Лиходзиевский А.С.</b> // <i>Жанр литературной сказки и фантастики в современной литературы</i> .....	<b>220</b>
<b>Yuldashev B.N., Saidg'aniev S.O.</b> // <i>Atletik gimnastikachilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari</i> .....	
<b>Lutfullayeva A.Z.</b> // <i>Politeness: socio-cultural and communicative- strategic features of the norm</i> .....	<b>231</b>
<b>Shermamatova S., Abdullayeva Z.</b> // <i>Teaching english through the direct method</i> .....	<b>238</b>

<b>Kulmatova K., O'rinboeva N.</b> // <i>Ingliz va O'zbek xalq ertaklarining o'xshash va farqli jihatlari</i> .....	<b>243</b>
<b>Ahmadkulova H.T.</b> // <i>The role of dictation on elementary grades</i> .....	<b>248</b>
<b>Shermamatova S., Malikova G.</b> // <i>Teaching english to primary school students through tpr method</i> .....	<b>252</b>
<b>Sobirov Sh.M.</b> // <i>Antonio Machadoning hayoti va ijodiga bir nazar</i> .....	<b>258</b>
<b>Shermamatova S., Nurmuxammedova D.</b> // <i>Ingliz va O'zbek tillarida sinonim so'zlarining qo'llanilishi</i> .....	<b>262</b>
<b>Abduolimova M., Ibrokhimova M.</b> // <i>Metaphors in literature and daily speech</i> .....	<b>267</b>
<b>Mansurjonova G.M.</b> // <i>Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor" romanida antiutopik g'oyalar tasviri</i> .....	<b>272</b>
<b>Тешабаева Д.М., Қодирова Д.Х.</b> // <i>ОАВ тили миллий тилнинг барча функционал турлари сифатида</i> .....	<b>276</b>
<b>Abduolimova M., Kosimov A.</b> // <i>The importance of conceptual metaphors and modern problems in cognitive linguistics</i> .....	<b>282</b>
<b>Achilov O.R., Inog'omjonova R.R.</b> // <i>The role of lexical transformation in the translation process</i> .....	<b>288</b>
<b>Achilov O.R., Khudoyberganova D.</b> // <i>Stylistic changes in Joanna Kathleen Rowling's Harry Potter and the Philosopher's stone</i> .....	<b>295</b>
<b>Балтабаева М.А.</b> // <i>Ошибки при управлении персоналом в малых организациях</i> .....	<b>300</b>
<b>Turanboyev B., Abdullayev A.</b> // <i>Davlat, korxonona va tashkilotlar budjetini to'g'ri taqsimlash tendensiyalari</i> .....	<b>304</b>
<b>Shermamatova S., Yusupova S.</b> // <i>History of languages between english and uzbek countries</i> .....	<b>310</b>
<b>Булычёва М.Ф.</b> // <i>Компетентностная парадигма как основа формирования новой дидактической модели образования</i> .....	<b>318</b>
<b>Илесалиева Л.М., Нуркелдиева Д.А.</b> // <i>Теоретические основы развития связной диалогической речи у детей младшего школьного возраста</i> .....	<b>326</b>
<b>Niyozova M.N.</b> // <i>Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik diagnostikani amalga oshirishda tarbiyachining roli</i> .....	<b>331</b>
<b>Axmedova U.Y.</b> // <i>O'quvchilarning faollik darajasiga ko'ra farqlanuvchi metodlar, o'quvchilarning mustaqil ishlari</i> .....	<b>336</b>
<b>Tursunova D.</b> // <i>"O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi ayrim folklorizmlarning leksik-tematik guruhlanishi</i> .....	<b>344</b>

<b>Ergasheva G.N.</b> // <i>Mnemotechnics: exercises for memory and concentration for preschoolers</i> .....	<b>350</b>
<b>Namozova D.B.</b> // <i>Development of phonetic competence in conditions of artificial multilingualism</i> .....	<b>356</b>
<b>Rakhimova M., Mamadjanova N.A.</b> // <i>The methods of developing pupils writing skills in english classes</i> .....	<b>361</b>
<b>Burkhonova G.O., Nozima M.A.</b> // <i>How to use speaking activities effectively in english classes at schools</i> .....	<b>366</b>
<b>Abidov K.Z., Aminova M.B.</b> // <i>Automated control system of the technological process of gypsum production in rotary kilns for industry</i> .....	<b>376</b>
<b>Usmonov A.U., Kobilov Kh., Ogomurodov U.H.</b> // <i>Management of butter production process based on automation and information and communication systems</i> .....	<b>382</b>
<b>Djabbarov O.D., Jonqobilov J.T.</b> // <i>O'rta qiymatlarni o'tkazgichlarni ketma-ket va parallel ulash masalalarda qo'llanilishi</i> .....	<b>388</b>
<b>Онаркулов К.Э., Омонов Б.У.</b> // <i>Кинетика электропроводности поликристаллических пленок</i> .....	<b>394</b>
<b>Muminov I.A.</b> // <i>Qattiq jismlarda kirishma atomlar diffuziyasi</i> .....	<b>403</b>
<b>Raxmonjonov X., Shuxratov Sh.</b> // <i>Zamonaviy elektr jihozlarini "Scratch" dasturi yordamida tuzilgan darslar bilan o'qitish</i> .....	<b>408</b>
<b>Abidov K.Z., Sharipov Sh.Sh.</b> // <i>Configuration and study of centrifugal separator equipment verification circuit</i> .....	<b>416</b>
<b>Иксар Е.В., Колесников И.К.</b> // <i>Повышение эффективности энергетических показателей работы асинхронного двигателя за счет уменьшения потерь в воздушном зазоре</i> .....	<b>423</b>
<b>Khidirova Y.Kh., Ziyodullaev N.K.</b> // <i>Substances increasing thermal stability of the polymer</i> .....	<b>429</b>
<b>Карабаева Р.Б.</b> // <i>Определение содержания химических элементов в семях carthamus tinctorius l</i> .....	<b>434</b>
<b>Ibragimov U.M., Qobilov H.X., Ismoilov R.R.</b> // <i>Sabzavotlarni saralash jarayonida transportyor lentaning sabzavot og'irligiga bardoshliligini solidworks CAD/CAM/CAE tizimi simulyatsiyasi orqali tekshirish</i> .....	<b>438</b>
<b>Atakulov L., Haydarov Sh., Gaffarov A.</b> // <i>The tension forces acting on the belt conveyor rollers</i> .....	<b>446</b>
<b>Qurbanova Sh.R., Karimova O.R., Nurullayeva N.B., Niyazmetov A.R., Vinogradova V.I.</b> // <i>Xinolin asosli ikkilamchi aminlarni va amidlarni sintez qilish</i> .....	<b>452</b>



---

<b>Rasulov R.Y., Karimova G.A., Rahmatov I. // Linear-circular dichroism of the photon drag effect in semiconductor superstructures .....</b>	<b>458</b>
<b>Jalolov I.J., Abduraxmonova S.B. // Trifolium pretense (O'tloq se bargasi) o'simligining biologik va kimyoviy tarkibi.....</b>	<b>464</b>
<b>Кадыров В.М., Файзуллаев Н.Б. // О методике определения ценности дынь и другой сельскохозяйственной продукции .....</b>	<b>467</b>
<b>Jo'rayev X.F., Qobilov H.X., Jo'rayev M.T. // Ko'mir yoqilg'isi tutunini tozalsh jarayonidagi qurilma detallarini (CAD/CAM/CAE) tizimida yaratish va simulyatsiyalash.....</b>	<b>474</b>
<b>Tursunov M.M., Tursunov M.M., Husenova N.G'. // Ingliz madaniyatini ifodalashda ishlatiladigan frazeologizmlar tahlili.....</b>	<b>482</b>
<b>Shermamatova S., Mamadaliyeva Y. // O'zbek va Ingliz maqollarining o'ziga xos xususiyatlari va o'zbek tilidagi ekvivalentlari.....</b>	<b>488</b>
<b>Tojiyeva Z.Z. // The problems faced by the learners of arabic language as non-native speakers.....</b>	<b>501</b>
<b>Shermamatova S., Karimova D. // XX asr O'zbek yozuvchilari ijodida ona obrazi.....</b>	<b>506</b>
<b>Qurbonova M.J. // Xurshid Davron she'riyatida takrorning poetik individual vazifasi.....</b>	<b>510</b>
<b>Ешимбетов О. // Таълим бошқа тилда олиб бориладиган мактаблар бошланғич синфларида ўқувчилар нутқини ривожлантириши омиллари.....</b>	<b>517</b>
<b>Хайруллайева I.F. // Hindistonda xotin-qizlar ta'limi xususiyatlari.....</b>	<b>522</b>
<b>Cho'ponqulova S.B., Umirzoqova G.O., Ubaydullayeva Sh.H. // Maktabgacha ta'lim tashkilotining o'quv jarayonida bolalar faoliyatini tashkil etish.....</b>	<b>528</b>
<b>Nasimova M.K., Tashmukhammedova G.Z. // Causes of anxiety among EFL students.....</b>	<b>532</b>
<b>Юсупов И., Хаитбоев А., Пайгамов А. // Мулкдор суднинг қарорисиз ўз мол-мулкидан маҳрум этилиши мумкин эмас.....</b>	<b>538</b>
<b>Найитова Н.М. // Ekstremizm, uning jamiyat va davlat qurilishiga destruktiv ta'sirlari.....</b>	<b>543</b>
<b>Ибрагимова М.И. // Виртуальный образовательный туризм как новый вид туризма.....</b>	<b>550</b>
<b>Musayeva J.K. // O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda aktivlarni boshqarishning o'rni va roli.....</b>	<b>554</b>

---



---

<b>Курбанова У.</b> // Развитие логического мышления при обучении математике в начальных классах.....	<b>565</b>
<b>Маматисаков Х.М., Акбаров О.А.</b> // Влияние религии на формирование творческой индивидуальности Н.В. Гоголя.....	<b>570</b>
<b>Джалилова Р.</b> // Дастгоҳли академик рангасвир ва каламтасвир портрет композицияси.....	<b>575</b>
<b>Djalilova R.K.</b> // O'zbekiston tasviriy san'at yangi O'zbekiston tarixida xizmat kursatayotgan rassomlar ijodi.....	<b>583</b>
<b>Нуралиев У.Р.</b> // Халифалар тарихига бағишланган асарларнинг ислом тарихидаги тугган ўрни.....	<b>591</b>
<b>Ходжаева М.Л.</b> // Бўлажак мусиқа ўқитувчиларини тайёрлашда анъанавий қўшиқчилик жанрини шакллантириши йўллари.....	<b>601</b>
<b>Ubaydullayev A.A.</b> // O'zbek tilining G'allaorol tumani shevasiga oid ayrim so'zlar tahlili.....	<b>605</b>
<b>Хўжаев С.</b> // Исажон Султоннинг “Билга ҳоқон” романида учлик ва унинг бадиий-эстетик функцияси.....	<b>613</b>
<b>Тохирова И.С.</b> // Александр Аркадьевич Файнберг – Ўзбекистон шеърини осмонининг ёрқин юлдузи.....	<b>619</b>
<b>Komilov J.K., Dehkonov B.A., Ortikov U.Kh.</b> // The function of metalanguage in the graphic communication.....	<b>622</b>
<b>Elmurodova S.S.</b> // Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishning samarali usullari.....	<b>627</b>
<b>G'aniyeva L.</b> // O'zbek tilidagi davlat boshqaruvi terminlarining taraqqiyotida tarixiy manbalarning ahamiyati.....	<b>632</b>
<b>Davronov A.B.</b> // The concept of share owned by participants in limited liability companies.....	<b>644</b>
<b>Джалилова К.А.</b> // Перспективы охраны произведений, созданных искусственным интеллектом посредством режима “Sui generis”.....	<b>651</b>
<b>Nuridinov Z.Sh.</b> // The image of the family in R. Bradbury's novel “451 degrees by Farangate”.....	<b>662</b>
<b>Sharaxmetova U.Sh.</b> // O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va chet el fuqarolari o'rtasidagi nikohni huquqiy tartibga solish masalalari.....	<b>666</b>
<b>Абдуллаева Н.А.</b> // Городская проза 60-90- годов XX века в творчестве Юрия Валентиновича Трифонова.....	<b>676</b>
<b>Kobilov Kh., Sharipova N.R.</b> // Research of grinding methods in the formation of spreadable dispersed systems.....	<b>679</b>

---

<b>Abidov K.Z., Qobilov H.X., Isroilov A.A. // Sellyuloza-qog'oz sanoatida qog'oz polotnosini quritish texnologik jarayonidagi uskunaning detalini solidworks (CAD/ CAM/ CAE) tizimida yaratish.....</b>	<b>686</b>
<b>Болтаева М.М. // Современные аспекты прогнозирования и ранней диагностики фетальной гипоксии для снижения перинатальной заболеваемости гипоксической- ишемического генеза.....</b>	<b>693</b>
<b>Erkinova Z. // Importance of biometry for genetic analysis.....</b>	<b>699</b>
<b>Safarov M.A., Xodjamqulova S.S., Botirov S.A., Shomurodov Sh.Ch. // Pomidorda uchraydigan kasalliklar turlari va kasallanish darajasini aniqlash usullari.....</b>	<b>704</b>
<b>Pardayev Sh., Toshov H.M., Shamsiyev N.A. Egamova G // Buxoro shahar oqova suvlarni tozalash inshootining ish samaradorligi.....</b>	<b>709</b>
<b>Мирзоева М.А., Шокиров С.Ш. // Анализи по правильному формированию научно-исследовательской деятельности студентов.....</b>	<b>721</b>
<b>Abdusattarova Z.A., Pulatova N.B., Zulpanova R.T. // The formation of functional literacy in elementary education on the basis of the fairy-tale genre is a factor in teaching creative thinking in quality.....</b>	<b>729</b>
<b>Tillaeva A.F., Eshchanov X.O., Kuryazov R.Sh., Taxirov Y.R., Dushamov D.A. 6-brom-2,4-diokso-1,2,3,4-tetragidroxinozolin-8-sulfonilxlorid sintezi va uning kimyoviy o'zgarishlari.....</b>	<b>735</b>
<b>A'zamov A.A. // Mustaqillik davrida O'zbekistonning janubiy hududlarida ekologik holatni barqarorlashtirish masalalari.....</b>	<b>745</b>
<b>Xolmirzayev A.H. // Surxondaryoda Sovet hokimiyatining xalq ta'limi muassasalariga nisbatan yuritgan siyosati.....</b>	<b>750</b>
<b>Омонов Б.Н. // Глобализация экологических проблем и ее влияние на судьбы человечества.....</b>	<b>755</b>
<b>O'roqova Sh.L. // Hadisi shariflarda "Vatan" konsepti sematikasi.....</b>	<b>764</b>
<b>Azimova G.N. // "Alpomish" dostonini o'qitishda talabalarni faollashtirish yo'llari.....</b>	<b>769</b>
<b>Abrorxonova K.A., Bo'riyeva Sh.I. // Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mediamadaniyatini shakllantirishning psixologik imkoniyatlari.....</b>	<b>778</b>
<b>Gataulina G.A. // Importance of education literature in foreign language teaching.....</b>	<b>783</b>
<b>Shermatova X.M., Maxammadjonov J. // Fan va ta'lim rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari.....</b>	<b>788</b>
<b>Buzrukova D.M. // Tarbiyachi va ota-onalarning o'zaro hurmatga asoslangan muloqotining kalit faktorlari.....</b>	<b>793</b>

<b>Ibodulloyev N.Sh.</b> // <i>Technology of developing students' creative qualities based on forms of extracurricular education.....</i>	<b>798</b>
<b>Dehqonova Z.M.</b> // <i>Bulutli texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....</i>	<b>804</b>
<b>Tairov Sh.M.</b> // <i>Fan va ta'limda integratsiya jarayonlarining o'zaro bog'liqligi.....</i>	<b>813</b>
<b>Ergashev E.A.</b> // <i>The structure of the protein molecule and the forces generated in it.....</i>	<b>816</b>
<b>Сейдалиева Л.Т., Хасанова Н.Р.</b> // <i>Особенности питания в различных видах единоборств.....</i>	<b>820</b>
<b>Шахобидинов В.Э.</b> // <i>Действия при организации работ по ликвидации последствий чрезвычайных ситуаций на транспорте.....</i>	<b>825</b>
<b>Norboboyev B.J., Isroilov A.F.</b> // <i>Yuridik texnikumlarda huquqshunos mutaxassisligi bo'yicha kadrlarni tayyorlashda kredit-modul tizimini qo'llashning o'ziga xos jihatlari.....</i>	<b>836</b>
<b>Shakirov F.Sh.</b> // <i>Voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jinoiy jazo turlari va ularning o'ziga xos jihatlari.....</i>	<b>845</b>
<b>Норбобоев Б.Ж.</b> // <i>Конституциявий ислохотларнинг мазмун-моҳияти.....</i>	<b>852</b>
<b>Xaitov B.T.</b> // <i>Najmiddin Kubro – mo'g'ullarga qarshi kurashgan xalq qahramoni.....</i>	<b>866</b>
<b>Mamatkulova N.</b> // <i>O'zbek xalq maqollarida "Ma'naviyat" umumiy ma'noli birliklarning mavzuviy guruhlariga bo'linishi.....</i>	<b>875</b>
<b>Dehqonova M.Sh.</b> // <i>Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini matematik savodxonligini oshirish va matematikani uyg'unlashtirishida an'anaviy va innovatsion usullardan foydalanish.....</i>	<b>879</b>
<b>Umarov S.S.</b> // <i>Korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida risklarni boshqarish xususiyatlari.....</i>	<b>887</b>
<b>Рахимов З., Насимов Ж.С.</b> // <i>Ёшлар сленги ва унинг ўзига хос хусусиятлари.....</i>	<b>896</b>
<b>Ashurov O.F.</b> // <i>Yangi O'zbekistonda gender tengligini ta'minlanishiga qaratilgan e'tibor.....</i>	<b>901</b>
<b>Ашуров О.Ф.</b> // <i>Олий таълим соҳасида олиб бораётган давлат сиёсатининг аҳамияти.....</i>	<b>905</b>
<b>Rahmatjonov Sh.Sh.</b> // <i>Zamonaviy ta'lim tizimida o'zbek tilini o'qitishning texnologiya va innovatsiyalari.....</i>	<b>912</b>
<b>Karimova B.X.</b> // <i>Ta'lim muassasasiga rahbarlik qilishning boshqaruv madaniyati. Pedagogik menejmentda kreativlik va kasbiy kompetensiyani shakllantirish.....</i>	<b>918</b>

---

<b>Mamaraimova Z.Sh.</b> // <i>Yuqori sinf o'quvchilarini oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari va omillari</i> .....	<b>925</b>
<b>Onarkulov K., Kholdorov M.</b> // <i>Study of processes of fruit and vegetable drying in infrared light drying device</i> .....	<b>932</b>
<b>Xodiyeva M.Sh.</b> // <i>Yapon va O'zbek tillaridagi o'timli va o'timsiz fe'llarning tahlili</i> .....	<b>938</b>
<b>Shermamatova S., Abdurakhmonova Kh.</b> // <i>English idioms and their meanings</i> .....	<b>946</b>
<b>Shermamatova S., Mamasiddiqova M.</b> // <i>O'zbek va Ingliz xalq og'zaki ijodidagi umumiy jihatlar</i> .....	<b>953</b>
<b>Shermamatova S., Sobirova N., Nazirova Z.</b> // <i>O'zbek tilida ma'no ko'chish usullari: metafora, metanomiya, sinekdoxa, vazifadoshlik</i> .....	<b>960</b>
<b>Saydullayeva D.I.</b> // <i>"Nasoyim ul-Muhabbat" da Ahmad Yassaviy zikri</i> .....	<b>965</b>
<b>Shermamatova S., Aliyeva M.</b> // <i>Yangi so'z yodlashning samarali usullari</i> .....	<b>970</b>
<b>Yagyayeva E., Rayimjonova Sh.V.</b> // <i>Uilyam Sidney porterning badiiy-stilistik usuli va uslubi</i> .....	<b>977</b>
<b>Hamroyeva O.F.</b> // <i>Oliy ta'lim muassasasi talabalarini kasbiy-komunikativ kompetentligini rivojlantirish</i> .....	<b>985</b>
<b>Sharipova O.A.</b> // <i>O'smirlik davri</i> .....	<b>992</b>
<b>Abdurahmonova G.F.</b> // <i>O'spirinlik davridagi psixologik o'zgarishlar</i> .....	<b>1000</b>
<b>Hamroyeva Z.H.</b> // <i>Ijtimoiylashuv muammosi sifatida bola psixik rivojlanishining ijtimoiy o'rganish nazariyasi</i> .....	<b>1009</b>
<b>Xomidova G.R.</b> // <i>Abdulla Avloniy pedagogik faoliyatida ma'rifiy masalalarning aks etishi</i> .....	<b>1020</b>
<b>Алиёров Ф.Ж.</b> // <i>Таълим тизимида психологик хизмат</i> .....	<b>1029</b>

---

“Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences”.  
Ilmiy jurnal. Uzbekistan: www.oriens.uz. 2023. – 1046 b.

**ISSN 2181-1784**

Mazkur to'plamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6-noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli Farmonida ko'zda tutilgan vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida "Oriental Renaissance" MChJ tomonidan ta'asis etilgan "ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES (oriens.uz)" ilmiy jurnalining 3-bo'lim 4-soni o'rin egallagan.

**Mas'ul muharrir:**

**falsafa fanlari nomzodi, dotsent M. Qodirov**

**Ilmiy kotib:**

J.B. Sulaymonov

SH.N. Pulatov

I.R. Ikramova

**Texnik muharrir:**

Sh.S.Jurayev

